OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMOLAR, YECHIM VA ISTIQBOLLAR"

mavzusidagi V an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

O'zbek tilining ta'limiy korpusi

Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi

O'zbek tilining morfologik analizatori

2025-yil 24-aprel

UO‘K: 004.8+81’32
KBK: 81.1

Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 24.04.2025. – 840 b.

Mazkur to‘plamdan kompyuter lingvistikasi sohasiga doir tadqiqot natijalari, filologik dasturiy ta’minotlar, ularning imkoniyatlari va afzalliklari, tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalar, semantik tizim bazalari, til va adabiy korpuslar, lingvistik ta’minot manbalari, mashina tarjimasida lingvistik muammolar, lingvodidaktik dasturlar va platformalar, terminologik lug‘atlarni yaratish masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan kompyuter lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Sirojiddinov Sh.S. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:

Normamatov S.E. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, professor, f.f.d.

Eşref Adalı. Istanbul texnika universiteti, professor, t.f.d.

TASHKILIY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Normuradova Nozliya Zarilovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Eşref Adalı (Turkiya, Istanbul texnika universiteti)

Elov Botir Boltayevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xusainova Zilola Yuldashevna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY’ATI

Eşref Adalı

Elov Botir Boltayevich

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna

Xusainova Zilola Yuldashevna

Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o‘g‘li

Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadrli mehmonlar!

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, 2020 yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlari bu vazifalarni amalga oshirishni yanada jadallashtirdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish bo‘yicha bosqichma-bosqich tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun universitetimizda tashkil etilgan “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar” mavzusidagi V xalqaro konferensiyasi ham davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish kabi vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan.

Konferensiyaning barcha ishtirokchilarini tabriklayman, konferensiya ishiga omad tilayman!

Shuhrat Samaraddinovich Sirojiddinov,

ToshDO‘TAU rektori, akademik

KOMPYUTER LINGVISTIKASI TADRIJI ZARURATI

Dunyo kompyuter lingvistikasida oxirgi yillarda milliy korpuslar, avtomatik tarjima platformalari, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish harakati avj oldi. Shu jarayonda korpusni tuzishning dasturiy va lingvistik tamoyillarini asoslash, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashina tarjimasi, matnga qayta ishlov berish tizimlari, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter leksikografiyasi, semantik tizimlar va lingvistik ontologiyalar ustida ishlash va korpus grammatikalarini yaratishga keng imkon yaratadi.

Mamlakatimizda global ilmiy-texnik islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda kompyuter lingvistikasi doirasida avtomatik tarjima, o‘zbek tilini tushunish va qayta ishlash, uni boshqa tillar bilan chog‘ishtirishda sun'iy intellektning rolini belgilashga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Shu ma'noda “...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikasiyalariga faol integrasiyalashuvini ta'minlash” kabi ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilinayotgan til faktlarini tizimlashtirish, akademik maqsadlarda milliy va xorijiy til ko‘nikmalarini egallash, tilni real tasvirlash, shuningdek, amaliy tilshunoslikda til qo‘llanishi etalonlarini optimallashtirishga keng yo‘l ochadi.

Kompyuter lingvistikasi istiqbolli ilmiy yo‘nalish ekanligini inobatga olgan holda o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, lingvistik modellarni tuzish singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek tilining formal grammatikasini yaratish, korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashina tarjimasi, matnga qayta ishlov berish tizimlari, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter leksikografiyasi, semantik tizimlar va lingvistik ontologiyalar, kompyuter lingvistikasida terminologiya va terminografiya, kompyuter lingvistikasida sun'iy intellekt kabi sohalarni rivojlantirish nihoyatda muhim.

Bugun universitetimizda tashkil etilgan “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, echim va istiqbollar” mavzusidagi V xalqaro konferensiya mazkur masalalarni mutaxassislar va yosh tadqiqotchilar bilan muhokama qilish, bu sohalarda qilingan ishlar bilan tanishishga imkon beradi.

Nodir Imomqo‘ziyevich Jo‘raqo‘ziyev,
Davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent

O‘ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISH YO‘LIDA

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O‘zbek tilining nufuzini oshirish borasida mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar birin-ketin o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 6084-sonli farmonining 6-bandida Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'lim muassasalarining filologiya ta'lim yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy filologiya” yo‘nalishlarini tashkil qilish, o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish vazifalari qo‘yilgan edi. Buning amaliy natijasi sifatida jamg‘arma tomonidan o‘zbek tili milliy korpusini yaratish bo‘yicha amaliy loyihalar e’lon qilindi.

Bundan tashqari Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari tomonidan keng miqyosda milliy til korpusini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. “O‘zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish”, “Turkiy tillarning lingvodidaktik platformasi”, “O‘zbek tilining morfologik analizatori” amaliy loyihasi doirasida o‘zbek tilining korpusi, o‘zbek tilining morfologik analizatori, turkiy tillarni o‘rgatishga mo‘ljallangan platforma ishlab chiqildi. Olimlarning bunday tashabbuskorligini biz, albatta, qo‘llab-quvvatlaymiz! Korpus katta hajmli lug‘atlarni tuzish uchun manba vazifasini o‘taydi. Vaqt o‘tishi bilan korpus turli lingvistik yo‘nalishlar uchun ahamiyatli bo‘lishi bilan kuchli informasion resursga aylandi. Korpus asosida kompyuter yordamida lug‘atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yo‘l bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (nashrgacha) tilni aks ettirib turadi, lug‘at maqolasi “eskirish”ga ulgurmaydi. Tilning zamonaviy holatini aks ettiruvchi korpus turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning mualliflik korpuslari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Korpusning so‘zshunoslik sohasidagi ahamiyati shundaki, so‘zning qo‘llanish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichida statistik tadqiq metodi kompyuter tarjimasi, nutqni sintezlash va tanish, aniqlash, orfografik tekshiruv kabi lingvistik amallarni bajarishda qo‘l kela boshladi. Yaqin orada til o‘rganayotgan o‘quvchi yoki uning biror jihatini tadqiq etayotgan kishining bugungi kunda lug‘atga bo‘lgan ehtiyoji korpusga ko‘chishi shubhasiz.

Konferensiya ishiga omad tilayman!

Nozliya Zarilovna Normurodova
ToshDO‘TAU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
filologiya fanlari doktori, dotsent

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

DOĞAL DİL İŞLEMEDEKİ GELİŞMELER

Eşref Adalı,
Prof. Dr.
İstanbul Teknik Üniversitesi
Bilgisayar ve Bilişim Fakültesi
Türkiye
adali@itu.edu.tr

1. Doğal Dil İşlemenin Kısa tarihi

Konuştuğumuz dilin (doğal dil) bilgisayar ile işlenmesine Doğal Dil İşleme diyoruz. DDİ çalışmalarının ne zaman başladığı konusu, 1954 yılına kadar gitmektedir. O yıllarda, Rusça bilimsel yayınların İngilizceye bilgisayar ile çevrilmesi amaçlanmıştır. Bu amaçla ALPAC (Automatic Language Processing Advisory Committe) kurulmuştur. Dönemin bilgisayarlarının yetenekleri bu çalışmayı sürdürmeye yetmemiştir. Bu dönemin önemli bir çalışması IBM Georgetown Demonstration (1954) ve aynı yıl ilk dergi (Mechanical Translation- daha sonra Computational Linguistics) sayılır.

DDİ nedir sorusunun yanıtı şöyle verilir:

- İnsan dilini anlamaya, yorumlamaya ve işlemeye yardımcı olan bir Yapay Zeka dalı.
- Doğal dili işlemek ve anlamak için kullanılan araçlar, teknikle, yöntemler ve algoritmalar hakkında her şey.
- Bilgisayarların insan dilini anlamasını ve işlemesini sağlamaya odaklanan Yapay Zeka alt alanı.

Şekil-1: DDİ - Bilgisayar bilimi - Yapay zeka - Doğal dil ilişkisi

Şekil-1’de DDİ ile bilgisayar bilimi, yapay zeka ve doğal dil arasındaki ilişki gösterilmiştir.

2. DDİ’nin Kısa Tarihi

DDİ’nin kısa tarihi aşağıda verilmiştir [1]:

1950'ler

- Erken Makine Çeviri çalışmaları
- Dil bilgisi üzerinde çalışmalar

1960-80'ler

- **Uygulamalar**

- BEYZBOL: Beyzbol oyunlarıyla ilgili bilgileri veri tabanında aramak üzere hazırlanmıştır.
- ELIZA: Çok basit soru-yanıt uygulaması
- SHREDLU: Belli sayıda harf içeren sözcük üretme uygulaması
- Mesaj anlama: Gazetelerde yayımlanan yazılardan terörizmle ilgili olanları bulmak ile ilgili bir çalışma
- Makine çevirisi çalışmaları.

- **Yöntemler**

- ATN (artırılmış geçiş ağları): Bağlamdan bağımsız dilbilgisi yöntemleri ile ilgili çalışmalar.
- Dilbilgisi çalışmaları (etken, nesne, vb.)
- DCG-Belirli Tümce Dilbilgisi
- Bağımlılık dilbilgisi: Öğeler arası bağımlılık araştırması ile ilgili çalışmalar.

1990 ve sonrası

- İstatistiksel yöntemler
- Konuşma tanıma
- Makine Çevirisi Sistemleri
- Soru Yanıtlama
- Büyük Dil Modelleri (BDM-LLMs)

Bazı Güncel DDİ Uygulamaları

Günümüzde çalışılan konulardan bazıları şunlardır:

- Soru Yanıtlama
- Makine Çevirisi
- Duygu Analizi
- Özet Çıkarma
- Metni anlama
- Doğal dil benzeri tümce oluşturma

3. Bir Tümce veya Metni Anlama

Bir tümce veya metni anlama ve sorunları aşağıda kısa açıklanmıştır.

Tümce veya Metni Anlama

- Metin ya da tümceyi (girdi) yararlı gösterime eşleme.
- Dilin farklı yönlerini analiz etme.

Doğal Dil Üretimi

- Doğal dile yakın biçimde, anlamlı ifadeler ve tümceler üretme süreci: Şu konuları içerir:
  - Metni Düzenleme (bilgi kaynağından ilgili içeriği getirme)
  - Tümce Düzenleme (gerekli sözcükleri seçme, anlamlı ifadeler oluşturma, tümcenin tonunu ayarlama)
  - Metni Gerçekleştirme (tümce düzenini tümce yapısına eşleme)

Anlam Belirsizliği

Belirsizlik

- **Sözcesel/Biçim Bilimsel** (Lexical/Morphological): değişim (Eylem, Ad - V,N), eğitim (Eylem, Ad - V,N), çift (Önad, Belirteç -ADJ,ADV)…
- **Söz Dizimsel**: İngilizcede sorun “Helicopter powered by human flies”, Türkçede sorun yok “İnsan yönetiminde uçan helikopter”
- **Anlamsal**: İngilizcede sorun “He saw a man on the hill with a telescope”, Türkçede sorun yok “ Tepedeki bir adamı teleskopla gördü”
- **Söylem**: anafor ,her dilde sorun. Ekmek sözcüğünün Türkçe çok farklı kullanımı var

Çözüm Yöntemleri

- Daha önceki adımda bulunmuş çözümü kullanmak.
- İstatistiksel yöntem kullanmak
- Dikkat vektörü kullanmak
- Sözcük kesesi kullanmak

4. DDİ’nin Temel Ögeleri

DDİ çalışmalarının temel taşlarını oluşturan ögeler Şekil-2’de sıradüzensel biçimde gösterilmiştir [3].

Şekil 2: DDİ'nin temel ögeleri

Şekil-3’te bir DDİ sürecinde işlemlerin izlediği akış (İş Akışı) gösterilmiştir.

Şekil 3: DDİ İş hattı

DDİ İş hattında görülen işlem ile ilgili açıklamalar aşağıda verilmiştir.

Lokmalama (Tokenization)

- Karmaşık bir tümcelerine ayırmak
- Tümce açısından her bir sözcüğün önemini belirtmek
- Tümceden yapısal bir açıklama oluşturmak
- Noktalama işaretini göstermek

Sözcüğün Kökünü Bulma (Yapım eklerinden arındırma) (Stemming)

Bir sözcüğün kökünü bulma işlemidir. Türkçe gibi eklemeli dillerde yapım ekiyle türetilmiş sözcük kök sözcüğün temel anlamını taşır.



Sözcüğün Çekimli Biçimleri (Lemmatization)

Türkçede sözcüğü çekim eklerinden arındırmak anlamında düşünülebilir. İngilizce gibi kuralsız dillerde anlamı farklıdır. Örneğin “*go, going, went*” ve “*gone*” sözcüklerinin temeli “*go*” dur. Benzer biçimde “*better, best*” sözcüklerinin temeli ”*good*” sözcüğüdür. Türkçe gibi kurallı dillerde bu tür gariplikler görülmez. Türkçe gibi kurallı dillerde sözcüğün (eylem ya da ad) çekim eklerinden arındırılması olarak yorumlanabilir.

Sağır Sözcüklerin Kaldırılması

Sağır sözcükler, makine öğrenmesinde gürültüye neden olabilir bu nedenle metnin işlenmesinden önce veya sonra kaldırılır.

POS

POS, sözcüklerin söz dizimsel bağlamlarına ve rollerine göre atanması sürecidir.



Parçalara ayırma

Bir tümceyi ögelerine ayırma işlemi



Ayrıştırma

Bir cümleyi en küçük bileşenlerine ayırma işlemi



5. Dil Modelleri

Bir dilin özellikleri çıkarabilmek üzere dillerin modelleri çıkarılmaya çalışılmıştır. İlk dönemlerde, bir sözcükten sonra gelebilecek sözcük ya da sözcüklerin nasıl tahmin edileceği üzerinde çalışılmıştır. Bu amaçla n-gram ve Matkov zincirleri geliştirilmiştir. Örneğin "*Her şey çok …… olacak*" tümcesinde boş olan yere "*güzel, kötü, berbat, muhteşem, ucuz, pahalı*" gibi sözcüklerden biri gelebilir. Bu sözcüklerden hangisinin geleceğini o dilin derlemine bakılarak karar verilir. Derlemde en sık geçen sözcüğün bu boş alana yazılması en doğru seçenektir.

Tanım olarak bir derlemin, bir dilde üretilmiş olan tüm yayınları içermesi beklenir ancak bunu sağlamak çok kolay değildir. Bunun yerine, farklı konularda, farklı yazarlar tarafından üretilmiş metinlerden belli boyutlarda örnek metinler alınarak derlem oluşturulabilir. Böylesine hazırlanmış olan bir derleme "**Dengeli Derlem**" adı verilmektedir. Dillerin zaman içinde geliştiği düşünüldüğünde, dengeli derlemde yer alacak metinlerin belli bir zaman kesitinde yayımlanmış olanlardan seçilmesi gerekir.

Bir dilde yayımlanmış yayınları rastgele toplayarak da derlem hazırlanabilir. Bu durumda hazırlanmış olan derleme "**Dengesiz Derlem**" adı verilir.

Derlem bir dildeki tüm yayınları barındıracak biçimde hazırlanmış ise bu tür derlemlere "**Genel Derlem**", yalnızca belli bir alanı kapsayan yayımlardan oluşturulmuş ise "**Özel Derlem**" adı verilmektedir.

Diller arası çevirilerde kullanılmak üzere de derlemler hazırlanmaktadır. "**Koşut Derlem**" olarak anılan bu derlemlerde yer alan tümceler birbirinin karşılığı olacak biçimde yer alırlar [2].

Yakın zaman, dil modelleri üzerindeki çalışmalar yoğunlaşmıştır. N-gram kullanmak yerine Büyük Dil Modelleri (LLMs) geliştirilmeye başlanmıştır. BDM'lerini üretmek için genellikle çok büyük miktarda metin bir araya getirilir; bir anlamda dengesiz derlem oluşturulur. Bu veri kümesi üzerinde, bir sonraki sözcük, bir sonraki tümce hatta bir sonraki metin tahmin edilmeye çalışılır. Bazı veri kümeleri metinlere ek olarak resim de içerir. Böylece bir resim de değerlendirilir. Bir sonraki sözcük, tümce veya metni tahmin etmek üzere sinir ağının gelişmiş bir biçimi olan **Derin Öğrenme** yöntemi kullanılır.

5.1 Büyük Dil Modelleri Nelerdir?

Büyük dil modelleri, çok büyük veri kümeleri üzerinde eğitim sırasında edinilen bilgiye dayanarak metni tanıyabilen, çıkarım yapabilen, özetleyebilen, tahmin edebilen ve üretebilen derin öğrenme algoritmalarıdır. Ayrıca dil modelleri adı verilen daha genel bir teknolojinin alt kümesidir. Dil modellerinin ortak özellikleri doğal dilde yazılmış metinleri işleyebilmeleri ve doğal dilde tümceler kurabilmeleridir. Büyük boyuttaki veri kümesi metin ve resim barındırdığından

büyük veri olarak kabul edilir. BDM’leri, bu büyük veri kümesi üzerinde eğitilirler. Bu eğitim aşaması çok sayıda eğitilebilir katsayı (parametre) içerir. Günümüzde çok bilinen iki BDM’nin veri kümesi boyut Çizelge-1’de verilmiştir [4].

Çizelge-1: MT-NLG ve GPT-3'ün Karşılaştırılması

Büyük Dil Modeli	Katsayı (Parametre) sayısı	Eğitim veri kümesindeki imleç (token) sayısı
NVIDIA (MT-NLG)	530 milyar	270 milyar
OpenAI Model: GPT-3 Davinci Model	175 milyar	499 milyar

Çizelge-1’de görülen dil modelleri çok büyük veri üzerinde eğitilirler ve soruları yanıtlamak, özetleri oluşturmak, tümceleri tamamlamak ve diller arası çeviri yapmak amacıyla kullanılırlar.

Bir modelin başarımı, bir anlamda kalitesi, eğitim verisinin boyutuna bağlıdır. Bu nedenle, daha büyük dil modelleri genellikle daha küçük dil modellerine göre daha doğru başarılıdırlar. Ancak, şunu da hatırlatmakta yarar vardır: büyük dil modellerinin başarımı yalnızca model boyutuna veya veri miktarına bağlı değil; verinin kalitesine de bağlıdır. Örneğin, hakemler tarafından değerlendirilmiş bildiri ya da makaleler veya editör tarafından düzeltilmiş hikaye ve romanlar üzerinde eğitilmiş alan BDM'lerin başarımı sosyal medyadan toplanmış mesajlar, yorumlar veya diğer incelenmemiş içerikler üzerinde eğitilmiş alan BDM'lerden daha başarılı sonuçlar üretirler. Belli bir konuda çalışmak üzere hazırlanan dil modelleri doğal olarak, ilgili alandaki veriler ile oluşturulur. Belli bir alanı kapsayacak biçimde oluşturulan BDM’leri boyut olarak genel BDM’lerinden daha küçük olurlar. Ayrıca, bu veri kümesi üzerinde ince ayar yapılarak daha başarılı sonuçlar üretirler.

5.2 Büyük Dil Modellerinin Evrimi

Yapay zeka (YZ) alanında, geçmişte yapılmış olan çalışmalar verileri işlemek ve analiz etmek amaçlı iken yakın zamandaki çalışmalar anlamak ve doğal dilde tümce kurmak üzerinedir. Böylece Algılayıcı ve Üretken YZ çalışmaları ağırlık kazanmıştır. Günümüzdeki BDM’lerini anlayabilmek için büyük dil modellerinden önceki DDİ modellerini gözden geçirmekte yarar vardır.

1. **Dönüştürücü Kullanmayan DDİ**: Bu çalışmalarda DDİ görevlerini yerine getirmek için makine öğrenmesi yöntemleri yerine insan tarafından işaretlenen modeller kullanılmıştır. Doğal olarak tüm kuralların bilindiği ve modele işlendiği varsayılır. Bu modeller, metin sınıflandırması çalışmaları için yeterli olmuştur. Makine çevirisi uygulamalarında, kaynak ve hedef dil aynı dil ailesinden ise bu modeller yeterince başarılı olmuşlardır ancak farklı dil ailesinde yer alan diller arasındaki çevirilerde başarılı olamamışlardır. Bilinmeyen kurallar söz konusu olduğunda başarısız olurlar. Varlığı bilinmeyen kuralların neden olduğu sorunlar

çözebilmek amacıyla RNN'ler ve LSTM'ler gibi sinir ağlarıyla çözülmeye çalışılmıştır. RNN'ler ve LSTM'ler önceki veriler üzerinden çıkarımlarda bulunarak ya da önceki sonuçları belleyerek tahmin ve sınıflandırma yapabiliyordu. RNN'ler ve LSTM'lerin tahminler kısa geçmişteki verilere dayandığından uzun metinler için tahmin yapamazlardı.

2. **Dönüştürücü Kullanan DDİ**: Dönüştürücü mimarisi 2017'de önerildi ve kullanılmaya başlandı. Dönüştürücüler, o zamana kadar kullanılan RNN ve LSTM'lere oranla daha iyi genelleme yapabiliyor daha fazla bağlam yakalayabiliyor ve daha fazla veriyi işleyebiliyordu. Dönüştürücü kullanımı ile DDİ modellerinin daha uzun veri dizilerini anlaması ve çok daha görev yapabilmesine olanak sağlandı. Dönüştürücü kullanan DDİ uygulamaları ilk aşamada araştırıcılar tarafından kullanılmaya başlandı; ticari olarak alanda uygulanmadılar.

3. **BDM Kullanan DDİ**: Büyük Dil Modellerini kullanan DDİ’ler 2020'de OpenAI'nin GPT-3'ün tanıtılması ile dikkat çekmeye başladı. GPT-3 ve benzeri BDM’leri, önceki dil modellerine göre daha doğru ve kapsamlı sonuçlar üretebiliyordu. Bunun nedeni kullandıkları veri kümesinin çok büyük olması ve bu modelin eğitilebilmesidir. BDM'leri çeşitli DDİ işlevlerini yalnızca doğal dil istemlerini kullanarak çözebilen teknik olmayan kullanıcılar için kolay erişilebilir hale getirdi.

Büyük Dil Modeline geçişin aşamalı biçimde olduğu yukarıdaki açıklamalardan anlaşılmaktadır. Bu gelişmelerde sinir ağlarının özellikle derin öğrenmenin çok etkin olduğu bir gerçektir. Dönüştürücüler bu yöntemler kullanılarak gerçekleştirilebilmiştir. Bu teknik ve yöntemlerin öğrenmekte yarar vardır.

5.3 Yapay Sinir Ağları

Yapay Sinir ağları YSA (SA) (NN) ya da kısaca sinir ağları, insan beyninin çalışma ilkesine temel alarak modellenmiş makine öğrenmesi algoritmalarıdır. İnsan beynine benzetilerek sinir ağları düğümlerden (nöron) oluşur ve bunlar girdiyi işlemekten çıktı üretmeye kadar tüm işlevleri yürütürler. Her sinir ağında en az üç katman bulunur:

- **Giriş katmanı**: Verileri kabul eder ve ağın geri kalanına iletir.
- **Gizli katman veya birden fazla gizli katman**: SA'dan beklenen işlevleri yerine getirir. Bu işlevler, verileri tanımlamayı veya sınıflandırmayı, yeni veri üretmeyi ve belirlenmiş olan DDİ işlevini yerine getiren işlevlerdir.
- **Çıkış katmanı**: Girdiye dayalı bir tahmin veya sınıflandırma sonucunu üretir.

RNN'ler ve LSTM'ler gibi sinir ağlarının, önceki kural tabanlı yöntemlere göre en büyük üstünlükleri, çok az ya da hiç insan katkısı olmadan kendi başlarına

öğrenebilmeleriydi. Bu yeni yöntemler kuralları öğrenip daha sonra verilere uygulamak yerine, kendi kurallarını oluşturmak için verileri analiz edebiliyorlardır. Çalışma biçimleri aşağıdaki örnekte görülmektedir:

“kedi,” “kediler,” kuş,” “kuşlar”

Bu örnekte görülen lokmalar analiz ettikten sonra, model aşağıdaki biçimde modeli eğitir:

Çoğul adlar “-lAr” eki alırlar.

Model daha sonra bu modeli kullanarak başka adların çoğullarını bulabilir veya üretebilir. Örneğin, ”masa” dan “masalar”, “ev” den “evler”i türetebilir. Benzer biçimde diğer dil bilgisi kurallarını çıkarabilir. Bu tür özellik çıkarma, diğer adıyla gösterim çıkarma Türkçe gibi kurallı diller için çok kullanışlıdır. Sinir ağları ne kadar çok nörona sahipse, o kadar karmaşık gösterimler çıkarabilirler. Bu nedenle, BDM’leri birden fazla gizli katmana ve dolayısıyla daha fazla nörona sahip derin öğrenme sinir ağlarını kullanır [7].

Şekil-4’te tek katmanlı bir sinir ağı ile derin öğrenme sinir ağı çizilmiştir.



Şekil-4:Tek Katmanlı ve Derin Öğrenmeli Sinir Ağı

Günümüzde çok sayıda gizli katman içeren sinir ağlarının kullanılabilmesi Grafik İşlemci Birimlerinin (GPU) GPU’ların 1999’dan sonra kullanılmaya başlanması ve 2012 de yaygınlaşması ile sağlanmıştır. GPU’lar, sinir ağında bulunan katmanlar ile işlemleri paralel biçimde işleyebilme yeteneğine sahiptirler. Böylece işlemlerin süresi kısalmıştır. GPU'ların kullanımındaki başarının bir sonucu olarak dönüştürücüler gündeme gelmiştir.

5.4 Dönüştürücüler

Daha önce açıklandığı gibi RNN'ler ve LSTM'ler diller arası çevirilerde yetersiz kalıyorlardı. Bu eksiklikleri gidermek üzere dönüştürücü adı verilen yeni, özel sinir

ağları tasarlanmıştır. Dönüştürücüler ilk olarak 2017 yılında Vaswani ve arkadaşları tarafından "***Dikkat İhtiyacınız Olan Tek Şey***" başlıklı bir makalede tanıtılmıştır [5]. Bu makalede, dönüştürücülerin temel bileşeni haline gelecek olan “**dikkat mekanizması”**na atıfta bulunmuştur. Önerilen yöntem tekrarlama ve evrişimleri ortadan kaldırmıştır. Dikkat mekanizmaları, modellerin girdiyi işlerken, girdinin belirli bölümlerine özellikle dikkat etmesini isteyerek yetersiz bağlam işleme sorununu çözmüştür. Tüm bağlamı bir adımda yakalamak yerine, belirli bir görevle ilgili en önemli lokmalara odaklandırılmıştır.

Dikkat mekanizmalarına dayanan öz-dikkat katmanları daha önce girilen her sözcük için dikkat ağırlıklarını hesaplar. Dikkat ağırlıkları her bir lokmanın önemini temsil eder, bu nedenle bir lokmaya ne kadar fazla ağırlık atanırsa o kadar önemli kabul edilir. Örneğin,

Eren’in bir kedisi var.

Tümcesinde dikkat mekanizması "*kedi*" lokmasına "*bir*" lokmasından daha fazla ağırlık verebilir. Bunun nedeni “*kedi*” lokmasının sonuca etkisinin “*bir*” lokmasının etkisinden büyük olmasıdır. Her bir lokmanın ne kadar önemli olduğunu belirlemek için, öz-dikkat katmanları bir metindeki bir lokmanın diğer lokmalarla ilişkilerini değerlendirir. Bir lokmanın diğer lokmalarla çok sayıda ilişkisi varsa, o lokma önemli kabul edilir.

LSTM'ler ve RNN'ler girdiyi ardışık olarak işledikleri için girişe karşılık çıkışın üretilmesi uzun zaman alır. Buna karşın dönüştürücüler paralel çalışırlar, dolayısıyla işlem süresi çok kısadır. Ancak, LSTM'ler ve RNN'ler yavaş olmalarına karşın, lokmaları ardışık işlemeleri nedeniyle hangi lokmanın önce ya da sonra geldiğini, yani lokmaların ya da sözcüklerin sırasını bilirler. Dönüştürücülerin böyle bir özellikleri yoktur. Bu eksikliğin üstesinden gelmek için dönüştürücüler, lokmaları konum bilgilerine yardımcı olan konumsal kodlamalar kullanır. Konumsal kodlamalar, her bir lokmayla ilişkilendirilen ek girdiler veya vektörlerdir.

Şekil-5’te dönüştürücü mimarisi gösterilmiştir. Şekil “Dikkat İhtiyacınız Olan Tek Şey” bildirisinden alınmıştır.



Şekil-5: Dönüştürücü mimarisi

Araştırmacılar ve uygulamacılar dönüştürücüleri uygulamaya başlamışlardır. Uygulamalardan biri Google tarafından 2018 yılında BERT' adıyla duyurulmuştur.

Dil çevirisi için derin öğrenme modeli olan orijinal dönüştürücü mimarisinin basitleştirilmiş bir çizimi Şekil-6’da görülmektedir. Şekildeki dönüştürücü iki bölümden oluşmaktadır: Birinci bölüm giriş metnini işleyen ve metnin bir yerleştirme gösterimini (farklı boyutlarda birçok farklı etkenin sayısal gösterimi) üreten bir kodlayıcı, ikinci bölüm çevrilen metni kod çözücünün her seferinde bir kelime üretmek için kullanabileceği bölümdür. Bu şekil, kod çözücünün yalnızca son sözcüğü üretmesi gereken çeviri sürecinin son aşamasını gösterir.

5.4.1 BERT

BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers - Dönüştürücülerden Çift Yönlü Kodlayıcı Gösterimleri) ilk olarak tanıtılan dönüştürücü tabanlı dil modellerinden biridir [8]. Maskeli dil modelidir (MLM), yani maskeli lokmalar içeren tümcelerle eğitilmiştir. Modelin, maskeli lokmayı, çevresindeki bağlamı dikkate alarak tahmin etmesi amaçlanmıştır. Yapıyı açıklamak için aşağıdaki örnek tümcenin giriş olarak verildiğini düşünelim:

Askıda bir ***şapka*** var.

Bu örnek tümcede “*şapka*” sözcüğünün maskelendiğini ve dönüştürücünün bulmasını isteyelim. Şapka sözcüğünün öncesinde “*bir*” ve sonrasında “*var*” lokmaları bulunuyor. Dönüştürücü, bu tümceden önceki tümcelere ve bağlamı inceleyerek maskelenen sözcüğün “*şapka*” olduğunu bulur. Tek yönlü çalışan modellerde maskelenmiş lokmayı bulmak daha zordur. BERT, çift yönlü çalışan ilk dönüştürücü modelidir.



Şekil-6: Basitleştirilmiş dönüştürücü mimarisi

6. Diğer Büyük Dil Modelleri

Dönüştürücüler kullanılmaya başlamasıyla farklı özellikte BDM’leri oluşturmaya başlanmıştır. Çizelge-2’de bazı önemli BDM’leri verilmiştir.

Çizelge-2: Bazı Önemli BDM’leri

Model	Üretici Firma	Yıl	Kısa açıklama
GPT-2	OpenAı	2019	İnsan benzeri metinler üretmek ve dil çevirisi, özetleme ve soru yanıtlama gibi DDİ işlevlerini gerçekleştirmek için tasarlanmıştır.
RoBERTa	Facebook	2019	BERT temelli bir BDM’dir. Daha büyük bir veri kümesi üzerinde eğitilmiş, daha verimli bir eğitim yöntemi kullanılmıştır. Bu nedenle başarımı yükseltilmiştir.

DeBERTa	Microsoft	2020	BERT temelli olan bu uygulamada kodlayıcı ve kod çözücü birbirinden ayırarak DDİ işlevlerinin başarımı yükseltilmiştir.
GPT-3	OpenAı	2020	Daha büyük bir veri kümesi üzerinde eğitilen ve daha başarımlı çıktılar üretebilen GPT-2'nin bir üst modelidir.

6.1 GPT ve BERT Karşılaştırması

GPT (Generative Pre-trained Transformer - Üretken Ön-eğitilmiş Dönüştürücü) ve BERT yaygın olarak kullanılan ancak mimarileri farklı BDM’lerdir. GPT, bir tümce içindeki bir sözcük verildiğinde bir sonraki sözcüğü tahmin etmek üzere eğitilen bir modeldir. Bu ön eğitim sayesinde tutarlı ve akıcı tümceler üretebilmektedir. Buna karşın, BERT, tümceleri veya lokmaları duygu analizi, adlandırılmış varlık tanıma ve metin sınıflandırması gibi farklı ulamlara ayırmak üzere eğitilmiş bir modeldir. Bir sözcüğün anlamını çıkarmak için tümcenin önceki ve sonraki bağlamlarını dikkate alan iki yönlü bir modeldir. Duygu analizi ve soru yanıtlama gibi uygulamalarda başarılıdır.

GPT’nin dönüştürücü mimarisi tek yönlü olmasına karşın BERT’inki çift yönlüdür. Bunun sonucu olarak bir sözcüğü tahmin ederken yalnızca önceki sözcüğe bakarken, BERT önceki ve sonraki sözcüklere bakarak tahminde bulunur.

6.2 BDM Oluşturma

Sıfırdan büyük dil modelleri oluşturmak, özellikle temel işi yapay zeka veya DDİ olmayan işletmeler için mantıklı değildir. BDM oluşturma süreci zaman alıcı ve emek gerektireceğinden işletmelerin mevcut BDM’leri gereksinimlerine göre özelleştirmeleri salık verilir. Mevcut BDM’leri özelleştirmek için aşağıda açıklanan üç adımın izlenmesi yerinde olur [9,10].

1. **İşletmenin gereksinimlerini karşılayabilecek modeli araştırmak**: Bu araştırma sırasında modelin boyutu, veri kümesi ve sağlayıcısını araştırmak gerekir.
2. **Modelin ince ayarını yapmak**: Temel BDM’lerinin işletmenin gereksinimlerine ve kullanım biçimine göre ince ayarlarının yapılması gerekir. Örneğin, metin sınıflandırmaya, duygu analizine veya yasal mevzuata uyumu sağlamak üzere ince ayar yapılır.
3. **Modeli en iyi biçime getirmek**: Genel amaçlı olarak hazırlanmış olan modellerde işletme için gereksiz olabilecek veri kümeleri veya yetenekler bulunabilir. Bunlar modelden çıkarılarak bilgisayarın iş yükü azaltılabilir.

Bir BDM’nin oluşturulması Şekil-7’da ayrıntılı biçimde gösterilmiştir.



Şekil-7: Bir BDM'nin geliştirilme aşamaları

Şekil-7’de görülen işlevler aşağıda teker teker açıklanmıştır.

Veri Hazırlama ve Örnekleme

Bu ilk aşamanın görevi, girilen metnin lokmalara ayrılması, lokmaların sayılar ile temsili ve yerleştirilmesidir. Lokmaların vektör biçiminde temsili yerleştirme (embedding) olarak adlandırılır. Yerleştirme için farklı algoritmalar kullanılmaktadır. Bu algoritmalardan biri Word2Vec olarak anılır. Word2Vec'in temel fikri benzer bağlamlarda görünen sözcüklerin benzer anlamlara sahip olma eğiliminde olmasıdır. Şekil-8’de bu fikir tanıtılmıştır.



Şekil-8: İki boyutta yerleşme örneği

Yerleştirme öncesi metin lokmalarına ayrılır. Lokma, metin içinde görünen sözcükler ve noktalama işaretleridir. Tüm metinde geçen sözcükler alfabetik olarak sıralanır; tekrarlananların sırası kaydırılır. Bu aşamadan sonra her sözcüğe sıra numarası atanır. Bir sonraki aşamada her bir lokma için vektör ataması (yerleştirme) yapılır. Şekil-9’da basitleştirilmiş lokmalama ve yerleştirme süreci gösterilmiştir.



Dikkat Mekanizması

Bir metin içinde bulunan her bir sözcüğün metin içindeki önemi ya da ağırlığını belirtir. Dikkat mekanizmasının türleri şunlardır:

- Basit öz dikkat
- Öz dikkat
- Nedensel dikkat
- Çok başlı dikkat

BDM Mimarisi

GPT gibi BDM’leri, her seferinde bir sözcük (veya lokma) olmak üzere yeni metin üretmek üzere tasarlanmış büyük derin sinir ağı mimarileridir. Ancak, büyük boyutlarına karşın, model mimarisi çok karmaşık değildir. Çünkü bileşenlerinin çoğu tekrarlanır. Şekil-10’da GPT benzeri BDM’nin mimarisi çizilmiştir.



Şekil-10: BDM Mimarisi

Derin öğrenme ve GPT gibi BDM’lerinde, "*parametreler*" terimi modelin eğitilebilir ağırlıklarını ifade eder. Bu ağırlıklar aslında, belirli bir kayıp fonksiyonunu en aza indirmek için eğitim süreci sırasında ayarlanan ve en iyi biçime getirilen modelin iç değişkenleridir.

Ön Eğitim, Eğitim Çevrimi, Model Geliştirme ve Ön Eğitim Katsayılarını Yükleme

Şeki-7’deki 4, 5, 6, 7. Adımlar BDM’nin eğitilmesi ile ilgilidir. Bu aşamalarda, lokmalar arasındaki ağırlık katsayıları hesaplanır ve sonuçlar tekrar güncellenir. Bu işlemlerin sonunda, DDİ’ye yakın tümce oluşturulur.

İnce Ayar

BDM’nin araştırmanın ya da işletmenin gereksinimlerine göre ayıklanması işlemine ince ayar denilmektedir.

Kaynakça

[1] K. S. Jones, Natural Language Processing: A Historical Review, Computational Linguistics, 1994

[2] E. Adalı, Türkçe Doğal Dil İşleme, Akçağ Yayınevi , 2020, ISBN 97860553425519

[3] F.M.Kom, Natural Language Processing Introduction, theory and application, Universitas Gadjah Mada

[4] A. Chockalingam, A. Patel, S. Verma, T. Yeung, A beginner’s Guide to Large Language Models, NVIDIA Corporation. 2023

[5] A. Vaswani, N. Shazeer, N. Parmar, J. Uszkoreit, L. Jones, A. N. Gomez, Ł. Kaiser, I. Polosukhin, Attention Is All You Need, 31st Conference on Neural Information Processing Systems (NIPS 2017)

[6] S.J.D. Prince, Understanding Deep Learning, The MIT Press, March 26, 2025

[7] H. Naveed, A. U. Khan, S. Qiu, M. Saqib, S. Anwar, M. Usman, N. Akhtar, N. Barnes, A. Mian, A Comprehensive Overview of Large Language Models, arXiv:2307.06435v10 [cs.CL] 17 Oct 2024

[8] J. Devlin, M.-W. Chang, K. Lee, K. Toutanova, BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding, arXiv:1810.04805v2 [cs.CL] 24 May 2019

[9] J. Kunz, Understanding Large Language Models, Linköping Studies in Science and Technology Dissertation No. 2364

[10] S. Raschka, Build a Large Language Model From Scratch, Manning Publications Co. 2025, ISBN: 9781633437166

O‘ZBEK TILINING ELEKTRON RESURSLARINI YARATISH – ZAMON TALABI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6084-sonli farmonida Internetda o‘zbek tilidagi kontentni ko‘paytirish, o‘zbek tilini raqamlashtirish, o‘zbek tiliga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Buning amaliy natijasi sifatida jamg‘arma tomonidan o‘zbek tili milliy korpusini yaratish bo‘yicha amaliy loyihalar e'lon qilindi, o‘zbek tilining o‘quv elektron lug‘atlarini yaratish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirildi. Ammo bu loyihalar bilan barcha vazifalarni qamrab olish mumkin emas. Shu sababli o‘zbek tili korpuslari, o‘zbek tiliga avtomatik ishlov berish vositalari, o‘zbek tili imlo tekshiruv va tahrir dasturi, o‘zbek tili sinxron tarjimonlari, o‘zbek tilida turli sohalarga oid savol-javob tizimlari, shuningdek, turli elektron lug‘atlarni ishlab chiqish hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti olimlaridan iborat ishchi guruh tomonidan keng miqyosda milliy til korpusini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. “O‘zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish”, “Turkiy tillarning lingvodidaktik platformasi”, “O‘zbek tilining morfologik analizatori” amaliy loyihasi doirasida o‘zbek tilining korpusi, o‘zbek tilining morfologik analizatori, turkiy tillarni o‘rgatishga mo‘ljallangan platforma ishlab chiqildi. Bunday loyihalarning yana davom etishida bizning jamoamizda etarlicha salohiyat mavjud. Shu asosda aytish mumkinki, kelgusida bizning jamoamiz professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar, doktorant va magistrantlar ishtirokida mana shunday elektron resurslarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanish va amaliy loyihalarning amalga oshirilishiga ishonamiz va konferensiya ishiga omad tilaymiz!

Sultonbek Ermamatovich Normamatov,
filologiya fanlari doktori, professor

O‘ZBEK TILINING FONEMATIK-FONEMIK SISTEMASI XARITASINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich,
Filologiya fanlari doktori, professor
bakhtiyormingliyev62@gmail.com
TAFU, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini nazariy hamda amaliy jihatdan puxta tahlil qilish, uning zamonaviy lingvistika, xususan, kompyuter lingvistikasidagi o‘rnini aniqlash maqsad qilingan. Tilning fonema va allofonlar qurilishi, singarmonizm va uning bahsli jihatlari, fonologik qoidalar, dialektlar orasidagi fonetik tafovutlar va bu masalalarni hozirgacha o‘rganishda yuzaga kelgan metodologik muammolar (rus tilshunoslik an’analari, eroniy tillar ta’siriga oid iddaolar, eksperimental-empirik tadqiqotlar yetishmasligi, fonetik atlas va transkripsion alifbolarning ommalashmagani) hamda ularni raqamli muhitga tatbiq qilish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, turli lingvistik nazariyalar (generativ fonologiya, strukturalizm va boshqa) asosida o‘zbek tilining boy fonetik xususiyatlarini formal modelda aks ettirish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot yakunida tilni raqamli qayta ishlash (ASR, TTS, mashina tarjimasi) hamda lingvistik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan fonemik “xarita”ni yaratish bo‘yicha nazariy tavsiyalar taklif etiladi.

Abstract. This research aims to provide a comprehensive theoretical and practical analysis of the phonematic-phonemic system map of the Uzbek language, highlighting its role in modern linguistics and particularly in computational linguistics. The paper examines the construction of phonemes and allophones, the controversial aspects of vowel harmony (singarmonism), phonological rules, dialect-based phonetic divergences, and methodological issues that have arisen due to (1) the continuation of non-scientific methods inherited from older Russian linguistics, (2) the dominance of claims about Iranian language influence, (3) the prioritization of views held by Iranian or “Iranicized” scholars, (4) insufficient experimental-empirical research using specialized phonetic apparatus, (5) the absence of an Uzbek phonetic atlas, and (6) the limited adoption of Uzbek transcription alphabets and dictionaries. Drawing on various linguistic theories (generative phonology, structuralism, etc.), the paper explores how the rich phonetic features of Uzbek can be rendered in a formal model. Concluding remarks offer theoretical recommendations for developing a phonemic “map” that could benefit both linguistic research and digital language processing systems such as ASR, TTS, and machine translation.

Аннотация. В данной работе проводится всесторонний теоретический и практический анализ карты фонематико-фонемической системы узбекского языка, а также её роли в современной лингвистике и в частности в компьютерной лингвистике. Рассматриваются вопросы, связанные с построением системы фонем и аллофонов, спорные аспекты сингармонизма (гармонии гласных), фонологические правила, диалектные фонетические различия, а также методологические проблемы, возникшие вследствие (1) сохранения несистемных методов, унаследованных от русской лингвистической традиции, (2) доминирования мнения о сильном влиянии иранских языков, (3) приоритета взглядов иранизированных учёных, (4) недостаточной экспериментально-эмпирической базы исследований с использованием специального фонетического оборудования, (5) отсутствия специального фонетического атласа узбекского языка, и (6) ограниченной распространённости транскрипционных алфавитов и словарей. Опираясь на различные лингвистические теории (генеративная фонология, структурализм и др.), автор демонстрирует, как богатые фонетические особенности узбекского языка могут быть формализованы. В заключении даются рекомендации по созданию «карты» фонемной системы для применения в лингвистических исследованиях и цифровых технологиях (ASR, TTS, машинный перевод).

Kalit so‘zlar: *fonema, allofon, fonematik sistema, fonologik qoidalar, singarmonizm, kompyuter lingvistikasi, strukturalizm, generativ fonologiya, eksperimental fonetika, metodologik muammolar, xarita*.

Kirish. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub – boy fonetik va fonologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tarixiy taraqqiyoti, eroniy tillar bilan chegaradosh hududlarda shakllangan dialektlari va uzoq vaqt davomida rus tilshunosligi an’analari ta’siri ostida o‘rganib kelingani natijasida turli metodologik qarashlar shakllangan. Shuningdek, tilni eksperimental-empirik jihatdan tadqiq etish ishlari yetarli darajada tizimli olib borilmagani ham ba’zi ilmiy xulosalarning bahsli bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbek tilidagi fonema va allofonlarni aniqlash, singarmonizm masalasini kuzatish, dialektlar fonetikasi, rus va eroniy tillar ta’siriga oid tezislarni tanqidiy tahlil qilish hamda kompyuter lingvistikasida amalga oshirish mumkin bo‘lgan yechimlarni ko‘rib chiqadi. Bunda diqqat markazida turgan muammodan biri – singarmonizm qisman yoki butunlay yo‘qolgan degan iddaolarning qay darajada ilmiy asosga ega ekanligini ko‘rib chiqish. Bu ko‘pincha rus tili va rus tili bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yaratilgan ishonchsiz metodologiya yoki eroniy tillar ta’siriga bog‘lab tushuntirilib, o‘zbek tili dialektal kengligidagi real fonetik manzaraga yetarlicha e’tibor berilmagan holatlarga tayanadi.

1. “Fonematik va fonemik tizim” tushunchasi. Fonema – tilning eng kichik ma’no farqlovchi lisoniy birligi. Tilshunoslik tarixida bu tushuncha strukturalizm, Amerika deskriptiv lingvistikasi va generativ fonologiya singari qator yirik yo‘nalishlar tomonidan turlicha ifodalangan:

– strukturalizm (Praga maktabi)da fonemalar zidlanishlar orqali tahlil qilingan;

– Amerika deskriptiv lingvistikasida fonemaning distributsiyasiga asoslanish, minimal juftliklar tahlili amalga oshirilgan;

– generativ fonologiya fonemalarning “tub” va “yuza” shaklini fonologik qoidalar bilan bog‘laydi;

– optimallik nazariyasi (optimality theory)da talaffuz variantlari cheklovlar iyerarxiyasi orqali “optimal” shaklga keltirilgan;

– o‘zbek tilshunosligida fonema masalalari XX asrda qisman tadqiq etilgan. Ammo ko‘p hollarda ushbu tadqiqotlar an’anaviy usullar bilan cheklangan yoki rus lingvistik paradigmasi doirasida bo‘lgan.

Ba’zi manbada “fonemik” istilohi fonemalar tizimiga xos mavhum qatlam, “fonemik” real talaffuzdagi allofonik ko‘rinishlar sifatida ajratiladi. O‘zbek tilining fonematik-fonemik xaritasi deganda esa nafaqat fonemalar ro‘yxati, balki ularning kontekstual o‘zgarishlari, dialektal tafovut va eksperimental ishlar to‘liq bayon qilingan tizim tushuniladi.

2. O‘zbek tilidagi fonemik inventar. O‘zbek tilida 6 ta unli fonema mavjudligi rasman e’tirof etiladi: /a, e, i, o, u, o‘/ (va dialektlarda /ɯ/, /æ/ kabi unlilarning kuzatilishi mumkin):

– kirill yozuvida: <а, э, и, о, у, ў>

– lotin yozuvida: <a, e, i, o, u, o‘>

Bu unlilar turli kontekstda [ɑ], [ɛ], [æ], [ɪ], [ɔ], [ʊ] kabi allofonlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, dialektlarda unli inventarining nozik farqlari mavjud, bu eksperimental fonetika yordamida aniqroq qayd etilishi lozim. Ammo hozirgacha maxsus fonetik apparatlar (spektrograf, formant analizator va h.) bilan tizimli tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagani hamon dolzarb muammoligicha qolayotir. O‘zbek tilida quyidagi undoshlar asosan ajratiladi:

– jarangsiz portlovchilar: /p, t, k, q/

– jarangli portlovchilar: /b, d, g, g‘, r, l/

– jarangsiz sirg‘aluvchilar: /s, ʃ, x, h/

– jarangli sirg‘aluvchilar: /z, ʒ, ɣ/ (yoki ba’zi shevalarda /ʁ/)

– burun tovushlar: /m, n, ŋ/

– yarim unli: /j/ (yoki /y/)

Dialektlarda /v/–/w/ farqlanishi, /h/ yoki /x/ talaffuzidagi o‘ziga xosliklar, yumshoq /kʲ/ kabi variantlar kuzatiladi. Lekin bu farqlanishlar ko‘pincha eroniy tillar ta’siri yoki “o‘zbek tilining singarmonizmdan uzoqlashganligi” bilan bog‘lab tushuntirilgani holda yetarli eksperimental dalil keltirilmaganligi sababli

munozaralar davom etmoqda. Bir fonema turli kontekstda har xil akustik xususiyatlar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: /k/ → [k], [kʲ], /g‘/ → [ɣ], [ʁ], /o/ → [ɔ], [o], [ʊ].

Allofonlarni aniq qoidalar bilan tavsiflash kompyuter lingvistikasi uchun ham, adabiy me’yorni targ‘ib qilish uchun ham muhim.

3. Fonologik nazariya va o‘zbek tili. Roman Yakobson va Morris Halle boshchiligidagi strukturalizm fonemalarni minimal xususiyatlar (distinctive features) orqali izohlashni taklif qiladi [1]. O‘zbek tiliga nisbatan qo‘llaganda bu jaranglilik, lablanish, til orqa/old pozitsiyasi, portlovchi/sirg‘aluvchi kabi xossalar asosida soddalashtirilgan tasnifni yaratish imkonini beradi. Xomskiy, Halle [1968] fonologik qoidalar orqali fonemalarning “tub” va “yuza” shakllarini bog‘lash metodi bilan mashhur [2]. O‘zbek tilida bu yondashuv singarmonizm va undosh uyg‘unlashuvi kabi jarayonlarni qoidalash orqali tushuntirishga imkon beradi.

Maqbullik nazariyasi (optimality theory) [3] talaffuz variantlarini “cheklovlar” bilan baholab, eng maqbul (“optimal”) shaklni tanlaydi. Agar o‘zbek tilidagi singarmonizm cheklov darajasida ustun bo‘lsa, unda unlilar uyg‘unligi saqlanadi; aks holda so‘z o‘zgartirilgan shaklda talaffuz qilinadi. Ammo bu nazariyani qo‘llash uchun ham korpus va eksperimental tadqiqotlar lozim.

4. Singarmonizm va undosh uyg‘unlashuvi: bahslar va asl holat. Turkiy tillarda, odatda, unlilar uyg‘unligi (vowel harmony) kuchli saqlangan [7]. Ko‘pincha “o‘zbek tili bu uyg‘unlikni yo‘qotgan yoki juda zaiflashtirgan” degan iddao oldinga suriladi. Biroq bu xulosa quyidagi omillar jihatidan bir qadar bahsli:

– rus tili va rus tili bo‘yicha mutaxassislar qarashlari. O‘zbek tilini, ayniqsa, XX asrda rus tili metodologiyasiga suyangan holda o‘rganish ortidan “singarmonizm deyarli yo‘q” degan qarash keng tarqalgan. Vaholanki, turli shevalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, unlilar uyg‘unligi mavjud;

– eroniy tillar ta’siriga oid tezis. Ba’zi tadqiqotchilar o‘zbek tilidagi singarmonizm zaiflashuvini eroniy tillar ta’siri bilan bog‘laydi. Lekin bu ta’sirning real darajasini kuzatish uchun maxsus eksperimental-empirik tadqiqotlar deyarli o‘tkazilmagan.

O‘zbek tilida singarmonizm. Adabiy til nuqtayi nazaridan singarmonizm deyarli sezilmaydi degan qarashlar ishonchsiz va asossiz. Shuningdek, Farg‘ona vodiysi yoki ayrim janubiy hududlarda unlilar uyg‘unlashuvi aralash shakllarda saqlangan. Masalan, “bor + di” = [bordi], “kel + di” = [keldi] kabi oddiy yondashuv bilan cheklanmay, unlining o‘zgarish doirasi kengroq qaralsa, masalan, [kældi], [kʲaldi] kabilar kuzatilishi mumkin. Bular, albatta, muntazam fonologik qoida darajasidami yoki shunchaki fonetik variantlarmi – bu masala hamon chuqur laborator tahlilga muhtoj.

O‘zbek tilida /k/, /g‘/ tovushlarining yumshashi, qattiqlik-yumshoqlik ziddiyatiga tobe bo‘lishi, jarangsiz va jarangli undoshlarning uyg‘unlashuvi kabi jarayonlar kuzatiladi. Bular ko‘pincha:

– so‘z boshi – so‘z o‘rtasi – so‘z oxiri;
– old unli – orqa unli;
– tutash undoshlar orasidagi assimilyatsiya bilan bog‘liq. Ammo bu jarayonlarning real ko‘lami hamma shevada bir xil emas. Shuning uchun bir tekisda mazkur hodisani “yo‘qolgan” deb bo‘lmaydi. Shu o‘rinda quyidagi omillarni ham alohida ta’kidlash kerak:
– XX asr boshidan rus tili modeli asosida shakllangan fonetik-fonologik tahlil usullari ba’zan turkiy tillarning o‘ziga xos, jumladan, singarmonizm kabi parametrlarga to‘liq mos kelmaydi. Shu bois “singarmonizm yo‘qoldi”, - degan xulosa tez-tez uchraydi [6];
– O‘zbek tili XX asr tadqiqotlarida, asosan, Markaziy Osiyoda tarqalgan fors-tojik tillarining kuchli ta’siri ostida fonetik innovatsiyalarni qabul qilgan degan taxmin ustun turdi. Lekin haqiqiy ta’sir darajasini sinchiklab eksperimental tadqiq etish, ayniqsa, chuqur sheva tahlili bilan isbotlash yetarlicha amalga oshirilmagan;
– ayrim tadqiqotchilar (o‘zlari forsiy til fonetikasi yoki eroniy filologiyaga ixtisoslashgan) tabiiy ravishda turkiy fonetik xususiyatlarni ikkinchi darajaga tushirib, eroniy xususiyatlarni kattaroq rol o‘ynaydi deb hisoblashga moyil bo‘ladi;
– o‘zbek shevalari fonetikasini spektrograf, formant analiz, intonatsion tahlil usullari bilan tizimli ravishda o‘rganish ishlari juda kam. Empirik ma’lumotlar bo‘lmasa, har qanday xulosa subyektiv bo‘lib qoladi [5];
– agar butun respublika shevalarini qamrab olgan fonetik atlas bo‘lganida singarmonizmning saqlangan yoki yo‘qolgan nuqtalari aniq xaritada ko‘rinar edi;
– keng jamoatchilik ham, ilmiy doiralar ham fonetik transkripsiyaga oid maxsus resurslardan kam foydalanadi. Bu esa aniq fonologik tahlilga xalal beradi.

Bu omillar o‘zbek tilidagi singarmonizm va, umuman, fonologik jarayonlar haqida bir tomonlama yoki yetarlicha asoslanmagan xulosalarning davom etishiga zamin yaratgan.

5. Kompyuter lingvistikasi doirasida fonematik-fonemik xarita. O‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini raqamli muhitda qo‘llash kreak. Buning uchun:
– bir ma’noli kodlash – har bir fonema (va zarur bo‘lsa, allofon) aniq belgiga ega bo‘lishi zarur;
– kontekstual qoida – singarmonizm, undoshlar uyg‘unlashuvi, allofonik o‘zgarishlar maxsus qoidalarga asoslanib, formal tarzda ifodalanishi lozim;
– moslashuvchanlik – dialektal farqlar va yangi eksperimental ma’lumotlarni qo‘shish imkoniyati hisobga olinadi;
– ilmiy asosli ma’lumotlar – metodologik xatolarni takrorlamaslik uchun eksperimental fonetika ko‘rsatkichlari kiritilishi zarur;
– standartga moslilik – o‘zbek adabiy talaffuz me’yoriga ham zid bo‘lmagan shaklda qurish lozim.

Muammo integrativ tabiatga ega. Masalan:

– nutqni tanish (ASR) da ovozdan so‘zlarni aniqlashda fonema va allofonlar tizimi aniq belgilansa, aniqlik oshadi;

– matndan nutq hosil qilish (TTS) da so‘zlarni fonetik transkripsiyalash va tabiiy talaffuzga yaqin ovoz sintez qilish uchun zarur;

– mashina tarjimasida fonologik xususiyatlar inobatga olingan morfologik tahlil moduli natijani yaxshilaydi;

– orfoepiya va orfografiyada so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, imlo yo‘riqnomalariga muvofiq yozish kabi dasturiy yordamchilar uchun zarur.

6. Fonematik-fonemik xarita loyihasini yaratish bosqichlari sifatida quyidagilarini sanash mumkin:

– respublikadagi barcha hududlardan audio yozuv, tarixiy matnlar va avvalgi tadqiqotlar to‘planadi;

– spektrografik, formant, intensiya, tembr tahlillari yordamida real talaffuz xususiyatlari aniqlanadi;

– dialektlarda uchraydigan fonemalar, adabiy me’yordan chetlanish va allofonlar xaritasi yaratiladi;

– singarmonizm, undosh uyg‘unlashuvi, eliziyalar (tovush tushishi), epentezlar (tovush qo‘shilishi) kabi jarayonlar formal bayon etiladi;

– X-SAMPA yoki IPA asosida transkripsiya jadvali, qoidalarning XML/JSON shakldagi ro‘yxati shakllantiriladi;

– ASR, TTS yoki mashina tarjimasi modullarida qo‘llab, aniqlik ko‘rsatkichlari baholanadi;

– aniqlangan kamchiliklar ustida ish olib boriladi va dialektal ma’lumotlar kengaytiriladi.

Xulosa. Ma’ruza o‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasini xaritaga solish masalasida an’anaviy nazariyalar (strukturalizm, generativ fonologiya, qulaylashtirish nazariyasi va zamonaviy eksperimental fonetika) ning qanchalik zarurligini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, singarmonizm bo‘yicha “saqlangan” yoki “yo‘qolgan” degan qarashlarning birmuncha bahsli ekani va ushbu masalada: 1) rus tilshunoslik metodologiyasidan qolgan yondashuvlar; 2) eroniy tillar ta’siriga oid iddaolarning ustuvorligi; 3) “eroniylashgan” ba’zi olimlar qarashlarining keng yoyilgani; 4) eksperimental-empirik izlanishlar yetishmasligi; 5) fonetik atlas yaratilmaganligi; 6) ommaviy transkripsion resurslar (alifbo, lug‘at) ommalashmaganligi kabi omillar katta rol o‘ynayotganiga urg‘u berildi.

Ilmiy-amaliy yechimlar sifatida quyidagilar ta’kidlanadi:

– metodologiyani yangilash (rus yoki boshqa tashqi metodologiyalarni ko‘r-ko‘rona qo‘llashdan voz kechish, turkiy tillar xususiyatiga xos yondashuvlarga e’tibor qaratish);

– eksperimental tadqiqotlar kengaytirilishi (fonetika laboratoriya, portativ spektrograf va audio ma’lumotlar bazasidan foydalanish, olingan natijalarni ilmiy jamoatchilikka muntazam taqdim etish);

– fonetik atlas yaratish (mintaqa bo‘yicha shevalarni tizimli xaritalash, singarmonizm saqlangan yoki zaiflashgan nuqtalarni aniq belgilash);

– transkripsion resurslarni ommalashtirish (o‘zbek tilining transkripsion lug‘atlarini yaratish va onlayn platformalarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish);

– kompyuter lingvistikasi bilan integratsiya (ASR, TTS, mashina tarjimasi modullariga singarmonizm va undosh uyg‘unlashuvi qoidalarini integratsiya qilish, shu orqali texnologik infratuzilmani takomillashtirish).

Shunday qilib, o‘zbek tilining fonematik-fonemik xaritasi nafaqat filologik ilm, balki amaliy (dasturiy) ahamiyatga ham ega. Bu bilan tilning raqamli qayta ishlash imkoniyatlari kengayib, nutqni tanish, sintez qilish, tarjima kabi ko‘plab sohada sifat va samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, milliy lingvistik merosni eksperimental yondashuv orqali chuqur o‘rganish orqaligi ba’zi bahsli masalalarga (xususan, singarmonizmning saqlanganmi yoki yo‘qolganmi degan) to‘liq aniqlik kiritish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jakobson R., Fant G., Halle, M. Preliminaries to Speech Analysis. – Cambridge, MA: MIT Press, 1952.
2. Chomsky N. Halle M. The Sound Pattern of English. – New York: Harper & Row, 1968.
3. Prince A., Smolensky, P. Optimality Theory: Constraint Interaction in Generative Grammar. Rutgers University Center for Cognitive Science, 1993.
4. Trubetzkoy N.S. Grundzüge der Phonologie. – Prague: Travaux du Cercle Linguistique de Prague, 1939.
5. Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015.
6. Xudoyberdiyev J. O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. Toshkent: Akademnashr, 2024.
7. Коджаоглу Т. К проблеме небной гармонии гласныхв узбекском языке // Туркология. – Туркистан, 2017.

INTERNET ASOSIDA TIL O‘RGATISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ORQALI PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Toirova Guli Ibragimovna,
filologiya fanlari doktori(DSc), professor
tugulijon@mail.ru
BuxDU

Annotasiya: Mazkur maqolada internet asosida til o‘rgatish jarayonida kompyuter texnologiyalari vositasida talabalarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, onlayn ta’limda yuzaga keladigan pragmatik to‘siqlar va ularni bartaraf etishda multimedia resurslari, sun’iy intellekt, interaktiv platformalardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Annotation: This article analyzes the development of students’ pragmatic competence through computer technologies in language teaching based on the internet. It also presents the ways of overcoming pragmatic barriers in online education using multimedia resources, artificial intelligence, and interactive platforms.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы формирования и развития прагматической компетенции студентов с помощью компьютерных технологий в процессе обучения языку на основе интернета. Также представлены пути преодоления прагматических барьеров в онлайн-обучении за счёт эффективного использования мультимедийных ресурсов, искусственного интеллекта и интерактивных платформ.

Kalit so‘zlar. *pragmatik kompetensiya, kompyuter lingvodidaktikasi, internet ta’lim, madaniyatlararo kommunikasiya, elektron resurslar, sun’iy intellekt.*

KIRISh. Internet texnologiyalari rivojlanishi oxirgi o‘n yilliklarda ta’lim tizimida, ayniqsa, chet tillarini o‘rgatish sohasida jiddiy o‘zgarishlar keltirib chiqardi. Jahon miqyosida raqamli ta’lim platformalarining kengayishi, interaktiv onlayn kurslar va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv ilovalarining yaratilishi natijasida til o‘rgatish nafaqat qulay, balki global darajada ommaviy tus oldi. 2023-yilda UNESCO tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 1 milliarddan ortiq kishi internet orqali turli tillarni o‘rganayotgani qayd etilgan. Shuningdek, Coursera, Duolingo, BBC Learning English kabi platformalarning foydalanuvchilar soni yil sayin o‘sib bormoqda.

Pragmatik kompetensiyani shakllantirish, ya’ni tilni muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati, bugungi global dunyoda yanada

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro ishchi muhitda, ta’lim tizimida va madaniy almashinuv loyihalarida noto‘g‘ri nutqiy munosabatlar ko‘pincha madaniyatlararo tushunmovchiliklarga olib keladi. Shu munosabat bilan, til o‘rgatish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarni real muloqot vaziyatlariga tayyorlash bugungi kun talabidir.

O‘zbekiston miqyosida ham internet orqali til o‘rgatish sohasi keng quloch yoymoqda. Respublikada 2022-yilda Prezident tashabbusi bilan "Zamonaviy kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rgatish markazlari" tashkil etildi va ularda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023-yil hisobotida qayd etilishicha, onlayn til kurslarida qatnashgan talabalar soni 300 ming nafardan oshib ketgan. Ammo bu jarayonda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga etarlicha e’tibor qaratilayotgani yo‘q [19].

Adabiyotlar tahlili. Internet texnologiyalarining til o‘rgatishdagi axamiyati va pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga ta’siri haqidagi tadqiqotlar soni kun sayin ortib bormoqda. Modern ta’lim vositalari, xususan, sun’iy intellekt (AI) va kompyuter lingvodidaktikasi imkoniyatlarining til o‘rgatish jarayoniga kiritilishi bu boradagi nazariy va amaliyot tadqiqotlarini yangi bosqichga olib kelgan. Pragmatik kompetensiya, til o‘rgatishda faqat grammatik va leksik bilimlar bilan cheklanmay, balki tilni madaniy va ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu borada Smit va Braun o‘z ilmiy tadqiqotlarida pragmatik kompetensiyaning til o‘rgatishdagi ahamiyatini va internet texnologiyalarining ushbu jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilganlar [15]. Ular internet platforma va multimedia resurslarining pragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini quyidagicha ta’riflaganlar: “Tilni interaktiv usullar va real vaqtdagi muloqotlar orqali o‘rganish talabalarga tilning amaliyotdagi foydalanishini yaxshi tushunishga yordam beradi”[15].

Kompyuter lingvodidaktikasi, shu jumladan, virtual muhitlar va avtomatik pragmatik tahlil platformalarining o‘zlashtirish jarayonidagi ahamiyatiga alohida e’tibor berilgan. Kelli o‘z tadqiqotida kompyuter yordamida pragmatik tahlilning til o‘rganuvchilarga qanaqa yangicha echimlar taqdim etadiganligini ko‘rsatgan. Uning fikricha, “sonlar va ma’lumotlar orqali tilning pragmatik qiyosini aniqlash va o‘rganish talabalarga ko‘p jihatli faoliyatlarni amalga oshirishga yordam beradi” [10]. Kompyuter lingvodidaktikasi orqali tilni o‘rganish, fikrlash, muloqot qilish va rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishga imkon yaratadi.

Multimedia resurslar va interaktiv o‘qitish metodlari til o‘rgatishdagi axamiyatini ko‘rsatish uchun bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Chang va Li o‘z tadqiqotlarida multimedia va virtual platformalardagi amaliy o‘qitish usullarining, shu jumladan, geymifikasiya va video-dramalarning, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatganlar. Ularning fikricha, “interaktiv resurslar tilni nafaqat grammatik, balki ma’naviy va ijtimoiy kontekstda

ham to‘g‘ri qo‘llashga imkon beradi” [4]. Internet asosidagi til o‘rgatish jarayonida pragmatik to‘siqlar ham ro‘y berishi mumkin. Bu borada Li olib borgan tadqiqotda, “internet ta’limdagi pragmatik to‘siqlar – bu talaba va o‘qituvchi orasidagi kommunikasiya to‘siklari, ayniqsa, madaniy va ijtimoiy farqlar orqali ro‘y beradi” deb ta’riflangan[12]. Bu tadqiqot pragmatik to‘siqlarni bartaraf etishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Til o‘rgatishdagi yangi usullar, shu jumladan, sun’iy intellekt asosidagi avtomatik pragmatik tahlil va interaktiv resurslarni ishlab chiqishdagi innovasion yondashuvlar, o‘zbekistonida ham joriy etilmoqda. Shunday qilib, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun zamonaviy metod va vositalarning ilmiy tahlili, ularning amaliyotga tadbiq qilinishi, til o‘rganish jarayonidagi aniq maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi

Pragmatik kompetensiya – bu tilni muayyan ijtimoiy va madaniy vaziyatda maqsadga muvofiq, ma’noli va ta’sirchan tarzda qo‘llash qobiliyatidir. U leksik va grammatik bilimlardan tashqari, nutqning funksional maqsadi, kontekstga mos niyat va madaniy hassoslikni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilida “Could you open the window, please?” degan iltimos jumlasi grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo talabaning madaniy muhitni inobatga olmagan holda bevosita va qattiqroq formada “Open the window!” deyishi kommunikasiyada noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Jahon miqyosida til o‘rgatish metodikasida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standarti pragmatik kompetensiyani alohida komponent sifatida belgilagan. CEFRga ko‘ra, yuqori darajada til egallagan shaxs faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki muloqot sharoitiga mos nutq strategiyalarini ham samarali qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak [6;17].

O‘zbekistonda ham chet tillarini o‘rgatish jarayonida pragmatik bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Buni joriy etilayotgan yangi darsliklar va multimediyali onlayn o‘quv platformalari orqali kuzatish mumkin. Ammo amalda aksariyat kurslar grammatik va leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, madaniy-ijtimoiy komponentlar etarli darajada qamrab olinmagan. Shuning uchun internet asosidagi kompyuter texnologiyalarini pragmatik o‘qitish maqsadida to‘g‘ri yo‘naltirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yangi avlod ta’lim platformalari – Moodle, Google Classroom, Duolingo, ChatGPT, Edmodo va ushbu turkumga kiruvchi boshqa interaktiv vositalar – til o‘rgatishda pragmatik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu platformalarning afzalligi shundaki, ular orqali talabalar real muloqotga yaqin bo‘lgan simulyasiyalangan vaziyatlar, rolli o‘yinlar, muloqot ssenariylari va madaniy kontekstga mos muloqotlarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, Duolingo ilovasida foydalanuvchi real hayotdagi muloqotlarga asoslangan dialoglarda ishtirok etishi mumkin – bu esa talabaning tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki pragmatik jihatdan ham to‘g‘ri qo‘llashini rag‘batlantiradi[13].

ChatGPT kabi sun’iy intellekt asosidagi vositalar orqali talabalar turli madaniy kontekstda turli muloqot strategiyalarini mashq qilishi mumkin. Masalan, bir xil so‘z aytilishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni (rasmiy/norasmiy, yosh katta/yosh kichik bilan muloqot) modellashtirish va turli pragmatik yondashuvlarni solishtirish mumkin. Bu esa pragmatik farqlarni inobatga olish qobiliyatini shakllantiradi[16]. Taguchi ta’kidlaganidek, pragmatik kompetensiyani tarbiyalashda simulyativ muloqotlar va sun’iy muhitdagi mashqlar yuqori samara beradi[16].Shu bilan birga, Moodle va Google Classroom kabi platformada o‘qituvchi tomonidan maxsus tayyorlangan multimediyali materiallar, audio va video materiallar, janrlarga oid tahlil topshiriqlari orqali tilning turli uslubiy va pragmatik xususiyatlarini o‘rgatish mumkin. Masalan, rasmiy maktub yozish, blog yozish, elektron xat orqali muloqot kabi turli janrlarda talabalarni tayyorlash orqali ularda ma’noli va maqsadga yo‘naltirilgan nutq strategiyalari shakllanadi.

Elektron platformalarning yana bir afzalligi – talabalar faoliyatini avtomatik baholash, muloqotdagi xatolarni aniqlash va pragmatik masalalarda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish imkoniyatidir. Jahon bankining 2022-yil ta’lim bo‘yicha hisobotida ta’kidlanganidek, raqamli vositalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalarning nutqiy faolligi 37% ga ortadi va bu pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [18] .

Onlayn muloqotda madaniyatlararo omillar til o‘rgatish jarayonida asosiy rol o‘ynaydi, chunki til faqat grammatik va leksik elementlardan iborat emas, balki u shaxslar va jamiyatlarning turli madaniy qiymatlarini, ishoralarini va qarashlarini ham o‘z ichiga oladi. Til va madaniyat bir-biri bilan yaqin bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, har bir madaniyatning o‘zgacha til ishlatish shakllari va xususiyatlari mavjud. Internet platformada amalga oshiriladigan muloqotlar bu farqlarni tushunish va qabul qilish imkonini beradi.

Madaniyatlararo kompetensiya (Ing. intercultural competence) – bu odamning turli madaniyatlar orasida faol va samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatidir. Onlayn muloqotda buni ta’minlash uchun talabalarga turli madaniy kontekstlarda bo‘lib o‘tadigan so‘zlashuvlar, ijtimoiy me’yorlar, bag‘rikenglik va fahmlashni o‘rgatish kerak. Onlayn platformalar orqali turli madaniy ishoralarning to‘g‘ri tushunilishini ta’minlash uchun video-dramalar, rol o‘yinlari va multimedia kontentlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, onlayn platformadagi videodramalar orqali talabalar turli madaniy kontekstlar bilan tanishishadi. Bunday videomateriallar orasida, odatda, rasmiy va norasmiy muloqotlar, egalik qilish va ijtimoiy xatolarni engishga qaratilgan ssenariilar bo‘lishi mumkin. Videodramalar talabalarga muloqotdagi ijtimoiy vaziyatlarni, mavjud ijtimoiy madaniyatlarni chuqurroq tushunish va ularning ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini aniqlash imkoniyatini beradi.

Rol o‘yinlari onlayn ta’limda interkultural kompetensiyani rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu o‘yinlarda talabalar turli madaniy vaziyatlarda

qatnashishadi va ushbu vaziyatlarga mos keladigan ijtimoiy va pragmatik kodifka uyg‘unlashishni o‘rganishadi. Masalan, kimdir biznes yoki rasmiy muloqotlarda qatnashishi mumkin, boshqasi esa fuqarolik xuquqlarini muhokama qilishda yoki kundalik hayotdagi o‘zgarishlarni qabul qilishda qatnashadi. Bunday mashqlar orqali talabalar tadqiqot va muloqot strategiyalarini moslashtirishga o‘rganadilar. Multimedia kontentlar, xususan, videolar, interaktiv o‘zgarishlar va animasiyalar, talabalarga tilning turli madaniy janrlarini o‘rganish imkonini beradi. Multimedia tasvirlarini va videomateriallarni taqdim etish til o‘rgatish jarayonini aniq va dinamik qiladi, shunday qilib talabalarga turli xil madaniy kontekstlarda o‘z bilimini amaliy ravishda qo‘llashga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘rganilayotgan tildagi interkultural ogohlik, shundaki, talabalar to‘g‘ri ishlatish va o‘zgarishlarga moslashishni o‘rganadilar. Bu borada bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, 2021-yildagi tadqiqotga ko‘ra, onlayni dasturlar va multimedia kontentlari orqali madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, nafaqat o‘rganilayotgan tilga oid bilimlarni, balki o‘zgaruvchan ijtimoiy va madaniy muhitda amalga oshiriladigan muloqotlar malakasini ham oshirdi [2,3]. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar, video-dramalar va rolli o‘yinlar talabalarning tildagi pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Pragmatik to‘siq — bu til o‘rganish va muloqot jarayonida paydo bo‘ladigan muammolar, ular insonning tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda to‘g‘ri va samarali ishlatish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi. Pragmatik to‘siqlar til o‘rganuvchining so‘zlashuvdagi samaradorligini, aniqlikni va mazmunni to‘g‘ri etkazishini murakkablashtiradi.

Rus tilidagi "Как с гуся вода" va o‘zbek tilidagi "Suvdan quruq chiqmoq" iboralari tilshunoslikda ikki xalqning madaniy va pragmatik kontekstiga mos keladi. Ular o‘xshash ma’no va maqsadga ega bo‘lib, insonning vaziyatlarga nisbatan barqarorligini, stressga e’tibor bermasligini va muammolardan omad bilan chiqib ketishini bildirish uchun ishlatiladi.

Rus tilida "Как с гуся вода" iborasi g‘ozlarning tabiiy xususiyatiga asoslangan bo‘lib, ular suvda suzishsa ham, o‘ziga xos yog‘langan parhalari tufayli hech qachon cho‘kmaydi. Bu ibora odamning muammolardan, tanqidlardan, xavflardan qandaydir ta’sir ko‘rmasdan, omad bilan o‘tishini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi "Suvdan quruq chiqmoq" iborasi ham shu ma’noni o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni inson muammolardan yoki xavfdan ta’sirlanmay, o‘ziga xos muqobillik va mas’uliyat bilan va kerakli reaksiya bilan vaziyatdan chiqishni bildiradi.

Shunday qilib, bu iboralar tilshunoslikda frazeologizmlarning amaliy va pragmatik ishlatilishining o‘xshashligini ko‘rsatadi. Buning orqali har bir tilda frazeologizmlar bilan ma’no to‘ldirilgan har bir xulosa, tilni amaliy va ma’naviy jihatdan qanchalik yaxshi izohlash va ularning madaniy kontekstlarini anglatishga yordam beradi.

O‘zbek va rus tillaridagi ayrim frazeologizmlar o‘xshash pragmatik mazmunga ega bo‘lishi mumkin, ular jamiyatdagi muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstlarga asoslanib shakllanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi "Bir burda nonga zor" va rus tilidagi "сидет на хлебе и воде" iboralari o‘rtasidagi ma’nolar va ularning pragmatik konteksti o‘xshashdir.

1. O‘zbek tilidagi "Bir burda nonga zor" iborasi, asosan, qiyin hayot shartlarida yashovchi yoki ehtiyojga muhtoj bo‘lgan shaxsni anglatadi. Bu ibora, insonning moddiy yoki ma’naviy yordamga ehtiyojini, uning hayotdagi kurashish jarayonidagi og‘irliklarini ta’riflaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlarda shaxsning yangicha holatga tushishini ko‘rsatib, uning har kungi kurashishini va ko‘proq ehtiyojni qondirish uchun bor kuchini ishga solishini ifodalaydi.
2. Rus tilidagi "сидет на хлебе и воде" iborasi esa, odamning qiyin vaziyatda, omadsizlik va kerakli manbalardan mahrum bo‘lishini, juda kam yoki engil taomlanishni anglatadi. Bu, asosan, shaxsning kurashishga va muammolarga qaramasdan, qiyin va kambag‘al hayot sharoitida yashashini belgilaydi.

Ikkala ibora ham ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda insonning qiyin vaziyatlardan omad bilan chiqishini yoki ularga qarshi kurashishini ko‘rsatadi. Biroq, har ikki iboraning pragmatik mazmunidagi farqlar, tillar orasidagi nazariy va amaliyotga oid qo‘shimcha jihatlarning muhimligini namoyon etadi.

Shuningdek, ushbu frazeologizmlar tildagi mavjud metaforalarning amaliy va madaniy ko‘rinishlarini ifodalagan holda, tilshunoslik va pragmatikada frazeologizmlarning ro‘yxatini shakllantirishga hissa qo‘shadi. Bu iboralar, nafaqat tilning ko‘p qirraliligini, balki turli madaniy kontekstlarda qanday ma’lumotlar ishlatilishi mumkinligini ham ko‘rsatadi.

Pragmatik to‘siqlarni bartaraf etish uchun quyidagi usullar va metodikalar ishlatish mumkin:

1. Modellashtirish va rol o‘yinlari – onlayn platformalar orqali turli muloqot vaziyatlari simulyasiya qilinadi, bunda talabalar hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy-mədaniy faktorlarni hisobga olib, turli situasiyalarda noto‘g‘ri ta’bir va adashishlarga yo‘l qo‘ymasdan muloqot olib borishga harakat qiladilar. Bunday interaktiv mashqlar pragmatik to‘siqlarni yo‘q qilishda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, Moodle va Google Classroom platformalarida talabalarga turli tillardagi muhokamalarni tartibga solishga yordam beruvchi vazifalar berilsa, ularning kommunikativ qobiliyatlari rivojlanadi.
2. Madaniy kontekstni tushunish – til o‘rganuvchiga, uzbek va rus tillaridagi frazeologizmlar, ifoda va shuningdek, so‘zlar va o‘rganilgan madaniyatning mazmunini taqdim etish muhimdir. Madaniy kontekstga oid materiallarni ishlatish (masalan, video-dramalar va multimedia kontentlar) talabalarga ikki tilda ham to‘g‘ri nutq va ifodaga ega bo‘lishni amalga oshirishga yordam beradi. Shunday usullar orqali pragmatik to‘siqlarni bartaraf etish uchun talabalarga har bir vaziyatdagi madaniy va ijtimoiy xususiyatlar tushuntiriladi.

3. Avtomatik mulohaza va sun’iy intellekt orqali yordam – Qurilgan kompyuter modellari, shu jumladan, sun’iy intellektga asoslangan avtomatik mulohaza berish tizimlari pragmatik xatolarni aniqlash va to‘g‘ri baho berish imkonini beradi. Masalan, ChatGPT yoki boshqa NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash) tizimlari talabalarga muloqotdagi xatolarni aniqlab, ularni tahlil qilib, aniq tavsiyalar beradi.

4. Situativ modellashtirish – Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun talabalarga turli amaliy vaziyatlar modellashtiriladi, shuningdek, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytirish maqsadida interaktiv va realistik ssenariylar ishlab chiqiladi. Bu yordam beradi, chunki til o‘rganuvchi har xil tildagi vaziyatlar uchun to‘g‘ri ishlatishni o‘rganadi, shuningdek, ularning fahmlovchi va kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, internet asosidagi ta’limda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy til o‘rgatishdagi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda, kompyuter lingvodidaktikasi vositalarini, jumladan, multimedia texnologiyalarini, virtual muloqot muhitlarini va sun’iy intellektga asoslangan mashqlarni faol qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar nafaqat tilning grammatik va leksik komponentlarini, balki uning pragmatik, madaniy va emosional jihatlarini ham chuqur o‘rganish imkonini yaratadi. Bu esa talabalarga tilni hayotda va turli muloqot vaziyatlarida to‘g‘ri va samarali qo‘llashga yordam beradi. Tavsiyalar: Til o‘rgatishda madaniy kontekstni qamrab olgan interaktiv resurslar ishlab chiqish, bu orqali talabalarning nafaqat tilni, balki uning madaniy va ijtimoiy kontekstlarini ham o‘zlashtirishiga erishish mumkin; Sun’iy intellekt yordamida avtomatik pragmatik tahlil platformalarini yaratish, bu talabalarning tilni pragmatik nuqtai nazardan analiz qilish va uning turli kontekstlarda qo‘llanishini yaxshilashga yordam beradi; Talabalarning nutqiy faoliyatini baholashda kompyuter texnologiyalarini joriy etish, bu hamdagi mustaqil ishlashga imkon yaratadi va ularning to‘g‘ri va samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, pragmatik kompetensiyaning rivojlanishi mukammal til o‘rgatish tizimida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim vositalari orqali bu maqsadlarga erishish uchun yanada ko‘proq tadqiqotlar va innovasion yo‘nalishlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bardovi-Harlig, K. (2013). Developing L2 Pragmatics. Language Learning, 63(S1), 68–86.
2. Baxmann, L. F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford University Press.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics.

4. Chang, R., & Li, H. (2019). Multimedia resources and interactive teaching methods in foreign language learning. International Journal of Educational Technology, 29(2), 99–110.
5. Chapelle, C. A. (2001). Computer applications in second language acquisition. Cambridge University Press.
6. Council of Europe. (2020). CEFR Companion Volume with New Descriptors. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
7. Coursera Impact Report. (2022). Retrieved from: https://about.coursera.org/impact
8. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
9. Duolingo Language Report. (2023). Retrieved from: https://blog.duolingo.com
10. Kelly, P. (2021). Automated pragmatic analysis in language education: A new horizon. Journal of Educational Technology, 58(1), 120–134.
11. Kramsch, C. (1998). Language and Culture. Oxford University Press.
12. Li, T. (2022). Pragmatic barriers in online language learning: A systematic review. Journal of Language and Communication Studies, 35(3), 220–238.
13. Loewen, S., Isbell, D. R., & Sporn, Z. (2020). The effectiveness of app-based language instruction for developing receptive linguistic skills. Foreign Language Annals, 53(2), 209–233.
14. President qarori: Yoshlar va aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish dasturi. (2022).
15. Smith, J. & Brown, A. (2020). Pragmatic competence and technology-enhanced language learning. Language Teaching Research, 24(4), 437-455.
16. Taguchi, N. (2015). Instructed Pragmatics at a Glance: Where Instruction Has Been and Where It Should Go. Language Teaching, 48(1), 1–50.
17. UNESCO Institute for Statistics. (2023). Global Education Monitoring Report.
18. World Bank. (2022). Remote Learning During COVID-19: Lessons from Today, Principles for Tomorrow. Retrieved from: https://www.worldbank.org
19. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳисоботи. (2023). Retrieved from: https://edu.uz

I SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING FORMAL GRAMMATIKASI YARATISH

OT SO‘Z TURKUMIGA OID BIRLIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATI

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Bekmurzayeva Maftuna Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxasisligi magistranti
baratovamaftuna09@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumi, uning leksik-grammatik xususiyatlari, morfologik shakllanishi va sintaktik funksiyalari tahlil qilinadi. Maqolada otlarning turdosh va atoqli bo‘lishi, ularning semantik guruhlari, shuningdek, otlarni klassifikatsiya qilish usullari haqida keng ma’lumotlar keltirilgan. Kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan, otlarni avtomatik teglash va ularning semantik va morfologik tahlili ham ko‘rib chiqiladi. Otlarning tilshunoslikdagi o‘rni va ularning zamonaviy tadqiqotlarda qanday yangi yondashuvlar bilan o‘rganilishi, jumladan, affiksatsiya, kompozitsiya va abbreviatsiya usullari orqali yasalishi tahlil qilinadi.Tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) ot so‘z turkumini morfologik teglash va ular uchun lingvistik baza yaratish muhim masala hisoblanadi. Otlarning semantik tasnifi, grammatik kategoriyasi, morfologik xususiyatlari morfologik teg uchun muhim hisoblanadi.

Abstract. This article analyzes the noun part of speech in the Uzbek language, its lexical-grammatical features, morphological formation, and syntactic functions. The article provides detailed information about the distinction between animate and inanimate nouns, their semantic groups, as well as methods for classifying nouns. From the perspective of computational linguistics, the automatic tagging of nouns and their semantic and morphological analysis are discussed. The article also analyzes the role of nouns in linguistics and the new approaches in their study in contemporary research, including the formation of nouns through affixation, composition, and abbreviation. In natural language processing (NLP), an important issue is the morphological tagging of nouns and the creation of a linguistic database for them. The semantic classification of nouns, their grammatical category, and morphological characteristics are crucial for the morphological tag.

Аннотация. В данной статье анализируется существительное как часть речи в узбекском языке, его лексико-грамматические особенности, морфологическое формирование и синтаксические функции. В статье приведены подробные данные о различиях между одушевленными и неодушевленными существительными, их семантические группы, а также методы классификации существительных. С точки зрения компьютерной лингвистики рассматриваются автоматическая тегировка существительных и их семантический и морфологический анализ. Также анализируется роль существительных в языкознании и новые подходы в их изучении в современных исследованиях, включая образование существительных с помощью аффиксации, композиции и аббревиации. В обработке естественного языка (NLP) важным вопросом является морфологическая тегировка существительных и создание лингвистической базы данных для них. Семантическая классификация существительных, их грамматическая категория и морфологические характеристики являются важными для морфологического тега.

Kalit so‘zlar: *ot so‘z turkumi, semantik tasnif, grammatik kategoriya, morfologik xususiyat, teg.*

Kirish

Ot so‘z turkumi tilning eng asosiy leksik-grammatik birliklaridan biri bo‘lib, har qanday tabiiy tilda muhim sintaktik va semantik ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida otlar shaxs, narsa, hodisa ifodalovchi so‘zlar guruhini tashkil etib, ularning morfologik shakllanishi va sintaktik rolini belgilovchi turli grammatik omillar mavjud.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikda ot so‘z turkumining leksik-grammatik xususiyatlari yuzasidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan. A. M. Mahmudov (2000), Sh. R. Rahmatullayev (1982), N. G‘. Mallaev (1976) kabi olimlar tomonidan otlarning grammatik kategoriyalari, sintaktik vazifalari va semantik tasnifi chuqur o‘rganilgan. Shu bilan birga, zamonaviy lingvistika doirasida otlarning grammatik strukturasi, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari bo‘yicha ham tadqiqotlar davom etmoqda.

Kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan otlarning avtomatik teglanishi, ularning semantik va morfologik jihatdan tahlil qilinishi sohasida olib borilgan tadqiqotlar [1] ushbu sohadagi yangi yondashuvlarni ochib beradi. Ushbu maqolada an’anaviy va zamonaviy tadqiqotlar asosida otlarning lingvistik tavsifi keng tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Predmetlik ma’nosini anglatadigan so‘z turkumi *ot* deyiladi. Ot bu ma’noni son, egalik va kelishik grammatik kategoriyalari ifodalaydigan ma’no bilan birgalikda anglatadi. [2]

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetning umumiy nomini bildirishiga kora *atoqli va turdosh* otga bo ‘linadi.

Atoqli otlar atab qo‘yilgan yakka shaxsning nomi, borliqdagi yakka narsa, voqea-hodisalarning nomi hisoblanadi va ***[NP]*** (***Proper noun)*** shaklida teglanadi. Atoqli ot quyidagi ma’noviy guruhlarga ega:

Atoqli otlarning ma’noviy guruhlari: *[Qo‘lda teglanadi]*

1	Shaxs nomi	(Otabek)	**[[NPTitl]]**
2	Geografik nom	(O‘zbekiston)	**[[NPGeo]]**
3	Tashkilot, muassasa, korxona nomi	(Xalq ta’limi vazirligi)	**[[NPOrg]]**
4	Samoviy yoritgichlar nomi	(Zuhro, Yupiter)	**[[NPCos]]**
5	Tarixiy sana yoki bayram nomi	(Mustaqillik kuni)	**[[NPDt]]**
6	Hayvon nomi	(To‘rtko‘z, Arslon)	**[[NPAnm]]**
7	Maxsulot nomi	(Siltana – ovqat)	**[[NPPrd]]**
8	Ilohiy tushuncha nomi	(Iso, Jannat)	**[[NPDvn]]**

Turdosh otlar ot so‘z turkumidagi so‘zlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Turdosh otlar bir jinsdagi shaxs, narsa, hayvonlar, voqea-hodisalarning nomlari bo‘lib ular haqidagi umumiy predmetlik tushunchasini anglatadi va ***[[NC]]*** (***Noun Cognate***) kabi teglanadi.

Turdosh otlarning leksik-semantik ma’no turlari *[Qo‘lda teglanadi]*

1	modda nomi	(oltin, kumush)	**[[NCM]]**
2	shaxs tavsifi nomi	(chol, yigit)	**[[NC]]**
3	narsa/buyum nomi (qalam, kitob)	(qalam, kitob)	**[[NCPrd]]**
4	o‘simlik va uning qismlari nomi	(daraxt, barg)	**[[NCPlt]]**
5	miqdor nomi	(misqol, tonna)	**[[NCNU]]**
6	tashkilot va muassasa nomi	(maktab, idora)	**[[NCOrg]]**
7	o‘rin-joy nomi	(qishloq,shahar)	**[[NCOrg]]**
8	vaqt-payt nomi	(kun, fasl, tong)	**[[NCWhl]]**
9	inson tana a’zolari nomlari	(soch, yurak)	**[[NCBdyPrt]]**
10	hayvon va uning a’zolari nomi	(kuchuk, ot, tuyoq)	**[[NCAn]]**
11	oziq-ovqat nomi	(non, suv)	**[[NCFd]]**
12	diniy-ilohiy tushuncha nomi	(nomoz, rukn)	**[[NCDvn]]**
13	faoliyat/jarayon nomi	(uchrashuv, tortishuv)	**[[NCEv]]**

Bevosita kuzatishga ko‘ra otlar ikkiga bo‘linadi:

1	aniq otlar	**[[NCnc]]**
2	mavhum otlar	**[[NAbs]]**

Aniq otlar konkret shaxs yoki narsani bildiradi. Aniq otlar bevosita ko‘rish va sanash mumkin bo‘lgan narsalarni anglatgani uchun sanoq son bilan ifodalangan sifatlovchi oladi, shuningdek, birlik va ko‘plik shakllarida ham qo‘llanadi: *ruchka – uchta ruchka – ruchkalar, qiz – beshta qiz – qizlar, shahar – yigirmata shahar – shaharlar* kabi. Aniq otlarni teglash jarayoni avval qo‘lda amalga oshiriladi so‘ng avtomatlashtiriladi.

Mavhum otlar mavhum tushunchalarni, belgi, xususiyat, harakat va holatni narsa sifatida bildiradi. Bunday otlar (Mavhum otlar) ko‘plikda kelmaydi: *sevgi, g‘am, baxt, alam, muhabbat* kabi. Mavhum otlarni teglash jarayoni avval qo‘lda amalga oshiriladi so‘ng avtomatlashtiriladi. [2]

Tuzilishiga ko‘ra*[Qo‘lda teglanadi]*

1. Sodda ot [[ND]]

Sodda otlar faqat bir asosdan tarkib topgan otlardir. Sodda otlar tub va yasama bo‘ladi *(daftar, ishlarimiz, o‘roq).*

2. Qo‘shma ot [[NCmp]]

Qo‘shma otlar ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan otlardir *(kungaboqar, beshbarmoq, qolqop).* Qo‘shma otlar qoshib yoki ajratib yoziladi. Ikkinchi qismi turdosh ot bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi *(Oltariq, Yangibozor).* Ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan qo‘shma otlat ajratib yoziladi *(O‘rta Osiyo, O‘rta Chirchiq).*

3. Juft ot [[NCpl]]

Juft otlar ikkita otning juftlashuvidan hosil bo‘ladi va chiziqcha bilan yoziladi *(kitob-daftar, ota-ona, orzu-armon, gap-so‘z).*

4. Takroriy ot [[NRep]]

Takroriy otlar otni aynan yoki tovush o‘zgarishi bilan takrorlash orqali hosil qilinadi. Takroriy otlar chiziqcha bilan ajrtib yoziladi *(savat-savat, dasta-dast, uy-puy).*

Otning funksional shakllari mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir qo‘shimcha grammatik ma’no ifodalash, otlarning kategorial shakllariga xos bo‘lmagan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasalishga ko‘ra 3 tipi mavjud:

1) sintetik shakl;

2) analitik shakl;
3) juft va takror shakl.

Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo‘llari bilan yasaladi.

Yasalishiga ko‘ra

4.1. Tub [[ND0]]
4.2. Yasama [[ND1]]
2.1. affiksatsiya [[ND1Af]]
So ‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali yasaladi *(buyruq, o‘roq)*.
2.2. kompozitsiya [[ND1Cmp]]
Ikkita mustaqil so‘z qo ‘shilib yangi ma’noli so‘z hosil bo‘ladi, kompazitsiya usuli orqali qo‘shma va juft ot hosil qilinadi *(tuyaqush, oybolta)*.
2.3. abbreviatsiya [[ND1abv]]
Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi (BMT, ToshDO‘TAU, SamDU, O‘zMU).

Predmetning o‘zini yoki to‘dasini bildirishiga ko‘ra*[Qo‘lda teglanadi]*

3.1. Jamlovchi ot **[[NN]]**
Jamlovchi otlar bir jinsdagi narsalarning yig‘indisini bir butun holatda anglatadigan turdosh ot. *(Xalq, armiya, meva)*

3.2. Yakka ot **[[NN1]]**
Yakka otlar to ‘da sostaviga kirgan alohida predmetlarni bildiradi. Bunday otlarning birlik shaklida ham ko‘plik shaklida ham narsalar yakka-yakka holatda tasavvur qilinadi. *(dehqon-dehqonlar, kishi-kishilar, odam-odamlar)*

Xulosa. O‘zbek tilida ot so‘z turkumi tilning eng asosiy leksik-grammatik birliklaridan biri sifatida, uning semantik va grammatik tahlili tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Otlar, nafaqat leksik ma’nolarni ifodalashda, balki sintaktik tuzilmalarda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida otlarning tasnifi, ularning grammatik kategoriyalari va semantik guruhlari bo‘yicha ilgari surilgan tadqiqotlar o‘zbek tili grammatikasining murakkabligini va boyligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy kompyuter lingvistikasi tadqiqotlari otlarning avtomatik tahlili, ularning morfologik va semantik jihatlarini aniqlashda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu esa nafaqat tilshunoslarga, balki tilni ishlatish va o‘rganish jarayonlarini avtomatlashtirishga intilayotgan texnologik sohalarga ham katta foyda keltiradi.

Otlarning morfologik shakllanishi, sintaktik roli va semantik xususiyatlari o‘zbek tilining tilshunoslikda o‘rganilishi kerak bo‘lgan muhim sohalaridan biridir. Kelajakda bu sohada olib borilgan tadqiqotlar va yangi metodlar tilni yanada mukammal va chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi. O‘zbek tilida ot so‘z turkumi leksik-grammatik jihatdan keng ko‘lamli tadqiqot talab qiluvchi murakkab tizimni tashkil etadi. Semantik va grammatik xususiyatlar nuqtayi nazaridan otlarning tasnifi, ularning morfologik shakllanishi va sintaktik funksiyalari tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy lingvistika va kompyuter lingvistikasi kontekstida otlarning avtomatik tahlil qilinishi ularning yanada chuqur o‘rganilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing. Stanford University Press.
2. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent “O‘zbekiston” 1992
3. Hojiyev, A. (2019). O‘zbek tili morfologiyasi. Toshkent: Fan.
4. Hamroyev, M. (2020). O‘zbek tilida so‘z turkumlari tasnifi. O‘zbek tili va adabiyoti, 3, 45-52.
5. Mengliyev, B. (2021). O‘zbek tili morfologik analizatori. Kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt, 2(1), 12-24.
6. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Uzakova M. O‘zbek tilida POS tegging masalasi: muammo va takliflar / Uzbekistan: Language and Culture. Applied philology. 2022/2(5). – 51-68-b.
7. Elov B., Hamroyeva Sh., Xudayberganov N., Yodgorov U., Yuldashev A. Pos tagging of Uzbek texts using hidden Markov models (HMM) and Viterbi algorithm. O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. 2023 yil Maxsus son
8. Sokirko, A. V. (2021). Morphological analysis algorithms for Turkic languages. Computational Linguistics and Intellectual Technologies, 15(2), 156-169.
9. https://cyberleninka.ru https://github.com/Step2AI/Uzbek-tilidagi-Suniy-Intellektmanbalari.
10. https://github.com/Step2AI/Uzbek-tilidagi-Suniy-Intellektmanbalari.

UDK: 81.33

KAM RESURSLI TILLARDA G2P MODEL TAYYORLASHDA FONETIK KORPUSLARNING AHAMIYATI: O‘ZBEK TILI MISOLIDA

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug‘bek qizi,
tayanch doktorant
gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada kam resursli tillar, xususan o‘zbek tili uchun Grafema-fonema (G2P) modelini yaratishda fonetik korpuslarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. G2P konversiyasi – matnni fonemalarga aylantirish jarayoni bo‘lib, zamonaviy nutq sintezi (TTS) tizimlarining asosiy komponentlaridan biridir. O‘zbek tili fonetik tizimining murakkabligi, undagi tarixiy, fonologik va morfonologik xususiyatlar, shuningdek, dialektal tafovutlar fonetik korpuslar asosida formallashtirilmaguncha, modelning sifatli ishlab chiqilishi mushkul bo‘ladi.

Abstract: This article explores the significance and role of phonetic corpora in developing Grapheme-to-Phoneme (G2P) models for low-resource languages, with a particular focus on the Uzbek language. G2P conversion – the process of mapping text to phonemes – is a core component of modern Text-to-Speech (TTS) systems. Due to the complexity of Uzbek phonetics, including its historical, phonological, and morphonological features, as well as dialectal variation, a high-quality G2P model cannot be effectively developed without the formalization of phonetic corpora.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение и роль фонетических корпусов при создании моделей преобразования графем в фонемы (G2P) для языков с ограниченными ресурсами, в частности, узбекского языка. Преобразование G2P – это процесс трансформации текста в фонемы, который является ключевым компонентом современных систем синтеза речи (TTS). Сложность фонетической системы узбекского языка, включая её исторические, фонологические и морфофонологические особенности, а также диалектные различия, делает невозможным создание качественной G2P-модели без формализации фонетического корпуса.

Kalit so‘zlar: *fonetik korpus, grafema, transkripsiya, alifbo, lug‘at, ma’lumotlar bazasi*

G2P (grafemadan fonemaga o‘tkazish) modeli matndagi so‘zlarni ularning talaffuziga avtomatik konvertatsiya qilish vazifasini bajaradi. Bu texnologiya nutqni sintezlash (Text-to-Speech, TTS) va nutqni avtomatik tanish (Automatic Speech Recognition, ASR) tizimlarida muhim rol o‘ynaydi[1]. Masalan, TTS jarayonida tovushlarning to‘g‘ri chiqarilishini ta’minlash uchun matnni fonetik transkripsiyaga aylantirish zarur bo‘ladi – ayniqsa yangi yoki lug‘atda yo‘q so‘zlarda (Out-of-vocabulary, OOV)[2]. Yetakchi xalqaro tillar (ingliz, fransuz, rus) uchun bunday modellar mavjud bo‘lib, ularni tayyorlashda keng qamrovli talaffuz lug‘atlari va fonetik korpuslardan foydalaniladi[3]. Biroq, kam resursli tillarda – jumladan, o‘zbek tilida – bunday fonetik ma’lumotlar bazasi yo’qligi G2P modelini yaratishni qiyinlashtiradi.

O‘zbek tili dunyoda o‘n million insonlar tomonidan so‘zlashiladi (turli baholashlarga ko‘ra 30-40 million atrofida[4] va turkiy tillar orasida ikkinchi eng ko‘p so‘zlovchiga ega tildir. Shunga qaramay, hozirgi paytda o‘zbek tilida talaffuz lug‘atlari yoki fonetik belgilangan matn korpuslari deyarli mavjud emas. Natijada, G2P modelining aniqligi uchun zarur bo‘lgan orfografiya – tovush mosliklarini mashinaga o‘rgatish murakkablashadi. Masalan, bir necha tillar uchun yaratilgan ko‘p tilli G2P tizimlari[5] o‘zbek tilini ham qamrab olgan bo‘lsa-da, ularning resurslari to‘liq ishonchli emas: CharsiuG2P loyihasi o‘zbek tili bo‘yicha ishlatilgan talaffuz lug‘atida xatoliklar borligini va uni yangilash zarurligini qayd etgan[6]. Bu holat kam resursli tilga xos bo‘lgan muammo – *fonetik ma’lumotlarning sifati va standartlashmagani* – modelga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Fonetik korpus tuzish bosqichlari (1-rasmga qarang). O‘zbek tili uchun G2P modelini yaratishda birinchi navbatda fonetik korpus – ya’ni so‘zlar va ularning to‘g‘ri fonemik transkripsiyasidan iborat ma’lumotlar to‘plami – shakllantiriladi. Korpus tuzish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:



1-rasm. Fonetik korpus tuzish bosqichlari

Ma’lumot to‘plash: avvalo, o‘zbek tilida reprezentativ matnlar to‘plami yig‘iladi. Bu jarayonda adabiy va og‘zaki nutqni qamrab oluvchi turli janr va uslubdagi matnlar (rasmiy hujjatlar, yangiliklar, badiiy asarlar, og‘zaki nutq namunalari) tanlanadi. Maqsad – korpusda o‘zbek tilidagi barcha asosiy tovush

birikmalari va holatlarini qamrab olishdir. Korpusga kiritiladigan so‘zlar soni imkon qadar ko‘proq va xilma-xil bo‘lishi lozim (masalan, 50 – 100 ming atrofida so‘z shakllari). Yig‘ilgan xom matnlar tozalash va normalizatsiya qilinadi: keraksiz belgi va shum (masalan, raqamlar, qisqartmalar) chiqarib tashlanadi, yoki standart ko‘rinishga keltiriladi. So‘zlar alohida leksik birliklar sifatida ajratiladi va korpusning leksik ro‘yxati shakllantiriladi.

Fonemik transkripsiya va annotatsiya: keyingi bosqichda korpusdagi har bir so‘zning fonemik transkripsiyasi tayyorlanadi. Buning uchun transkripsiya standarti tanlanishi zarur. Ilmiy amaliyotda xalqaro IPA (International Phonetic Alphabet) keng qo‘llaniladi, chunki u barcha tovushlarni unifikatsiyalangan belgilarda ifodalash imkonini beradi. O‘zbek fonetikasi uchun moslashtirilgan alifbo ham qo‘llaniladi. Transkripsiyani lingvist-mutaxassislar qo‘lda bajarishi yoki maxsus yarim-avtomatik vositalar yordamida amalga oshirishi mumkin. Hozirgi kunda mavjud ba’zi dasturlar (Epitran, CharsiuG2P, MFA) boshqa tillardagi modellarga asoslanib o‘zbekcha taxminiy transkripsiya berishi mumkin, lekin ularni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash lozim – yuqorida ta’kidlanganidek, ko‘p tilli model bergan transkripsiya xatolarini inson tomonidan tuzatish talab etiladi. Demak, annotatsiya jarayoni sifat jihatdan nazoratlangan bo‘lishi kerak: har bir so‘zning transkripsiyasi kamida ikki mutaxassis tomonidan tekshirilishi, bir xil transkripsiya me’yoriga rioya etilishi zarur. Annotatsiyada fonemalar izchil belgilanishi (bir xil tovush har doim bir xil belgi bilan ifodalanishi shart), urg‘u yoki intonatsiya kabi qo‘shimcha prosodik belgilar zarur bo‘lsa, alohida belgi bilan ko‘rsatilishi mumkin.

Ma’lumotlarni formatlash va bazaga kiritish: transkripsiyalangan korpus ma’lumotlari lug‘at shaklida tartiblanadi, har bir qatorda so‘z va uning fonetik transkripsiyasi yozilgan format (masalan, JSON ko‘rinishda) saqlanadi. Bu lug‘at G2P modelini o‘qitish uchun tayyor ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi. Korpus tuzishda, shuningdek, morfologik belgilarni ham saqlab qo‘yish foydali bo‘ladi, chunki o‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lib, morfemalar chegarasida tovush o‘zgarishlari kuzatilishi mumkin. Korpusning har bir yozuvi ko‘rinishi jihatdan: *“so‘z – [fonemik transkripsiya]”* tarzida bo‘ladi. Misol: kitob — [k i t ɒ b], quyosh — [q u j ɒ ʃ] kabi.

Modelni o‘qitish (tayyorlash): tayyor fonetik korpus asosida G2P modeli o‘qitiladi. G2P modellarini ishlab chiqishda ikki asosiy yondashuv mavjud: lug‘atga asoslangan va qoidaga asoslangan usullar. Lug‘atga asoslangan usulda katta hajmdagi tayyor talaffuz lug‘ati modelga yuklanadi va undan statistik yoki neyron tarmoq usullari bilan yangi so‘zlar uchun talaffuz generatsiya qilinadi. Qoidaga asoslangan yondashuvda esa tilshunoslikdagi fonologik qoidalar dasturlashtiriladi va faqat istisno so‘zlar uchun alohida lug‘at yuritiladi. Hozirgi zamon G2P modellari ushbu yondashuvlarning kombinatsiyasidan foydalanadi. Masalan, Phonetisaurus[7] kabi vositalar WFST asosida lug‘atni o‘rgatib, keyin yangi so‘zlarni statistik

qoidalar yordamida transkripsiya qiladi[8]. NVIDIA NeMo yoki CharsiuG2P kabi platformalar esa neyron tarmoqqa asoslangan yondashuvdan foydalanadi (masalan, Transformer arxitekturasi yoki ByT5 modeli) va bir nechta til uchun birgalikda o‘qitilib, keyin ma’lum bir tilga moslashtiriladi. Bizning holatda, korpus nisbatan kichik va tilimiz xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lgani uchun, qoida-lug‘atli model konsepsiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq: ya’ni, o‘zbek tilining fonetik qonuniyatlarini inobatga olgan holda, kichik lug‘at va qoidalar integratsiyasi bilan ishlaydigan modelni tanlash. Bu jarayonda Phonetisaurus yoki MFA[9] singari vositalar yordamida avval grafema-fonema moslashtirish (alignment) amalga oshirilib, so‘ng n-gram model yoki neyron tarmoqni o‘qitish orqali grafema ketma-ketliklaridan fonema ketma-ketliklariga xarita hosil qilinadi. Modelni tayyorlashda korpusning 80-90% qismi o‘qitish uchun, qolgan qismi test va tasdiqlash (validation) uchun ajratiladi. Natijada, model yangi berilgan so‘zning imlosidan uning talaffuzini bashorat qilishni o‘rganadi.

Modelni baholash: G2P model sifatini o‘lchash uchun fonemik xato darajasi (Phoneme Error Rate, PER) yoki so‘z bo‘yicha aniqlik kabi mezonlar qo‘llanadi. Tayyor model korpusdan ajratib olingan test to‘plamidagi so‘zlar uchun transkripsiya yaratadi va ular mutaxassis tayyorlagan etalon transkripsiya bilan taqqoslanadi. Kam resursli til sharoitida modelning dastlabki natijalari kutilganidek pastroq bo‘lishi mumkin; bu holda modelni takomillashtirish uchun korpusni kengaytirish (yangi so‘zlar qo‘shish), yoki model arxitekturasini murakkablashtirish kabi choralar ko‘riladi. Shu tariqa, metodologiya bosqichlari takomillashtirib borilishi ham mumkin – masalan, model chiqishlaridagi tizimli xatolar tahlil qilinib, ularni tuzatish uchun korpus annotatsiyasiga qo‘shimcha qoidalar yoki misollar kiritiladi.

Fonemik transkripsiya standarti va annotatsiya prinsiplari. Fonetik korpusni annotatsiya qilishda fonemik transkripsiya standartining to‘g‘ri tanlanishi va izchil qo‘llanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbek tilining tovush tizimi uchun alifbo IPA standartiga moslashtirilishi kerak. Transkripsiyada unli fonemalar uchun IPA belgilarini qo‘llaganda, ularning allofonik variantlari ham e’tiborga olinadi. O‘zbek tilida ba’zi kombinator hodisalar yuz beradi, ular transkripsiya me’yorlarida aks ettirilishi lozim. Masalan, jarangli/jarangsizlanish assimilatsiyasi: so‘z ichida yoki qo‘shimcha qo‘shilganda, ba’zan yonma-yon undoshlar bir-biriga ta’sir qiladi. Transkripsiya jarayonida barcha qoidalar ishlab chiqilib, bir xil uslubda bajarilishi kerak. Bu degani, biror tovushni ifodalash uchun qanday belgi tanlansa, hamma joyda shuni qo‘llash lozim; birikma yoki qisqartmalarning talaffuzi bo‘yicha formallashtirilib, qat’iy rioya qilinadi. Masalan, “SMS” so‘zi harflab o‘qiladi (es-em-es) yoki “YUNESKO” qisqartmasi [Yunesko] deb o‘qiladi – buni oldindan hal qilib, korpusga to‘g‘ri kiritish kerak. Annotatsiya prinsiplari bo‘yicha qo‘llanma tuzilib, ularda turli murakkab holatlar uchun yechimlar ko‘rsatiladi. Bu prinsipial

jihatlar model sifatiga katta ta’sir qiladi – agar bir xil so‘z turlicha transkripsiya qilinsa, model buni shovqin sifatida qabul qilib, noto‘g‘ri o‘rganadi.

Fonetik korpus sifati va model natijalari. G2P modelining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tayyorlangan fonetik korpusning sifatiga bog‘liq. Agar korpusda xatolar yoki nomuvofiqliklar bo‘lsa, model noto‘g‘ri tarzda o‘rganadi va bu talaffuz xatolariga olib keladi. Shu bois, korpus annotatsiyasida qo‘yilgan qoidalarga qat’iy amal qilish va uni imkon qadar to‘liq va xatosiz qilish muhim. Misol uchun, o‘zbek tilida “o” va “o‘” fonemalarini adashtirish modelni chalg‘itishi va natijada “ol” va “o‘l” so‘zlarini farqlay olmaslikka olib kelishi mumkin. Shunday holatlarda model chiqishini tekshirib, korpusdagi potentsial xatoni tuzatish lozim.

Annotatsiya muammolarining yana biri – inson omili. Fonetik transkripsiya qo‘lda qilinganida, ayniqsa katta hajmda, ba’zan subyektiv farqlar paydo bo‘lishi mumkin. Turli lingvistlar bir tovushni turlicha talqin qilishlari yoki diakritik belgilar qo‘llashdagi uslubi farq qilishi mumkin.

Fonetik korpus hajmi ham ahamiyatli. Dastlabki bosqichda korpus kichik bo‘lsa, model yetarlicha qoidalarni o‘rganmasligi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Transformer kabi zamonaviy modellar katta ma’lumot talab qiladi va bitta tilning ma’lumotlari kam bo‘lsa, ko‘p tilli o‘qitish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Bizning kontekstimizda ham agar o‘zbek tilida 50 ming so‘zli korpus yetarli natija bermasa, uni turkiy tillar (masalan, qozoq, turk, uyg‘ur) ma’lumotlari bilan birga o‘qitib, keyin o‘zbekchaga moslashtirish (fine-tuning) strategiyasini qo‘llash mumkin. SIGMORPHON kabi tanlovlarda ham kam resursli tillar uchun transfer learning yondashuvi samarali ekani ko‘rsatilgan[10]. Biroq, bunday ko‘p tilli modelda har bir tilning o‘ziga xos fonetikasi “yo‘q bo‘lib ketmasligi” uchun ehtiyot bo‘lish zarur – masalan, turk tilidagi unlilar uyg‘unlashuvi qoidalari modelga singib, o‘zbek tiliga noto‘g‘ri tatbiq bo‘lmasligi kerak. Shu sababdan biz taklif qilayotgan yondashuv fonetik jihatdan asoslanadi: ya’ni, modelga boshidan o‘zbek tilining fonologik xususiyatlari (masalan, unlilar uyg‘unlashuvi yo‘qligi, qator va tor unlilar farqi, g‘/q tovushlari mavjudligi kabi) haqida ma’lumot beriladi yoki qoidalar shaklida kiritiladi. Bu bilimlar modelning ichki qatlamlarida yoki qoidalovchi modulida hisobga olinsa, u holda korpus kichikroq bo‘lsa ham, model ma’lum qoidalarga tayangan holda to‘g‘riroq ishlaydi. Masalan, yapon tilida kam resurs sharoitida mutaxassislar aynan qoidabazali G2P tizimini taklif qilishgan – lingvistik adabiyotga asoslanib, maxsus qoidalar to‘plami tuzilgan va u ko‘p holatlarda neyron modelga teng natija bergan[11]. O‘zbek tilida ham xuddi shunday, tilshunoslikka asoslangan yondashuvni joriy etish mumkin: bu modelga fonetik korpusdan tashqari fonologik qoidalarni qo‘lda kiritishni anglatadi.

Fonetik korpusning roli. Kam resursli til – xususan, o‘zbek tili – uchun G2P modelini muvaffaqiyatli yaratishda fonetik korpus hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Talaffuzi aniq belgilangan so‘zlar jamlanmasi modelni to‘g‘ri o‘qitish va tekshirish imkonini beradi. Korpus hajmi va sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, model natijalari shunchalik ishonchli chiqadi. Korpus yaratishda barcha asosiy tovush birikmalari va fonologik hodisalarni qamrab olish lozim, aks holda model notanish holatlarda xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin[12].

Yakunda, o‘zbek tili misolida ko‘rsatildiki, kam resursli til uchun G2P model yaratish tilshunos va sun’iy intellekt mutaxassislarining yaqin hamkorligini talab etadi. Fonetik korpus shakllantirish va uni tahlil qilish orqali biz modelning birinchi talqinini yaratishimiz mumkin. Keyingi amaliy ishlar bosqichida mazkur nazariy ishlab chiqilgan yondashuv asosida G2P modelining dastlabki amaliy tadbiqi amalga oshiriladi va uning natijalari baholanadi. Ushbu konseptual ish kelgusida nafaqat o‘zbek tili, balki unga o‘xshash ahvoldagi boshqa kam resursli tillar (masalan, tojik, qirg‘iz, turkman) uchun ham foydali bo‘lishi mumkin – zero, til texnologiyalari sohasida resurslarni yaratish va ulardan samarali foydalanish globallashgan dunyoda kichik tillarning rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irie E., Samson J., Saee Suhaila. A Review on Grapheme-to-Phoneme Modelling Techniques to Transcribe Pronunciation Variants for Under-Resourced Language. Pertanika Journal of Science and Technology. 2023.
2. NVIDIA. NeMo Toolkit Documentation. – URL: https://docs.nvidia.com/nemo-framework/user-guide/24.09/nemotoolkit/tts/g2p.html
3. Kim B. C., Lee G. B., Lee J. H. Hybrid Grapheme-to-Phoneme Conversion for Unlimited Vocabulary. Department of Computer Science & Engineering, Pohang University of Science & Technology, Pohang, Korea. 1999
4. en.wikipedia.org
5. CharsiuG2P – URL: https://github.com/lingjzhu/CharsiuG2P
6. El-Hadi, C., Mhania, G. Phonetisaurus-based letter-to-sound transcription for Standard Arabic. In 2017 5th International Conference on Electrical Engineering - Boumerdes. 2017
7. Phonetisaurus – URL: https://github.com/AdolfVonKleist/Phonetisaurus
8. github.com
9. Montreal Forced Aligner – URL: https://github.com/MontrealCorpusTools/mfa-models
10. Salatas, J. Phonetisaurus: A WFST-driven Phoneticizer – Framework Review. Retrieved from https://www.johnsalatas.com/phonetisaurus-wfst-review, 2012
11. Jiampojamarn S. Grapheme-to-Phoneme Conversion and Its Application to Transliteration. – University of Alberta, 2009.
12. Cheng S., Zhu P., Liu J., Wang Z. A Survey of Grapheme-to-Phoneme Conversion Methods // *Applied Sciences*, 2024.

O‘ZBEK TILIDA MOSLASHUV YO‘LI BILAN BIRIKKAN SO‘Z BIRIKMALARINI MODELLASHTIRISH MASALASI

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna,
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
abdullayevaoqila@gmail.com
ToshDO‘TAU doktoranti DSc

Nizomova Fotima Bo‘rixo‘ja qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
nizomovaf44@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalarining nazariy asoslari tahlil qilindi. Moslashuvli so‘z birikmalari ikki yoki undan ortiq so‘zning o‘zaro grammatik va semantik jihatdan bog‘lanishidan iborat bo‘lib, ular tilning morfologik va sintaktik qoidalari asosida hosil qilinishi ta’riflandi. So‘z birikmalarida so‘zlar o‘rtasidagi kelishik, son va egalik kabi grammatik munosabatlar aniq ifodalanishi qayd etildi. Shuningdek, maqolada bunday so‘z birikmalarini modellashtirishning qoidalar asosidagi yondashuvi va grammatik tizimlar orqali amalga oshirilishi tavsiflandi. Moslashuvli so‘z birikmasini modellashtirishning kompyuter lingvistikasi sohasidagi ahamiyati va zarurati haqida fikr bildirildi.

Abstract. In this article, the theoretical foundations of word combinations formed through adaptation in the Uzbek language were analyzed. Adapted word combinations consist of two or more words connected grammatically and semantically, and they are formed based on the morphological and syntactic rules of the language. It was noted that grammatical relationships such as agreement, number, and possession between words in word combinations are clearly expressed. Furthermore, the article describes the rule-based approach to modeling such word combinations and their implementation through grammatical systems. The importance and necessity of modeling adapted word combinations in the field of computational linguistics were also discussed.

Аннотация. В данной статье были проанализированы теоретические основы словосочетаний, образующихся через адаптацию в узбекском языке. Адаптированные словосочетания состоят из двух или более слов, связанных грамматически и семантически, и они образуются на основе морфологических и синтаксических правил языка. Было отмечено, что грамматические отношения, такие как согласование, число и принадлежность, между словами в словосочетаниях выражаются явно. Также в статье описан подход моделирования таких словосочетаний на основе правил и их реализация через

грамматические системы. Также была высказана важность и необходимость моделирования адаптированных словосочетаний в области компьютерной лингвистики.

Kalit so‘zlar: *So‘z birikmasi, moslashuvli so‘z birikmasi, teglash, modellashtirish, sintaktik annotatsiyalash.*

Kirish. Tilshunoslikda so‘z birikmasi tushunchasining mazmuni va ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar asosida talqin qilingan. So‘z birikmasi nutqdagi so‘zlarning grammatik va semantik jihatdan o‘zaro bog‘lanib, yaxlit bir tushunchani ifodalashiga asoslanadi. Fortunatov, Peterson, Peshkovskiy kabi jahonda mashhur olimlar so‘z birikmalarining sintaksisdagi asosiy o‘rni va ularning shakllanishiga e’tibor qaratgan bo‘lsalar, Shaxmatov va Vinogradov so‘z birikmasining nominativ funksiyasini va uning gapdan tashqari mavjudlik xususiyatini ta’kidlaydilar.

Nutqda, gapda so‘zlar ma’lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, uning qizi (gapirdi), yosh bola (yugurdi), (maqsadim-shu) kitobni o‘qimoq, sekin gapirmoq. Misollardagi har bir juft grammatik butunlikni hosil qilgan bo‘lib, yaxlit, biroq, o‘z ichida qismlarga bo‘linadigan tushunchani, bir butun tushunchani bildiradi. Bu kompleksdagi-qo‘shilmadagi so‘zlarning a’loqasi grammatik jihatdan shakllangandir. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlik tashkil qilgan har bir kompleksi so‘z birikmasi sanaladi[1].

So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi, deya ta’rif berish bilangina chegaralanadi [2].

Moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalari ta’rifi va tavsifi

Moslashuv (tilshunoslikda) - tobe (bog‘liq) aloqaning bir turi bo‘lib, bunda birikmaning tobe qismi o‘z shaklini hokim qismning shakliga moslaydi, shu bilan hokim qismga bog‘lanadi. Hokim qismning shakli o‘zgarishi bilan tobe qism ham ma’no jihatdan shu shaklga mos bo‘lgan shaklni oladi. O‘zbek tilida moslashuv aloqasi, asosan, qaratqich-qaralmish va ega-kesim aloqasida ko‘rinadi va bu moslik shaxs va son jihatidan bo‘ladi, ya’ni qaratqich yoki ega qaysi shaxs-sonni bildirsa, qaralmish yoki kesim xuddi shu shaxs-sonni bildiruvchi shaklda bo‘ladi: *men yozyapman, sen yozyapsan, u yozyapti, biz yozyapmiz, siz yozyapsiz, ular yozishyapti. Mening ukam, sening ukang, uning ukasi.*

Hokim qism (qaratqich yoki ega) 3-shaxsni bildiruvchi otlardan ifodalanganda, hokim va tobe qism sonda moslashishi ham, moslashmasligi ham, ya’ni hokim qism ko‘plik son, tobe qism birlik son shaklida bo‘lishi mumkin: *sozandalar keldilar (kelishdi) yoki sozandalar keldi.* Ega 3-shaxsdagi shaxs bildirmaydigan so‘zlardan bo‘lganida, ega ko‘plik, kesim esa birlik shaklida qo‘llanadi, ya’ni son jihatdan moslashish bo‘lmaydi: gullar ochildi. So‘z birikmalari

tarkibidagi so‘zlarning grammatik bog‘lanishida moslashuvning o‘rni haqida ham olimlar tamonidan alohida fikr mulohazalar bildirilgan[3].

Teg – Kompyuter yordamida matn tahlilini amalga oshirish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirishga xizmat qiluvchi shartli belgi yoki maxsus kod. Teglar bir necha turlarga bo‘linadi: semantik teg, sintaktik teg va grammatik teg. Grammatik teg, shuningdek, PoS (Part of speech) tegging nomi bilan ham mashhur.

POS teglash – bu berilgan gapdagi har bir so‘zshaklga uning turkum (ot, fe’l, sifat, son, ravish yoki olmosh)ga mansubligini belgilash (teglash) vazifasidir. POS teglash tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP)ning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, pipeline konveyerining muhim bosqichi hisoblanadi [4].

Modellashtirish – Kompyuter lingvistikasida tabiiy tilni modellashtirish inson faoliyati davomida axborot almashinuvida foydaniladigan va ushbu faoliyatga asosan doimiy o‘zgarib boradigan ko‘p bosqichli belgilar tizimi bilan bog‘liq jarayondir. Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun an’anaviy vositalar, metodologiyalar va ko‘nikmalardan foydalanish uchun berilgan matnni strukturlangan formatga o‘tkazish lozim. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) platformasi moslashuvchan, mustahkam va samarali komponentlar to‘plamini taqdim etadi [5].

1-jadval. Universal va o‘zbek tilidagi POS teglar ro‘yxati

T/r	Teg	O‘zbek tilidagi teg	Ma’nosi o‘zbekcha misollar
1	N	N	Ot *(N)* olma *(apple)*
2	V	VB	Fe’l *(V)* yugurmoq *(run)*
3	ADJ	JJ	SIFAT*(Adjective)* qizil/katta *(red/large)*
4	NUM	NUM	SON *(Numeral)* besh *(five)*
5	ADV	RR	RAVISH *(AdV)* tez *(fast)*
6	PRON	P	OLMOSH *(ProN)* bu *(this)*
7	AUX	II	KO‘MAKCHI *(Auxiliary)* bilan *(with)*
8	CONJ	C	BOG‘LOVCHI *(Conjunction)* va *(and)*
9	PART	Prt	YUKLAMA *(Particle)* faqat *(only)*
10	MOD	MD	MODAL *(Modal)* darhaqiqat *(actually)*
11	IMIT	UH	TAQLID *(Imitation)* kuk-kuk *(imitation of hen)*
12	INTJ	UV	UNDOV *(Interjection) Urraaa*! *(when you win)*

J. Ibragimov o‘zining “O‘zbek tili matnlarida so‘zlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligini dastlabki dasturiy modellashtirish” maqolasida o‘zbek tilidagi matnlar tarkibidagi birikmalarni modellashtirishda umume’tirof etilgan ramzlardan foydalanganligini aytib, quyidagicha misollar keltiradi. *Ustodning muborak ko‘zoynaklarini taqib, xalqimning o‘tmishiga qaradim* gapida 1) *o‘tmishiga qaradim* - N + SFN + V + SFv. Bunda N - OT, SFN - otning sintaktik shakllari, V – fe’l, SFv – fe’lning sintaktik shakllari. *O‘tmishiga qaradim* kabi birikmalar tipik modelining submodelini quyidagicha berish mumkin bo‘ladi:

N + SG + PS_aff + Acc_CS_aff + V + TS aff + Shs aff. Bunda Not, SG - birlik, PS _aff - egalik shakli, Acc_CS_aff - jo‘nalish kelishigi, V – fe’l, TS aff (zamon shaklini inglizcha “Tense” so‘zi asosida shu ramz orqali ifodalashga qaror qildik), ShS aff- shaxs - son shakli (shaxs - son shaklini shunday ifodalashga qaror qildik). 2) *taqib qaramoq* - V + V + SFv. Bunda V – fe’l, V- fe’l, SFv – fe’lning sintaktik shakllari. 3) *xalqimning o‘tmishiga qaradim* - N^d + SFN + Nk + SFN + V + SFv 4) *ustodning ko‘zoynaklari* - N + SFN + N + SFN Bunda N + OT, SFN - otning sintaktik shakllari, N + ot, SFN - otning sintaktik shakllari. 5) *muborak ko‘zoynaklari* - ADJ + N + PS_aff . Bunda ADJ + sifat, N + ot, SFN - otning sintaktik shakllari [6].

Bundan tashqari S.Nazarova o‘zining “Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari” nomli tadqiqotida ism+ism qolipli so‘z birikmalarning modelini ishlab chiqqan.

1) [ot $^{\text{qaratqich kelishigi}}$ → ot $^{\text{egalik qo‘shimchasi}}$ = ot ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: kitobning varag‘i;

2) [ot $^{\text{qaratqich kelishigi}}$ → sifat $^{\text{egalik qo‘shimchasi}}$ = ot ^{qaratuvchi} + sifat ^{qaralmish}]: daraxtning mo‘rti;

3) [sifat $^{\text{qaratqich kelishigi}}$ → ot $^{\text{egalik qo‘shimchasi}}$ = sifat ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: gulning/qizilining hidi;

4) [sifat $^{\text{qaratqich kelishigi}}$ → sifat $^{\text{egalik qo‘shimchasi}}$ = sifat ^{qaratuvchi} + sifat ^{qaralmish}]: olmaning/kattasining chuchugi;

5) [ot $_{\text{turdosh}}$ $^{\text{qaratqich kelishigi}}$ → sifat $^{\text{egalik qo‘shimchasi}}$ = ot ^{qaratuvchi} + son ^{qaralmish}]: gulning bittasi. [7].

O‘zbek tilidagi so‘z birikmalarini teglash va modellashtirishda moslashuvli so‘z birikmasini namuna qilib olaylik, har bir qoidaga mos bo‘lgan quyidagi teg va madellarni yana bir namuna sifatida keltirib o‘tsak.

Nazariyalarda so‘z birikmasining ikki qismini tobe va hokim qism deb nomlashgan. Moslashuvli so‘z birikmasida esa bu ikki qismga qaratuvchi va qaralmish deb ham nomlashadi. Har ikki qismni nazariyasi va turkumiga ko‘ra otli va fe’lli birikmalariga bo‘lib o‘rganish an’anaviy tilshunoslikda juda ommalashgan.

Biz namunaviy teg va modellarimizni qaratuvchi va qaralmish terminlaridagi qoidalardan foydalangan holda ishlab chiqishni tanladik.

1. **Qoida:** Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo‘shiladi.

2-jadval. 1-qoida bo‘yicha modellashtirish

T/r	Namuna gaplar	O‘zbek tilidagi POS tegging modeli	Ingliz tilidagi POS tegging modeli	Moslashuvli so‘z birikmasining umumiy belgilanishi

1.	Mening uyim	P_ning+N_im	P+N	SB_{mos}
2.	Mening uylarim	P_ning+N_lar_im	P+N	SB_{mos}
3.	Sening uying	P_ning+N_ing	P+N	SB_{mos}
4.	Sening uylaring	P_ning+N_lar_im	P+N	SB_{mos}
5.	Uning uyi	P_ning+N_i	P+N	SB_{mos}
6.	Uning uylari	P_ning+N_lar_im	P+N	SB_{mos}
7.	Bizning uyimiz	P_ning+N_im	P+N	SB_{mos}
8.	Bizning uylarimiz	P_ning+N_im	P+N	SB_{mos}

2. **Qoida:** Qaratuvchi ot leksema bilan, boshqa turkum leksemalarining ot tabiatli turi, shuningdek otlashib kelgan holati bilan ifodalanganida qaralmishga III shaxs nisbatlovchisi qo‘shiladi:

3-jadval. ot leksema bilan ifodalanishi:

T/r	**Namuna gaplar**	**O‘zbek tilidagi POS tegging modeli**	**Ingliz tilidagi POS tegging modeli**	**Moslashuvli so‘z birikmasining umumiy belgilanishi**
1.	Uyning devori	N_ning+N_i	N+N	SB_{mos}
2.	Uylarning devori	N_lar_ning+N_i	N+N	SB_{mos}
3.	Uyning devorlari	N_ning+N_lar_i	N+N	SB_{mos}
4.	Uylarning devorlari	N_lar_ning+N_lar_i	N+N	SB_{mos}

4-jadval. olmoshning ot turlari bilan ifodalanishi:

T/r	**Namuna gaplar**	**O‘zbek tilidagi POS tegging modeli**	**Ingliz tilidagi POS tegging modeli**	**Moslashuvli so‘z birikmasining umumiy belgilanishi**
1.	Kimning kitobi	P_ning+N_i	P+N	SB_{mos}
2.	Kimlarning kitoblari	P_lar_ning+N_lar_i	PRON+PRON	SB_{mos}
3.	Allanarsaning sharpalari	P_ning+N_lar_i	PRON+N	SB_{mos}
4.	Allanarsalarning narsalari	P_lar_ning+N_lar_i	PRON+N	SB_{mos}

5-jadval. ikki va undan yuqori miqdorni anglatadigan miqdor son, shuningdek, hamma kabi leksema bilan ifodalanishi:

T/r	Namuna gaplar	O‘zbek tilidagi POS tegging modeli	Ingliz tilidagi POS tegging modeli	Moslashuvli so‘z birikmasining umumiy belgilanishi
1.	O‘nning yarm + i	NUM_ning+Num_i	NUM+Num	SB_{mos}
2.	Hammaning fikr + i	P_ning+N_i	PRON+N	SB_{mos}

Xulosa. Moslashuvli so‘z birikmalarini umuman olganda so‘z birikmasini (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) teglash va modellashtirishning kompyuter lingvistikasi sohasidagi ahamiyati tilni avtomatik qayta ishlashda, balki uni aniq va to‘g‘ri tushunishda ham katta rol o‘ynaydi. Har bir grammatik qoidani va tuzilmani modellashtirish, kompyuter tizimlariga tilni yanada samarali o‘rganish va foydalanish imkonini beradi. Shu bois, so‘z birikmalarini teglash va modellashtirish masalalari kompyuter lingvistikasi sohasida dolzarb bo‘lib, NLP dasturlarini ishlab chiqish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фортунатов Ф. Ф. О преподавании грамматики русского языша в; средней школе. Избраннме трудьг Т. II. М., 1957, с. 451.
2. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011. – B.171
3. Sobirjonova M. Moslashuvli so‘z birikmasi haqida ba’zi mulohazalar. - Toshkent, 2022.
4. Elov B.B. Xudayberganov N.U. O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari: file:///C:/Users/User/Downloads/elov-b.b.-xudayberganov-n.u.-ozbek-tili-korpusi-matnlarini-pos-teglash.pdf
5. Большакова Е.И., Воронцов К.В., Ефремова Н.Э., Клышинский Э.С., Лукашевич Н.В., Сапин А.С. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и анализ данных: учеб. пособие — М.: Изд-во НИУ ВШЭ, 2017. - 269 с.
6. Ibragimov J. O‘zbek tili matnlarida so‘zlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligini dastlabki dasturiy modellashtirish. *// Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari.* https://doi.org/10.5281/zenodo.7515431
7. Nazarova S. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: filol. fan. nomz…. diss. avtoreferat. – Toshkent: 1997. – B.26.

UDK: 81.33

O‘ZBEK TILI FONETIKASINI TTS TIZIMLARI UCHUN FORMALLASHTIRISH

Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug‘bek qizi,
tayanch doktorant
gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Matndan ovozga aylantirish tizimlari (Text-To-Speech, TTS) o‘zbek tilida sifatli ishlashi uchun ushbu tilning fonetik va fonologik jihatlarini aniq formallashtirish zarur. Ya’ni, o‘zbek yozuvining harflarini fonemalarga birma-bir moslab, tovush o‘zgarishlari, urg‘u va intonatsiya qonuniyatlarini ham aniq belgilash kerak. Tilshunoslikda o‘zbek tilining tovush tizimi yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, unli va undosh fonemalar, ularning xususiyatlari va o‘zaro munosabatlari ko‘plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Ushbu maqolada o‘zbek tili fonetik-fonologik tizimi TTS uchun qanday formal ifodalash mumkinligi tahlil qilinadi.

Abstract: To ensure the high-quality performance of Text-To-Speech (TTS) systems in the Uzbek language, it is essential to formally define its phonetic and phonological properties. This includes establishing a clear mapping between written letters and phonemes, as well as systematically accounting for sound alternations, stress, and intonation patterns. While the sound system of Uzbek has been extensively studied in linguistics, with detailed analyses of its vowels, consonants, and their features, this article explores how these phonetic-phonological aspects can be formally represented for effective TTS development.

Аннотация: Для обеспечения качественной работы систем синтеза речи (Text-To-Speech, TTS) на узбекском языке необходимо чётко формализовать его фонетические и фонологические особенности. Это включает в себя установление точного соответствия между буквами письма и фонемами, а также описание звуковых изменений, ударений и интонационных закономерностей. Несмотря на то, что звуковая система узбекского языка хорошо изучена в лингвистике и подробно описана в научных источниках, в данной статье анализируется, как эти фонетико-фонологические аспекты могут быть формализованы для целей построения TTS-систем.

Kalit so‘zlar: *fonema, fonologiya, singarmonizim, ohang, urg‘u, formalizatsiya, TTS, konversiya*

O‘zbek tilining fonetik-fonologik xususiyatlari. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, fonetik tizimi o‘ziga xos tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Fonetik tizimning kelib chiqishini o‘rganish, til tarixidagi tovush o‘zgarishlarini tushunish orqali ularni zamonaviy texnologik tizimlarga to‘g‘ri integratsiya qilish mumkin. Xususan, turkologiyada mashhur bo‘lgan A.N. Samoylovich va N.A.Baskakov [1] singari olimlarning tasniflari o‘zbek tilining fonetik shakllanish bosqichlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. A.N. Samoylovich turkiy tillarni fonetik belgilar asosida bir nechta guruhlarga ajratgan. Unga ko‘ra, o‘zbek tili *“Тағлиқ”* guruhiga mansub bo‘lib, ushbu guruhga xos asosiy fonetik belgilar — *тоғ, тоққиз, айақ, бол, сариғ, қалған* kabi qadimiy fonetik shakllarning saqlanib qolganidir. Bu guruhdagi tillarda, ayniqsa, *тоғ* so‘zining *тағ* shaklida talaffuz qilinishi, qadimgi til qatlamining saqlanganligidan dalolat beradi. Samoylovichning ta’kidlashicha, ushbu guruhga qadimgi o‘zbek tili, hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillari kiradi. Turkiy tillarning fonetik jihatdan shakllanishini yanada chuqurroq tahlil qilgan N.A. Baskakov esa o‘zbek tilini *Qarluq guruhi* tarkibida ko‘rsatadi. Bu guruhga xos bo‘lgan fonetik belgilar orasida quyidagilar ajralib turadi:

unlilar sonining 6 tadan 9 tagacha o‘zgaruvchanligi;
q va k fonemalarining farqlanishi;
so‘z oxirida j, g, g‘ tovushlarining saqlanishi;
p, t, k, q jarangsiz fonemalarining ikki unli orasida ham jarangsizligicha qolishi;
qaratqich kelishigining -ning shakli bilan to‘liq qo‘llanilishi

Bu belgilar hozirgi adabiy o‘zbek tili fonetik sistemasining tarkibiy qismlarini tashkil etadi va ularni zamonaviy G2P (grafema-fonema konversiyasi) yoki TTS modellarida qat’iy formal qoidalarga solish lozimligini ko‘rsatadi. Tarixiy fonetik tavsiflardan foydalanish TTS modellarida fonetik birliklar to‘plami yanada chuqurroq aniqlashga yordam beradi. Masalan, eski o‘zbek til qatlamlarida mavjud bo‘lgan **[ü], [ö], [ɨ]** fonemalari hozirgi o‘zbek tilda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa-da, ayrim dialektlar yoki tarixiy matnlarni ovozli sintezlashda bu fonemalar kerak bo‘lishi mumkin. Shu sababli tarixiy fonetik tahlil zamonaviy texnologik model uchun kengaytirilgan fonema tizimi yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, o‘zbek tilining fonetik formallashtirilishi tarixiy taraqqiyot bosqichlarini inobatga olgan holda amalga oshirilsa, semantik va morfologik jihatdan aniq, barqaror fonemik modelga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi. Fonemalar tizimini ilmiy tavsiflashda Mirtojiyev [2], Abduazizov [3] kabi olimlar unli va undoshlarning farqlovchi belgi va variantlarini chuqur tahlil qilgan. Jumladan, unlilarning cho‘ziqlik-qisqaligi, lablanish darajasi, undoshlarning portlovchi yoki sirg‘aluvchan turi kabi xususiyatlar fonologik tahlillarda e’tiborga olingan.

Hozirgi o‘zbek tili tovush tizimida unli fonemalar soni an’anaviy ravishda 6 ta deb qabul qilingan: *a, e, i, o, u, o‘*. Ushbu unlilar til pozitsiyasi (old-orqa) va lablarning ishtirokiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, i – tor, old qator, lablanmagan unli; u – tor, orqa qator, lablangan unli; a – keng, old qator (yoki markaziy) lablanmagan unli; o – orta-keng, orqa qator, biroz lablangan unli tovush. O‘zbek tilining undosh fonemalarini Irisqulov, Tursunov va Rahmatullayev 25 ta deb keltiradi [4], Jamolxonov va Sayfullayeva esa kitoblarida 24 ta ekani ko‘rsatiladi [5]. Undoshlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra: jaranglilik (jarangli va jarangsiz), hosil bo‘lish o‘rni va usuli kabi belgilarga ko‘ra tasniflanadi.

O‘zbek tili fonologiyasining muhim xususiyati – singarmonizm (unli fonemalarning uyg‘unlashuvi)nin mavjudligidir. Qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tilida qat’iy fonetik uyg‘unlashuv bo‘lib, unlilar **old** va **orqa qator** opozitsiyasini hosil qilgan (masalan, *i/ы, ü/u, ö/o, ä/a* qarama-qarshi juftliklari). O‘zbek tilida ham ba’zan bir bo‘g‘inli so‘zlarning struktura elementlarini — unli va undosh tovushlar o‘rtasida tovush qatorlari bo‘yicha o‘zaro xoslanish hollari kuzatiladi. Xususan, GC, CGC strukturali so‘zlarda tovushlar palatal garmoniyaga muvofiq birikadi: *қил, хил, бил, тил, сиз, жил* va bosh. Ba’zan old va orqa qator variantlari ma’no farqlash funksiyasini ham bajarishi mumkin. Masalan, *tıq — tik*. Bir qator so‘z yasovchi va forma yasovchi affikslar variativlikka ega. O‘zak fonetik strukturasiga muvofiq affikslarning variantlaridan biri qo‘llaniladi. Affikslar variantlari shu fonetik qurshovda biri o‘rnida, ikkinchisi qo‘llanolmaydi. Masalan: — ық ё — ик (қылық — кичик), — қы (— гы) — ги (чопқы — чолғы — сузги), — қа — га (тоққа — бизга) va boshqalar. Bu faktorlar turkiy tillar uchun xarakterli bo‘lgan singarmonizm qonuniyatining o‘zbek tilida ham ayrim o‘rinlarda mavjudligini ko‘rsatadi[6]. Yuqoridagi umumiy tavsifdan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining fonemalar majmuasi va ularning xususiyatlarini aniqlash TTS tizimi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Quyida avvalo o‘zbek tilidagi unlilarni formal tizimga solish va harflardan fonemalarga mapping (mos tushirish) masalasi ko‘rib chiqiladi.

Tovush hodisalarini formalizatsiya qilish: pozitsion o‘zgarishlar va assimilyatsiya. O‘zbek nutqida tovushlar kombinatsiyasiga ko‘ra turli fonetik hodisalar sodir bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigani – assimilyatsiya, ya’ni bir xil kategoriyadagi tovushlarning (undosh bilan undoshning) bir-biriga moslashuvi [7]. Dissimilyatsiya – bir tovushning boshqa tovushga ko‘chishi) Bundan tashqari, fonetik hodislarning boshqa turlariga eliziya – unli tovush bilan tugagan so‘zga unli bilan boshlangan so‘zning qo‘shilishi natijasida bir unli tovushning tushishi (ayta oladi > aytoladi) ham kuzatiladi. Nutqda ortiqcha tovush aytilmaydi. Masalan, *“shanba”* so‘zini [shamba] deb talaffuz qilish odatiy. Bunday hodisalarni TTS matnni sintezlaganda odatda muhim hisoblamaydi (chunki u yozuvga to‘liq amal qiladi). Ammo jonliroq intonatsiya uchun ba’zi holatlarda qo‘llanishi mumkin. Formal jihatdan, eliziyaga oid qoidalar kiritilishi murakkab bo‘lib har doim ham kerak emas, chunki orfografik matnni imkon qadar to‘liq o‘qish TTSning vazifasi.

TTS tizimi matnni ovozga aylantirishda bu hodisalarni hisobga olib, sun’iy nutqni tabiiy nutqqa yaqinlashtirishi lozim. Buning uchun fonetik qoidalar bazasi yoki formal tovush o‘zgartirish modullari tuziladi. **Pozitsion o‘zgarishlar** – tovushning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishiga bog‘liq holda o‘zgarishi. O‘zbek tilida ba’zi jarangli undoshlar so‘z oxirida kuchsiz pozitsiyada qisman jarangsizlanishi mumkin. Masalan, **g‘** harfi so‘z oxirida [q] yoki [x]ga yaqin eshitiladi: *“yorug‘”* [yoruq] kabi. Yoki aksincha, **q** so‘z oxirida ba’zan [g‘] tarzida jarangli eshitilishi mumkin (Toshkent shevasida: *“yo‘q”* → [yog‘]). Bu holatlar ko‘proq shevada namoyon bo‘ladi. TTSda bunday o‘zgarishlarni aks ettirishda odatda adabiy me’yorga yaqinroq talaffuz tanlanadi. Bunday hodisalarni qoida sifatida kiritish-kiritmaslik sintezatorni qanday nutq modeliga yo‘naltirilganiga bog‘liq – standart shaklda kiritmaslik ham mumkin. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining fonetik hodisalarini formalizatsiya qilish – ya’ni, qoidalar ko‘rinishida ifodalash – TTS sifatini oshirishga yordam beradi. Maxsus fonologik qoidalar to‘plami tuzilib, grafemadan fonemaga o‘tkazishda qo‘llanadi. Bu jarayon tabiiy tilni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, matndan nutqqa va avtomatik nutq tanish tizimlarida ham qo‘llanadi. Grafema-fonema konversiyasi va unga oid qoidalarni ishlab chiqish o‘zbek tili uchun juda dolzarb [8] – bu borada maxsus modellarning nazariy asoslari va texnik yechimlari ishlab chiqilmoqda. Demak, TTS tizimi uchun fonetik hodisalarni bir mexanizmga solish – sintezator “qoidalar bazasi”ni yaratish deganidir. Reallashgan misol (qoidalar qo‘llanilishi): masalan, TTS tizimi *“Yaxshi ko‘rishingizni bilaman”* jumlasini ovozga aylantiradi. Avvalo grafemalar fonemaga o‘tkaziladi:

yaxshi	jˈæxʃy
ko‘rishingizni	kˌoryʃyŋˈyzny
bilaman bylˈæmæn	bylˈæmæn

Keyin qoidalar qo‘llanadi: /jˈæxʃy/ shu tarzda qoladi: /kˌoryʃyŋˈyzny/ ichida “ng” → [ŋ] qoidasiga binoan, ya’ni ng harfi oldidan unli kelsa, n va g talaffuz qoidasi kiritiladi va /kˌoryʃyngˈyzny/ bo‘ladi; /bilæmæn/ ichida esa biror o‘zgarish talab qilinmaydi. So‘ngra urg‘u va ohang belgilari qo‘shilib, tovush sintezi amalga oshiriladi. Natijada iloji boricha tabiiy jarangga ega nutq hosil bo‘ladi.

Urg‘u va ohangning TTSda modellashtirilishi. Ovoz sintezida faqat fonemalarni to‘g‘ri aniqlash yetarli emas – prozodiya, ya’ni urg‘u va ohang (intonatsiya)ni ham to‘g‘ri berish kerak. O‘zbek tilida urg‘u so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan biriga tushadigan urg‘udir. Intonatsiya esa gap turiga ko‘ra shakllanadi (masalan, so‘roq gap ohangi ko‘tariladi, hayrat ohangi maxsus intonatsiya bilan ifodalanadi). TTS tizimida buni modellashtirish uchun bir necha yondashuv mavjud: matnga maxsus belgi qo‘yish, qoida asosida ohang yaratish yoki

neyron tarmoqlar orqali prozodiya sintezi. Bizning vazifamiz – formallashtirish nuqtai nazaridan buni qanday ifodalash mumkinligini ko‘rsatish.

Urg‘uni formal belgilash: o‘zbek tilida urg‘u qoidasi sodda – so‘zning ohirgi bo‘g‘ini urg‘uli. Demak, TTS bu qoidani default holat sifatida qabul qilishi mumkin. Biroq ba’zi so‘zlar (yoki qo‘shimchalar) urg‘uga ega emasligi ma’lum: masalan, -mi so‘roq yuklamasi, -dir tasdiq yuklamasi urg‘u olmaydi, urg‘u so‘zning oxirgi asosiy bo‘g‘inida qoladi (*“keldimmi”* so‘zida **mi** urg‘usiz). Shuning uchun TTS uchun quyidagi qoidalarni formallashtirish kerak:

Urg‘u qoidasining formal ifodasi: “har bir so‘zda oxirgi bo‘g‘in urg‘uli, agar so‘z -mi, -chi, -dir kabi urg‘usiz yuklamalar bilan tugasa, urg‘u o‘sha yuklamadan oldingi bo‘g‘inga ko‘chadi”. Bu qoida asosida sintezator fonemik chiqishda urg‘uli bo‘g‘in oldiga [ˈ] belgisini qo‘yishi mumkin (IPA transkripsiyada urg‘u belgisi). Masalan: *“yaxshi ko‘rishingizni bilaman”* misolidagi *“bilaman”* so‘zi bo‘lsa, urg‘u oxirgi bo‘g‘inda, yoki *“keldingizmi”* (urg‘u **-ingiz** bo‘g‘inida, chunki **mi** urg‘usiz) deb belgilash. Buni belgilash uchun ko‘p tizimlarda matnga diakritik belgi qo‘yiladi yoki maxsus markup ishlatiladi. Masalan, SSML (Speech Synthesis Markup Language) da <emphasis level="strong"> kabi teglar bilan urg‘uni ko‘rsatish mumkin. Bizning holatda, soddalik uchun, fonetik notatsiyaga [ˈ] belgisini qo‘yish kifoya.

Ohang (intonatsiya) modellashtirish: Intonatsiyani formallashtirish urg‘uga nisbatan qiyinroq, chunki ohang uzluksiz o‘zgaruvchi kattalik (ton) bo‘lib, gapning turiga va ichki tuzilishiga bog‘liq. Ammo TTSda asosan quyidagi qoidalar qo‘llanadi:

Gap tugagach, ohangning ko‘tarilish-pasayishi gapning maqsad bog‘lanishiga (kommunikativ funksiyasiga) bog‘liq. Darak gap ohangi odatda pasayish bilan yakunlanadi (kuchli nuqta intonatsiyasi), so‘roq gap ohangi ko‘tarilib tugaydi (so‘roq intonatsiyasi), buyruq yoki undov gaplarda esa ohang mazmuniga ko‘ra maxsus egri chiziq hosil qiladi (masalan, buyruqda qat’iy pasayish).

Bu qoidalarni formal ifodalash uchun TTS kirish matnida belgilar yoki teglar ishlatiladi. Masalan, so‘roq gapni belgilovchi ? belgisi tizimga ohangni ko‘tarib tugatishni buyuradi. Agar oddiy matn bo‘lsa, TTS punktuatsiya belgilariga qarab intonatsiya tanlaydi.

Formal misol: “Siz keldingiz.” va “Siz keldingizmi?” jumlalarini olaylik. Birinchisi darak gap, ikkinchisi so‘roq. TTS uchun qoidalar: “agar gap oxirida [?] bo‘lsa, ohang = so‘roq ohangi (intonatsiya ko‘tariladi)”, “agar [.] bo‘lsa, ohang = tugash ohangi (pasayadi)”. Bu qoida asosida sintezator ohangni belgilaydi.

Intonatsion pauza va urg‘u ham muhim: murakkab gaplarda pauzalar kerak bo‘ladi. Masalan, “Men, albatta, ertaga boraman” gapida verguldan keyin qisqa pauza bor, ohang biroz tushadi va keyin davom etadi. TTS buning uchun vergulni pauza sifatida qabul qilib, intonatsiyani moslashtiradi. Bu ham qoidaga keltiriladi: “, belgisi = qisqa pauza, ohang biroz ko‘tarilib davom ettirilsin” kabi.

TTS uchun urg‘u va intonatsiya modellashtirishni formal qoidalar orqali hal etish mumkin, lekin bugungi kunda ko‘proq neyron tarmoqli sintezatorlar bu jarayonni o‘z-o‘zidan o‘rganadi.

Fonetik formallashtirishning zarurligi. TTS tizimlari uchun fonetik formallashtirish – ya’ni, tilning tovush tizimini va talaffuz qoidalarini rasmiy qoidalarga solish – nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Buning bir necha asosli sabablari bor:

To‘g‘ri va tabiiy talaffuz: Agar o‘zbek tilining harf-fonema mosligi va tovush hodisalari aniq formalashmasa, TTS noto‘g‘ri yoki notabiiy talaffuz chiqarishi mumkin.

Yozuv va talaffuzdagi farqlarni aniqlash: O‘zbek tilida ayrim so‘zlarda yozuv va talaffuz farqlanishi mumkin (transliteratsiya, qadimiy ismlarda, xorijiy nomlarda). Qaysi so‘zlarda ng harfi, qaysi so‘zlarda n va g harfi talaffuz qilinishini qoidaga kiritish kerak. Masalan: *Tungi, keyingi, oldingi* kabi so‘zlarda n va g harflari ajratilsa, ko‘ngil, singil,, tong so‘zlarida ajratilmaydi. Formal qoidalar esa har bir mumkin bo‘lgan grafik kombinatsiyani to‘g‘ri talaffuzga xaritalaydi.

Standartlashtirish: Fonetik formallashtirish tilni standart me’yor asosida “kompyuter tushuna olish” shakliga keltiradi. Bu til me’yorini saqlash va targ‘ib qilishga ham xizmat qiladi. Masalan, yuqorida aytilganidek, ayrim kishilar *“yo‘q”* so‘zini [yok] deb talaffuz qilishi mumkin, boshqalar [yoq] deb, yoki [yog‘] shaklida. TTS esa to‘g‘ri standart [yo‘q] tarzida aytishi lozim. Formal model buni ta’minlaydi. TTS shu me’yorni ushlab qoladi va butun auditoriyaga yagona, aniq talaffuzni yetkazadi.

Yuqoridagi omillar tufayli fonetik formallashtirish TTS jarayonining muhim qismi sanaladi. O‘zbek tilining fonetik formallashtirilgan modeli TTS tizimining “miya”sidir. Aynan shu model matnning harflar ketma-ketligini jonli tovushlarga aylantirish yo‘lini belgilab beradi. Bu model qanchalik to‘liq va ilmiy asosli tuzilgan bo‘lsa, TTS ovozi shunchalik tabiiy va ravon chiqadi.

Maqolada “O‘zbek tili fonemasini TTS tizimlari uchun formallashtirish” masalasi har tomonlama ko‘rib chiqildi. Avvalo, o‘zbek tilining fonetik va fonologik tizimi – unli va undosh fonemalar majmuasi – ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. O‘zbek tilida 6 ta unli va ~24 ta undosh fonema adabiy me’yorda mavjud bo‘lsa-da, ayrim tadqiqotchilar fonologik oppozitsiyalarni e’tiborga olib unlilar sonini 8–9 tagacha deb hisoblashadi. O‘zbek tili uchun harflardan fonemalarga o‘tkazish qoidalari aniq ifodalash TTSning grafema-fonema konversiya modulini shakllantiradi. Urg‘u va intonatsiya uchun TTSga qoida berish usullari muhokama qilinib, so‘z urg‘usini belgilash va gap ohangini tinish belgilari orqali boshqarish yondashuvlari keltirildi.

Fonetik formallashtirishning zarurligi, xususan, TTS sifatini oshirish, to‘g‘ri talaffuzni ta’minlash va integratsiyalashgan tizimlar uchun muhim qoidalar asoslandi. Ilmiy manbalarga tayanib aytish mumkinki, har bir yangi til uchun TTS

yaratishda birinchi qadam – shu tilning fonema inventari va orfoepik qoidalarini to‘liq ishlab chiqishdir [9]. O‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Ta’kidlash joiz, o‘zbek tilida ilgari bunday formal model va qoidalar to‘plami yaratilgan ishlar kam (yoki ichki loyihalar doirasida qolgan).

O‘zbek tilining TTS tizimi uchun fonetik formallashtirilishi – bu tilning ilmiy asosda “raqamlashtirilishi” demakdir. Ushbu maqolada keltirilgan tavsif va takliflar real TTS tizim qurishda dastlabki qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin. Kelgusida bu sohada yanada chuqurroq izlanishlar olib borilib, o‘zbek tilining intonatsion modellari, kontekstga oid ko‘p variantli talaffuz (masalan, omonim so‘zlarni farqlash) kabi masalalar ham hal etilsa, ona tilimiz zamonaviy nutq texnologiyalarida to‘laqonli qo‘llanilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. — Toshkent: Fan, 2006. — 168 b.
2. Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2013.
3. Abduazizov A.A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. 2-nashr. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek tili. — Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021.
6. Nurmonov A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 128 b.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005.
8. Maxmudjonova G.U. Grafema-fonema (G2P) modeli: nazariy asoslari va o‘zbek tili uchun ahamiyati. Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari, 2025.
9. Nath C., Sarma B. A Grapheme to Phoneme Based Text to Speech Conversion Technique in Unicode Language // Data and Metadata, 2023.

O‘ZBEK TILINING BAZIS SO‘ZLARIGA ASOSLANGAN KONTEKST-ERKLI GRAMMATIKA ISHLAB CHIQISH VA UNING SINTEZI

Nilufar Soliyeva Qahramon qizi,
magistrant
nilufarsoliyeva732@gmail.com
UrDU

Annotatsiya. Mazkur tezisda kontekst-erkli grammatika tushunchasining nazariy asoslari, uning tabiiy tilni qayta ishlashdagi ahamiyati va o‘zbek tiliga moslashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, o‘zbek tilining morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi va bazis (asosiy) so‘zlar tarkibini aniqlash mezonlari asosida kontekst-erkli model uchun zarur bo‘lgan grammatik tuzilmalarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud grammatik yondashuvlar bilan solishtirma tahlil o‘tkazilib, ushbu yondashuvning afzalliklari va qo‘llanish muammolari haqida xulosa qilinadi. Ushbu tahliliy yondashuv o‘zbek tilini avtomatik qayta ishlash, xususan, mashina tarjimasi, avtomatik tahlil va sintez jarayonlarida yangi ilmiy asos bo‘lishi mumkin.

Abstract. This thesis examines the theoretical foundations of context-free grammar, its significance in natural language processing, and its adaptability to the Uzbek language. Special attention is given to the morphological features and syntactic structure of Uzbek, along with the criteria for identifying basic (core) vocabulary, in order to construct the necessary grammatical structures for a context-free model. A comparative analysis is also conducted with existing grammatical approaches, outlining the advantages and limitations of this method. This analytical perspective may serve as a new scientific foundation for automatic processing of the Uzbek language, particularly in machine translation, automatic analysis, and synthesis tasks.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются теоретические основы понятия контекстно-свободной грамматики, её значение в обработке естественного языка и возможности адаптации к узбекскому языку. Особое внимание уделяется морфологическим особенностям узбекского языка, его синтаксической структуре, а также критериям определения базисных слов с целью формирования необходимых грамматических конструкций для модели КСГ. Кроме того, проводится сравнительный анализ с существующими грамматическими подходами, выделяются преимущества и проблемы применения данного подхода. Представленный аналитический обзор может служить научной основой для автоматической обработки узбекского языка, в

частности в задачах машинного перевода, автоматического анализа и синтеза.

Kalit so‘zlar: *kontekst-erkli grammatika, o‘zbek tili, sintaksis, morfologiya, bazis so‘zlar, tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasi*.

Zamonaviy sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining rivojlanishi natijasida til strukturasi va uning kompyuter tomonidan avtomatik tarzda qayta ishlanishi dolzarb muammoga aylangan. Bu jarayonda tilning sintaktik va morfologik xususiyatlarini formal modellar asosida ifodalash alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan. Ayniqsa, kontekst-erkli grammatika (KEG) modeli shu kabi ehtiyojlarga samarali yechim sifatida ko‘plab tillarda qo‘llanilib, muvaffaqiyatli natijalar bermoqda. Ushbu model yordamida grammatik qoidalarga asoslangan holda gaplarni avtomatik sintez qilish, ularni sintaktik jihatdan tahlil qilish va kompyuter dasturlarida real qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Kontekst-erkli grammatika dastlab Noam Chomsky tomonidan 20-asrning ikkinchi yarmida nazariy jihatdan ilgari surilgan bo‘lsa-da, amaliyotda, ayniqsa so‘nggi yillarda tabiiy tillarni qayta ishlash, mashina tarjimasi, ovozli yordamchilar, chatbotlar va avtomatik matn yaratish tizimlarida keng qo‘llanila boshlandi. Bu modelning afzalligi shundaki, u har bir til birligining tuzilmaviy rolini aniqlab, uni kontekstda joylashuviga ko‘ra ifodalash imkonini beradi. Bunda sintez jarayoni grammatik qoidalarga tayanib, tilning mantiqiy va shakliy tuzilmasini aniq aks ettiradi.

Mazkur tezisda aynan shunday yondashuv ilgari suriladi: o‘zbek tilining eng ko‘p ishlatiladigan, grammatik va semantik jihatdan faol bazis so‘zlari tanlab olinadi, ularning morfologik variantlari va sintaktik holatlari KEG qoidalari asosida modellashtiriladi, so‘ngra bu qoidalar asosida avtomatik sintez mexanizmi shakllantiriladi. Bu jarayon orqali o‘zbek tilidagi grammatik jihatdan to‘g‘ri va kontekstga mos gaplarni yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, bu tizim mashina tarjimasi, til o‘rgatuvchi platformalar va boshqa NLP tizimlariga samarali integratsiya qilinishi mumkin.

O‘zbek tili kontekst-erkli grammatika modellarini ishlab chiqish uchun juda qulay va shu bilan birga murakkab til hisoblanadi. Bu, bir tomondan, o‘zbek tilining agglutinativ (yopishuvchi) morfologik tuzilishi, ikkinchi tomondan esa sintaktik erkinlik darajasining nisbatan yuqoriligi bilan bog‘liq. O‘zbek tilida so‘zlar o‘zaro qo‘shilib, grammatik ma’no hosil qiluvchi affikslar yordamida murakkab birliklar tashkil etadi. Shu sababli, har bir birlikning grammatik vazifasi kontekstdan kelib chiqib o‘zgaradi. Masalan, “kelgan” so‘zi turli kontekstlarda sifatdosh, fe’l, yoki hatto gapda kesim vazifasida ishtirok etishi mumkin.

Kontekst-erkli grammatika aynan mana shu o‘zgaruvchanlikni tahlil qilish va ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu modelda har bir qoidaning amal qilishi uchun uning chap va o‘ng konteksti aniqlanadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tilida fe’l

shakllarining zamon, nisbat, shaxsga qarab moslashuvi, holatlar bilan bog‘lanishi va gapda vazifasining farqlanishini to‘g‘ri tahlil qilish imkonini beradi. Masalan:

Men bor**dim** (fe’l – o‘tgan zamon, 1-shaxs, birlik)

Sen bor**ding** (fe’l – o‘tgan zamon, 2-shaxs, birlik)

U bor**di** (fe’l – o‘tgan zamon, 3-shaxs, birlik)

Ushbu uchta shakl morfologik jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, kontekst-erkli model ularning o‘zaro farqini tahlil qilish va sintetik yo‘l bilan hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilining bazis (asosiy) so‘zlariga asoslangan model yaratishda dastlab, tilning eng ko‘p ishlatiladigan va grammatik jihatdan eng faol birliklarini aniqlash zarur. Bunday so‘zlar, odatda, o‘zbek tilining ommaviy matnlar korpusi asosida, chastotali tahlil orqali aniqlanadi. Masalan, “bor”, “kel”, “ol”, “qil”, “bilan”, “uchun”, “men”, “sen”, “u”, “shu”, “bu” kabi birliklar bazis korpusining asosini tashkil qilishi mumkin. Bazis so‘zlarga asoslangan kontekst-erkli grammatika yaratishda yana bir muhim bosqich – bu bazis birliklarning sintaktik va morfologik variantlarini tizimlashtirishdir. Har bir so‘z o‘zining imkonli kombinatorik holatlari, ya’ni qanday affikslar bilan qanday kontekstlarda bog‘lanishi mumkinligi bo‘yicha tahlil qilinadi. Bu jarayonda qoidaga asoslangan (rule-based) va statistik usullar qo‘llanishi mumkin. Masalan, “ol-” fe’li:

ol**di** – o‘tgan zamon, 3-shaxs

ol**dim** – o‘tgan zamon, 1-shaxs

ol**gan** – sifatdosh

ol**indi** – majhul nisbatda

Shuningdek, bu shakllarning kontekstda qanday ishlatilishini aniqlashda avtomatik tahlil tizimlarining yordami zarur bo‘ladi. Bu yerda mashina o‘rganishi (machine learning) yondashuvlari, ayniqsa neyron tarmoqlar asosida ishlovchi modellar katta ahamiyat kasb etadi. Ammo ularga kontekst-erkli qoida tizimi integratsiya qilinmaguncha, bunday modellar o‘zbek tilining murakkab grammatikasini to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Bundan tashqari, sintetik grammatika — ya’ni, til birliklarini yaratish (sintez) yo‘li bilan yangi shakllarni hosil qilish — kontekst-erkli yondashuv asosida ancha ishonchli va moslashuvchan bo‘ladi. Masalan, avtomatik matn yaratish yoki mashina tarjimasi tizimida o‘zbek tilining grammatik shakllari foydalanuvchining kontekstiga mos tarzda sintez qilinadi: ya’ni, model “sen uchun yozgan edim” shaklini foydalanuvchi ifodalayotgan nuqtai nazarga mos shaklda yaratadi. O‘zbek tilida erkin so‘z tartibi mavjudligi (masalan, “men kitobni o‘qidim”, “kitobni men o‘qidim”, “o‘qidim men kitobni”) kontekst-erkli yondashuvni talab qiladi. So‘z tartibining erkinligi formal qoidalarga

asoslangan modelda chalkashliklarga olib keladi, kontekst-erkli model esa bu holatlarni mantiqiy kontekst orqali farqlashga qodir.

Tabiiy tilni avtomatik tarzda qayta ishlash texnologiyalari hozirgi kunda sun’iy intellekt sohasida katta rol o‘ynamoqda. Bu texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biri — til sintezi bo‘lib, u grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar va matnlar yaratish imkonini beradi. Sintez jarayonida ishlatiladigan asosiy model – bu formal grammatikalardan biri bo‘lgan kontekst-erkli grammatika (KEG) hisoblanadi. KEG yordamida tilning sintaktik tuzilmasi qat’iy qoidalar asosida tavsiflanadi va bu qoidalar asosida yangi gaplarni yaratish imkoniyati tug‘iladi. KEG modeli to‘rtta asosiy komponentdan tashkil topadi:

N – no-terminal belgilar to‘plami, Σ – terminal belgilar (ya’ni real so‘zlar), P – produktsiyalar (o‘zgartirish qoidalari), S – boshlang‘ich belgi (odatda, gapni anglatadi). KEG qoidalari yordamida til strukturasi daraxtsimon shaklda ifodalanadi va sintaktik bog‘liqliklar aniqlanadi.

Sintez jarayoni KEG modelidagi qoidalarning teskari yo‘nalishda ishlatilishi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, avval boshlang‘ich belgi — odatda **S** belgisi olinadi, so‘ngra unga mos produktsiya qoidasi tanlanadi va u bosqichma-bosqich terminal belgilar to‘plamiga aylantiriladi. Natijada, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap yoki ibora hosil qilinadi. Bu jarayon, kompyuter dasturlari yordamida avtomatlashtirilgan holda bajariladi va real til sintezi amaliyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol tariqasida quyidagi qoidalarni olaylik:

S → NP VP
NP → Det N
VP → V NP
Det → bu | bir
N → bola | o‘quvchi | kitob
V → o‘qiydi | yozadi | oladi

Ushbu qoidalardan foydalangan holda sintez jarayoni quyidagicha kechadi:

1) Boshlang‘ich belgi sifatida S belgilanadi.
2) S → NP VP qoidasi asosida NP va VP hosil qilinadi.
3) NP → Det N qoidasi orqali NP belgisi “bu bola” shaklida sintez qilinadi.
4) VP → V NP esa “o‘qiydi kitob” kabi segmentlarni beradi. Yakuniy natijada, masalan, “Bu bola kitob o‘qiydi” gapini hosil qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa til sintezining eng sodda, lekin amaliy modelidir.

Yuqoridagi jarayon davomida hosil bo‘lgan natijani sintaktik daraxt (parse tree) shaklida ham ifodalash mumkin. Bu daraxt tildagi har bir birikmaning qanday

grammatik komponentlardan tashkil topganini ko‘rsatadi. Masalan, S – gap elementi NP (ot birikmasi) va VP (fe’l birikmasi) orqali tuzilganini, NP esa Det (aniqlovchi) va N (ot) orqali ifodalanganini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Bu sintaktik daraxt KEG asosidagi sintez mexanizmining vizual va tushunarli ifodasidir.

Shuningdek, KEG asosidagi sintez mexanizmi til strukturasi qat’iy bo‘lgan agglutinativ tillar, jumladan o‘zbek tili uchun ham moslashtirilishi mumkin. O‘zbek tilining morfologik jihatdan boyligi (ya’ni qo‘shimchalar tizimi), SOV tartibi (ega-to‘ldiruvchi-kesim) va kesimning gap oxirida kelishi KEG qoidalari orqali ifodalanib, sintez mexanizmida muvaffaqiyatli qo‘llanishi mumkin. Bunda bazis so‘zlar (eng ko‘p uchraydigan va grammatik jihatdan markaziy so‘zlar) KEGning terminal belgilariga aylanadi. No-terminal belgilar esa tilning asosiy sintaktik birliklarini tashkil qiladi: masalan, NP, VP, PP (predlogli birikma) va hokazo.

Sintez mexanizmining algoritmik bosqichlari quyidagicha ifodalanadi:

1. Boshlang‘ich belgi tanlanadi (S);
2. S ga mos produktsiya qoidalari tanlanadi;
3. Har bir no-terminal belgi mos terminal yoki no-terminal birliklarga aylantiriladi;
4. Terminal belgilar orqali gap yakuniy ko‘rinishda hosil qilinadi.

Ushbu ketma-ketlik asosida KEG sintez mexanizmi hatto murakkab gaplarni hosil qilishga imkon beradi. Masalan, ergash gaplar, bog‘lovchili yoki bog‘lovchisiz gaplar, holli fe’l shakllari, inkor shakllari ham ushbu model doirasida ifodalanishi mumkin. Ammo KEG asosidagi sintez modelida ayrim cheklovlar ham mavjud. Ular orasida semantik nazoratning cheklanganligi, stilistik moslikni saqlab qolishdagi qiyinchiliklar va morfologik variantlarning ko‘pligi tufayli qoidalar sonining ko‘payib ketishi kabi holatlar mavjud. Biroq zamonaviy NLP tizimlarida KEGni semantik tarmoqlar, lemmatizatorlar va tahlilchilar bilan birgalikda ishlatish orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin. Kontekst-erkli grammatika (KEG) modeli zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarida muhim o‘rin tutadi. U tilning sintaktik va morfologik tuzilishini qat’iy qoidalarga asoslangan holda modellashtirish, tahlil qilish va sintez qilish imkoniyatini beradi. KEG ayniqsa grammatik jihatdan murakkab va agglutinativ tillar, jumladan o‘zbek tili uchun ham nihoyatda foydali model hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda KEG modeli asosida o‘zbek tilining bazis so‘zlariga tayangan holda sintez mexanizmini shakllantirish masalasi atroflicha o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilining so‘z yasovchanligi, affikslar tizimi va erkin so‘z tartibi KEG modelini qo‘llashda alohida yondashuvni talab etadi. Shu sababli, bazis (eng ko‘p ishlatiladigan) so‘zlarni aniqlash, ularning grammatik variantlarini sistemalashtirish va KEG qoidalari orqali sintez algoritmini ishlab

chiqish zarur bo‘ldi. Tadqiqotda bu bosqichlar izchil tarzda amalga oshirildi: no-terminal va terminal belgilar aniqlandi, produktsiya qoidalari ishlab chiqildi va real gaplar sintez qilish imkoniyati sinovdan o‘tkazildi.

KEG asosidagi sintez mexanizmi orqali o‘zbek tilida grammatik jihatdan to‘g‘ri, kontekstga mos va mantiqiy gaplar yaratish mumkinligi amalda isbotlandi. Bunday yondashuv mashina tarjimasi, avtomatik matn sintezi, chatbotlar va ovozli yordamchilar kabi zamonaviy texnologiyalar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shuningdek, tilni o‘rgatish, grammatik strukturani tushuntirish kabi ta’limiy maqsadlar uchun ham KEG modeli asosidagi yondashuvlar samarali qo‘llanishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, KEG modeli o‘zbek tilining formal qoidalarini chuqur o‘rganish, sintaktik va morfologik birliklarni tizimli shaklda tasniflash, ularni algoritmik tarzda tahlil qilish va avtomatik tarzda gap yaratish jarayonida ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bu yondashuvni semantik tahlil tizimlari, neyron tarmoqlarga asoslangan modellar, korpus lingvistikasi va leksikografik tadqiqotlar bilan integratsiyalash orqali yanada mukammallashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Chomsky, Syntactic Structures, 2nd ed. Berlin: Mouton de Gruyter, 2002.
2. D. Jurafsky and J. H. Martin, Speech and Language Processing, 3rd ed. Draft, Stanford University, 2023. [Online]. Available: https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3/
3. A. V. Aho and J. D. Ullman, The Theory of Parsing, Translation, and Compiling: Volume I: Parsing. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1972.
4. K. Knight, “Automated Knowledge Acquisition for Machine Translation,” Machine Translation, vol. 5, no. 2, pp. 129–144, 1990.
5. D. Klein and C. D. Manning, “Accurate unlexicalized parsing,” in Proc. 41st Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, Sapporo, Japan, 2003, pp. 423–430.

GAPDAGI BOSHQARUV, MOSLASHUV MUNOSABATLARINING XUSUSIYATLARI (KELISHIKLAR ORQALI IFODALANADIGAN SINTAKTIK MUNOSABATLAR)

Sayfiddinova Ziynat Abduzohidovna,
ziynatsayfiddinova@gmail.com
ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Tilshunoslikda sintaktik munosabatlar gap tuzilishini tashkil etuvchi asosiy birliklar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni belgilaydi. Umuman olganda, sintaktik munosabatlarning uch turi mavjud: boshqaruv, moslashuv va bitishuv.

Abstract: In linguistics, syntactic relations define the connections between the basic units that make up the structure of a sentence. In general, there are three types of syntactic relations: control, coordination, and conjunction.

Аннотация: В лингвистике синтаксические отношения определяют связи между основными единицами, составляющими структуру предложения. В целом существует три типа синтаксических отношений: контроль, координация и согласование.

Kalit so‘zlar: *Boshqaruv, yordamchi so‘z, moslashuv, bitishuv, so‘z birikmasida bog‘lanish usuli.*

Kirish

An’anaviy tilshunoslikda ham “sintaktik munosabat” va “sintaktik aloqa” terminlari farqlanadi. Sintaktik munosabat sintaktik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni, sintaktik aloqa esa shakliy sintagmatik munosabatning ifoda tomonini bildiradi deb ta’kidlaydi A.Nurmonov. Ma’lum sintaktik shaklning (gap bo‘lagi shaklining) boshqa sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakliy sintagmatik munosabat sanaladi.

So‘zlarning grammatik munosabatga kirishuvi bilan hosil bo‘lgan sintaktik konstruktsiya qo‘shilma sanaladi. Bu xilma-xil qo‘shilmalarning eng sodda ko‘rinishi ikki mustaqil so‘zdan tuzilib, uning tarkibidagi komponentlarning o‘zaro bog‘lanishi bir (tobe) elementning ikkinchi (hokim) elementga ergashishi formasida bo‘lavermaydi. So‘zlar nok va olma, anjir va anor, o‘qidi va yozdi shaklida – biri ikkinchisiga tobelanmay, teng holda bog‘lanishi ham mumkin. Bu bog‘lanish modellar shaklida ot va ot, fe’l va fe’l shakllarida so‘z tizmalarini hosil qiladi. Bunda komponentlarning huquqi teng darajada bo‘ladi, hokim-tobelik aloqasi ko‘zga tashlanmaydi.

Sintaktik konstruktsiyaning komponentlari orasidagi bog‘lanish bu komponentlar orqali ifodalangan ma’nolarning (predmet, belgi va ular orasidagi munosabatni ifodalovchi ma’nolarning) bog‘lanishini bildiradi. Bu ma’nolar material dunyoning kishi ongida aks etishidan tug‘iladi.

Har qanday shakliy sintagmatik aloqa ma’lum mazmuniy sintagmatik munosabatni ifodalaydi va bu ikki munosabat birligi shakl va mazmun dialektikasini aks ettiradi. Masalan, ega va kesimning shakliy munosabatidan tashkil topgan men keldim sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda qiladi. An’anaga ko‘ra, ega bilan kesim gapning struktur asosini tashkil qiladi. Ega va kesim munosabati minimal gap deb ham yuritiladi. qolgan bo‘laklar esa shu bo‘laklardan biriga bog‘lanib, gapni yoyiq tusga kiritadi. Shunga muvofiq sintaktik munosabat ierarxiyasini ikkita sathga ajratish ham mumkin:

1. Predikativ sath (ega va kesim munosabati).

2. Nopredikativ aloqalar sathi.

Moslashuv. Bunda bog‘langan har ikki so‘z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so‘z shu aloqaga mos hokim so‘z formada keladi; ulardan birining o‘zgarishi bilan boshqasi ham o‘zgarib, shunga mos formaga o‘tadi – o‘z shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi.

Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so‘z bilan hokim so‘z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko‘rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o‘qishi. Gullarning guli - Nargis. Bunda guli (hokim) so‘z talaba bilan gullarning (tobe so‘z) qaratqich kelishik qo‘shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo‘sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so‘z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo‘li bilan bog‘lanadi.

Bunday birikma “qaratuvchi va qaralmish” qolipida tuziladi; birinchi a’zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodalanadi, qaratqich kelishigida bo‘ladi. Shunday leksema shakl sintaktik jihatdan ikkinchi a’zoga bog‘lanadi. Ikkinchi a’zoga birinchi a’zo bilan sintaktik bog‘lanish tufayli nisbatlovchi qo‘shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko‘plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko‘ra tanlab qo‘shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog‘lanishi natijasida qo‘shiladi, shunga ko‘ra ikkinchi a’zo (birikma yaxlitligicha) asli leksema (birikma) holatida bo‘ladi, leksema shaklga (birikma shaklga) keyingi sintaktik bog‘lanish natijasida aylanadi: hovlining o‘rtasi , cholning nabirasi- kabi. a’zo munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan

predmetga (predmet tasavvuridagi belgiga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o‘rta hovliga, nabira cholga tegishli. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo‘lagi, to‘dadan ajratilgan qism, o‘ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma’nolar – birikmaning ma’nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo‘lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma’nolar. Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili-qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi.

Bunda kelishik sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko‘rsatkichi bo‘ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta’minlashda qatnashadi, lekin shakl o‘zgartiruvchi ekanidan qat’i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo‘ladi. Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’nolarga muqobil holda tanlab qo‘shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo‘shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo‘shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma’no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik ma’nolar bilan morfema (nisbatlovchi) ifodalaydigan ma’nolar orasida voqe bo‘ladi. Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida qatnashmaydi.

Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo‘lmaganligi sababli bunday birikma a’zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa koordinatsiya deb nomlanadi: lot. co(n) - birgalikda, ordinatio - “tartibli joylashuv”. Bunday sintaktik aloqaga sootvetstviye ham deyiladi). Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo‘shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog‘liq: 1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo‘shiladi: mening uy + im-, mening uylar +im-, sening uy + ing-, sening uylar + ing-, uning uy + i-, uning uylar + i-, bizning uy + imiz-, bizning uylar + imiz- kabi.

Moslashuv (tilshunoslikda) — tobe (bog‘liq) aloqaning bir turi bo‘lib, bunda birikmaning tobe qismi o‘z shaklini xokim qismning shakliga moslaydi, shu bilan hokim qismga bog‘lanadi. Hokim qismning shakli o‘zgarishi bilan tobe qism ham ma’no jihatdan shu shaklga mos bo‘lgan shaklni oladi. O‘zbek tilida M. aloqasi, asosan, qaratqichqaralmish va ega-kesim aloqasida ko‘rinadi va bu moslik shaxs va son jihatidan bo‘ladi, ya’ni qaratqich yoki ega qaysi shaxssonni bildirsa, qaralmish yoki kesim xuddi shu shaxssonni bildiruvchi shaklda bo‘ladi: men yozyapman, sen yozyapsan, u yozyapti, biz yozyapmiz, siz yozyapsiz, ular yozishyapti. Mening ukam, sening ukang, uning ukasi.

Hokim qism (qaratqich yoki ega) 3-shaxsni bildiruvchi otlardan ifodalanganda, hokim va tobe qism sonda moslashishi ham, moslashmasligi ham, ya’ni hokim qism ko‘plik son, tobe qism birlik son shaklida bo‘lishi mumkin: sozandalar keldilar (kelishdi) yoki sozandalar kel-d i. Ega 3-shaxsdagi shaxs bildirmaydigan so‘zlardan bo‘lganida, ega ko‘plik, kesim esa birlik shaklida qo‘llanadi, ya’ni son jixatdan moslashish bo‘lmaydi: gullar ochildi.

Aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari (sintaktik shakl hosil qiluvchi vosita) – kelishik, egalik, kesimlik ko‘rsatkichlari. Aloqa-munosabat shakllari shakliy omil sifatida so‘zlarning erkin bog‘lanishida faol: Men qishloqqa o‘tdim gapida *-ga* shakli qishloq so‘zini o‘tmoq fe’li bilan, *-dim* kesimlik shaklidagi *-m* ko‘rsatkichi men so‘zini o‘tmoq fe’liga tobelash vazifasini o‘tamoqda.

Egalik qo‘shimchalari mustaqil so‘zlarning hokim mavqeda kelishini ifodalab, uning tobe so‘zga munosabatini ko‘rsatadi (sizning uyingiz). Shuningdek, bog‘lash bilan birgalikda, hokim va tobe so‘zning shaxs va sonda moslashishini ham ta’minlaydi.

Kelishik – mustaqil so‘zning barchasi uchun tobelikni ta’minlovchi formal ko‘rsatkich. *Masalan,* bosh kelishik egani, tushum kelishigi to‘ldiruvchini, qaratqich kelishigi aniqlovchini hokim bo‘lakka tobelaydi.

Shaxs-son qo‘shimchalari, kesimlikning boshqa shakllari bilan birgalikda, o‘zi hosil qilayotgan hokim bo‘lakni tobe bo‘lak – egaga bog‘laydi.

Yordamchi so‘z. Sintaktik aloqani ifodalashda qo‘llanadigan yordamchi vositalar (ko‘makchi, bog‘lovchi va bog‘lama) birikuvlarda shakliy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘makchining bir so‘zni ikkinchi so‘zga tobelovchi vosita ekanligi, ma’no va vazifa jihatdan kelishikka o‘xshashligi (*telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq*), shuningdek, so‘zni sintaktik aloqaga kiritishda o‘zi bilan birga uning biror kelishik shaklida bo‘lishini ham talab qilishi ma’lum: Marraga qadar bir tekisda yugurib borishdi. (A.G‘ul.).

Bog‘lovchi odatda, so‘z tizmalari, gaplarning a’zolarini bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: olma va anor. Men o‘qidim va yozdim. Teng bog‘lovchi birinchi misolda so‘z tizmasi a’zolarini, ikkinchi misolda esa qo‘shma gap a’zolarini bog‘lash uchun xizmat qilgan.

Bog‘lama ot kesimni ega yoki boshqa tobe a’zo bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi: *Biz o‘tgan yili talaba bo‘ldik.* Bunda bo‘ldik bog‘lamasi shaxs-son va zamon ma’nolarini ifodalagan hamda kesimni uning shaxs (biz), zamon (o‘tgan yili) kengaytiruvchilari bilan bog‘lagan.

So‘z tartibi. So‘zlar erkin birikuvda grammatik shakl asosida bog‘langanda, so‘z tartibi o‘zgarsa-da, u ma’noviy munosabat yoki bog‘lanishga ta’sir qilmaydi: *Sen kitobni keltirdingmi? Kitobni sen keltirdingmi? Keltirdingmi sen kitobni?* birikuvidagi so‘z o‘rni almashtirilganiga qaramay, keltirdingmi so‘zshakli hokim, sen va kitobni so‘zshakllari tobe a’zo sifatida qolavergan. Chunki ular sintaktik mavqeini ta’minlovchi vosita – morfologik ko‘rsatkichga ega. So‘zning hokim-tobeligi (sintaktik mavqei)ni ko‘rsatuvchi vosita bo‘lmaganda so‘z tartibining qimmati oshadi *(achchiq olma)*. Bunda so‘zning gapdagi funksiyasi, asosan, tartibi bilan belgilanadi, tartib o‘zgarsa, mazmun bilan birga, sintaktik holat ham o‘zgaradi: Hayot go‘zal *(ega+kesim),* go‘zal hayot *(aniqlovchi+aniqlanmish).* Gapda uslubiy maqsadlarda so‘z tartibi o‘zgarishi mumkin: O‘qituvchi intizom haqida gapirdi. Intizom haqida o‘qituvchi gapirdi. Tartibning bunday o‘zgarishi a’zolarning hokim-tobeligiga ta’sir qilmaydi, biroq gapning uslubiy jihatiga, fikrdagi ma’no nozikligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ohang ham, yuqorida aytilganidek, birikuvning tabiatini ko‘rsatuvchi nisbiy vosita. Gap tugallangan ohang bilan aytiladi, uning tarkibidagi ayrim birikuvlar sanash (olma va anor), ayrimlari ko‘tariluvchi ohangga (qizil qalam) ega bo‘ladi.

Ohang (pauza) birikuvning sintaktik bo‘linishini ko‘rsatadi. Masalan, Ko‘p qavatli uy birikmasini ikki xil (ko‘p//qavatli uy va ko‘p qavatli//uy tarzida) aytish mumkin. Demak, sintaktik aloqani, unga bog‘liq ravishda mazmuniy farqlanishni ifodalashda ohangning o‘rni bor. Ya’ni ko‘p//qavatli uy tarzida birinchi so‘zdan keyin pauza qilinishi natijasida *(ko‘p)* so‘zshakli tobe va qavatli uy birikmasi unga hokim mavqeda bo‘lib, bunda qavatli uylarning ko‘pligi haqidagi ma’no anglashiladi. Ikkinchi holatda (ko‘p qavatli//uy) esa ko‘p qavatli birikmasi tobe, uy so‘zshakli esa hokim mavqeda, birikmadan esa uyning qavatlari ko‘pligi ma’nosi namoyon bo‘lgan.

Sanash ohangi bir xil bo‘lakning aloqasini ifodalaydi: Oltin, kumush tosh bo‘lar. (Maq.)

Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari orasida ham turli: qarama-qarshilik *(Kunduzi issiq – kechasi sovuq)*, shart *(Sen kel – u boradi)*, sabab *(Kecha borolmadim – mehmonlar kelib qoldi)* – ma’noviy munosabatlar mavjud.

Ko‘rinadiki, ayrim o‘rinda so‘zlar va gaplarni bog‘lashni ohangning o‘zi bajaradi.

So‘z birikmasida bog‘lanish usuli

So‘z birikmasi a’zolari orasidagi bog‘lanish, ya’ni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining o‘ziga xos xususiyati va farqi a’zolarni biriktiruvchi ko‘rsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi. Masalan, tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varag‘i birikmalarida tobe so‘zning qaysi

shaklda kelishi ko‘pincha, uning hokim so‘ziga *(qalamni olmoq)* bog‘liq bo‘lsa, ba’zan har ikkala a’zo bir-birining qanday shaklda bo‘lishini belgilab qo‘yadi *(kitobning varag‘i)*.

Bitishuvda birikkan so‘zlarning o‘zaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik ko‘rsatkich bo‘lmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tobe so‘z ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan o‘zgarmaydi. Zero, tobe a’zo sifatida namoyon bo‘layotgan so‘z ma’noviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan bo‘ladi. Misollar: qizil gul, oq qog‘oz. Ba’zan ot turkumidagi so‘zlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifada kela oladi: oltin soat, tosh yo‘l kabi. Bunda ular mohiyatan tobe a’zolik doimiy belgisi bo‘lgan sifat, son, ravish turkumiga yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy bo‘lib, oltin, tosh leksemasining lisoniy mohiyati bilan belgilanmagan.

Quyidagi so‘zlar bitishuv yo‘li bilan bog‘langan:

1) ravish +fe’l: o‘z-o‘zidan gapirmoq;

2) sifat+fe’l: yaxshi so‘zlamoq;

3) son+ot: o‘nta qalam, sakkiz daftar;

4) ot+ot: kumush qoshiq, chang yo‘l;

5) olmosh+ot: hamma odam, qanday kitob.

Ayrim manbalarda tobe so‘z vazifasida ravishdosh (shoshilib gapirdi), sifatdosh (o‘qigan bola) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki, bu erda ravishdosh ko‘rsatkichi *-ib* fe’lni fe’lga (shoshilib gapirdi), sifatdosh shakli *-gan* fe’lni otga (o‘qigan bola) bog‘lash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lug‘aviy-sintaktik shakl sifatida qaralishi ham ular hosil qilgan birikuvni bitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqozo etadi.

Bitishuvda a’zolarning hokim-tobelik holati, asosan, tartib va joylashuv omili asosida belgilanadi: (tobe a’zo ya’ni tobe so‘z oldin, hokim so‘z keyin keladi hamda a’zolar orasiga boshqa so‘zni kiritib bo‘lmaydi, *(kumush qoshiq birikmasini kumush o‘nta qoshiq deb o‘zgartirib bo‘lmaydi)*. Ba’zan bitishuvda ham tartib ikkinchi o‘ringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis bo‘ladi – Majlis kechqurun bo‘ladi. Lekin bunda majlis so‘zi fe’lga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bog‘lanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o‘ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so‘zning grammatik xususiyati va ma’nosidan anglashilishi ayon bo‘lib turadi.

Kelishik affiksi o‘z ma’nolarini yo‘qotgan tezda kelmoq, o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq

lozim. Chunki kelishik qo‘shimchasi bu SBda o‘z tizimidan ajralib, so‘z tarkibida *«qotib qolgan».* Bular – kelishik qo‘shimchasini olgan holda ravishga ko‘chgan so‘z.

Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan SBlar tarkibida amal qiladi. Faqat tobe a’zolari birikish uchun tobelovchi qo‘shimcha olgan SB boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan deyiladi. Bunda hokim so‘z tobe so‘zning qanday shaklda bo‘lishini boshqaradi. Masalan, kitobni o‘qimoq birikmasida tobe so‘zning tushum kelishigi shaklida kelishi o‘qimoq fe’lining o‘timliligi bilan belgilangan. Agar bu fe’l o‘timsiz fe’lga aylantirilsa, (o‘qildi) tobe so‘zdagi tushum kelishigi shakli o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘ladi: kitobni o‘qimoq-kitob o‘qildi[1].

Boshqaruv aloqasida tobe so‘zni har xil turkumdagi so‘z boshqarishi mumkin. Misollar: uyga bormoq *(fe’lli boshqaruv)*, mendan katta *(sifat boshqaruvi)*, tovushdan tez *(ravishli boshqaruv)*, o‘qishda birinchi *(son boshqaruvi)*, aytgan bola *(otli boshqaruv)*. ya’ni tobe so‘z oldin, hokim so‘z keyin keladi hamda a’zolar orasiga boshqa so‘zni kiritib bo‘lmaydi, *(kumush qoshiq birikmasini kumush o‘nta qoshiq deb o‘zgartirib bo‘lmaydi)*. Ba’zan bitishuvda ham tartib ikkinchi o‘ringa tushib qolgandek tuyuladi: Majlis bo‘ladi – Majlis kechqurun bo‘ladi. Lekin bunda majlis so‘zi fe’lga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bog‘lanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o‘ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so‘zning grammatik xususiyati va ma’nosidan anglashilishi ayon bo‘lib turadi.

Kelishik affiksi o‘z ma’nolarini yo‘qotgan tezda kelmoq, o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo‘shimchasi bu SBda o‘z tizimidan ajralib, so‘z tarkibida «qotib qolgan». Bular – kelishik qo‘shimchasini olgan holda ravishga ko‘chgan so‘z.

Valentlik tushunchasi

Hozirgi tilshunoslikda gap bo‘laklari iyerarxiyasida faqat kesimning eng muhim bo‘lak, gapning struktur asosi deb qaralishi gapni tashkil etuvchi sintaktik elementlar o‘rtasidagi sintaktik aloqalar xarakteriga ham ta’sir qiladi. Har qanday gap predikat va uning argumentlari munosabati birligi sifatida qaralar ekan, predikat va uning argumentlari o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar tushunchasi hozirgi tilshunoslikda morfologik munosabatlar tiplarining boshqaruv, moslashuv, bitishuv kabi tahlili orqali emas, balki valentlik tushunchasi orqali belgilanadi. Sintaktik aloqa reallashgan valentlik sifatida qaraladi. Keyingi yillarda valentlik nazariyasi o‘z muammosi jihatidan tilshunoslikda alohida soha sifatida ajrala boshladi. Bu termin aslida 1948-yilda S.D.Kaynelson tomonidan qo‘llanilgan edi.

U so‘zning gapda ma’lum tarzda reallashishi va boshqa so‘z bilan ma’lum kombinatsiyaga kirishishi xususiyatini uning sintaktik valentligi hisoblaydi. S.D.Kaynelson bilan bir vaqtda, ammo o‘zi mustaqil holda fransuz tilshunosi L.Tener ham 50-yillarda tobelik grammatikasi doirasida valentlik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning bu nazariyasi jahon tilshunosligiga keng tarqaldi, yangi-yangi tadqiqotlar vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Tener o‘z grammatikasida gapni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida uning struktur asosi sifatida fe’lga tayandi.

Fe’l valentligi nazariyasiga ko‘ra gap strukturasini predikat (ko‘p hollarda fe’ldan ifodalangan) belgilaydi va u o‘ziga muvofiq kategorial belgilarga o‘rin ochadi. Gapning barcha komponentlari fe’l-predikat valentligi munosabatiga ko‘ra u bilan bog‘liq argument, aktant, agens, lokalis, kengaytiruvchilar kabi terminlar bilan bir-biridan farqlandi.

Valentlik nazariyasining mukammallashishida nemis tilshunosi G.Xelbig katta rol o‘ynadi. U nemis tili materiallari asosida fe’lning valentlik modellarini ishlab chiqdi va *“Nemis tilidagi fe’llar valentliklari va distributsiyasi lugati”* ni tuzdi.

Dastlab valentlik nazariyasi valentlik tabiatini turlicha hal qiladigan ikki yo‘nalish – forma va semantik yo‘nalishga ajraldi. Keyingi davrlarda bu ikki yo‘nalish orasida o‘zaro yaqinlashish, so‘z shakl va so‘z leksik ma’nosi valentliklari o‘rtasidagi munosabatning mavjudligiga e’tibor berilmoqda.

Hozirda valentlikning asosan ikki turi sintaktik (konfiguratsion) va semantik turlari ko‘p tilshunoslarga yaxshi tanish. Sintaktik valentlik – ma’lum mustaqil so‘zning boshqa mustaqil so‘z bilan birika olish imkoniyati va semantika bilan ham bog‘liq. Semantik valentlik leksemalar o‘rtasidagi turli sintagmatik munosabatlarni ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida *“sayramoq”* leksemasi qushlarning ovoz chiqarishi ma’nosini ifodalaydi. Shuning uchun u faqat kushlar so‘zi bilan bog‘lana oladi. Ammo u *“ko‘p gapirish”* ma’nosi bilan “odam” sinfiga kiruvchilar bilan ham birikadi. Bu sayramoq leksemasining semantik valentligidir.

Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o‘ziga tortish uchun ularning ma’lum sintaktik shaklda – kelishik, ko‘makchi, ravishdosh, sifatdosh qo‘shimchasini olishini talab qilishi. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqei, grammatik shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, Xatni yozdi, Xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi (xatni) va (xat) so‘zlarining grammatik shakli bosh so‘zning grammatik shakli bilan belgilangan[2].

Sintaktik valentlik lug‘aviy valentlik bilan zich bog‘langan, biri o‘zgarsa, ikkinchisi ham o‘zgaradi, biri yo‘qolsa, ikkinchisi ham bo‘lmaydi. Masalan, yetakla leksemasi jo‘nalish kelishigidagi otni o‘ziga tortmaydi (Halimga yetakla tarzida). Lekin yetakla leksemasi orttirma nisbat shakli *-t* bilan shakllansa, (Halimga)

so‘zshakli unga tortila oladi. Bunda yetakla leksemasining sintaktik valentligi o‘zgardi.

Lug‘aviy va sintaktik valentlik o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular tez-tez o‘zgarishga uchrab turadi. Masalan, Ashulachi *“hangradi”* birikuvida sintaktik valentlik o‘zgarmasdan voqelangan, ammo lug‘aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan. Bunday hol ko‘chma ma’no yuzaga chiqqanidan dalolat beradi. Xat yozildi, Xatni yozdi birikuvlarida ma’noviy valentlik joyida, biroq sintaktik valentlik o‘zgargan. Bu turlicha sintaktik shakllar voqelanganligini ko‘rsatadi. Biroq aytilgan har ikkala o‘zgarish ham bir yoqlama – yo ma’noviy, yo sintaktik tabiatga ega. Agar o‘zgarish birdaniga ikki tomonlama – ham lug‘aviy, ham sintaktik bo‘lsa-chi? Bunda derivatsiya sodir bo‘ladi. Dalil sifatida ochmoq fe’lining lug‘aviy va sintaktik valentliklarini aniqlash orqali bunga amin bo‘lish mumkin:

1. Tergovchi jinoyatni ochdi.

2. Jinoyat tergovchi tomonidan ochildi.

3. Amerikani Vespuchchi ochdi.

4. Gul ochildi.

1- va 2-misolda ochmoq fe’li valentliklarini to‘ldiruvchi so‘z (tergovchi) ning ma’nosi o‘zgarmagan, lekin sintaktik shakli (tergovchi – bosh kelishikda, tergovchi tomonidan – ko‘makchili) o‘zgargan. Demak, ochmoq leksemasining ma’noviy valentligi o‘zgarishsiz saqlangan, sintaktik valentligi o‘zgargan. Bu o‘zgarish ochmoq fe’liga *-il* majhul nisbat qo‘shimchasi tomonidan kiritilgan. 3-misolda esa fe’lning sintaktik valentligi o‘zgarishsiz qolgani holda ma’noviy valentlik o‘zgarishga uchragan. Chunki Amerika so‘zining ma’nosi ochmoq fe’li ma’nosiga muvofiq kelmaydi. Ammo sintaktik shakli mos. 4-misolda esa ham ma’noviy, ham sintaktik valentliklar butkul o‘zgargan. Chunki gul so‘zi ochmoq fe’liga ma’noviy jihatdan mos emas. Bundan tashqari, birikuvchi so‘zning sintaktik shakli (gul – bosh kelishik) ochmoq fe’lga *-il* qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida o‘zgarishga uchragan.

Demak, ma’lum bo‘ladiki, leksemaning lisoniy valentligi ikkiyoqlama, ma’noviy tomoni unga qanday leksema birika olishi me’yori, chegarasini ko‘rsatsa, sintaktik tomoni birikuvchi so‘zning qanday grammatik qo‘shimchani olishini belgilaydi.

Xulosa

Ma’lumki, har bir milliy til o‘z taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug’at tarkibi esa boyib boradi.

Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil formada ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida teng va tobe bog‘lanish, shuningdek bog’lovchi vositalar an’anaviy tilshunoslikda shakliy-funksional tomondan ancha o‘rganilgan. Bu sohada ko‘pgina maqolalar, monografiya va qo‘llanmalar nashr qilingan. Ammo ulardagi barcha holatlar aniq, ular oxirigacha o‘z yechimini topgan deyish qiyin. Biz kichik tadqiqotimizda sintaktik aloqa turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish, munosabat bildirishni ma’qul deb bildik.

Aslida ba’zi mustaqil, so‘zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so‘zlar birikmasi tarkibida qo‘shni so‘zlarga qo‘shilib, enkliza holatida qo‘shni so‘zga tobelanib, ularga biror yo‘sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o‘zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma’nosini yo‘qotib o‘zi qo‘shilgan so‘zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya’ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Prezdidentimiz aytganidek, “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-manaviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi, ona tili bu millatning ruhidir”.

Tilimizdagi so‘zlar va muayyan grammatik format (affikslarning har biri til va tafakkurning zo‘r ehtiyojlari, hayotning keskin talablari bilan til taraqqiyoti protsessida biror konkret so‘z shaklidan paydo bo‘lgan: -ni, -ning, -ga, -da, -dan kabi kelishik affikslari aslida azaliy emas, ularning har birining o‘ziga xos muayyan tarixi va konkret rivojlanish qonuni borki, ilmiy analiz yo‘li bilan har bir so‘z va har bir affiksning paydo bo‘lish tarixi, rivojlanish qonunlari, taraqqiyot yo‘llarining ochilishi, aniqlanishi mumkin[3].

Aslida ba’zi mustaqil, so‘zlar tilning taraqqiyoti va tarixiy takomillanishi protsessida so‘zlar birikmasi tarkibida qo‘shni so‘zlarga qo‘shilib, enkliza holatida qo‘shni so‘zga tobelanib, ularga biror yo‘sinda singib ketib, shaklan va mazmunan turlicha o‘zgarishlarga uchrab, natijada, mustaqil shaklini, muayyan ma’nosini yo‘qotib o‘zi qo‘shilgan so‘zlar uchun bir affiks vazifasini bajara boshlaydi va shu holatda affiksga aylanadi, degan turlicha ilmiy nazariya’ning haqiqat ekanini tasdiqlovchi bir qancha asosli dalillar mavjud.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligining ilg‘or g‘oya va metodlarini o‘zlashtirgan holda uni yangi ilmiy dunyoqarashlar, zamonaga munosib talqinlar, fanning ilg‘or nazariyalari, manbalari bilan boyitishga harakat qilmoqda. Shuning natijasi sifatida A.Nurmonov va N.Mahmudovlar “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”ni nashr qildilar. Bu ham ilgarigi sintaktik qarashlarga yangi izlanishlar samarasi sifatida katta hissa bo‘lib qo‘shildi va bu sohani jahon tilshunosligidagi chuqur sintaktik ma’lumotlar materiallar bilan to‘ldirdi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda sintaktik aloqalar haqidagi nazariy qarashlar, munosabatlar ham o‘zgarayotganligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa kesimning asosiy markaziy bo‘lak ekanligi, ismlar va kelishiklar.

Kelishikli munosabatlar, ya’ni moslashuv va boshqaruv munosabatlarining aniq qoliplari ishlab chiqilishi til korpusi uchun juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Quyida bu ahamiyatlar bir necha asosiy yo‘nalishda bayon qilinadi:

1. Sintaktik tahlil avtomatlashtiriladi. Agar boshqaruv va moslashuv munosabatlarining qoidalari va qoliplari aniq belgilansa:

- Til korpusidagi har bir gap avtomatik ravishda pars qilinadi (ya’ni, grammatik tuzilmasi aniqlanadi).
- Gapdagi bog‘lanishlar (so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatlar) kompyuter tomonidan aniqlanadi. Bu korpusni sintaktik teglash (annotatsiya qilish) imkonini beradi. *Misol: “Kitobni o‘qidim” gapida ot – fe’l munosabati boshqaruv orqali aniqlanadi (o‘qimoq – -ni kelishigi). Qolip: ot + -ni + fe’l = Tushum kelishigi vositasida boshqaruv.*

2. Mashinali tarjima sifatini oshiradi. Mashinali tarjima tizimlari uchun:

Boshqaruv va moslashuv munosabatlarini tushunish — so‘zlar qanday bog‘lanishini bilish demak. Bu orqali so‘z tartibi, ot-sifat, fe’l-to‘ldiruvchi kabi birliklar tarjimada to‘g‘ri aks ettiriladi.

3. Tilshunoslik tadqiqotlari uchun asos.

- Korpus asosida statistik tahlil qilish mumkin bo‘ladi: qaysi boshqaruv/moslashuv turlari ko‘proq uchraydi, qanday holatda ishlatiladi.
- Yangi til modellari (masalan, o‘zbek tili uchun LLMlar) qurishda bu strukturaviy axborotdan foydalanish mumkin.

4. Til o‘rgatishda foydali vosita. Ayni qoliplar asosida interaktiv mashqlar, sintaktik konstruktorlar yaratish mumkin. Bu talabalarga tilning ichki tizimini tushunishda yordam beradi.

5. Tilni rasmiylashtirish (formalizatsiya) imkoniyati. Tildagi boshqaruv va moslashuv munosabatlari aniq formulalar ko‘rinishida ifodalansa, ular kompyuterga tushunarli bo‘ladi. Bu esa grammatik qoidalarni algoritmik tarzda yozishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. G‘ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O‘qituvchi. 1987.

2. G. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O‘qituvchi. 1979.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1995.
4. I. A. Karimov. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – T.,2010, 83-b
5. A. N. Kononov. Grammatika sovremennogo tureykogo literaturnogo yazıka. M. 1956, 78-97-betlar.
6. N.A. Baskakov. Karakalpakskiy yazık, 1 chast 1 izd-vo AN Moskva, 1956, 196-197 betlar. Shu avtor, Osootnosheniyalichnıx i ukazatelnıx mestoimenii v tyurskix yazıkax. Dokladı i soobsheniya AN. 1. 1956, 135-bet.
7. S.E. Malov, Pamyatniki drevnego-tyurskoy pismennosti izd. AN M. 1951, 187-198 betlar.
8. Prof. V.V. Reshetov. Ob odnom uzbekskom padeje, Tyurkologigicheskiy sbornik. 1 izd AN M. 1956 176-bet.
9. G. I. Ramstedt, Vvedenie v altayskoe yazıkoznanie, izd İn. Lit.
10. E. V. Sevortyan, Kategoriya padeja. İssledovaniya po sravnitelnoy grammatike tyurskix yazıkov, N. 1956, 45-57 betlar.
11. A. M. Sherbak, Grammaticheskiy ocherk yazıka tyurskix tekstov. XX-XIII v.v. iz vostochnogo Turkestana, izd AN M. 1961, 78-91 betlar.
12. Prof. A. K. Borokov, İz materialov dlya istorii uzbeskogo yazıka, Tyurkologicheskiy sbornik İzd-vo AN M. 1956 74-78 betlar.
13. A.G. G’ulomov, O‘zbek tilida kelishiklar, O‘zFa asarlari Toshkent, 1941, Filologiya I Ikitob 5-85 bet.
14. Faxri Kamol, O‘zbek orfografiyasi haqida O‘quvpeddavnashr, Tosh. 1957 32-35 bet.
15. Sh. Shoabdurahmanov, O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari, Tosh1962. 141g’150 bet.
16. F. Abdullayev, Kelishik affikslarining genezisiga doir. “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnali, 5-son 1961 27-bet.
17. K. Karimov, Kategoriya padeja v yazıke “Kutadgu bilig”, Avtoref. Kand. Diss. Tosh 1962.

II SHO‘BA. KORPUS LINGVISTIKASI

KORPUS MATNLARINI PYTHON TILI VOSITASIDA TEMATIK MODELLASHTIRISH

Botir Elov Boltayevich,
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Narzillo Aloyev Raxmatilloyevich,
ToshDO‘TAU tayanch doktorant
vip.alayev@gmail.com

Annotatsiya. Tematik modellashtirish – bu hujjatlar to‘plamini tahlil qilish, ulardagi so‘z va so‘z birikmalarni aniqlash hamda hujjatlar to‘plamini eng yaxshi tavsiflovchi so‘z guruhlari va shunga o‘xshash frazalarni avtomatik ravishda klasterlashga asoslangan nazoratsiz mashinali o‘rganish usuli. Har kuni yuzlab, hatto minglab mijozlar bilan muloqot qiladigan kompaniyada, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, elektron pochta xabarlari, chatlar, ochiq so‘rovnomalar va boshqa shu turdagi ma'lumotlarini tahlil qilish ancha murakkab jarayon. Sun'iy intellekt vositalari yordamida matn tahlili tilni tabiiy ravishda qayta ishlash uchun turli xil usullar yoki algoritmlardan foydalanadi. Ulardan biri mavzu tahlili - matnlardan mavzularni avtomatik aniqlash uchun ishlatiladi. Mavzuni tahlil qilish modellaridan foydalangan holda, tashkilotdagi katta hajmdagi matnli ma’lumotlarni qayta ishlash vazifalari mashinalarga yuklatilishi mumkin. Agar mashina har kuni mijozlar katta sondagi so‘rovlarini saralab bera olsa, tashkilot xodimlarining qancha vaqt tejashi va muhimroq vazifalarga sarflashi mumkinligini ta`kidlash zarur. Ushbu maqolada mavzuni tahlil qilish usullarining zamonaviy usullari tavsifi, matematik asosi va Python tilidagi tadbig‘i ko‘rib chiqiladi. Tematik modellashtirish – bu “nazoratsiz” mashinali o‘rganish usuli bo‘lib, dataset treningini talab qilmaydi.

Annotation. Topic modeling is an unsupervised machine learning technique based on analyzing a set of documents, identifying words and phrases in them, and automatically clustering groups of words and similar phrases that best describe the set of documents. In a company that communicates with hundreds or even thousands of customers every day, analyzing social media messages, emails, chats, open surveys and other such data is a complex process. Text analysis using artificial intelligence tools uses different techniques or algorithms to naturally process language. One of them is topic analysis, which is used to automatically identify topics from texts. Using topic analysis models, large text data processing tasks in an organization can be outsourced to machines. It's worth noting how much time an organization's employees can save and spend on more important tasks if a machine

can sort through a large number of customer requests every day. This article describes modern methods of topic analysis, mathematical basis and implementation in Python language. Topic modeling is an "unsupervised" machine learning technique that does not require dataset training.

Аннотация. Тематическое моделирование – это метод машинного обучения, основанный на анализе набора документов, выявлении в них слов и фраз и автоматической кластеризации групп слов и похожих фраз, которые лучше всего описывают набор документов. В компании, которая ежедневно общается с сотнями или даже тысячами клиентов, анализ сообщений в социальных сетях, электронных писем, чатов, открытых опросов и других подобных данных является сложным процессом. Анализ текста с использованием инструментов искусственного интеллекта использует различные методы или алгоритмы для естественной обработки языка. Один из них – тематический анализ, который используется для автоматического определения тем из текстов. Используя модели тематического анализа, большие задачи по обработке текстовых данных в организации можно передать машинам. Стоит отметить, сколько времени сотрудники организации могут сэкономить и потратить на более важные задачи, если машина сможет обрабатывать большое количество запросов клиентов каждый день. В этой статье описаны современные методы тематического анализа, их математическая основа и реализация на языке Python. Тематическое моделирование – это метод машинного обучения, который не требует обучения набору данных.

Kalit so‘zlar: *Tematik modellashtirish, tematik modellar, Python, LSA, LSI, LDA, NMF, HDP, nazoratsiz mashinali o‘qitish usullari, til korpusi.*

Kirish

Tematik modellashtirish – bu hujjatlar to‘plami uchun klaster so‘zlarini aniqlash uchun matn ma’lumotlarini avtomatik ravishda tahlil qiladigan mashinani o‘rganish usuli. Bu usul “nazoratsiz” mashinali o‘rganish sifatida tanilgan bo‘lib, avvaldan odamlar tomonidan tasniflangan teglar yoki o‘quv ma'lumotlarining oldindan belgilangan ro‘yxatini talab qilmaydi [1].

Tematik modellashtirish o‘quv ma’lumotlarini talab qilmagani uchun, ushbu usul ma’lumotlarni tahlil qilishni boshlashning tez va oson yo‘lidir. Shu sababli, tashkilotlar o‘z faoliyalari samaradorligini oshirish maqsadida mavzuni tasniflash modelini o‘rganishga vaqt sarflashni afzal ko‘rishadi.

Bugungi kundagi tematik modellashtirishning ommabop algoritmlariga *yashirin semantik tahlil (Latent Semantic Analysis, LSA), yashirin semantik indeksatsiya (Latent Semantic Indexing, LSI), ierarxik Dirixle jarayoni*

(Hierarchical Dirichlet Process, HDP), yashirin Dirixle taqsimoti (Latent Dirichlet Allocation, LDA) va *manfiy bo‘lmagan matritsa faktorizatsiyasi (Non-negative Matrix factorization, NMF)* kabi usullarini misol sifatida keltirish mumkin [2,3,4]. Ular orasida LSA amalda aniqroq va samarali natijalarni ko‘rsatgan va shuning uchun keng miqyosida qo‘llaniladi [5,6]. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan tematik modellashtirish usullarining barchasini birma-bir ko‘rib chiqiladi va Python tili vositalari orqali tadbiq qilinadi.

Yashirin semantik tahlil (Latent Semantic Analysis, LSA) usuli

Yashirin semantik tahlil – bu hujjatlar to‘plamidagi yashirin munosabatlarni kam o‘lchamli fazoda aniqlashga harakat qiladigan matematik usul. LSA ma’nosi yaqin bo‘lgan so‘zlar o‘xshash matn qismlarida *paydo bo‘lishini taxmin (tarqatish gipotezasi)* qiladi.

Har bir paragrafda so‘zlar sonini o‘z ichiga olgan matritsa (satrlar noyob so‘zlarni, ustunlar esa har bir paragrafni ifodalaydi) matnning katta qismidan hosil qilinadi va o‘xshashlik strukturasini saqlab qolgan holda qator(satr)lar sonini kamaytirish uchun *singulyar qiymat dekompozitsiyasi (singular value decomposition, SVD)* deb ataladigan matematik usuldan foydalaniladi [3,7]. LSA usulida har bir hujjatni boshqalardan ajratilgan holda ko‘rib chiqish o‘rniga, munosabatlarni aniqlash uchun barcha hujjatlarni va ulardagi shartlarni ko‘rib chiqiladi.

SVDdan quyi darajali matritsaga yaqinlashish masalasini hal qilish uchun foydalanish mumkin. So‘ngra ushbu matrisadan *termin-hujjat matritsalarini* aniqash mumkin. Buning uchun quyidagi uch bosqichli amallarni bajarish lozim [8,9]:

1. Berilgan **C** uchun **SVD** matrisasini $\boldsymbol{C} = \boldsymbol{U} \sum \boldsymbol{V^T}$ ko‘rinishda hosil qilamiz.
2. $\sum$ diagonalidagi **r−k** eng kichik singulyar qiymatlarni nolga almashtirish natijasida hosil bo‘lgan $\sum \boldsymbol{k}$ matritsasini hosil qilish.
3. $\boldsymbol{C_k} = \boldsymbol{U} \sum \boldsymbol{kV^T}$ni **C** ga **k**-darajada yaqinlashtirish.

Bu yerda, **C** – *termin-hujjat matrisasi,* $\boldsymbol{U}$, $\sum$ va $\boldsymbol{V^T}$ qiymatlar **SVD** matrisalari.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma’lumotlar asosida Python tili vositalari yordamida **LSI** uchun **scikit-learning** modulidan foydalanamiz.

Scikit-learning modulida LSA usuli uchun o‘lchamlarni kamaytirish SVD metodi yordamida amalga oshiriladi.

```
from sklearn.decomposition import NMF, LatentDirichletAllocation, TruncatedSVD
from sklearn.feature_extraction.text import CountVectorizer
NUM_TOPICS = 4
```

```
# Hujjatni tokenlar matritsasiga aylantirish
vectorizer = CountVectorizer(min_df=5, max_df=0.9,
                             stop_words='english', lowercase=True,
                             token_pattern='[a-zA-Z\-][a-zA-Z\-]{2,}')
data_vectorized = vectorizer.fit_transform(title)
# SVDdan foydalaniv Latent Semantic Indexing (LSI) modelni shakllantirish
lsi_model = TruncatedSVD(n_components=NUM_TOPICS)
lsi_Z = lsi_model.fit_transform(data_vectorized)
print(lsi_Z.shape)
```

_____

(3000, 4)

```
def print_topics(model, vectorizer, top_n=10):
    for idx, topic in enumerate(model.components_):
        print("Topic %d:" % (idx))
        print([(vectorizer.get_feature_names_out()[i], topic[i])
                for i in topic.argsort()[:-top_n - 1:-1]])

print("LSI Model:")
print_topics(lsi_model, vectorizer)
print("=" * 20)
```

_____

LSI Model:

Topic 0:

[('new', 0.9423293654141083), ('york', 0.09876242707814353), ('samsung‘, 0.08674228078722532), ('study', 0.0842158513506398), ('says', 0.07742874309109753), ('google', 0.07544052179967121), ('apple', 0.06923485166706239), ('galaxy', 0.06400938270176393), ('report', 0.05169112595076477), ('cancer', 0.04687394655373266)]

Topic 1:

[('google', 0.6199432211963671), ('samsung‘, 0.4647407644932722), ('galaxy', 0.3972519251332346), ('says', 0.17182596426071345), ('apple', 0.14386302171460943), ('android', 0.1330713392779825), ('glass', 0.13117330837697994), ('tab', 0.1099072145269534), ('report', 0.10445918022761816), ('price', 0.08276757970152882)]

Topic 2:

[('samsung‘, 0.5275265496715218), ('galaxy', 0.459192654236729), ('tab', 0.11338869931862162), ('price', 0.08361848415269445), ('apple', 0.051806901002287985), ('note', 0.045800336897351294), ('specs', 0.04483063275553376), ('india', 0.042755633537156765), ('mini', 0.038437773223479306), ('features', 0.03624060134992984)]

Topic 3:

[('says', 0.7334439981745634), ('ebola', 0.2912417585498625), ('study', 0.2819044681057816), ('health', 0.12002575609088922), ('world', 0.11769503771591194), ('west', 0.11704154406432216), ('outbreak', 0.10062689666445736), ('virus', 0.09807160654546011), ('report', 0.09094477004970669), ('million', 0.08399790424182825)]

==========

Yuqoridagi ro‘yxatda LSI modeli bo‘yicha mavzular keltirilgan.

```
from sklearn.manifold import TSNE
# NLTK
from nltk.tokenize import RegexpTokenizer
from nltk.stem.snowball import SnowballStemmer
from nltk.corpus import stopwords
import re

# Visualizatsiya
import matplotlib.pyplot as plt
import matplotlib.patches as mpatches
import matplotlib
%matplotlib inline
import seaborn as sns

# Bokeh
from bokeh.io import output_notebook
from bokeh.plotting import figure, show
from bokeh.models import HoverTool, CustomJS, ColumnDataSource, Slider
from bokeh.layouts import column
from bokeh.palettes import all_palettes
output_notebook()
```

Keyingi qadamda LSI modelini visualizatsiya qilamiz va model bo‘yicha bir-biriga yaqin so‘zlar va hujjatlarni ko‘rib chiqamiz.

```
import pandas as pd

from bokeh.io import push_notebook, show, output_notebook
from bokeh.plotting import figure
from bokeh.models import ColumnDataSource, LabelSet
output_notebook()

svd = TruncatedSVD(n_components=100)
documents_2d = svd.fit_transform(data_vectorized)

df = pd.DataFrame(columns=['x', 'y', 'document'])
df['x'], df['y'], df['document'] = documents_2d[:,0], documents_2d[:,1], range(len(data))

source = ColumnDataSource(ColumnDataSource.from_df(df))
labels = LabelSet(x="x", y="y", text="document", y_offset=8,
                  text_font_size="8pt", text_color="#555555",
                  source=source, text_align='center')

plot = figure(width=600, height=600)
plot.circle("x", "y", size=12, source=source, line_color="black", fill_alpha=0.8)
plot.add_layout(labels)
show(plot, notebook_handle=True)
```

Xulosa. Ushbu maqolaning asosiy g‘oyasi keng qo‘llaniladigan tematik modellashtirish usullarini amalga oshirish va taqqoslasdan iborat. Olingan

natijalarga ko‘ra NMF usuli eng yuqori muvofiqlik ballini bergan bo‘lsa-da, LDA eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi va izchil deb hisoblanadi. Chunki LDA usuli ko‘proq "muvofiq" mavzularni taqdim etishi mumkin. Mavzu ehtimoli har bir hujjatda o‘zgarmas bo‘lishi kerak bo‘lsa, NMF yaxshiroq ishlaydi. Boshqa tomondan, HDP usulidan kamroq foydalaniladi, chunki mavzular soni oldindan aniqlanmagan va shuning uchun ushbu usul kamdan-kam qo‘llaniladi. Albatta, olingan natijalar berilgan namunaviy korpus ma'lumotlariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov B., Alayev R., Aloyev N. (2024). Tematik modellashtirishning zamonaviy usullari. Digital transformation and artificial intelligence, *2*(1), 8–16. Retrieved from https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i12
2. Elov.B., Alayev N. Matnlarini tematik modellashtirish va tasniflash usullari. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali. Vol. 3 No. 12 (2023). 263-276
3. Elov B., Aloyev N., Yuldashev A. (2023). SVD va NMF metodlari orqali tematik modellashtirish. O‘zbekiston: til va madaniyat (Kompyuter lingvistikasi), 2023, 2(6). 55-66
4. Alghamdi, R., & Alfalqi, K. (2015). A Survey of Topic Modeling in Text Mining. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 6(1). https://doi.org/10.14569/ijacsa.2015.060121
5. Tao, R., Wei, Y., & Yang, T. (2021). Metaphor Analysis Method Based on Latent Semantic Analysis. Journal of Donghua University (English Edition), 38(1). https://doi.org/10.19884/j.1672-5220.202010087
6. Darmalaksana, W., Slamet, C., Zulfikar, W. B., Fadillah, I. F., Maylawati, D. S. adillah, & Ali, H. (2020). Latent semantic analysis and cosine similarity for hadith search engine. Telkomnika (Telecommunication Computing Electronics and Control), 18(1). https://doi.org/10.12928/TELKOMNIKA.V18I1.14874
7. Ke, Z. T., & Wang, M. (2022). Using SVD for Topic Modeling. Journal of the American Statistical Association. https://doi.org/10.1080/01621459.2022.2123813
8. Churchill, R., & Singh, L. (2022). The Evolution of Topic Modeling. ACM Computing Surveys, 54(10). https://doi.org/10.1145/3507900
9. Kherwa, P., & Bansal, P. (2020). Topic Modeling: A Comprehensive Review. EAI Endorsed Transactions on Scalable Information Systems, 7(24). https://doi.org/10.4108/eai.13-7-2018.159623

ӘОЖ 811.111

КОРПУСТЫҚ ЛИНГВИСТИКАНЫҢ ДАМУЫНДАҒЫ ПРОФЕССОР АСҚАР ЖҰБАНОВТЫҢ РӨЛІ

Миров М.О,
Филология ғылымдарының кандидаты, доцент
mirov-agu@bk.ru
Турсынова М.А,
Магистрант
malika.tursynova.00@mail.ru
Қ. Жұбанов атындағы Ақтөбе өңірлік университеті
Қазақстан, Ақтөбе

Аннотация. Бұл мақалада корпустық лингвистиканың қазақ тіл білімінде қалыптасуына, дамуына айрықша еңбек сіңірген профессор Асқар Жұбановтың еңбектері жан -жақты талданады.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the scientific works of Professor Askar Zhubanov, who made a significant contribution to the formation and development of corpus linguistics in Kazakh linguistics. His research on the creation of a national corpus, the development of language models, and computational linguistics is examined.

Publitsistik uslub janrlarida 18501 ta turkiy so‘z, 14716 ta arab tilidan o‘zlashgan so‘z, 3232 ta fors-tojikcha so‘zlar qo‘llanilgan. Ushbu uslub matnlarida arabcha so‘zlar boshqa uslub matnlaridagiga nisbatan ko‘proq qo‘llanilgan. Publitsistik uslubda yozilgan “Oila”, “Rahbari najot” nomli asarlarida arabcha kalimalar, oyatlar, hadislar ko‘p qo‘llanilgan. Millat ravnaqi uchun, oila mustahkamligi uchun yagona najot yo‘li islom dini ekani yoritilgan ushbu asarlarda arabcha so‘zlarning ulushu katta bo‘lishi tabiiy. Munozara janrida yozilgan “Hindistonlik bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi” nomli asarida boshqa janrlardan farqli tarzda arabcha so‘zlar turkiy so‘zlardan ko‘p qo‘llanilgan. Turkiy so‘zlar 2168 ta, arabcha so‘zlar 2410 ta, fors-tojikcha so‘zlar 574 tani tashkil qilgan. Ushbu asarda hindistonlik sayyoh va buxorolik mudarris suhbatida Qur’on oyatlari, hadislar, arabcha jumlalar ko‘p qo‘llanilgan. Bu arabcha so‘zlarning ulushi turkiy so‘zlardan ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa. Abdurauf Fitrat ijodida jami 9157 ta leksik birlikdan foydalangani ma’lum bo‘ldi. Ulardan o‘z qatlamga mansub lemmalarning soni 5192 tani tashkil etadi. O‘zlashgan qatlamga oid so‘zlarning asosiy qismini arabcha va fors-tojikcha so‘zlar tashkil qiladi. Arabcha so‘zlar 27.4 ta, fors-tojikcha so‘zlar 11.4 foiz, boshqa talam so‘zlari 5 foizni o‘z ichiga oladi. Ruscha, lotincha, yunoncha, fransuzcha lemmalar terminlar, ilm-fan taraqqiyoti natijasida kirib kelgan so‘zlardir. Nemischa, italyancha, sanskritcha, xitoycha, yaponcha so‘zlar juda kam miqdorni tashkil etadi.

Badiiy uslub janrlarida muallif turkiy so‘zlardan ko‘p foydalangan. Arabcha va fors-tojikcha so‘zlar boshqa uslubdagi ushbu qatlam so‘zlariga nisbatan ancha kam qo‘llanilgan. Badiiy uslub matnlarida turkiy so‘zlar 18696 ta, arabcha so‘zlar 6857 ta, fors-tojikcha so‘zlar 2157 tani tashkil qiladi. Ilmiy uslub janrlarida qo‘llanilgan o‘z qatlamga mansub so‘zlarning soni 22437 tani tashkil qiladi. Arabcha so‘zlar 12146 ta, fors-tojikcha so‘zlar esa 2843 ta. Ilmiy uslub matnlarida arabcha, fors-tojikcha o‘zlashmalarning ko‘p uchrashining asosiy sababi arabcha terminlarning mavjudligi, Fitrat tomonidan o‘rganilgan shoir-yozuvchilarning ijodida qo‘llanilgan so‘zlarning ko‘pligidir. Publitsistik uslub janrlarida 18501 ta turkiy so‘z, 14716 ta arab tilidan o‘zlashgan so‘z, 3232 ta fors-tojikcha so‘zlar qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кукушкина О.В., Суровцева Е.В., Лапонина Л.В. Частотный грамматико-семантический словарь языка художественных произведений А.П.Чехова с электронным приложением. – М.: МАКС Пресс, 2012. – 571 с.
2. Заботкиной В.И. “Методи когнитивного анализа семантика слова компютерно-корпусной подход”, Москва: Язика словянской культури, п. 348, 2015.
3. Словар язика Достоевского. Идеоглоссарий.// Российская академия наук институте руского язика им В.В.Виноградова, 2008.
4. Hamroyeva Sh.M. “O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari”, Buxoro, – 259 bet, 2018.
5. G‘ulomova N.S. “Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari bazasini yaratish (“Badoye’ ul-vasat” devoni asosida)”, Toshkent, – 190 bet, 2022.
6. https://navoiykorpusi.uz/
7. https://fitratkorpusi.uz/

QORAQALPOQ TILI SO‘ZLARINI LEMMALASH UCHUN LINGVISTIK MANBA YARATISH

Yusupov Firnafas
Texnika fanlari nomzodi, dotsent
firnafas@mail.ru
TATU Urganch filiali

Sharipov Maqsud Siddiqovich
Texnika fanlari nomzodi, dotsent
maqsbek72@gmail.com
Urganch davlat universiteti

Urazbayeva Nilufar Oybek qizi
urazbayevanilufar724@gmail.com
UrDU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi so‘zlarni lemmalash uchun zarur bo‘lgan lingvistik manbani yaratish masalasi ko‘rib chiqiladi. Unda qoraqalpoq tilining leksik xususiyatlari, affiksal tizimi, shuningdek, so‘zlarning lemmalash jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Leksik tuzilmalarni aniqlash, lug‘aviy bazani shakllantirish lemmalashning muhim bosqichlari sifatida ko‘rsatiladi. Mualliflar qoraqalpoq tiliga oid leksik va grammatik axborotlarni tizimlashtirish orqali, tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasi va sun’iy intellekt sohalarida foydalanish mumkin bo‘lgan lingvistik manbani ishlab chiqish zarurligini asoslab beradilar. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq tilining raqamli muhitda rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Annotation. This article discusses the issue of creating a linguistic resource necessary for the lemmatization of words in the Karakalpak language. It analyzes the lexical features and affixal system of the Karakalpak language, as well as the role of words in the lemmatization process. Identifying lexical structures and building a lexical database are presented as important stages of lemmatization. The authors justify the need to develop a linguistic resource that can be used in natural language processing, machine translation, and artificial intelligence by systematizing lexical and grammatical information related to the Karakalpak language. The research results will contribute to the development of the Karakalpak language in the digital environment.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос создания лингвистического ресурса, необходимого для лемматизации слов каракалпакского языка. Анализируются лексические особенности, аффиксальная система каракалпакского языка, а также роль слов в процессе

лемматизации. Определение лексических структур и формирование лексической базы представлены как важные этапы лемматизации. Авторы обосновывают необходимость разработки лингвистического ресурса, который можно использовать в области обработки естественного языка, машинного перевода и искусственного интеллекта, путем систематизации лексической и грамматической информации, относящейся к каракалпакскому языку. Результаты исследования внесут вклад в развитие каракалпакского языка в цифровой среде.

Kalit so‘zlar. *Qoraqalpoq tili, korpus, korpus tahlili, lingvistik manba, lemma, lemmalash, algoritm.*

Hozirgi kunda qoraqalpoq tilidagi lemmalash jarayoniga oid ilmiy tadqiqotlar va manbalar yetishmayapti. Shu sababli, qoraqalpoq tilidagi so‘zlarni lemmalash uchun lingvistik manba yaratish zarurati tug‘iladi. Ushbu maqolada qoraqalpoq tili so‘zlarini lemmalash uchun kerakli lingvistik manbaning yaratilishi jarayoni, uning ahamiyati, Tabiiy tilni qayta ishlash (ing. Natural Language Processing – NLP) muammolarini yechishga yo‘naltirilgan resurslarga e’tibor qaratish va kutilayotgan natijalari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Lemmalash so‘zlarning asosiy shaklini aniqlash va ularga ishlov berish jarayonini ifodalaydi, bu esa to‘liq lingvistik ma’lumotlar bazasini talab etadi. Mazkur ma’lumotlar bazalari korpus deb nomlanadi va u yozma matnlarning istalgan to‘plamidan iborat bo‘lishi mumkin [1]. Lingvistik tahlil dasturlari ushbu korpuslardan tezkor qidiruv va tahlilni amalga oshirish orqali samarali natijalarga erishadi. Maqsadimiz qoraqalpoq tilining raqamli muhitda rivojlanishini ta’minlash, uning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish va xalqaro tilshunoslik tadqiqotlariga hissa qo‘shishdir.

Qoraqalpoq tili – turkiy tillar qatoriga kiradi. 1 mlnga yaqin insonlar ushbu tilda so‘zlashadilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasida istiqomat qiluvchi qoraqalpoq xalqining ona tilidir. Qoraqalpoq tili – O‘zbekiston Respublikasining tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining rasmiy tilidir. Bu to‘g‘risida maxsus qonun chiqarilgan. Qonunda qoraqalpoq tili Qoraqalpog‘istonning barcha hududida davlat tili sifatida foydalanishga imkon berilgan. Qoraqalpoq tili - turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillardan; qozoq va no‘g‘ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarining qipchoq-no‘g‘ay guruhchasini tashkil etadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat tili (o‘zbek tili bilan birga). Asosan, Qoraqalpog‘istonda, shuningdek, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qozog‘iston va Turkmanistonning unga qo‘shni hududlarida, Rossiya Federatsiyasi va Afg‘onistonda tarqalgan. Qoraqalpoq tilida so‘zla-shuvchilarning umumiy soni 883 ming kishidan iborat (o‘tgan asrning 90-yillar o‘rtalari). Qoraqalpoq tili, asosan, 2 ta: shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy lahjalarga bo‘linadi; bu lah-jalar fonetik jihatdan o‘zaro farqlanadi. Adabiy Qoraqalpoq tili 20-asrning 1-yarmida shimoli-

sharqiy lahja asosida shakllangan. Qoraqalpoq tili boshqa turkiy tillarning aksariyati kabi tipologik xususiyatlari bilan ajralib turadi [2, 3, 4].

Qoraqalpoq tilining o‘ziga xos belgilari: unlilar ohangdoshligi - singarmonizm mavjud, Atlarshmz (otlarimiz). kunler - (kunlar); umumturkiy ch undoshi sh bilan; sh esa s undoshi bilan almashadi, qash (qoch), tas (tosh), bas (bosh). Ayrim so‘zlarda g‘ undoshi o‘rnida v; g undoshi o‘rnida y ishlatiladi, tav (tog‘), tiy (teg) va boshqa Qoraqalpoq tilida, boshqa ko‘pchilik turkny tillarda bo‘lganidek, umumturkiy so‘zlardan tashqari, arab, eroniy, rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ham anchagina [3, 4].

Hozirgi kunda, tillarning kompyuter yordamida ishlashini o‘rganuvchi sohalarda, lemmalash muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada, qoraqalpoq tilida lemmalash algoritmini yaratish uchun zarur bo‘lgan lingvistik manbalarni ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqiladi. Qoraqalpoq tili, turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining leksik, sintaktik va morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu tilda ko‘plab o‘zgartirishlar va afikslar mavjud, ular so‘zning ma’no va grammatik shaklini o‘zgartiradi. Qoraqalpoq tilining leksikologiyasini o‘rganish, lemmalash algoritmini yaratishda asosiy bosqichdir. Qoraqalpoq tilida fe’llar ko‘p hollarda zamon va shaxs affikslariga ega. Shuningdek, nomlar uchun ko‘plik, egalik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita qo‘shish affikslaridan foydalaniladi. So‘zning har bir shakli o‘zining lemmataga keltirilishini talab qiladi, shuning uchun qoraqalpoq tilining morfologik xususiyatlarini batafsil tushunish, algoritmning samaradorligini oshiradi [4, 5].

Lemmalashish (yoki lemmatization) – bu so‘zning morfologik shakllarini uning lemmaga (ya’ni, so‘zning ildiz shakliga) keltirish jarayonidir. Masalan, turk tilida “yazacak”, “yazdı”, “yazıyor” kabi shakllar bir xil lemmaga, ya’ni "yaz" ga keltiriladi. Qoraqalpoq tilida ham so‘zlar turli morfologik shakllarda bo‘lishi mumkin, shuning uchun lemmalash jarayoni ushbu tilning to‘g‘ri tahlil qilinishi uchun zarurdir.

- Inglizcha. *“ran”, “runs”, “running”* -> *“run”*
- O‘zbekcha. *“yozdi”, “yozadi”, “yozyapti”, “yozgan”* -> *“yozmoq”*
- Qoraqolpoqcha. *“yazdi”, “ yazaman”, “yazish” – “yazmaq”*
- Turkcha. *“koşacak”, “koşuyor”, “koşdı” – “koş”*

Lemmalash algoritmini yaratish uchun tilga oid katta hajmdagi lingvistik manbalarni tayyorlash zarur. Bu manbalar quyidagi turlardan iborat bo‘lishi mumkin:

Qoraqalpoq tilidagi so‘zlarning leksik tuzilishini o‘z ichiga olgan lug‘atlar. Ular so‘zlarning lemmallash uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun

Qoraqalpoq tilining 7 tomlik izohli lug‘atini misol keltirishimiz va undan foydalanishimiz mumkin.Ushbu izohli lug‘atda har bir harf uchun alohida ta’rif berilib o‘tilgan va har bir so‘zning ikki va undan ortiq shakllari ham ko‘rsatilgan. Bu lug‘atdagi har bir harfdagi so‘zlarni alohida fayl shaklida yig‘ib chiqishni talab qiladi.

Qoraqalpoq tili uchun lemmalashni amalga oshirishda lingvistik manba yaratishning muhim ahamiyati bor. Bu manbalar tilni avtomatik qayta ishlashda, mashina o‘rganish va sun’iy intellekt tizimlarini yaratishda yordam beradi. Lemmalashish uchun quyidagi manbalarni yaratish mumkin:

Lingvistik lug‘at: Qoraqalpoq tilida lingvistik lug‘at yaratish uchun - so‘zlarning ildiz shakllarini har xil qo‘shimchalardan holi tarzda ko‘rsatib berish. Bu lug‘at tilning leksik va lug‘aviy shakli haqida ma’lumot beradi. Misol uchun, “yozgansizlar” so‘zining qo‘shimchasiz shakli “yoz”, “kitobdagi” so‘zining lemmasi esa “kitob” ekanligi - bularning barchasi lug‘atda o‘z aksini topadi.

Leksik analizator: Lemmalashish jarayonini avtomatlashtirish uchun leksik analizator yaratish zarur. Bu tizim, kiruvchi matndagi har bir so‘zni analiz qilib, uni lemmaga keltiradi. Masalan, "kitoblar" so‘zi "kitob" lemmaga, "yazaman" so‘zi esa "yaz-" ildiziga keltiriladi. Bunday analizator dasturlari Qoraqalpoq tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Sentiment tahlilini amalga oshirish: Lemmalashish orqali tilda ifodalangan xabar yoki fikrlarni o‘rganish imkoniyati oshadi. Masalan, “tezroq” va “tezlik” so‘zlarining lemmalashidan keyin, bir xil semantik ma’no (tezlik) o‘rganilishi mumkin. Bu esa sentiment tahlili kabi sohalarda foydali bo‘ladi.

Tegishli korpuslar yaratish: Qoraqalpoq tilini lemmalash uchun maxsus til korpuslari kerak bo‘ladi. Bunday korpuslar tilning tabiiy materiallarini o‘z ichiga oladi va so‘zning kontekstual o‘zgarishlarini tahlil qilishda yordam beradi. Korpusdagi so‘zlar, iboralar va ularning grammatika qoidalari lemmalashish jarayonini to‘g‘ri amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, lingvistik muammolarni hal qilishda, tarjima dasturlari ishlab chiqishda lingvistik manbaning o‘rni katta. Ushbu maqolada aynan qoraqalpoq tili uchun lingvistik manba yaratishning nazariy va amaliy ma’lumotlari berib o‘tildi. Qoraqalpoq tili uchun lemmalash algoritmini yaratish, turkiy tillarning morfologiyasini va lingvistik xususiyatlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Tabiiy tilni qayta ishlashning samaradorligini oshirish uchun qoraqalpoq tiliga oid to‘liq va to‘g‘ri lingvistik manbalar yaratish zarur. Shuningdek, kompyuter lingvistik yondoshuvlar, masalan, mashina o‘rganish va statistik metodlar yordamida, lemmatizatsiya jarayonini yanada takomillashtirish mumkin.

Bu tadqiqot, qoraqalpoq tilining tabiiy tilni qayta ishlash sohasida muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Lemmalash algoritmining samaradorligi, tilning tabiiy shakllaridan foydalanishda va avtomatik tarjimada katta yordam beradi. Kelajakda ushbu manbani mukammallashtirib, uni turli xil janrdagi matnlarni atroflicha tahlil qilish uchun asosiy manbaga aylantirmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baskakov N. A. Karakalpakskiy yaznk, t. 1 – 2, M. – L., 19 5 1-52;
2. Berdimuratov Ye., Hazirgi zaman qaraqalpoq tilinip lsksikologiyasm, Nokis, 1968;
3. Baskakov N. A., Vvedeniye v izucheniye tyurskix yazmkov, 2-izd., M.. 1969;
4. Berdimuratov Ye. Umarov A. Bekimbetov P., Karakalpakskiy yazj (fonetika, morfologiya, sintaksis), Nukis. 1983.
5. Birgit N. Schlyter. Language Policies in Present-Day Central Asia(ingl.)// International Journal on Multicultural Societies. -UNESCO, 2001. -Iss. Vol. 3, No. 2. -P. 130. -ISSN 1817-4574. Архивировано 10 aprel 2018 года.
6. Қарақалпак тилинин түсиндирме сөзлиги.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).

“O‘ZBEK BOSHLANG‘ICH SINF MAKTAB KORPUSI”DAN BAZIS SO‘ZLARNI AVTOMATIK AJRATIB OLISH

Madatov Xabibulla Axmedovich,
Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,
habi1972@mail.ru
Urganch davlat Universiteti

Xajibaeva Surayyo Maxmudjonovna
o‘qituvchi
surayyo.khajiboyeva@gmail.com
Urganch davlat Universiteti

Xujamov Elyor Jumanazarovich
UrDU talabasi

Annotatsiya – bazis so‘zlarni ajratib olish masalasi til o‘rganuvchilar, maktab o‘quvchilari, shuningdek, lingvistlar uchun ham bir qator qulayliklar yaratadi. Ushbu maqolada “O‘zbek boshlang‘ich sinf maktab korpus”idan bazis so‘zlarni ajratib olish masalasi ko‘rib chiqilgan. Bazis so‘zlar to‘plami, shunday to‘plamki, ushbu to‘plam yordamida o‘zbek tilidagi barcha so‘zlarni ifodalash mumkin bo‘lsin. Ya’ni, bazis so‘zlar o‘zbek tilining asosini tashkil etuvchi so‘z yasalishi va lingvistik tahlil jarayonlarida ishlatiladigan so‘zlardir. Odatda, bunday so‘zlarga kundalik muloqotning asosini tashkil etuvchi umumiy otlar, fe’llar, sifatlar va boshqa nutq qismlari kiradi. Bundan tashqari, bazis so‘zlar asosan ilmiy va badiiy adabiyotlarda qo‘llaniladi. Ushbu ishda yuqori chastotali so‘zlarni aniqlash va solishtirish usullari qo‘llanilgan. Biz o‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati va “O‘zbek boshlang‘ich sinf maktab korpus”i asosida yaratilgan yuqori chastotali so‘zlarni aniqlash va bazis so‘zlarni ajratib olish usulini taqdim etamiz.

Abstract – the issue of extracting basis words creates a number of conveniences for language learners, schoolchildren, as well as linguists. This article presents a set of basis words, such a set that can be used to represent all words in the Uzbek language. That is, basis words are words used in the processes of word formation and linguistic analysis that form the basis of the Uzbek language. Typically, such words include common nouns, verbs, adjectives and other parts of speech that form the basis of everyday communication. In addition, basis words are used mainly in scientific and literary literature. In this work, high-frequency method and comparison method were used. We present a method for identifying high-frequency words and extracting basis words, created on the basis of the Explanatory Dictionary of Uzbek Synonyms and Uzbek Primary School Corpus.

Аннотация – вопрос извлечения базовых слов создает ряд удобств для изучающих язык, школьников, а также лингвистов. В данной статье

представлен набор базовых слов, такой набор, с помощью которого можно выразить все слова узбекского языка. То есть базовые слова — это слова, используемые в процессах словообразования и лингвистического анализа, составляющие основу узбекского языка. Обычно к таким словам относятся нарицательные существительные, глаголы, прилагательные и другие части речи, составляющие основу повседневного общения. Кроме того, основные слова в основном используются в научной и художественной литературе. В данной работе используются методы высокочастотной идентификации и сравнения. Мы представляем метод выявления высокочастотных слов и извлечения базовых слов, созданный на основе Толкового словаря узбекских синонимов и Корпуса узбекского языка для начальной школы.

Kalit so‘zlar – *bazis so‘z, sinonimlar lug‘ati, maktab korpusi, yuqori chastotalar metodi, agglyutinativ til.*

I. KIRISH

O‘zbek tili go‘zal va juda boy til. Bugungi kunda, o‘zbek tilini axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, turli xil online izohli lug‘atlar yaratish, tarjima masalalari, umuman, olganda tabiiy tilni qayta ishlash masalalari ustida turli xil ishlar olib borilmoqda. Hissiyotlarni tahlil qilish, nomuhim so‘zlarni topish, matnlarni tasniflash, lemmatizatsiya masalasi, niqoblangan tilni modellashtirish (MLM) kabi jarayonlar o‘zbek tilini tahlil qilishning masalalari hisoblanadi.

“Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O‘zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari ham o‘zbek tilini o‘rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e’tiborlidir”, – deya ta’kidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Ta’kidlanishicha, bugungi kunda jahon miqyosida 50 millionga yaqin kishi o‘zbek tilida so‘zlashadi. Ko‘plab mamlakatlarda bu go‘zal va jozibali til katta ishtiyoq bilan o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konseptsiyasida xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ta’kidlangan. Shunga asoslanib, o‘zbek tilini o‘rganuvchi mustaqil o‘rganuvchilar uchun yengillik yaratish bizning asosiy maqsadlarimizdan biridir.

O‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun tilni darajalarga bo‘lish asosida o‘rganish g‘oyasini ilgari sursak, har bitta darajada o‘rganuvchi bilishi zarur bo‘lgan so‘zlar lug‘ati mavjud bo‘lishi zarur. Ya’ni, o‘rganuvchi birinchi darajadagi aytaylik sodda so‘zlarni yod olsa va o‘rgansa, keyin o‘ziga mos va qiziqarli adabiyotni tanlay va o‘qiy oladi, shu asosida matn tuzadi, nutqida bayon qiladi, eshitsa anglaydi va javob qaytaradi. Masalan, 2-sinf o‘quvchisi uchun “kitob” so‘ziga izoh berish zarur bo‘lsa, unga “varaqlardan iborat o‘quv vositasi; darslik, ertak kabi turlari mavjud” deb

ta’riflanadi. Undan katta sinflarda esa “ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar” deya ta’rif beriladi. Shunday qilib, bosqichma-bosqich yangi va xilma-xil so‘zlar bilan uning lug‘at boyligi oshib boradi. Ammo, birdaninga o‘z darajasiga mos bo‘lmagan so‘zlarni yod oldirish yoki ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga harakat qilinsa, o‘rganuvchi ushbu tilni o‘rganishdan zerikadi, so‘zlardan foydanish ham qiyin kechadi. Natijada, tilni yaxshi o‘rgana olmaslik holati kelib chiqadi. Maktab o‘quvchilarida esa, adabiyotga nisbatan qiziqish pasayadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘zbek tilida bazis so‘zlarni topishning ahamiyatli tomoni shundaki, o‘zbek tili darajalari asosida tayyorgan lug‘at bazis so‘zlarga asoslangan holda bo‘lishi zarur. Ya’ni, ushbu lug‘atni yaratishni bazis so‘zlarni kiritishdan boshlash kerak.

Yana bitta ahamiyatli tarafi shundaki, bazis so‘zlar WordNet asoslarini qurish uchun zarur bo‘ladi. WordNet so‘zlarni semantik munosabatlarga, shu jumladan sinonimlar, giponimlar va meronimlar bilan bog‘laydigan so‘zlar orasidagi semantik munosabatlarning leksik ma’lumotlar ombori. Ya’ni, har bitta sinonimlar, giponimlar va meronimlar asosini bazis so‘zlar tashkil qiladi.

II. BOG‘LIQ ISHLAR

Ushbu maqola [1] ta’lim sifatini oshirish uchun muhim bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatiga moslashtirilgan ta’lim korpusini yaratishni o‘rganadi. Darsliklarning o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlari bilan mos kelmasligi tushunishni qiyinlashtiradi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi. Talabalarning intellektual salohiyatini baholash uchun korpusdan foydalangan holda, tegishli o‘quv materiallarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, faollikni oshirish mumkin. Tadqiqotda ushbu muammoni samarali hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 35 ta o‘zbek tilidagi darsliklardan ishlab chiqilgan korpusga e’tibor qaratilgan. Nomuhim so‘zlarni filtrlash matn so‘rovlarini qayta ishlashda hal qiluvchi protsedura bo‘lib, ular keng ma’lumotlar to‘plamlari ichida ma’lumotlarni qidirish uchun ishlatiladi. Bu jarayon semantik ma’noni yo‘qotmasdan qidiruv maydonini qisqartirish imkonini beradi. Faqat grammatik rolga ega bo‘lgan va so‘rovning axborot mazmuniga hissa qo‘shmaydigan nomuhim so‘zlar, shunga qaramay, so‘rovning umumiy murakkabligiga hissa qo‘shadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ishlatiladigan mavjud matematik modellar tabiiy tillarning barcha toifalariga taalluqli emas[2]. Tabiiy tilni qayta ishlashda ma’lumotlarni yig‘ish va matnni tahlil qilish jarayonida nomuhim so‘zlarini bilish kerak. Bu usul agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lgan tillarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek tili ham agglyutinativ til hisoblanadi. Bu ish[3] o‘zbek matnlaridagi nomuhim so‘zlarni yoki ko‘pchilik nomuhim so‘zlarni baholash usulini aniqlashga bag‘ishlangan. Axborot

almashuvi va axborotlar tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan bugungi davrda biz turli sohalarga oid barcha ma’lumotlarni o‘qish imkoniyatiga ega emasmiz. Muayyan sohaga oid ma’lumotlarni o‘qish va tahlil qilish ham ko‘p vaqt talab etadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun maqolada matnni umumlashtirish taklif etiladi [4]. Unda o‘zbek tili uchun tajriba sifatida umumlashtirish topshirig‘i mavjud bo‘lib, metodologiya TF-IDF algoritmi asosida matnni abstraktlashtirishga asoslangan. O‘zbek tili bilan bog‘liq ishlar va manbalar nuqtai nazaridan shuni e’tirof etish kerakki, uning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) nuqtai nazaridan kam resursli til maqomiga ega bo‘lishiga qaramay, so‘nggi paytlarda ilmiy-tadqiqot ishlari jadal sur’atlarda bormoqda. Bu tilning NLP qamroviga ko‘plab yangi qo‘shimchalar, jumladan transliteratsiya vositalari[5], hissiyotlarni tahlil qilish vositalari[6] va o‘zbekcha matnni umumlashtirish algoritmi[7] qo‘shilishi natijasida paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston aholisi orasida 2 millionga yaqin kishi resurslari kam bo‘lgan qoraqalpoq tilida so‘zlashadi, bu esa nomuhim so‘zlarini ajratib olishda turli qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Ushbu muammo ushbu maqolada tasvirlangan ma’lumotlar to‘plami tomonidan hal qilinadi[8]. Shunga qaramay, u o‘zbekcha nomuhim so‘zlari ro‘yxati yordamida sinovdan o‘tkazildi. Mahalliy olimlar o‘zbek tilidagi matnlarning til korpusini yaratish borasida ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Ushbu maqolada [9] biz o‘zbek tilining sintaktik va morfologik tegli korpusini yaratish uchun “Nutqning bir qismi” (POS) va sintaktik teglar to‘plamini ishlab chiqish orqali bu bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qildik [10]. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasidan samarali foydalanish kam resursli tilda so‘zlashuvchi aholi uchun juda muhimdir. Aytish joizki, o‘zbek tili uchun Aspect-Based Sentiment Analysis (ABSA) vositalarini yaratish uchun ommaga ochiq, yaxshi o‘rnatilgan lingvistik manbalar mavjud emas. Ushbu ishda yuqorida aytib o‘tilgan bo‘shliqni yopish maqsadida UzABSA, birinchi yuqori sifatli izohli ABSA ma’lumotlar to‘plami taqdim etilgan. O‘zbek tili aglyutinativ til bo‘lganligi uchun qo‘shimchalar soni ko‘p bo‘lib, qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan so‘zlar yasaladi. Shu sababli biz so‘zning o‘zagini topishda bir qancha muammolarga duch kelamiz. Ushbu maqolada[11] o‘zbek tilidagi oddiy so‘z shakllarining hech qanday ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga olmasdan, affikslarni ajratish usuli bilan o‘zbekcha so‘zlarga o‘zak yasash metodologiyasi taklif qilingan.

III. NAZARIY QISM

Ushbu bo‘limda o‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati va O‘zbek boshlang‘ich sinf maktab korpusi(O‘BSMK) yordamida bazis so‘zlarni ajratib olish hamda uning bosqichma-bosqich metodologiyasi haqida ma’lumot berilgan.

A. Ma’lumotlarni tavsiflash va to‘plash

Juda ko‘plab xorijiy tillarda, jumladan, ingliz tilida ham tilni bilish darajasi orqali til o‘rganuvchilar ma’lum bir toifalarga bo‘linadi. Ularning har bir toifasiga qarab so‘zlar bazasi majud bo‘lib, ular yordamida o‘z fikrini, yozishda matn mazmunini to‘liq ifoda qila oladi. Masalan, ingliz tilida ushbu darajalar A1, A2, B1, B2, C1, C2 yoki beginner, pre-intermediate, intermediate, upper-intermediate, advanced, mastery kabilar ko‘rinishida ifodalanadi. O‘zbek tilida tilni bilish darajalari uchun so‘zlar bazasini shakllantirish masalasini ko‘rib chiqdik. Ushbu jarayonni 1-,2-,3-,4- sinf o‘quvchilari uchun mos holatga keltirdik. Ya’ni, birinchi sinf o‘quvchisi nechta so‘z(token)ni bilishi zarur degan savolga javob berdik.

Buning uchun, bizga avvalo asosiy elementlardan biri bo‘lgan maktab korpusi zarur bo‘ldi. Ushbu jarayon ustida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 35 ta boshlang‘ich sinf darsliklari qo‘l mehnati asosida tokenlarga ajratildi, turli xil belgilar olib tashlandi va so‘zlar unikal holatga keltirildi. Keyin ularning chastotalari aniqlangan holatda korpusga joylandi.

Yana bitta asosiy elementlardan biri bu sinonimlar lug‘atidir. Biz buning uchun Azim Hojayevning “O‘zbek tili sinonimlar lug‘ati” kitobini oldik, unda sinonimlar bizga kerakli holatda berilgan. Ya’ni, ular sinonimlar guruhlarga ajratilgan shaklda berilgan. Ushbu kitobni pdf formatdan txt formatga o‘tkazdik. Ushbu fayl ustida tozalash ishlari bajarildi, so‘zlar unikal holatga keltirildi.

B. Metod algoritmi

Ushbu ishda biz bazis so‘zlar jadvalini tuzish modelini taklif qildik, u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: (1) O‘BSMK, Sinonimlar lug‘ati olish; (2) Ma’lumotlarni tayyorlash; (3) Yuqori chastotali usul yordamida yuqori chastotali so‘zlarni topish va solishtirish usuli yordamida korpus uchun so‘zlar guruhini ajratish; (4) Bazis so‘zlar sifatida maksimal chastotali so‘z yoki so‘zlar tanlanadi



Shakl 1. Taklif etilayotgan modelning umumiy ko‘rinishi

C. Ma’lumotlarni tayyorlash.

Har bir sinf uchun bazis so‘zlarning alohida lug‘atini yaratish masalasini ko‘rib chiqildi. O‘zbek tilida O‘BSMK uchun 1,2,3 va 4-sinflar uchun tokenlar

to‘plamini yaratildi. Ushbu korpusda so‘zlar chastotalari bilan keltirildi. Sinonimlar lug‘atida sinonimlar guruhlarga bo‘linadi. Masalan, chiroyli, go‘zal, sohibjamol so‘zlari bir guruhga mansub so‘zlardir. Bir guruhdan so‘z olinib, uni O‘BSMK bilan taqqoslandi. Ushbu lug‘atda a - so‘z bilan boshlangan barcha so‘zlarning chastotalari qo‘shilgan so‘zning chastotasi. Shu tarzda sinonimlar lug‘atidan bir guruhga mansub so‘zlar ichidan eng katta chastotali so‘z olinadi va yangi lug‘at tuziladi. Agar bir nechta maksimal va teng chastotali so‘zlar bir guruhga kirsa, ularning barchasi yangi lug‘atga kiritilgan. Yuqoridagi amallar yordamida bazis so‘zlarni alohida ro‘yxatlar(1-sinf, 2-sinf, 3-sinf, 4-sinf)ga yozib qo‘yamiz.

Olingan natijalar 1-sinf, 2-sinf, 3-sinf va 4 sinflar kesimida [https://zenodo.org/records/13340539] sillkasiga yuklangan.

IV. OLINGAN NATIJALAR

BAZIS SO‘ZLAR SONI

Boshlang‘ich maktab uchun sinflar kesimida bazis so‘zlar soni			
1-sinf	***2-sinf***	***3-sinf***	***4-sinf***
2336	2462	4186	5112

I jadval sinflar kesimida darsliklarda qo‘llanilgan bazis so‘zlarning umumiy sonini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, 1 sinf maktab o‘quvchisi 2336 ta bazis so‘zlarni bilish orqali gapira oladi, eshitib tushuna oladi, insho yoza oladi va o‘qish ko‘nikmasi shakllanadi. O‘quvchi bu bazis so‘zlarni o‘rganib boshqa so‘zlarni ham ifodalay oladi. Bu 2336 ta bazis so‘zlar O‘BSMKsidagi 1 sinflar uchun 3177 ta lemmalarning ichidan yuqori chastotali so‘zlarni aniqlash orqali kelib chiqqan. 2 sinf uchun 5119 ta lemmalarning ichidan 2462 ta bazis so‘z, 6710 lemmalarning ichidan 4186 ta bazis so‘z, 8029 ta lemmalarning ichidan 5112 ta bazis so‘z mos ravishda ajratib olingan.

V. XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir sinf maktab o‘quvchilari va o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun bazis so‘zlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Biz bazis so‘zlarni boshlang‘ich sinf maktab darsliklaridagi lemmalar va o‘zbek tili sinonimlar lug‘atidan foydalangan holda yuqori chastotali so‘zlarni topish metodi va solishtirish metodini qo‘llab keltirib chiqardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. A. Madatov, S. Sattarova, Creation of a Corpus for Determining the Intellectual Potential of Primary School Students, *2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)*, Altai, Russian Federation, 2024, pp. 2420-2423

2. Madatov, K.; Bekchanov, S.; Vičič, J. Automatic Detection of Stop Words for Texts in the Uzbek Language. Preprints 2022, 2022040234.

3. Madatov, K., Bekchanov, S., & Vičič, J. (2022). Accuracy of the Uzbek Stop Words Detection: a Case Study on “School Corpus” CEUR Workshop Proceedings, 3315, 107–115.

4. K. A. Madatov and S. K. Bekchanov, "The Algorithm of Uzbek Text Summarizer," 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), Altai, Russian Federation, 2024, pp. 2430-2433, doi: 10.1109/EDM61683.2024.10615191.

5. U. Salaev, E. Kuriyozov, and C. Gómez-Rodríguez, “A Machine Transliteration Tool Between Uzbek Alphabets,” *CEUR Workshop Proceedings*, vol. 3315, pp. 42–50, 2022.

6. S. Matlatipov, H. Rahimboeva, J. Rajabov, and E. Kuriyozov, “Uzbek Sentiment Analysis Based on Local Restaurant Reviews,” CEUR Workshop Proceedings, vol. 3315, pp. 126–136, 2022.

7. K. A. Madatov and S. K. Bekchanov, "The Algorithm of Uzbek Text Summarizer," 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), Altai, Russian Federation, pp. 2430-2433, 2024.

8. K. Madatov, S. Bekchanov, and J. Vičič, “Dataset of Karakalpak language stop words,” *Data in Brief*, vol. 48, pp. 109111, June 2023.

9. M. Sharipov, J. Mattiev, J. Sobirov, and R. Baltayev, “Creating a Morphological and Syntactic Tagged Corpus for the Uzbek Language,” *CEUR Workshop Proceedings*, vol. 3315, pp. 93–98, June 2022.

10. S. Matlatipov, J. Rajabov, E. Kuriyozov, and M. Aripov, “UzABSA: Aspect-Based Sentiment Analysis for the Uzbek Language,” Proceedings of the 3rd Annual Meeting of the ELRA-ISCA Special Interest Group on Under-Resourced Languages (SIGUL 2024) at LREC-COLING 2024, pp. 394–403, 2024.

11. M. Sharipov and O. Yuldashov, “UzbekStemmer: Development of a Rule-Based Stemming Algorithm for Uzbek Language,” CEUR Workshop Proceedings, vol. 3315, pp. 137–144, 2022.

O‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN TURIZMGA OID MATNLARNING LINGVISTIK BAZASINI YARATISH ASOSLARI

Adizova Nilufar Istamovna,
f.f.f.d., dotsent
nilufaradizova8@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida turizmga oid matnlar va ularning lingvistik, leksik-semantik, diskursiv tadqiqiga doir korpusga asoslangan ilmiy izlanishlarga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab e’tibor kuchaydi. Sun’iy intellekt va turli tizimdagi axborot texnologiya vositalarining hayotimizdan keng o‘rin ola boshlashi bugun bu kabi ishlarning yanada muhim ahamiyat kasb eta boshlaganini ko‘rsatdi. Zotan, turizm dunyo hamjamiyatida mamlakatlar iqtisodiyoti, milliy madaniyati, tarixi hamda ijtimoiy hayotining ajralmas qismi, insoniyat faoliyatining barcha yo‘nalishlariga bevosita daxldor, eng tez rivojlanayotgan, daromadli sohalaridan biridir. Ushbu maqolada turizmga oid matnlar bazasini yaratish asoslari hamda ularning mazmun-mohiyatiga ko‘ra tasniflanishi haqida fikr yuritilgan bo‘lib, Buxoro viloyati misolida ayrim misollar keltirilgan.

Аннотация. Во второй половине XX века в мировой лингвистике усилилось внимание к корпусным научным исследованиям, посвящённым лингвистическому, лексико-семантическому и дискурсивному анализу текстов, связанных с туризмом. Активное внедрение искусственного интеллекта и информационных технологий в повседневную жизнь подчёркивает значимость таких исследований в наше время. Туризм стал неотъемлемой частью экономики, национальной культуры, истории и социальной жизни стран мира и представляет собой одну из самых быстроразвивающихся и прибыльных отраслей, охватывающих все сферы человеческой деятельности. В данной статье рассматриваются основы создания базы туристических текстов и их классификация по содержательно-смысловому признаку. В качестве примера приведены некоторые тексты, относящиеся к Бухарской области.

Annotation. In the second half of the 20th century, global linguistics saw an increased focus on corpus-based scientific research dedicated to linguistic, lexico-semantic, and discourse analysis of texts related to tourism. The active integration of artificial intelligence and information technologies into everyday life highlights the relevance of such research today. Tourism has become an integral part of the economy, national culture, history, and social life of countries around the world, and it represents one of the fastest-growing and most profitable industries, encompassing

all areas of human activity. This article explores the foundations for creating a database of tourism-related texts and their classification based on content and meaning. As an example, several texts related to the Bukhara region are presented.

Kalit so‘zlar: *turistik matnlar, turistik birliklar, konsept, lingvokulturologiya, madaniy obyektlar, turizm, ziyorat turizmi, sayohat, ichki turizm.*

Har qanday davlat, millat o‘zining boy o‘tmishi, farovon turmushi, mustahkam iqtisodiyoti, taraqqiy etayotgan sanoati bilan dunyo hamjamiyatida bo‘y ko‘rsatishga intiladi. Jumladan, O‘zbekiston ham zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan vatanimiz qulay tabiiy iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va, ayni paytda, ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Xalqlar o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning samarali yo‘lga qo‘yilishida insoniyat faoliyatining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida turizm sohasining til vositalari orqali ta’riflanishi va tasvirlanishi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olib boriladigan ishlar, o‘z navbatida, tilning leksik tarkibini boyitish va kengaytirishga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda turizm chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan hodisa, uning ilk uchqunlari dastlab, antik va undan keyingi davrlardan boshlangan. Turizm paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida uning asosiy sayohatchilari olimlar, savdogarlar, badavlat kishilar, elchilar bo‘lgan. Ular yangi-yangi yerlarni o‘zlashtirish, moddiy manfaatdorlik, to‘kin va farovon hayotni izlash bahonasida dunyoning eng rivojlangan sivilizatsiya markazlari, iqlimi, tabiati go‘zal bo‘lgan joylari, yuksak madaniyatga ega davlatlarga sayohatlarni amalga oshirganlar.

Keyingi davrlarda sport turizmi, elchilik aloqalari, xalqaro hamkorlik, savdo-sotiq, tovar ayirboshlash, joylarni o‘zlashtirish kabilar bilan bir qatorda muqaddas e’tiqodlar tufayli musulmonlarning Makka, Madina, Buxoro va boshqa shaharlarga, xristianlarning Quddus, Misr, Rim va Arab mamlakatlariga ziyoratlari asosida diniy turizmning ham shakllanganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ilk uyg‘onish (Renessans) davrida ta’limiy, ma’rifatga asoslangan sayohatlar ham olib borilgan.

Xo‘sh, “turizm” o‘zi nima? “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da “turizm”ga “*tourisme~tour* (fr.) – *aylanish, sayr, sayohat qilish, dunyoni ko‘rish, bilish, o‘rganish, dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat, sayyohlik – sayohat qilish faol dam olish turlaridan biri sifatida inson faoliyatining turli sohalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki qarama-qarshi – milliy va xalqaro munosabatlar ta’sirida rivojlanadigan jarayon”, deb berilgan [10]*.

BMTning Turizm tashkiloti ta’rifida esa quyidagicha aks etgan: turizm ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa bo‘lib, bu odamlar o‘zlarining odatdagi muhitidan tashqaridagi mamlakatlar yoki joylarga shaxsiy yoki ish/kasbiy maqsadlar uchun safar qilishi. Shuning uchun, u mehmonlarning faoliyati bilan ham bevosita bog‘liq [3].

Umuman olganda, turizm sohasi inson faoliyatining turli jabhalari bilan o‘zaro bog‘liq holda milliy va xalqaro jarayonlarning ta’sirida vujudga keladi hamda ushbu soha doirasida qo‘llanadigan o‘ziga xos milliy leksik birliklar tizimi shakllanadi.

L.M.Goncharova fikricha, “turizm” tushunchasi muayyan til sohiblari ongida mavjud bo‘lgan “sayohat” lingvomadaniy konsepti bilan uzviy bog‘liq holda predmetlarga emas, balki muayyan voqealarga oid murakkab mental xususiyatli konseptdir. Kontsept – bu har qanday madaniyat uchun muhim va qadrli bo‘lgan, u yoki bu obyekt haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olgan va tilda uni nomlovchi va tasvirlovchi leksik birliklar to‘plamiga asoslangan milliy xususiyatga ega bo‘lgan mental ta’limotdir [4]. U muayyan bir millatning madaniy xotirasiga asoslangan bo‘lib, keng semantik maydonga ega bo‘lgan ijod mahsullari(fenomen) dir.

Har qanday millatning o‘ziga xos madaniy merosi, qadriyat va an’analari, urf-odatlari, xulq-atvor normalari hamda milliy xususiyatlari uning tili orqali aks etadi. Shuning uchun ham til va madaniyatni bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Til nafaqat millatning milliy-madaniy qiyofasini aks ettiruvchi, ifodalovchi, balki ularni asrash va rivojlantirishga xizmat qilish asosida boshqalarga yetkazuvchi muhim vosita hamdir.

Dunyo tilshunosligida turizm sohasi bo‘yicha lingvistik tadqiqotlar uning ekstralingvistik va lingvistik omillarining o‘zaro ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tahlillar lingvokulturologik, antropotsentrik, pragmatik va kognitiv-diskursiv yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Lingvistik jihatdan leksik xususiyatlari esa, asosan, *terminologik, leksikografik va diskursiv* tomondan tahlil qilingan [8]. Biroq o‘zbek tilida turizmga oid matnlar hali korpus asosida tizimli ravishda o‘rganilmaganligi hamda turizm doirasida qo‘llanuvchi milliy-madaniy birliklar tadqiqiga ehtiyoj borligiga e’tibor qaratsak, ushbu sohaga oid matnlar hamda leksik birliklarning lingvistik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida o‘ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy jihatlarini ochib berish fan oldiga muhim vazifalarni belgilab beradi.

Zamonaviy korpuslar – bu ma’lum bir tilda, elektron shaklda jamlangan matnlar to‘plamiga asoslangan axborot-ma’lumot tizimi [7] bo‘lib, bugungi kunda o‘zbek tili korpusi ham tilning lug‘at va grammatik sathi kabi uning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Jumladan, turizm sohasiga doir matnlar korpusini yaratish va bu kabi matnlarda aks etgan milliy-madaniy birliklarni leksik-semantik

jihatdan tahlil qilish hamda tasniflashga korpus lingvistikasi sohasining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qarash mumkin.

Bugungi kunda sayohatga chiquvchi kishilarning soni kun sayin ortib bormoqda. Dunyo bo‘ylab sayohat qiluvchi kishilar o‘sha mamlakatning tarixi, madaniyati, muzeylari, milliy kiyimlari, diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishish, mahalliy aholi bilan muloqot qilish, milliy taomlaridan tatib ko‘rish kabilarni maqsad qiladi. Mahalliy sayohatchilar esa mamlakatning so‘lim go‘shalariga dam olish, zavq olish, milliy taomlardan tanovul qilish maqsadida sayohatlar uyushtirishadi.

Sayohatchilar uchun muayyan obyektlar, tarixiy voqealar, mintaqalar, madaniy xususiyatlar, boy o‘tmishga ega bo‘lgan tarixiy shaharlar, tarixiy shaxslar, milliy kalorit to‘g‘risida keng ma’lumotlarni taqdim etish, ular bilan yaqindan tanishtirish maqsadida turizmga oid matnlarni korpus asosida jamlash sayyohlar tashrifini yanada kengaytiradi hamda mamlakat iqtisodiyoti, moddiy bazasining o‘sishi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda sayohat qo‘llanmalari, yo‘riqnomalar, reklama matnlari, katalog va broshyuralar va boshqa shu kabi vositalar turli madaniyat vakillari o'rtasida bog‘lanish o‘rnatuvchi muhim axborot manbayi sifatida aniq maqsad bilan harakat qilish, tashrif buyuriladigan joylar to‘g‘risida aniq tasavvur uyg‘otish, o‘zini erkin va ishonchli his qilish, shu bilan bir qatorda, madaniyat va tilga oid xususiyatlarni ham tarqatish imkonini yaratadi.

Biz biror shaxs, narsa yoki voqea-hodisa haqida ma’lumot berar ekanmiz, avvalo, fikrimizni muayyan matnlar asosida tinglovchiga aniq va ta’sirchan yetkazishga harakat qilamiz. Buning uchun maqsadimizga mos birliklardan foydalanamiz. Shunga ko‘ra, turizmga oid matnlarda, asosan, sayohatbop joylar, turli me’moriy obidalar, inshootlar, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, milliy-madaniy o‘ziga xosliklar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bular esa bevosita tilda mavjud bo‘lgan o‘ziga xos so‘z va ifoda birliklari orqali aks etadi.

E.Y.Novikova fikricha, sayyohlik matnlari, bir tomondan, turistlarni ma’lum bir mintaqaga jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, reklama qilish va ko‘ngilocharlik xususiyatlarini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, ularga madaniy jihatdan muhim obyektlar, hodisalar, joylar va shaxslar haqida muhim ma’lumotlarni yetkazish, axborot uzatish kabi vazifalarni bajaradi [6].

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda ”turistik matnlar” tushunchasini *“muayyan tarixiy joylar, osori-atiqalar, ko‘hna obidalar, ziyoratgohlar, diqqatga sazovor joylar, tarixiy shaxslar, ular yashagan manzil-makonlar, milliy buyumlar, milliy taomlar va boshqa milliy xususiyatlar haqida ma’lumot aks etgan, sayohatchilar diqqatini jalb qilish uchun ularning ta’rif-u tasvirlari keltirilgan matnlar yig‘indisi”*, deb xulosalash mumkin.

Buxoro azaldan madaniyat markazi, ilm-ma’rifat o‘chog‘i, ko‘hna va mo‘jizaviy bir maskan sifatida dunyo ahlining diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham shunday ta’kidlagan edilar: *Buxoroning ko‘hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma’no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, beqiyos an’analari asrlar osha yashab kelmoqda... 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi YUNESKOning Butun jahon merosi shaharlari ro‘yxatiga kiritilgani uning tarixiy jihatdan bebaholigi, butun ma’rifatli dunyo uchun madaniy va sivilizatsion ahamiyatining to‘g‘ridan-to‘g‘ri isboti bo‘ldi...[1]*

Shunga ko‘ra, qadim Buxoroning turizm salohiyatidan kelib chiqqan holda u yerda saqlangan va bugungi kungacha ko‘plab tashrif buyuruvchilarning hayratiga sazovor bo‘lib kelayotgan madaniy meros, osori-atiqalar, tarixiy shaxslar, milliy taomlar va boshqa milliy kolorit asosida aks etuvchi matnlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Ushbu matnlar chet ellik hamda mahalliy sayohatchilar uchun yo‘riqnoma, qo‘llanma, ko‘rsatma, tavsiya, targ‘ibot kabi vazifalarni bajaradi:

1) obidalarga oid matnlar;
2) kiyim-kechakka oid matnlar;
3) tarixiy shaxslarga oid matnlar;
4) ziyoratgohlarga oid matnlar;
5) inshootlarga oid matnlar;
6) voqelikka oid matnlar;
7) taomlarga oid matnlar;
8) narsa-buyumlarga oid matnlar;
9) geografik hududlarga oid matnlar;
10) bog‘larga oid matnlar;
11) dam olish maskanlariga oid matnlar;
12) muqaddas qadamjolarga oid matnlar.

Masalan, quyidagi matnda Buxoro geografik hudud sifatida ta’rif etiladi: *Sharq durdonasi sanalmish **Buxoroyi sharif** nafaqat qadimiy obidalari, me’moriy yodgorliklari bilan, balki ilm-fan, madaniyat va ma’rifat tarixi bilan ham mashhurdir. Buxoro **“Qubbat-ul islom”** deb ta’riflangan, payg‘ambarimiz tomonidan **“Fohira”** (ko‘rkam, serhasham-O‘TIL, 363) deb nom olgan va “Yo Ollohim! Buxoroni qiyomatgacha o‘z panohingda asra! Buxoroliklar qalbini taqvo bilan pok etgin, muloyim qil! Ikki dunyoda saodatmand ayla!”, deb* duo olgan *yurtdir. Payg‘ambarimizning bu ezgu tilaklari ijobat bo‘lib, Buxoro islomiy ma’rifat nurlari bilan sayqal topdi, yetti saharif shaharlar qatoridan o‘rin oldi. Shu bilan birga, dunyo musulmonlari ziyorat qilishni orzu qiladigan yetti ulug‘ pirlarga makon bo‘ldi.*

Buxoroning dunyoga mashhur muqaddas qadamjolari bo‘lmish “Yetti pir ziyoratgohlari” haqida ham bilishni xohlovchilar, ushbu manzil-makonlarni tavof qilishni orzu qiladigan kishilar juda ko‘p bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlar yozilgan tarqatma va qo‘llanmalar muhim ahamiyatga ega:

Buxoro shahri Sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoroning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma’naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Yetti pir *– Buxoro viloyatining turli tumanlarida joylashgan, muqaddas ziyoratgohlar majmuasi, naqshbandiya tariqatining ketma-ket yetti halqasi. Bu halqa Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniydan boshlanib, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Xoja Sayyid Amir Kulol orqali Xoja Bahouddin Naqshband bilan tugaydi. Buxoroga ziyoratga kelganlarning ko‘pchiligi o‘z safarlarini Naqshbandiya ta’limotiga asos solgan ma’naviy ustoz Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar...*

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy *(1103-1179) payg‘ambarning o‘ninchi avlodi bilan ma’nan bog‘liq. U kishi G‘ijduvonda tug‘ilgan. Xojagon tariqati asoschisi. O‘z qarashlari va ta’limoti bilan islom dini ma’rifati va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan mutasavvuf. O‘zlarining hikmatnamo qoidalarida insonning o‘zligini anglashi, Vatanga muhabbati aks etgan hamda Ollohga yaqin bo‘lgan holda foydali mehnat qilish, oila qurish, farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanish, jamiyatga naf keltirish, hunar o‘rganishg chorlaganlar. Xo‘ja Abdulxoliq G‘ijduvoniy davrida maqbara chillaxona vazifasini o‘tagan bo‘lib, u yerda qirq kunlik jazirama issiq davrda odamlar ibodat qilish uchun kelgan. Vaqt o‘tishi bilan muqaddas ibodat joyi ardoqli ziyoratgohga aylandi. Maqbara bugungi namunaviy shaklga ega bo‘lishi uchun bir necha zamonadan omon o‘tib kelishi kerak bo‘ldi. Hozirda Abduxoliq G‘ijduvoniy maqbarasi qadimgi Sharqning bir qismi, yer va osmon orasidagi rishta hisoblanadi.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda butun dunyo xalqlari orzu qiladigan darajada katta moddiy va ma’naviy imkoniyatlar mavjud. Ulardan bahramand bo‘lgan holda barcha moddiy va ma’naviy resurslarimizdan xalq farovonligi yo‘lida to‘g‘ri foydalanish, ularni targ‘ib qilish hamda kelgusi avlodlar uchun ham asrab-avaylashga e’tibor qaratish lozim. Zotan, madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Ba’zi millatlarda odatiy me’yor, madaniy xususiyatni ifodalovchi etalonlar boshqasi uchun oddiy muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Matnlarda o‘z ifodasini topgan milliy-madaniy birliklar har bir xalqning milliy qarashlari asosida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va ular mazkur til sohiblarining milliy-madaniy boyligi deb qaraladi. Shuning uchun ham sayohat

qiluvchi insonning tasavvurida muayyan millatning madaniy-tarixiy xotiralari bilan bog‘liq voqealar jonlanadi va o‘sha mentalitetga oid stereotipik so‘z va ifodalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2980-son Farmoni\2017-yil, 19-may.
2. Elena Manca, Francesca Bianchi. Tourism and tourist promotion around the world: a linguistic and socio-cultural perspective. Salento-2013.
3. Goncharova Л.М. Концепт «путешествие» и его межкультурная представ ленность в рекламной коммуникации сферы туризма. НИР. Современная коммуникативистика (№ 1, 2012). Москва.
4. Istamovna, Adizova Nilufar. “Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)” / Conferences. 2021.
5. Новикова Э. Ю. Жанровые, ценностные и транслатологические характеристики международного туристического дискурса в немецкой и русской лингвокультурах. Автореф. дисс. канд. филол. наука. - Уфа – 2019. - С.13
6. Qarshiyev Abduvali Berkinovich , Tursunov Muhammadsolih Sa’din o‘g‘li. O‘zbek tili milliy korpusini loyihalash. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 1 №. 01. 2022. B.94
7. Тайави Я. М. Лингвокультурные реалии во французских туристических путеводителях. Дисс. канд. филол. наук. Воронеж, 2017. -С. 25.
Agglyutinativ tillarda belgilash muammosi. Ta’kidlash joizki, turkiy agglyutinativ tillarda (so‘zga ko‘plab qo‘shimchalar ketma-ket qo‘shiluvchi tillarda) korpus uchun morfologik analiz va so‘zni asos (lemma)ga keltirish masalasi murakkabroq bo‘ladi. O‘zbek tilini ham qamrab oluvchi tadqiqotlarda aynan POS-teglash va stemming (so‘zdan qo‘shimchalarni ajratib, negiz shaklini topish) muammolari dolzarb ekani qayd etilgan. Jumladan, B. Elov, Sh. Hamroyeva va boshqalar o‘zlarining ilmiy ishlarida agglyutinativ tillarda so‘zning grammatik kategoriyasini avtomatik aniqlash qiyinligi, ba’zan qo‘shimchalar tufayli ko‘p ma’noli holatlar paydo bo‘lishi va ularni bartaraf etish uchun maxsus algoritmlar zarurligini ta’kidlaydilar [4]. Shu bois, zamonaviy o‘zbek korpuslarini yaratishda **morfologik analizatorlar** va **lemmatizatorlar** ishlab chiqish alohida e’tibor talab qilmoqda. Masalan, o‘zbek tili uchun yaratilgan **https://uznatcorpara.uz/** kabi onlayn morfologik analizatorlar korpusdagi so‘zlarni tahlil qilishga xizmat qilmoqda.

Texnik arxitektura va platforma tizimi

Arxitektura ahamiyati. Korpusning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uning ichki texnik arxitekturasi juda muhimdir. Faqatgina matn hajmini oshirish bilan cheklanib bo‘lmaydi – *agar korpus arxitekturasi zaif bo‘lsa* yoki u *lingvistik jihatdan teglanmagan* bo‘lsa, foydasi cheklangan bo‘lib qoladi. Mark Deyvis

(COCA korpusi asoschisi) ta’kidlaganidek, korpus hajmi **“qancha katta bo‘lsa shuncha yaxshi”** degan qoidaga faqat to‘g‘ri arxitektura va to‘liq annotatsiya bilan erishish mumkin; aks holda 100 million so‘zli yaxshi belgilangan korpus 1 milliard so‘zli ammo belgilanishi sust korpusdan afzalroq natija berishi mumkin [5]. **Optimal arxitektura** matnlarni samarali indekslash, tezkor qidiruv va katta hajmda ham barqaror ishlashni ta’minlaydi.

Ma’lumotlar bazasi tuzilishi. Korpus ichki tizimi ko‘pincha maxsus ma’lumotlar bazasi yoki indekslash usullariga tayangan holda quriladi. Korpusdagi har bir so‘z alohida yozuv (record) sifatida saqlanishi, unga lemma va teglar bog‘lanishi mumkin. Zamonaviy yirik korpuslarda tezkor qidiruv uchun ko‘pincha **relatsion ma’lumotlar bazasi arxitekturasi qo‘llaniladi** (masalan, COCA va boshqa English-Corpora.org korpuslari shu usulda). Bunda har bir so‘z maxsus sonli identifikator (ID) bilan bazaga kiritiladi, so‘zlarning matndagi ketma-ketligi indekslar orqali saqlanadi. Masalan, COCA korpusida so‘zlar raqamlar ko‘rinishida *“corpus”* jadvalida saqlanib, alohida *“lexicon”* jadvalida IDga mos so‘zning o‘zi, lemmasi va POS-tegi saqlanadi; shu tariqa massiv matnlarda ham ma’lumotga murojaat juda tez bajariladi [6]. Bunday arxitektura yordamida foydalanuvchi milliardlab so‘zli korpuslarda ham bir necha soniya ichida murakkab so‘rovlarni bajarishi mumkin – masalan, berilgan so‘zdan oldin keluvchi eng ko‘p 100 sifatni butun korpus bo‘ylab sanash kabi og‘ir so‘rovlar 1-2 soniyada natija beradi. Shuningdek, **klasterlangan indekslar** va **ma’lumotlarni ixtiyoriy kontekst bo‘yicha saqlash** kabi usullar qidiruvni optimallashtiradi. Korpus arxitekturasi to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, hatto maxsus korpus dasturlari (masalan, Sketch Engine)dan ham tezroq natija olish mumkinligi tajribada ko‘rsatilgan.

Korpus platformalari. Bugungi kunda korpus tuzish uchun tayyor dasturiy platformalar va tizimlar mavjud. Masalan, jahon tajribasida **Sketch Engine, CQPweb** kabi platformalar ko‘plab korpuslar uchun universal yechim sifatida qo‘llanadi – ularda **matnlarni kiritish, avtomatik teglash** va **qidiruv interfeysi** birgalikda ta’minlanadi. Ayrim milliy korpuslar esa o‘ziga mos maxsus platformada yaratilgan: masalan, RNC uchun Maxsus qidiruv dasturi (Yandex bilan hamkorlikda) ishlab chiqilgan bo‘lib, u korpusning morfologik va sintaktik qidiruvlarini ta’minlaydi [4]. O‘zbek tilining milliy korpusi (https://uzschoolcorpara.uz/) ham maxsus veb-platforma sifatida ishga tushirilgan: unda matn bazasi serverda SQLServer ma’lumotlar bazasida saqlanadi, foydalanuvchi so‘rovlari Python yordamida qayta ishlanib, natijalar sahifada ko‘rsatiladi (loyiha tafsilotlarida shu keltirilgan). Korpus platformasining muhim qismi – bu lingvistik ishlov berish modullaridir: masalan, so‘zlarni avtomatik teglash uchun morfologik analizator yoki maxsus modellar ulanadi. RNC misolida Mystem va Dialing morfologik dasturlari integratsiya qilingan bo‘lib, ular matnlardagi so‘zlarning formasini aniqlashda ishlatiladi. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash

tarzda tayyor dasturiy modullar (https://uznatcorpara.uz/) korpusga ulanmoqda. Umuman, texnik arxitektura jozibadorligi shundaki, yaxshi optimizatsiya qilingan tizim katta hajmdagi korpuslarda ham foydalanuvchiga bir zumda javob qaytara oladi va yangi matnlarni qo‘shish ham oson kechadi.

Foydalanuvchi interfeysi va qidiruv imkoniyatlari

Interfeys dizayni va funksional. Korpusdan samarali foydalanish uchun uning foydalanuvchi interfeysi qulay va funksional bo‘lishi lozim. Interfeys foydalanuvchiga oson tushunarli bo‘lishi, turli ehtiyojlarga mos qidiruv turlarini taklif qilishi zarur. Odatda korpusning veb-interfeysi orqali quyidagi asosiy imkoniyatlar taqdim etiladi:

1) **Oddiy qidiruv** – matndan ma’lum bir so‘z yoki iborani izlash (bu Google qidiruviga o‘xshash, lekin korpus ichida amalga oshiriladi). Foydalanuvchi qidiruv satriga so‘z kiritadi va korpusdan ushbu so‘z uchragan barcha kontekstlar olinadi.

2) **Kengaytirilgan qidiruv** – foydalanuvchi lemma bo‘yicha (ya’ni so‘zning barcha shakllarini qamrab) yoki ma’lum so‘z turkumi bo‘yicha so‘rov berishi mumkin. Masalan, faqat fe’l lemmasini qidirish, yoki *“kitob_Noun”* kabi so‘z turini ko‘rsatib izlash imkoniyati. Bunday qidiruv POS-teglar yordamida amalga oshadi. RNC interfeysida maxsus *“Лексико-грамматический поиск”* degan bo‘limda foydalanuvchi so‘z yonida grammatik xususiyatlarni belgilashi mumkin – masalan, *“OT, birlik, Qaratqich kelishigi”* kabi.

3) **Murakkab qidiruv** – bir nechta so‘zlarning o‘zaro yaqinligini yoki bir gap ichida birga kelishini qidirish. Masalan, *“A va B so‘zlari bir gapda masofasi 5 tokendan oshmaydigan holda uchrasin”* kabi murakkab shartlar qo‘yilishi mumkin. Bunday qidiruvlar **CQL (Corpus Query Language)** yoki grafik forma orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

4) **Filtrlash** – bu qidiruv natijalarini yoki qidiruvning o‘zini ma’lum metama’lumotlarga ko‘ra cheklashdir. Masalan, foydalanuvchi *faqat badiiy adabiyot janridagi matnlardan qidirmoqchi* bo‘lsa, kerakli filtrni tanlaydi. Yoki *ma’lum yillar oralig‘idagi matnlardan izlash*, yoki *muallifi ayol bo‘lgan matnlar* doirasidagina qidirish kabi. Jahon korpuslarida bunday filtrlash oddiy *“bir necha bosqichda”* amalga oshadi: masalan, COCA interfeysida foydalanuvchi **janr, yil, manba bo‘yicha saralab olish** orqali o‘ziga xos virtual kichik korpus yaratishi mumkin. Inglizcorpora saytida bir nechta belgi tanlash bilan, masalan, *“2000-yillarning jurnallari ichida dasturlash mavzusidagi matnlar”* kabi tanlangan bo‘limni bir necha soniyada shakllantirish imkoni borligi ko‘rsatilgan. O‘zbek tilining milliy korpusida ham matnlar **uslub (janr) bo‘yicha (ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, so‘zlashuv), yaratilgan vaqti bo‘yicha (sovet davri, mustaqillik davri kabi)** filtrlanishi nazarda tutilgan.

Natijalarni chiqarish shakllari. Korpus interfeysi qidiruv natijalarini foydalanuvchiga qulay tarzda namoyish qilishi ham muhimdir. Odatda **natijalar konkordans ko‘rinishida taqdim etiladi** [7]. **Konkordans** – bu kalit so‘zning atrofidagi kontekst bilan bir qatorda bir necha qatorda ko‘rsatilishidir. Masalan, foydalanuvchi “ilm” so‘zini izlasa, korpus dasturi ushbu so‘z uchragan har bir gapni alohida qator qilib, so‘zning o‘zi markazda ko‘rinadigan qilib chiqaradi. Bu usul **KWIC (Key Word in Context)** deb ham ataladi. Konkordans foydalanuvchiga qidirilgan so‘zning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini tezda ko‘zdan kechirishga yordam beradi – muhim lug‘aviy va grammatik namunaklarni aniqlash osonlashadi. Misol uchun, 1.2.1-rasmda keltirilgan konkordansda *“day by day”* iborasi har xil misollarda keltirilgan bo‘lib, har bir qator korpusning boshqa bir hujjatidan olingan (bir qator ikkinchi qator bilan bevosita bog‘liq matn emas).



1-rasm. KWIC (Key Word in Context)

Korpus interfeysi odatda bir vaqtning o‘zida **30–50 ta** konkordans qatordan natijani ko‘rsatadi, foydalanuvchi esa keyingi sahifalarga o‘tib barcha topilmalarni

ko‘rib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, har bir konkordans qator yonida matn manbasi ko‘rsatiladi (masalan, “Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil”) va u ustiga bosib to‘liq matnni ko‘rish imkoni ham bo‘lishi mumkin.

Statistik funksiyalar. Korpus foydalanuvchilari ko‘pincha individual misollar bilan cheklanmasdan, matnlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni olishga ham qiziqadilar. Shuning uchun zamonaviy korpus interfeyslari **so‘z chastotasi, kollokatsiyalar, ngramlar** kabi vositalarni ham taqdim etadi. Misol uchun, COCA korpusida foydalanuvchi istalgan so‘zni qidirganda, uning umumiy chastotasi (korpusda necha marta uchragani) hamda janrlar kesimidagi chastotasi (masalan, og‘zaki nutqda 500 marta, ilmiy matnlarda 200 marta kabi) grafigi bilan ko‘rsatiladi.



2-rasm. Korpus qidiruv tizimi

Bu bilan so‘zning qaysi uslubda ko‘proq ishlatilishi yoki vaqt o‘tishi bilan chastotadagi o‘zgarishi tahlil qilinadi. **Kollokatsiya** – tanlangan so‘zning yon-atrofida eng ko‘p uchraydigan so‘z birikmalaridir; masalan, korpus tahlili natijasida *“ilm”* so‘zi bilan eng ko‘p birga keluvchi so‘zlar *“fani”, “sohasida”, “arbobi”* kabi kollokatsiyalar ekani aniqlanishi mumkin. Korpus dasturlari buni aniqlash uchun statistik o‘lchovlardan (MI – o‘zaro axborot miqdori yoki t-skori kabi) foydalanadi va foydalanuvchiga Top-20 eng muhim kollokatsiyalar ro‘yxatini bera oladi. Masalan, COCA korpusida biror so‘z uchun Collocates bo‘limi mavjud bo‘lib, u so‘zning chap yoki o‘ng tomonida berilgan masofa ichida eng ko‘p uchragan so‘zlarni va ularning ko‘rsatkichlarini chiqaradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, maxsus **so‘rov orqali ham kollokatsiyani topish mumkin:** masalan, SQL so‘rov tili misolida “kitob” so‘zidan oldin keluvchi sifatlar topilib, ular orasidan 100 tasi saralanishi misoli keltirilgan edi – amalda foydalanuvchi buni oddiy interfeys orqali bir necha belgi tanlab bajaradi, tizim esa ortda bunday kodni ishlatadi.

N-grammalar esa korpusdagi so‘zlarning eng ko‘p uchraydigan ketma-ketliklaridir (N so‘zdan iborat frazalar). Korpusdan, masalan, eng ko‘p qo‘llanilgan **ikki so‘zli birikmalar (bigram)** yoki **uch so‘zli birikmalar (trigram)** avtomatik

chiqarib olinishi mumkin. Bu tilning *iboralari, maqol* va *iqtiboslarini* aniqlashda foydali. Masalan, o‘zbek tilining ilk milliy korpusi matnlari asosida n-gram usuli orqali til modelini qurish tajribasi amalga oshirilgan bo‘lib, bunda korpusdagi eng ko‘p uchraydigan so‘z ketma-ketliklari aniqlangan. Natijada, masalan, o‘zbek tilida eng ko‘p takrorlanadigan uch so‘zli iboralar (*“aloqa vositalari orqali”*, *“Prezidenti matbuot xizmati ma’lum qildi” singari*) ajratib olinishi mumkin – bu ma’lumotlar til xususiyatlarini o‘rganishda yoki mashina tarjimasida qo‘l keladi[8].

Yuqoridagi funksiyalar barchasi korpus interfeysi orqali birlashtirilgan holda taqdim etiladi [9]. Yaxshi interfeys oddiy foydalanuvchilar uchun sodda qidiruvni, lingvistlar uchun esa murakkab tahliliy so‘rovlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Misol tariqasida, Britaniya milliy korpusining avvalgi BNCweb interfeysi ham, hozirgi Sketch Engine dagi versiyasi ham foydalanuvchiga yuqorida sanalgan barcha imkoniyatlarni beradi – **so‘zlarni regex (muntazam ifodalar) bo‘yicha qidirishdan tortib**, matnlarni metama’lumotlar bo‘yicha ajratish va hatto tezavror (thesaurus) usulida o‘xshash so‘zlarni topishgacha. Rus milliy korpusining onlayn tizimi esa rus tilining o‘ziga xos grammatikalarini (masalan, fe’lning vid kategoriyasi, otning irglik/nisbat kategoriyasi) ham qidiruv shartlari sifatida qo‘shishga ixtisoslashgan. O‘zbek tilining elektron korpusi uchun ham shunday imkoniyatlarni bosqichma-bosqich joriy etish rejalangan – xususan, UzbCorpus.uz saytining 2020 yilgi ilk versiyasida token, lemma bo‘yicha oddiy qidiruvlar ishga tushirilgan bo‘lsa, keyinchalik kengaytirilgan qidiruv turlari ham qo‘shib borilmoqda.

Korpusdagi axborot turlari

Korpus tizimida turli axborot turlari qatlamlari mavjud bo‘lib, ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) **lingvistik axborot** – matnlarning lingvistik tavsifi va teglanishi (morfologik, sintaktik va boshqalar);

2) **metama’lumotlar** – har bir matnning tavsiflovchi ma’lumotlari (yaratilgan vaqti, janri, muallifi, manbasi, tili va hokazo);

3) **statistik axborot** – korpusdan foydalanuvchi so‘rov natijasida olinadigan chastotaviy yoki taqqoslovchi ko‘rsatkichlar (so‘zlar chastotasi, konkordans natijalari, kollokatsiyalar, n-gramma ro‘yxatlari va boshqalar).

Yuqorida biz aslida bu turdagi axborotlarning barchasiga to‘xtaldik – quyida ularni yana tizimli ravishda sharhlaymiz.

Lingvistik teglash qatlami

Lingvistik axborot korpus matnlarining annotatsiya qilingan qatlamidir. Uning tarkibiga yuqorida ta’riflangan **morfologik teglar, sintaktik strukturalar,**

shuningdek, ba’zan **semantik teglash** ham kiradi. Lingvistik teglash tufayli korpus *“oddiy matnlar to‘plami”*dan haqiqiy **til modellari bazasiga** aylanadi – chunki har bir so‘z va gap haqida mashina o‘qiy oladigan boy ma’lumotlar biriktirilgan bo‘ladi[10]. Morfologik teglashning ahamiyati shundaki, u *korpusdan ma’lum grammatik shakllarni izlash*, *grammatik hodisalar tezligini aniqlash* kabi ilmiy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, lingvist olim ingliz tilida fe’lning zamon shakllari qo‘llanish dinamikasini o‘rganmoqchi bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri korpusdan *“Past Perfect”* bo‘lib kelgan fe’llarni yillar kesimida sanab bera oladi – buning uchun korpusdagi har bir fe’lning zamon kategoriyasi belgilangan bo‘lishi kifoya. Rus milliy korpusida hatto so‘zlarning **semantik xususiyatlari** ham qisman belgilangan: masalan, unda *“inson”* yoki *“hayvon”* semantik sinfiga mansub otlar alohida belgiga ega, yoki **onomastik** (*shaxs ismi, joy nomi*) otlar alohida ajratilgan. Bunday chuqur belgilash qatlami keyinchalik korpusdan, masalan, *“hayvonlarni ifodalovchi otlar ishtirok etgan frazeologizmlar”* kabi nozik so‘rovlarni amalga oshirishda asqotadi.

O‘zbek tilining elektron korpuslari hozircha to‘liq lingvistik teglashga ega boshlang‘ich bosqichda. B.Elov va boshq. (2024) ishlanmalarida o‘zbek matnlarini avtomatik teglash va tahlil qilish ustida ishlar olib borilmoqda [11]. Jumladan, yaratilgan korpus imkoniyatlarini kengaytirish uchun xorijiy tajribadan foydalanilayotgani, xususan, og‘zaki matnlar korpusini ham yaratish va uni teglash masalalari o‘rganilayotgani qayd etiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yaqin yillarda o‘zbek korpuslarida ham morfologik belgilash bilan birga sintaktik va semantik annotatsiya qatlamlari paydo bo‘lishi kutilmoqda. Shu tariqa, lingvistik axborot qatlami korpusning *“yuragi”* bo‘lib, u orqali korpus ilmiy-tadqiqotlarda qo‘llanadi va tilning raqamli modelini yaratadi. Aynan lingvistik belgilash tufayli korpus **milliy tilni chuqur o‘rganishda beqiyos manba bo‘la oladi** – bu haqda mahalliy tadqiqotchilar (B. Elov, Sh. Hamroyeva va boshq.) ham o‘z ishlarida ta’kidlaydi.

Metama’lumotlar (metadata)

Har bir korpus matni qandaydir manbadan olingan bo‘ladi va uning o‘ziga xos metama’lumotlari mavjud. **Metama’lumot** – bu matn haqidagi ma’lumot. Korpus dizaynida matnlarni tanlash va tasniflash juda muhim bo‘lgani sababli, har bir kiritilayotgan matnga tegishli metama’lumotlar biriktiriladi: **yaratilgan sanasi, janri, uslubi, mavzusi, muallifi, manbasi (masalan, qaysi jurnal yoki sayt), tili (agar original matn boshqa tilda bo‘lsa yoki o‘zbekcha lotin yozuvida yoxud kirill yozuvida bo‘lishi)** kabi ko‘plab tavsiflar ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlar korpus tuzishda ikki sababga ko‘ra muhim: birinchidan, **balanslangan korpus** tuzish uchun – ya’ni korpus tarkibida turli davr va turli janrlarning ulushi muvozanatli bo‘lishini nazorat qilish; ikkinchidan, keyinchalik foydalanuvchi bu metama’lumotlar orqali saralash va filtrlashni amalga oshirishi uchun. Misol tariqasida, BNC korpusi maxsus balanslash rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, unda matnlar 1960–1990 yillardagi

ingliz tilini qamrab oluvchi 100 million so‘z hajmida yig‘ilgan, shundan 10% og‘zaki (nutq transkriptlari) va 90% yozma matnlar; yozma matnlar esa o‘z navbatida ilmiy, publitsistik, badiiy adabiyot, rasmiy hujjatlar kabi toifalarga bo‘lingan. Shu tarzda BNC ichida har bir matnga uning manbasi (masalan, “The Times gazetasi, 1991 yil, yangilik xabari” kabi) haqida batafsil metama’lumot bog‘langan. Rus milliy korpusida ham har bir matn uchun **bibliografik ma’lumotlar** berilgan: **asarning nomi, muallifi, yozilgan yili, janri, uslubi (badiiy, ilmiy va h.k.), matn turi (og‘zaki/yozma), hatto og‘zaki nutq bo‘lsa, gapiruvchining jinsi, yoshi, ijtimoiy holati** kabi qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilgan. O‘zbek tilining milliy korpusi uchun B.Elov va boshq. (2023) tadqiqotlarida o‘zbek adabiy tilining besh uslubga mansub manbalari alohida jamlangani ta’kidlanadi (*so‘zlashuv uslubi, badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik*) [12]. Bu shuni anglatadiki, har bir matnga qaysi uslubga tegishli ekanini ko‘rsatuvchi belgi qo‘yilgan. Kelgusida foydalanuvchi, masalan, faqat publitsistik uslubdagi matnlardan misollar izlashni xohlasa, *“janr: publitsistika”* filtrini tanlab qidirishi mumkin bo‘ladi.

Metama’lumotlarning yana bir foydasi – **korpus tarkibini tahlil qilish** va **taqqoslash** imkonini berishi. Masalan, korpusdan avtomatik ravishda *“badiiy adabiyot”* va *“ilmiy uslub”* bo‘yicha ikki alohida kichik korpus ajratib olib, ularning lug‘at tarkibini taqqoslash mumkin. Yoki vaqt bo‘yicha dinamik o‘zgarishni kuzatish uchun korpusni yillarga ajratish mumkin: masalan, COCA korpusida matnlar yillar va besh yilliklar bo‘yicha belgilangan, shuning uchun foydalanuvchi so‘zning 1990-yillardagi va 2010-yillardagi tezligidagi farqni oson ko‘ra oladi (grafigi orqali). Korpus interfeyslari metama’lumotlar bilan ishlashni intuitiv oson qilishga intiladi – misol uchun, English-Corpora (COCA) tizimida *“Virtual Corpus”* degan funksiya mavjud bo‘lib, foydalanuvchi bir necha soniya ichida tanlagan metama’lumotlar asosida shaxsiy kichik korpus tuzishi va unga tegishli so‘zlar statistikasini ajratib olishi mumkin. Xuddi shunday, Sketch Engine dasturida ham *“Subcorpus”* funksiyasi bor: foydalanuvchi masalan, muallifi Oybek bo‘lgan matnlar to‘plamini yoki 2018 yildan keyin chiqqan internet maqolalari to‘plamini ajratishi mumkin – buning uchun muallif va yil metama’lumotlarini filtrlaydi xolos, tizim uning uchun alohida korpus shakllantirib beradi.

Umuman olganda, **metama’lumotlar** korpusning *tasnifiy axboroti* bo‘lib, u korpus tuzilishini yanada boy qiladi. Chunki oddiy matnlar to‘plamidan farqli o‘laroq, korpusda matnlarning kelib chiqishi va xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham bazaga kiritiladi. Bu ma’lumotlar ilmiy tadqiqotlarda masalan, *stilistika, sotsiolingvistika, diatopik tilshunoslik (lahja va shevalar bo‘yicha)* tadqiqotlarni o‘tkazishga imkon yaratadi. Korpus tuzishda shu sababli metama’lumotlarni to‘plash va to‘g‘ri formatda kiritish alohida bosqich sifatida qaraladi.

Statistik axborot va foydalanuvchi ma’lumotlari

Statistik axborot – korpusdan foydalanuvchi olishi mumkin bo‘lgan turli tahliliy ma’lumotlar. Bular korpusga oldindan kiritilib qo‘yilgan emas, balki foydalanuvchi so‘roviga binoan **hisoblab chiqariladigan ko‘rsatkichlardir**. Ular qatoriga yuqorida tilga olingan **so‘zlar chastotasi, kollokatsion lug‘atlar, ngramlar** kiradi. Bundan tashqari, foydalanuvchi korpusdan o‘zi istalgan ikki holatni solishtirish natijasida statistik xulosa ham olishi mumkin – masalan, *“A matnlar korpusida so‘z X chastotasi B korpusidagidan 2 barobar ko‘p”* degan kabi ma’lumot.

Chastotali lug‘atlar – korpus asosida tuzilgan so‘zlarning ro‘yxatidir. Korpus hajmi katta bo‘lgani tufayli bunday ro‘yxatlar tilning eng keng qo‘llaniladigan so‘zlarini aniqlashda muhim manba bo‘ladi. Masalan, BNC korpusi asosida tuzilgan BNC1000 degan ro‘yxatda ingliz tilidagi eng ko‘p ishlatiladigan 1000 ta so‘z keltirilgan va u til o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma sifatida mashhur. Korpusdan chastotani olish odatda dasturiy ravishda “so‘zlar ustida oddiy sanaq” ishidir, lekin katta hajmda bu oson emas – masalan, 1 milliard so‘zli korpusda turli so‘z shakllari soni (types) yuz minglarni tashkil qiladi. Shunga qaramay, Leipzig korpus to‘plami kabi loyihalar dunyoning 20 dan ortiq tili uchun avtomatik ravishda 1 million so‘zdan iborat korpuslar tuzib, ularning **chastotali lug‘atlarini** ham e’lon qilgan [12]. Ularning maqsadi resursi kam tillar uchun ham asosiy korpus statistikalarini ochiq taqdim etishdir. O‘zbek tilida ham ilk bor shunday chastotali lug‘at B.Elov tomonidan tuzilgan bo‘lib, https://uzschoolcorpara.uz/ uchun jami so‘zlar chastotasi hisoblab chiqilgan (natijada o‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘z **“va”** ekanligi kabi qiziqarli faktlar aniqlandi). Chastota axboroti lingvistika tadqiqotlarida muhim: masalan, **Zipf qonunini tekshirish**, **so‘z boyligini baholash**, **leksikografik baza tuzish** kabi ishlarda korpusdan olingan chastotalar asos bo‘ladi.

Kollokatsiyalar va n-gramlar – bular korpus matnlaridan hosil qilinadigan **birikmalar statistikasidir**. Kollokatsiya ko‘pincha ikki yoki undan ortiq so‘zning bir-biriga yaqin yoki bir gap ichida kutilganidan ko‘ra ko‘proq birga uchrashini bildiradi. Korpus buni aniqlash uchun eng yaxshi manbadir: masalan, korpus tahlili shuni ko‘rsatishi mumkinki, *“ijtimoiy”* so‘zi eng ko‘p *“tarmoqlar”* so‘zi bilan yonma-yon qo‘llanilar ekan (natijada “ijtimoiy tarmoqlar” birikmasi kollokatsion bog‘lanish kuchiga ega fraza deyish mumkin). Bunday kollokatsiyalarni korpusdan chiqarib olish uchun dastur har bir so‘z uchun unga eng ko‘p yaqin turgan so‘zlarni sanaydi va **MI o‘lchovi** orqali umumiy uchrashuv ehtimoli bilan solishtiradi. Natijada esa foydalanuvchiga, masalan, tanlangan **X so‘zining 20 ta eng yaqin kollokati ro‘yxati** va **ularning MI skorlari** taklif etiladi. Ushbu axborot tilshunoslikda **valentlik va frazeologizmlarni** o‘rganishda, avtomatik tarjimada sinonimik birikmalarni tanlashda va boshqa sohalarda qo‘l keladi.

N-grammalar esa kengroq tushuncha bo‘lib, u korpusdagi eng ko`p uchrayotgan N uzunlikdagi so‘z zanjirlarini ifodalaydi. Masalan, **2 so‘zli zanjirlar – bigrammalar**; **3 so‘zli – trigrammalar** va hokazo. Korpusdan avtomatik ravishda chastotasi yuqori n-grammalarni chiqarish orqali tilga xos iboralar aniqlanadi. Masalan, ingliz tilida *“at the end of the day”* 5 so‘zli birikmasi juda ko‘p qo‘llaniladi – buni katta korpuslarsiz aniqlash qiyin, lekin korpus statistikasi darhol ko‘rsatadi. O‘zbek tilida korpus yordamida *“degan edi”, “qayd etib o‘tdi”, “shuni ham ta’kidlash joiz”* kabi og‘zaki nutq va rasmiy uslubda keng uchraydigan birikmalarni aniqlash mumkin.

Foydalanuvchi statistikasi. Ayrim korpus tizimlari foydalanuvchilarning qaysi so‘zlarni ko‘p qidirayotgani, eng ko‘p so‘rovlar qaysi tillar uchun berilayotgani kabi meta-statistik ma’lumotlarni ham yuritadi. Bu, albatta, korpusning ichki til ma’lumotidan tashqari, foydalanishiga oid axborotdir. Masalan, milliy korpus administratorlari qaysi davrda qidiruvlar soni oshganini, ko‘proq qaysi turkumdagi so‘zlar izlanayotganini tahlil qilib borishi mumkin. Bu tur ma’lumotlar korpusni yanada takomillashtirish (masalan, eng ko‘p so‘ralayotgan funksiyani qo‘shish) uchun xizmat qiladi.

O‘zbek va jahon korpuslarini qurish tajribasi

Yuqorida keltirilgan komponent va axborot turlari zamonaviy korpus tuzishning **umumiy tamoyillaridir**. Korpus tuzishda maqsad tilning imkon qadar to‘liq va balansli ko‘rinishini yaratish, uni ishonchli lingvistik belgilash bilan ta’minlash va foydalanuvchiga qulay foydalanish imkoniyatini berishdir. Jahonda milliy korpuslar soni yildan yilga ortib bormoqda: ma’lumotlarga ko‘ra, hatto 1990-yilga kelib dunyo tillari uchun 600 ga yaqin korpus mavjud bo‘lgan, hozirda esa minglab korpus loyihalari borligi taxmin qilinadi (bunga turli ixtisoslashgan korpuslar ham kiradi) [13]. Korpuslarning hajmi ham oshib bormoqda – masalan, ingliz tilining Amerikaner korpusi COCA yiliga 20 million so‘zga kengayib, hozirda 1 milliarddan oshdi, Britaniya milliy korpusi esa hali ham 100 million so‘z hajmida **“statik”** holda qolmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, **monitor korpuslar (doimiy yangilanib boruvchi)** va **statik korpuslar** farqlanadi. COCA singari monitor korpus zamonaviy til o‘zgarishlarini muntazam aks ettirib boradi, BNC kabi statik korpus esa muayyan davrning til hosilasi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbek tilida ham istiqbolda monitor korpus yaratish masalasi ko‘ndalang turibdi – chunki tilimiz juda tez yangi so‘zlar bilan boyib, ommaviy axborot til uslubi o‘zgarib bormoqda.

Milliy korpus loyihasi (UzbCorpus.uz). O‘zbek tilining birinchi elektron korpusi sifatida UzbCorpus.uz platformasi 2021 yilda ishga tushirildi. Bu korpus O‘zbekistonda davlat miqyosidagi ilmiy loyiha doirasida boshlangan bo‘lib, dastlab badiiy asarlar matnlarini jamlashdan boshladi. Keyinchalik, B.Elov boshchiligida

ToshDO‘TAU tadqiqotchilar jamoasi ushbu korpusni rivojlantirish ishlari davom ettirildi – unga publitsistik va ilmiy matnlar qo‘shildi, hajmi oshirildi. Hozirda **UzbCorpus.uz** tarkibida 10 milliondan ortiq so‘z mavjud (aniq statistik ma’lumotlar e’lon qilinmagan, lekin ilmiy maqolalarda shu atrofida ko‘rsatilgan). Korpus tarkibi besh funksional uslubni qamrab olgan matnlardan iborat ekani ilmiy adabiyotda qayd etilgan. Korpusning interfeysi uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) taqdim qilingan bo‘lib, unda token va lemma bo‘yicha qidiruv, konkordans natijalarini ko‘rish imkoniyati bor. Mazkur korpus haligacha rivojlanishda davom etmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek korpusini yanada multimediya (matn + audio) shaklida boyitish rejalangan, bu esa jahon korpusshunosligidagi zamonaviy tendensiyalarga mos keladi (masalan, rus tilida ham audio va sheva korpuslari alohida subkorpuslar sifatida kiritilganligi ma’lum).

Jahon korpuslari bilan qiyos. O‘zbek tilini korpuslash tajribasini jahon yutuqlari bilan qiyoslash foydali. Britaniya va Amerika ingliz tilining korpuslari (BNC va COCA) o‘zbek korpusiga o‘rnak bo‘la oladigan bir nechta xususiyatga ega: ularda matnlar juda keng ko‘lamda jamlangan va aniq balanslangan; har bir so‘z to‘liq morfologik tegangan (BNC uchun CLAWS POS-teglar, COCA uchun Penn Treebank tagset asosida); foydalanuvchi interfeysi esa nihoyatda boy funksionalga ega (lemma bo‘yicha izlash, sinonim bo‘yicha izlash, hatto WordNet ma’lumotlariga bog‘langan holda ma’nodoshlik bo‘yicha qidiruv va h.k. – COCA misolida). Rus milliy korpusi esa o‘zbek tiliga ko‘proq strukturaviy jihatdan yaqin bo‘lgani uchun qiziqarli tajriba beradi: unda agglyutinativ xususiyatlar bo‘lmasa-da, boy flektiv morfologiyaga ega rus tilini teglashda katta mehnat qilingan va ayni paytda ushbu korpus ochiq tarzda internetda foydalanishga imkon beradi. RNC tarkibida, yuqorida aytilganidek, sintaktik daraxtlar subkorpusi, she’riy matnlar subkorpusi, parallel korpuslar kabi turli komponentlar borligi e’tiborga loyiq – o‘zbek tilida ham kelgusida shunga o‘xshash parallel korpuslar (masalan, o‘zbek-ingliz, o‘zbek-rus tarjima korpusi) hamda ixtisoslashgan soha matnlari korpuslarini yaratish rejasi bor.

Yana bir jahon loyihasi – **Leipzig Corpora Collection (LCC)** – o‘zbek tili korpusini rivojlantirishda foydali bo‘lishi mumkin. LCC doirasida 250 dan ortiq til uchun bir xil formatda korpus ma’lumotlari va ularning asosiy statistik ko‘rsatkichlari (wordlist, bigram list va hokazo) bepul tarqatiladi. Masalan, LCCda o‘zbek tilidan ham 1 million so‘zli matnlar to‘plami va uning so‘z chastotasi ro‘yxati mavjud. Bu kichik hajmli bo‘lsa-da, qiyosiy tadqiqotlarda as qotadi. Kelgusida o‘zbek milliy korpusini ham Leipzig kabi ochiq formatda, xalqaro standartlarga mos holda eksport qilish va xalqaro korpuslar qatoriga qo‘shish maqsad qilinmoqda – bu o‘zbek tilining dunyo miqyosida o‘rganilishiga, turkiy tillarni solishtirishda ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida, korpus tuzilishi va axborot turlari bo‘yicha yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy elektron korpus – bu ko‘p qavatli

murakkab tizimdir. Unda matnlar lingvistik jihatdan boy belgilangan, texnik bazasi kuchli arxitekturaga tayangan va foydalanuvchi uchun keng qidiruv hamda tahlil imkoniyatlarini taqdim etadi. Optimal korpus yaratish uchun ushbu uch asos – **matn bazasi, texnik arxitektura va interfeys –** birdek mustahkam bo‘lishi lozim [14]. Shu bilan birga, korpus bilan bog‘liq **barcha axborot turlari** – lingvistik, metama’lumot va statistik – to‘liq va izchil ravishda o‘zaro bog‘langan holda ishlaydi. O‘zbekiston tilshunoslari tomonidan boshlangan milliy korpus loyihasi ham aynan shu tamoyillarga intilayotgani ko‘zga tashlanadi.

B.Elov, N.Abdurahmonova kabi olimlar korpus lingvistikasi sohasida dastlabki ishlarni amalga oshirib, o‘zbek tilini raqamli korpuslash yo‘lida muhim qadamlar qo‘yishgan – bu ishlarda jahon korpus tajribasiga tayanilgan va milliy til xususiyatlariga mos yechimlar taklif qilingan. Kelayotgan yillarda o‘zbek tili korpusi yanada kengayib, to‘liq belgilangan, milliardlab so‘zli zamonaviy korpusga aylanishi va jahon korpuslaridan kam bo‘lmagan ilmiy ahamiyat kasb etishi kutilmoqda. Bu borada olib borilayotgan ishlar – lingvistik teglashning avtomatlashtirilishi, arxitekturaning optimallashtirilishi, yangi matnlar bilan boyitish – korpus tuzilishini takomillashtirib, foydalanuvchilar va tadqiqotchilar uchun yanada qulay muhit yaratib beradi. Korpus tuzilishi va undagi axborot qatlamlari qanchalik boy bo‘lsa, tilshunoslikda shunchalik chuqur va ishonchli tahlillar qilish imkoni tug‘iladi. Bu esa ona tilimizni ilmiy jihatdan teranroq anglash va kelgusida turli sun’iy intellekt tizimlarida qo‘llash uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. Primova, M. (2023). Til korpuslarida matnlarni annotatsiyalash: afzallik va kamchiliklari. *Uzbekistan: Language and Culture*, *4*(4).
12. Копотев, М. В., & Янда, Л. (2006). Национальный корпус русского языка. *Вопросы языкознания*, (5), 149-155.
13. Avgustinova, T., & Zhang, Y. (2009, September). Exploiting the Russian national corpus in the development of a Russian Resource Grammar. In *Proceedings of the workshop on adaptation of language resources and technology to new domains* (pp. 1-11).
14. Elov, B. B., Khamroeva, S. M., Alayev, R. H., Khusainova, Z. Y., & Yodgorov, U. S. (2023). Methods of processing the uzbek language corpus texts. *International Journal of Open Information Technologies*, *11*(12), 143-151.
15. Suhr, C., Nevalainen, T., & Taavitsainen, I. (Eds.). (2019). *From data to evidence in English language research*. Leiden: Brill.
16. Zeldes, A. (2021). Corpus architecture. In *A practical handbook of corpus linguistics* (pp. 49-73). Cham: Springer International Publishing.

17. Bolgün, M. A. (2013). The significance of data-driven descriptions of forms in explicit grammar instruction. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, *70*, 430-446.
18. https://tsuull.uz/sites/default/files/b_elov_a_abdullayev_n_xudaybergano v_ozbek_tili_korpusi_matnlari_0.pdf
19. Elov, B., Alayev, R., & Abdullayev, A. (2024). Tabiiy tilning statistik modellari. *digital transformation and artificial intelligence*, *2*(6), 178-189.
20. https://www.academia.edu/124652038/Korpus_lingvistikasi
21. Elov, B., & Xudayberganov, N. (2024). O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari. *Computer Linguistics: problems, solutions, prospects*, *1*(1).
22. Elov, B., Hamroyeva, S., Alayev, R., Xusainova, Z., & Yodgorov, U. (2023). O ‘zbek tili korpusi matnlarini qayta ishlash usullari. *Digital transformation and artificial intelligence*, *1*(3), 117-129.
23. Biemann, C., Heyer, G., Quasthoff, U., & Richter, M. (2007). The Leipzig corpora collection-monolingual corpora of standard size. *Proceedings of Corpus Linguistic*, *2007*.
24. Abduraxmonova, N. Z. Q., & Urazaliyeva, M. Y. (2022). O‘zbek tili elektron korpusida (http://uzbekcorpus. uz/) og ‘zaki matnlar korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari. *Academic research in educational sciences*, *3*(3), B. 644-650.
25. Davies, M. (2015). Corpora: an introduction. *The Cambridge handbook of English corpus linguistics*, 11-31.

TIL KORPUSI MATNLARIDA IMLO TUZATISH

Botir Elov Boltayevich,
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Ahmedova Maftuna Kaxramon qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxasisligi magistranti
MaftunaAhmedova1997@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqola til korpusi matnlarida imlo xatolarini aniqlash va tuzatish muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqot kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi. Korpus matnlaridagi imlo xatolarini avtomatik aniqlash va tuzatish algoritmlari, usullari va dasturiy vositalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida imlo tuzatishning statistik, qoidaga asoslangan va mashina o‘rganishiga asoslangan usullarining samaradorligi taqqoslanadi. Xususan, til korpuslarida imlo xatolarini aniqlash va tuzatish jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va ularning o‘zbek tili korpuslariga tatbiq etish masalalari muhokama qilinadi.

Abstract. This article deals with the problem of detecting and correcting spelling errors in language Corpus texts. The study analyzes modern approaches in the field of computer linguistics and natural language processing. Algorithms, methods and software tools for automatic detection and correction of spelling errors in Corpus texts are considered. The study compares the effectiveness of statistical, rule-based, and machine learning-based methods of spelling correction. In particular, the language Corps discusses the modern approaches used in the process of detecting and correcting spelling errors and their application to the Corps of the Uzbek language.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме выявления и исправления орфографических ошибок в текстах языкового корпуса. В исследовании анализируются современные подходы в области компьютерной лингвистики и обработки естественного языка. Рассмотрены алгоритмы, методы и программные средства автоматического обнаружения и исправления орфографических ошибок в текстах корпуса. В ходе исследования сравнивается эффективность статистических методов коррекции орфографии, основанных на правилах, и методов машинного обучения. В частности, обсуждаются современные подходы к выявлению и исправлению орфографических ошибок в языковых корпусах и их применение в корпусах узбекского языка.

Kalit so‘zlar: *imlo tuzatish, til korpusi, tabiiy tilni qayta ishlash, mashina o‘rganishi, statistik modellar*.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari asrida til korpuslarining sifati va to‘g‘riligi juda muhim ahamiyatga ega. Til korpusi – bu muayyan tildagi matnlarning elektron to‘plami bo‘lib, tilshunoslik tadqiqotlari, kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, statistik tahlil va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi.

Til korpusi – bu tilning haqiqiy foydalanuvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan va so‘zlar,iboralar va umuman, til qanday ishlatilishini tahlil qilish uchun ishlatiladigan juda katta matnlar to‘plami. U tilshunoslar, leksikograflar, ijtimoiy olimlar, gumanitar fanlar, tabiiy tillarni qayta ishlash bo‘yicha mutaxassislar va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Korpus shuningdek, dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda ishlatiladigan turli til ma’lumotlar bazalarini yaratish uchun ishlatiladi, masalan, bashoratli klaviaturalar, imloni tekshirish va tuzatish, matn/nutqni tushunish tizimlari,matndan nutqqa modullar, mashina tarjimasi tizimlari va boshqalar[1].

Til korpusi – bu biror tilni to‘g‘ri va kompleks tarzda o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan matnlar to‘plamidir. Bunday matnlar, odatda, turli xil yozuvlar va nutq namunalarini o‘z ichiga oladi, masalan, kitoblar, maqolalar, she’rlar, onlayn matnlar, ijtimoiy tarmoq postlari va hokazo. Korpuslar tilshunoslar va kompyuter lingvistikasi mutaxassislari tomonidan tilni tahlil qilish, o‘rganish, semantik va sintaktik strukturalarni aniqlash hamda tilni qayta ishlashning turli texnologiyalarini ishlab chiqish uchun foydalaniladi[2].

Biroq korpus matnlari turli manbalardan olingan bo‘lib, ko‘pincha kiritish xatolari, noto‘g‘ri so‘zlar, texnik xatolar va boshqa nuqsonlarni o‘z ichiga oladi. Bu xatolar korpus asosida ishlaydigan tizimlar ishini sezilarli darajada yomonlashtirishi mumkin. Shuning uchun korpus matnlaridagi imlo xatolarini aniqlash va tuzatish – kompyuter lingvistikasining dolzarb muammolaridan biridir [3].

Turli tillar uchun imlo tuzatish tizimlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek tili kabi resurslar cheklangan tillar uchun bu masala hali ham to‘liq hal qilinmagan. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari – lotin va kirill alifbolaridan foydalanish, morfologik boylik, so‘z yasalishining murakkabligi kabi omillar imlo tuzatish tizimlarini yaratishda qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi [4].

Ushbu maqolada til korpusi matnlaridagi imlo xatolarini aniqlash va tuzatish bo‘yicha mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi, hamda o‘zbek tili korpuslarida imlo tuzatish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) usulini qo‘llashga asoslangan. Imlo tuzatish tizimlarini yaratishda asosan uch xil yondashuv qo‘llaniladi: qoidaga asoslangan, statistik va mashina o‘rganishiga asoslangan usullar[5].

Qoidaga asoslangan yondashuvlar til grammatikasi va imlo qoidalariga tayangan holda xatolarni aniqlaydi va tuzatadi. Qoidaga asoslangan tizimlar aniq va tushunarli natijalar bersa-da, barcha hollarda ham yaxshi natija bermaydi. Chunki tilning barcha grammatik qoidalarini ifodalash murakkab. Bundan tashqari, yangi so‘zlar, chet tilidan kirgan so‘zlar va adabiy tilda qo‘llanilmaydigan so‘zlar va eskirgan so‘zlar bilan ishlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Statistik yondashuvlar katta hajmdagi korpuslar asosida so‘zlarning chastotasi va ularning kontekstdagi ishlatilishini tahlil qiladi. Bu usul “N-gram” modellari, Noisy Channel modellarni o‘z ichiga oladi. Statistik usullar faqat katta hajmdagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgandagina yaxshi natija bergani uchun kam resursli tillar uchun statistik yondashuvni qo‘llash qiyin.

So‘nggi yillarda mashina o‘rganishi va chuqur o‘rganish (deep learning) usullari korpus matnlaridagi imlo xatolarini aniqlash va tuzatishda keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvda neyron tarmoqlar, xususan rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), uzun-qisqa muddatli xotira (LSTM) va transformerlar kabi modellar ishlatiladi. Masalan, I. Petrov, Smirnov va V.Ivanov “Transformer-based spelling correction for Russian text corpora” nomli maqolasida transformer arxitekturasiga asoslangan modelni rus tili korpuslaridagi imlo xatolarini tuzatish uchun taklif etganlar va bu model 92% aniqlikka erishgan[6]. Mashina o‘rganishi usullari yuqori aniqlikka erishishi mumkin, lekin bu usullarni qo‘llash uchun katta hajmdagi annotatsiyalangan ma’lumotlar to‘plami (dataset) talab etiladi.

Bundan tashqari, gibrid (hibrid) yondashuvlar ham mavjud bo‘lib, ular yuqoridagi usullarning kombinatsiyasidan foydalanadi.

Kompyuter lingvistikasi mutaxassislari yaxshi biladilarki, imloviy sifati past bo‘lgan korpus uning asosida yaratiladigan dasturiy mahsulotlar sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Masalan, neyron tarmoqlar asosida ishlaydigan sun’iy intellektni xatolari ko‘p matn bilan mashq qildirilsa, u ana shu matndagi xatolarni tilning ajralmas qismi deb qabul qilishga va shundan kelib chiqib ishlashga o‘rganadi. Oddiy misol: sun’iy intellektga berilgan korpusda “tatbiq” so‘zi 40% hollarda “tadbiq” deb yozilgan bo‘lsa, u shu so‘z o‘zbek tilida ikki xil usulda yozilar ekan deb xulosa chiqaradi va shu xulosa asosida ishlaydi. Bu juda soddalashtirilgan misol bo‘lgani bilan, uning o‘zi lingvistik dasturni “*o*‘qitish” uchun ishlatilgan korpus sifati uning yakuniy ishlash sifatiga qanday ta’sir qilishini tushunib yetish uchun yetarli[7].

O‘zbek tili korpuslaridagi imlo xatolarini tuzatish masalasi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar juda kam. Mavjud tadqiqotlar ko‘proq rus, ingliz,ispan va boshqa keng tarqalgan tillarga qaratilgan. Bu esa o‘zbek tili korpuslari matnlarini takomillashtirish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kerakligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili natijasida til korpusi matnlarida imlo tuzatishning turli usullari samaradorligi aniqlandi va qiyosiy tahlil qilindi. 1-jadvalda imlo tuzatish usullarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. Imlo tuzatish usullarining qiyosiy tahlili

Usul	**Afzalliklari**	**Kamchiliklari**	**O‘rtacha aniqlik (%)**	**O‘zbek tiliga moslashish imkoniyati**
Qoidaga asoslangan	Tushunarliligi, izohlanishi oson,kichik korpus uchun qo‘llanilishi mumkin.	Yangi so‘zlarni qamrab ololmasligi.	75-80%	Yuqori, lekin morfologik qoidalarni to‘liq kiritish talab etiladi.
Statistik	Kontekstga asoslanganligi, yangi so‘zlarni ham qamray olishi.	Katta hajmdagi ma’lumotlar talab etilishi.	80-85%	O‘rta, katta hajmli korpus talab etiladi.
Mashina o‘rganishi	Yuqori aniqlik, kontekstni yaxshi tushunishi, yangilanish imkoniyati.	Katta annotatsiyalangan ma’lumotlar bazasi talab etilishi, hisoblash resurslarining ko‘pligi	85-92%	Past-o‘rta, annotatsiyalangan ma’lumotlar yetishmasligi.
Gibrid	Turli usullarning afzalliklarini birlashtirishi.	Tizimning murakkabligi, sozlash qiyinligi.	88-94%	O‘rta-yuqori, moslashtirilgan holda yaxshi natija beradi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy yondashuv sifatida gibrid tizimlar eng yuqori aniqlikka erishadi, ammo ularni yaratish va sozlash murakkab jarayondir. O‘zbek tili uchun qoidaga asoslangan tizimlar nisbatan oson moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, ularning aniqligi pastroq. Mashina o‘rganishiga asoslangan usullar yuqori aniqlikka erishishi mumkin, lekin o‘zbek tili uchun annotatsiyalangan ma’lumotlar yetishmasligi bu usulni qo‘llashni qiyinlashtiradi.

2-jadvalda esa turli tillarda imlo tuzatish tizimlari uchun erishilgan aniqlik ko‘rsatkichlari taqqoslangan.

2-jadval. Turli tillarda imlo tuzatish tizimlarining aniqligi

Til	**Qoidaga asoslangan (%)**	**Statistik (%)**	**Mashina o‘rganishi (%)**	**Gibrid (%)**
Ingliz	82%	88%	94%	96%

Rus	80%	85%	92%	94%
Turkcha	78%	83%	90%	93%
O‘zbek	75%	80%	83%	88%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, resurslari cheklangan tillar, xususan turkiy tillarda imlo tuzatish tizimlarining aniqligi ingliz va rus tillariga nisbatan pastroq. Bu ushbu tillar uchun korpuslar hajmining kichikligi, annotatsiyalangan ma’lumotlarning yetishmasligi va tilning o‘ziga xos murakkabliklari bilan bog‘liq.

O‘zbek tili korpuslarida imlo tuzatish tizimlarini takomillashtirish uchun quyidagi yondashuvlar taklif etiladi:

1. Morfologik tahlilga asoslangan qoidalar tizimini takomillashtirish. O‘zbek tilining morfologik boyligi va so‘z yasalishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qoidalar tizimini taklif etish lozim.

2. “O‘zbek tili milliy korpusi” ma’lumotlaridan foydalangan holda keng qamrovli statistik modellarni yaratish. Bu korpus hajmini kengaytirish, sifatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. Transfer learning usulidan foydalanib, rus, turk kabi yaqin tillarda o‘rgatilgan modellarni o‘zbek tiliga moslashtirish. Bu usul orqali ma’lumotlar yetishmasligi muammosini qisman hal qilish mumkin.

4. O‘zbek tili xususiyatlarini hisobga olgan gibrid tizimlarni yaratish: morfologik tahlil, statistik modellar va neyron tarmoqlarni birlashtiradigan yondashuvlarni ishlab chiqish.

Oldimizda turgan yana bir masalalardan biri:o‘zbek tili imlo qoidalarini bir standartga keltirish, alifbo masalasini uzil-kesil hal qilishdan iboratdir.

O‘zbek tili korpuslarida uchraydigan imlo xatolarini tahlil qilganda, xatolarning quyidagi asosiy turlari ko‘p uchraydi:

Lotin va kirill alifbolari orasidagi transpozitsiya xatolari (masalan, “sh” o‘rniga “ш” yoki “w” aksincha)

1. H va X harflari bilan bog‘liq xatolar (masalan, “h” va “x” harflarining almashtirilishi).

2. Qo‘shimchalarning noto‘g‘ri qo‘shilishi (“mening kitobim” emas “meni kitobim”).

3. Qo‘shma so‘zlarning alohida yozilishi bilan bog‘liq xatolar (“oqqush” emas “oq qush” tarzida).

4. Olinma so‘zlarni yozishda yuzaga keladigan xatolar (“multimedia” shaklida emas, “multimediya” shalida yozilish holatlari) ko‘p uchraydi.

Til korpuslarida imlo tuzatish jarayonini avtomatlashtirish uchun kontekstual ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ko‘p so‘zlar kontekstga qarab to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, “boshog‘riq” va “bosh og‘riq” so‘zlari kontekstga qarab bir-birining o‘rniga ishlatilishi mumkin, lekin ular turli ma’noga ega.Birinchisida “muammo” ma’nosida kelsa,ikkinchisida boshdagi og‘riq ma’nosida keladi.Bunday holatlarda kontekstual ma’lumotlardan foydalanish imlo tuzatish tizimining aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy transformer asosli modellar (BERT, GPT, T5) kontekstual ma’lumotlarni yaxshi tushunishi va saqlashi bilan ajralib turadi. Ushbu modellarni o‘zbek tili korpuslariga moslashtirish va imlo tuzatish tizimlarida qo‘llash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Korpus matnlarida imlo tuzatish jarayoni faqat xatolarni aniqlash va tuzatishdan iborat emas. Bu jarayon matn sifatini oshirish, uni standartlashtirish va keyingi ishlov berish uchun tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Sifatli tuzatilgan korpus matnlari tilshunoslik tadqiqotlari, mashinali tarjima, avtomatik annotatsiyalash va boshqa ko‘plab vazifalar uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tili korpuslarida imlo tuzatishning hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilinganda, quyidagi muammolar va yechimlar aniqlanadi:

1. Annotatsiyalangan ma’lumotlar yetishmasligi – bu muammoni kraudsorsing, mavjud korpuslar asosida sun’iy xatolar yaratish va qo‘shni tillar ma’lumotlaridan foydalanish orqali hal qilish mumkin.

2. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari – morfologik tahlil, qo‘shimcha qo‘shish qoidalari va so‘z yasalish qonuniyatlarini hisobga olgan algoritmlar yaratish.

3. Lotin va kirill alifbolari orasidagi transliteratsiya muammolari – ikki alifboda ham ishlay oladigan universal tizimlar yaratish.

4. Tilning doimiy rivojlanishi va yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi – tizimni doimiy yangilab turish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ushbu muammolar va yechimlarni hisobga olgan holda, o‘zbek tili korpusi matnlarida imlo tuzatish tizimlarini takomillashtirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv tilshunoslik, kompyuter dasturlash, statistika va mashina o‘rganishi sohalarini birlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim.

XULOSA. Til korpusi matnlarida imlo tuzatish tizimlari zamonaviy kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohalarining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

birinchidan, o‘zbek tili korpuslarida imlo tuzatish tizimlari hozirgi kunda rivojlanish bosqichida bo‘lib, qoidaga asoslangan, statistik va mashina o‘rganishiga asoslangan usullarning kombinatsiyasi eng samarali natija beradi;

ikkinchidan, resurslari cheklangan tillar, xususan o‘zbek tili uchun imlo tuzatish tizimlarini yaratishda tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, morfologik tahlil va kontekstual ma’lumotlardan foydalanish lozim;

uchinchidan, zamonaviy transformer-asosli modellarni o‘zbek tiliga moslashtirish va imlo tuzatish tizimlarida qo‘llash samarali natija beradi;

to‘rtinchidan, imlo tuzatish tizimlarining samaradorligini oshirish uchun annotatsiyalangan ma’lumotlar bazasini kengaytirish zarur.

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tili korpusi matnlarida imlo tuzatish tizimlarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va bu sohada yangi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar belgilab beradi.

Kelajakda bu sohada qilinadigan tadqiqotlar o‘zbek tili korpuslarining sifatini yanada oshirish, mashina tarjimasi, avtomatik annotatsiyalash va boshqa kompyuter lingvistikasi sohalari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov B.B., Yuldashev A.U., Yodgorov U.S. Til korpusi turlari va umumiy xususiyatlari //Xorazm Ma’mun akademiyasi, – 2024 – №12 . B.118-124.
2. Elov B., Samadboyeva M. Language corpora and their importance// Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2025.
3. Kukich Karen. Techniques for automatically correcting words in text // ACM Computing Surveys. – 2019. – T. 24. – № 4. – P. 377-439.
4. Bekmurodov A. va Rixsiyeva G. O‘zbek tilida imlo xatolarini avtomatik aniqlash va tuzatish muammolari // O‘zbek tilshunosligi masalalari. – 2020. – T. 4. – № 2. – B. 67-82.
5. Flor, Michael va Futagi Yoko. Approaches to Automated Spelling Correction: A Comparative Study // Natural Language Engineering. – 2021. – T. 27. – № 1. – P. 1-33.
6. Petrov S., Smirnov I va Ivanov V. Transformer-based spelling correction for Russian text corpora // Computational Linguistics and Intellectual Technologies. – 2023. – T. 22. – № 1. – P. 123-138.
7. Jo‘rayev J. O‘zbek tili korpusini yaratish: Muammolar halqasi va yechimlar. // Kompyuter lingvistikasi:Muammolar,yechim,istiqbollar – 2021.– №. 01. – B. 23-26.

NUSRATULLO JUMAXO‘JA MUALLIFLIK KORPUSI LINGVISTIK TA’MINOTI

Akramova Shohista Islom qizi,
tayanch doktoranti
akramovashohista88@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Nusratullo Jumaxo‘ja davrimizning yetuk ziyolilaridan biri bo‘lib, adabiyot va publitsistika sohalarida boy ilmiy meros qoldirgan. Uning maqolalari turli janrlarda yozilgan bo‘lib, mazmunan chuqur va uslubiy jihatdan boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada N.Jumaxo‘janing maqolalarini janr jihatdan tasniflash hamda ularning uslubiy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish maqsad qilingan.

Abstract: Nusratullo Jumahoja is one of the most prominent intellectuals of our time, leaving behind a rich scientific legacy in the fields of literature and journalism. His articles are written in various genres and are distinguished by their depth of content and methodological richness. This article aims to classify Jumahoja’s articles by genre and scientifically analyze their methodological features.

Аннотатсия: Нусратулла Джумахаджа – один из зрелых интеллектуалов нашего времени, оставивший богатое научное наследие в области литературы и журналистики. Его статьи написаны в различных жанрах и отличаются глубоким содержанием и богатым стилем. Целью данной статьи является классификатsiя статей Джумаходжи по жанрам и научный анализ их методологических особенностей.

Kalit so‘zlar: *Maqola, adabiyotshunoslik, til siyosati, Navoiyshunoslik, ijtimoiy hayot, janr, Matnshunoslik.*

KIRISH

Korpus lingvistikasi – matn (til / lingvistik) korpuslarini ishlab chiqish, yaratish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan soha, aniqroq aytganda, kompyuter lingvistikasining yo‘nalishi. Korpus lingvistikasi (corpus linguistics) termini ingliz tilidagi dastlabki korpuslarning yaratilishi bilan yuzaga kelgan.[1] Bu harakatlarga o‘sha davrda tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi sifatida qaralgan. Corpus linguistics termini dastlab 1963-yilda ingliz tilidagi korpuslarning yaratilishi bilan foydalanila boshlangan.[2]

Mualliflik korpusi muayyan bir muallif qalamiga mansub matnlar majmuasidan iborat tizim bo‘lib, asosan, yozuvchining yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlarini axborot texnologiyalari yordamida semantik tasniflab,

tadqiq etishga asoslangan elektron shakdagi ma’lumotlar bazasi sanaladi.[3] Mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi uning bazasida muayyan bir muallif asarlari jamlanadi, matnlar qayta ishlanadi, grammatik va semantik teglanadi, qidiruv tizimi orqali muallifga tegishli materiallardan zaruriy ma’lumotlar, lingvistik ifodalar aniqlanadi, matnlar asosida statistik ma’lumotlar taqdim etiladi, metama’lumotlar aniq beriladi.[4] Shunday qilib mualliflik korpusi keng imkoniyatli qidiruv tizimiga ega bo‘lib, muallif ijod qilgan barcha tur va janrdagi asarlar qamrab olinadigan, maxsus parametrlar asosida ham qidiruv imkoniyatiga ega, hajmi chegaralanmagan, muallif va uning ijodi bilan bog‘liq manbalarni qulay va tezkor olish mumkin bo‘lgan elektron ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

Nusratullo Jumaxo‘ja zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi sohalarida yetuk olim sifatida tanilgan. Uning ilmiy faoliyati, ayniqsa, Navoiyshunoslik yo‘nalishida muhim o‘rin tutadi. N.Jumaxo‘janing tadqiqotlari o‘zining ilmiy mukammalligi, konseptual yondashuvi hamda tarixiy-madaniy kontekstni chuqur anglashi bilan ajralib turadi. Olim tomonidan yozilgan maqolalar adabiyotshunoslik, va matnshunoslik, Navoiyshunoslik masalalarini qamrab olib, ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otgan. Uning “Munis lirikasi va peyzaj”, “Ustoz ijodi – mahorat maktabi (Munis va Ogahiy)”, “Bir nuqtada ming ma’no”, Huvaydo, “Yuksaklik badiiy mahoratda” singari maqolalari adabiyot nazariyasiga oid muhim jihatlarni ochib beradi. Ayniqsa, “Matnshunoslik yangilanmog‘i kerak” nomli maqolasi ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lib, matnshunoslik va filologiya sohasida tub islohotlar zarurati haqida fikr yuritilgan. Nusratullo Jumaxo‘ja ilmiy faoliyatida so‘zga bo‘lgan yuksak hurmat va mas’uliyatni namoyon etadi. Uning “Savodxonlik mezoni”, “Elga e’tibor – tilga e’tibor”, “Til huquqi – el huquqi” kabi maqolalarida til madaniyati, uning to‘G‘ri qo‘llanishi va ilmiy izlanishlar orqali til taraqqiyoti masalalari yoritilgan. Bu esa olimning faqat navoiyshunos emas, balki keng qamrovli filolog sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi. N.Jumaxo‘janing ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiy asarlarining matnshunoslik tahliliga alohida e’tibor qaratiladi. Uning “Ul sarvi gulro‘ kelmadi”, “G‘azali tadqiqi”, “Navoiy asarlarida mulkdorlik ma’naviyati” kabi maqolalari shoir ijodini yangicha ilmiy talqin etish borasida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Navoiyni anglash – o‘zlikni anglash” nomli tadqiqotida Navoiy merosining o‘zbek milliy o‘zligini shakllantirishdagi roli chuqur tahlil qilingan. Nusratullo Jumaxo‘janing ilmiy uslubi puxta va dalillarga asoslangan bo‘lib, uning har bir tadqiqoti adabiy merosni yangicha anglash va baholashga xizmat qiladi. Uning yondashuvi adabiyotshunoslik sohasida innovatsion metodlarni joriy qilishga intilishini ko‘rsatadi. Shu sababli, olimning ilmiy merosi nafaqat o‘zbek filologiyasi balki, umuman, turkiyshunoslik va sharqshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Nusratullo Jumaxo‘ja mualliflik korpusini yaratish orqali adabiy

merosni tizimli o‘rganishga erishiladi. Nusratullo Jumaxo‘janing ilmiy va publitsistik maqolalari, navoiyshunoslikka oid tadqiqotlari, matnshunoslikka bag‘ishlangan asarlari keng qamrovli bo‘lib, ularning barchasini yagona tizimga solish ilmiy tahlilni osonlashtiradi. Mualliflik korpusida muallif tilini to‘liq, batafsil, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o‘tay oladi[5]. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tillarini bilish imkoniyati mavjud. Mualliflik korpuslaridagi ma’lumotlarning ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi, unda berilgan ma’lumotlarning aniqliligi va ishonchliligini kafolatlaydi hamda lingvistik hodisalarning butun spektrini to‘liq aks ettirishi bilan ularni har tomonlama va obyektiv o‘rganishga imkon beradi. Bundan tashqari, til va uslubiy xususiyatlarni tahlil qilish orqali olimning asarlarida ilmiy uslub, lingvistik konstruksiyalar, terminologiya va konseptual qarashlar, olimning ilmiy tili va uslubi chuqur o‘rganilishi mumkin. [6] Yana bir asosiy sababi esa ma’lumki, Nusratullo Jumaxo‘janing ilmiy qarashlari va yondashuvlari nafaqat Navoiy asarlarini sharhlashda, balki umumiy matnshunoslik tamoyillarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, korpus orqali olimning Navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi aniqroq yoritishga erishish mumkin. Bugungi Sun’iy intellekt va raqamli filologiya rivojlanib borayotgan bir paytda olimning mualliflik korpusi kelajakda sun’iy intellekt asosida matn tahlili, stilometriya, avtomatik tarjima va matnni annotatsiya qilish kabi sohalarda foydalanish uchun zarur bo‘ladi. Nusratullo Jumaxo‘janing ilmiy merosini kelgusi tadqiqotchilar uchun tizimli holda taqdim etish, uning asarlarini yanada keng targ‘ib qilish va yangi ilmiy izlanishlarga zamin yaratish uchun muhimdir.Yuqoridagi sabablar Nusratullo Jumaxo‘ja mualliflik korpusini yaratishning dolzarbligini tasdiqlaydi va uni amalga oshirish adabiyotshunoslik va matnshunoslik sohalari uchun katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Olimning maqolalarini tahlil qilar ekanmiz, ularni quyidagi chizma asosida guruhlarga ajratdik.



Maqola bu muayyan mavzudagi tahliliy, ilmiy yoki jurnalistik fikrlarni bayon etuvchi matn turi bo‘lib, turli maqsadlarda yoziladi va o‘z mazmuniga ko‘ra bir

necha toifalarga bo‘linadi. Olimning ilmiy maqolalari ilmiy tadqiqot natijalarini yoritish, nazariy tahlillar qilish va yangi ilmiy qarashlarni ilgari surish ma’lum bir mavzu yoki ilmiy tushunchani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilishga asoslansa, tahliliy-tanqidiy maqolalarida esa mavjud ilmiy g‘oyalarga tanqidiy yondashib, ularni tahlil qilish va baholashga qaratiladi.

Ommabop maqolalari keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan mavzularni yorituvchi, olimning shaxsiy fikrlari va tahliliy yondashuvi aks etadi. N.Jumaxo‘janing maqolalarida quyidagi uslubiy xususiyatlar kuzatiladi:

Muallif maqolalarida ortiqcha so‘z ishlatmay, fikrni aniq va lo‘nda bayon etishga intilgan. Matnlarning mantiqiy tuzilishi va tushunarliligi yuqori darajada ta’minlangan. Bundan tashqari, tarixiy faktlar, ilmiy dalillar va hayotiy misollarga tayangan holda yozilgan bo‘lib, bu jihat maqolalarining ishonchli va ilmiy asoslangan material sifatida qabul qilish imkonini beradi. Har bir maqolada muallif o‘z shaxsiy qarashlarini ochiq bayon etib, o‘quvchiga ta’sir o‘tkazishga harakat qilishi maqolalarning publitsistik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Nusratullo Jumaxo‘janing maqolalari janr jihatidan xilma-xilligi, ilmiy va tahliliy yondashuvlarning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolalar nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun o‘quvchilari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. N. Jumaxo‘janing davlat tili bo‘yicha olib borgan ilmiy-amaliy tadqiqotlari milliy til siyosati va ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Nusratullo Jumaxo‘ja maqolalarining mavzulari xilma- xil va rang-barang bo‘lib, olim nafaqat adabiyot olamidagi har bir hodisaga, balki jamiyatdagi bo‘layotgan hodisalarga, til siyosatiga ham befaqr qarab turolmaydi, o‘z qarashini asosli va aniq yetkazadi. Nusratullo Jumaxo‘ja maqolalarini mavzulariga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratdik:

Adabiyotshunoslikka oid maqolalarda Bobur, Uvaysiy, Ogahiy, Mashrab, Huvaydo, Turdi FaroG‘iy Munis, Feruz va ko‘plab mumtoz adabiyot namoyondalari ijodini o‘rganadi va tahlil qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivoji, adabiy jarayonlar va badiiy asarlar haqida yozgan maqolalarida olimning klassik va zamonaviy adabiyot tahliliga katta e’tibor berishini kuzatishimiz mumkin.

Olim Alisher Navoiy merosini chuqur o‘rganib, uning asarlarining mazmuni, badiiy va lingvistik xususiyatlari haqida yozgan. Bu maqolalarda Navoiy ijodining zamonaviy adabiyotga ta’siri ham yoritiladi.

Navoiyshunoslikka oid mavzularida Navoiyning bir baytidan tortib, yirik dostonlarigacha, shaxsiyati va Navoiyshunoslikda olib borilayotgan ishlar va ularning salmog‘igacha o‘zing qarashlarini keltirib o‘tadi. “Navoiy va mulkdorlik ma’naviyati”, “Navoiyni anglash”, “Navoiy xazinasi”, “Navoiy qomusi yaratilmoqda”, “Lutfiyning lutfiga sazovor”, “Abadiy daho” kabi maqolalar aynan shular jumlasidan.

Matnshunoslikka oid maqolalarida eski o‘zbek adabiyoti matnlarini ilmiy nashrga to‘g‘ri tayyorlash, qo‘lyozmalarni tadqiq qilish va matnlarning tarixiy-lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga oid “G‘alati mashhurni ko‘paytirmaylik”, “Bahslar behuda ketmasin”, “Matnshunoslik umumfilologik faoliyat”, “Matn buzilsa”, “Matnshunoslik yangilanmog‘i kerak”, “Adash”tirmang” bag‘ishlangan.

Adabiy tanqidga oid maqolalarda zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillarining ijodi balki navoiyshunos olimlarning ijodiga ham tanqidiy fikr bildirib, adabiy jarayonga oid qarashlari ifodalangan.

Til siyosati va nutq madaniyati yo‘nalishidagi maqolalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu maqolalarda olim til siyosati, davlat tilining rivoji va nutq madaniyatining muhim jihatlariga e’tibor qaratadi. “Davlat tili millat sha’ni va G‘ururi”, “Istiqlol va ona tilimiz”, “Elga e’tibor, tilga e’tibor”, “Istiqlol tildan boshlangan”, “Jayxunning asliyati” kabi maqolalarini aynan shu guruhga kiritdik.

Jumaxo‘ja taniqli ijodkorlar va olimlar haqida yodnomalarini, shuningdek, yosh va taniqli ijodkorlarning ilmiy va badiiy asarlarga taqrizlar ham bergani uchun bir guruhni shunday nomladik.

Ijtimoiy hayotga oid “Simyog‘ochga chiqish sharmti?,” “Jenisbekning jonu jahoni”, “Ko‘chirmakashlik illat”, “Adolatli test taraqqiyot me’zoni”, “Mohi Ramazonki”, “Maktab islohoti-davr talabi”, “Huquqimiz alifbosi”, “Hashar majburiymi?” maqolalarida ijtimoiy adolat, madaniyat, ta’lim va boshqa dolzarb masalalar haqida fikr yuritilgan.

Nusratullo Jumaxo‘janing maqolalari keng qamrovli bo‘lib, ularning har biri o‘zbek adabiyoti va tilshunosligining turli sohalariga ba‘ishlangan. Uning asarlari bugungi kunda ham qimmatli ilmiy manba hisoblanadi.

XULOSA

Nusratullo Jumaxo‘janing maqolalarini o‘rganish, avvalo, uning ilmiy va publitsistik qarashlarini chuqur tahlil qilish, o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash uchun muhimdir. Olimning maqolalari adabiyotshunoslik, matnshunoslik, navoiyshunoslik, adabiy tanqid, til siyosati va nutq madaniyati hamda ijtimoiy hayot kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi. Bu yo‘nalishlarning har biri bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim bo‘lib, til va adabiyot taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tahlili va tushunilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, olimning mualliflik korpusini yaratish ilmiy-tahliliy tadqiqotlar uchun alohida ahamiyatga ega. Mualliflik korpusi N.Jumaxo‘janing ilmiy uslubi, til xususiyatlari va mavzu tanlashdagi o‘ziga xos yondashuvlarini tizimli o‘rganish imkonini beradi. Bu orqali uning ilmiy merosi nafaqat alohida maqolalar darajasida, balki umumiy ilmiy-madaniy jarayondagi o‘rni nuqtayi nazaridan ham baholanadi.

Umuman olganda, Nusratullo Jumaxo‘janing maqolalarining janr xususiyatlari va uslubi, ularning mavzu doirasi, dolzarbligi hamda mualliflik korpusining shakllantirilishi nafaqat filologik tadqiqotlar, balki til siyosati va adabiy tanqid sohalarida ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, uning asarlarini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi va Navoiyshunosligining yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliev B., Hamroeva Sh. Mualliflik korpusining maqsad va vazifalari / Til va adabiyot ta’limida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2018. – B. 170-172.
2. G‘ulomova N.S. Mualliflik korpuslarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati. /Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2022. B. 113-118.
3. A. Pawlowski, “Chronological corpora: Challenges and opportunities of sequential analysis. The example of ChronoPress corpus of Polish,” in *Conference: Digital Humanities 2016*, 2016, no. July, pp. 311–313.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 78.
5. Abdullaeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. aftoref. – Toshkent, 2022. – 54 b.
6. Abduraxmonova N. Elektron korpuslarning kompyuter modellari: Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 74 b.

AUDIOMATNLARDA MORFOLOGIK TAHLIL BOSQICHI

Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna,
mustaqil izlanuvchisi
urazaliyevam@nuu.uz
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada audiomatnlar asosida o‘zbek tilining morfologik tahlil bosqichlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan lingvistik va texnologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda audiomatnlarning murakkab fonetik va sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, avtomatik morfemik segmentatsiya, leksik analiz, grammatik kategoriya aniqlash va kontekstual morfologik disambiguatsiya bosqichlari alohida ilmiy metodologiya asosida bayon etilgan. Xususan, BERT arxitekturasiga asoslangan chuqur o‘rgatish modellarining o‘zbek tilidagi og‘zaki nutq korpusi (uzbekcorpus.uz hamda kun.uz transkriptlari) asosida sinovdan o‘tkazilishi natijasida yuqori aniqlikka ega morfologik tahlil tizimining yaratilishi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Abstract. This article analyzes linguistic and technological approaches aimed at an in-depth study of the morphological analysis stages of the Uzbek language based on audio texts. The research describes the stages of automatic morphemic segmentation, lexical analysis, grammatical category determination, and contextual morphological disambiguation, taking into account the complex phonetic and syntactic features of audio texts, based on a distinct scientific methodology. In particular, the development of a high-precision morphological analysis system has been theoretically and practically substantiated through testing deep learning models based on the BERT architecture using the Uzbek language oral speech corpus (transcripts from uzbekcorpus.uz and kun.uz).

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические и технологические подходы, направленные на углубленное изучение этапов морфологического анализа узбекского языка на основе аудиотекстов. В исследовании описываются этапы автоматической морфемной сегментации, лексического анализа, определения грамматических категорий и контекстуальной морфологической дисамбигуации с учетом сложных фонетических и синтаксических особенностей аудио текстов на основе специальной научной методологии. В частности, разработка высокоточной системы морфологического анализа была теоретически и практически обоснована путем тестирования моделей глубокого обучения на базе архитектуры BERT с использованием корпуса устной речи узбекского языка (транскрипции с uzbekcorpus.uz и kun.uz).

Kalit so‘zlar: *audiomatn, morfologik tahlil, fonetika, segmentatsiya, BERT, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), stilistika.*

Zamonaviy tilshunoslik, ayniqsa raqamli lingvistika va avtomatik nutqni qayta ishlash yo‘nalishlarida, audiomatnlarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Bunda nutq birligi sifatida shakllangan og‘zaki matnlar lingvistik struktura, grammatik qurilish va semantik qatlam nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, avtomatik nutqni aniqlash (ASR – Automatic Speech Recognition) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) tizimlari uchun audiomatnlarning grammatik strukturasini aniq belgilash texnologik jarayonning poydevoridir.

Audiomatnlarni morfologik jihatdan tahlil qilish ularning grammatik tuzilmasini aniqlashda muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda audiomatnlar transkripsiya qilinib, so‘zlar morfemalarga ajratiladi va har bir morfema grammatik kategoriyalar nuqtai nazaridan belgilab chiqiladi.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, o‘zbek tili agglutinativ til bo‘lgani sababli morfologik tahlilda affiksal ko‘rsatkichlarning roli beqiyosdir. Audiomatnlarda morfologik tahlil bosqichi ularning tarkibiy qismlarini aniqlash, grammatik birliklar va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatish, shu bilan birga morfemik strukturalarni avtomatlashtirilgan tarzda ajratishga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘zbek tilining lingvistik xususiyatlarini chuqur aks ettirib, til korpuslarini boyitishga hamda sun’iy intellekt asosidagi til modellari uchun mustahkam asos yaratadi [1].

Morfologik tahlil natijalari asosida korpusga morfologik teglar biriktiriladi. Bu esa til korpusining yanada boyitilishiga va avtomatik analiz tizimlarining takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

Audiomatnlarda morfologik tahlil bosqichi — tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar uchun til materialining grammatik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlovchi eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu tahlilning asosiy vazifasi — og‘zaki nutqda shakllangan til birliklarini transkripsiya qilish, ularni morfemalarga ajratish va grammatik kategoriyalar asosida teglash orqali ularning funksiyalarini aniqlashdir.

Birinchi bosqich *transkripsiya* bo‘lib, audiomatn fonetik shakldan ortografik (yozma) shaklga ko‘chiriladi. Bu jarayonda real talaffuzdagi ohanglar, urg‘ular, qisqarishlar, eliziyalar va boshqa artikulyator xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan, uzbekcorpus.uz platformasidagi audiomatnlarda “ketayotgan” fe’lining og‘zaki shakli [ket’yotgan] tarzida transkripsiya qilinadi. Nutq tezligi, urg‘u o‘zgarishi va regional talaffuz bu bosqichga bevosita ta’sir qiladi [1]. Shu bois, transkripsiyalashda avtomatik vositalardan tashqari lingvistik ekspertizaga asoslangan tekshiruv ham zarur.

Bugungi kunda transkripsiyani avtomatlashtirish bo‘yicha jahon tajribasida bir nechta ilg‘or modellar mavjud. Masalan, Mozilla’ning DeepSpeech, Metaning wav2vec 2.0 yoki Kaldi kabi ochiq kodli ASR (Automatic Speech Recognition) modellar audiomatnni yozma matnga aylantirishda keng qo‘llaniladi [2]. Ushbu modellar o‘zbek tiliga moslashtirilsa, transkripsiya jarayoni yanada avtomatlashtirilgan va sifatli amalga oshirilishi mumkin.

Transkripsiyadan keyingi bosqich *morfemik tahlil* hisoblanadi. Bu bosqichda matndagi har bir so‘z grammatik birliklarga — morfemalarga — ajratiladi va ular grammatik kategoriya bo‘yicha belgilanadi. Masalan, “qilolmayapti” fe’li uzbekcorpus.uz korpusida qil+OL+NEG+PROG+3SG tarzida teglanadi: OL — imkon, NEG – inkor, PROG – hozirgi davomiy zamon, 3SG – uchinchi shaxs, birlik[3]. Bu kabi tahlillar [4] affiksal tizim tasnifiga to‘liq mos keladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, fonetik jihatdan qisqargan shakllar morfemik tahlil jarayonida noto‘g‘ri ajratilish xususiyatiga ega. Masalan, “kelayotgan edi” so‘z birikmasi og‘zaki shaklda [kelyatkanidi] tarzida transkripsiya qilinadi. Bunday hollarni aniqlash uchun fonetik-morfologik segmentatsiya modellari (Foneme2Morph) ishlab chiqilmoqda. Ular tovushlar ketma-ketligidan morfemalarni ajratib olish imkonini beradi[5].

Audiomatnlarda morfologik tahlil ikki komponent — fonetik va grammatik komponentlarning uyg‘un ishlashini talab qiladi. Bu uyg‘unlik transkripsiyadan boshlab teglashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda aniqlik, tizimlilik va tilshunoslikka asoslangan yondashuvni talab etadi.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, agglutinativ tillar qatoriga kiradi. Agglyutinativlik hodisasi orqali so‘z asoslariga grammatik ma’no ifodalovchi affikslar qatma-qat qo‘shilib, yangi shakllar va ma’nolar hosil bo‘ladi hamda bunda so‘z negizlari o‘zining shakliy va ma’noviy mustaqilligini saqlab qoladi. Har bir affiks o‘zining alohida grammatik funksiyasiga ega bo‘lib, mustaqil morfema sifatida ko‘riladi[4].

Agglutinativ tillarning asosiy xususiyati shundan iboratki, har bir qo‘shimcha faqat bitta grammatik ma’noni ifodalaydi va ularni so‘z tarkibida aniq farqlash mumkin; bu esa morfologik tahlil jarayonini ancha soddalashtiradi. Ushbu jihatdan agglutinativ tillar flektiv tillardan farqlanadi, chunki flektiv tillarda bir qo‘shimcha bir nechta grammatik ma’noni ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi va morfemalar orasidagi chegaralar unchalik aniq emas[6].

Masalan, “boryapman” fe’l shaklini morfologik tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi morfemalarni ajratish mumkin: bor — fe’l asosi (leksik morfema); -ya — davomiylik morfemasi; -p — shaxs qo‘shimchasidan oldingi fonetik ko‘makchi; -man — 1-shaxs, birlik ko‘rsatkich morfemasi.

O‘zbek tilining agglutinativlik xususiyatini kuzatishda uzbekcorpus.uz platformasida mavjud misollardan foydalanish mumkin bo‘lib, bu til materiallari va ularning tahlillarini yanada boyitishga yordam beradi:

“O‘qiyotganimda” so‘z shakli quyidagicha tahlil qilinadi: o‘qi (fe’l asosi), -yot (davomiylik), -gan (sifatdosh yasovchi qo‘shimcha), -im (egalik), -da (kelishik qo‘shimchasi).

“Bilimdonligimizdan” shakli: bilim (ot), -don (sifat yasovchi qo‘shimcha), -lik (abstrakt ot yasovchi qo‘shimcha), -imiz (egalik ko‘plik shakli), -dan (kelishik).

“Mustaqilligimizning” shakli: mustaqil (sifat), -lik (abstrakt ot yasovchi), -imiz (egalik), -ning (qaratqich kelishik).

Ushbu xususiyat tufayli o‘zbek tilida so‘z hosil qilish imkoniyatlari kengayib, lug‘at tarkibi boyitiladi hamda grammatik shakllar aniq ifodalangan holda yuzaga keladi, shuningdek, so‘z yasash jarayonida aniqlik va tizimlilik ta’minlanadi. Jahon tilshunosligida ham agglutinativ tillarning morfologik tuzilishi va xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar morfemalar orasidagi munosabatlar va ularning morfologik strukturalarini batafsil ochib beradi [7].

Demak, o‘zbek tilining agglutinativ tabiati uning morfologik tizimini boyitib, tilning ekspressivligini va so‘z hosil qilishdagi imkoniyatlarini oshiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilida affiksal morfemalar so‘z shakllariga grammatik ma’no yuklashda muhim vosita hisoblanadi. Ular tilshunoslikning morfologiya bo‘limida markaziy o‘rin tutadi. Affiksal ko‘rsatkichlar yordamida so‘zlarning zamon, shaxs, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga mansubligi belgilanadi [8].

Birinchidan, affikslar orqali **zamon** kategoriyasi ifodalanadi. Masalan, fe’lga qo‘shilgan -di, -moqda, -adi, -yapti kabi affikslar harakatning vaqt shaklini bildiradi: *bordim*, *ketmoqda*, *boradi*, *kelayapti* kabi.

Ikkinchidan, affiksal morfemalar **shaxs va son**ni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan: *keladi* (3-shaxs, birlik), *kelamiz* (1-shaxs, ko‘plik), *kelasanlar* (2-shaxs, ko‘plik) shakllarida bu grammatik ma’no affikslar orqali beriladi [9].

Uchinchidan, **egalik kategoriyasi** o‘zbek tilida egaga tegishlilikni bildiruvchi affikslar yordamida ifodalanadi: *kitobim* (1-shaxs, birlik), *kitobing* (2-shaxs, birlik), *kitoblari* (3-shaxs, ko‘plik) kabi shakllar buning yaqqol namunasidir [10]. Shuningdek, **kelishik kategoriyasi** ham affikslar orqali amalga oshiriladi: *kitobni* (tushum), *kitobga* (jo‘nalish), *kitobdan* (chiqish) va hokazo.

Affikslarning o‘zaro kombinatsiyalanishi esa grammatik jihatdan murakkab sintaktik tuzilmalarni yaratishga imkon beradi. Masalan, *yozayotgan edim* shaklida

-ayotgan davomiylikni, -edi o'tgan zamonni, -m esa 1-shaxs birlikni bildiradi [11]. Bu kabi murakkab morfologik birliklar, nutqiy faoliyatda ifoda aniqligi va ma’no aniqligini ta’minlaydi.

O‘zbek tilidagi affiksal ko‘rsatkichlar zamon, shaxs, son, egalik va kelishik kategoriyalarini shakllantirish va ifodalashda asosiy grammatik vosita hisoblanadi. Bunday tahlillar uzbekcorpus.uz platformasida mavjud audiomatnlar misolida yanada chuqurroq tadqiq qilinishi mumkin bo‘lib, amaliy tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Til korpuslari hozirgi zamon lingvistik tadqiqotlarining muhim qismi sifatida tilshunoslik sohasida keng qo‘llanib kelmoqda. Har bir morfemalangan so‘z teglar bilan belgilanishi morfologik tahlilning avtomatlashtirilishi uchun asos hisoblanadi. Ushbu jarayon avtomatik tizimlar orqali amalga oshirilishi esa korpuslarning samarali boyitilishi va leksik-semantik tahlillar sifatining oshishiga xizmat qiladi [12].

Morfologik teglash tizimi so‘zlarning tarkibiy qismlariga ajratilib, morfemalar darajasida tahlil qilinishiga asoslangan bo‘lib, har bir ajralgan morfema maxsus morfologik teglar bilan belgilab chiqiladi. O‘zbek tilida ishlab chiqilgan morfologik teglar tizimi jahon miqyosida keng tarqalgan Universal Dependencies (UD) [13] formatiga asoslangan holda moslashtirilmoqda. Bu esa xalqaro lingvistik standartlarga mos keluvchi, shuningdek, o‘zbek tilining morfologik xususiyatlarini to‘liq aks ettiruvchi tizim yaratilishini ta'minlaydi.

Masalan, quyidagi shaklni ko‘rib chiqaylik:

borayapman → bor+VA+PROG+1SG

Bu yerda:

VA — fe’l asos;

PROG — hozirgi davomiy zamon shakli;

1SG — birinchi shaxs, birlik shakli.

Bu kabi teglash amaliyotining afzalligi shundaki, murakkab grammatik tuzilishlar avtomatik tarzda aniqlanib, tizim yordamida morfologik jihatdan to‘g‘ri segmentatsiyalanadi. Bu o‘z navbatida, so‘zlarning grammatik va leksik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbek tilida morfologik tahlil uchun quyidagi boshqa misollarni ham keltirish mumkin:

“yozmoqda” → yoz+VA+PROG+3SG

“kelishmoqda” → kel+VA+PROG+3PL

“o‘qidim” → o‘qi+VA+PST+1SG

uzbekcorpus.uz platformasi asosida olingan quyidagi misollar ham buni tasdiqlaydi:

“Gapirib turibman” → gapir+VA+CONV+tur+VA+PROG+1SG

“Ko‘rib chiqamiz” → ko‘r+VA+CONV+chiq+VA+FUT+1PL

“O‘ylab ko‘raman” → o‘y+VA+CONV+ko‘r+VA+PRES+1SG

Morfologik tahlilning avtomatik tarzda amalga oshirilishi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi ko‘plab vazifalarni (masalan, sintaktik va semantik tahlillar, matnlarni avtomatik ravishda klassifikatsiya qilish va boshqalar) bajarishni ancha osonlashtiradi. Bu jihatdan qaralganda, avtomatik teglash tizimlarining til korpuslari yaratish va rivojlantirishdagi roli nihoyatda katta [14].

Bundan tashqari, morfologik teglash yordamida turli murakkab tuzilmalar va shakllar avtomatik tarzda aniqlanadi, bu esa tilni o‘rganish, mashinali tarjima tizimlarini rivojlantirish va nutqni tanish texnologiyalarini yaratishda muhim imkoniyatlar ochadi [15]. Jumladan, o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan zamonaviy morfologik tahlil tizimlari lemmatizatsiya (asos shaklini aniqlash) va annotatsiya jarayonlarini samarali tarzda bajarishga imkon beradi.

Shunday qilib, morfologik teglar va avtomatik teglash tizimlaridan foydalanish o‘zbek tilining lingvistik tadqiqotlarida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash bilan birga, tahlil sifatini oshirish va tilni chuqurroq tadqiq etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy lingvistika fanida til tizimining turli darajalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Ayniqsa, fonetika va morfologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik til birliklarini aniqlash, tahlil qilish va sun’iy intellekt asosidagi til texnologiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Og‘zaki nutqda yuz beradigan fonetik o‘zgarishlar, aksariyat hollarda, morfemalarning shaklan buzilishiga yoki noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. Bu holat ayniqsa morfemik segmentatsiya, avtomatik transkripsiya va lemmatizatsiya jarayonlarida ko‘zga tashlanadi. Fonetik variantliklar, ya’ni so‘z yoki so‘z birikmalarining talaffuzda fonologik shakli buzilishi, morfemik chegaralarni aniqlashni murakkablashtiradi.

Tilning fonetik va morfologik qatlamlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, og‘zaki nutq jarayonida ro‘y beradigan fonetik hodisalar morfemalarning sirtqi shakli, tuzilishi va qo‘llanish sohalariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Bu holat ayniqsa nutqni avtomatik tahlil qilish, morfemalarni aniqlash va matnni tilshunoslik yondashuvida strukturaviy tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu fonetik hodisalar **kun.uz** saytida e’lon qilingan materiallar asosida tahlil qilinadi:

1. Qisqarish (eliziya) - bu og‘zaki nutqda tovushlarning tushib qolishi orqali so‘z shaklining o‘zgarishi hodisasi bo‘lib, u ko‘pincha nutq tezligining oshishi, talaffuz qulayligi yoki nutqiy stereotiplar ta’sirida yuzaga keladi. Eliziya natijasida ayrim morfemalar o‘zining to‘liq shaklida emas, balki qisqa yoki o‘zgargan variantda namoyon bo‘ladi. **Misol uchun:** “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrif buyurdi” matni og‘zaki nutqda ko‘pincha ***[Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrif buyurdi]*** tarzida aytiladi. Bu yerda “O‘zbekiston Respublikasi” qisqargan, biroq mazmun o‘zgarmagan. Bu morfologik jihatdan determinativ qismni fonetik jihatdan inkorporatsiyalash natijasidir[16].

2. Assimilatsiya — bu qo‘shni tovushlarning o‘zaro ta’siri natijasida bir tovush ikkinchisiga moslashib o‘zgarishidir. Bu holat ayniqsa morfema chegaralarida ko‘proq kuzatiladi. Fonetik o‘zgarish morfemalarning aniq chegaralarini aniqlashda noaniqliklar tug‘diradi. **Misol uchun:** “...Prezident Shavkat Mirziyoyev respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar...” jumlasidagi “respublikamizda” so‘zi tez aytilganda ***[rezpublikamizda]*** yoki ***[rezbulikamizda]*** tarzida talaffuz qilinishi mumkin, bu esa [s] tovushining [b] yoki [z] tovushlariga moslashganligini ko‘rsatadi[17].

3. Koitasiya (so‘zlar fonetik birikmasi) – bu so‘zlar orasidagi fonetik chegaraning yo‘qolib, bir butun ohangda aytilishi hodisasidir. Bu hodisa bog‘lovchi morfemalarning nutqdagi ifodalanishiga bevosita ta’sir qiladi. **Misol uchun:** “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrif buyurdi” jumlasi og‘zaki nutqda ***[O‘zbekistonrespublikasiprezidentishavkatmirziyoyevsamarqandgatoshifbuyurdi]*** tarzida uzluksiz aytilishi mumkin. Bu yerda morfemalar o‘zining fonetik chegarasini yo‘qotib, murakkab fonetik birlikni hosil qiladi[18].

4. Urg‘u o‘zgarishi (intonatsion siljish) – gapdagi yoki so‘zdagi muhim qismlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiluvchi prosodik vosita hisoblanadi. Urg‘uning o‘zgarishi ayrim morfemalarning semantik yukini oshirish yoki kamaytirishga olib keladi. **Misol uchun:** “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** Samarqandga tashrif buyurdi” gapidagi urg‘uning “Shavkat Mirziyoyev”ga tushishi bu shaxsga urg‘u berilganligini ko‘rsatadi. Ammo matn intonatsiyasida “Prezidenti” so‘ziga urg‘u berilsa, bu lavozimga urg‘u bergan bo‘ladi: ***“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev...”***[16].

5. Epenteza (tovush qo‘shilishi) — bu fonetik muvozanatni saqlash yoki talaffuzni qulaylashtirish maqsadida so‘z yoki morfema tarkibiga ortiqcha tovushning kirib kelishi hodisasidir. Bu holat ayrim morfemalarning fonetik ko‘rinishini o‘zgartiradi, ayniqsa og‘zaki nutqda aniqlik pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. **Misol uchun:** “Ular yirik investitsiyalarni jalb qilishga erishmoqchi”

jumlasidagi “jalb” fe’li og‘zaki nutqda ***[jalib]*** tarzida talaffuz qilinadi. Bu yerda /i/ tovushining ortiqcha kiritilishi orqali fonetik yumshatish amalga oshgan va bu morfemaning sirtqi shakliga ta’sir qilgan[19].

6. Metateza (tovushlarning o‘rin almashuvi) — bu tovushlarning o‘zaro o‘rin almashtirishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Og‘zaki nutqda tez va emotsional tarzda so‘zlashish natijasida bunday holatlar kuzatiladi va bu morfemalarning standart shaklidan og‘ishini bildiradi. ***Misol uchun*:** “Shartnomani buzgan tomon javobgarlikka tortiladi” jumlasidagi “shartnoma” so‘zi ayrim hollarda og‘zaki nutqda ***[sharntoma]*** tarzida talaffuz qilinadi. Bu tovushlar o‘rnining almashishi orqali morfemaning fonetik tuzilishi buziladi, bu esa morfologik tahlilda qiyinchilik tug‘diradi[20].

7. Reduksiya (tovushning zaiflashuvi yoki tushishi) — bu urg‘usiz holatda tovushlarning zaiflashuvi yoki butunlay tushib qolishidir. Bu hodisa morfemalarning to‘liq shaklini saqlab qolmasdan, qisqartirilgan shakllarda nutqda ishtirok etishiga olib keladi. **Misol uchun:** “Prezident tashabbusi bilan yangi loyiha ishga tushirildi” gapidagi “tashabbusi” so‘zi tez aytilganda ***[tashabsi]*** tarzida qisqarib aytilishi mumkin. Bu yerda [u] tovushining reduksiyaga uchragani morfemaning sirtqi shaklini buzadi[21].

8. Tilshunoslikda fonetik variantlarning morfologik neutralizatsiyasi. Ba’zi fonetik o‘zgarishlar natijasida bir necha morfema shakllari fonetik jihatdan bir hil eshitilishi mumkin. Bunday holatda morfologik ajratish qiyinlashadi. Bu tilshunoslikda ***morfologik neutralizatsiya*** deb ataladi. **Misol uchun:** “Yangi korxonalar tashkil etiladi” va “Yangi korxonani tashkil etadi” jumlalaridagi “etiladi” va “etadi” fe’llari og‘zaki nutqda tez aytilganda ***[etadi]*** tarzida yangraydi, natijada zamon va nisbat farqlari fonetik jihatdan yo‘qoladi va morfologik ajratish imkonsizlashadi[22].

Yuqorida tahlil qilingan fonetik hodisalar – epenteza, metateza, reduksiya va morfologik neutralizatsiya – morfemalarning og‘zaki nutqdagi shakllanishiga va ulardan mazmuniy birlik sifatida foydalanish jarayoniga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, fonetik o‘zgarishlarning morfologiyaga ta’sirini aniqlash faqat nazariy tilshunoslik uchun emas, balki tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik morfologik tahlil, nutqni tanish va matnni kodlash kabi amaliy sohalar uchun ham muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilida og‘zaki nutqda yuzaga keladigan fonetik o‘zgarishlar morfemalarning to‘liq yoki an’anaviy shaklini buzadi. Bu holat, ayniqsa, **korpus lingvistikasi**da avtomatik morfologik tahlil tizimlari uchun muammo tug‘diradi. Masalan**, uzbekcorpus.uz** platformasida matnli ma’lumotlar yozma shaklda mavjud bo‘lsada, ushbu matnlarda aks ettirilgan og‘zaki nutq elementlari (yoki og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan fonetik variantlar) tahlil qilinayotganda noto‘g‘ri morfologik ajratmalarga olib kelishi mumkin. Kun.uz saytida e’lon qilingan maqolada:

“Loyihaga jalb etilgan xorijiy investorlar...” Ushbu gap og‘zaki nutqda ko‘pincha quyidagi tarzda ifodalanadi: ***[Loyihaga jalib qilgan xorijiy investorlar...]*** Bu yerda “jalb” fe’lining **epentezaga** uchrashi (ya’ni “jalib”) morfologik tahlil tizimlari uchun bu so‘zni yangi morfema deb qabul qilish ehtimolini kuchaytiradi. Bu esa morfologik xatoliklar sonini oshiradi.

Audiomatnlarda morfologik tahlil bosqichi nutq birliklarini grammatik jihatdan strukturaviy tahlil qilish, ularni yozma korpusga moslashtirish va avtomatik tizimlar uchun ma’lumotlar bazasi sifatida tayyorlash imkonini beradi. Ushbu bosqich, ayniqsa, tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash (NLP) sohasida tilshunoslikka oid chuqur bilimlar bilan uyg‘un holda amalga oshirilganda, til birliklarini aniq identifikatsiya qilish, ularning grammatik shakllarini ajratish va tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbek tilining agglutinativ xususiyati, ya’ni grammatik ma’no va vazifalarni ko‘rsatishda affikslarning izchilligi orqali amalga oshirilishi, morfologik tahlilni yanada murakkablashtiradi. Shu bilan birga, fonetik o‘zgaruvchanlik – ya’ni affikslar yoki asoslarning talaffuzdagi o‘zgarishi (masalan, tovush tushishi, assimilatsiya, dissimilatsiya) – avtomatlashtirilgan tahlil jarayonida hisobga olinishi kerak bo‘lgan muhim omildir. Aynan shu nuqtalarda morfologik tahlilning puxta ishlab chiqilgan modelga asoslanishi zarur bo‘ladi.

uzbekcorpus.uz platformasi bu borada amaliy tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. U yirik va xilma-xil matnlar asosida tuzilgan bo‘lib, so‘z shakllarining real qo‘llanilish namunalari bilan ta’minlaydi. Bu esa nafaqat morfologik tahlilning avtomatlashtirilgan modelini ishlab chiqishda, balki fonetik o‘zgarishlarning statistik tahlilini olib borishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Platformadagi ma’lumotlar morfologik tahlil bosqichining ishonchliligini oshirish bilan birga, algoritmlarni o‘rgatishda sifatli tayanch korpus sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova, N. (2021). O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
2. Baevski, A., Zhou, Y., Mohamed, A., & Auli, M. (2020). wav2vec 2.0: A framework for self-supervised learning of speech representations. arXiv preprint arXiv:2006.11477.
3. Tursunov, J. (2023). "Audiomatnlar va zamon shakllari." O‘zbek tilshunosligi jurnali, №2, 45–53.
4. Mahmudov, N. (2015). O‘zbek tili morfologiyasi: affiksal tizim va uning amaliy tahlili. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 45b.
5. Cotterell, R., Kirov, C., Sylak-Glassman, J., & Eisner, J. (2015). Morphological segmentation for low-resource languages: Challenges and strategies.

Proceedings of the NAACL Workshop on Computational Morphology and Phonology.

6. Haspelmath, M., & Sims, A. D. (2010). Understanding Morphology (2nd ed.). London: Hodder Education. – 67b.

7. Johanson, L., & Csató, É. Á. (2021). Turkic Languages. 2nd edition. London: Routledge. DOI: https://doi.org/10.4324/9780429025569 – 120b.

8. Mahmudov N., Nurmonov A. (2007). O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: Fan. — 134–137-bb.

9. Saidova Z. (2015). Hozirgi o‘zbek tilining funksional grammatikasi. Toshkent: Akademnashr. — 93b.

10. Abdullayev F. (2021). O‘zbek tilida affikslarning semantikasi. Toshkent: Fan. — 57b.

11. Mirtojiev M. (2010). O‘zbek tilida grammatik shakllar va kategoriyalar. Toshkent: Universitet. — 112-bet.

12. Manning, C. D., & Schütze, H. (1999). Foundations of Statistical Natural Language Processing. Cambridge, MA: MIT Press. Relevant content: Chapter 11 – Part-of-Speech Tagging. – 341-345b.

13. Nivre, J., de Marneffe, M. C., Ginter, F., Goldberg, Y., Hajic, J., Manning, C. D., ... & Zeman, D. (2016). Universal dependencies v1: A multilingual treebank collection. Proceedings of the Tenth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC'16), 1659-1666.

14. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2020). Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition (3rd ed.). New Jersey: Prentice Hall. – 164-170b.

15. Habash, N. Y. (2010). Introduction to Arabic Natural Language Processing. Morgan & Claypool Publishers. – 61-66b.

16. “Shavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrif buyurdi”, kun.uz, 2023-yil 12-oktabr.

17. “Prezident islohotlar haqida fikr bildirdi”, kun.uz, 2024-yil 1-mart.

18. “Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi farmonni imzoladi”, kun.uz, 2023-yil 5-noyabr.

19. “Prezident investitsiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratmoqda”, kun.uz, 2024-yil 14-fevral.

20. “Shartnoma talablari buzilgan taqdirda...”, kun.uz, 2023-yil 9-iyun. [https://kun.uz/News/2023/06/09/shartnoma]

21. “Prezident tashabbusi bilan qator loyihalar amalga oshirildi”, kun.uz, 2023-yil 20-aprel. [https://kun.uz/News/2023/04/20/tashabbus]

22. “Yangi korxonalar tashkil etiladi”, kun.uz, 2023-yil 7-sentabr. [https://kun.uz/News/2023/09/07/korxona]

23. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In:

Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018).

24. Kubedinova L. Khusainov A., Suleymanov D., Gilmullin R., Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020) .2020/11: 90-101.

25. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.

26. N. Abdurakhmonova, U. Tuliyev and A. Gatiatullin, "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670043.

TARJIMA NAZARIYASIDA PARALLEL MATNLARNING AHAMIYATI

Asqarova Madina Boymurod qizi,
Tayanch doktorant,
madina.asqarova.315@gmail.com
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va amaliyotida parallel matnlarning muhim jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, parallel matnlarning turlari, ularning qiyosiy tahlili hamda tarjima sifatini oshirishda uslubiy qo‘llanma ekanligi ko‘rib chiqiladi. Parallel matnlarning tarjima universallarini aniqlash, tarjima texnologiyalarini rivojlantirish va tarjimonlarni tayyorlashdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Shu bilan bir qatorda parallel korpuslarning hisoblash lingvistikasi va madaniyatlararo muloqot tadqiqotlariga ta’siri muhokama qilinadi.

Annotation: This article explores the crucial role of parallel texts in translation theory and practice. It examines various types of parallel texts, their applications in contrastive analysis, translation quality assessment, and corpus-based studies. The paper discusses how parallel texts contribute to understanding translation universals, developing translation technologies, and enhancing translator training. Furthermore, it analyzes the impact of parallel corpora on computational linguistics and cross-cultural communication studies.

Аннотация: В данной статье рассматривается ключевая роль параллельных текстов в теории и практике перевода. Исследуются различные типы параллельных текстов, их применение в сопоставительном анализе, оценке качества перевода и корпусных исследованиях. В работе обсуждается, как параллельные тексты способствуют пониманию переводческих универсалий, развитию технологий перевода и совершенствованию подготовки переводчиков. Кроме того, анализируется влияние параллельных корпусов на компьютерную лингвистику и исследования межкультурной коммуникации.

Kalit so‘zlar: *parallel matnlar, tarjima nazariyasi, qiyosiy tahlil, korpus lingvistikasi, tarjima universallari, mashinali tarjima, tarjimon tayyorlash.*

Tarjima nazariyasi va amaliyotida parallel matnlarning o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Parallel matnlar - bu asl matn va uning bir yoki bir nechta tillardagi tarjimalaridan iborat bo‘lgan matnlar to‘plamidir. Ular tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot sohalarida keng qo‘llaniladigan muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada parallel matnlarning tarjima nazariyasidagi o‘rni, ularning turlari, qo‘llanilish sohalari va ahamiyati batafsil ko‘rib chiqiladi. Parallel matnlar ikki yoki undan ortiq tildagi ekvivalent matnlardan iborat bo‘lib, ular odatda jumlama-jumla yoki paragrafma-paragraf moslashtirilgan

bo‘ladi. Bu matnlar tarjima jarayonini o‘rganish, tillararo farqlarni aniqlash va tarjima sifatini oshirish uchun boy material taqdim etadi.

Parallel matnlarning bir nechta asosiy turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ikki tilli parallel matnlar: Bular eng keng tarqalgan tur bo‘lib, asl matn va uning boshqa tildagi tarjimasidan iborat.

2. Ko‘p tilli parallel matnlar: Bunday matnlar asl matn va uning bir nechta tillardagi tarjimalarini o‘z ichiga oladi. Ular turli tillar o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash uchun ayniqsa foydalidir.

3. Qayta tarjima qilingan matnlar: Bir asarning turli davrlarda yoki turli tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini o‘z ichiga oladi. Bu tur "qayta tarjima gipotezasi"ni tekshirish va vaqt o‘tishi bilan tarjima sifatining o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi.

4. Psevdo-parallel matnlar: Turli tillarda yozilgan, ammo bir xil mavzuga oid matnlardir. Ular turli madaniyatlarda o‘xshash mavzularning qanday yoritilishini o‘rganish uchun foydalidir [1].

Parallel matnlar tarjima nazariyasi va amaliyotida keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy qo‘llanilish sohalariga quyidagilar kiradi:

1. Qiyosiy tahlil: Parallel matnlar turli tillarning grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlarini qiyoslash imkonini beradi. Bu tillar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tushunish uchun muhimdir.

2. Tarjima sifatini baholash: Parallel matnlar tarjima sifatini baholash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular asl matn va tarjima o‘rtasidagi ekvivalentlikni, mazmun va uslubning saqlanishini tekshirish imkonini beradi.

3. Korpus lingvistikasi: Parallel matnlar katta hajmdagi lingvistik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan parallel korpuslarni yaratishda asosiy manba hisoblanadi. Bu korpuslar tarjima universaliyalarini o‘rganish, so‘z va iboralarning tarjima ekvivalentlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

4. Tarjimon tayyorlash: Tarjima o‘qitish jarayonida parallel matnlar qimmatli resurs hisoblanadi. Ular yordamida talabalar amaliy tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirish, turli tarjima muammolarini hal qilish usullarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, parallel matnlar tarjima nazariyasi bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlashda ham samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

5. Mashinali tarjima: Parallel matnlar mashinali tarjima tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular statistik va neyron tarjima modellarini o‘qitish uchun zarur ma’lumotlarni ta’minlaydi.

6. Leksikografiya: Parallel matnlar ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzishda qo‘llaniladi. Ular so‘z va iboralarning kontekstdagi qo‘llanilishini va ularning turli tillardagi ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi.

Parallel matnlar tarjima nazariyasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Parallel matnlar turli tillarda va turli tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda kuzatiladigan umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bu tarjima universaliyalari nazariyasini rivojlantirishga yordam beradi [2]. Parallel matnlar tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan turli strategiyalarni, jumladan, konkretlashtirish, umumlashtirish, kompensatsiya va boshqalarni o‘rganish imkonini beradi. Bu tarjima jarayonini chuqurroq tushunishga olib keladi. Parallel matnlar turli madaniyatlarga xos bo‘lgan tushunchalar, metaforalar va iboralarning tarjimada qanday uzatilishini kuzatish imkonini beradi. Bu madaniyatlararo muloqot nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Parallel matnlar turli darajadagi ekvivalentlikni (so‘zma-so‘z, grammatik, semantik, pragmatik) o‘rganish imkonini beradi. Bu E. Nida tomonidan taklif etilgan “formal ekvivalentlik” va “dinamik ekvivalentlik” tushunchalarini yanada chuqurroq tadqiq etishga yordam beradi [3]. Tarjima sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish: Parallel matnlar tarjima sifatini baholashning obyektiv mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. J. House ta’kidlaganidek, “tarjima sifatini baholash uchun asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish zarur” [4].Tarjima jarayonini modellashtirish: Parallel matnlar tarjima jarayonining turli bosqichlarini, jumladan matnni tushunish, qayta ifodalash va tahrir qilish bosqichlarini o‘rganish imkonini beradi. Bu D. Gile tomonidan taklif etilgan “tarjima harakatlari modeli”ni yanada takomillashtirish imkonini beradi [5]. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan parallel matnlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Elektron parallel korpuslar yaratilishi tarjima nazariyasi sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ular yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va samarali tahlil qilish, statistik ma’lumotlar olish va turli gipotezalarni tekshirish mumkin. Parallel matnlar tarjimonlik ta’limida keng qo‘llaniladi. K. Nord ta’kidlaganidek, “parallel matnlarni tahlil qilish orqali talabalar turli tarjima muammolarini hal qilish yo‘llarini o‘rganadilar” [6]. Tarjima texnologiyalari: Parallel matnlar tarjima xotirasini yaratish va mashinali tarjima tizimlarini o‘qitish uchun asosiy manba hisoblanadi. F. Zanettin bu haqda shunday yozadi: “Parallel korpuslar zamonaviy tarjima texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi”[7]. Parallel matnlar ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzishda qo‘llaniladi. M. Rundell ta’kidlaganidek, “parallel korpuslar lug‘at tuzuvchilarga so‘z va iboralarning real qo‘llanilishini va ularning ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi” [8]. Parallel matnlar turli tillarning grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish uchun boy material taqdim etadi. S. Johansson bu haqda shunday yozadi: “Parallel korpuslar tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini

aniqlashda bebaho manba hisoblanadi”. Parallel matnlar tarjima va til o‘rganish dasturlarini yaratish va takomillashtirishda ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular sun’iy intellekt va mashinali tarjima tizimlarini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasini tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida tarjima nazariyasi va amaliyotining yangi yo‘nalishlarini shakllantirishga olib kelmoqda. M. Baker ta’kidlaganidek, “Parallel matnlar tarjima jarayonini va natijasini tushunishda muhim vosita hisoblanadi”. Ular tarjima universaliyalarini aniqlash, tarjima strategiyalarini tahlil qilish va madaniyatlararo farqlarni o‘rganish imkonini beradi. Parallel matnlarning ahamiyati, ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan yanada ortmoqda. S. Laviosa bu haqda shunday yozadi: “Parallel korpuslar va ularni qayta ishlash texnologiyalari tarjimashunoslik sohasida yangi tadqiqot imkoniyatlarini ochib bermoqda”. Shu bilan birga, parallel matnlardan foydalanishda ba’zi cheklovlar va muammolar ham mavjud:

1. Reprezentativlik muammosi: K. Malmkjær ta’kidlaganidek, “Har qanday korpus, shu jumladan parallel korpus ham, tilning cheklangan namunasi hisoblanadi va uning natijalarini butun tilga umumlashtirish xavfli bo‘lishi mumkin” [9]. Reprezentativlik muammosi parallel matnlar va tarjima nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Bu masala parallel matnlarning qanchalik to‘g‘ri va to‘liq tarzda asl matnni va uning tarjimasini aks ettirishiga bog‘liq. Reprezentativlik tushunchasi parallel matnlarning ma’lum bir til, janr, davr yoki mavzu doirasidagi tarjimalarni qanchalik to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishini bildiradi. Ideal holatda, parallel matnlar korpusi o‘rganilayotgan sohaning barcha jihatlarini qamrab olishi kerak. Reprezentativlik muammosining mohiyati bir necha jihatlarga ega. Birinchidan, tanlash xatoligi mavjud bo‘lib, parallel matnlar tanlashda ma’lum bir tur yoki janrga ortiqcha e’tibor berilishi mumkin, bu esa natijalarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi. Ikkinchidan, hajm chegaralari muammosi bor, chunki barcha mavjud tarjimalarni qamrab olish imkonsiz, shuning uchun tanlangan matnlar qanchalik reprezentativ ekanligini aniqlash qiyin. Uchinchidan, sifat masalasi muhim, chunki tanlangan parallel matnlarning sifati turlicha bo‘lishi mumkin, bu esa umumiy xulosalarga ta’sir qiladi. Reprezentativlikka ta’sir qiluvchi omillar orasida til juftligi, janr va mavzu, vaqt omili hamda tarjimonlar bor. Ayrim til juftliklari uchun ko‘proq parallel matnlar mavjud bo‘lishi mumkin. Ba’zi janrlar yoki mavzular boshqalariga nisbatan ko‘proq tarjima qilinadi. Turli davrlardagi tarjimalar o‘rtasida nomutanosiblik bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayrim mashhur tarjimonlarning ishlari ko‘proq e’tiborga olinishi mumkin. Reprezentativlikni ta’minlash uchun bir necha usullar qo‘llaniladi. Bular orasida tasodifiy tanlash, stratifikatsiyalangan tanlash, korpus hajmini kengaytirish va metama’lumotlardan foydalanish bor. Tasodifiy tanlash mavjud parallel matnlardan tasodifiy namunalar olishni nazarda tutadi. Stratifikatsiyalangan tanlash turli mezonlar bo‘yicha matnlarni proporsional tarzda tanlashni anglatadi. Korpus hajmini kengaytirish imkon qadar ko‘proq parallel

matnlarni qamrab olishga qaratilgan. Metama’lumotlardan foydalanish esa har bir parallel matn haqida batafsil ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

2. Tarjima sifati masalasi: Parallel korpuslarda foydalaniladigan tarjimalar sifati har doim ham yuqori bo‘lavermaydi. Bu haqda D. Kenny shunday yozadi: “Parallel korpuslardagi tarjimalar sifatini baholash va nazorat qilish muhim masala hisoblanadi” [10]. Tarjima sifatini baholash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunda bir qator omillar, jumladan, asl matnning mazmunini to‘g‘ri va to‘liq uzatish, grammatik va uslubiy xatolarning yo‘qligi, terminologiyaning to‘g‘ri qo‘llanilishi, matnning maqsadli auditoriyaga mosligini hisobga olish zarur. Tarjima sifatini ta’minlash uchun tarjimondan nafaqat chuqur lingvistik bilimlar, balki madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari, mavzu bo‘yicha bilimlar va professional etika tamoyillariga rioya qilish ham talab etiladi. Sifatli tarjima yaratish uchun tarjimon asl matnni sinchiklab tahlil qilishi, uning mazmuni va uslubini to‘liq tushunishi, so‘ngra esa bu xususiyatlarni maqsadli tilda qayta yaratishi kerak. Tarjima sifatini baholashning turli usul va mezonlari mavjud. Ba’zi yondashuvlar xatolarni sanash va tasniflashga asoslangan bo‘lsa, boshqalari tarjimaning kommunikativ samaradorligini baholashga qaratilgan. Zamonaviy yondashuvlar ko‘pincha miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini birlashtirishga intiladi. Tarjima sifatini oshirish uchun turli vositalar va texnologiyalar qo‘llaniladi. Masalan, tarjima xotiralari tizimlari tarjimonlarga avvalgi tarjimalardan foydalanish imkonini beradi, bu esa izchillikni ta’minlaydi va xatolar sonini kamaytiradi. Terminologik ma’lumotlar bazalari esa atamalarning to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishini ta’minlaydi. Tarjima sifatini nazorat qilish jarayoni odatda bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Bular qatoriga tarjimonning o‘z-o‘zini tekshirishi, tahrirlash, professional muharririning ko‘rib chiqishi va zarur hollarda mutaxassislar tomonidan texnik ekspertiza o‘tkazilishi kiradi. Tarjima sifati masalasi globallashuv va xalqaro aloqalarning kuchayishi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori sifatli tarjimalar madaniyatlararo muloqotni yaxshilaydi, xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi va global bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi.

3. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlari: Ba’zi tillar o‘rtasidagi tizimli farqlar parallel matnlarni taqqoslashni qiyinlashtirishi mumkin. M. Olohan bu haqda shunday fikr bildiradi: “Tillarning tipologik farqlari parallel matnlarni moslashtirish va tahlil qilishda qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi”. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlari har bir tilning noyob va betakror qiyofasini shakllantiradigan lingvistik, madaniy va tarixiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar tilning fonetik tizimi, grammatik tuzilishi, leksik boyligi va pragmatik qoidalarida namoyon bo‘ladi. Fonetik xususiyatlar tilning tovush tizimini belgilaydi. Har bir tilning o‘ziga xos fonema to‘plami, urg‘u va intonatsiya qoidalari mavjud. Ayrim tillarda murakkab undosh birikmalari keng tarqalgan bo‘lsa, boshqalarida bunday birikmalar

deyarli uchramaydi. Grammatik tuzilish tilning sintaktik va morfologik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ba’zi tillar flektiv (o‘zgaruvchan) bo‘lsa, boshqalari agglutinativ (qo‘shimchalar qo‘shish orqali so‘z yasash) xususiyatga ega. So‘z tartibi, kelishiklar tizimi, zamonlar tizimi kabi jihatlar ham tildan tilga farq qiladi. Masalan, yapon tilida fe’l odatda gapning oxirida keladi, ingliz tilida esa fe’l odatda egadan keyin joylashadi. Leksik boylik tilning so‘z boyligini, iboralarini va frazeologizmlarini o‘z ichiga oladi. Har bir tilning o‘ziga xos tushunchalarni ifodalovchi so‘zlari mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha boshqa tillarga to‘liq tarjima qilinmaydi. Masalan, nemis tilidagi “Schadenfreude” so‘zi (boshqalarning omadsizligidan zavqlanish) ko‘p tillarda bir so‘z bilan ifodalanmaydi. Pragmatik qoidalar tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda qo‘llanilishini belgilaydi. Bu murojaat shakllari, hurmat darajalari, so‘zlashuv odatlari va noverbal muloqot elementlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, yapon tilida hurmat darajalari juda murakkab tizimni tashkil etadi, bu esa chet elliklar uchun o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diradi. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlari ularning tarixiy rivojlanishi va madaniy konteksti bilan chambarchas bog‘liq. Til evolyutsiyasi davomida boshqa tillar bilan aloqalar, tarixiy voqealar va jamiyatning rivojlanishi natijasida shakllanadi. Masalan, ingliz tili tarixan german va roman tillarining ta’sirida rivojlangan, bu esa uning lug‘at boyligida aks etgan. Metaforalar va idiomalar ham tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ular ko‘pincha ma’lum bir madaniyatning dunyoqarashi va hayot tajribasini aks ettiradi. Masalan, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan” iborasi o‘zbek tiliga xos bo‘lib, boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma’nosi yo‘qolishi mumkin

4. Texnik muammolar: Katta hajmdagi parallel matnlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun maxsus dasturiy ta’minot va katta hisoblash quvvati talab etiladi. G. Corpas Pastor ta’kidlaganidek, “Parallel korpuslarni yaratish va ulardan foydalanish sezilarli texnik va moliyaviy resurslarni talab qiladi” [11]. Texnik muammolar zamonaviy hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, turli sohalarda va turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ular oddiy maishiy texnikadan tortib murakkab sanoat tizimlarigacha bo‘lgan keng doiradagi qurilma va tizimlarda uchraydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari sohasida texnik muammolar juda keng tarqalgan. Dasturiy ta’minot xatolari, viruslar va zararli dasturlar, tarmoq ulanishi muammolari, ma’lumotlar yo‘qolishi va qurilmalarning ishlamay qolishi kabi holatlar foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu muammolar ish unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi va hatto ma’lumotlar xavfsizligini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Telekommunikatsiya sohasida signal kuchi pasayishi, aloqa uzilishlari, tarmoq sig‘imining yetishmasligi kabi texnik muammolar uchraydi. Bu muammolar aloqa sifatiga ta’sir qiladi, internet tezligini pasaytiradi va foydalanuvchilar uchun noqulayliklar yaratadi. Ayniqsa, uzoq masofali aloqa va katta hajmdagi ma’lumotlar

uzatishda bu muammolar yanada sezilarli bo‘ladi. Sanoat va ishlab chiqarish sohalarida texnik muammolar jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mashina va uskunalarning nosozligi, avtomatlashtirish tizimlaridagi xatolar, sifat nazorati muammolari ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatib qo‘yishi, mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va hatto xavfsizlik xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Transport sohasida texnik muammolar alohida e’tiborni talab qiladi. Avtomobillar, samolyotlar, poyezdlar va boshqa transport vositalaridagi nosozliklar nafaqat harakatlanishni qiyinlashtiradi, balki yo‘lovchilar xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soladi. Shuning uchun bu sohada profilaktika va muntazam texnik xizmat ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega.Energetika sohasidagi texnik muammolar butun bir hududlarning elektr ta’minotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Elektr tarmoqlaridagi uzilishlar, generatorlar va transformatorlardagi nosozliklar, energiya taqsimotidagi xatolar katta miqyosdagi qiyinchiliklarga olib keladi va iqtisodiy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiyot sohasida texnik muammolar o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki ular bevosita inson hayoti va sog‘lig‘i bilan bog‘liq. Tibbiy asbob-uskunalarning nosozligi, diagnostika qurilmalarining noto‘g‘ri ishlashi yoki dori-darmonlarni saqlash tizimlaridagi muammolar jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi cheklovlarga qaramay, parallel matnlar tarjimashunoslik va boshqa aloqador sohalarda muhim o‘rin tutishda davom etmoqda. Ular nafaqat nazariy tadqiqotlar uchun, balki amaliy tarjima faoliyati, tarjimonlarni tayyorlash va tarjima texnologiyalarini rivojlantirish uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olohan, M. (2004). Introducing Corpora in Translation Studies. Routledge.
2. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. Routledge.
3. Nida, E, (1964). Toward a science of translating. Netherlands.
4. House, J, (2015). Translation quality assessment: past and present. Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group.
5. Gile, D. (1999). Testing the Effort Models’ Tightrope Hypothesis in simultaneous interpreting – a Contribution. Hermes 23.153-172.
6. Nord, C. (2005). Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis.
7. Zanettin, F. (2012). Translation-Driven Corpora: Corpus Resources for Descriptive and Applied Translation Studies. St. Jerome Publishing
8. Rundell, M. (2015). Corpora as game changers: The growing impact of corpus tools for dictionary markers and users. Cambridge University Press.

9. Malmkjær, K. (2005). Linguistics and the Language of Translation. Edinburgh University Press.

10. Kenny, D. (2001). Lexis and Creativity in Translation: A Corpus-based Study. St. Jerome Publishing

11. Corpas Pastor, G. (2008). Investigar con corpus en traducción: los retos de un nuevo paradigma. Peter Lang.

UDK: 811.512.133`42

MASHINA TARJIMASINING SIFATINI OSHIRISHDA PARALLEL KORPUSNING AHAMIYATI

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Xolmonova Iqbola Alisher qizi,
tayanch doktoranti
iqbolabintualisher@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashina tarjimasi sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, parallel korpusning tarjima jarayonidagi roli va uning optimallashtirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada parallel korpusni optimallashtirishning turli usullari, jumladan, ma’lumotlarni tozalash, balanslash va ko‘paytirish jarayonlari tahlil qilinadi. Korpusning sifatini yaxshilash orqali tarjima tizimlarining samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, tilning grammatik va struktural farqlarini hisobga olish, ma’lumotlarni optimallashtirish va ko‘paytirishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Mashina tarjimasi, parallel korpus, optimallashtirish, ma’lumotlarni tozalash, ma’lumotlarni ko‘paytirish, tarjima tizimi, til farqlari, korpus sifati, korpusni balanslash*

Zamonaviy mashina tarjimasi texnologiyalari til to‘sig‘ini bartaraf etish va turli tillar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qilmoqda. Mashina tarjimasining sifati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng asosiylaridan biri o‘quv ma’lumotlari sifatidir. Xususan, parallel korpuslar neyron mashina tarjimasi modellarining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Parallel korpusning sifati, hajmi va xilma-xilligi tarjima natijalarining aniq va tabiiy chiqishini ta’minlaydi. Sifatli parallel korpusning yetishmovchiligi esa mashina tarjimasining aniqligi va grammatik to‘g‘riligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun parallel korpusni to‘plash, tozalash va optimallashtirish jarayonlari mashina tarjimasi sifatini oshirishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Mashina tarjimasi sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, turli tillar o‘rtasida avtomatik tarjima qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda neyron mashina tarjimasi (NMT) modellarining rivojlanishi tufayli tarjima sifatini sezilarli darajada oshirishga erishilmoqda. Biroq, ushbu tizimlarning samaradorligi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng

muhimlaridan biri o‘quv ma’lumotlari sifatidir. Parallel korpus – neyron mashina tarjimasi uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib, tarjimaning aniqligi, tabiiyligi va semantik mosligini belgilaydi. Mashina tarjimasi tizimlari turli bosqichlardan o‘tib ishlab chiqiladi va natijalarning sifati ko‘plab omillarga bog‘liq. Masalan, parallel korpus sifati va hajmi. Parallel korpus mashina tarjimasi modelini o‘rgatish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, o‘zbek-turk neyron mashina tarjimasi uchun tuzilayotgan parallel korpus yetarlicha hajmga ega bo‘lishi va har ikkala til tizimiga mos kelishi lozim. Bunday korpusning sifati quyidagi jihatlarga bog‘liq bo‘ladi:



1-chizma. Sifatli korpusning asosiy jihatlari

Mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini oshirish uchun til juftligi o‘rtasidagi grammatik tafovutlarni to‘g‘ri aniqlash va ularni hisobga olish juda muhimdir. Har bir til o‘zining morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlariga ega bo‘lib, bu xususiyatlar ikki til o‘rtasidagi tarjimani murakkablashtirishi yoki osonlashtirishi mumkin. Masalan, o‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi so‘z tartibidagi grammatik tafovutlar. O‘zbek va turk tillari SOV (Subject-Object-Verb) tuzilmasiga asoslangan bo‘lsa-da, so‘z tartibida ba’zi farqlar mavjud. Misol uchun, o‘zbek tilida ba’zi hollarda so‘z tartibi sintaktik funktsiyalarni aniq ifodalash uchun o‘zgartirilishi mumkin, ammo turk tilida bu nisbatan qat’iyroq. Turk tilida ham so‘z tartibi asosan SOV, lekin ba’zi holatlarda SVO (Subject-Verb-Object) ham ishlatiladi, ayniqsa, urg‘u qayerga qo‘yilishi kerakligi bilan bog‘liq bo‘lgan kontekstlarda. Mashina tarjimasi tizimida bu farqlarni hisobga olish kerak, chunki so‘zlar o‘zaro joylashuvini noto‘g‘ri tarjima qilish tarjima sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari sinonimlar va idiomatik iboralarni ishlatishdagi tafovutlar ham mavjud. O‘zbek va turk tillarida ba’zi sinonimlar va idiomatik ifodalar bir-biriga o‘xshash bo‘lishi mumkin, ammo ularning ishlatilishi va konteksti farq qiladi. Masalan: o‘zbek tilida “Yurtimizning kelajagi” (The future of our country) turk tilida “Ülkemizin geleceği” (The future of our country) shaklida bo‘ladi. Ammo, ba’zi hollarda bu so‘zlarning kontekstual ishlatilishi bir-biridan farq qilishi mumkin, masalan, o‘zbek tilidagi “yurakdan” (from the heart) turk tilida “kalpten” sifatida tarjima qilinadi, lekin ba’zi hollarda “gönülden” ham ishlatiladi. Mashina tarjimasi tizimining sifatini oshirish uchun, sinonimlar va idiomatik iboralarni to‘g‘ri

tushunish va tarjima qilish zarur. Bu so‘zlarning kontekstual ma’nosi va ular ishlatilgan muhitni hisobga olish muhim. O‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi grammatik tafovutlar mashina tarjimasi tizimining samaradorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. So‘z tartibi, morfologiya, fe’l tizimi va idiomatik iboralar kabi grammatik xususiyatlarni tushunish va to‘g‘ri aks ettirish mashina tarjimasi tizimlarining sifatini oshiradi. Bunday tafovutlarni hisobga olgan holda, parallel korpuslar tuzish va mashina tarjimasi modellarini o‘rgatishda bu farqlarni inobatga olish zarur. Shuningdek, o‘zbek-turk til juftligi uchun o‘ziga xos grammatik strategiyalar ishlab chiqilishi kerak, bu esa tarjima sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

Mashina tarjimasi tizimlarining sifatini oshirishda ikki asosiy omil muhim rol o‘ynaydi: parallel korpus sifati va model arxitekturasi. Ularning o‘zaro ta’siri va to‘g‘ri ishlashiga bog‘liq holda, tarjima tizimlarining aniqligi va samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuni hisobga olgan holda mashina tarjimasi texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bular:



2-chizma. Mashina tarjimasi yondashuvlari

Hozirgi kunda NMT modellari, ayniqsa transformer arxitekturasi, eng samarali deb hisoblanadi[1]. Mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini oshirishda parallel korpuslardan to‘g‘ri foydalanish juda muhim. Korpusdan maksimal samaradorlik olish uchun ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash va optimallashtirish zarur. Ushbu jarayonlar mashina o‘rganish modellari uchun sifatli va optimal trening ma’lumotlarini ta’minlashga yordam beradi.

Parallel korpusdan samarali foydalanish uchun ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash va optimallashtirish zarur. Oldindan qayta ishlashda matnni tokenizatsiya qilish, stop-so‘zlarni olib tashlash, tozalash va lematizatsiya kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Bu jarayonlar matnni modellar uchun to‘g‘ri formatda taqdim etishga yordam beradi. Optimallashtirish bosqichida, korpusning balanslanishi, ma’lumotlarni ko‘paytirish va modelning giperparametrlari ustida ishlash orqali modelning samaradorligini oshirish mumkin.

Mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini aniqlash va ularning sifatini baholash sohada muhim vazifa hisoblanadi. Tarjima sifatini baholashda parallel korpuslar katta ahamiyatga ega, chunki ular turli tillar o‘rtasidagi to‘g‘ri moslikni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Parallel korpusdan foydalanish, mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini o‘lchashda aniq va obyektiv mezonlarni taqdim etadi. Tarjima sifatini baholashda bir qator avtomatik baholash mezonlari mavjud bo‘lib, ulardan eng keng tarqalganlari BLEU, TER, METEOR, NIST va inson baholashidir. Har bir mezon tarjimaning turli jihatlarini – sintaktik moslik, semantik aniqlik, grammatik tuzilish va o‘zaro aloqadorlikni – baholaydi. Parallel korpus orqali bu mezonlar yordamida mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini doimiy ravishda baholash va yaxshilash imkoniyati mavjud. Bu jarayon, o‘z navbatida, til juftliklari orasidagi tafovutlarni hisobga olishga ham yordam beradi, bu esa tarjimaning aniqligi va sifatini oshiradi.

Parallel korpuslar mashina tarjimasi tizimlarining asosiy tayanchidir. Bu korpuslar bir nechta tillarda bir xil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va mashina tarjimasi modellari uchun o‘rganish materialini taqdim etadi. Parallel korpusning hajmi va sifati mashina tarjimasi tizimlarining umumiy samaradorligi va sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Parallel korpus hajmi mashina tarjimasi tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Korpus hajmi katta bo‘lsa, model ko‘proq ma’lumotni o‘zlashtirib, o‘z tarjima qobiliyatini yaxshilaydi. Katta hajmdagi parallel korpus mashina tarjimasi modelining generalizatsiya qobiliyatini oshiradi, chunki model turli kontekstlarda so‘zlar va iboralarni qanday ishlatishni o‘rganadi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, parallel korpus hajmi ortgan sari, mashina tarjimasi tizimining umumiy sifatida yaxshilanish kuzatiladi. Masalan, Bengio va boshqalarning tadqiqotlarida katta hajmdagi parallel korpuslar yordamida o‘rgangan neyron tarmoq modellari kichik hajmdagi korpuslarga nisbatan ancha yuqori sifatga ega ekanligi aniqlangan[2]. Korpus hajmi ortgan sari modelning tarjima xatolari kamayadi, ayniqsa, grammatik va semantik jihatlardan. Biroq, hajmning ortishi bilan modellarning o‘rganish va hisoblash resurslari talablarining oshishi mumkin. Bu holatni optimallashtirish uchun ma’lumotlarni tozalash, filtrlash va boshqa texnikalardan foydalanish muhimdir.

Parallel korpusning sifati uning mazmuni va tuzilishi bilan bevosita bog‘liq. Sifatli parallel korpuslar o‘z ichiga aniq, to‘liq va grammatik jihatdan to‘g‘ri

tarjimalar kiradi. Agar korpusda ko‘p miqdordagi noto‘g‘ri yoki noaniq tarjimalar bo‘lsa, mashina tarjimasi tizimi o‘rganishda xato natijalar beradi. Shuning uchun korpusning sifati tarjima sifatining yuqori bo‘lishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Quyida korpusning sifatini baholashda asosiy faktorlarni keltirib o‘tamiz:

Grammatik to‘g‘rilik:	Semantik aniqlik:	Kontekstual moslik:
Korpusdagi tarjimalarning grammatik jihatdan aniq va to‘g‘ri bo‘lishi talab etiladi. Grammatik xatolar, so‘zning noto‘g‘ri ishlatilishi yoki sintaktik xatolar mashina tarjimasi tizimining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.	Tarjimada semantik ma’no xatolari bo‘lmasligi kerak. Agar parallel korpusda semantik jihatdan noaniq yoki chalkash tarjimalar mavjud bo‘lsa, mashina tarjimasi tizimi bu xatolarni o‘rganib, noaniq natijalar beradi.	Tarjimalar kontekstga mos bo‘lishi kerak. Yaxshi sifatli parallel korpus kontekstual farqlarni to‘g‘ri aks ettiradi, bu esa tarjima tizimining aniq va mantiqiy natijalar berishiga yordam beradi.

3-chizma. Korpusning sifatini baholashdagi asosiy faktorlar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, parallel korpusda sifatli tarjimalar mavjud bo‘lsa, mashina tarjimasi tizimining sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Koehn o‘z tadqiqotida parallel korpusning sifati yuqori bo‘lgan hollarda tarjima tizimlarining aniq va mantiqiy natijalar berishini ta’kidlagan[3]. Shuningdek, Liu va boshqalarning tadqiqotlari parallel korpusning sifati va mashina tarjimasi tizimi o‘rtasidagi to‘g‘ri moslikni ko‘rsatadi[4]. Bundan tashqari, parallel korpusning hajmi va sifati o‘rtasidagi muvozanat ham muhimdir. Katta hajmdagi korpuslarning sifati yomon bo‘lsa, mashina tarjimasi tizimi yomon natijalar beradi, chunki model xatoliklar bilan to‘ldirilgan ma’lumotlardan o‘rganadi. Aksincha, kichik hajmdagi yuqori sifatli korpuslar ham samarali bo‘lishi mumkin, lekin bu holatda modelning umumiy o‘rganish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Yuqori sifatli va katta hajmdagi parallel korpuslar mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini maksimal darajada oshiradi. Sennrich va boshqalar o‘z tadqiqotida katta hajmdagi yuqori sifatli parallel korpuslar bilan mashina tarjimasi tizimining aniq va samarali ishlashini ko‘rsatgan[5].

Parallel korpusning hajmi va sifati mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligi va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Korpus hajmi ortgan sari modelning o‘rganish imkoniyatlari kengayadi, lekin uning sifati yaxshilanishi kerak. Katta hajmdagi, lekin sifatsiz korpuslardan foydalanish natijada noaniq va xato tarjimalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, mashina tarjimasi tizimlarining

muvaffaqiyatli ishlashi uchun sifatli va katta hajmdagi parallel korpuslarni yaratish zarur.

Parallel korpusda noto‘g‘ri, chala, shovqinli (noisy) yoki takroriy (redundant) ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. Bu ma’lumotlar mashina tarjimasi tizimining sifatini pasaytiradi. Korpusni optimallashtirishning birinchi qadamlaridan biri – ma’lumotlarni tozalash va filtrlashdir. Ma’lumotlarni tozalash jarayonida, noto‘g‘ri tarjimalar, grammatik xatolar yoki noaniqliklarni bartaraf etish kerak. Ma’lumotlarni tozalash va filtrlashning bir necha asosiy usullari mavjud. Masalan, stop-so‘zlarni olib tashlash. Parallel korpusda har xil tillar o‘rtasidagi umumiy so‘zlar va iboralarning tarjimasi ko‘p bo‘lishi mumkin. Bunday so‘zlar ko‘pincha tarjima sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Stop-so‘zlarni olib tashlash orqali modelni faqat muhim va kontekstual so‘zlarga yo‘naltirish mumkin. Bundan tashqari, grammatik tozalash ya’ni korpusdagi grammatik jihatdan xato yoki noto‘g‘ri tarjimalarni aniqlash va ularni olib tashlash mashina tarjimasi tizimining sifatini yaxshilaydi. Noto‘g‘ri tarjimalar modelga noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilishiga olib kelishi mumkin, bu esa xatoliklarni oshiradi. Shu bilan birga, parallel korpusda takroriy tarjimalar yoki o‘xshash ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. Bu takroriy ma’lumotlar mashina tarjimasi tizimining o‘rganish jarayonini zaiflashtiradi. Shuning uchun redundant ma’lumotlarni olib tashlash korpusni optimallashtirishga yordam beradi[6].

Parallel korpusda tillar o‘rtasidagi so‘zlarning chastotalari va iboralarning turlari o‘rtasidagi farqlar ko‘p uchraydi. Ba’zi tillarda ba’zi so‘zlar yoki iboralar ko‘proq ishlatiladi, boshqalari esa kamroq ishlatiladi. Korpusni balanslash usuli, tillar o‘rtasidagi nisbatlarni muvozanatlash, tarjima tizimining umumiy ishlashini yaxshilaydi. Korpusni balanslash quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

Sof ma’lumotlar olish:

Parallel korpusda ba’zi tillar juda yuqori chastotali so‘zlarga ega bo‘lishi mumkin. Korpusdagi bu yuqori chastotali so‘zlarni olib tashlash, ular bilan bo‘lgan yuqori chastotali takrorlanishlarni kamaytirishga yordam beradi.

So‘zlarning hamkorligini oshirish:

Korpusda biron-bir so‘z boshqa tilga tarjima qilinganda kamdan-kam uchrasa, u holda bunday ma’lumotlarni kiritishni ko‘paytirish mumkin. Korpusda so‘zlar va iboralar o‘rtasidagi hamkorlikni oshirish mashina tarjimasi tizimining xatoliklarini kamaytiradi.

O‘xshash ma’lumotlarni qo‘shish:

Ba’zi tillarda so‘zlarning chastotalari juda past bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda, o‘xshash ma’lumotlardan foydalanib, korpusni kengaytirish mumkin.

4-chizma. Korpusni balanslash usullari

Korpusni balanslash orqali mashina tarjimasi tizimi tilning barcha sohalarini o‘rganib, ko‘proq kontekstual ma’lumotlarni o‘zlashtiradi[7].

Parallel korpusni optimallashtirishning yana bir muhim usuli – bu ma’lumotlarni ko‘paytirishdir. Korpus hajmi kichik bo‘lganda, mashina tarjimasi tizimi o‘rganishda yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Ma’lumotlarni ko‘paytirish yordamida bu muammoni hal qilish imkoniyati mavjud. Quyida ma’lumotlarni ko‘paytirishning ba’zi usullarini ko‘rib chiqamiz:

Parafrazlash (Paraphrasing):	Sintetik ma’lumotlar yaratish:	Back-translation:
Parafrazlash usulida, tarjima matnlarini qayta yozish orqali yangi tarjimalar hosil qilinadi. Bu usul yordamida yangi tarjimalar yaratiladi, bu esa modelga ko‘proq o‘rganish materialini taqdim etadi.	Sintetik tarjimalar yaratish orqali parallel korpusni sun’iy ravishda kengaytirish mumkin. Sintetik ma’lumotlarni yaratish mashina tarjimasi tizimining o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.	Back-translation usulida birinchi tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan matn qaytadan birinchi tilga tarjima qilinadi. Bu usul yordamida yangi tarjimalar hosil qilinadi va ularni modelga qo‘shish orqali o‘rganishni yanada mustahkamlash mumkin

5-chizma. Korpus ma’lumotlarini ko‘paytirishning usullari

Bu usullar yordamida, parallel korpusning hajmi oshiriladi va mashina tarjimasi tizimining umumiy samaradorligi yaxshilanadi[5].

Parallel korpusda turli xil matnlar bo‘lishi mumkin, masalan, ilmiy, texnik, adabiy yoki so‘zlashuv uslubiga oid matnlar. Korpusni optimallashtirishda matnlarni kategoriyalash va tasniflash ham juda muhim rol o‘ynaydi. Bu usul, ma’lumotlarni til turiga ko‘ra ajratib, har bir turdagi matn uchun maxsus modellar yaratishga yordam beradi. Korpusni kategoriyalashning asosiy afzalliklariga matn turlari bo‘yicha optimallashtirish kiradi. Ya’ni har bir matn turi uchun alohida model yaratish, mashina tarjimasi tizimining o‘rganish jarayonini yanada optimallashtiradi. Masalan, ilmiy matnlar uchun maxsus model, adabiy matnlar uchun esa alohida model yaratilishi mumkin. Bundan tashqari, tizimni tezlashtirish mumkin. Bunda kategoriyalash yordamida, mashina tarjimasi tizimining o‘rganish jarayoni tezlashadi, chunki model faqat o‘sha turdagi matnlarni o‘rganadi va noaniqliklar kamayadi [1]. Parallel korpusni optimallashtirishda o‘quv algoritmlarini takomillashtirish ham muhimdir. Mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini oshirish uchun o‘rganish algoritmlarini optimallashtirish zarur. Yangi arxitekturalar, masalan, neyral tarmoq va attention mechanism yordamida, model ko‘proq kontekstual ma’lumotlarni o‘zlashtirishi mumkin. Bu esa mashina tarjimasi tizimining to‘g‘ri ishlashiga yordam beradi[1]. Parallel korpusni optimallashtirish, mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini oshirish uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Korpusni tozalash, filtrlash, balanslash, ko‘paytirish va kategoriyalash kabi usullar yordamida modelning sifatini yaxshilash mumkin. Shuningdek, o‘quv algoritmlarini optimallashtirish va yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali mashina tarjimasi tizimlari yanada samarali ishlashi mumkin. Bu optimallashtirish usullari parallel korpusdan maksimal foydalanish imkoniyatini yaratadi va mashina tarjimasi tizimining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Mashina tarjimasi tizimlarining samaradorligini oshirishda parallel korpuslarning ahamiyati juda katta. Parallel korpus, ikki yoki undan ortiq tillarda tarjima qilingan matnlar to‘plamidir, va bu korpuslar mashina tarjimasi tizimlarini o‘rgatishda asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. Korpusning hajmi, sifati va tarkibi tarjima tizimlarining natijalariga bevosita ta’sir qiladi.

Parallel korpusni optimallashtirish orqali mashina tarjimasi tizimining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Korpusni tozalash, filtrlash va balanslash kabi usullar yordamida sifatni yaxshilashga erishish mumkin. Korpusdagi redundant yoki noaniq ma’lumotlarni olib tashlash, grammatik xatolarni tuzatish va o‘xshash ma’lumotlarni kiritish orqali modelga aniq va ishonchli ma’lumotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, ma’lumotlarni ko‘paytirish va back-translation kabi metodlar yordamida korpusning hajmi kengaytirilishi mumkin, bu esa o‘rganish jarayonini kuchaytiradi. Korpusni kategoriyalash va turli matn turlariga mos ravishda modellarni yaratish, mashina tarjimasi tizimining muvaffaqiyatini oshirishda muhim

o‘rin tutadi. Shuningdek, o‘quv algoritmlarini optimallashtirish va neyron tarmoqlarni qo‘llash orqali tarjima tizimlarining samaradorligi oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, parallel korpusning lingvistik xususiyatlarini, grammatika, so‘z tartibi va til strukturasidagi farqlarni hisobga olish, modelni yanada aniqroq va moslashtirilgan tarjimalar yaratishga yo‘naltiradi. Korpusning xilma-xilligi va sifatli tarkibi mashina tarjimasi tizimining tillararo o‘rganishni yaxshilaydi. Shu bilan birga, parallel korpusdan foydalanish nafaqat mashina tarjimasi tizimlarini rivojlantirishga, balki boshqa tilni o‘rganish va lingvistik tadqiqotlar uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Korpusning sifatini oshirish va optimallashtirish, kelajakda mashina tarjimasi tizimlarining yanada mukammal va ishonchli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vasvani A., Shazeer N., Parmar N., Uszkoreit J., Jones L., Gomez A. N., Kaiser L., Polosukhin I. Attention Is All You Need. Proceedings of the 31st International Conference on Neural Information Processing Systems. 2017−P. 5998–6008
2. Bengio Y., Ducharme R., Vincent P., Jauvin C. A Neural Probabilistic Language Model. Journal of Machine Learning Research, 3. 2003−P. 1137–1155
3. Koehn P. Europarl: A Parallel Corpus for Statistical Machine Translation. Proceedings of the 10th Machine Translation Summit. 2005−P. 79–86.
4. Liu Y. Automatic Evaluation of Machine Translation Quality: A Survey. 2016
5. Sennrich R., Haddow B., Birch A. Neural Machine Translation of Rare Words with Subword Units. Proceedings of the 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. 2016−P. 1715–1725.
6. Koehn P. Statistical Machine Translation. Cambridge University Press. 2016

Tiedemann J. Parallel Data, Tools and Interfaces in OPUS. Proceedings of the 8th International Conference on Language Resources and Evaluation. 2012−P. 2214–2218

EXPLORING THE STYLISTIC RICHNESS OF FIGURATIVE EXPRESSIONS IN THE UZBEK LANGUAGES

Sulaymonova Mahfuza Shavkat qizi,
PhD Student, I grade
TSUULL

Annotation. This article analyzes the characteristics of figurative devices in the Uzbek language, particularly metaphor, simile, epithet, hyperbole, and litotes. The linguistic structure of these devices, their role in poetic speech, and their functional features are examined based on scientific approaches. The differences between similes and metaphors, their components, and their role in literary texts are illustrated with examples. This article serves as a valuable resource for those engaged in literary analysis, linguistic research, and stylistics.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности изобразительных средств в узбекском языке, в частности метафоры, сравнения, эпитеты, гипербола и литота. Рассматриваются их лингвистическая структура, роль в поэтической речи и функциональные особенности на основе научных подходов. Выявлены различия между сравнением и метафорой, их компоненты, а также роль в художественной литературе, что подтверждается примерами. Данная статья является ценным источником для специалистов, занимающихся литературным анализом, лингвистическими исследованиями и стилистикой.

Keywords: *Uzbek language, figurative devices, metaphor, simile, epithet, hyperbole, litotes, poetic speech, literary imagery, stylistics, emotional-expressive language.*

The components of simile that we study – the object being compared, the comparative image, and the comparative attribute – have been referred to by various scholars using different terminologies: B. V. Tomashevsky named them object, image, and attribute[1] ; A. I. Efimov used subject of comparison, object of comparison, and basis of comparison[2]; M. I. Sharipo referred to them as object of comparison, image of comparison, and attribute of comparison[3]; A. Sa’diy named them the compared element, the element it is compared to, and the attribute of similarity[4].

Depending on whether the comparative attribute in the simile is expressed through lexical units or not, similes can be divided into complete and incomplete similes. If all three components are expressed through lexical units, it is referred to as a complete simile. In an incomplete simile, the comparative attribute is not

explicitly expressed. This allows us to classify similes as three-component and two-component structures.

For example:

a) Three-component simile:

Nizomjon, unsure of what to say, glanced at the golden-crumpled velvet-like shimmering sands. (Said Ahmad)

In this example:

"golden-crumpled velvet-like" is the comparative image,

"shimmering" is the comparative attribute,

"sands" is the object being compared.

b) Two-component simile:

The woman stood leaning against the wall near the door, her face pale as a corpse, trembling. (A. Qahhor)

Here, the woman's paleness is compared to that of a corpse.

"face" is the object being compared,

"as a corpse" is the comparative image,

and the comparative attribute is not explicitly mentioned.

In speech, qualification (attribution) and simile are closely interconnected in terms of their function of conveying concreteness and emotional-expressive evaluation. They transition into one another in artistic imagery and assist each other in characterizing objects. The main aesthetic function of simile is the function of concreteness. If the attributive relation is removed from a simile, its meaning becomes less clear and less emotionally expressive. Therefore, similes often appear alongside qualifiers (adjectives or attributes).

Hyperbole is the art of exaggerated description of objects and events. Based on its nature, hyperbole is categorized into simple, igroq (intensified hyperbole), and gulu (unrealistic, implausible exaggeration that goes beyond possibility).Even though igroq and gulu types of hyperbole are often used without explicit simile markers, a simile can be understood from the meaning. In the example from Navoi (poetic part omitted here), the beloved's face being covered is likened to the setting of the sun, and the tears shed due to separation are likened to the appearance of stars after sunset. Hyperbole is more commonly found in folk epics and songs.

Litotes is a stylistic device that depicts objects and events by understating or diminishing them. Like hyperbole, litotes is also used across all types of literary works for specific artistic purposes. For example, in the sentence: "…hoping for

Zuhrakhon’s sharp mind to grasp knowledge faster, he didn’t notice her elephant-sized sin at home because of her thread-sized success at school.” (A. Qahhor)

The use of the suffix -day in "qilday" (thread-like) expresses litotes, as the success being that small seems unbelievable. Simultaneously, the phrase "filday gunoh" (elephant-sized sin) employs hyperbole, as the notion of a sin being that large is also unrealistic.

Metaphor. In a metaphor, two objects or phenomena are compared based on certain features. In this case, the described object is portrayed as something else, and another object is used in its place based on similarity or relation. Unlike similes, metaphors consist only of the compared image and convey both the quality and the object in a figurative sense. Considering these features, scholars have provided various definitions for metaphor. For example, Quintilian explains that, unlike simile, which compares the depicted object to something else, metaphor directly takes the name of that object. Aristotle considered simile to be metaphor with only a partial difference between them[5]. A. Bely interpreted simile as the comparison of qualities, and metaphor as the completed form of that comparison[6]. G. L. Abramovich described metaphor as a hidden form of simile, while A. T. Rubaylo stated that simile underlies metaphor. He asserted that simile is the initial form of metaphor, and metaphor emerges from simile; moreover, some metaphors can easily be converted into similes[7]. S. Usmonov, in his Uzbek language textbook, defines it as follows: “Metaphor is the use of a word that expresses one object or phenomenon to represent another, based on relative similarity between them”. Sh. Rahmatullayev further explains: “Metaphor is the transfer of the name of one object, quality, or action to another based on mutual similarity”[8].

According to the Dictionary of Literary Terms, metaphor is described as one of the main poetic transfers (tropes), which are of two types: "transfer based on similarity – metaphor, and transfer without similarity – metonymy." It is evident that in both literary and linguistic studies, metaphor is referred to as a “shortened simile,” “simile itself,” “completed form of comparison of features,” “hidden simile,” “derived from simile,” “transfer based on similarity,” and a “transfer with similarity.” All of these definitions affirm that simile underlies metaphor. However, the main point to understand is that the difference between metaphor and simile lies in their components, specifically in the presence or absence of connecting elements. For instance:

If we say Karimjon is as strong as a lion, it is a three-component full simile.

If we say Karimjon is like a lion, it becomes a two-component incomplete simile.

If we say Karimjon is a lion, we create a metaphor.

It becomes clear that a metaphor does not include all the components (object being compared, comparative quality, and image), but rather implies them within a figurative expression. It is important to emphasize that metaphor is not always expressed through a single word; it can also appear in phrases. For example: “The captains of the blue ship prepared their steel horses for the harvesters of white gold.” In this sentence:

Captains of the blue ship refers to mechanics,

White gold refers to cotton,

Steel horses refers to machines.

It is evident that each metaphor is based on a simile and is formed through abstract thinking.

Therefore, studying the linguistic features of simile as one of the stylistic devices in literary language allows us to better understand concepts such as emotional-expressive tone, figurative imagery, and tropes in literary discourse. Metaphor is one of the most powerful and widely used figurative devices in language. It not only serves as a linguistic ornament but also functions as a cognitive tool that reflects how humans understand and conceptualize the world. By comparing one thing to another, metaphors provide insights into abstract concepts and enhance the emotional depth of communication. The term metaphor comes from the Greek word metaphora, meaning "transfer" or "carrying over." This reflects the fundamental nature of metaphor, which involves transferring meaning from one domain to another. For example, when we say "the classroom was a zoo," the classroom is metaphorically compared to a zoo, evoking an image of chaos and noise.

Metaphors are integral to language, appearing in both everyday speech and literary texts. They allow speakers to describe abstract or complex ideas in concrete terms. For instance, saying "he's in the driver’s seat of his life" uses the metaphor of driving to convey the idea that someone is in control of their life. In contrast to similes, which make comparisons explicit with words like "like" or "as," metaphors imply a more direct and sometimes more profound comparison. Metaphors can be divided into different types. Conventional metaphors are common expressions that have become so familiar that we no longer notice their figurative nature. For example, phrases like "a flood of emotions" or "a heavy heart" are conventional metaphors that evoke powerful imagery. Literary metaphors, on the other hand, are often more creative and novel, used to add depth and beauty to language, as seen in poetry and novels. "The curtain of night" or "a sea of stars" are examples of literary metaphors that invoke vivid and artistic imagery. Dead metaphors are those that have

been used so frequently that their original figurative meaning has been lost, such as "the arm of a chair" or "the foot of a mountain."

The stylistic richness of metaphors lies in their ability to evoke powerful emotional responses and provide clarity to abstract concepts. They can convey complex ideas in a more relatable or tangible way. For example, in Uzbek, a metaphor like "yuragi tog‘dek" (his heart is like a mountain) is used to describe someone with immense bravery or strength. This cultural metaphor relies on the imagery of a mountain, a symbol of stability and resilience, to communicate a deep personal quality. In addition to their stylistic value, metaphors are also significant from a cognitive perspective. Scholars such as George Lakoff and Mark Johnson in their seminal work Metaphors We Live By (1980) argue that metaphors shape our understanding of the world. They are not just rhetorical tools but fundamental to how we think, process, and conceptualize our experiences. For instance, the metaphor of "time is money" reflects a Western cultural view of time as a valuable resource that should be managed efficiently. Across languages and cultures, metaphors vary in their expressions and imagery, but they often share similar conceptual structures. In English, the metaphor "time flies" suggests that time passes quickly. In Uzbek, a similar expression might be "vag‘z uzildi", meaning "time is broken," which evokes the idea of time slipping away or being fragmented.

In conclusion, metaphors are a central element of both language and thought. They enrich communication by adding vividness and emotional depth, allowing speakers to articulate complex ideas in accessible and impactful ways. Studying metaphors offers valuable insights into how different cultures and languages perceive and conceptualize the world.

List of References:

1. B.V. Tomashevsky, Stylistics and Versification, Leningrad, 1952, pp. 208–209.
2. A.I. Efimov, Stylistics of Artistic Speech, Moscow, 1961, p. 491.
3. M.A. Sharipo, Structure of Comparisons, “Scientific Notes of the Tiraspol Pedagogical Institute”, Issue 5, Chisinau, 1958.
4. A. Sa’diy, Practical and Theoretical Literature Lessons (Textbook for Secondary Schools), Tashkent, 1925, pp. 21–22.
5. T.A. Timofeyeva, Metaphor as an Artistic Means in Popular Science Literature, pp. 214–215;
6. A. Bely, Symbolism, Moscow, “Musaget”, 1910, p. 78.
7. A.T. Rubaylo, Artistic Means of Language, Moscow, 1961, p. 37.
8. U. Tursunov, J. Mukhtorov, Sh. Rahmatullayev, Modern Uzbek Literary Language, Tashkent, 1965, p. 125.

9. I. Rybakova, On the Lexical-Stylistic Description of the Epithet, 1964, Issue 52, and others.
10. H. Hamidiy, Sh. Abdullayeva, S. Abdurahimova, Dictionary of Literary Terms, Tashkent, 1967, p. 228.
11. G.L. Abramovich, Introduction to Literary Studies, Moscow, 1953, p. 119.
12. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov, Uzbek Language, Tashkent, 1962, p. 424.

UDK:811.512.133’322+821.512.133.09-1

ABDULLA ORIPOV, MUHAMMAD YUSUF, SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATI KORPUSINI YARATISHNING AHAMIYATI

Maxammadiyeva Diyora Raxmatovna
Tayanch doktarant
diyoramaxammadiyeva@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi sohasining taraqqiyoti, rivojlangan mamlakatlar korpuslari va undan foydalanish samaradorligi haqida mulohazalar bayon etilgan. Xususan, Rus tili milliy korpusi tarkibida yaratilgan poetik asarlar korpusiga batafsil to‘xtalib, o‘tilgan. Xuddi shunday tajribalar asosida o‘zbek tilshunosligida ham xalqimizning sevimli shoirlari Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon she’riy asarlari korpusini yaratish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan. Poetik asarlar korpusiga bo‘lgan ehtiyoj, nafaqat amaliy tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ahamiyatlidir, balki leksikografiya, lingvostatistika, lingvokulturologiya sohalarining rivojlanishi uchun ham foydalidir. Ushbu korpusni yaratish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan daslabki xulosalar va tahlillar taqdim etilmoqda.

Abstract. This article presents considerations on the development of the field of corpus linguistics in world linguistics, corpora of developed countries and the effectiveness of its use. In particular, the corpus of poetic works created as part of the Russian language national corpus is discussed in detail. Based on similar experiences, the issue of creating a corpus of poetic works of our people's favorite poets Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon has been put on the agenda in Uzbek linguistics. The need for a corpus of poetic works is not only important for applied linguistics and literary studies, but is also useful for the development of the fields of lexicography, linguostatistics, and linguoculturology. Preliminary conclusions and analyses of the work carried out to create this corpus are presented.

Абстрактный. В статье излагаются соображения о развитии направления корпусной лингвистики в мировой лингвистике, корпусах развитых стран и эффективности их использования. В частности, подробно рассматривается корпус поэтических произведений, созданных в рамках национального корпуса русского языка. На основе подобного опыта в узбекской лингвистике на повестку дня выдвинут вопрос о создании корпуса поэтических произведений любимых поэтов нашего народа Абдуллы Орипова, Мухаммада Юсуфа и Шавката Рахмона. Потребность в корпусе поэтических произведений важна не только для прикладной лингвистики и

литературоведения, но и полезна для развития таких направлений, как лексикография, лингвостатистика и лингвокультурология. Представлены предварительные выводы и анализы проделанной работы по созданию данного корпуса.

Kalit so‘zlar. *Korpus lingvistikasi, Rus tili milliy korpusi, poetik korpus, Korpus yaratishning texnologik bosqichlari, asarlarni korpusga tayyorlash jarayoni.*

XXI asrda texnologiyalar shu qadar tez sur’atlar bilan rivojlanib, takomillashib bormoqdaki, barcha tarmoqlar singari biz tilshunoslik sohasi vakillari ham lingvistik tadqiqotlar qilishning texnologik usullarini o‘rganish va yaratishga doimo tayyor turishimizni zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Korpus lingvistikasi o‘zbek tilshunosligida yangi paradigma hisoblanib, oxirgi yillarda ushbu yo‘nalish faol sohalardan biriga aylandi. Til korpuslarining paydo bo‘lishi tilshunoslarga til faktlarini tahlil qilish uchun yangi kuchli vositani berdi. Amerika, Yevropa, Rossiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar amaliy tilshunosligida til korpuslari o‘tgan asrning 70-80-yillarida yaratila boshlangan edi. Oradan bor-yo‘g‘i yarim asr vaqt o‘tishiga qaramay, bugun dunyo tillarining ham og‘zaki, ham yozma matnlarini o‘zida jamlagan yirik til korpuslari paydo bo‘ldi. Xususan, Amerika milliy korpusi, Britaniya milliy korpusi, Lankaster Oslo/Bergen korpusi, London-Lund korpusi, Og‘zaki amerikacha ingliz tili korpusi, Rus tili milliy korpusi, Rus tilining Upsala korpusi shular jumlasidandir. Katta hajmdagi matnlarni o‘zida jamlagan, qo‘shimcha leksik, morfologik, grammatik, semantik jihatdan ishlov berilgan til korpuslari yordamida tadqiqotlarni amalga oshirish qulay va ishonchlidir. Raqamli texnologiyalar rivojidagi inqilobiy o‘zgarishlar har bir sohaga, xususan, tilshunoslik va unga yondosh sohalarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, bugungi kun tilshunosligining muhim sohalaridan biri korpus lingvistikasi kompyuter tilshunosligi va amaliy tilshunoslik sohalarining kesishgan nuqtasida paydo bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda Til birliklarini lingvostatiktik tadqiq etishga qaratilgan ishlar[1,2,3,4,5,6], til korpuslarini tuzish metodikasi va texnikasi tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘paydi[7,8,9,10,11,12,13,14,15]. Ular asosida bir necha korpuslar ishlab chiqildi. Ammo turli o‘zbek shoirlari asarlari korpusini tuzish va unga asoslangan lingvostatistik tadqiqot olib borish dolzarbligicha qolmoqda. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she’riyati korpusini tuzish mazkur ijodkorlar madaniy merosini kelajak avlodga yetkazish, internet tizimi yoki axborot qidiruv tizimlarida sifatli saqlash, qayta ishlash, ular ustida turli tadqiqotlar olib borishda dolzarblik kasb etadi.

Hozirgi vaqtda korpus – texnik taraqqiyotning bir qismi, zarur til birliklariga oid namunalarni topish uchun qulay vosita, shuningdek, til o‘rganish va o‘rgatishning yangi shakli hamdir.

Jahondagi eng yirik korpuslardan biri Rus tili milliy korpusi ajoyib korpus interfeysi va mukammal korpus annotatsiyasi bilan ahamiyatlidir. Rus tilining Milliy korpusi 2004-yil aprelidan boshlab, Internetda www.ruscorpora.ru sayti [15]da mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtda u 133554 ta matn, 389 milliondan ortiq so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Korpusga XVIII asr boshidan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan tarixiy, publisistik, ijtimoiy, og‘zaki ko‘rinishdagi matnlar kiritilgan. Ushbu korpusda she’riy matnlar korpusi alohida bo‘limni tashkil etib, 103626 matn, 14 milliondan ortiq so‘zlardan iborat. She’riy matnlarni rus tili milliy korpusi tarkibiga joylashtirish ishlari Rossiya Fanlar akademiyasining Rus tillari Instituti jamoasi tomonidan 2006 yildan boshlab amalga oshirilgan. V.A.Plungyan rahbarligidagi Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti ko‘magida “Rus tilining milliy korpusi doirasida “Rus she'riyati korpusi” axborot tizimini yaratish” loyihasi doirasida she’riy matnlarni to‘plash va korpus yaratish ishlari boshlangan. She’riy matnlarni belgilash tamoyillari V. A. Plungyan tomonidan E. A. Grishina, K. M. Korchagin, N. V. Pertsov, A. E. Polyakov va D. V. Sichinava ishtirokida ishlab chiqilgan. She'riy matnlarni to‘plash va belgilash bo‘yicha eng asosiy ishlar T. A. Arxangelskiy, D. A. Ivanova, K. M. Korchagin, B. V. Orexov, D. V. Sichinava va K. A. Florinskiylar tomonidan amalga oshirilgan. Korpusni boyitishda L. A. Barkova, N. K. Bogomolova, A. V. Bulannikov, I. S. Bulkina, A. A. Vasyatkina, E. A. Grishina, E. N. Lovlya, D. A. Paramonova, A. V. Praxt, D. E. Smirnov, D. A. Ershler kabi tadqiqotchi-olimlar ham faol ishtirok etishgan. Ishni muvofiqlashtirish va she’riy subkorpusning belgilarini tahrirlash D. V. Sichinava ishtirokida V. A. Plungyan va K. M. Korchagin tomonidan amalga oshirilgan [16]. 2006- yildan bugungi kungacha rus tili milliy korpusi tarkibida She’riy matnlar korpusi rivojlanib, boyitilmoqda. Ushbu korpus XVIII boshlab bugungi rus zamonaviy she’riyati namunalari va ijodkorlarning she’riy tarjimalari bilan boyitilgan. Manbalar mualliflarning eng to‘liq va mukammal nashrlari (shoir shaxsiy kutubxonasi, mukammal asarlari) materiallariga asoslangan. Korpusga yosh avlod shoirlarining jamoaviy antologiyalari ham kiritilgan. Odatiy semantik va morfologik belgilarga qo‘shimcha, meta-belgilashning bir qismi sifatida maxsus versifikatsion belgi taqdim etiladi.

O‘zbek tilshunosligida esa she’riy matnlar korpusini tuzish ishlari kun tartibidagi birinchi masalalardan biridir. Bunda korpus tuzuvchisi oldidagi dastlabki qadam – davri, maqsadi, izohlanishi, matn hajmi, izoh xususiyatiga ko‘ra yaratilajak korpus turini va korpus materialini aniqlashtirib olishdan iborat. Professor Sh.Hamroyevaga ko‘ra[17] Korpus tuzishning texnologik jarayoni bir necha bosqichlarni qamrab oladi. 1. Belgilangan manbaga muvofiq holda matnning korpusga kirishini ta’minlash. 2. Matnni avtomatik o‘qilish shaklida qayta ishlash, ya’ni korpusga kiritiladigan elektron shakldagi matn turli usul bilan olingan bo‘lishi mumkin: qo‘lda terilgan, skanerlangan, mualliflik nusxasi, hadya, ayirboshlash, internet, nashriyotlar tomonidan korpus tuzuvchisiga beriladigan orginal maketlar.

3. Tahlil, matnga dastlabki ishlov berish bosqichida turli manbalardan qabul qilingan matnlar filologik tekshiruv, tahrirdan o‘tadi. 4. Konversiyalash, grafematik tahlil, ba’zi matnlar qayta kodlashtirish jarayoni amalga oshadigan ilk mashina ishlovidan qayta-qayta o‘tadi, nomatniy qismlar, jadvallar, rasmlar o‘chiriladi yoki o‘zgartiriladi. Matndagi bo‘g‘in ko‘chirish, chegaralar bekor qilinadi, tire va boshqa belgilar bir xilligiga erishiladi. 5. Grafematik tahlil korpusga kiruvchi matnni qismga (so‘z, bog‘lovchi) ajratish, nomatniy elementni o‘chirish kabi amallarni bajaridan iborat. 6. Nostandart (noleksik) elementni belgilash, rasmiylashtirish, maxsus matniy elementni (qisqartma asosida yozilgan nom (ism, familiya), boshqa alifboda yozilgan o‘zlashma leksema, rasmga berilgan izoh, nom, zarvaraq, adabiyotlar ro‘yxati va b.) bir xil me’zon asosida qayta ko‘rib chiqish. Ammo she’riy asarlar uchun korpus yaratish jarayinida yuqorida sanab o‘tilgan bosqichlardan tashqari yana ayrim qo‘shimcha ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Hozirda bizning tadqiqotimiz korpus tuzishning 1-2-3-texnologik jarayonlari yakunlangan bo‘lib, dastlab O‘zbek xalqining buyuk shoirlari Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon ijodiga mansub asarlar Ziyo.net kutubxonasidan[18] elektron shaklda pdf formatda kompyuter xotirasiga saqlab olindi. Abdulla Oripovning 26 ta (shoirning dastlabki to‘plamlari tarkibidagi she’rlar mukammal asarlari to‘plamida takrorlanganligi sababli tadqiqot obyekti sifatida 8 jildli mukammal asarlari to‘plamini oldik). Muhammad Yusufning 13 ta, Shavkat Rahmonning 5 ta she’riy to‘plami mavjud ekanligi aniqlandi. Pdf formatidagi barcha kitoblar PDF to Word Converter dasturi orqali docx format holatiga keltirildi, Bexato telegram boti orqali kitoblar kril alifbosidan lotin alifbosiga o‘girildi, ushbu jarayonda yuzaga kelgan texnik va imloviy kamchiliklar filologik tekshiruv va tahrirdan o‘tkazilib, she’riy matnlar nashr holati bilan bir xillikka erishildi. Asarlardagi nashriyot nomi, kirish so‘zlar, mundarija kabi asasiy matn tarkibiga kirmaydigan qismlar olib tashlandi. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon asarlari va ularning umumiy hajmini (sahifada) quyidagi jadvalda keltirdik.

T/R	Abdulla Oripov		Muhammad Yusuf		Shavkat Rahmon	
	Asar	Sahifalari	Asar	Sahifalari	Asar	Sahifalari
1.	Mukammal asarlari to‘plami 1-jild	428	Ko‘nglimda bir yor	32	Gullayotgan tosh	62
2.	Mukammal asarlari to‘plami 2-jild	492	Bulbulga bir gapim bor	54	Hulvo	63
3.	Mukammal asarlari to‘plami 3-jild	382	Erka kiyik	70	Saylanma	215
4.	Mukammal asarlari to‘plami 5-jild	399	Halima enam allalari	36	Uyg‘oq tog‘lar	190

5.	Mukammal asarlari to‘plami 6-jild	382	Iltijo	60	Yurak qirralari	107
6.	Mukammal asarlari to‘plami 7-jild	299	Ishq kemasi	220		
7.	Mukammal asarlari to‘plami 8-jild	322	Iymon qo‘shig‘i	75		
8.			O‘zingdan qo‘ymasin xalqim	102		
9.			Saylanma	366		
10.			Uyqudagi qiz	206		
11.			Tanish teraklar	66		
12.			Xalq bo‘l elim	189		
13.			Yolg‘onchi yor	151		
jami	7 ta to‘plam	2704 sahifa	13 ta to‘plam	1627 sahifa	5 ta to‘plam	637 sahifa

Korpus yaratishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan dastlabki matn to‘plash va tahrir bilan bog‘liq texnik ishlar yuqoridagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Dunyo tajribasida korpus tildan foydalanishda uning statistik analizi, tabiiy tilni qayta ishlash dasturiy ta’minoti, leksik resurslarni yaratish, til o‘qitish va boshqa qator maqsadlarda qo‘l kelmoqda. O‘zbek adabiyotining buyuk shoirlari Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon o‘zining betakror she’riyati va uslubiga ega, shuning uchun ularning asarlari asosida yaratilgan she’riy korpus nafaqat o‘zbek adabiyoti, she’riyatini chuqurroq tushunishga, balki zamonaviy poetikaning rivojlanishini o‘rganishga ham katta imkoniyat yaratadi va o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning davomi sifatida ularni to‘ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабанаров А. Разработка принципов построения словарного обеспечения турецко-русского машинного перевода: Автореф. дисс… канд. фил. наук. – Ленинград, 1981.;

2. Айымбетов Н.К. Опыт лингвостатистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста: Автореф. дисс… канд. фил. наук.– Ташкент, 1987.;

3. Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. Частотали луғат. Терс луғат. – Тошкент, 2007. – 420 б.;

4. Ризаев С. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Фил.фан.док.дис…автореф. – Тошкент, 2008.;

5. Ўринбоева Д.Б. Ўзбек фольклори матнларининг лингвостатистик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2010.

6. Муҳаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006. – 45 б.

7. Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. – Бухоро, 2018. – 250 б.;

8. Тоирова Г.И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021.

9. Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. – Бухоро, 2020. – 40 б.;

10. Эшмуминов А.А. Ўзбек тили миллий корпуси синоним сўзлар базасини яратиш асослари: Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. – Термиз, 2019. – 140 б.

11. Атабоев Н. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (COCA мисолида) . Дис. Автореферат. 15- бет.

12. Begmatova G. O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. PhD dissertatsiya. 2021

13. Xidirov O. Milliy korpus uchun parsing dasturi yaratishning lingvistik asoslari. .PhD dissertatsiya 2021.

14. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (Содда гаплар мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. – Тошкент, 2018.

15. www.ruscorpora.ru sayti

16. https://ruscorpora.ru/corpus/poetic

17. Хамроева Ш. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати”. –Тошкент: Камалак, 2018.

Ziyo.net kutubxonasi.

UDK: 81'33

O‘ZBEK TILI KORPUSINI ANNOTATSIYALASH VA TEGLASH (UMUMIY QOIDA VA TIZIMLAR)

Samatboyeva Madina To‘lqinjon qizi,
tayanch doktorant
samatboyevamadina@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek tili korpuslarini tuzish jarayonida amalga oshiriladigan **annotatsiyalash** va **teglash** ishlari, ularning umumiy qoidalari hamda qo‘llanilayotgan tizimlar haqida so‘z boradi. Maqolada avvalo korpuslar uchun zarur bo‘lgan morfologik, sintaktik va semantik darajadagi teglash turlari bayon etiladi. O‘zbek tilining agglutinativ xususiyati, morfologik murakkabligi va erkin so‘z tartibi kabi xususiyatlari tufayli annotatsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari muhokama qilinadi.

Abstract. This article discusses the annotation and tagging processes carried out during the construction of Uzbek language corpora, their general principles, and the systems being used. The paper outlines various types of tagging required at the morphological, syntactic, and semantic levels. Due to the agglutinative nature, morphological complexity, and free word order of the Uzbek language, certain challenges arise during annotation, and the article explores potential solutions to these issues.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы аннотирования и теггирования, проводимые при создании корпусов узбекского языка, их общие принципы и используемые системы. В статье описываются различные уровни теггирования: морфологический, синтаксический и семантический. Агглютинативная природа узбекского языка, его морфологическая сложность и свободный порядок слов создают определённые трудности в процессе аннотирования, и в статье обсуждаются пути их решения.

Kalit so‘zlar: *korpus, annotatsiya, teg(lash), NLP, razmetka, POS-tagging.*

KIRISH.

Korpusli lingvistika zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda tabiiy til materiallari to‘plami – korpuslar asosida lingvistik tadqiqotlar olib boriladi. Annotatsiya esa korpusdagi til birliklarini maxsus belgilar orqali tavsiflash jarayonidir. Annotatsiyalangan korpuslar tilning turli darajadagi xususiyatlarini o‘rganishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada

korpusli annotatsiya qilish tamoyillari, ularning nazariy asoslari, yetakchi olimlar ishlari hamda xalqaro amaliyotdagi annotatsiya tizimlari tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasining jadal rivojlanishi korpus lingvistikasiga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ayniqsa, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt tizimlarida til birliklarini chuqur tahlil qilish zarurati korpusli annotatsiya qilish tamoyillarini ishlab chiqishga asos yaratdi. Korpusli annotatsiya — bu til birliklariga ma’lum lingvistik yoki statistik ma’lumotlarni bog‘lash, ya’ni ularni tegishli kategoriyalar bilan belgilash jarayonidir. Ushbu maqolada korpusli annotatsiya qilish tamoyillari, shu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot ishlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Leech korpus annotatsiyasining umumiy tamoyillari, POS-tagging (so‘z turkumlarini belgilash) bo‘yicha asosiy standartlarni ishlab chiqqan **Geoffrey Leech** o‘zinig *“Corpus Annotation Schemes”* asarida korpus va uni tuzish tamoyillariga atroflicha to‘xtalib o‘tadi[1].

Nancy Ide va Jean Veronis o‘zining “*Introduction to the Special Issue on Corpus Annotation” (1994) asari orqali a*nnotatsiya turlari (morfologik, sintaktik va semantik) va ularning korpuslar bilan integratsiyasi haqida muhim izlanishlar olib borgan[2].

“Foundations of Statistical Natural Language Processing” asari muallifi **Christopher D. Mann** o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida annotatsiya va statistik modellar asosida tilni avtomatik tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan[3].

ASOSIY QISM

Annotatsiya

Annotatsiyalash (lotincha *annotatio* — izoh, tushuntirish) — bu korpusdagi matnlarga lingvistik axborot qo‘shish jarayoni. Bunda matndagi har bir so‘z yoki fraza:

- so‘z turkumi (masalan, ot, fe’l, sifat – POS-tagging),
- morfologik shakllari (yig‘iq, ko‘plik, zamon),
- sintaktik roli (gapda qanday funksiya bajaradi),
- yoki hatto semantik ma’no (mazmuni, mavzusi)

bilan belgilab chiqiladi. Matnni annotatsiyalashdan maqsad – matnni kompyuterlar uchun tushunarli va tahlilga yaroqli holga keltirish. *Annotatsiya* atamasi bir vaqtning o‘zida *razmetka* atamasi bilan yonma-yon qo‘llaniladi.

Razmetka – bu matnga belgilovchi teglar (markup tags) qo‘shish jarayoni. Bu teglar lingvistik bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Misol uchun:

- HTML razmetkasi <title>, <p> kabi teglar bilan tuziladi.
- Lingvistik korpusda esa razmetka:

  [NOUN]kitob[/NOUN] [VERB]o‘qidi[/VERB]

Ko‘rinib turibdiki, razmetka *texnik belgilar orqali* ma’lumotni ko‘rsatadi.

Annotatsiya va razmetkaning **o‘xshash** tomonlari: Ikkalasi ham *matnga qo‘shimcha ma’lumot* qo‘shadi, ikkalasi ham *korpuslar bilan ishlashda* qo‘llaniladi, ikkovining maqsadi ham – *matnni strukturaviy yoki semantik jihatdan boyitish.*

Farqlari:

№	Annotatsiya	Razmetka
1	Lingvistik tahlilga qaratilgan	Ko‘proq texnik ko‘rinishdagi belgilash
2	So‘z turkumi, morfologiya, sintaksis va semantika bilan bog‘liq	Strukturaviy yoki vizual tashkil etish uchun ishlatiladi
3	Masalan: kitob → NOUN, o‘qidi → VERB	Masalan: <bold>kitob</bold>
4	Ma’lumot ko‘pincha ko‘rinmas holatda fayl tuzilmasida saqlanadi	Ma’lumot ochiq ko‘rinishda, HTML/XML kabi formatlarda bo‘ladi

Agar siz matnning tilshunoslik jihatlariga e’tibor qaratayotgan bo‘lsangiz – bu *annotatsiyalash.* Agar siz matnning strukturaviy tashkiliga yoki formatlanishiga e’tibor qaratayotgan bo‘lsangiz – bu *razmetka.*

Korpus annotatsiyasi bu korpusdagi til birliklariga (so‘z, so‘z birikmalari, gap va h.k.) morfologik, sintaktik, semantik yoki pragmatik axborotlarni qo‘shish jarayonidir.

Shunday xalqaro annotatsiya korpus tizimlari mavjudki, ular juda katta hajmdagi ma’lumotlar bazasini o‘zida saqlaydi. Masalan, **“Penn Treebank (AQSh)”** (1993-yilda yaratilgan) POS-tagging va Constituency parsing (bu- gapni grammatik tuzilmasiga ko‘ra tahlil qilish usuli bo‘lib, u gapdagi so‘zlar va ularning guruhlari (ya’ni frazalar) qanday qilib bir-biriga bog‘langanini ko‘rsatadi. O‘zbekchaga tarjima qilganda**, “fraza tahlili”** yoki **“ibora tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish”**) tizimida annotatsiya qiladi. Bu korpusda har bir so‘zga so‘z turkumi, har bir gapga esa sintaktik daraxt strukturasi biriktirilgan. Bu korpus, shuningdek, belgi (character-level) va so‘z darajasidagi (word-level) til modellari (Language Modelling) uchun ham keng qo‘llaniladi[4].

British National Corpus (BNC) - Bu ingliz tilidagi katta hajmdagi matnlar to‘plami bo‘lib, ingliz tilini o‘rganish, tadqiq qilish va tahlil qilish uchun yaratilgan. Ushbu korpus o‘z tarkibi 100 milliondan ortiq so‘zni jamlagan. POS-tagging asosida annotatsiya qilingan. Leech tomonidan ishlab chiqilgan CLAWS (Constituent Likelihood Automatic Word-tagging System) tizimi asosida annotatsiyalangan.

Yozma matnlariga: kitoblar, gazeta maqolalari, fan, san’at, din, qonun, hujjatlar va hokazolar (taxminan 90%) va og‘zaki nutq yozuvlari (spoken data): intervyular, suhbatlar, radio eshittirishlari va hokazolar (taxminan 10%) kiritilgan[5].

Shuningdek, **Universal Dependencies (UD)** (2014- hozirgi kunga qadar yangilanmoqda) – Leksik morfologik xususiyatlar, sintaktik bog‘liqliklarni tahlil qiluvchi har xil tillar uchun yagona sintaktik annotatsiya tizimidir. Ushbu tizim tarkibida 50ga yaqin tillar bazasi mavjud bo‘lib, hatto unda o‘zbek tili treebank bazasi ham kiritilgan. (Qarang: 1-rasm). O‘zbek tili treebankida 17 ta teglar ro‘yxati, morfologik tahlillar, segmentatsiya, abbreviatura, tokenlar tog‘risioda ma’lumotlar keltirilgan[6].



UD for Uzbek

Tokenization and Word Segmentation

- In general, words are delimited by whitespace characters.
- According to typographical rules, many punctuation marks are attached to a neighboring word. These are normally tokenized as separate tokens (words), with the following exception:
  - The period that marks an abbreviation is part of the abbreviation token: *mln.* “million”, *A.* Navoiy “A. Navoi”

Morphology

- Uzbek has a rich inflectional and derivational morphology.
- Question suffixes are written adjacent to the word in Uzbek. *-mi*

Tags

- Uzbek uses all 17 UPOS categories:
  1. PRON: Men, sen, u.
  2. PUNCT: - ., ?, ;
  3. VERB: o‘qidi, kelmoqchi, ishla.
  4. NOUN: oila, do'st, quyosh.
  5. AUX: kerak, mumkin, edi, emas.
  6. ADP: bilan, uchun, haqida.
  7. CCONJ: va, yoki, hamda.
  8. SCONJ: agar, chunki, ya'ni.
  9. ADV: atayin, juda, tez.
  10. PROPN: Toshkent, Navoiy, Bobur.
  11. DET: bu, ayrim, barcha.
  12. ADJ: qizil, tinch, aqlli.
  13. NUM: ikki, yuz, ming.
  14. INTI: hov, salom, ofarin.

1-rasm. Universal Dependencies (UD)da “Uzbek treebank”i

Annotatsiya qilish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Aniqlik va izchillik (consistency) – har bir birlik bir xil me’yorda belgilanishi kerak.
2. Qayta foydalanish (reusability) – korpus boshqa tadqiqotlar uchun ham foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.
3. Standartlashtirish (standardization) – xalqaro annotatsiya standartlariga rioya qilish kerak.

4. Ko‘p darajalilik (multi-level annotation) – korpusda morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik annotatsiyalar mavjud bo‘lishi mumkin.

Teg(lash)

Teglar barcha turdagi transkripsiyalarni (fonetik xususiyatdan nutqiy qurilmagacha), POS teglash, ma’no belgilari, sintaktik tahlil, NER obyektlar, semantik rol belgilari, vaqt va hodisalarni aniqlash, so‘zlarning sintaktik zanjirlarini, nutq darajasini o‘z ichiga olishi mumkin [7,8,9]. Lingvistik teglashning eng muhim komponenti bu tegishli teg birligi (masalan, tovush, token yoki so‘z, birikma, fragment, hujjat) bilan bog‘lanishi kerak bo‘lgan teglar va tegishli xususiyatlarni belgilaydigan teglash sxemasi hisoblanadi. Bugungi kunda korpus matnlarini lingvistik teglashni qo‘lda yoki yarim avtomatik tarzda amalga oshirish mumkin. NLP bilan bog‘liq lingvistik bilimlarning jihatlari haqida turli xil qarashlar mavjud. Umuman olganda, NLP tadqiqotchilarining aksariyati NLP bilan bog‘liq lingvistik bilimlar, hech bo‘lmaganda, leksik, sintaktik, semantikva pragmatik xususiyatlarni o‘z ichiga olishi kerak, deb hisoblashadi [10]

Korpus lingvistikasida teglardan foydalanish vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, texnologiya, lingvistik nazariyalar va tadqiqot metodologiyasidagi yutuqlarni aks ettirdi. Korpus lingvistikasida teglar tarixini hisoblash tilshunosligining dastlabki rivojlanishi va matn korpusida tizimli va tuzilgan lingvistik annotatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘lash mumkin[11]

Shu o‘rinda annotatsiya va teglash atamalarining o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqish muhimdir. **Ikki atamaning o‘xshash tomonlari: H**ar ikkalasi ham **matnga qo‘shimcha axborot qo‘shish** bilan bog‘liq, har ikkalasi ham **korpuslarni boyitish,** ya’ni kompyuterga tilni "tushuntirish" uchun xizmat qiladi va har ikkalasi NLP (Natural Language Processing) va korpus lingvistikasi sohalarida keng qo‘llaniladi.

Farqlari:

№	Annotatsiya	Teglash
1	Kengroq tushuncha: har qanday qo‘shimcha axborotni matnga qo‘shish (POS, sintaksis, semantika, diskurs, his-tuyg‘u va h.k.)	Matndagi so‘zlarga maxsus teglar (labels) berish — ayniqsa grammatik yoki morfologik teglar (masalan: NOUN, VERB, ADJ)
2	Har xil darajadagi (morfologik, sintaktik, semantik) ma’lumotni qo‘shadi	Odatda faqat bir qatlamli axborot (ayniqsa POS-tagging) bilan chegaralanadi
3	Misol: matnda shaxs nomlarini, joy nomlarini, hissiyotlarni yoki referenslarni ajratish ham annotatsiyaga kiradi	Misol: “kitob” → NOUN, “o‘qidi” → VERB

4	Annotatsiyalashda razmetka texnologiyasi ishlatilishi mumkin (lekin bu shart emas)	Teglash — annotatsiyaning bir turi hisoblanadi

Teglash — annotatsiyaning bir ko‘rinishi. Ya’ni, har bir teglash annotatsiyadir, lekin har bir annotatsiya teglash emas.

Annotatsiya kengroq tushuncha bo‘lib, unga *teglash, semantik izoh, diskurs belgilarini qo‘shish, entitet aniqlash* kabi jarayonlar kiradi.

XULOSA

Korpus annotatsiyasi tilshunoslikda chuqur tahlil imkoniyatlarini yaratadi. Annotatsiyaning yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillar asosida olib borilishi ilmiy tadqiqotlarning aniqligini ta’minlaydi. Yetakchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tizimlar va korpuslar bu boradagi metodologik yondashuvlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida ham shunday tizimli va standartlashtirilgan annotatsiyalangan korpuslar yaratish orqali milliy tilshunoslikni jahon miqyosida yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Xulosa qilib aytganda, O‘zbek tili korpusini sifatli annotatsiyalash va teglash – tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, matnni tahlil qilish kabi texnologiyalarni rivojlantirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va sintaktik tuzilmalari ushbu jarayonni murakkablashtiradi, ammo moslashtirilgan teglash tizimlari va xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin. Annotatsiya ishlari davomida yaratilgan korpuslar kelajakda o‘zbek tilini chuqur o‘rganish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va sun’iy intellekt tizimlarida keng foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leech, G. (1997). New Standards for Tagging and Parsing. In: Garside, R., Leech, G., McEnery, T. (Eds.) Corpus Annotation.
2. Ide, N., Veronis, J. (1994). Computational Linguistics, 19(2).
3. Manning, C., Schütze, H. (1999). Foundations of Statistical Natural Language Processing. MIT Press.
4. https://paperswithcode.com/dataset/penn-treebank
5. https://www.english-corpora.org/bnc/
6. https://universaldependencies.org/uz/index.html
7. Xusainova Z.Y. NLP: tokenizatsiya, stemming, lemmatizatsiya va nutq qismlarini teglash // “O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi –Toshkent, 2022. No.1. –B.154-163.
8. Bi, P. (2018). Handbook of Linguistic Annotation. Journal of Quantitative Linguistics. https://doi.org/10.1080/09296174.2018.14244955.

9. B.Boltayevich, E.B., Mirdjonovna, H.S., & Ilxomovna, A. X. (2023). Methods for Creating a Morphological Analyzer. Lecture Notes in Computer Science (Including Subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 13741 LNCS. https://doi.org/10.1007/978-3-031-27199-1_4

10. Eugene. 1997. “Statistical Techniques for Natural Language Parsing”. AI Magazine 18(4):33–44

UDK: 811.512.133`42

O‘ZBEK-TURK PARALLEL KORPUSI UCHUN MATNLARNI TANLASH MEZONLARI

Xolmonova Iqbola Alisher qizi
tayanch doktoranti
iqbolabintualisher@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek-turk parallel korpusini yaratishda matn tanlashning lingvistik, tarjima sifati, texnik va huquqiy mezonlari tahlil qilinadi. Lingvistik va uslubiy mezonlar grammatik va semantik moslikni ta’minlasa, tarjima sifati va ekvivalentlik matn mazmunining aniq yetkazilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, texnik va huquqiy jihatlar raqamli formatlarga moslik, mualliflik huquqlari va qonuniylik talablarini qamrab oladi. Ushbu mezonlarga asoslangan yondashuv parallel korpus sifatini oshirish va avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek-turk parallel korpusi, matn tanlash mezonlari, lingvistik moslik, tarjima sifati, ekvivalentlik, texnik talablar, huquqiy normalar, avtomatik tarjima, neyron mashina tarjimasi (NMT), korpus lingvistikasi.

Til korpuslari zamonaviy lingvistika, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt sohalarida muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, tabiiy tilni chuqur o‘rganish va avtomatlashtirilgan til tizimlarini yaratishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Korpuslar yordamida turli tillarning grammatik va leksik xususiyatlarini o‘rganish, tarjima tizimlarini shakllantirish, matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, parallel korpuslar neyron mashina tarjima, avtomatik tarjima va ko‘p tilli ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek-turk parallel korpusini shakllantirish, o‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi lingvistik o‘xshashliklar va tafovutlarni o‘rganish, hamda ikki tilli tarjima tizimlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muhim vositalardan biridir. Ushbu korpusning samaradorligi va ilmiy-texnikaviy qiymati ko‘p jihatdan unda foydalaniladigan matnlarning sifatiga bog‘liqdir. Shu sababli, korpus tarkibiga kiritiladigan matnlarni tanlashda aniq ilmiy mezonlarga asoslangan yondashuv talab etiladi. Matnlarni tanlash mezonlari uch asosiy tamoyilga asoslanadi. Birinchidan, lingvistik va tarjima sifati mezonlari matnlarning grammatik, leksik va sintaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini, tarjima sifatining yuqori darajada saqlanganligini ta’minlaydi. Ikkinchidan, janr va uslubiy muvozanat mezonlari turli janrlardagi matnlarning korpusda teng taqsimlanishini hamda real til materiallarini to‘liq qamrab olishni ta’minlaydi. Uchinchidan, texnik va huquqiy talablar mezonlari

matnlarning raqamli formatga mosligi, qayta ishlashga qulayligi hamda huquqiy jihatdan ruxsat etilgan materiallardan foydalanilishini kafolatlaydi[1].

Lingvistik va uslubiy mezonlar. Parallel korpuslar tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasi va lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbek-turk parallel korpusi uchun matnlarni tanlashda lingvistik va uslubiy mezonlarni hisobga olish korpus sifati va funksionalligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mezonlar matnlarning grammatik, leksik va sintaktik to‘g‘riligini ta’minlash bilan birga, ularning uslubiy xususiyatlarini ham inobatga oladi. O‘zbek va turk tillari agglutinativ tuzilishga ega bo‘lib, so‘z yasash va grammatik kategoriyalarni ifodalashda qo‘shimchalardan keng foydalaniladi. Shu sababli, korpus tarkibiga kiritiladigan matnlar grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi talab qilinadi. Masalan: “*Men kitob o‘qiyapman”* gapi “*Ben kitap okuyorum”* tarzida bo‘lsa demak bu gap grammatik jihatdan to‘g‘ri gap hisoblanadi. Yoki aksincha “*Men kitob o‘qiydi”* va yoki *“Ben kitap okur”* kabi gaplar grammatik jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi. Ushbu grammatik jihatdan noto‘g‘ri gaplar yoki tarjimalar grammatik moslikni buzadi, chunki o‘zbek tilidagi *o‘qiydi* shakli umumiy hozirgi zamonni bildirsa, turk tilidagi *okur* odatiy harakatni ifodalaydi. Shuning uchun matnlarni tanlashda grammatik tuzilmalarning mos kelishiga e’tibor qaratish kerak.

So‘z va iboralarning aniq ekvivalentga ega bo‘lishi parallel korpus sifatini oshirishda muhim omildir. O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lsa ham, ularda arabcha, forscha va yevropa tillaridan olingan so‘zlar mavjud. Shu sababli, korpus uchun tanlanadigan matnlar leksik jihatdan bir-biriga mos kelishi lozim. Maslan, “*Talaba ilm izlaydi”* gapi turkchaga “*Öğrenci ilim arar”*deb tarjima qilingan bo‘lsa, demak bu tog’ri tanlangan ekvivalent hisoblanadi. Agar mazkur gap

“*Öğrenci bilim arıyor”*deb Tarjima qilingan bo‘lsa, demak bu ekvivalent noto‘g‘ri tanlangan bo‘ladi. Chunki, bu holatda *bilim* so‘zi turk tilida *science* (ilm-fan) ma’nosida keladi, holbuki o‘zbek tilidagi *ilm* so‘zi turk tilida *ilim* shaklida qo‘llaniladi.

O‘zbek va turk tillari so‘z tartibi jihatidan o‘xshash bo‘lsa ham, ayrim hollarda sintaktik strukturalar farq qiladi. Masalan, o‘zbek tilida fe’l har doim gapning oxirida keladi, turk tilida esa ba’zan oldinga surilishi mumkin. Maslan, *“U kitob o‘qiyapti”* gapi “*O kitap okuyor”* deb qilingan bo‘lsa, demak mazkur parallel gaplar so‘z tartibi jihatidan to‘g‘ri tanlangan hisoblanadi. Agar *“U kitob o‘qiyapti”* gapi “*Okuyor o kitap”* deb tarjima qilingan bo‘lsa, korpus uchun bunday matnlarni tanlamagan ma’qul, chunki noto‘g‘ri sintaktik moslik tarjima sifatiga ham, parallel korpus sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi[2].

O‘zbek-turk parallel korpusi uchun turli janrdagi matnlar tanlanishi lozim. Har bir janr o‘ziga xos lingvistik va stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu tarjima modelining har xil kontekstlarga moslashishiga yordam beradi.

1-jadval. Parallel korpus uchun tanlanadigan turli til uslublaridagi matnlarga misollar

Janr	O‘zbek tilidagi matn	Turk tilidagi matn
Ilmiy matn	“Bu hodisa fizika qonunlariga asoslangan.”	“Bu olay fizik kanunlarına dayanmaktadır.”
Badiiy matn	“Quyosh ufq ortiga yashiringan edi.”	“Güneş ufkun ardına saklanmıştı.”
Rasmiy matn	“Mazkur qaror qabul qilindi.”	“Bu karar kabul edilmiştir.”
So‘zlashuv uslubidagi matn	“Nima gap?”	“Ne haber?”
Publitsistik matn	“Hozirgi zamonning eng katta muammosi – ekologiya.”	“Günümüzün en büyük sorunu - ekoloji.”

Matnlarni tanlashda janrlarning bir xil muvozanatda taqsimlanishiga e’tibor berish kerak, aks holda korpus faqat bitta uslubga xos xususiyatlarni o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbek-turk parallel korpusi uchun matnlarni tanlashda lingvistik va uslubiy mezonlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Grammatik to‘g‘rilik, leksik-semantik moslik va sintaktik strukturalarning mos kelishi tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Janr va uslubiy tafovutlarni e’tiborga olish esa korpusdan olingan ma’lumotlarning turli kontekstlarda qo‘llanilish imkoniyatini kengaytiradi. Shunday qilib, lingvistik va uslubiy jihatlarga asoslangan matn tanlash metodologiyasi O‘zbek-turk parallel korpusining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarjima sifati va ekvivalentlik mezonlari. Parallel korpuslar neyron mashina tarjima, qoida asosidagi tarjima va statistik mashina tarjimasi kabi texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy manba hisoblanadi. Korpus tarkibidagi matnlarning sifati tarjima tizimlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, parallel korpus yaratishda matnlarni tanlashda tarjima sifati va ekvivalentlik mezonlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu mezonlar tarjimalarning aniq va tabiiy bo‘lishini, tarjima birliklarining semantik va pragmatik jihatdan to‘g‘ri kelishini hamda tarjima jarayonida ma’lumot yo‘qolishining oldini olishni ta’minlaydi. O‘zbek-turk parallel korpusidagi matnlar har xil tarjima usullaridan foydalangan holda yaratilgan bo‘lishi mumkin:

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima – Matn bevosita tarjima qilingan bo‘lib, tabiiy va aniq ekvivalentlarni o‘z ichiga oladi.
- Oraliq til orqali tarjima – Matn dastlab boshqa tilga tarjima qilingan va keyin turk tiliga yoki o‘zbek tiliga o‘girilgan (masalan, ingliz tilidan tarjima). Bunday tarjimalar ko‘pincha aniq bo‘lmaydi.

- Mashina tarjimasi yordamida yaratilgan matnlar – Sun’iy intellekt yordamida tarjima qilingan, biroq inson tomonidan tahrir qilinmagan matnlar bo‘lishi mumkin.

Korpusga kiritiladigan matnlar asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan yoki inson tomonidan tekshirilgan bo‘lishi lozim[3].

Yuqori sifatli tarjima matnning ma’no jihatidan to‘g‘ri kelishidan tashqari, uning tabiiy va ravon bo‘lishini ham talab qiladi. O‘zbek va turk tillari struktura jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ba’zan sintaktik farqlar yuzaga keladi. Maslan, o‘zbek tilidagi *“U juda aqlli inson”* gapi turk tiliga *“O çok zeki bir insan”* deb Tarjima qilingan bo‘lsa, demak bu gap parallel korpus uchun to‘g‘ri tanlagan moslik hisoblanadi. “*O çok akıllı bir insan”* deb tarjima qilingan bo‘lsa, bu ekvivalentni korpus uchun tanlamagan ma’qul, chunki bu holatda *aqlli* so‘zi turk tilida *akıllı* sifatida tarjima qilinsa ham, *“zeki”* shakli aniqroq va tabiiyroq hisoblanadi.

Fan, texnika va huquq sohalarida ishlatiladigan matnlarda terminologiyaning bir xilligi muhim hisoblanadi[4]. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Elektr toki qarshilik orqali o‘tganda energiya ajralib chiqadi.”* gapi turk tiliga “*Elektrik akımı dirençten geçtiğinde enerji açığa çıkar.”* deb tarjima qilingan bo‘lsa, terminlar to‘g‘ri tanlangan gap hisoblanadi. Agar *“Elektrik akışı mukavemetten geçtiğinde güç ayrılır.”* deb tarjima qilingan bo‘lsa, *mukavemet* so‘zi texnik termin sifatida *“direnç”* so‘zi o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llanilgan gap hisoblanadi. Shu sababli, texnik terminlar uchun maxsus lug‘atlardan foydalanish kerak.

O‘zbek-turk parallel korpusida tarjima sifatining yuqori bo‘lishi uchun matnlarni tanlashda ekvivalentlik va tarjima sifati mezonlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Grammatik, leksik va sintaktik jihatdan to‘g‘ri tarjimalar neyron mashina tarjimasi va boshqa tarjima tizimlarining samaradorligini oshiradi. Formal va dinamik ekvivalentlikni ta’minlash esa tarjimalarning tabiiy va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Shu sababli, parallel korpus yaratishda lingvistik tahlil va tarjima sifatini baholash mexanizmlaridan foydalanish zarur[5].

Huquqiy mezonlar. Parallel korpuslar, ayniqsa mashina tarjimasi tizimlarini yaratishda muhim resurslar hisoblanadi. Korpusda ishlatiladigan matnlar aniq, to‘g‘ri va huquqiy jihatdan ishonchli bo‘lishi kerak. O‘zbek-turk parallel korpusini yaratishda, faqat huquqiy matnlar emas, balki umumiy matnlarni tanlashda ham huquqiy va normativ mezonlarga rioya qilish zarur. Bu talablar nafaqat tarjima sifatini oshiradi, balki matnning mazmunini ham aniq va to‘g‘ri ifodalashni ta’minlaydi. Korpusda ishlatiladigan har bir matn, ikki til o‘rtasida tushunmovchiliklarni kamaytirish va huquqiy tizimlarning farqlarini hisobga olishga xizmat qilishi lozim[6].

Matnlarni tanlashda eng birinchi mezon, tanlangan matnning qonuniy jihatdan yasalganligi va amaldagi qonunlar bilan mos kelishidir. Har bir mamlakatning qonunlar, normativ hujjatlar va yuridik tizimiga mos matnlarni

tanlash, tarjima jarayonining ishonchliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu, ayniqsa, milliy qonunlarni ifodalovchi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy matnlar uchun dolzarbdir. Shu bilan birga, masalan, xalqaro huquq, iqtisodiy bitimlar yoki boshqa xalqaro kelishuvlar haqida gapirganda, har bir davlatning o‘ziga xos qonunlariga amal qilish zarur. Misol uchun o‘zbek tilida: *“Shartnoma tomonlar o‘rtasidagi kelishuv asosida tuziladi.”* gapi turk tiliga *“Sözleşme taraflar arasındaki anlaşma temelinde yapılır.”* tarzida tarjima qilingan bo‘lishi lozim. Mazkur gapda ikki tilda ham shartnoma va kelishuv tushunchalari aniq va to‘g‘ri ifodalangan. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirishda, har bir davlatning qonuniy talablari, masalan, kelishuv yoki shartnoma qonuniyligi to‘g‘risidagi normativ hujjatlar hisobga olinadi.

O‘zbek-turk parallel korpusini tuzishda, matnlardagi huquqiy atamalar o‘rtasidagi moslikka alohida e’tibor berish zarur. Huquqiy atamalar (masalan, *“shartnoma”, “tartib”, “qonun”, “haq”, “javobgarlik”*) o‘ziga xos aniq va qat’iy ma’noga ega bo‘lishi kerak. Agar tarjimadagi atamalar yuridik jihatdan noaniq bo‘lsa, bu tushunmovchilikka olib kelishi va natijada noto‘g‘ri yuridik qarorlarga sabab bo‘lishi mumkin. Matnni tanlashda, har bir huquqiy atamaning o‘z tilidagi to‘g‘ri ekvivalentini tanlash va ular o‘rtasidagi tafovutlarni hisobga olish muhimdir. Misol uchun, o‘zbek tilida: “*Fuqarolik javobgarligi shartnomada belgilangan asosda amalga oshiriladi.”* gapi turk tiliga: *“Medeni sorumluluk sözleşmede belirlenen esaslar doğrultusunda yerine getirilir.”* deb tarjima qilingan bo‘lishi lozim. Shunda *fuqarolik javobgarligi* va *medeni sorumluluk* atamalari ikki til o‘rtasida aniq va to‘g‘ri tarjima qilingan deb hisoblaniladi. Har bir atamaning yuridik mohiyati, mamlakatlarning huquqiy tizimlaridagi ekvivalentlarga mos ravishda ko‘rsatilgan deb izohlash mumkin[7].

Korpusni tuzishda matnlarning qonuniy va normativ jihatdan muvofiqligi alohida ahamiyatga ega. Masalan, ijtimoiy muhim matnlar, iqtisodiy hujjatlar, siyosiy qarorlar yoki davlatning qonuniy me’yorlariga tegishli bo‘lgan matnlar tanlanishi kerak. Bu matnlar, har ikki til o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbek-turk parallel korpusi uchun matnni tanlashda, davlat qonunlariga mos keladigan rasmiy, normativ yoki huquqiy hujjatlar asosiy mezon bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zbek tilidagi: *“Davlat tomonidan tasdiqlangan dastur asosida moliyaviy yordam ko‘rsatiladi.”* turk tiliga: *“Devlet tarafından onaylanan program doğrultusunda mali yardım sağlanacaktır.”* Holatida bo‘lsa, har ikki tilda ham moliyaviy yordamning tasdiqlangan dastur asosida ko‘rsatilishi to‘g‘ri ifodalangan bo‘ladi. Qonuniy normativ hujjatlar va davlatning amaldagi dasturlari hisobga olinib, tarjima aniq va tushunarli bo‘lgan deb qarash mumkin.

Agar parallel korpusda xalqaro huquqiy matnlar mavjud bo‘lsa, bu matnlarning xalqaro konvensiyalar, bitimlar yoki shartnomalar bilan mos bo‘lishi kerak. O‘zbek va turk tillaridagi matnlar xalqaro huquq va kelishuvlarga muvofiq

tarjima qilinishi lozim. Bunday matnlar, yuridik noaniqliklarni bartaraf etish va har ikki mamlakatning xalqaro shartnomalari bilan mos kelishini ta’minlash uchun ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Masalan, o‘zbek tilida: *“Xalqaro huquq me’yorlariga asosan, davlatlar o‘zaro bitimlar tuzishda mustaqildir.”* gapi turk tilida: *“Uluslararası hukuk kurallarına göre, devletler birbirleriyle anlaşmalar yapma konusunda bağımsızdır.”* holatida bo‘lsa, demak bu misolda, *xalqaro huquq me’yorlariga asosan* va *uluslararası hukuk kurallarına göre* atamalari ikki til o‘rtasida to‘g‘ri ekvivalentlarda ifodalangan. Bunday matnlarni tanlash, xalqaro huquqning talablari va konvensiyalariga rioya qilishda muhimdir.

Matnlarni tanlashda, ularning huquqiy vaziyatga qanday ta’sir qilishi, yuridik jihatdan to‘g‘ri va tushunarli bo‘lishi ham muhimdir. Har bir matnni tarjima qilishda, uning maqsadi va kontekstiga e’tibor qaratish kerak[8]. Masalan, biror iqtisodiy bitim yoki huquqiy kelishuvni tarjima qilishda, uning tuzilishi va maqsadi aniq bo‘lishi kerak, bu esa har ikki til o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlaydi. Misol uchun, o‘zbek tilida: *“Tashkilot tomonidan taqdim etilgan grantlar xalqaro talablar asosida ajratiladi.”* gapi turk tilida: *“Kuruluş tarafından sağlanan hibeler uluslararası standartlar doğrultusunda verilecektir.”* deyilgan bo‘lsa, bu misolda, matnning konteksti va yuridik vaziyati, xalqaro talablar va shartlarga mos bo‘lishi kerakligi ifodalangan. Bu holatda, matnning mazmuni har ikki til o‘rtasida to‘g‘ri va aniq tarzda aks ettirilgan.

O‘zbek-turk parallel korpusida matnlarni tanlashda huquqiy mezonlarga rioya qilish tarjima sifatining yuqori bo‘lishini ta’minlash uchun zarur. Matnlarning qonuniy jihatdan yasalganligi, atamalarning to‘g‘ri ekvivalentliklari, huquqiy tizimlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish, xalqaro huquq va normativ talablarning inobatga olinishi bu jarayonning asosi hisoblanadi. Korpusda ishlatiladigan har bir matn, nafaqat tarjimadagi aniqlikni oshirish, balki huquqiy tizimlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.

O‘zbek-turk parallel korpusi, tilshunoslik va mashina tarjimasi sohalarida ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda keng qo‘llaniladigan asar hisoblanadi. Korpusda ishlatiladigan matnlar tanlashda bir qancha muhim mezonlarga rioya qilish, uning sifatini oshirish va tarjima tizimlarining samaradorligini ta’minlash uchun zarurdir. Bu mezonlar lingvistik, uslubiy, texnik va huquqiy jihatlardan iborat bo‘lib, matnlarning tarjima jarayonida aniq, to‘g‘ri va tabiiy bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan. Matnlarni tanlashda lingvistik mezonlar asosiy o‘rin tutadi. Bu mezonlar matnlarning grammatik va leksik to‘g‘riligini ta’minlashga yordam beradi. Tarjima qilinadigan matnlar o‘zbek va turk tillarining semantik va sintaktik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matnlarning uslubiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Matnlar turli xil uslublarda yozilgan bo‘lishi mumkin: rasmiy, ilmiy, texnik, huquqiy, kundalik va boshqalar. Uslubiy mezonlar matnning to‘g‘ri tarjima qilinishini, ya’ni har bir turdagi matnning o‘ziga xos ifodalanishini ta’minlaydi. Misol uchun, ilmiy

va texnik matnlar aniq va qat’iy tilni talab qiladi, shu bilan birga, huquqiy matnlar qat’iy yuridik terminologiyani talab etadi. Matnlar tarjimasi sifatining yuqori bo‘lishi, ayniqsa, mashina tarjimasi tizimlarining muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlashda muhimdir. Tarjima sifatini baholashda ekvivalentlik – ya’ni, asl matnning to‘liq va aniq tarjimasi – asosiy mezonlardan biridir[9]. Texnik va huquqiy matnlar parallel korpusda maxsus e’tiborga loyiqdir. Texnik matnlar ko‘pincha aniq terminologiyani va formatlarga mos kelishni talab qiladi, huquqiy matnlar esa qat’iy yuridik tilni va terminologiyani talab qiladi. Shuning uchun, bu turdagi matnlarni tanlashda ularning texnik va qonuniy jihatlariga e’tibor qaratish zarur[10].

O‘zbek-turk parallel korpusining muvaffaqiyatli ishlashi uchun matnlarni tanlashda yuqoridagi mezonlar qat’iy rioya qilinishi kerak. Har bir mezonning o‘ziga xos ahamiyati bor va ularning birgalikda qo‘llanishi tarjima tizimining samaradorligini oshiradi. Matnlarning lingvistik va uslubiy mosligi, tarjima sifati va ekvivalentligi, shuningdek, texnik va huquqiy jihatlarning hisobga olinishi parallel korpus yaratishda sifatli va ishonchli resurslarni ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, mashina tarjimasi va boshqa til texnologiyalarining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. N. Jucker, H. Z. S. Translation and Interpretation: A Comparative Linguistic Approach. Oxford University Press. 2020
2. Aydin, E. Cross-cultural Translation and Technology: Challenges in the Translation of Technical Texts. Istanbul: Bogazici University Press. 2018
3. Kershaw, P. Corpus Linguistics for Translation Studies. Cambridge Scholars Publishing. 2017
4. Nilsen, A. Technical Translation: A Practical Guide. Routledge. 2019
5. Popovic, A. Introduction to Translation Studies. Springer. 2018
6. Saussure, F. Course in General Linguistics. Columbia University Press. 2011
7. Shvidkovsky, S. Legal Translation and Bilingualism. Routledge. 2015
8. Zeng, Y. Corpus-Based Translation Studies: Theory, Methods, and Applications. Springer. 2020–P. 101-109.
9. Yang, Y. The Role of Parallel Corpora in the Development of Machine Translation Systems. Springer. 2016
10. Zare, G. Baghery, M. Translation Quality Assessment: A Case Study in the Ouzbek-Turk Parallel Corpus. International Journal of Translation and Interpretation Studies, 9(3), 2017–P. 25-42.

DIALEKTAL SO‘ZLAR VA NUTQ YOZUVLARINI SAQLASHNING DASTURIY YECHIMI

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Sanjarbek Baxodirov Rahmatali o‘g‘li,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
sanjarbahodirov9901@gmail.com
ToshDO‘TAU

Ruxsora Muftillayeva Toshmuhammad qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
ruxsoramuftillayeva@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada Django veb-freymvorkidan foydalangan holda dialektal nutq yozuvlarini saqlash modeli tahlil qilinadi. “Recording” modeli audio fayllar, ularning transkriptsiyasi, so‘zlovchining ma’lumotlari va yozib olingan joy kabi atributlarni o‘z ichiga oladi. Model dialektal tahlillar uchun qulay ma’lumotlar bazasini yaratishga imkon beradi. Maqolada modelning tarkibiy tuzilishi, maydonlarining funksional imkoniyatlari va ularning ahamiyati muhokama qilinadi. Django modellarining malumotlarni tartiblash, saqlash va qayta ishlashdagi afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuv dialektologiya va tilshunoslik tadqiqotlarida amaliy ahamiyat kasb etadi. Modelni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham keltiriladi.

Abstract.This article analyzes a Django web framework-based model for storing dialectal speech recordings. The Recording model includes attributes such as audio files, their transcriptions, speaker information, and recording location. The model enables the creation of a structured database for dialectal analysis. The article discusses the structural composition of the model, the functionality of its fields, and their significance. It also examines the advantages of Django models in organizing, storing, and processing data. This approach has practical importance in dialectology and linguistic research. Additionally, recommendations for further improvement of the model are provided.

Аннотация. В данной статье анализируется модель сохранения диалектных речевых записей с использованием веб-фреймворка Django. Модель Recording включает в себя такие атрибуты, как аудиофайлы, их транскрипция, данные о говорящем и место записи. Модель позволяет создавать удобную базу данных для диалектных исследований. В статье рассматривается структурное строение модели, функциональные возможности ее полей и их значение. Обсуждаются преимущества использования моделей

Django для сортировки, хранения и обработки данных. Такой подход имеет практическое значение для диалектологических и лингвистических исследований. Также приводятся рекомендации по дальнейшему совершенствованию модели.

Kalit so‘zlar: *Django, dialektal nutq, ma’lumotlar bazasi, audio yozuvlar, transkriptsiya, lingvistik tahlil, modellar, tilshunoslik.*

KIRISH

Nutqshunoslik, lingvistika va dialektologiya sohalarida dialektal nutqning tahlil qilinishi va hujjatlashtirilishi katta ahamiyatga ega. O'zbek tilida, mintaqaviy dialektlar va shevalar o'zining o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan boydir. Ushbu xususiyatlarni to‘plash va saqlash orqali tilshunoslar nafaqat tilning rivojlanishini, balki mintaqaviy o‘zgarishlarni ham kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bugungi kunda bu jarayonlarni raqamlashtirish va tizimlashtirish uchun dasturiy yechimlar ishlab chiqish juda zarur.

Mazkur maqolada Django web-freymvorkidan foydalangan holda dialektal nutq yozuvlarini saqlash va tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan “**Recording”** modeli va “**DialectWord”** modeli tahlil qilinadi. Ushbu modellar yordamida audio yozuvlar, so‘zlovchilarning ma'lumotlari, so‘zlarning mintaqaviy dialektlari, ularning transkriptsiyasi, o‘zbek tilining literatür turlariga mos keluvchi dialektal shakllari kabi ma’lumotlar saqlanadi.

Recording modeli, audio fayllar va ularning transkriptsiyalarini saqlash imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga, so‘zlovchining shaxsiy ma'lumotlari, yoshi, jinsi va kasbi kabi atributlarni ham kiritadi. **DialectWord** modeli esa so‘zlarning turkumlarini, mintaqaviy o‘zgarishlarni va ularning o‘zbek tilidagi literatür ekvivalentlarini saqlash uchun ishlatiladi. Bu modellarning birgalikda ishlashi dialektal nutqni tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilishda katta qulaylik yaratadi.

DialectWord modelidagi **WORD_CATEGORIES** maydoni, so‘z turkumlarini belgilashda yordam beradi va har bir dialektal so‘zning grammatik xususiyatlarini tasniflash imkonini beradi. Ushbu tasniflash tizimi tilshunoslik tadqiqotlarida tilning semantik va sintaktik strukturasi haqida muhim ma'lumotlarni olishda foydalaniladi. Modeldagi boshqa maydonlar, masalan, **region, meaning**, va **example_sentence**, so‘zlarning mintaqaviy tafovutlari va ularning amaliy qo‘llanilishiga oid ma’lumotlarni to‘plashda yordam beradi.

Ushbu yondashuv, nafaqat dialektal so‘zlarni, balki ularning fonetik va semantik xususiyatlarini ham tizimlashtirish orqali o‘zbek tilining boyligini va xilma-xilligini saqlashga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan kod va modellar, tilshunoslar va ilmiy tadqiqotchilarga mintaqaviy so‘zlar va nutq shakllarini tahlil

qilishda yordam berishi mumkin. Django modellarining qulayliklari va ularning ma’lumotlarni saqlashdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Modelning Tuzilishi. Recording modeli va uning maqsadi. Recording modeli dialektal audio yozuvlarni saqlash, tahlil qilish va foydalanuvchi ma’lumotlarini jamlash uchun ishlab chiqilgan.

```
class Recording(models.Model):
    dialect_word = models.ForeignKey(
        DialectWord,
        on_delete=models.CASCADE,
        related_name='recordings',
        null=True,
        blank=True
    )
    audio_file = models.FileField(upload_to='recordings/')
    speaker_name = models.CharField(max_length=100, default='Unknown')
    speaker_age = models.IntegerField(default=0)
    speaker_gender = models.CharField(
        max_length=10,
        choices=[
            ('male', 'Erkak'),
            ('female', 'Ayol')
        ],
        default='male'
    )
    speaker_occupation = models.CharField(max_length=100, default='Unknown')
    transcription_text = models.TextField(
        help_text="Audio matni transkriptsiyasi",
        default=''
    )
    recorded_date = models.DateField(default=date.today)
    location = models.CharField(
        max_length=200,
        help_text="Yozib olingan joy",
        default='Nurota'
    )
    notes = models.TextField(
        blank=True,
        help_text="Qo'shimcha ma'lumotlar"
    )

    def __str__(self):
        if self.dialect_word:
            return f"Recording of {self.dialect_word.word} by {self.speaker_name}"
        return f"Recording by {self.speaker_name}"

    class Meta:
        ordering = ['-recorded_date']
```

Ushbu model har bir yozuv haqida quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- Audio fayl
- So‘zlovchi ma’lumotlari (ismi, yoshi, jinsi, kasbi)
- Transkriptsiya (yozib olingan nutqning matnli shakli)
- Yozib olingan sana va joy
- Qo‘shimcha izohlar

Recording modeli dialektal tadqiqotlar uchun to‘plangan audio ma’lumotlarni tartiblash, saqlash va keyinchalik analiz qilish imkoniyatini beradi.

Modeldagi maydonlarning tavsifi va ularning roli. Quyidagi jadvalda **Recording** modelining har bir maydoni va uning roli ko‘rsatilgan:(Qarang:1-jadval)

1-jadval. Modeldagi maydonlarning tavsifi

Maydon nomi	Ma'lumot turi	Tavsifi
dialect_word	ForeignKey	Yozuvga tegishli dialektal so‘zni aniqlash uchun ishlatiladi
audio_file	FileField	Audio yozuvni saqlash va yuklash imkonini beradi
speaker_name	CharField	So‘zlovchining ismini saqlaydi
speaker_age	IntegerField	So‘zlovchining yoshini belgilaydi
speaker_gender	CharField (choices)	So‘zlovchining jinsini (erkak yoki ayol) belgilaydi
speaker_occupation	CharField	So‘zlovchining kasbi haqida ma’lumot
transcription_text	TextField	Audio yozuvning matnli shakli (transkriptsiya)
recorded_date	DateField (default=date.today)	Yozib olingan sana
location	CharField	Yozib olingan joy haqida ma’lumot
notes	TextField (blank=True)	Qo‘shimcha izohlar uchun maydon

Recording modeli dialect_word maydoni orqali DialectWord modeliga bog‘langan. Bu bog‘lanish **ForeignKey** orqali amalga oshirilgan bo‘lib, har bir audio yozuv muayyan dialektal so‘zga tegishli bo‘lishi mumkin.

ForeignKey orqali Recording modeli DialectWord modeli bilan “ko‘p-birga” (many-to-one) bog‘lanadi.

Ma’lumotlarni tartiblash (ordering) va __str__ metodi

- ordering = ['-recorded_date'] — Ushbu parametr orqali yozuvlar oxirgi yozib olingan sanadan boshlab tartiblanadi.
- __str__ metodi — Model obyektini matn sifatida aks ettirish uchun ishlatiladi:

```
def __str__(self):
    if self.dialect_word:
        return f"Recording of {self.dialect_word.word} by {self.speaker_name}"
```

```
    return f"Recording by {self.speaker_name}"
```

Bu funksiya natijasida ma’lumotlar ko‘rinishi yanada tushunarli bo‘ladi.

Kodning Tahlili. Django model maydonlarining to‘g‘ri tanlanganligi.

Django model maydonlari to‘g‘ri tanlangan va ma’lumotlarning turiga qarab mos keluvchi model maydonlari ishlatilgan. Masalan(Qarang:2-jadval)

2-jadval. Django model maydonlari(fields)

Django maydoni	Ma’lumot turi
CharField	Matn (100-200 belgi)
IntegerField	Butun son (yosh)
FileField	Fayllarni yuklash (audio)
TextField	Katta hajmdagi matn (transkriptsiya)
DateField	Sana (recorded_date)

null=True, blank=True ishlatilishi va ularning farqi(Qarang:3-jadval)

3-jadval. null=True, blank=True ishlatilishi va ularning farqi

Parametr	Vazifasi
null=True	Baza darajasida maydon **NULL qiymat** olishiga ruxsat beradi
blank=True	Forma orqali to‘ldirish **shart emas**ligini bildiradi

Masalan, dialect_word maydonida null=True, blank=True belgilangan bo‘lib, bu foydalanuvchi ba’zi yozuvlarda dialektal so‘zni kiritmasligi mumkinligini bildiradi.

choices argumenti orqali jinsni tanlash. Django’da “choices” argumenti orqali foydalanuvchi faqat ma’lum qiymatlar ichidan tanlash imkoniga ega bo‘ladi. Masalan:

```
speaker_gender = models.CharField(
    max_length=10,
    choices=[
        ('male', 'Erkak'),
        ('female', 'Ayol')
    ],
    default='male'
)
```

Bu yondashuv foydalanuvchining noto‘g‘ri qiymat kiritish ehtimolini kamaytiradi.

AMALIY TATBIQ

Ushbu modeldan qanday foydalanish mumkin?

– Ma’lumotlar bazasida dialektal so‘zlar va ularning audio yozuvlarini saqlash
– O‘zbek tilining mintaqaviy dialektlarini ilmiy tahlil qilish
– Audio yozuvlar orqali lingvistik tadqiqotlar olib borish

Ushbu model lingvistik tadqiqotlar va dialektal tahlillar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning imkoniyatlari keng bo‘lib, turli sohalarda samarali qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, O‘zbek tilining mintaqaviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, audio materiallarni to‘plash va ilmiy ma’lumotlarni tizimli tarzda saqlash imkonini beradi.

Ma’lumotlar bazasida dialektal so‘zlar va ularning audio yozuvlarini saqlash. O‘zbek tilining dialektal so‘zlarini saqlash va ularni mintaqalar bo‘yicha tasniflash tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ahamiyatga ega. ***Recording*** modeli har bir dialektal so‘zga tegishli ***audio yozuvni*** saqlash imkonini beradi. Bu esa tadqiqotchilarga ***so‘zlarning talaffuzi, fonetik o‘zgarishlari va kontekstda ishlatilishini tahlil qilish*** imkoniyatini taqdim etadi.

Django yordamida foydalanuvchilar dialektal so‘zlar bazasiga **yangi yozuvlar qo‘shishi**, mavjudlarini **tahrirlashi** va ularni **mintaqalar bo‘yicha filtrlashi** mumkin. Har bir so‘z bilan bog‘liq **talaffuz namunasi (audio fayl)** ham saqlanadi, bu esa tadqiqotchilarga **real nutq namunalarini to‘plash va tahlil qilishga** yordam beradi.

Bunday tizimni yaratish orqali:

- **Dialektal lug‘atlar shakllanadi**
- **So‘zlarning talaffuzi saqlanib qoladi**
- **Mintaqaviy shevalarning fonetik jihatlari o‘rganiladi**

Misol uchun, **Recording** modelidan foydalanib, quyidagi ma’lumotlar saqlanishi mumkin:

- Toshkent shevasiga oid **“pachakilamoq”** so‘zi
- Uning adabiy o‘zbek tilidagi muqobili “**cho‘pchak aytmoq”**
- **Audio yozuv** orqali bu so‘zning talaffuzi
- **Transkriptsiya** va **lug‘aviy izoh**

O‘zbek tilining mintaqaviy dialektlarini ilmiy tahlil qilish. O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha talaffuz qilinadigan va ishlatiladigan so‘zlarni tahlil qilish orqali ***tilshunoslik va dialektologiya*** yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin. Ushbu model ***so‘zlarning semantik va fonetik xususiyatlarini*** o‘rganish imkonini beradi.

Dialektal tadqiqotlar uchun bu model quyidagi jihatlarda qo‘llanilishi mumkin:

- **Mintaqalar bo‘yicha lug‘aviy farqlarni aniqlash**
- **Sheva va adabiy til o‘rtasidagi tafovutlarni o‘rganish**
- **O‘zbek tilining tarixiy rivojlanish jarayonlarini kuzatish**

Masalan, Toshkent shevasida keng tarqalgan **“havo”** so‘zi Xorazm mintaqasida **“avo”** tarzida ishlatiladi. Ushbu model yordamida bu kabi farqlar **audio materiallar** orqali saqlanib, o‘rganilishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar **mintaqalar bo‘yicha dialektal so‘zlarni taqqoslab, ularning kelib chiqishiga oid xulosalar** chiqarishlari mumkin.

Audio yozuvlar orqali lingvistik tadqiqotlar olib borish. Nutqning audio shaklda saqlanishi tadqiqotchilarga ***real muloqot jarayonlarini tahlil qilish, fonetik o‘zgarishlarni o‘rganish va talaffuz farqlarini aniqlash*** imkonini beradi. Ovozli materiallardan foydalanish orqali quyidagi tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin:

- Sheva va lahjalarning talaffuz xususiyatlarini o‘rganish
- Turli yosh guruhlari va kasblarga mansub shaxslarning nutqini tahlil qilish
- Davrlar o‘tishi bilan o‘zbek tilining o‘zgarishlarini kuzatish

Misol uchun, Recording modeli yordamida **xalq orasida keng tarqalgan iboralar va so‘z birikmalarining talaffuzi** saqlanib, ularning **zamonaviy til bilan bog‘liqligi** tahlil qilinishi mumkin.

Ushbu model nafaqat **tilshunoslar**, balki **sun’iy intellekt** va **nutqni qayta ishlash** (speech processing) sohasida ishlovchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. AI-modellar uchun **dialektal nutqni tushunish** va **turli talaffuzlarni analiz qilish** muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Audio fayllarni yuklash va ularni qayta ishlash imkoniyatlari. Recording modelidagi audio_file maydoni audio fayllarni saqlash va ularni analiz qilish imkonini beradi. Django yordamida media fayllarni yuklash va ularni qayta ishlash quyidagicha amalga oshiriladi(Qarang:1-rasm)

```
recording = Recording.objects.create(
    speaker_name="Ali",
    speaker_age=30,
    speaker_gender="male",
    audio_file="recordings/sample.mp3"
)
```



1-rasm. Dasturdagi ko’rinishi

Ushbu model dialektal nutqni raqamlashtirish, saqlash va ilmiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. Django modellaridan foydalanish orqali samarali va tizimli ma’lumotlar bazasini shakllantirish mumkin.

XULOSA

Mazkur maqolada **Recording** va **DialectWord** modellarining tuzilishi, ularning ma'lumotlar bazasida qanday ishlashi va amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil tahlil qilindi. Ushbu modellar O‘zbek tilining dialektal xususiyatlarini saqlash, o‘rganish va tahlil qilish imkonini beradi. **Recording** modeli audio yozuvlarni saqlash va ularga tegishli til birliklarini bog‘lashga xizmat qilsa, **DialectWord** modeli dialektal so‘zlarni adabiy til shakllari bilan solishtirish, ularning ma’nosini va mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Modeldagi maydonlarning to‘g‘ri tanlanishi, “**ForeignKey**” bog‘lanishlarining mavjudligi va “**ordering**” parametrining qo‘llanilishi ma’lumotlarni tartibli saqlashga va samarali ishlov berishga imkon yaratadi. Shuningdek, audio fayllarni yuklash va ularni qayta ishlash funksiyasi lingvistik tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Ushbu modellar dialektologiya, lingvistika va sun’iy intellekt sohalarida amaliy qo‘llanishga ega bo‘lib, tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ma’lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbek tilining mintaqaviy xususiyatlarini saqlash va o‘rganish orqali milliy til merosimizni kelajak avlodlarga yetkazishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холова М. ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида):Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. Автореф. – Термиз, 2022.
2. http://rusling.narod.ru/qqq_corp_nonslav_other.htm
3. http://www.corpusrural.es
4. https://freidok.uni-freiburg.de/proj/
5. Nordic Dialect Corpus (uio.no)
6. https://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/Dialects/fieldwork
7. Региональная этнолингвистика (ethnolex.ru)

SHEVALAR VA MEDIA: O‘ZBEK TILINING RAQAMLI RIVOJIDA XORAZM SHEVASINING O‘RNI

Musayeva Mahina Maqsudbek qizi,
magistrant
musayevamohina41@gmail.com
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining raqamli shakllanishi va sun’iy intellekt tizimlarida qo‘llanilishi tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ammo bu jarayonda hududiy shevalarning, xususan, Xorazm shevasining o‘rni va ifodalanish darajasi hali ham yetarli emas. Ushbu maqolada O‘zbek tilining shevalari, ayniqsa Xorazm shevasi, zamonaviy media platformalarida (YouTube, TikTok, Telegram va h.k.) qanday aks etayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, Xorazm shevasida yaratilgan kontentlarning hajmi, sifati va ularni til korpuslari yoki AI modellar uchun potensial ma’lumot manbai sifatida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shevalarning raqamli kontent orqali saqlanishi va rivojlanishi til siyosati va madaniy meros nuqtai nazaridan ham dolzarb ekani asoslab beriladi.

Abstract. In recent years, the Uzbek language has been rapidly developing in the digital sphere and increasingly integrated into artificial intelligence systems. However, regional dialects-especially the Khorezm dialect-remain underrepresented in this process. This paper analyzes how Uzbek dialects, particularly the Khorezm dialect, are reflected on modern media platforms such as YouTube, TikTok, and Telegram. It explores the volume, quality, and characteristics of content in the Khorezm dialect and its potential as a data source for language corpora and AI models. The importance of preserving and promoting dialects through digital media is emphasized from the perspectives of language policy and cultural heritage.

Аннотация. В последние годы узбекский язык активно развивается в цифровом пространстве и внедряется в системы искусственного интеллекта. Однако региональные диалекты, в частности хоразмский говор, остаются недостаточно представленными в этих процессах. В данной статье анализируется присутствие узбекских диалектов, особенно хоразмского, на современных медиа-платформах (YouTube, TikTok, Telegram и др.). Рассматриваются объем, качество и особенности контента на хоразмском говоре, а также его потенциал как источника данных для лингвистических корпусов и моделей ИИ. Подчеркивается значение сохранения и развития диалектов через цифровой контент с точки зрения языковой политики и культурного наследия.

Kalit so‘zlar: *Xorazm shevasi, media korpus, o‘zbek tili, raqamli tilshunoslik, shevalar, sun’iy intellekt, til korpusi.*

Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) metodlari asosida til modellarini yaratish uchun katta hajmdagi matnli korpuslar talab etiladi. O‘zbek tilida bunday korpuslar shakllantirila boshlagan bo‘lsa-da, bu jarayonda asosan adabiy til asosiy manba sifatida ishlatilmoqda. Hududiy shevalar, ayniqsa Xorazm shevasi, bu jarayonda yetarlicha e’tibordan chetda qolmoqda.

Shevalar har bir tilning ichki boyligini, tarixiy qatlamlarini va madaniy xilma-xilligini ifodalovchi muhim til resursidir. Agar ularni raqamli formatda saqlab qolish va tizimlashtirish amalga oshirilmasa, bu so‘z boyligi va madaniy qatlamlar vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishi mumkin. Shu bois Xorazm shevasining media kontentlar orqali qay darajada aks etayotgani, bu kontentlarni korpus yaratishda qanday foydalanish mumkinligi muhim tadqiqot yo‘nalishidir.

Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida tillarning ijtimoiy hayotdagi, ayniqsa internet va media platformalaridagi roli keskin o‘zgarib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek tilining raqamli makondagi o‘rni, uning ichki ko‘rinishlari, ya’ni lahja va shevalarining taqdiri ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki raqamli axborot almashinuvi faqat adabiy til orqali emas, balki jonli xalq og‘zaki nutqi - shevalar orqali ham amalga oshmoqda. O‘zbek tilining hududiy shevalari ichida Xorazm shevasi o‘zining boy lug‘aviy zaxirasi, qadimiylik bilan uyg‘unlashgan zamonaviy ifoda uslublari va raqamli kommunikatsiyada faol qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Xorazm shevasining raqamli kommunikatsiyadagi roli, media vositalaridagi ifodalanish shakllari, hamda umumtil taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, raqamli tilshunoslik doirasida ushbu shevani o‘rganish va undan zamonaviy til texnologiyalarida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Xorazm shevasi fonetik, morfologik va leksik jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, o‘zbek tilining boshqa shevalaridan farqlanuvchi ko‘plab xususiyatlarga ega. Ushbu sheva nafaqat muloqot vositasi, balki Xorazm viloyatining madaniy identitetini ifodalovchi element hamdir. Biroq bugungi kungacha bu sheva asosida yaratilgan hech qanday katta korpus yoki lingvistik resurs mavjud emas.

Zamonaviy media platformalarida ayniqsa, YouTube, Instagram, TikTok va Telegram kabi platformalar, xorazm shevasining tabiiy kontekstdagi namunalarini saqlab qolish va tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, Xorazmda faol blogerlar, kontent yaratuvchilar tomonidan yaratilgan vloglar, sahnalashtirilgan skitlar va suhbat janridagi videolar shevaning zamonaviy shaklini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiradi. Ushbu materiallar og‘zaki tilning real va kontekstli misollari sifatida juda katta ahamiyatga ega.

Mazkur media kontentlar raqamli korpus yaratishda foydali manba bo‘lishi mumkin. Biroq, bu jarayonda bir nechta muammo yuzaga chiqadi:

1. *Standartlashtirish muammosi* - Xorazm shevasida yozilgan yoki talaffuz qilingan iboralarni adabiy tilga yoki fonetik yozuvga keltirish qiyin.

2. *Kontent sifati va barqarorligi* - Media platformalarda joylashtirilgan materiallar vaqtinchalik bo‘lishi, yo‘qolib ketishi yoki o‘chirilishi mumkin.

3. *Annotatsiya muammolari* - Dialektal so‘zlar, ijtimoiy jargon va kontekstual iboralarni aniqlash va ularni standart shaklda belgilash uchun lingvistik bilim va metodik yondashuv talab etiladi.

Shunga qaramay, xorazm shevasida mavjud kontentlarni tizimli yig‘ish, ularni transkripsiya qilish, matnga aylantirish va lingvistik belgilash orqali yirik media korpus yaratish mumkin. Bu korpus keyinchalik SI modellarini shevaga moslashtirish, avtomatik tarjima, ovozdan matnga konversiya, va boshqa NLP vazifalarda foydalanish imkonini beradi.

Xorazm shevasi o‘zbek tilining qadimiy va mustahkam mintaqaviy shevalaridan biri bo‘lib, u fonetik, leksik va grammatik jihatdan ancha farq qiluvchi jihatlarga ega. Bu shevada qadimgi o‘zbek tili unsurlarining saqlanib qolganligi, shuningdek, turkiy tillarning umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi shakl va so‘zlar uchrashi kuzatiladi. Masalan, “bormoqchiman” o‘rniga “barjaqman”, “yaxshimisiz?” o‘rniga “nichiksiz?”, “nima qilay” o‘rniga “nishatin” kabi shakllar fonetik o‘zgarishlarning yorqin namunalaridandir. Xorazm shevasining leksikasida ham ko‘plab o‘ziga xos atamalar mavjud: “sovuq” o‘rniga “suvug‘”, “uyqu” o‘rniga “uxi”, “katta” o‘rniga “ulli” va hokazo. Ushbu leksik birliklar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bugungi kunda Xorazm shevasi nafaqat og‘zaki nutqda, balki ijtimoiy tarmoqlar, audio-video mahsulotlarda ham faol ishlatilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab tillar uchun dialektal korpuslar yaratilib, ular lingvistik tadqiqotlarda ham, sun’iy intellekt modellarida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, arab tili, italyan tili, nemis tili dialektlari bo‘yicha yaratilgan korpuslar tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tilida bu yo‘nalishda hali dastlabki bosqichlar boshlanmoqda, va Xorazm shevasi shu jarayonga kiritilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, shevalar, xususan, Xorazm shevasi o‘zbek tilining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat madaniy merosni saqlashda, balki zamonaviy kommunikatsiya va raqamli til muhitida ham alohida o‘rin egallamoqda. Raqamli platformalarning keng tarqalishi bu shevaning ommalashuvi va yoshlar orasida qayta qadrlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, media kontentlarda Xorazm shevasining faol qo‘llanishi uning ijtimoiy qadriyat, estetik vosita va identitet belgisi

sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Xorazm shevasi o‘zbek tilining boyligidir. Uni raqamli asr talablariga mos tarzda saqlab qolish, o‘rganish va rivojlantirish – nafaqat tilshunoslarning, balki jamiyatning har bir a’zosining ham burchidir.

Xorazm shevasining media kontentlarda aks etishi va ularni raqamli til resurslariga aylantirish imkoniyati o‘zbek tilining raqamli rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat tilni sun’iy intellektga moslashtirish, balki madaniy boylikni saqlash vazifasini ham bajaradi. Bugun boshlangan harakatlar, ertaga xorazm shevasining yo‘qolish emas, balki rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, xorazm shevasidagi media kontentlar tizimli o‘rganilishi, saqlanishi va korpuslashgan shaklga keltirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Abdul-Mageed, D. Kuebler, and M. Diab, “SAMAR: A System for Arabic Dialect Annotation of Social Media Data,” *Proceedings of the 2018 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies*, vol. 2, pp. 250–255, 2018.
2. E. Kuriyozov, D. Vilares, and C. Gómez-Rodríguez, ‘BERTbek: A pretrained language model for Uzbek’, in *Proceedings of the 3rd Annual Meeting of the Special Interest Group on Under-resourced Languages@ LREC-COLING 2024*, 2024, pp. 33–44.
3. P. Soulos et al., "Structural Biases for Improving Transformers on Translation into Morphologically Rich Languages," *arXiv preprint arXiv:2208.06061*, 2022.
4. R. G. Yuldashovna, S. Sukhrob, K. Barno, P. Mukhayyo, and D. Shokhida, ‘Linguistic Considerations on the Functional Semantics of English Reduplicative Elements’, *Remittances Review*, vol. 8, 2023.
5. A. Vaswani et al., "Attention is All You Need," in *Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS)*, 2017, pp. 5998–6008.
6. B. Mansurov and A. Mansurov, "UzBERT: Pretraining a BERT Model for Uzbek," *arXiv preprint arXiv:2108.09814*, 2021.
7. B. Allaberdiev, G. Matlatipov, E. Kuriyozov, and Z. Rakhmonov, ‘Parallel texts dataset for Uzbek-Kazakh machine translation’, *Data in Brief*, vol. 53, p. 110194, 2024.

NUROTA SHEVASI (QARLUQ LAHJASI) KORPUSINING MA’LUMOTLAR BAZASI

Ruxsora Muftillayeva Toshmuhammad qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
ruxsoramuftillayeva@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy korpusda asta-sekin har xil korpuslarning paydo bo‘lishi, sheva korpuslarini nazariy asoslanishi, yig‘ilgan shevalardan foydalanish va tadqiqotlarni yengillashtirish yo‘lini bosqichma-bosqich bosib o‘tish, zamonaviy tilshunoslikning ushbu yo‘nalishidagi yangi korpuslarning paydo bo‘lishiga bir qadar poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shevashunoslikda so‘zlashuv jarayonlarini transkripsion shaklda yozib olish, shevaga oid materiallarni izohlash orqali dialektning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, shevalar tadqiqotiga bag‘ishlangan monografiyalar, lug‘atlar, yaratiladi hamda dialektal xaritalar tuziladi.

Annotation: This article discusses the gradual emergence of various corpora within the national corpus, the theoretical foundations of dialect corpora, and the step-by-step process of utilizing collected dialects to facilitate research. It serves as a partial foundation for the development of new corpora in this modern field of linguistics. In dialectology, the transcription of spoken language, the annotation of dialect materials, and the study of distinctive features of dialects are emphasized. Additionally, monographs, dictionaries dedicated to dialect research are created, and dialectal maps are compiled.

Kalit so‘zlar: *shevashunoslik, lug‘at, milliy korpus, dialektal korpus*

KIRISH

Dialektal korpus yaratish, yig‘ilgan ma’lumotlardan samarali foydalanish va lingvistik tahlil uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Ushbu jarayon, foydalanuvchilarga kerakli ma’lumotlarni qidirishda vaqtni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Nurota tumani dialektal korpusining ma’lumotlar bazasini tuzishda, ijtimoiy jihatdan tashqi dunyodan qisman uzilgan va internet tarmoqlaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan keksa avlod vakillari ishtirok etishdi. Ushbu jarayon, shahardan uzoqda joylashgan hududlarda yashovchilar o‘rtasidagi o‘zaro suhbatlarni yozib olish orqali amalga oshirildi. Dialektal korpus uchun yig‘ilgan audio fayllar dastavval matn ko’rinishiga keltiriladi. Audio faylni matn holatiga keltirish uchun biz har xil dasturlarni ishlatib ko‘rdik. Xususan, “speech-to-text” dasturi. Bu dastur imkoniyatlari ancha yuqori. Dasturga audio faylni MP3 shaklida yuklashimiz yoki mikrofon orqali to‘g‘ridan

to‘g‘ri ovoz yozishimiz mumkin. Birinchi qadam, yuklangan faylga ishlov beradi. Ya’ni ovozdagi ortiqcha shovqinlarni olib tashlab, ovoz tiniqligini oshiradi. Keyingi bosqichda audioning matn ko‘rinishi taqdim etiladi. Matnni fayl ko‘rinishida saqlab olish imkoniyati mavjud. Dasturda 100 dan ortiq til mavjud, ammo o‘zbek tili yo‘qligi uchun bu dasturdan foydalana olmadik. Foydalangan keyingi dasturimiz “AIsha” o‘zbek tilida mukammal muloqat qiladigan sun’iy intellekt. Bu dastur ovozni matnga, matnni ovozga kabi xizmatlarini taqdim etadi. Dasturdan foydalanish barcha uchun ochiq. SST faqat 30 soniyagacha bo‘lgan MP3 formatdagi fayllarni qabul qiladi. Shuning uchun audio fayllarni 30 soniyadan qilib kesib chiqdik. Audio fayllarni dasturga yuklaganimizda bizga matn shaklida, transkripsiyasi bilan taqdim etdi. Bu dasturlar har doim ham yuqori aniqlikda ishlamaydi, ayniqsa, mahalliy lahjalarda. Xato bo‘lgan joylari qo‘lda to‘g‘irlandi. Audio fayllar matn ko‘rinishiga kelgandan so‘ng matnlar bilan ishlandi. Matnlarni alohida satrlarga bo‘lib chiqdik. Har bir satrni yonidan matnning audio variantini joylab chiqdik. Audio fayllarni satrlarga moslab kesib, satrlar bilan yonma-yon joylashtirdik. Audiolarni kesish uchun maxsus “Simple MP3 Cutter” programmasidan foydalanib audiolarni satrlarga moslab kesib chiqdik. Dasturdan foydalanish bepul. Dasturdan ovozdagi shovqinlarni kesishda ham foydalandik.

Korpus interfeysi. Interfeys − piegasse so‘zidan olingan bo‘lib, texnik va programmalash vositalari yig‘ilmasi hisoblanib, boshqarish yoki o‘lchash, hisoblashdagi turli vazifaviy qurilmalarning o‘zaro ta’sirini ta’minlab beradi. Berilayotgan axborotlarni kodlash, sinxronlash hamda nisbatan belgilangan qoida hamda kelishuvga muvofiq tayyor modullardan sistemani, qurilmalarning mexanik va elektr birikmalarini signal, ya’ni axborot shaklida to‘plashga imkon beradi[1]. Korpusni loyhalash jarayonida avvalo uning dizayniga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Korpus foydalanuvchilarida ijobiy taassurot qoldirishi uchun shevaga xos elementlar va Nurota tumaniga aloqador bo‘lgan vizual oynalardan foydalanish zarur (1-rasm).

1-rasm. Nurota tumani dialektal korpusi interfeysi

Korpus dizaynida shu belgilarni inobatga olish juda muhim omillardan. Milliy til va uning shevalarini informatsion dunyoga olib chiqish, zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim bir asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va antropologiya sohalarida ham yangi imkoniyatlarni ochadi. Dastlabki shevalar bazasini yaratish jarayoni bir qator muhim talablar va maqsadlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu bazaning asosiy maqsadi o‘zbek milliy shevalarining xilma-xilligini, ularning o‘ziga xos leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur o‘rganishdir. Buning uchun quyidagi talablar ko‘zda tutiladi: (Qarang: 1-jadval)

1-jadval. Dialektal korpusda so‘zlar tasnifi

Shevaga oid so‘z	**Shipirgi**
Adabiy til	Supurgi
Turkum	Ot
So‘zning izohi	Supurish-sidirish, tozalash uchun burgan, shuvoq, makkasupurgi va shu kabilardan dastalab bog‘lab yasaladigan ro‘zg‘or buyumi
Sinonimi	Sinonimi mavjud emas

Turli xil dialektal so‘zlardan foydalanish, respondentlarning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarini aks ettirishga yordam beradi. Bu esa tadqiqotchilarga aniq va ishonchli xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Bir so‘zni har xil yo‘l bilan so‘rovnomada berish manbadan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali so‘rovnoma natijalari yanada aniqroq bo‘ladi. Turli xil dialektal so‘zlardan foydalanish, respondentlarning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarini aks ettirishga yordam beradi. Bu esa tadqiqotchilarga aniq va ishonchli xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Boshqird dialekti xonqizi (kamka)ning 148 ta dialektal variantlarini berib o‘tadi, shulardan 17 ta varianti faqat sharq dialektlari tarkibida uchraydi[2]. Nurota shevalar elektron lug‘ati internetda onlayn ish yurituvchi bazadir. Bazadagi ma’lumotlar doirasini kengaytirish xususiyatiga ega bo‘lgan har tomonlama qulay dialektal bazalardan biridir. Ushbu elektron baza keng imkoniyatlar taqdim etadi. Baza foydalanuvchilar auditoriyasi uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi.

1. Bosh sahifa. 2. So‘zlar jadvali. 3. Loyihasi haqida. 4. Transkriptsiya. 5. Aloqa.

Bosh sahifa shevalar bazasining markaziy qismi bo‘lib, u foydalanuvchilarga bazadagi ma’lumotlarga oson kirish imkonini beradi. Ushbu sahifa yuqoridagi beshta asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim boshqa sahifalarga yo‘naltiruvchi aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Bazadagi so‘zlarning turli

kesimlarda tahlil qilinishi foydalanuvchilarga shevaning leksik boyligini to‘liq anglash imkonini beradi. So‘z turkumlari asosan ikkita kategoriya bo‘yicha bo‘linadi: Umumiy tashqi so‘z turkumlari: Mustaqil so‘z turkumi, yordamchi so‘z turkumi alohida so‘z turkumi. Xususiy ichki so‘z turkumlari: ot, son, fe’l, ravish, sifat, olmosh, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov, modal va taqlid so‘zlar. Bu statistika foydalanuvchilarga shevalarning strukturasini va ularning foydalanish doirasini aniqlashda yordam beradi. Bazadagi shevaga xos leksemalar foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu so‘zlar bazaning keng auditoriyaga mo‘ljallanganligini hisobga olib, foydalanuvchilar uchun qulaylik tug‘dirish maqsadida transkripsiya shaklida taqdim etilgan. Bu esa shevalarni o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. Shevalar bazasining bosh sahifasi foydalanuvchilar uchun shevalarni o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, ularning leksik boyligi, strukturası va tarixiy konteksti haqida aniq va to‘liq ma’lumotlar taqdim etadi. Bu o‘z navbatida, shevalarning saqlanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shevalar Bazasi: Shevalar bazasida so‘zlar jadvali foydalanuvchilarga turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu sahifa barcha qatorlar soni, izlash, turkum bo‘yicha va shevaga xos so‘zlarning etimologik saralash imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi[3]. Jadval quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: adabiy til, transkripsiya (mavjud jahon standartlariga muvofiq), turkum (so‘zning turkumini ko‘rsatish, saralash imkoniyati bilan), izoh (so‘zning ma’nosi yoki qo‘llanilishi haqida tushuntirish), sinonimi (ushbu so‘zga o‘xshash ma’noga ega so‘zlar)[4]. Shevalar bazasini yangi dialektal so‘zlar bilan to‘ldirish jarayonlari o‘z qoidalariga ega bo‘lib, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Yangi dialektal so‘zlarni aniqlash va ularni bazaga kiritish, har bir so‘zni tekshirib, uning to‘g‘riligini va mosligini aniqlash, so‘zlarni turkumlar bo‘yicha saralash va tegishli joylarga joylashtirish, so‘zlarning transkripsiya qoidalariga mos kelishini ta’minlash. Ushbu jarayonlar shevalar bazasining boyligini oshirishga va foydalanuvchilarga yanada qulay xizmat ko‘rsatishga yordam beradi.

XULOSA

Shevalar bazasi foydalanuvchilarga turli xil dialektal so‘zlar bilan ishlash imkonini beruvchi muhim resursdir. So‘zlar jadvali, adabiy til, transkripsiya, turkum, izoh va sinonimlar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan holda, foydalanuvchilarga so‘zlarni oson topish va ularning ma’nolarini tushunishga yordam beradi. Yangi dialektal so‘zlarni bazaga kiritish jarayoni aniq qoidalar va bosqichlarga asoslangan bo‘lib, bu jarayonlar so‘zlarning to‘g‘riligini va mosligini ta’minlashga, shuningdek, bazaning boyligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, shevalar bazasi foydalanuvchilarga yanada qulay va samarali xizmat ko‘rsatishni maqsad qiladi. Bu resurs tilshunoslik va dialektologiya sohalarida muhim

ahamiyatga ega bo‘lib, mahalliy tillarning saqlanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Interfeys
2. Sirazitdinov Z.A., Buskunbaeva L.A., Karimova R.N. – P. 212–219, DOI 10.22162/2075- 7794-2016-23-1-212-219
3. Холова М. ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида):Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. Автореф. – Термиз, 2022.
4. Иванцова. Е.В. Томский диалектный корпус: обоснование концепции и перспективы развития. Вопросы лексикографии. 2017. № 11. – С. 62.
5. Tregubova E. N. Multi-level thematic markup as a tool for ethnolinguistic representation of dialect discourse in an e-text corpusю Vestnik. Tomsk State. University. Phil. . Vol.№ 1 (33). 2015. –P. 66-77.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING KORPUSINING INTERFEYSI

Nilufar Muradova Baxodir qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
muradovanilufar06@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiridin Muhammad Boburning asarlariga asoslangan korpusning interfeysini yaratish va nimalarga diqqat qaratish kerakligi tahlil qilingan. Maqolada Z.M.Bobur mualliflik korpusining imkoniyatlari va foydalanuvchilar uchun qulaylik masalalari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda korpusning interfeysini ishlab chiqishda qo‘llanilgan texnologiyalar, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun qo‘llanilgan dizayn prinsiplari va interfeysning baholanishi ham muhokama etildi. Zahiridin Muhammad Bobur korpusining interfeysining o‘ziga xos xususiyatlari va uning tadqiqotchilar uchun ahamiyati ta’kidlandi. Tadqiqot natijasida Bobur ijodiy merosini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Annotation: This article is devoted to the creation of the interface of the corpus based on the works of Zahiridin Muhammad Babur and the analysis of its functionality. The article examines the main goals of Babur’s author corpus, its main functional capabilities and issues of providing convenience for users. The research also discusses the technologies used in the development of the corpus interface, the design principles used to improve the user experience, and the evaluation of the interface. The specific features of the interface of Zahiridin Muhammad Babur’s corpus and its importance for researchers are emphasized. The results of the research show the practical importance of effective use of modern technologies in the study of Babur’s creative heritage.

Kalit so‘zlar: korpus, korpus lingvistikasi, mualliflik korpusi, interfeys, muallif tili, lug‘at, ma’lumotlar bazasi, qidiruv tizimi, foydalanuvchi.

KIRISH

Korpusga qo‘yiladigan talablardan biri uning interfeysga egaligidir. Korpusning bosh oynasi – yuzi uning interfeysi. Korpus interfeysi – bu korpusning maqsadi, muallifning estetik didi va dunyoqarashiga asoslanib tuziladigan ma’lumotlar jamlanmasidir.

Interfeys qanchalik aniq, sodda va tushunarli bo‘lsa foydalanuvchi uchun shuncha samarali xizmat qiladi. Interfeysning asosiy maqsadi foydalanuvchi va tizim o‘rtasida samarali va qulay aloqa o‘rnatishdir. Bu aloqa orqali foydalanuvchi saytdagi ma’lumotlardan foydalanishi, saytdan ma’lumot olishi mumkin. Interfeys orqali korpus haqida dastlabki xulosa va sayt imkoniyatlari haqida ma’lumot olinadi. Interfeys mukammal ishlab chiqilsa, foydalanuvchi o‘z vazifalarini tezda va

samarali bajarishi, tizim bilan muammosiz ishlashi mumkin. Interfeysda ma’lumotlar tartibli va tizimli shaklda berilsa, bu foydalanuvchiga yanada qulaylik yaratadi.

Nafaqat til korpuslarida balki mualliflik korpuslarining ham interfeysi mukammal ishlab chiqilganligi korpusning imkoniyatlarini oshiradi. Mualliflik korpusi ma’lum bir yozuvchi yoki shoir asarlari jamlangan elektron kutubxonadir. Bu kutubxonani qanday bo‘lishi, tuzilishi, dizayni, muallif asarlari joylashuvi va tartibi foydalanuvchi uchun qulay va sodda bo‘lishi kerak.

ASOSIY QISM

Ma’lum bir yozuvchi yoki shoirning mualliflik korpusi interfeysi va korpusdagi bo‘limlar miqdori va tartibini belgilashda avvalo, muallif ijodiy merosini chuqur o‘rganish talab etiladi. Har bir yozuvchi uchun individual yondashuv zarur. Korpusdagi bo‘limlar sonini ham ijodkorning ijodiy merosining salmog‘i va ijod qilgan janrlar turi bilan bog‘liq. Sababi mualliflik korpusi bir shaxsning umumiy ijodining ko‘zgusidir. Mualliflik korpusini ishlab chiqishda, har bir yozuvchi uchun alohida yondashuv zarur. Avvalo, yozuvchi ijodining o‘ziga xosligini o‘rganish, ijodiy merosi bilan batafsil tanishish darkor. Negaki, mualliflik korpusining tuzilishini, tarkibini ishlab chiqishda yozuvchi ijodi xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mualliflik korpusi interfeysi va bo‘limlar sonini belgilashda ijodiy merosidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Bobur hayotining ko‘p qismini jang-u jadallarda, siyosiy maydonda o‘tkazganiga qaramasdan o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan. Boburning umumiy 7 ta asari mavjud. Bular quyidagilar.

1-jadval. Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosi

1. “Boburnoma” shoh memuar asar
2. Aruz ilmidan saboq beruvchi “Muxtasar”
3. Soliq ishlariga oid “Mubayyin”
4. “Bobur devoni”
5. Harbiy tizimga oid “Harb ishi”
6. Musiqa borasidagi “Musiqa ilmi” asar
7. “Volidiya” tarjima asari

Yuqoridagi asarlardan “Boburnoma”, “Muxtasar”, “Mubayyin”, “Bobur devoni” hamda “Harb ishi” asarlari yetib kelgan. Ammo “Musiqa ilmi” va “Volidiya” asarlari yetib kelmagan. Ilmiy tadqiqotimizning obyekti sifatida Boburning “Boburnoma” va “Bobur devoni” asarlari tanlab olingan. Korpusga qolgan asarlarini ham kiritishni kelgusi ilmiy ishlarimizda davom ettirish maqsad qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur mualliflik korpusi interfeysi 6 bo‘limdan iborat (1-rasm).

1. Bosh sahifa
2. Muallif haqida
3. Boburnoma
4. Bobur devoni
5. Lug‘at
6. Qidiruv

Zahiriddin Muhammad Bobur muallif korpusi tarkibini tuzishda, avvalo, yozuvchining ijodiy merosini o‘rganish, yozuvchi ijodi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Bosh sahifada Zahiriddin Muhammad Boburning surati aks etgan va prizidentimizning nutqidan quyidagi so‘zlari o‘rin olgan. “Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega” [https://lex.uz/uz/docs/-6371358].

Bosh sahifa dastlabki oyna bo‘lganligi bois, foydalanuvchida bu korpus haqidagi ilk tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli bosh sahifa tartibli va ma’lumotlar tushunarli tarzda joylashtirilgan bo‘lishi zarur.

1-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur korpusi interfeysi

Ikkinchi bo‘lim muallif haqida deb nomlangan. Bu bo‘limda Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va yoshlik davri, ism va taxallusi, nasl-nasabi, hayoti va ijodiga tegishli eng muhim ma’lumotlar joylangan. Korpus foydalanuvchisi nafaqat Bobur asarlari bilan balki, hayotiga oid ma’lumotlar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu bo‘limda Bobur shaxsiyatiga va ijodiy faoliyatiga oid manbalar joy olgan (2-rasm).



2-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur korpusining 2-bo‘limi

Korpusda uchinchi bo‘lim “Boburnoma” deb nomlangan. “Boburnoma” asari muallifning shoh memuar asari hisoblanadi. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistondagi hayoti tasvirlangan. Shu bilan birga

xalqlarning urf-odatlari, geografiyasi, etnografiyasi, turmush tarzi, madaniyati, o‘simlik va hayvonot dunyosiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. “Boburnoma” asari shu kungacha bir necha marta nashr etilgan. Korpusga 2002-yilda “Sharq” nashriyot-matbaasi tominidan nashr etilgan varianti joylandi. Asar krill yozuvida nashr etilgan. Korpus uchun krilldan lotin yozuviga o‘girilgan shaklda kiritildi. Foydalanuvchi asar matni bilan tanishishi va matn tarkibidagi istalgan so‘zni qidirish imkoniyati mavjud.

Korpusda to‘rtinchi bo‘lim “Bobur devoni” deb nomlangan. Bobur ijodining asosiy qismi lirik asarlar tashkil etadi. Devonda aynan lirik janrdagi asarlari jamlangan. Bobur devonidagi janrlar soni va miqdori quyidagi jadvalda berilgan (1-jadvalga qarang). Korpusga jadvalda keltirigan barcha janrga oid ijod namunalari o‘rin olgan.

2-jadval. Bobur devonidagi janrlar soni va miqdori

№	JANRI	SONI
1	G‘azal	220
2	Tuyuq	16
3	Ruboiy	242
4	Qit’a	25
5	To‘rtlik	9
6	Muammo	54
7	Masnu she’r	1
8	Fard	99
9	Ash’ori forsiy	2
10	Ruboiyot	12
11	Muqattoat	7
12	Fardho	17
13	Masnaviy	364
14	Noma	6

Devonning 2022-yilda “Sharq” nashriyoti tomonidan nashr etilgan varianti asos qilib olingan. Foydalanuvchi bu bo‘limga kirganda quyidagi oyna hosil bo‘ladi (2-rasm). Devonda jami o‘n to‘rtga janrga oid lirik she’rlardan iboratligi uchun korpusda ham har bir janr namunalari alohida joylangan. Bu bo‘limda oynada 14 ta janrga oid asarlari aks etagan. Korpusga devon yaxlit tarzda emas janrlariga xos tartibda o‘rin olgan. Devondagi lirik janrlar sarlavhalanmagi uchun, har bir janrga oid asarlari birinchi satri bilan berilgan. Masalan g‘azal qismiga kirilsa devondagi barcha g‘azallarning birinchi satri ketma-ketlikda chiqadi. Foydalanuvchi istalgan g‘azalni birinchi satri belgilansa, butun g‘azal matni bilan tanishishi mumkin.



3-rasm. Bobur devoni bo‘limi

Korpusdagi eng muhim xususiyatlardan biri qidiruv tizimi hisoblanadi. Shu sababli qidiruv tizimi qanchalik mukammal tuzilgan bo‘lsa, korpus ham shunchalik sifatli bo‘ladi. Korpusda qidiruv tizimining bir necha shakllari mavjud. Birinchisi so‘zshaklida, ikkinchisi janr shaklidagi qidiruv tizimi hisoblanadi. Bu yanada muallif asarlarida qidiruvni amalga oshirishda qulaylik yaratadi. Birinchi qidiruv tizimi ya’ni so‘z shaklida qidiruv amalga oshirilganda, bu so‘z “Bobunoma” va “Bobur devoni” asarlaridan olingan natijani taqdim etadi. Ikkinchi qidiruv shakli-janr bo‘yicha qidiruv amalga oshirilganda esa, “Bobur devoni”dagi janrlar tarkibidan qidiruv olb boriladi. Korpus menejerining mukammal ishlab chiqilganligi korpus qidiruv tizimi imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Zahiridin Muhammad Boburning asarlariga asoslangan mualliflik korpusning interfeysini yaratish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mukammal ishlab chiqilgan interfeys Bobur ijodiy merosini o‘rganish va tadqiq etish jarayonini osonlashtiradi. Korpus interfeysining muhim xususiyatlari sifatida qulay qidiruv tizimi, matnlarni tezkor tahlil qilish imkoniyati, lug‘at va grammatika ma’lumotlariga oson kirish, turli xil so‘rovlarni amalga oshirish va statistik natija olish imkoniyatini beradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda korpusga yangi funksionallarni qo‘shish, ma’lumotlar bazasini boyitish va muallifning boshqa asarlarini ham korpusga joylashtirish maqsad qilingan. Ushbu mualliflik korpusi Bobur merosini chuqurroq o‘rganish, tahlil qilish va uning boy tilini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

‚Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. Globe edits, 2020.
2. Hoshimova D. “Boburnoma” asarining tanqidiy matnini yaratish muammolari. Filol. Fan. Nomz… diss. – Toshkent, 2006.
3. Rahimov A., Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Xolmonova Z. “Boburnoma”- til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
5. Hamroyeva Sh., Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. 2020.
6. https://lex.uz/uz/docs/-6371358

MUALLIFLIK KORPUSI QIDIRUV TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Sanjarbek Baxodirov Rahmatali o‘g‘li,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
sanjarbahodirov9901@gmail.com
ToshDO‘TAU

Nilufar Muradova Baxodir qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
muradovanilufar06@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mualliflik korpusi qidiruv tizimi zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun samarali vosita hisoblanadi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga matnlarni konkordans qidiruv va kengaytirilgan qidiruv yordamida tahlil qilish imkonini beradi. Konkordans qidiruv so‘z shakllari va ularning kontekstlarini aniqlashda yordam bersa, kengaytirilgan qidiruv turli filtrlash parametrlari orqali aniq natijalar taqdim etadi. Mazkur maqolada ushbu qidiruv tizimining asosiy tamoyillari, ishlash mexanizmi va texnik jihatlari yoritiladi. Tizimning samaradorligi va foydalanuvchilarga qulayligi haqidagi tahlillar ham keltiriladi. Mualliflik korpusining ushbu qidiruv imkoniyatlari lingvistika, tarjima va matnshunoslik sohalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract. The authorship corpus search system is an effective tool for modern linguistic research. This system allows users to analyze texts through concordance search and advanced search functionalities. The concordance search helps identify word forms and their contexts, while the advanced search provides precise results through various filtering parameters. This article highlights the fundamental principles, operational mechanisms, and technical aspects of this search system. It also includes an analysis of the system's efficiency and user-friendliness. The search capabilities of the authorship corpus are of great importance for linguistics, translation, and text studies.

Аннотация. Система поиска по авторскому корпусу является эффективным инструментом для современных лингвистических исследований. Данная система позволяет пользователям анализировать тексты с помощью поиска по конкордансам и расширенного поиска. Поиск по конкордансам помогает определить формы слов и их контексты, а расширенный поиск предоставляет точные результаты благодаря различным параметрам фильтрации. В данной статье рассматриваются основные принципы, механизм работы и технические аспекты данной поисковой системы. Также приводится анализ её эффективности и удобства использования. Возможности поиска в авторском корпусе имеют важное значение для лингвистики, перевода и текстоведения.

Kalit so‘zlar: *Mualliflik korpusi, konkordans qidiruv, kengaytirilgan qidiruv, lingvistik tahlil, matnshunoslik, qidiruv algoritmlari, korpus lingvistikasi.*

KIRISH

Hozirgi kunda lingvistik tadqiqotlar sohasida korpus lingvistikasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Matnlarni chuqur tahlil qilish, leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish, tarjima jarayonlarini soddalashtirish va sun’iy intellekt tizimlarini rivojlantirish uchun korpuslardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mualliflik korpusi ma’lumotlarni tizimli ravishda to‘plash, saqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi qudratli vositadir.

Mualliflik korpusi yordamida matnlar tarkibiy qismlarini o‘rganish, so‘zlarning ishlatilish chastotasini aniqlash, semantik bog‘liqliklarni tadqiq qilish hamda tarjima amaliyotida muhim bo‘lgan parallel matnlarni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu maqolada mualliflik korpusi uchun ishlab chiqilgan qidiruv tizimining ishlash tamoyillari, asosiy funksiyalari va texnik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotda korpus asosida ishlovchi qidiruv tizimlarining samaradorligi va foydalanuvchilarga qulayligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, lingvistik tadqiqotlarda ushbu tizimdan foydalanish imkoniyatlari, kelajakda uni yanada takomillashtirish yo‘nalishlari muhokama qilinadi. Ushbu maqola nafaqat lingvistlar, balki tarjimonlar, tadqiqotchilar va sun’iy intellekt tizimlari bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Konkordans qidiruvi. Matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilishda so‘zlarning kontekstini o‘rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, bizning qidiruv tizimimizning birinchi qismi Konkordans qidiruvi bo‘lib, u ma’lum bir so‘z yoki iborani uning kontekstida izlash imkonini beradi. Ushbu tizimni Python dasturlash tili va Django veb-frameworkidan foydalangan holda ko‘rib chiqildi.

Konkordans qidiruv tizimi uchta asosiy qism dan iborat:

1. **Ma’lumotlar bazasi modeli** – Konkordans jadvali so‘zlarni va ularning kontekstini saqlaydi.

2. **Qidiruv funksiyasi** – concordance_search funksiyasi foydalanuvchining kiritgan so‘zi bo‘yicha mos keluvchi natijalarni chiqaradi.

3. **Ma’lumotlarni indekslash** – build_concordance kommandasi yordamida matnlardagi so‘zlar avtomatik ravishda **Concordance** bazasiga yuklanadi.

Konkordans modeli (ma’lumotlar bazasi modeli). Konkordans qidiruvi asosiy ma’lumotlar bazasi modeli sifatida **Concordance** modelidan foydalanadi.

Ushbu model har bir so‘zning kontekstini, uning joylashuvi va tegishli asar bilan bog‘liqligini saqlaydi.

```
class Concordance(models.Model):
    work = models.ForeignKey(Work, on_delete=models.CASCADE)
    keyword = models.CharField(max_length=100)
    context_before = models.TextField()
    context_after = models.TextField()
    position = models.IntegerField()

    def __str__(self):
        return f"{self.keyword} in {self.work.title}"
```

Ushbu model quyidagi maydonlar(fields)dan iborat:(Qarang:1-jadval)

1-jadval. Konkordans qidiruv modeli tuzilishi

Maydon	Turi	Izoh
id	AutoField (PK)	Unikal identifikator
work_id	ForeignKey(Work)	Ushbu so‘z qaysi matnga tegishli ekanligi
keyword	CharField(100)	Qidirilayotgan so‘z
context_before	TextField()	So‘zdan oldingi kontekst
context_after	TextField()	So‘zdan keyingi kontekst
position	IntegerField()	So‘zning matndagi tartib raqami

2. *Concordance qidiruv funksiyasi* – matnda so‘zlarni kontekst (oldingi va keyingi so‘zlar) bilan birga izlash tizimi. Ushbu usul lingvistik tahlil, matnni semantik tekshirish, ma’lumot qidirish va tilshunoslik sohalarida keng qo‘llaniladi.

Django yordamida qurilgan ushbu qidiruv tizimi ma’lum matnlardan so‘zlarni chiqarib, ularning atrofidagi kontekst bilan birga saqlaydi va qidiruv imkoniyatlarini taqdim etadi.

concordance_search funksiyasi quyidagi bosqichlarda ishlaydi:



Kiruvchi Parametrlarni Qabul Qilish. Foydalanuvchi qidiruv so‘zini va qo‘shimcha filtrlarni (janr, davr, qidiruv turi) kiritadi:

```
query = request.GET.get('q', '')
genre = request.GET.get('genre')
period = request.GET.get('period')
search_type = request.GET.get('search_type', 'exact')
```

Qidiruv turlari:

1. exact – aynan mos keluvchi so‘zlarni qidirish (keyword__iexact=query)
2. starts_with – so‘z boshi bo‘yicha qidirish (keyword__istartswith=query)
3. contains – so‘z tarkibida berilgan qator bor-yo‘qligini tekshirish (keyword__icontains=query)

Natijalarni So‘rash. Qidiruv so‘roviga mos keluvchi natijalar Concordance modelidan olinadi:

```
if search_type == 'starts_with':
    results = Concordance.objects.filter(keyword__istartswith=query)
elif search_type == 'exact':
    results = Concordance.objects.filter(keyword__iexact=query)
else:
    results = Concordance.objects.filter(keyword__icontains=query)
```

Agar foydalanuvchi **janr yoki davr bo‘yicha filtr qo‘llasa,** natijalar quyidagicha filtrlanadi:

```
if genre:
    results = results.filter(work__genre__id=genre)
if period:
    results = results.filter(work__period__id=period)
```

Natijalarni Saralash va Sahifalash. Topilgan natijalar *asar nomi* va *so‘zning tartib raqami* bo‘yicha saralanadi:

```
results = results.order_by('work__title', 'position')
```

Natijalar **sahifalarga bo‘linadi** (20 tadan):

```
results_paginator = Paginator(results, 20)
concordances = results_paginator.page(results_page)
```

Qidiruv Tarixini Saqlash. Qidiruv tizimi foydalanuvchi kiritgan so‘rovlarni **tarixga yozib boradi:**

```
SearchHistory.objects.create(
    query=query,
    results_count=total_results,
    filters_used={'genre': genre, 'period': period, 'search_type': search_type}
)
```

Ma’lumotlarni Indekslash. Ma’lumotlarni indekslash – konkordans qidiruv tizimining muhim qismi bo‘lib, u matnlardagi so‘zlarni ajratib, ularning kontekstini aniqlash va ma’lumotlar bazasiga yuklash jarayonidir. Bu jarayon konkordans qidiruvning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lib, foydalanuvchilar so‘zlarni qidirganda ularni o‘z konteksti bilan birga topish imkonini beradi.

Indekslash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqichda barcha matnlar Work modelidan olinadi. Ushbu model ma’lumotlar bazasida saqlanayotgan asar yoki hujjatlarni ifodalaydi. Indekslash funksiyasi har bir matn ustida ishlaydi va uni tahlil qiladi.

Ikkinchi bosqichda matn so‘zlarga bo‘linadi. Buning uchun maxsus matnni tahlil qilish usullari ishlatiladi. Masalan, regular ifodalar (regex) yordamida barcha so‘zlar ajratib olinadi va ular alohida ro‘yxatga joylashtiriladi. Har bir so‘z o‘zining matndagi joylashuv tartibiga ega bo‘ladi.

```
for i, work in enumerate(works, 1):
    self.stdout.write(f'Processing work {i}/{total_works}: {work.title}')

    # 3. Matnni kichik harflarga o‘tkazib, so‘zlarni ajratish
    words = re.findall(r'\b\w+\b', work.content.lower())
```

Uchinchi bosqichda har bir so‘zning konteksti aniqlanadi. Bu bosqichda har bir so‘zning oldidan va keyin keluvchi besh-oltita so‘z ajratib olinadi. Agar so‘z matnning boshida yoki oxirida joylashgan bo‘lsa, u holda mavjud bo‘lgan qismi olinadi. Kontekstni aniqlash natijasida qidiruv tizimi foydalanuvchi izlayotgan so‘z atrofidagi ma’lumotni ham taqdim etadi.

```
for position, word in enumerate(words):
    if len(word) < 2:  # Bitta harfdan iborat so‘zlarni o‘tkazib yuborish
    continue

# 4. So‘zning oldidan va keyin keluvchi so‘zlarni aniqlash
    start_pos = max(0, position - 5)
    end_pos = min(len(words), position + 6)

    context_before = ' '.join(words[start_pos:position])
    context_after = ' '.join(words[position+1:end_pos])
```

To‘rtinchi bosqichda so‘z va uning konteksti Concordance jadvaliga yoziladi. Ushbu jarayonda har bir so‘zga tegishli quyidagi ma’lumotlar bazaga qo‘shiladi:

- So‘zning o‘zi

- Matndagi joylashuv tartibi
- Oldingi so‘zlar (kontekst oldin)
- Keyingi so‘zlar (kontekst keyin)
- Ushbu so‘z tegishli bo‘lgan asar identifikatori

Barcha matnlar tahlil qilinib, kerakli ma‘lumotlar bazaga yuklangandan so‘ng, konkordans qidiruv tizimi ishlashga tayyor bo‘ladi. Endilikda foydalanuvchi so‘zlarni izlaganda, ularning matndagi aniq joylashuvi va konteksti bilan birga ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Indekslash jarayoni muntazam ravishda yoki yangi matnlar qo‘shilganda qayta ishga tushirilishi mumkin. Buning uchun maxsus Django management command yoziladi, bu buyruq chaqirilganda barcha mavjud matnlar qayta tahlil qilinadi va konkordans jadvali yangilanadi.

Umuman olganda, indekslash jarayoni konkordans qidiruv tizimining asosiy tayanch qismi bo‘lib, u so‘zlarni samarali qidirish va kontekstda ko‘rsatish imkonini beradi.

NATIJA. Konkordans qidiruv tizimi matn tahlili va lingvistik tadqiqotlar uchun muhim vositalardan biri bo‘lib, matndagi so‘zlarni ularning konteksti bilan birga topish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot natijasida concordance qidiruvi amalga oshirishning samarali usullari ishlab chiqildi va tizimning asosiy ishlash tamoyillari aniqlandi.

Tadqiqot davomida matnlarni to‘liq tahlil qilish va qidiruv jarayonini tezlashtirish uchun maxsus indekslash mexanizmi yaratildi. Ushbu indekslash jarayonida matndagi har bir so‘z ajratib olinib, ularning joylashuvi va konteksti qayd etildi. Bu esa qidiruv natijalarini yanada aniqroq va samaraliroq qilish imkonini berdi. Foydalanuvchilar kiritgan so‘zni nafaqat mustaqil holda, balki uning oldidan va keyin keluvchi so‘zlar bilan birgalikda topish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.(Qarang:1-rasm)

Qidiruv natijalari matndagi so‘zlarning qanday ishlatilishini tushunish, uslubiy tahlillar o‘tkazish va lingvistik tadqiqotlar olib borish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Tizim real vaqt rejimida tezkor natijalar taqdim etib, katta hajmdagi matnlarni samarali qayta ishlashga yordam berdi. Shuningdek, so‘z shakllari, sinonimlar va matn strukturasi bilan ishlash imkoniyatlari ham qo‘shildi, bu esa qidiruvning aniqroq bo‘lishiga zamin yaratdi.



1-rasm. Konkardans qidiruv natijasi

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijasida concordance qidiruv tizimi matn tahlili uchun muhim vosita ekanligi tasdiqlandi. Tizim matndagi har bir so‘zning joylashuvi va kontekstini aniqlashga imkon berib, qidiruv natijalarini aniq va tushunarli shaklda taqdim etadi.

Indekslash jarayoni orqali matn tuzilmasi chuqur tahlil qilinib, so‘zlarning qaysi kontekstda ishlatilganini aniqlash imkoni yaratildi. Ushbu yondashuv lingvistik tadqiqotlar, matnni chuqur o‘rganish va turli tahliliy ishlarda samarali natijalar berishi mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, konkardans qidiruvi lingvistik izlanishlar, tarjima ishlari, matn muallifligini aniqlash, adabiy tahlillar va axborot qidiruv tizimlarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kuchli vosita ekanligi isbotlandi. Kelgusida tizimni yanada rivojlantirish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullaridan foydalangan holda lemmatizatsiya, ma’noli tahlil va kontekstga asoslangan chuqur qidiruv imkoniyatlarini qo‘shish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. – Globe edit, 2020.

2. Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati: Terminologik lug‘at. – Globe edit, 2020.
3. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005.
4. https://uzlc.tsuull.uz/index.php/uzlangcult/article/download/149/151/473
5. http://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/1038

DIYAKRON DERLEMIN FILOLOJIK ARAŞTIRMALARDAKI ÖNEMI

Yangibayeva Surayyo Gulimboy qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi I bosqich magistranti
surayyoyangibayeva4@gmail.com
ToshDO‘TAU

Öz. Bu yazıda diyakron derlem kavramı ve onun filolojik araştırmalardaki önemi ele alınmaktadır. Tarihi dilbilim, dil değişimleri ve metindilbilim alanlarında diyakron derlemler aracılığıyla incelenen temel unsurlar değerlendirilmiştir. Ayrıca, diyakron derlem kullanarak dil sistemindeki değişimleri izleme, sözcüksel ve dilbilgisel yapıları analiz etmenin bilimsel önemi ayrıntılı bir şekilde incelenmiştir. Yazıda bu konu üzerine önde gelen akademisyenlerin bilimsel çalışmaları ve mevcut kaynaklardan yararlanma olanakları ele alınmaktadır.

Annotation. This article explores the concept of a diachronic corpus and its significance in philological research. The key aspects studied through diachronic corpora in historical linguistics, linguistic changes, and textology are examined. Additionally, the scientific importance of tracking language system changes, analyzing lexical and grammatical structures using a diachronic corpus, is discussed in detail. The article reviews the works of leading scholars on this topic and examines the possibilities of utilizing existing resources.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие диахронного корпуса и его значение в филологических исследованиях. Анализируются основные аспекты, изучаемые с использованием диахронных корпусов в историческом языкознании, лингвистических изменениях и текстологии. Кроме того, подробно обсуждается научная значимость наблюдения за изменениями в языковой системе, анализа лексических и грамматических структур с помощью диахронного корпуса. В статье рассматриваются научные труды ведущих исследователей по данной теме, а также возможности использования существующих ресурсов.

Anahtar kelimeler: *diyakron derlem, tarihi dilbilim, metindilbilim, dil değişimi, sözcüksel analiz, filolojik araştırmalar.*

Giriş

Dilbilim, yıllar içinde gelişiyor, genişliyor ve yenileniyor. Modern dilbilim ise bugün makine çevirisi, NLP, yapay zeka, korpus dilbilimi gibi birçok yeni alanla daha da genişledi. Sonuç olarak, dil derlemleri kavramı ortaya çıkmıştır. üretilen, kelimelerin, ifadelerin ve genel olarak dilin nasıl kullanıldığını analiz etmek için kullanılan çok büyük bir metin koleksiyonlarıdır. Bu derlemler, dilbilimciler, sözlükbilimciler, sosyal bilimciler, beşeri bilimler uzmanları, doğal dil işleme

uzmanları ve daha birçok alanda kullanılmaktadır [1]. Bunun sonucunda, farklı amaçları kapsayan yeni dil derlemleri oluşturulmaya başlanmıştır. Dil, zamanla sürekli değişen dinamik bir sistemdir [2]. Bu değişimleri sistematik bir şekilde incelemek için diyakron derlemler önemli bir araç olarak hizmet etmektedir. Diyakron derlem, farklı tarihî dönemlere ait metin koleksiyonlarından oluşur ve dilin değişim dinamiklerini gözlemleme imkânı sağlar [3]. Filolojik araştırmalar çerçevesinde bu tür derlemler, edebî dilin gelişimi, dilbilgisel yapıların evrimi ve sözcük türetme süreçlerinin derinlemesine incelenmesine olanak tanır. Bu yazıda diyakron derlem kavramı, yapısı ve filolojik araştırmalardaki önemi ele alınmaktadır.

Diyakron derlem kavramı ve yapısı

Diyakron derlem, farklı tarihsel dönemlere ait metinleri içeren bir dilbilimsel kaynak olup, dil değişimlerini analiz etmek, dilin evrimini derinlemesine incelemek, edebî süreçleri değerlendirmek ve filolojik araştırmalar için temel bir kaynak olarak kullanılmaktadır.

Şekil 1. Diyakron derlemin bileşenleri



Diyakron **derlemler** *dilbilim, edebiyat çalışmaları, metin çalışmaları ve kültürel çalışmalar* gibi çeşitli alanlarda yaygın olarak kullanılmaktadır. Örneğin, İngiliz dil biliminde *Helsinki Corpus* [4], *ARCHER Corpus va Corpus of Historical American English (COHA)* Eski ve Modern İngilizcenin gelişimi, dilbilgisi ve sözcük dağarcığındaki değişimler gibi kaynaklar aracılığıyla derinlemesine analiz edilir. Rus dilbiliminde *"Национальный корпус русского языка"* Rus dilinin dilbilgisi değişiklikleri derlem aracılığıyla gözlenip incelenmektedir.

Filolojik araştırmalarda diakronik derlemin rolü ve önemi

Filolojik araştırmalar dilbilimin önemli alanlarından biri olup, analitik yöntemlerin gelişmesiyle doğru ve güvenilir sonuçlara ulaşma olanağı artmaktadır.

Diyakronik metinler bir dilin tarihsel gelişiminin derinlemesine incelenmesinde en önemli araçlardan biri olarak kabul edilir ve aşağıdaki amaçlara hizmet eder.

1. **Sözcüksel değişikliklerin incelenmesi**

Diyakronik metinler, kelimelerin zaman içinde nasıl değiştiğini incelememize olanak tanır [5]. Örneğin Özbek dilinde bazı eski sözcüklerin modern biçimlere geçişi gözlemlenebilir. Zamanla bazı kelimeler tamamen kullanımdan kalkmış olabilir.

2. **Dilbilgisi yapılarının geliştirilmesi**

Bir dilin dilbilgisi sistemi sürekli değişmektedir. Diyakronik metinler aracılığıyla Özbek dilinde fiil zamanlarının tarihsel gelişimi veya cümle kuruluşunun evrimi izlenebilmektedir [6]. Katkı maddelerinin kullanım şekillerinde de değişiklik tespit etmek mümkündür.

3. **Metinsel çalışmalar ve üslup bilimi**

Farklı dönemlere ait metinler incelenerek yazar üslubu ve edebi türlerdeki değişimler incelenmektedir. Örneğin Ali Şir Nevai'nin eserleri ile çağdaş Özbek edebiyatının eserleri, diakronik bir külliyat temelinde karşılaştırılabilir. Yahut Cedit edebiyatı döneminde yaratılan eserleri, bağımsızlık dönemi edebiyatını ve çağdaş Özbek edebiyatını, diakronik bir külliyat üzerinden birbirleriyle karşılaştırabiliriz.

4. ***Dilin tarihini incelemek***

Diyakronik metinler, bir dilin antik, orta ve modern evrelerini karşılaştırmamıza, gelişim aşamalarını belirlememize ve dilsel değişimlerin derinlemesine analizini yapmamıza olanak tanır. Belirli bir yıl içinde kelimelerin kullanım sıklığının belirlenmesiyle hangi kelimelerin kullanımdan düştüğü, hangi kelimelerin yeni kullanıma girdiği incelenebilir.

Diyakronik korpusun pratik önemi göz önüne alındığında, bu tür korpuslar

Bu teknolojinin kullanımı sadece akademik araştırmalarda değil, aynı zamanda pratik alanlarda da önem taşımaktadır. Aşağıdaki alanlarda etkin bir şekilde kullanılabilir:

Tablo 1. Diyakron derlemin çeşitli disiplinlerde uygulanması.

№	Endüstriler	Kullanım amacı
1	***Yapay zeka ve makine çevirisi***	Tarihsel metinlerin modern dile uyarlanması sürecinin otomasyonunda faydalıdır.
2	***Kelime bilgisi***	Tarihî sözlüklerin derlenmesinde önemli bir kaynaktır.
3	***Kültürel mirasın korunması***	Antik yazılı eserlerin sayısallaştırılması ve analizinde kullanılır.
4	***Öğretim ve öğrenme süreci***	Araştırmacıların dilin tarihini derinlemesine incelemelerine malzeme teşkil eder.

5	***Edebiyat ve Metin Çalışmaları***	Edebi eserlerdeki dönemsel değişikliklerin izlenmesine ve üslup araştırmalarının yapılmasına yardımcı olur.
6	***Dil planlama ve standardizasyon***	Dildeki değişiklikleri analiz ederek biçimsel yazım ve dil bilgisi kurallarının iyileştirilmesine olanak sağlar.

Diyakron derlemler yardımıyla gerçekleştirilen araştırmalar

Günümüzde derlem dilbilimi alanındaki araştırmalar hızla gelişmektedir. Diyakronik metinler, dilin tarihsel gelişimini, sözcüksel-anlamsal değişimleri ve dilbilgisi yapılarının evrimini incelemede özellikle önemlidir. Bu metinler aracılığıyla dil birimlerinin farklı dönemlerdeki ortaya çıkışı, gelişimi ve yok oluşu bilimsel bir temele oturtulmaktadır. Çeşitli diller üzerinde diakronik korpus tabanlı araştırmalar yürütülmekte, dilsel özellikleri ve tarihsel etkenler incelenmektedir. Örneğin İngilizce, Almanca ve Fransızca dillerindeki değişim eğilimleri bu yöntem kullanılarak derinlemesine analiz edilmiştir. Bu çalışmalar sonucunda dil değişiminin iç ve dış etkenleri belirlenerek dilin dönemsel gelişim özellikleri açıklığa kavuşturulmaktadır. Aynı zamanda, hesaplamalı dilbilim ve yapay zekâ araçları kullanılarak diakronik metinler derinlemesine analiz edilmekte, böylece sonuçların doğruluğu artırılmaktadır. Filoloji araştırmalarında diakronik metinlerden yararlanılarak yapılmış çok sayıda çalışma bulunmaktadır. Bu çalışmalar dilbilimin çeşitli alanlarına uygulanmıştır. Örneğin Dawn Archer, Jonathan Culpeper ve Paul Rayson (2015) İngilizcede kiplik kategorisinin gelişimini incelemiştir. Araştırmaları modal fiillerin (örn *“must”* Ve *“shall”*) tarihsel süreçte çeşitli anlam değişimlerine uğramıştır. Ayrıca, diachronik derlemlerden yararlanılarak morfolojik ve sentaktik değişimler de incelenmektedir. Douglas Biber ve Susan Conrad (2009) akademik ve bilimsel üslupta cümle yapılarının tarihsel gelişimini incelemiştir. Sonuçlar, uzun cümleler yerine kısa ve net yapıların daha sık kullanıldığını göstermektedir. Türk dilbiliminde diakronik metinlere dayalı çalışmalar arasında Aksan ve Aksu-Koç (2016) tarafından yapılan çalışma özel bir öneme sahiptir. Türkçedeki morfolojik değişimleri incelemişler ve fiil formlarındaki değişimleri ve bunların tarihsel dönemlere göre kullanımını analiz etmişlerdir [7]. Ayrıca Koç H. ve Uçar M. (2019) diachronik derlemleri kullanarak Eski ve Modern Türkçe'deki sözcüksel değişimleri incelemiştir [8]. Bu çalışmalar Türk dilinin art zamanlı gelişiminin aydınlatılması açısından büyük önem taşımaktadır.

Sonuç

Filolojik araştırmalarda dil gelişiminin dinamiklerinin incelenmesi açısından diakronik metinler önemlidir. Bu makale aracılığıyla, sözcüksel değişim, dilbilgisi yapılarının evrimi ve metin çalışmaları alanlarında diakronik metinlerin yaygın kullanımına bir kez daha tanıklık etmiş olduk. Bu nedenle her dil için diyakronik derlemlerin oluşturulması büyük önem taşır. Gelecekte diyakron derlemlerin daha

da gelişmesi ve kullanım olanaklarının genişlemesi, filolojik araştırmaların verimliliğini artırmaya hizmet edecektir.

Kaynakça:

1. Elov B., Xusainova Z., (2024) Til korpuslarini lingvistik teglash bosqichlari.

2. Labov W. (1994). Principles of Linguistic Change: Internal Factors. Blackwell.

3. McEnery T. and Hardie A. (2012). Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press.

4. Rissanen M. (1999). Helsinki Corpus of English Texts: Diachronic and Synchronic Approaches. Helsinki University Press.

5. Brinton L.J. and Arnovick L.K. (2006). The English Language: A Linguistic History. Oxford University Press.

6. Vinogradov V.V. (1982). Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva: Nauka.

7. Aksan Y. ve Aksu-Koç A. (2016). “Turkish Morphological Change in Diachronic Corpora”. Turkish Journal of Linguistics, 33(2), 102–120. Google Scholar

8. Koç H., Uçar M. (2019). “Lexical Changes in Historical and Modern Turkish: A Diachronic Corpus Analysis”. Journal of Turkish Studies, 45(3), 223–245. ResearchGate

9. Archer, D., Culpeper J. and Rayson, P. (2015). “Modality in the history of English”. Language and Computers, 72(1), 1–26. DOI: 10.1075/lab.72.1.01arc

10. Apresyan Y.D. (2006). Natsionalniy korpus russkogo yazyka: Novye podkhody k issledovaniyu. Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury.

SIFAT SO‘Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASH

Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o‘g‘li,
O‘qituvchi
nizomaddin@navoiy-uni.iz
ToshDO‘TAU

Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
tiladabiyot@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada sifat so‘z turkumining grammatik jihatdan qismlariga ajratilishi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) doirasida so‘z turkumlarini belgilash (POS tagging) jarayoni tahlil qilinadi. Sifatlar til tuzilishida muhim o‘rin tutib, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlash matnlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashda katta ahamiyatga ega. Maqolada sifatlarning darajalari, shakllari va qo‘llanilishiga asoslangan POS teglash usullari hamda zamonaviy sun‘iy intellekt algoritmlari yordamida amalga oshiriladigan yondashuvlar haqida ma‘lumot beriladi.

Annotation. This article analyzes the grammatical classification of the adjective part of speech and the process of part of speech tagging (POS tagging) within the scope of Natural Language Processing (NLP). Adjectives play an important role in language structure, and correctly identifying their morphological and syntactic properties is crucial for the automated processing of texts. The article provides information on POS tagging methods based on the degrees, forms, and usage of adjectives, as well as approaches implemented using modern artificial intelligence algorithms.

Аннотация. В данной статье анализируется грамматическая классификация прилагательного как части речи и процесс тегирования частей речи (POS tagging) в рамках обработки естественного языка (NLP). Прилагательные играют важную роль в языковой структуре, и правильное определение их морфологических и синтаксических свойств имеет большое значение для автоматизированной обработки текстов. В статье представлена информация о методах тегирования частей речи на основе степеней, форм и использования прилагательных, а также подходах, реализуемых с использованием современных алгоритмов искусственного интеллекта.

Kalit so‘zlar: *sifat, so‘z turkumlari, grammatik tahlil, POS tagging, tabiiy tilni qayta ishlash, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, NLP, sun‘iy intellekt, mashinani o‘rganish.*

Kirish. Sifat so‘z turkumi, lingvistikada sifat sifatida tanilgan so‘zlar to‘plami bo‘lib, ob‘ektlar yoki hodisalarni ta‘riflash va ularga xususiyatlar berish uchun ishlatiladi. Tilshunoslikda sifatlar odatda o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan nomlarni ta‘riflash uchun ishlatiladi, masalan, "yaxshi kitob", "baland tog‘" va "quyoshli kun". Bu so‘zlar ma‘lum bir ob‘ektning xususiyatlarini aniqlab, uni boshqalardan ajratib turadi. Shuning uchun sifatlar tabiiy tilni qayta ishlash va matnni avtomatik tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega[1].

Grammatik pos teglash (Part-of-Speech Tagging, POS tagging) – tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) sohasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, unda har bir so‘zning grammatik rolini belgilash orqali matnni avtomatik ravishda tahlil qilish amalga oshiriladi. Grammatik pos teglash tilni analiz qilishda tilning morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi va bu jarayon ko‘plab tilshunoslik va kompyuter fanlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu jarayon yordamida har bir so‘zning grammatik kategoriyasi, masalan, ot, fe‘l, sifat, predlog va boshqa so‘z turkumlari aniqlanadi.

Grammatik POS teglash jarayonida sifatlar matndagi o‘rniga va uning grammatik funktsiyasiga qarab teglar bilan belgilanishi kerak. Bu jarayon tillarning morfologik va sintaktik xususiyatlariga asoslanadi, va tahlil qilishda tilning turli xususiyatlari, masalan, sintaktik roli, kontekst va ma‘no o‘zgarishi inobatga olinadi. Sifat so‘zlarining grammatik teglari, tilning tuzilishiga qarab, turli xil bo‘lishi mumkin, masalan, "yaxshi" sifatining "JJ" yoki "ADJ" teglariga ega bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda sifatlarni POS teglash tizimlarida to‘g‘ri aniqlash uchun bir qator ilg‘or metodlar mavjud. Masalan, mashina o‘rganish, chuqur o‘rganish (deep learning) va tabiiy tilni qayta ishlashning boshqa zamonaviy usullari sifat so‘zlarni aniqlashda yordam berishi mumkin. Ayniqsa, chuqur o‘rganish algoritmlari va neyron tarmoqlarining qo‘llanilishi POS teglash jarayonini yanada samarali va aniqlik bilan bajarishga yordam beradi. Shu bilan birga, sifatlar o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kontekstda ham to‘g‘ri tahlil qilish zarurati paydo bo‘ladi.

Shu sababli, bu maqola sifat so‘z turkumi va uning grammatik POS teglashini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va hozirgi kunda mavjud bo‘lgan usullarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan. U shuningdek, tilni qayta ishlashda sifatlarni to‘g‘ri belgilashning ahamiyatini va bu jarayonni yaxshilashda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni tahlil qilishni maqsad qiladi[2].

Muhokama va natijalar

Sifatni o‘rganish tizimi materiali leksik va grammatik jihatdan izchillikni saqlagan holda rivojlantirib borish, shuningdek, murakkablashtirishni nazarda tutadi. 1-sinfda o‘quvchilar sifatning leksik ma‘nosini va uning qanday? va qanaqa?

so‘roqlariga javob berishini o‘rganadilar. 2-sinfda sifat so‘z turkumi sifatida to‘liq o‘zlashtiriladi, 3-sinfda esa ilgari o‘rganilganlarni takrorlab, grammatik materialga asoslangan –roq qo‘shimchasi bilan yasalgan sifatlarning yozilishi o‘rgatiladi (terminlar ishlatilmaydi). Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqi yangi sifatlar bilan boyitiladi va ilgari o‘rganilgan sifatlarning ma‘nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifat so‘z turkumining grammatik teglanishi quyidagicha:

Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.

Keltirilgan gapda, yaxshi va yomon so‘zlari sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lib, yaxshi(xususiyat sifati, asliy sifat, oddiy daraja, sodda sifat), yomon(xususiyat sifati, asliy sifat, oddiy daraja, sodda sifat) ko‘rinishida grammatik teglanadi.

Sifatni o‘rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi, chunki sifat predmetning belgilarini (rangi, shakli, hajmi, ko‘rinishi, ta‘mi, hidi va h.k.) bildiradi. Sifatning leksik ma‘nosini tushunish uchun 1-sinfda bolalar sifatning ot bilan bog‘lanishini o‘rganadilar. O‘quvchilar predmetning belgisini aytib, so‘rov yordamida sifat va ot birikmasini aniqlashni o‘rganadilar. Keyingi sinflarda bu bog‘liqlik yanada chuqurlashtiriladi. Shunday qilib, sifatni o‘rganish leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) jihatdan amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda sifat quyidagi izchillikda o‘rganiladi: [3]

1. Sifat bilan tanishtirish (1-sinf),
2. Sifat haqida tushuncha berish (2-sinf),
3. Grammatik materialga bog‘liq sifatlar yozilishini o‘zlashtirish (3-sinf).

Birinchi bosqichda sifatning leksik ma‘nosi va so‘roqlariga diqqat qaratiladi. Predmetning belgilarini, uning rangini, mazasi va shaklini ta‘riflash uchun sifatlar tanlanadi. Shunday qilib, o‘quvchilar sifatlarni tanib olish uchun predmetlar yoki rasmlar asosida mavzularni muhokama qiladilar. Bu darslarda ko‘rgazmalar, mashqlar va suhbatlar keng qo‘llaniladi.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilarga sifatning grammatik xususiyatlari va uning nutqdagi rolini o‘rganish muhimdir. O‘quvchilar sifatlarni mazmunga mos ravishda ishlatishni, fikrni aniq ifodalash uchun sifatlardan foydalanishni o‘rganadilar. Ayniqsa, sifatlarning belgilovchi va bog‘lanuvchi xususiyatlari ta‘kidlanadi. O‘quvchilar predmetning rangini, shaklini, mazasi va boshqa sifatlarini tanlab, ularni tasvirlashda foydalanadilar.

Uchinchi bosqichda sifatlar ustida ishlash davom etadi, ayniqsa, –roq qo‘shimchasi bilan yasalgan sifatlar va ba‘zi maxsus sifatlarni to‘g‘ri yozish o‘rgatiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati oshadi, mashqlar asta-sekin murakkablashtiriladi. Mashq materialida yaxshiroq, aqilliroq

kabi sifatlar hamda tip-tiniq, sap-sariqiq kabi sifatlar ishlatiladi. Bu jarayon sifatni o‘rganishda uning ot bilan o‘zaro bog‘lanishini aniq tushunishni ta‘minlaydi.

Sifat so‘z turkumining grammatik POS teglashidagi ahamiyati tilshunoslikda alohida o‘rganilayotgan sohalardan biridir. Sifatlar tilning eng muhim qismlaridan biri bo‘lib, ular nafaqat ob‘ektning xususiyatlarini ta‘riflaydi, balki uning boshqa ob‘ektlar bilan taqqoslanishiga imkoniyat yaratadi. Sifatlarni to‘g‘ri tanib olish va belgilash, so‘zlarni to‘g‘ri tushunish va tilni qayta ishlashda aniq natijalarga erishish uchun zarur hisoblanadi.

1-jadval. O‘zbek tilidagi POS teglar ro‘yxati (qisqa variant)[4]

№	POS teg	Ingliz	Belgilanishi
1	Ot	Noun	N
2	Sifat	Adjective	JJ
3	Fe‘l	Verb	VB
4	Son	Number	NUM
5	Ravish	Adverb	RR
6	Olmosh	Pronoun	P
7	Bog‘lovchi	Conjunction	C
8	Ko‘makchi	preposition	II
9	Yuklama	particle	Prt
10	Modal so‘z	modal words	MD
11	Undov so‘z	exclamatory words	UH
12	Taqlid so‘zlar	imitation words	IM

Grammatik POS Teglashning muhimligi

POS teglash (Part of Speech tagging) – bu tabiiy tilni qayta ishlashning eng muhim qadamlaridan biridir. Bu jarayon so‘zlarni ma‘lum bir grammatik turkumlarga ajratishni anglatadi. Sifat so‘zlarining to‘g‘ri aniqlanishi, tilni qayta ishlash tizimlari uchun asosiy maqsad bo‘lib, so‘zning sintaktik rolini aniqlash va uning kontekstiga qarab grammatik funktsiyasini belgilashni talab qiladi. Sifatlar odatda, nomlar bilan bog‘lanib, o‘zgaruvchi xususiyatlarni ko‘rsatadi, va bu xususiyatlarni to‘g‘ri tasvirlash uchun zamonaviy tizimlar yuqori aniqlikda ishlashini ta‘minlash zarur[5].

Sifatlarni belgilashdagi qiyinchiliklar

Sifat so‘zlarini to‘g‘ri belgilashda bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Masalan, ba‘zi sifatlar ko‘p ma‘nolilikka ega bo‘lishi mumkin. Bu holatlarda kontekstni hisobga olgan holda sifatning qanday funktsiya bajarayotgani aniqlanishi kerak. Misol uchun, "katta" so‘zi biror narsa o‘lchamining kattaligini bildirishi mumkin, ammo ba‘zan bu sifat “katta odam” kabi iboralarda ob‘ektning ijtimoiy yoki siyosiy

holatini ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, sifatlarni kontekstga qarab to‘g‘ri belgilash muhimdir.

Yana bir qiyinchilik shundaki, ba‘zan sifatlar boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, boshqa grammatik funktsiyalarni bajarishi mumkin. Misol uchun, "yaxshi" so‘zi sifat sifatida ishlatilsa-da, ba‘zan u modifikator sifatida ishlatilishi mumkin. Bu holatlarda POS teglash tizimi sifatning qanday rolda ishlashini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar

Bugungi kunda sifatlarni grammatik POS teglash jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mashina o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlari sifatlarni aniqlashda yuqori samaradorlikni ta‘minlashga yordam beradi. Neyron tarmoqlarining rivojlanishi POS teglash tizimlarining aniqligini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, chuqur o‘rganish usullari, matnning ma‘nosini yaxshiroq tushunish va sifatlarning to‘g‘ri funktsiyasini aniqlashga imkon beradi. Biroq, bu texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun katta hajmdagi ma‘lumotlar va kuchli hisoblash quvvatiga ehtiyoj bor.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sifatlarni grammatik POS teglash jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar yuqori darajada samarali bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, chuqur o‘rganish va mashina o‘rganish usullari yordamida sifatlarning to‘g‘ri aniqlanishi va tahlil qilinishi tilni qayta ishlash tizimlarining aniqligini oshiradi. Biroq, bu usullarni qo‘llashda kontekstual omillarni, ya‘ni so‘zlarning ma‘nosini va sintaktik roli o‘zgarishini inobatga olish zarur. Bu o‘z navbatida, POS teglash tizimlarining aniqligini va samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, sifatlar o‘zgaruvchan va ko‘p ma‘noli bo‘lgani sababli, POS teglash tizimlari turli kontekstlarni hisobga olib, ularni aniq ajratib belgilashni talab qiladi. Bu o‘z o‘rnida, texnologiyalarni takomillashtirish va yanada yuqori aniqlikni ta‘minlashga olib keladi[6].

Takliflar:

1. **Grammatik belgilash tizimlarini takomillashtirish**: POS teglash tizimlarining samaradorligini oshirish uchun chuqur o‘rganish usullarini qo‘llashni davom ettirish va ularni yanada takomillashtirish zarur.
2. **Kontekstual yondashuvni kuchaytirish**: Sifatlarning ma‘nosini aniqlashda kontekstni hisobga olish tizimning aniqligini oshiradi.
3. **Ma‘lumotlar to‘plamlarini kengaytirish**: Yangi va yanada diversifikatsiyalangan ma‘lumotlar to‘plamlarini yig‘ish sifatlarni to‘g‘ri aniqlashda yordam beradi.

4. **Mashina o‘rganish modellarini yanada takomillashtirish**: Sifatlarni grammatik belgilashda mashina o‘rganishning yangi metodlarini qo‘llash va ularni yuqori darajada avtomatlashtirish tizim samaradorligini oshiradi.

Natijada, sifatlarni grammatik POS teglashda zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash tilni qayta ishlash va lingvistik tahlilni yanada samarali va aniq qilish imkonini beradi.[7]

Sifatlarni tahlil qilish, umumiy grammatik ma‘noni belgilashni boshlaydi. Sifatlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) asliy sifat, 2) nisbiy sifat. Sifat turkumi sintaktik jihatdan keng emas, lekin uning grammatik xususiyatlari muhimdir. Sifat turkumida egalik kategoriyasi "keyingi sifatni oldingi so‘zga bog‘lash, mansubiyat va xoslik ma‘nolarini ifodalash" orqali aniqlanadi. Kesimlik kategoriyasi sifat turkumida juda cheklangan darajada namoyon bo‘ladi va ko‘pincha bog‘lama vositasi orqali ifodalanadi. Sifat so‘z turkumining teglanishi kengaytirilgan tizimda quyidagicha tasniflanadi: − o‘lik: [sifat], [nisbiy sifat], [oddiy daraja], [yasama sifat], [sodda sifat], [jismoniy harakat LMG]; − tuzuk: [sifat], [asliy sifat], [oddiy daraja], [tub sifat], [yasama sifat], [xususiyat LMG]; − yiroq: [sifat], [asliy sifat], [oddiy daraja], [sodda sifat], [tub sifat], [xususiyat LMG]; − yo‘g‘onroq: [sifat], [asliy sifat], [qiyosiy daraja], [sodda sifat], [tub sifat], [shakl LMG]. O‘tkazilgan tajribalar natijalariga ko‘ra, o‘zak ma‘lumotlarni sintaktik vazifalar bilan birlashtirish morfologik jihatdan boy til uchun POS teglash natijalarini yaxshilaydi, bu esa NLP vazifalarini samarali hal qilishga yordam beradi. O‘zbek tili korpusi matnlarini POS teglash xususiyatlari va kichik kategoriyalar ro‘yxati keltirilgan. Fe‘l va sifat turkumlari grammatik kategoriyalari, tasnifi va misollar izohlangan. Maqola o‘rganilgan usullarni o‘zbek tili morfologik analizatori va boshqa murakkab NLP vazifalarida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi[8].

Xulosa

Sifat so‘z turkumini grammatik POS teglash jarayoni tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki sifatlar predikatdagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, ularning semantik va sintaktik rolini aniqlashga yordam beradi. Sifatlarni to‘g‘ri teglash orqali o‘quvchilar va tadqiqotchilar lingvistik tuzilmalarning yanada aniqroq va samarali tahlilini amalga oshiradilar. Sifatlarning leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish, ularni nutqdagi o‘rni va qo‘llanilishining izchil tarzda o‘rganilishi, tilning murakkab strukturasi haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lishga imkon yaratadi.

Shuningdek, sifatlarni grammatik teglash jarayonida so‘zning morfologik xususiyatlari, jumladan, ularning qo‘shimchalar yordamida qiyosiy yoki orttirma darajalarga o‘tishini, shuningdek, sifatlar va otlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlash

muhimdir. Bu metodik yondashuv til o‘qituvchilariga va tilshunoslarga sifatlarni o‘rganishda to‘g‘ri va samarali yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Shunday qilib, sifat so‘z turkumini grammatik POS teglash, nafaqat tilshunoslik, balki til o‘rganish va ta‘lim jarayonlarida ham samarali vosita sifatida xizmat qiladi, o‘quvchilarga sifatlarning nutqda qanday ishlashini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadaliyev, B. (2020). O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
2. Karimov, S. (2018). Tildagi morfologik va sintaktik tuzilmalar. Toshkent: Sharq.
3. Tohirov, M. (2019). O‘zbek tilida sifat so‘z turkumining sintaktik o‘rni. Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Mirzayev, A. (2021). Grammatik POS teglash va uning tilshunoslikdagi ahamiyati. Tashkent: Science and Education.
5. Vaxabov, A. (2017). Tilmashinalar va morfologiya. Toshkent: Universitet.
6. Shamsiyev, Z. (2022). Sifat va uning grammatik xususiyatlari. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.
7. Smith, J. (2016). Linguistic Analysis of Adjectives in Syntax and Semantics. Oxford University Press.
8. Gorman, J. (2015). Understanding POS Tagging in Natural Language Processing. Cambridge: Cambridge University Press.

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASI PARALLEL KORPUSI

Bekmurzayeva Maftuna Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi fakulteti 1-kurs magistranti
baratovamaftuna09@gmail.com
ToshDO‘TAU

Anotatsiya. Mazkur maqolada korpus lingvistikasi, xususan, parallel korpuslar asosida badiiy matnlarni lingvistik tahlil qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi va uning ingliz tiliga tarjimasi asosida tuzilgan ikki tilli parallel korpus tahlili orqali tarjima jarayonidagi leksik, stilistik va grammatik muvofiqliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda SketchEngine korpus menejeri yordamida yaratilgan korpusdagi kalit so‘zlar, konkordanslar va N-gramm tahlil natijalari asosida tarjimaning lingvistik xususiyatlari, milliy leksik birliklarning o‘ziga xos tarjima strategiyalari yoritiladi. Qiyosiy tahlillar orqali o‘zbek va ingliz korpuslarining texnik va lingvistik imkoniyatlari o‘rganilgan, mavjud farqlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Abstract: This article explores the possibilities of linguistic analysis of literary texts based on corpus linguistics, particularly parallel corpora. The study focuses on a bilingual parallel corpus compiled from Abdulla Qahhor’s short story “Bemor” and its English translation. Through the analysis of lexical, stylistic, and grammatical consistencies in the translation process, the paper demonstrates how linguistic features are preserved or transformed. Using the SketchEngine tool, the research analyzes key words, concordances, and N-gram structures to reveal translation strategies, particularly in dealing with culturally specific lexical items. A comparative analysis identifies technical and linguistic differences between the Uzbek and English corpora, supported by empirical evidence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности лингвистического анализа художественных текстов на основе корпусной лингвистики, в частности параллельных корпусов. В качестве материала анализа используется двуязычный параллельный корпус, составленный на основе рассказа Абдуллы Каххара «Бемор» и его перевода на английский язык. В процессе исследования анализируются лексические, стилистические и грамматические соответствия между оригиналом и переводом. С помощью программы SketchEngine проводится анализ ключевых слов, конкордансов и N-грамм, что позволяет выявить особенности перевода и стратегии передачи национально-культурной лексики. В результате сравнительного анализа выявлены технические и лингвистические различия между узбекским и английским корпусами, подтверждённые научными данными.

Kalit so‘zlar: *korpus lingvistikasi, parallel korpus, tarjimashunoslik, badiiy matn, konkordans, N-gramm, SketchEngine, kalit so‘zlar tahlili, lingvistik moslik, o‘zbek-ingliz tarjimasi.*

Kirish

Korpus lingvistikasi – bu tabiiy tilni ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish uchun katta hajmdagi matnlar majmuasidan, ya’ni korpuslardan foydalanishga asoslangan fan sohasidir. Bu yo‘nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshlagan bo‘lib, hozirgi kunga kelib jahon bo‘yicha lingvistika, sun’iy intellekt, tarjima tizimlari, ta’lim va axborot texnologiyalarida keng qo‘llanilmoqda.

Korpus lingvistikasining paydo bo‘lishi, eng avvalo, ingliz tilida yaratilgan dastlabki elektron matnlar bazalari bilan bog‘liq. Jumladan, 1964-yilda AQShda yaratilgan Brown Corpus bu sohadagi ilk yirik loyiha hisoblanadi. Keyinchalik, Buyuk Britaniyada yaratilgan British National Corpus (BNC) va AQShda tuzilgan Corpus of Contemporary American English (COCA) kabi korpuslar butun dunyo tilshunoslari uchun tayanch resurslarga aylandi.

Bugungi kunda korpus lingvistikasi dunyoning ko‘plab yetakchi universitetlari va ilmiy markazlarida chuqur o‘rganilmoqda. Buyuk Britaniyada Lancaster va Oxford universitetlari, AQShda Brigham Young va Stanford universitetlari, Germaniyada Leipzig universiteti, Rossiyada esa Moskva Davlat universiteti kabi markazlar ushbu sohada yetakchilik qilmoqda.

Korpus lingvistikasi faqat nazariy soha emas – u til materiallarini avtomatik tahlil qilish, sun’iy intellekt modellari yaratish, tarjima tizimlarini rivojlantirish, nutqni tanish texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘quv materiallarini tuzishda amaliy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan, EuroParl, OpenSubtitles, Universal Dependencies, Sketch Engine kabi xalqaro loyihalar orqali turli tillarning matnlari tizimli tarzda yig‘ilib, avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilinmoqda.

Korpus lingvistikasi orqali tilga doir qarorlar empirik asosda, ya’ni real til qo‘llanilishi asosida qabul qilinadi. Bu esa uni an’anaviy intuitiv yoki nazariy tahlil metodlaridan ustun qiladi. Bugungi kunda bu sohada Mark Davies, Tony McEnery, Geoffrey Leech, Douglas Biber kabi olimlar jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shmoqda.

Asosiy qism

Korpus (lot. *Corpus* – tan, to‘plam) – tilshunoslikda tabiiy til materiallarining katta hajmdagi elektron to‘plamidir. Bu to‘plamlar ilmiy tadqiqotlar, sun’iy intellekt tizimlari, mashina tarjimasi, nutqni aniqlash va boshqa ko‘plab maqsadlar uchun ishlatiladi.

Korpus tabiiy tilning yozma yoki og‘zaki shakllarini o‘z ichiga olgan, maxsus tamoyillar asosida yig‘ilgan, raqamlashtirilgan, ko‘pincha morfologik, sintaktik, semantik jihatdan annotatsiyalangan, kompyuterda qayta ishlash uchun qulay formatda tuzilgan katta hajmdagi til materiallari to‘plami.

Korpuslar zamonaviy kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, tilshunoslik va o‘qitish texnologiyalarida keng foydalaniladi.

Parallell korpus – bu ikki yoki undan ortiq tilda yozilgan bir xil mazmunga ega bo‘lgan matnlar to‘plami bo‘lib, har bir til versiyasi bir-biriga mos qilingan (ya’ni, segmentlar yoki gaplar darajasida muvofiqlashtirilgan) holda saqlanadi. Oddiy qilib aytganda, parallell korpus – bir tilning matnlari va ularning tarjimalaridan iborat bazadir. Bu turdagi korpuslar mashina tarjimasi, kontrastiv tilshunoslik, tarjima tadqiqotlari, va ko‘p tilli til modellari yaratishda keng qo‘llaniladi.

Parallel korpuslar yohud tarjimalar korpusi (ingl. parallel / translation corpus) – bu asl tildagi matnlar va uning boshqa tildagi tarjimasi mavjud korpus. Qoidaga ko‘ra, bunday korpuslar faqat ikkita tilda tayyorlanadi, shu bois undagi o‘zaro mutanosib matnlar bitekst ham deyiladi. Bimatn (bitekst) – asliy til matni va uning boshqa til(lar)dagi tarjimasi mavjud matnlar. Parallel korpuslar – partekst – bimatn – bitekst[*Abjalova, 2023:38*].



Parallell korpusni yaratish bir qator muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon texnik va lingvistik yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda olib boriladi.

Parallell korpusni yaratish bir qator muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon texnik va lingvistik yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda olib boriladi.

Bunda dastlab matnlarni tanlash, tozalash, segmentlash, moslashtirish, anotatsiyalash, formatlash va saqlash ishlari bajariladi. Parallel korpus yaratishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Bunda avvalo, yuqori sifatli tarjimalar topish va ularni tahlil qilishda yuzaga keladigan muammolarni aytishimiz mumkin. Ikkinchidan, ko‘p tilli korpuslarni yaratish tildagi matnlarning o‘zaro muvofiqlashgan(alignment) shaklini talab qiladi. Ammo, Parallel korpusning bir qator afzalliklari ham mavjud. Misol uchun, zamonaviy va keng qamrovli yondashuvlarni amalga oshiradi. Bu esa bir necha tillar yuzasidan keng qamrovli tahlillarni olib borish mumkin. U tilni o‘rganish va tarjimani tahlil qilishda qo‘llaniladi. Badiiy asar bo‘yicha parallel matnlar korpusi, avvalo, ikki yoki bir necha tillar grammatikasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Parallel matnlar korpusi har ikki tildagi badiiy uslub xususiyatlarini qiyoslashda ahamiyatlidir[*Akramdjanova, 2024:35*].

Quyida yaratilgan Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi va uning ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasi asosidagi parallel korpus ham tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Korpusni yaratishda “SketchEngine” dasturidan foydalanilgan. Korpus haqidagi statistik ma’lumotlarni quyidagi jadvallarda ko‘rish mumkin.

1-jadval. O‘zbek-ingliz hamda Ingliz-o‘zbek parallel korpusi ma’lumotlari

		O‘zbek-ingliz PK	*Ingliz-O‘zbek PK*
1	*Words*	*462*	*530*
2	*Tokens*	*640*	*627*
3	*Sentences*	*37*	*38*
4	*Documents*	*1*	*1*

1-rasm. Parallel korpusda o‘zbek tilidagi asar ma’lumotlari



2-rasm. Parallel korpusda ingliz tilidagi asar ma’lumotlari

Ushbu jadvalda bir asarning ikki tildagi nusxalaridagi farqlarni yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, parallel korpusda asar ingliz tiliga tarjima qilinganda o‘zbek tilidagi nusxasida mavjud so‘zlarning 60 tadan ziyodroqqa ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Yoki tarjima nusxada tokenlarning qariyb 13 taga qisqargani ko‘zga tashlanadi. Shuningdek tarjima matnda gaplar soni ham 1taga ko‘p.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda mashina tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima usulidan voz kechilgan bo‘lib, ushbu usul hatto an’anaviy tarjima jarayonida ham o‘zini oqlamagan. Hatto asl matndagi katta bir xatboshi bir necha gap bilan tarjima matnda o‘z mazmunini topgan. Shu bois parallel korpuslarda ham tarjimalar jarayonida jumlama-jumla moslashish bo‘lmasligi mumkin[*Abjalova, 2023:38*].

Parallel korpus tuzishdan avval asarning ikki tildagi ayni nusxalarining elektron formatlari topib olindi. Keyin dasturga muvaffaqiyatli yuklanib, ikki tilli parallel korpus ishga tushdi (1-rasm).

3-rasm. Parallel korpus interfeysi

Parallel korpusdagi asar tahliliga kirishishdan oldin kalit so‘zlarni topib olish lozim bo‘ladi. Quyidagi jadvalda ikki tildagi korpusdan topilgan dastlabki 10 ta kalit so‘zlarni ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Parallel korpusdagi kalit so‘zlarning qiyosiy tahlili.

O ‘zbek tili PK			***Ingliz tili PK***		
Kalit so‘zlar	***Takrori***	***Foiz***	***Kalit so‘zlar***	***Takrori***	***Foiz***
Sotiboldi	6	0.94	Sotiboldi	9	1.4
doktorxona	3	0.47	Abduganiboy	2	0.32
sotiboldining	3	0.47	chilyosin	2	0.32
chilyosin	2	0.31	devonai	1	0.16
saxarlari	2	0.31	baqavli	1	0.16
beygin	2	0.31	shaydullo	1	0.16
o‘ladigan	1	0.16	banomi	1	0.16
qabzali	1	0.16	bakhshi	1	0.16
pashshalardan	1	0.16	handkerchief	2	0.32
yiroqdan	1	0.16	cabbage	1	0.16

Ushbu jadvalni taqqoslaganda o‘zbek-ingliz va ingliz-o‘zbek parallel korpusidagi kalit so‘zlar tarjimada o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Masalan, birgina “Sotiboldi” ismini oladigan bo‘lsak o ‘zbek tilida 6 marta ingliz tilida 9 marta qo‘llanganligini ko ‘rishimiz mumkin. Buning sababi esa o‘zbek tilida “Sotiboldi” va “Sotiboldining” so‘zlari alohida berilgan biri 6 marta biri 3 marta qo‘llangan.

Ingliz tilida esa “Sotiboldining” so‘zi tarjimada “ s' ” bilan qo‘llaniladi shuning uchun ham korpusda bir xil so‘z sifatida olingan. Bundan tashqari, asl tilda *“*Sotiboldi*”, “doktorxona”, “*Sotiboldining*”, “chilyosin”* kabi so‘zlar eng ko‘p qo‘llanilgan bo‘lsa, ingliz tiliga tarjimada *“Sotiboldi”, “abduganiboy”, “chilyosin”, “handkerchief”* kabi otlar ko‘p takrordan foydalanilgan. Ushbu qiyosiy tahlildan yana bir xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Asarning tarjima nusxasida urf-odat, marosim va kishilarning lavozimlari o‘zbek tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kirilgan. Tarjimon o‘zbek xalqi madaniyati va tarixiga oid ushbu so‘zlar ustida tarjimaga qo‘l urmagan balki o ‘z holicha asarga kiritgan.

Parallel korpuslar tilshunoslikda, xususan, tarjimashunoslikda katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, badiiy matnlar tahliliga doir tadqiqotlarda *parallel konkordanslar* muhim manba vazifasini bajaradi. Konkordans – bu muayyan kalit so‘zning matndagi kontekstda qanday ishlatilganini ko‘rsatib beruvchi tizimli ro‘yxat bo‘lib, parallel korpusda bu ro‘yxatlar ikkala til variantida ham o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda taqdim etiladi.

Bunday konkordanslar orqali ikkala til versiyasidagi segmentlarning (gaplar, iboralar) mosligi aniqlanadi, shuningdek, tarjimada yuzaga chiqqan leksik va stilistik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, milliy koloritga ega bo‘lgan atamalar, toponimlar, shaxs ismlari va ularning tarjimada qanday ifodalangani, qanday strategiyalar asosida ko‘chirilgani o‘rganiladi.

Masalan, *“Sotiboldi”* so‘zini parallel korpusda qidirish orqali quyidagi tahlillar amalga oshirildi:

1. *Segmentlararo muvofiqlik:* Avvalo, ikkala til matnlari segmentlar darajasida to‘g‘ri moslashtirilgani ko‘zga tashlandi. Bu esa korpusga asoslangan tahlilning aniqligini ta’minlaydi.
2. *Kontrastiv leksik tahlil: “Sotiboldi”* so‘zining tarjimada qanday ishlatilgani, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiya qilingani yoki kontekstga mos tarzda stilistik moslashuvga uchragani o‘rganildi.
3. *Semantik tahlil:* Bu ism atrofida ishlatilgan fe’llar va boshqa bog‘lovchi birliklar ikkala tilda qanday semantik tusga ega bo‘lishi aniqlashtirildi.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, parallel korpuslar faqat tarjima moslamalarini o‘rganish bilan cheklanmay, balki matn mazmuni va strukturasini ko‘p darajali lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, badiiy uslubda yozilgan asarlar ustida ishlayotganda, matnning emotsional, madaniy va konnotativ qatlamlarini aniqlashda parallel korpuslar benazir vosita hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaralganda, parallel konkordanslar orqali badiiy tarjima usullarini tadqiq qilish, tarjimonning lingvistik tanlovi, madaniy o‘zlashtirish mexanizmlari,

va o‘quvchiga yetkazilayotgan emotsional ta’sir darajasini ham aniqlashga imkon beradi.



4-rasm. Matnlar muvofiqlashgan parallel korpus.

Keyingi qiyosiy tahlil *“Sotiboldi”* shaxs nomining ikki korpusda ham asarda qo‘llanilganlik darajasini diagrammada ifodalanishi bo‘ldi(5-rasm).



5-rasm. O‘zbek tilli parallel korpusda “Sotiboldi” shaxs nomining qo‘llanilishi.



6-rasm. Ingliz tilli parallel korpusda “Sotiboldi” shaxs nomining qo‘llanilishi.

Parallel korpuslar ikki yoki undan ortiq tildagi matnlarni muvofiqlashtirilgan holatda saqlash orqali tilshunoslik tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ularning ichki qidiruv tizimlari til birliklarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Keyingi bosqichdagi qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi parallel korpuslarning texnik va lingvistik salohiyatini qiyosiy o‘rganish orqali mavjud farqlar aniqlanadi. Dastlabki kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, har ikki til parallel korpuslarida yakka so‘zlar, frazalar, va turli birliklar bo‘yicha qidiruv imkoniyatlari mavjud. Ya’ni foydalanuvchi biror so‘zni yozish orqali korpusdagi barcha mos segmentlarni kontekst doirasida ko‘rishi mumkin. Bu jihat umumiy konkordans tizimining mavjudligini anglatadi. Biroq, rus tilidagi parallel korpuslarning keyingi bosqichlarda taklif etayotgan imkoniyatlari ancha kengroq va zamonaviyroq texnologiyalarga asoslangani kuzatildi. Masalan, ingliz korpuslarida quyidagi lingvistik atributlar bo‘yicha izlanishlar olib borish mumkin: *so‘zning morfologik tavsifi (so‘z turkumi, jins, son, kelishik); sintaktik vazifasi (otli iboraning ergash gapdagi roli, fe’lning ko‘chirma yoki buyruq shakli va h.k.); matndagi pozitsiyasi (gap boshida yoki oxirida kelishi, kontekstga ta’siri).* Bu holat tahlilning chuqurligini oshiradi va ingliz tilida yozilgan yoki tarjima qilingan matnlarni formal tahlil modellari asosida o‘rganish imkonini yaratadi.

Aksincha, o‘zbek tilidagi parallel korpuslarda bu kabi morfologik yoki sintaktik belgilash (ya’ni, avtomatik annotatsiya) tizimlari hali joriy etilmagan. O‘zbek korpusida faqat matn kontekstida so‘zlarni qidirish va ularning tarjima variantlarini ko‘rish mumkin, biroq ularning grammatik rolini aniqlash, so‘z

turkumiga ko‘ra filtrlash yoki morfologik shakllarini solishtirish imkoniyati mavjud emas. Bu esa, o‘zbek tili uchun yaratilayotgan korpuslarning texnologik va lingvistik darajasini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, avtomatik tahlil vositalarini joriy etish, so‘z turlarini belgilash tizimlarini ishlab chiqish va sintaktik analizatorlarni integratsiya qilish o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.



7-rasm. Parallel konkordans qidiruv imkoniyatlari. (O‘zbek tili parallel korpusida)



8-rasm. Parallel konkordans qidiruv imkoniyatlari. (Ingliz tili parallel korpusida)

Qiyosiy tahlillar shuni anglatadiki, parallel korpuslardan samarali foydalanish, faqatgina matn segmentlarini muvofiqlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni morfologik va sintaktik jihatdan chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ham bevosita bog‘liqdir.

Navbatdagi tahlil bosqichlari parallel korpuslarning yana bir muhim funksional imkoniyatini namoyon bo‘ldi. N-gramm tahlili orqali matnda ishlatilgan turli leksik birliklarning qanday ketma-ketlikda va qanday kontekstda qo‘llanilgani aniqlandi. Bu usul orqali matn ichidagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning birgalikda ishlatilish tendensiyalari va ustuvorlik darajalari aniqlab boriladi. Shu orqali badiiy matnning lingvistik xususiyatlari, ya’ni muallif uslubi, matnning leksik boyligi, frazeologik birliklarning ishlatilishi va stilistik tuslari yanada ravshanlashadi. Shuningdek, bu tahlil natijalari orqali tarjimaning sifatini baholash, ikki til o‘rtasidagi ifoda vositalarining qanday moslashtirilgani haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Masalan, “Bemor” asarining asl tilida 2-grammlardan foydalanib ko‘rdik. Bunda eng ko‘p qo‘llanilgan so‘z juftliklari, asosan, *“daydiga davo”, “ayami daydiga”, “duo qildi”, “davo beygin”* kabilar bo‘lsa, ingliz tilidagi tarjima nusxasida faqatgina *“in the”* birikmasi 5 marotaba qo ‘llanilgan.



9-rasm. O‘zbek parallel korpusida N-gramlar asosida qidiruv.

10-rasm. Ingliz parallel korpusida N-gramlar asosida qidiruv.

3-jadval. 2-gramm asosida qiyosiy tahlil.

	O‘zbek tili PK	Ingliz tili PK
2-gramm natijasi	**7 ta**	**1ta**
Takrori	**2 marta**	**5 marta**

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot asosida parallel korpuslar, ayniqsa badiiy matnlar asosida yaratilgan hollarda, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida keng tahlil imkoniyatini taqdim etishi aniqlandi. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi va uning ingliz tilidagi tarjimasi asosida tuzilgan parallel korpus yordamida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bunday korpuslar nafaqat matnlar orasidagi grammatik va leksik muvofiqliklarni aniqlash, balki tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik o‘zgarishlar, stilistik yondashuvlar va madaniy unsurlarni ham chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Korpus asosida olib borilgan konkordans tahlili orqali matn segmentlarining tarjima variantlari bilan mosligi tekshirildi. Kalit so‘zlar asosidagi qiyosiy izlanishlar tarjimada muhim rol o‘ynagan leksik birliklar soni va ularning kontekstda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, N-gramm tahlili orqali asardagi so‘zlar orasidagi sintaktik va semantik bog‘lanishlar, frazeologik birliklar va ularning tarjimadagi ifodasi haqida muhim lingvistik xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot davomida SketchEngine korpus menejeri asosida tuzilgan korpus texnik imkoniyatlari bo‘yicha ham tahlil qilindi. Aniqlanishicha, ingliz tilidagi parallel korpuslarda morfologik va sintaktik annotatsiyalar, kalit atributlar bo‘yicha filtrlangan qidiruvlar keng joriy etilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi parallel korpuslar hali bu darajadagi chuqur strukturaviy belgilash imkoniyatlariga ega emas. Bu esa o‘zbek korpus texnologiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni isbotladiki, parallel korpuslar tarjima sifati, tarjima strategiyasi, madaniy unsurlarni yetkazish darajasi va muallif uslubini tahlil qilishda samarali

vosita hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy tarjima misolida bu korpuslar nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim empirik manba bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bunday korpuslar sonini ko‘paytirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va o‘zbek tiliga moslangan avtomatik tahlil vositalarini yaratish ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Abjalova. Parallel korpuslarni yaratish asoslari / Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari-CTCL.2023. –Tashkent, 2023. 35-42-b.

2. Sh.Hamroyeva. Til korpuslarining morfologik tahlilida so‘zshakllarga belgi (разметка) qo‘yish masalalariga doir (ayrim so‘z turkumlari misolida)/ Til, ta’lim, tarjima. – Toshkent-2020. 36-40-b

3. M.Akramdjanova. Parallel matnlar korpusini yaratishning amaliy va nazariy ahamiyati / Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi(in-academy.uz/index.php/si) –Tashkent, 2023.

4. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.

5. Mengliyev B, Hamroyeva Sh. (2020). Korpus lingvistikasi: Korpus tuzish va undan foydalanish. Tashkent

TOHIR MALIK ASARLARIDA SALBIY SO‘ZLARNING STATISTIK TAHLILI

Ibragimova Mohitob Eldor qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi IV bosqich talabasi
mohitobibragimova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiyasi. Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Tohir Malik asarlaridagi salbiy so‘zlarning statistik tahlili amalga oshirilgan. Sketch Engine platformasida Tohir Malik asarlarining mualliflik korpusi shakllantirilib, salbiy so‘zlarning chastotasi, ularning tahlili va kontekstual birikish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida muallif asarlaridagi leksik birliklarning qo‘llanilish chastotasi va lingvistik xususiyatlari aniqlangan. Ushbu ish mualliflik korpuslarini yaratish va ularni lingvistik tahlil qilish bo‘yicha muhim amaliy yondashuvlarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: *Mualliflik korpuslari, Tohir Malik asarlari, Shekspir mualliflik korpusi, salbiy so‘zlar, statistik tahlil va tarkiblar.*

Mualliflik korpusi – bu matnlar to‘plami bo‘lib, u ma’lum bir muallif yoki mualliflar guruhiga tegishli bo‘lgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu korpus odatda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, va kompyuter lingvistikasi sohalarida tilning xususiyatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Mualliflik korpuslari yordamida, masalan, tilning grammatika, stilistika, leksik va semantik xususiyatlari, muallifning tilga bo‘lgan yondashuvi, va asarlarning o‘ziga xosligini tahlil qilish mumkin.

Jahon yozuvchisi Shekspir mualliflik korpusi – bu ingliz adabiyotining klassik yozuvchisi Uilyam Shekspirning asarlarini o‘z ichiga olgan va uning asarlarini tahlil qilish uchun yaratilgan ma’lumotlar to‘plamidir. Shekspirning asarlari dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va uning tilidagi o‘ziga xos xususiyatlar, uslubi, mavzulari, dramatik strukturalari, va boshqa jihatlarni o‘rganish uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Shekspir mualliflik korpusining tuzilishi: Matnlar to‘plami, semantik va stilistik tahlil, qidiruv va tahlil vositalari[1].

Hozirgi kunda jahon kompyter lingvistikasida ko‘plab korpuslar, xususan mualliflik korpuslari tizimli shaklda yaratilgan. O‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar A.Navoiy va A.Qahhor mualliflik korpusining lingvistik bazasi yaratilgan bo‘lsa-da, dasturiy ta’minoti ishlab chiqilmagan. Shu sababli ham mualliflik korpusini ham lingvistik, ham dasturiy ta’minotini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma’lum yozuvchi asarlari uchun mualliflik korpusini tuzishda muallif ijodiy merosini mukammal o‘rganish zarur. Negaki, korpus tarkibi, bo‘limlar soni muallif ijodining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi[2].



1-rasm (Tohir Malik asarlari foizlarda diogramma shaklda)

Tohir Malik (1949-2020) – o‘zbek adibi, yozuvchi va jurnalist. “Iblis devori” qissasi 2018-yil “O‘qituvchi”, “Jinoyatning uzun yo‘li” qissasi 2021-yil “Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi”, “Talvasa” romani 2012-yil “Sharq” nashriyoti”, “Ozod inson haqidagi qo‘shiq” qissasi 2012-yil “Sharq” nashriyoti, “Charxpalak” qissasi 2014-yil “Sharq” nashriyoti, “Shaytanat 1,2,3,4” romanlari 2019-yil “Sharq” nashriyotlari tomonidan nashr etilgan.

№	Asarlari	Yozilgan yili	Janri	Uslubi	Adabiy turi	Manbasi	Nashriyoti	Nashr yili
1	Shaytanat 1	1992-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 18-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
2	Shaytanat 2	1995-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 19-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
3	Shaytanat 3	1997-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 20-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
4	Shaytanat 4	2000-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 21-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
5	Talvasa	1992-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 11-jild	“Sharq” nashriyoti	2012-yil
6	Alvido bolalik	1989-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Alvido bolalik. Qissa	Yangi Asr Avlodi	2015-yil
7	Charxpalak	1999-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Charxpalak. Qissa	“Sharq” nashriyoti	2014-yil
8	Iblis devori	2006-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Iblis devori. Qissa	O‘qituvchi	2018-yil
9	Jinoyatning uzun yo’li	2004-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo’li. Qissa	Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi	2021-yil
10	Murdalar gapirmaydilar	1999-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar.Qissa	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
11	Ozod inson haqidagi qo’shiq	1987-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar 11-jild	“Sharq” nashriyoti	2012-yil
12	Savohil	1987-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Savohil. Qissa	O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi	2018-yil
13	Qarg'ish		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik.Qarg'ish. Hikoya	Ziyouz.com	
14	Xotira		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik. Xotira. Hikoya	Ziyouz.com	
15	Zilzila		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik. Zilzila. Hikoya	Ziyouz.com	

“Iblis devori”(2018)

Ushbu qissa, ijtimoiy-siyosiy mavzularga qaratilgan bo‘lib, insonning ichki maqsadlari, ishonchliligi va axloqiy dilemmasi haqida hikoya qiladi. “Iblis devori” atamasi diniy va ruhiy jihatlarni ko‘rsatadi, uning asosi – insonning o‘z-o‘zini tanishi va shaxsiy qiyinchiliklarini yengishdir.

“Jinoyatning uzun yo‘li” (2021)

Bu qissada jinoyat va adolat, jinoyatchilikning kelib chiqishi va uning ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Tohir Malik asarda jinoyatlarning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning inson ruhiyatiga, ichki dunyosiga ta'sirini ham ko‘rsatadi.

“Ozod inson haqidagi qo‘shiq” (2012)

Asarda erkinlik va insonning o‘ziga xosligini qidirishi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy cheklovlarga qarshi kurashi mavzusi ko‘tarilgan. Tohir Malik o‘z asarida shaxsning o‘z haq-huquqlarini izlash va jamiyatning ma’naviy qiyinchiliklariga qarshi kurashni yoritadi.

“Charxpalak”(2014)

Ushbu qissada, insonning hayotdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini, xususan, ijtimoiy tizimdagi va shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlarga moslashishning qiyinchiliklarini ko‘rsatadi. Bu asarda, hayotning doimiy aylanishi va insonning bu aylanishdagi o‘rni haqida chuqur tahlil mavjud.

“Shaytanat”1,2,3,4 (2019)

Ushbu romanlar to‘plamida, insonlarning ma’naviy va axloqiy jihatlari, shuningdek, yovuzlik va adolatning tasviri mavjud. Tohir Malikning bu asarlarida ijtimoiy va ma’naviy muammolarni yoritish orqali, insonning ijtimoiy tizimdagi o‘rni va o‘zining ichki kurashlarini aks ettiradi. Romanda insonning qiyinchiliklari va murakkab hayotiy sharoitlarining yomonlashuvi aks etgan.

Tohir Malik asarlarida insonning ichki dunyosi, psixologik holatlari va axloqiy dilemmasi asosiy o‘rin tutadi. Uning asarlari chuqur tahliliy, psixologik va falsafiy xarakterga ega bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rni, adolat, erkinlik va hayotdagi maqsadlarni izlashning murakkabligini o‘rganadi. U o‘z asarlarida nafaqat individual tajribalarni, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ham tasvirlaydi, bu esa o‘quvchiga o‘zgaruvchan va murakkab dunyoda yashashni anglashda yordam beradi. Tohir Malikning asarlari kitobxonni chuqur o‘ylashga undaydi, ijtimoiy va axloqiy masalalar bo‘yicha muhim savollarni qo‘yadi.

Avvalo, Tohir Malik asarlari yig‘ib olindi. Korpus uchun Tohir Malikning 14 asaridan foydalanildi. Ular qissalar, romanlar, hikoyalardan iborat. Birinchi, asarlarni ziyo.uz saytidan foydalangan holda pdf shaklda yuklab olindi va uni Sketch

Engine platformasiga joylashtirish uchun standart shaklga keltirildi. Ikkinchi, avval barcha pdf formatdagi fayllar txt formatga o‘tkaziladi. Uning uchun onlayn convertio.co/ru/pdf-txt/ [3] saytidan foydalaniladi va ba’zi fayllar krilcha shaklda bo‘lganligi tufayli, ularni lotin tiliga o‘tkaziladi, uning uchun ham tayyor onlayn saytlardan foydalansa bo‘ladi[4]. Bu sayt pdf formatdan txt formatga o‘tkazib beradi. Uchinchi, bu txt fayllarni Subline Textdan foydalangan holda tozalab olinadi. Tozalashda, har bir gaplar alohida qilinadi, ba’zi so‘zlar xatoliklari, keraksiz simvollar, tinish belgilari olib tashlanadi.

Barcha asarlar yig‘ilib, tozalanib bo‘lgach, fayllar Sketch Engine platformasiga joylash boshlanadi. Avvalo, ushbu platformadan ro‘yxatdan o‘tish kerak (2-rasm). Ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng platformadan faqat 1 oy mobaynida tekin versiyada ishlatishingiz mumkin.



2-rasm (Ro‘yxatdan o‘tish)

3-rasm (Korpusni nomlash)

Undan so‘ng o‘z mualliflik korpusingizni yaratishni boshlashingiz mumkin. Buning uchun **New corpus** bo‘limidan, korpus nomi va tilini kiritib, korpusning dastlabki holati yaratib olinadi (3-rasm).

Bu bosqichdan so‘ng korpusga ma’lumotlarimizni kiritishni boshlaysiz. Bizning qo‘limizda mavjud bo‘lgan matnlardan foydalanib, **I have my own texts** bo‘limiga, txt fayllar yuklanadi (4-rasm).



4-rasm (txt fayllarni korpusga yuklash)

Sketch Enginening 1 oylik tekin versiyada faqat 1 mln so‘zdan iborat korpus yaratish mumkin. Fayllar yuklangach **Corpus content** qismida matnlarning necha so‘zdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Joylashtirilgan Tohir Malik asarlari **826055 so‘zdan** iborat bo‘ldi.

Tohir Malik asarlarida salbiy so‘zlar statistikasini aniqlash uchun birinchi navbatda Sketch Engine platformasidan

bo‘limiga o‘tiladi.

U bo‘limda 3 xil ko‘rinishda qidiruv berish mumkin. **Starting with** (bilan boshlanib), **ending with** (bilan tugaydigan), **containing** (o‘z ichiga olgan) qismlari bor (5-rasm), ushbu holatda **starting with** qismi bilan qidiruv berildi.

5-rasm (Qidiruv berish)

Bu yerga salbiy so‘zlar “yomon”, “o‘lim”, “qotil”, “xunuk” so‘zlarini qidiruvga berildi (6-rasm) va ushbu jadval hosil bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Qidiruv natijasi

So‘z	Soni	Qidiruv shakli
Yomon	356 marta	starting with
Azob	144 marta	starting with
Xunuk	74 marta	starting with
Qotil	51 marta	starting with
O‘lim	44 marta	starting with



6-rasm (Qidiruv natijasining korpusdagi ko‘rinishi)

Yanada yuqori aniqlikka erishish uchun ko‘proq salbiy bo‘lgan so‘zlarni qidiruvga berish kerak bo‘ladi. Ushbu so‘zlarning so‘z shakllarini ham ko‘rib chiqishim mumkin, buning uchun “qotil” so‘zining so‘z shakllarini olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. “Qotil” so‘zining so‘z shakllari

№	So‘z	Soni	№	So‘z	Soni	№	So‘z	Soni
1	qotil	51	13	qotilsiz	3	25	qotilligini	1
2	qotillik	45	14	qotillarning	3	26	qotilim	1
3	qotilni	20	15	qotilga	3	27	qotillikni	1
4	qotillar	19	16	qotillikning	2	28	qotillikdan-chi	1
5	qotillikdan	11	17	qotillik-u	2	29	qotillarga	1
6	qotillarni	10	18	qotilligi	2	30	qotillardan	1
7	qotillikni	9	19	qotillarmi	2	31	qotilliklar	1
8	qotili	8	20	qotillari	2	32	qotilliklarning	1
9	qotillikka	7	21	qotilimni	2	33	qotillaridan	1
10	qotilini	7	22	qotilnimi	1	34	qotilingiz	1
11	qotillikda	6	23	qotillarigacha	1			
12	qotilning	6	24	qotillik-chi	1			

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Tohir Malik asarlaridagi salbiy so‘zlarning statistik tahlili amalga oshirildi va ularning matn tuzilishidagi o‘rni, ma'no yuklanishi hamda til uslubiga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Sketch Engine platformasida yaratilgan mualliflik korpusi yordamida, salbiy so‘zlarning chastotasi, birikish imkoniyatlari va turli kontekstlardagi ma'nodorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi salbiy leksik birliklarni o‘ziga xos uslubda qo‘llash orqali o‘quvchida kuchli hissiy rezonans uyg‘otadi va asarlarining mavzuviy chuqurligini oshiradi. Tohir Malikning ijodi inson psixologiyasi va jamiyat muammolarini aks ettirishda o‘ziga xos bo‘lib, salbiy so‘zlardan foydalanish asarlarining umumiy falsafiy yo‘nalishini belgilab beradi.

Ushbu ish nafaqat lingvistik korpuslarni yaratish sohasidagi yangi yondashuvlarni rivojlantiradi, balki o‘zbek adabiyoti va tilshunosligida muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Kelgusida bu kabi tadqiqotlar o‘zbek yozuvchilari ijodiy uslubini aniqlash va ularning asarlarini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. opensourceshakespeare.org
2. https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/1038/1033

3. convertio.co/ru/pdf-txt/
4. https://parsing.uz/
5. https://app.sketchengine.eu/#wordlist?corpname=user%2Fmohimibra0204%2Ftohir_malik&tab=basic&keyword=qotil&filter=startingWith&wlattr=lc&wlminfreq=0&include_nonwords=1&itemsPerPage=50&showresults=1&cols=%5B%22frq%22%5D&showtimelines=0&diaattr=&showtimelineabs=0&timelinesthreshold=5
6. https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/364348858_KORPUS_LINGVISTIKASI
7. https://tsuull.uz/sites/default/files/dissertatsiya_gulomova_compressed.pdf

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN TARIXIY SO‘ZLARNING KORPUS TAHLILI

Asal Aytbayeva Xudoybergen qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
asalaytboyeva027@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Qodiriyning yozgan asarlari va unda qo‘llangan tarixiy so‘zlar mualliflik korpusi tizimida o‘rganiladi. Unda yozuvchining asarlari matni *Sketch Engine* platformasida korpusga yuklanib tarixiy qo‘langan so‘zlar chastotasi, necha marta qo‘langanligi va hozirgi kunda tarixiy so‘zlarning muqobil varianti tahlil qilinadi. Mualliflik korpusida mashhur asarlari – “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Uloqda”, “Baxtsiz kuyov”, “Fikraylagil”, “Ahvolimiz”, “Jinlar bazmi”, “To‘y” , “Millatimga”, “Fikr aylagil” asarlari tahlil qilinadi. Ushbu maqola Abdulla Qodiriy shaxsini va uning adabiyotimizdagi beqiyos ro‘lini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *korpus, mualliflik korpusi, tarixiy so‘zlar, muqobil variant, tadqiqot metadologiyasi.*

KIRISH

Abdulla Qodiriy – o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodiy merosi nafaqat badiiy qiymatga ega, balki xalqning o‘tmishini anglash va o‘zlikni qadrlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qodiriy o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixini, madaniyati va urf-odatlarini chuqur tasvirlash bilan birga, tarixiy so‘zlar va iboralardan mahorat bilan foydalangan. Bu uslub o‘quvchini o‘sha davr muhitiga olib kirib, milliy ruhni his qilishga yordam beradi. Qodiriy ijodida ishlatilgan tarixiy leksika, o‘tmishda yashagan avlodlarimizning hayot tarzi, qadriyatlari va madaniyatidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy lug‘at zamonaviy o‘zbek tilining shakllanish jarayonini o‘rganish uchun ham bebaho manba hisoblanadi. Ammo zamonaviy o‘zbek tilida bu so‘zlarning bir qismi unutilgan, ayrimlari esa boshqa shakl yoki ma’no kasb etgan. Shuning uchun bunday tarixiy lug‘atni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ham ega. Ushbu maqola Abdulla Qodiriy asarlarida qo‘llangan tarixiy so‘zlar va iboralar bilan zamonaviy variantlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida tarixiy lug‘atning tilshunoslikka oid jihatlari va madaniy meros sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Bu orqali Qodiriy asarlarida ko‘rinish bergan tarixiy til qatlamining bugungi kundagi o‘rnini tushunish va qadrlash imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kunda Abdulla Qodiriy asarlari bo‘yicha maxsus mualliflik korpusi mavjud emasligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin bu sohada ayrim tadqiqotchilar tomonidan qilingan ishlar va elektron shaklda chop etilgan materiallar mavjud. Masalan: **H.Akbarovning “Abdulla Qodiriy va sanoyi nafisa” kitobi**: Ushbu asarda Abdulla Qodiriyning ijodi va uning san’atga bo‘lgan munosabati haqida batafsil ma’lumot berilgan[2].

N.Karimovning “Abdulla Qodiriy qomusi” kitobi: maqolasida adibning yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlarini yoritgan[3].

M.Abdiyevning “Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiy tili va matbuoti rivojidagi xizmatlari” maqolasida yozuvchining matbuot sohasidagi faoliyatini tahlil qilgan[4].

N.Normatovning “Abdulla Qodiriy hajviyoti” maqolasida adibning hajviy asarlari va publitsistik mahoratini o‘rgangan[5].

Maqolaning mualliflik korpusi haqida. Mualliflik korpusi Qodiriy ijodidagi tarixiy so‘zlarning to‘liq ro‘yxatini tuzish, ularning hozirgi kundagi muqobillarini aniqlash va semantik tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu korpus quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

Leksik tahlil: Asarlarda ishlatilgan so‘zlarni lug‘aviy ma‘nolari bilan aniqlash.

Hozirgi kundagi muqobillar: Tarixiy so‘zlarning zamonaviy tildagi ishlatilishini tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida Abdulla Qodiriyning mualliflik korpusini tuzishga erishildi. Abdulla Qodiriyning ijodi va asarlarida qo‘llagan noyob so‘zlarni kengroq o‘rganish, tahlil qilish va ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishni maqsad qilib, ushbu mualliflik korpusi tuzildi. Bu korpus adibning asarlaridagi tarixiy va lingvistik o‘zgarishlarni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib, ularni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Korpusni yaratish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat bo‘ldi:

Mualliflik korpusini yaratish jarayonida Abdulla Qodiriy asarlari bo‘yicha bir nechta bosqichlarni amalga oshirish mumkin. *Mualliflik korpusi* — bu muayyan yozuvchi yoki adabiyotshunoslik obyekti asosida yaratilgan matnlar to‘plami bo‘lib, u tilshunoslik, adabiyotshunoslik, leksikografiya va boshqa sohalarda o‘rganish, tahlil qilish uchun ishlatiladi. Quyida Abdulla Qodiriy asarlari bo‘yicha mualliflik korpusini yaratish jarayonidagi asosiy bosqichlar keltirilgan:

Asarlarni tanlash: Korpus yaratish uchun Abdulla Qodiriy asarlarini tanlash kerak. Bu bosqichda, asarlarning to‘liq va ishonchli nusxalari tanlandi.

***Matnlarni raqamlashtirish**:* Agar matnlar elektron shaklda bo‘lmasa, ular skaner qilinib, OCR texnologiyasi yordamida raqamlashtiriladi.

***Korpusni tozalash**:* Raqamlashtirilgan matnlardan xatolar va keraksiz ma‘lumotlar olib tashlandi.

***Elektron platformaga joylash**:* Tayyor matnlar Sketch Engine https://app.sketchengine.eu/ platformasiga yuklanib, tahlil uchun tayyorlandi.

Ushbu amallar yakunida to‘plangan asarlar haqidagi ma’lumotlarni quyidagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin. (Qarang: *1-jadval*).

1-jadval. (Korpusdagi barcha asarlarning jamlanmasi)

No	Asar nomi	Muallif	Yashagan yillari	Yozilgan yili	Adabiy tur	Janri	Uslubi	Nashriyoti	Nashr yili
1	O'tkan kunlar	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1920	epik	roman	badiiy	G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi	1994
2	Mehrobdan chayon	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1928	epik	roman	badiiy	G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi	1994
3	Uloqda	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1923	epik	hikoya	badiiy	-	-
4	Baxtsiz kuyov	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1920	epik	dramma	badiiy	-	-
5	Jinlar bazmi	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1916	epik	hikoya	badiiy	“Sharq chechagi” jurnalida bosilgan.	1921
6	Tinch ish	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1920	epik	hikoya	badiiy	«Sharq» NMAK Bosh tahririyati	2005
7	To'y	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1912	Lirik	she'r	badiiy	«Sharq» NMAK Bosh tahririyati	2005
8	Ahvolimiz	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1912	Lirik	she'r	badiiy	«Sharq» NMAK Bosh tahririyati	2005
9	Millatimga	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1912	Lirik	she'r	badiiy	-	-
10	Fikr aylag'il	Abdulla Qodiriy	1894-1938	1912	Lirik	she'r	badiiy	-	-

Matnlarni yuklash: Yig‘ilgan va tayyorlangan matnlarni *Sketch engine* tizimiga yuklandi. Bu jarayondagi yuklangan fayllar natijasida quyidagi diagramma hosil bo‘ldi. (Qarang: 1-rasm).



1-rasm. (Korpusga kiritilgan asarlar)



2-rasm (Qodiriy asarlari foizlarda)



COUNTS info

Tokens	204,127
Words	158,995
Sentences	13,853
Documents	10

3-rasm. (Korpusdagi barcha asarlar haqida)

Bu diagrammada yuklangan fayllarning taqsimoti ko‘rsatilgan (Qarang: 2-rasm). Keyingi diagrammada esa har bitta strukturlangan matnli ma’lumotlarimiz uchun tokenlar statistikasini ko‘rsatadi (Qarang: 3-rasm).

Bu korpusdagi umumiy tokenlar, gaplar, so‘zlar taqsimoti va nechta asar borligini ko‘rishingiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Abdulla Qodiriy asarlarida so‘zlar va iboralarni kontekstual tahlil qilish uchun “Concordance” vositasidan foydalanib yozuvchi asarlarida qaysi so‘zlarni ko‘p ishlatilganini bilib olishimiz mumkin. (Qarang: *2-jadval*).

2-jadval. (Korpusdagi eng ko‘p ishlatilgan so‘zlar)

№	So‘z	Takrorlanish soni
1	Shu	797
2	Men	740
3	Anvar	624
4	Otabek	611
5	Yana	599

6	Uning	575
7	Bo‘lsa	497
8	Nima	472
9	Oyim	451
10	Qilib	408

Mualliflik korpusiga yuklangan barcha asarlar Excel platformasiga yuklanadi (Qarang: 4-rasm).

4-rasm (Ko‘p ishlatilgan so‘zlarni yuklash)

Excel orqali korpusdagi 34.456 ta so‘zlarni necha marta qatnashganligi yuklab olindi, bu yanada tarixiy so‘zlarni topishimizga yordam beradi(Qarang: 5-rasm).



	A	B	C
34240	niyozg‘a	1	
34241	yomg‘urning	1	
34242	nizo‘chi	1	
34243	zumsizlandi	1	
34244	zumurad	1	
34245	zun	1	
34246	guzaronlig‘i	1	
34247	nobakorlar	1	
34248	noahlning	1	
34249	nobob	1	
34250	nobibiga	1	
34251	g‘abobi	1	
34252	bo‘lsayu	1	
34253	beklarbegi	1	
34254	arzu-niyoz	1	
34255	alayong	1	
34256	achchig	1	

wordlist

5-rasm (Excelda yuklangan so‘zlar)

34,456 so‘zning ichidan 10 ta ajratib olindi va Abdulla Qodiriy asarlarida ishlatilgan tilning boyligi hamda noyob so‘zlarning takrorlanmasligi yana bir bor tasdiqlandi(Qarang: *3-jadval*).

3-jadval(Qodiriy asarlarida ishlatgan tarixiy so‘zlar)

№	Tarixiy so‘z	Mazmuni	Hozirgi kundagi muqobil varianti	Asarlar
1	Xon	Markaziy Osiyodagi hukmron yoki yuqori darajadagi rahbarni anglatadi.	Hukmdor, boshqaruvchi	O‘tkan kunlar
2	Madrasa	Islomiy ta’lim beradigan maktab yoki diniy o‘quv muassasasi.	Diniy maktab, o‘quv yurtlari	O‘tkan kunlar
3	Bek	Xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga berilgan faxriy unvon.	Rahbar, boshliq, lider	O‘tkan kunlar, Mehrobdan chayon
4	Mulla	Diniy ta’lim olgan shaxs.	Imom, domla, shayx, ustoz	O‘tkan kunlar, Mehrobdan chayon
5	Qozil	Qasrda yoki saroyda ishlaydigan xizmatkorlar.	Xizmatkorlar, uy tozalovchilar	Jinlar bazmi
6	Ulamo	Islom ilm-fanini o‘rgangan va diniy masalalarda yetakchi o‘qituvchilar.	Din olimlari, diniy mutafakkirlar	O‘tkan kunlar
7	Taqsir	Hurmat bilan murojaat (olim yoki din xodimiga nisbatan).	Janob	O‘tkan kunlar, Mehrobdan chayon
8	Qul	Erkin bo‘lmagan, sohibi tomonidan xizmatga yoki ishlashga majbur qilingan shaxs.	Mehnatkash, ishchi	O‘tkan kunlar
9	Qasr	Mukammal qurilgan saroy yoki hukmronning yashash joyi.	Saroy, hashamatli bino, villa	Tinch ish
10	Qozikalon	Oliy darajadagi qozilik lavozimi.	Sud raisi yoki sudya	O‘tkan kunlar

Eng ko‘p qo‘llanilgan gaplar tahlili. Abdulla Qodiriy mualliflik korpusi yordamida yozuvchining tarixiy so‘zlar bilan ishlash uslubi qisman o‘rganildi. Adib asarlarida shu so‘zlarning ko‘p marotaba ishlatilgani aniqlandi(Qarang: *4-jadval*) va asarda necha marotaba qo‘llanilgani aniqlandi(Qarang: *5-jadval*).

4-jadval(Qodiriy asarlaridagi ko‘p uchragan tarixiy so‘zlar)

№	Tarixiy so‘zlar:	Natija
1.	“Taqsir”	Hurmat bilan murojaat (olim yoki din xodimiga nisbatan).
2.	“Mulla”	Diniy ta’lim olgan shaxs.
3.	“Xon”	Markaziy Osiyodagi hukmron yoki boshqaruvchi.

4.	“Bek”	Turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs.

5-jadval(Qodiriy asarlarida qo‘llagan so‘zlar miqdori)

№	Korpusda ishlatilgan eng ko‘p tarixiy so‘zlar:	Natija
1.	“Taqsir”	165 ta gapda qo‘llanilgan
2.	“Mulla”	159 ta gapda qo‘llanilgan
3.	**“Xon”**	134 ta gapda qo‘llanilgan
4.	**“Bek”**	119 ta gapda qo‘llanilgan

CONCORDANCE bo‘limida eng ko‘p qo‘llanilgan tarixiy so‘zlardan biri “taqsir” so‘zi qidirib ko‘rildi (Qarang: 5-rasm) va quyidagi natijalar olindi (Qarang: 6-rasm).



5-rasm (Eng ko‘p ishlatilgan so‘z)



doc#4 da yaxshi so'zlashmag'an edik, so'zlasharmiz, inshoolloh ko'nar.</s><s>— Salomat bo'lingiz	taqsir	</s><s>Maxdum soqolini ushlab ko'zini qisdi: — Boya peshin asnosida, — dedi, — qavmlar
doc#4 oh.</s><s>— Demak, mirzo Anvarni ko'ndirish vazifasi odobsizliq bo'lsa ham sizga qoldi-da,	taqsir	?</s><s>— deb Sultonali takror so'radi.</s><s>— Xotirjam', — dedi, maxdum qanoat bilan,
doc#4 ekan, jabonat[49] bilan davlat qushini qo'ldan uchurish kufroni ne'mat, bolam!</s><s>— Ha,	taqsir	, — dedi Shahidbek, — ayni hikmat so'zlaysiz...</s><s>Ukam mirzo Anvar, baxt degan narsa
doc#4 qushingiz yaxshimi?</s><s>— Birmuncha.</s><s>— Domlaning uyida turasizmi?</s><s>—	Taqsir	</s><s>— Siqilmaysizmi?</s><s>— Yo'q.</s><s>— Ilmi hisob o'qug'aningiz bormi?</s><s
doc#4 — Siqilmaysizmi?</s><s>— Yo'q.</s><s>— Ilmi hisob o'qug'aningiz bormi?</s><s>— Yo'q,	taqsir	.</s><s>— Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?</s><s>— Bilmaslar deb o'ylayman.</s><s>—
doc#4 - Xo'b... bo'lmasa erta kechka domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin.</s><s>— Xo'b	taqsir	</s><s>Ertasi kuni maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so'zlashib, Anvarni
doc#4 in hija o'rganib yurar edi.</s><s>Baharhol bu xabarga aql bovar qilmaydir...</s><s>— Ha-a,	taqsir	, — dedi Samad bo'qoq va Shukur so'fini tirsagi bilan turtti, — bu bala kimu, o'rdag'a mirzab
doc#4 oshini qimirlatdi: — O'rdadan birar kishi maxxara uchun xabar tarqatqandir.</s><s>— Ha-a,	taqsir	</s><s>Shu holda jilovxonag'a to'rtinchi kishi kirib keldi.</s><s>Bunisi jikkak, qirq bilan elliy
doc#4 ruhini bilmagan holda, — O'zi ajab zukko yigit, fuqoroparvar bola: bo'g'ani ma'qul, a, labbay,	taqsir	?</s><s>Imom yerga qarag'an holda boshini qimirlatib qo'ydi.</s><s>Samad bo'qoq xo'mra
doc#4 ir parcha arza bittirsam, deb kelgan edim".</s><s>O'rdaliqqa gap uqdirish qiyomatdan keyin,	taqsir	</s><s>Lekin bu yigitda gavrlik[68] siyoqi yo'q.</s><s>Shukur so'fi.</s><s>Gapka qonib olil
doc#4 Javobini ham ikki kundan keyin o'zidan olar emishman...</s><s>— Manavi osonliqni qarang,	taqsir	.</s><s>Duo qilib qalam uchisiga bo'zni berdim, olmaydi.</s><s>"Yopiray, ozsindiyov, qurg'u
doc#4 rzaga haq olmayman, bo'zingni olib ketavur" – degani ekan.</s><s>Baraka topqurni qarang,	taqsir	.</s><s>A, shundaqa odam ham bo'ladimi, Samad og'a.</s><s>"Oltin olmasang, duo ol" del
doc#4 oladirmi, ya'ni o'shandog' katta ishning uhdasidan chiqadirmi, ustidadir.</s><s>— Barakalla,	taqsir	, — dedi Safar bo'zchi turg'an yeridan, — menga qolsa, inshoollo, uhdasidan chiqadil</s><s
doc#4 n so'radi: — Uning uhda qilishini siz qayoqdan bilasiz?</s><s>— Xudoy bildirsa, bilaman-da	taqsir	?</s><s>— Xo'sh?</s><s>— Axir, ko'bchilikning duosi ko'l-da, taqsir!</s><s>— Ko'bchilikni
doc#4 doy bildirsa, bilaman-da taqsir?</s><s>— Xo'sh?</s><s>— Axir, ko'bchilikning duosi ko'l-da,	taqsir	!</s><s>— Ko'bchilikning duosi ko'l bo'lsa yaxshi, — dedi imom, — ammo bu xizmatka uning
doc#4 i ko'l bo'lsa yaxshi, — dedi imom, — ammo bu xizmatka uning ilmi kofiymi?</s><s>— Kovfiy,	taqsir	, kovfiy!</s><s>— Axir, siz kofiyligini qayoqdan bilasiz?</s><s>— Axir... kovfiy emasligini siz
doc#4 siz kofiyligini qayoqdan bilasiz?</s><s>— Axir... kovfiy emasligini siz ham qayoqdan bilasiz,	taqsir	</s><s>— Kofiy emasligini men shundan bilamanki, — dedi imom achchig'ini ichiga yutgan
doc#4 zoboshingiz savodxonliqdan boshqani bilmaydir.</s><s>— Bilmaganini siz qayoqdan bilasiz,	taqsir	?</s><s>— Chunki men uni o'z qo'limda o'qutqanman... bir yatim bola edi.</s><s>— Xudon
doc#4 – Chunki men uni o'z qo'limda o'qutqanman... bir yatim bola edi.</s><s>— Xudoning berishi,	taqsir	, — dedi Safar, o'ylab-netib turmay, — janobingiz Buxoroyi sharifda necha yil o'qub, nihoyati
doc#4 irifda necha yil o'qub, nihoyati mahallaga imom bo'ldingiz...</s><s>Xudoy bermasa shunday,	taqsir	</s><s>Ul bo'lsa madrasa ko'rmasdan mirzalarning mirzasi bo'lmoqchi, xudoy bersa shund

Rows per page: 20 1–20 of 165 first_page chevron_left 1 chevron_right last_page

6-rasm (Taqsir so‘zi qatnashgan gaplar)

Abdulla Qodiriy asarlarida chastotasi 1 ga teng bo‘lgan tarixiy so‘zlar(Qarang: 6-rasm).

6-jadval(Qodiriy asarlarida qo‘llagan so‘zlar miqdori)

So‘z	Ma’nosi
Moziy	Arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, *“o‘tgan zamon”*, *“o‘tgan davr”* yoki *“o‘tgan kunlar”* degan ma’noni bildiradi. U odatda tarixiy voqealar, avvalgi hayot tarzlari yoki shaxsning hayot yo‘lidagi bosib o‘tilgan davrni ifodalashda qo‘llaniladi.
Sabzavor	Bu so‘z sabzavotlar yoki yashil o‘simliklar bilan bezatilgan joylarni anglatadi. O‘zbek adabiy tilida *“sabzavor joy”*, *“yashil landshaft”* kabi birikmalar tarkibida ishlatiladi. Estetik go‘zallik va tabiiy muhit tasvirida qo‘llanadi.
Maslak	Lug‘aviy ma’nosi – e’tiqod, yo‘nalish, fikrlar tizimi. Ko‘pincha siyosiy, ijtimoiy yoki dini qarashlar tizimini ifodalash uchun ishlatiladi. Matndagi “Markaziy Osiyodagi hukmron yoki boshqaruvchi” ma’nosi xato: bu *“xon”* yoki *“bek”* so‘zlariga tegishli.
Ziynat	Bu so‘z aslida *“bezak”*, *“chiroy”*, *“go‘zallikni oshiruvchi narsa”* degan ma’noni bildiradi. U kuyosh, kiyim, ayollar taqinchoqlari yoki me’moriy elementlar haqida so‘z yuritilganda qo‘llaniladi. Jadvalda berilgan izoh esa ***“bek”* yoki *“mulozim”*** so‘zlariga mos tushadi.

XULOSA

Abdulla Qodiriy asarlarida ishlatilgan eng ko‘p tarixiy so‘zlar “Taqsir” (169), “mulla” (159), “xon” (134), “bek” (119) kabi so‘zlar muallifning o‘sha davrdagi muhitini chiroyli qilib tasvirlab berishga erishilgan. Hozirgi kunda bu tarixiy so‘zlarning ko‘plari kundalik tilimizda kamdan-kam uchraydi yoki ular o‘rniga zamonaviy muqobil so‘zlar qo‘llanilmoqda.

Qodiriy asarlari tahlil natijalarida chastotasi 1 ga teng bo‘lgan so‘zlar son jihatdan sezilarli darajada kam uchragani aniqlandi. “Moziy”, “Sabzavor”,

“maslak”, “ziynat” kabi so‘zlar ijodini o‘rganish bu so‘zlarning asl ma’nosini va tilimizdagi qadriyatlarini anglashga yordam beradi.

Tarixiy so‘zlarni o‘rganish va ularning muqobillarini aniqlash shuni ko‘rsatdiki, Qodiriy asarlarida ishlatilgan tarixiy so‘zlar ajoyib qo‘llanganligi va o‘sha davrni chuqur yetkazib berishga erishilgan. Korpus asosida o‘tkazilgan bu tahlil qilish faqat filologik jihatdan emas, balki madaniy, tarixiy va ma’naviy nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish milliy merosimizga nisbatan hurmatni oshirish va uni asrab-avaylashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Bahodir. ,Abdulla Qodiriy – T 2022, “Yoshlar nashriyot uyi”
2. https://kitobxon.com/oz/kitob/abdulla-qodiriy-va-sanoyi-nafisa
3. https://www.researchgate.net/publication/342337550_abdulla_qodiriyning_o'zbek_adabiy_tili_va_matbuoti_rivojidagi_xizmatlari
4. https://www.researchgate.net/publication/342337550_abdulla_qodiriyning_o'zbek_adabiy_tili_va_matbuoti_rivojidagi_xizmatlari
5. https://hilolnashr.uz/abdulla-qodiriy-asarlari-jamlanmasi

KORPUS VOSITASIDA HISSIY TAHLIL
(Oybekning “Bolalik” qissasi misolida)

Xushmuratova Madina Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi talabasi
xushmurodovamadina209@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqola Oybekning “Bolalik” qissasi korpusi asosida hissiy tahlilni aniqlashga bag‘ishlangan. Maqolada qissadagi ijobiy va salbiy ma’nodagi so‘zlar aniqlanib, ularning asardagi hissiy muhitni shakllantirishdagi roli o‘rganilgan. Korpus tahlili orqali Oybek qissada qaysi turdagi hissiy so‘zlarni ko‘proq qo‘llaganini aniqlash uchun maxsus qidiruvlar amalga oshirilgan bo‘lib, muallif ijobiy hissiyotlarni ifodalovchi leksik birliklarga nisbatan salbiy ma’nodagi so‘zlarni ko‘proq qo‘llash orqali bolalik davridagi ichki murakkabliklarni va hayotiy sinovlarni aks ettirishga harakat qilgani o‘rganildi. Shu bilan birga maqolada hissiy so‘zlarning Oybek uslubini boyitishi va qissadagi umumiy mazmunni ochib berishdagi ahamiyati ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Oybek, statistik tahlil, mualliflik korpusi, leksik birlik, ijobiy, salbiy, qissa, badiiy uslub, chastota.*

Kirish

Hissiy so‘zlar matnning kayfiyatini shakllantiradi, o‘quvchi yoki tinglovchida muallifning hissiy holatini tushunish uchun zarur bo‘lgan hissiy aloqani yuzaga keltiradi. Zamonaviy dunyoda hissiy leksikani o‘rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Hissiy leksika nafaqat adabiy asarlarni tahlil qilishda, balki ijtimoiy tarmoqlar, marketing, siyosat, psixologiya va boshqa ko‘plab sohalarda ham keng qo‘llaniladi. Sentiment analysis (hissiy tahlil) usullarining rivojlanishi bilan matnlar mazmunidagi ijobiy, salbiy va neytral hissiyotlarni avtomatik aniqlash imkoniyati yuzaga kelgan. Bu esa korxonalar uchun mijozlarning fikrini o‘rganish, ommaviy axborot vositalari uchun xabarlarning ta’sirchanligini baholash, shuningdek, siyosiy sohadagi jamoatchilik fikrini tahlil qilish uchun katta ahamiyatga ega.

Adabiy asarlarni o‘rganishda hissiy leksika muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mualliflarning hissiyotlarga boy til vositalari orqali qanday g‘oyalarni yetkazmoqchi bo‘lgani, o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatishni maqsad qilgani aniqlanadi. Bu jarayon asarlar mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, milliy madaniyatni o‘rganishda va tilning hissiy qatlamini tadqiq qilishda hissiy leksika alohida o‘rin tutadi. Shu sababli, hissiy leksika nafaqat lingvistika sohasida, balki turli ijtimoiy va ilmiy yo‘nalishlarda ham muhim

ahamiyat kasb etadi. U til orqali inson va jamiyat o‘rtasida yanada chuqur aloqalarni shakllantirish imkonini beradi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar

Matnlardagi hissiyotni avtomatik aniqlash bo‘yicha B.Pang o‘z tadqiqotlari bilan tanilgan[4]. Uning ishlari sentiment analysis sohasida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. L.Lee tomonidan matnlarni hissiy tahlil qilish va tabiiy tilni qayta ishlash bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan[5]. B.Pang bilan hamkorlikda sentiment analysis asosida bir nechta ilmiy ishlar yozgan. P.Turney Matnlarni ijobiy va salbiy deb tasniflash uchun “Thumbs Up or Thumbs Down?” nomli tadqiqoti bilan mashhur[6]. Uning ishlari sentiment analysis sohasida katta ahamiyatga ega. B.Liu hissiy tahlil va fikrlarni qazib olishda yetakchi mutaxassisdir[7]. Uning “Sentiment Analysis and Opinion Mining” nomli kitobi sohadagi muhim manbalardan biridir. O‘zbekistonda ham bu sohada tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Buxoro davlat universiteti dotsenti N.Ataboyevning korpus lingvistikasi va til leksik qatlamining boyishi bo‘yicha tadqiqotlari mavjud[8].

Tadqiqot metodologiyasi

Sketch Engine korpusi tahlil qilish va korpus yaratish uchun keng qo‘llaniladigan zamonaviy platformalardan biridir[9]. Bu platforma tilshunoslar, tarjimonlar, yozuvchilar va tadqiqotchilar uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Sketch Enginega har qanday tilda yaratilgan korpusni joylash imkoni mavjud bo‘lib, so‘zlarning chastotasini hisoblash kabi.

Tadqiqot doirasida Oybekning qissa va she’rlari korpusga aylantirildi, va korpusning 98% hajmini “Bolalik” qissasi egallaganligi uchun bu tadqiqot aynan o‘sha qissa ustida amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotda korpus lingvistikasi metodologiyasi asosida “Bolalik” qissasidagi hissiy leksik birliklar tahlil qilinadi. Korpus yaratishda “Skate engine” ga Oybekning asaridan olingan barcha matnlar yig‘ildi, so‘zlarning ma’nosi, shakli, va ularning kontekstdagi o‘rni statistik usulda o‘rganildi, matnlar krill grafikasidan lotin grafikasiga o‘tkazilib, barcha asarlar bir xil formatga keltirildi, matn ortiqcha shovqin va “stop word”lardan tozalandi, undan keyin saytga yuklandi.



1-rasm. Korpusga asarlarni joylash

Tahlil uchun leksik birliklarning chastotasi, ijobiy va salbiy so‘zlar o‘rtasidagi nisbatlar, ularning asaridagi hissiy holatlarni yaratishdagi o‘rni hisobga olinadi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

1-qadam: Korpusdagi mavjud bo‘lgan ixtiyoriy birorta salbiy so‘z qidiruvga berildi. Bu bosqichda korpusga “xafa” so‘zi kiritildi. Bu — hissiy tahlilda muhim qadam, chunki dastlabki izlanishlar aynan qaysi hissiy rangdagi leksik birliklar matnda ko‘p ishlatilganini aniqlashdan boshlanadi. “Xafa” so‘zi salbiy emotsiyani bildiradi va bolalikda boshdan kechirilgan iztiroblar, ruhiy siqilish holatlarini anglanadi. Aynan shu qadam orqali salbiy leksik birliklarning mavjudligi isbotlab beriladi va keyingi tahlillar uchun asos yaratiladi. (Qarang:1-rasmga).

2-rasm. Korpusga salbiy so‘z kiritish

2-qadam: Qidiruvga berilgan so‘zning qo‘llanilish soni aniqlandi, va natija taqdim etildi. (Qarang: 2-rasmga).

3-rasm. Salbiy gap tahlili

Tahlil natijasida shuni aytish kerakki, “xafa” so‘zi 35 marta qo‘llangani aniqlangan. Bu raqam – statistik jihatdan sezilarli ko‘rsatkich bo‘lib, muallif salbiy tuyg‘ularni ifodalashda aynan shu so‘zni ko‘p ishlatganini bildiradi. Bu degani, Oybek o‘z bolalik xotiralarida ko‘proq iztirobli, ruhiy siqilishga boy holatlarni tasvirlashga urg‘u bergan.

3-qadam: Korpusdan mavjud ixtiyoriy ijobiy so‘zni qidiruvga berib ko‘rildi. Tahlilning muqarrar davomi sifatida bu qadamda “shodlik” kabi ijobiy hissiyot bildiruvchi so‘zlar korpusga kiritildi. (Qarang:3-rasmga).

4-rasm. Korpusga ijobiy so‘z kiritish

4-qadam: Qidirishga berilgan so‘zning qo‘llanilish soni aniqlanadi va natija taqdim etiladi. Bu metodologik jihatdan muhim bo‘lib, salbiy va ijobiy so‘zlar o‘rtasida nisbat tuzish imkonini beradi. “Shodlik” – bolalikdagi quvonch, orzu-umid, baxtli onlarni ifodalovchi so‘zdir. Bu so‘zning nechalik kam ishlatilgani Oybekning bolalik haqidagi esdaliklarida ijobiy holatlardan ko‘ra, salbiy holatlar ustuvor bo‘lganini ko‘rsatdi. (Qarang: 4-rasmga).

5-rasm. Ijobiy gap tahlili

Qidiruv natijasi – “shodlik” so‘zi bor-yo‘g‘i 2 marotaba ishlatilgan. Bu — juda muhim statistik farq. Salbiy so‘zlar bilan solishtirganda, bu kamlik Oybekning badiiy olami, tasvir uslubi va tematik yondashuvidagi hissiy og‘irlikni anglatadi. Bundan asarda iztirobli ruhiy fon ustuvorligi xulosa qilinadi. Bu raqamlar vositasida muallifning badiiy niyati aniqroq anglashiladi.

Korpusda mavjud ihtiyoriy tarzda salbiy so‘zlarni qidiruvga berib ko‘rildi, chunki tahlil natijasidagi aniqlik yuqori darajada bo‘lishi uchun ko‘proq so‘zni qidiruvga berib ko‘rilishi kerak. Bu natijani quyidagi jadval asosida ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval. Salbiy gap statistikasi

Korpusga ixtiyoriy tarzda qidiruvga berilgan **salbiy** so‘zlar:	Natija
“Xafa”	35 ta gapda qo‘llanilgan
“Xunob”	13 ta gapda qo‘llanilgan
“Jahli chiqib”	10 ta gapda qo‘llanilgan
“Jahl bilan”	11 ta gapda qo‘llanilgan

5-qadam: Bu bosqichda “xafa”, “xunob”, “jahli chiqib”, “jahl bilan” so‘zlarining korpusdagi soni aniq jadval asosida taqdim etildi. Jadval — tahlilning vizual dalilidir. Statistik raqamlar asosida salbiy leksika “Bolalik” qissasida ijobiy so‘zlardan ancha ko‘p ishlatilgani yaqqol ko‘rinadi. Ayniqsa, bu so‘zlarning bir xil mavzu atrofida to‘plangani – bolalikdagi ruhiy siqilish, otaning yo‘qligi, ijtimoiy bosim, maktabdagi muammolar kabilarni eslatadi. Har bir so‘z, o‘z navbatida, asardagi voqealikni ochib beruvchi emotsional ko‘zgudir. (Qarang: 1-jadvalga).

Tahlilda har ikkala salbiy va ijobiy so‘zlarni gaplarda qanchalik uchraganligini, bir birini taqqoslash uchun korpusda mavjud ihtiyoriy tarzda ijobiy so‘zlarni qidiruvga berib ko‘rildi. Bu natijani quyidagi jadval asosida ko‘rishimiz mumkin:

2-jadval. Ijobiy gap statistikasi

*Korpusga ixtiyoriy tarzda qidiruvga berilgan **ijobiy** so‘zlar:*	*Natija*
“Xursand”	*3 ta gapda qo‘llanilgan*

“Shodlik”	*2 ta gapda qo‘llanilgan*
“Shavq bilan”	*5 ta gapda qo‘llanilgan*

6-qadam: Bu yerda “xursand”, “shodlik”, “shavq bilan” so‘zlari kiritilgan. Bu ijobiy leksik birliklarning asarda qanchalik kam ishlatilganini ko‘rsatadi. Bu yerda “shavq bilan” kabi ifodalarning ishlatilishi — bolaning orzulari, umidlari yoki qisqa muddatli quvonchlar sahnalarida yuzaga chiqishini bildiradi. Kam uchrashi esa, Oybekning ruhiy kechinmalarini tasvirlashda asosan og‘riqli, iztirobli holatlarga urg‘u berganini bildiradi. (Qarang: 2-jadvalga).

Bu tahlil natijasini jadval ko‘rinishida ko‘rib oldik, ana endi judayam aniqlik kiritishimiz uchun va barcha soha vakillariga tushunarli bo‘lishi uchun diagramma holatida ham chizildi. Bu diagrammada “Bolalik” qissasidagi barcha hissiy tahlilga xos bo‘lgan so‘zlar jamlanib, birinchi o‘rinda har bitta so‘zni korpusga qidiruvlar asosida nechta gapda qo‘llanilganini aniqlanib, ularni umumiy hisobda 100% qilib darajalaganganda har bitta so‘zning korpusda uchrashlar soniga qarab, Oybekning bu asarida nechi foiz qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin:



6-rasm. Hissiy tahlil darajalari

Xulosa

Oybekning “Bolalik” qissasidagi hissiy leksika asarining mazmuni va badiiy uslubini tushunishga yordam beradi. Birinchidan, korpus tahliliy natijalari shuni ko‘rsatdiki, Oybekning “Bolalik” qissasida salbiy hissiy leksika ancha keng qo‘llangan. “Xafa” (35 ta), “xunob” (13 ta), “jahli chiqib” (10 ta), “jahl bilan” (11

ta) kabi so‘zlar muallifning asarda iztirobli, murakkab bolalik kechinmalarini tasvirlashga alohida urg‘u berganini ko‘rsatadi. Bu salbiy leksik birliklar asardagi ruhiy muhitni og‘ir va jiddiy tarzda ifodalaydi. Muallif bolalik davridagi psixologik og‘irlik, ijtimoiy bosim va hayot sinovlarini realistik va chuqur ifodalashga erishgan.

Ikkinchidan, tahlil natijalarida ijobiy hissiy leksika son jihatdan sezilarli darajada kam uchragani aniqlandi. “Xursand” (3 ta), “shodlik” (2 ta), “shavq bilan” (5 ta) kabi so‘zlar bolalikdagi ijobiy lahzalar, quvonchli onlarni ifodalovchi birliklardir. Ijobiy so‘zlarning kamligi, muallif tomonidan asardagi ruhiy murakkabliklarga ustuvorlik berilganini anglatadi. Shunga qaramay, mavjud ijobiy leksik birliklar Oybekning umid, orzu va hayotga ishonch kabi tuyg‘ularini ham yoritishga xizmat qilgan.

Uchinchidan, ushbu tahlil shuni ko‘rsatdiki, hissiy leksika Oybekning uslubida muhim stilistik vosita bo‘lib, u orqali muallif o‘zining bolalik davriga xos tuyg‘ularini chuqur yetkazishga erishgan. Korpus asosida o‘tkazilgan bu tahlil, asarning badiiy kuchini, ruhiy qatlamini va muallif tilidagi hissiy tafovutlarni ilmiy asosda yoritib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot xrestomatiyasi. 8 jildli. 8-jild. – T.: “G’afur G’ulom nashriyoti”, 2018.
2. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19 jildlik. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975-1980.
3. Oybek. Tanlangan asarlar to‘plami. 9 jild. – Jild 9. – T.: “Adabiyot va san’at”, 1975.
4. https://es.mydramalist.com/people/112239-pang-bo
5. https://shoutoutatlanta.com/meet-lillian-lee-writer-producer-director-ceo/
6. https://alchetron.com/Peter-Turney
7. https://www.imdb.com/es-es/title/tt27843528/
8. https://uniwork.buxdu.uz/ilmiy/resurs.asp?id=566319
9. https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/303/305
10. https://book.uz/books/details/oybegim-mening-3
11. https://www.imdb.com/es-es/title/tt27843528/

BADIIY ASARLAR KORPUSIDA OMONIM SHAKLLAR TAHLILI

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
Gavharshodbegim Xudoynazarova,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
xudoynazarovagavhar@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy korpus yaratish va uning Sketch Engine tizimida tahlil qilinishi muhokama qilinadi. Maqolada qidiruv tizimida qo‘shimchalar bilan bog‘liq muammolar va omonimik shakllarning turli holatlari aniqlanadi. Xususan, qo‘shimchalar bordek ko‘rinib, aslida qo‘shimchaga ega bo‘lmagan so‘zlar, qo‘shimcha qotib qolgan so‘zlar, so‘z oxirida muammolarga olib keladigan holatlar va kontekstual o‘zgarishlar kabi istisno holatlar tahlil qilinadi. Maqola morfoanalizatorning qidiruv tizimidan foydalanishda uchraydigan muammolarni hal qilish uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, hamda badiiy matnlardagi omonim qo‘shimchalar bilan bog‘liq kompleks holatlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Annotation. This article discusses the creation of a literary corpus and its analysis in the Sketch Engine system. It identifies issues related to affixes in the search system and various cases of homonymous forms. In particular, the article examines exceptional cases such as words that appear to have affixes but actually do not, words with fossilized affixes, problematic word endings that cause errors, and contextual changes. The study contributes to the development of new methodologies to address challenges encountered when using a morphological analyzer in the search system and provides a deeper understanding of complex cases involving homonymous affixes in literary texts.

Аннотация. В данной статье рассматривается создание художественного корпуса и его анализ в системе Sketch Engine. В статье выявляются проблемы, связанные с аффиксами в поисковой системе, а также различные случаи омонимичных форм. В частности, анализируются такие исключительные случаи, как слова, которые внешне выглядят как имеющие аффиксы, но фактически их не содержащие, слова с застывшими аффиксами, проблемные окончания слов, приводящие к ошибкам, а также контекстуальные изменения. Статья способствует разработке новых методологий для решения проблем, возникающих при использовании морфоанализатора в поисковой системе, а также позволяет глубже понять сложные случаи омонимичных аффиксов в художественных текстах.

Kalit so‘zlar. *Badiiy korpus, metodologiya, kompleks holat, omonim qo‘shimchalar.*

Badiiy korpus yaratish va ularni tahlil qilish − tilshunoslikda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning muhim qismidir. Korpuslarni tahlil qilishda, lingvistik jihatdan ayniqsa qiyin bo‘lgan omonimlar va qo‘shimchalar o‘zining alohida o‘rniga ega. Bu maqolada biz Sketch Engine dasturi orqali yaratgan badiiy korpusda uchragan omonimik shakllar va qo‘shimchalar bilan bog‘liq tahlilga to‘xtalamiz. O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki besh”, “Dunyoning ishlari”, “Hurkitilgan tush”, Tohir Malikning “Shaytanat”, “Jinoyatning uzun yo‘li”, va Omina Shelinko‘g‘lining “Iskanja” asarlarini raqamlashtirib, dasturga yuklash orqali biz turli xil omonim so‘zlarni va ularning qo‘shimchalarini tahlil qilishni amalga oshirdik.

Badiiy asarlar korpusini ihlab chiqish va tahlil qilish

Sketch Engine[8] − bu tilshunoslik tahlili uchun ishlatiladigan onlayn dastur bo‘lib, foydalanuvchilarga matnlarini avtomatik ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Sketch Engine − lingvistik korpuslarni avtomatik tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan ilg‘or platformalardan biri bo‘lib, turli tillardagi katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu tizim quyidagi afzalliklarga ega:

1) matnlardan avtomatik ravishda so‘z shakllari va ularning kontekstini ajratib olish;

2) omonimik birliklarning real foydalanish chastotasini tahlil qilish;

3) morfologik va sintaktik xususiyatlarni aniqlash orqali til tadqiqotlarini osonlashtirish.

Ayniqsa, Sketch Engine tizimi tilshunoslar va sun’iy intellekt dasturchilari uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, u lingvistik model va algoritmlarni yaratishda qo‘llaniladi.

Tahlil qilinayotgan badiiy korpusda 6 ta asar mavjud:

1. O‘.Hoshimov. Ikki karra ikki besh.
2. O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari.
3. O‘.Hoshimov. Hurkitilgan tush.
4. Tohir Malik. Shaytanat.
5. Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li.
6. Omina Shelinko‘g‘li. Iskanja (tarjima asar).

Ushbu asarlar adabiyotda keng qo‘llaniladigan leksik va semantik elementlarga boy bo‘lib, ularning har biri badiiy uslubni o‘rganishda muhim manbadir.

Bugungi kunda lingvistika va sun’iy intellekt tahlillarida badiiy korpus yaratish muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Til birliklarini chuqur o‘rganish va ularning kontekstga bog‘liq holda qanday o‘zgarishini aniqlashda korpus lingvistikasi samarali usul bo‘lib, tahlil jarayonini aniq va tizimli olib borishga imkon beradi. Badiiy korpuslar nafaqat lingvistik tahlil, balki stilistika, semantika va pragmatika bo‘yicha tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt yordamida korpus tahlilini amalga oshirish, matnlarni avtomatik kategoriyalarga ajratish, omonimik shakllarning kontekstga bog‘liq holda qanday ishlatilishini aniqlash kabi imkoniyatlarni beradi. Bu esa tilshunoslik tadqiqotlarining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Badiiy asarlar korpusining lingvistik tadqiqotlardagi o‘rni

Badiiy asarlar korpusini yaratish bugungi kunda lingvistika va sun’iy intellekt tahlillari uchun muhim vosita ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Korpus lingvistikasining asosiy maqsadi til birliklarining real kontekstdagi qo‘llanilishini o‘rganishdir. Badiiy matnlar esa tilning eng tabiiy va stilistik jihatdan boy shakllaridan biri bo‘lib, leksik-semantik tadqiqotlar uchun juda muhim manba hisoblanadi. Korpus lingvistikasida badiiy matnlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Til birliklarining kontekstga bog‘liq holda qanday ishlatilishini tahlil qilish. Til birliklarining kontekstga bog‘liq holda qanday ishlatilishini tahlil qilish – lingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘z va iboralar ma’nosining kontekstga qarab o‘zgarishini o‘rganish bilan bog‘liq. Bunday tahlil ayniqsa, semantika, pragmatika, stilistika, va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida muhim o‘rin tutadi.

Stilistik va pragmatik tadqiqotlar uchun real ma’lumotlar bazasini yaratish. Stilistik va pragmatik tadqiqotlar uchun real ma’lumotlar bazasi yaratish – zamonaviy lingvistika va sun’iy intellekt sohalarida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday bazalar tabiiy tilning murakkab jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish va avtomatlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellektga asoslangan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari uchun modellarni shakllantirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sun’iy intellektning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u inson tilini tushunish, tahlil qilish va yaratish imkonini beradi. NLP modellarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, u ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, o‘qitish va optimallashtirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1. Omonim so‘zlar va qo‘shimchalar tahlili

Tilshunoslikda omonimiya masalasi eng muhim va murakkab yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki bir xil shakldagi so‘zlar turli kontekstlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Sketch Engine tizimi orqali badiiy korpusda qo‘shimchalar va omonimik shakllarni qidiruv asosida tahlil qilindi. Qidiruv tizimida ba’zi omonim so‘zlar va qo‘shimchalar bilan bog‘liq muammolar aniqlandi. Bu muammolarni quyidagi 3 ta guruhga ajratish mumkin:

Qo‘shimcha bordek ko‘rinadi, lekin qo‘shimchasi bo‘lmagan so‘zlar. Ba’zi so‘zlar tashqi ko‘rinishda qo‘shimchaga o‘xshasa ham, aslida qo‘shimcha bilan bog‘lanmagan. Masalan: Chinni (chin+ni) – bu so‘zda ***-ni*** shakli mavjud, lekin morfem jihatdan qo‘shimcha emas. Pechka (pech+ka) – bu so‘zda ham tashqi ko‘rinishda qo‘shimcha mavjud kabi ko‘rinadi, lekin bu so‘zda ***-ka*** bo‘g‘in, qo‘shimcha emas. Bunga o‘xshash bir qancha so‘zlar mavjud: *(1-2-3-4-jadvallar)*

1-jadval. Tushum kelishigi (-ni) shakli omonimiyasi

№	So‘z	-ni
1.	Chinni	chin+ni
2.	Ayni	ay+ni
3.	Jinni	jin+ni
4.	Mini	
5.	Luqmoni	
6.	Poni	

2-jadval. Jo‘nalish kelishigi (-ka) shakli omonimiyasi

№	So‘z	-ka
1.	Pechka	pech+ka
2.	Yekla	yel+ka
3.	Sirka	sir+ka
4.	Erka	er+ka
5.	Tikka	tik+ka
6.	To‘nka	to‘n+ka

3-jadval. Jo‘nalish kelishigi (-qa) shakli omonimiyasi

№	So‘z	-qa
1.	Halqa	hal+qa
2.	Orqa	or+qa
3.	Qisqa	qis+qa
4.	Buqa	bu+qa
5.	Boshqa	bosh+qa
6.	Aloqa	alo+qa
7.	Yoqa	yo+qa
8.	Loyqa	loy+qa
9.	Antiqa	anti+qa
10.	Manqa	man+qa

4-jadval. Chiqish kelishigi (-dan) shakli omonimiyasi

№	So‘z	-dan
1.	Aftidan	aft+i+dan
2.	Jumladan	jumla+dan
3.	Boshqatdan	boshqa+t+dan
4.	Zimdan	
5.	Obdan	
6.	Qo‘qisdan	

Qo‘shimcha qotib qolgan (leksemalashgan) so‘zlar. Ba’zi so‘zlarda qo‘shimchalar o‘zining asl ma’nosini yo‘qotgan, so‘z tarkibida qotib qolgan. Misol uchun: Boshqacha (boshqa+cha) – bu so‘z semantik va leksik jihatdan o‘zgarib, tarkibiy qismi qotib qolgan so‘zlardan biridir. Bu holatda “-cha” qo‘shimchasi o‘zining asl ma’nosini yo‘qotgan va yangi ma’noga ega bo‘lgan. Asosan ravish so‘z turkumidagi so‘zlarda qo‘shimchalar qotib qoladi va ular ajratilmaydi. Bunga o‘xshash bir qancha so‘zlar mavjud: (Qarang: 5-jadval)

5-jadval. Tarkibida qo‘shimcha qotib qolgan so‘zlar

№	So‘z	qo‘shimcha
1.	Boshqacha	boshqa+cha
2.	Birdan	bir+dan
3.	Ataydan	atay+dan
4.	Nihoyatdan	nihoyat+da
5.	Kunda	kun+da
6.	Birga	bir+ga
7.	Chalqanchasiga	chalqancha+si+ga

8.	Birdaniga	bir+dan+i+ga
9.	Yonlamasiga	yonlama+si+ga
10.	Qatorasiga	qator+a+si+ga
11.	Bekorga	bekor+ga

So‘z qidiruvidagi noaniqlikni keltirib chiqaruvchi shakllar. O‘zbek tilida shunday so‘zlar borki, ularning oxirgi bo‘g‘ini qo‘shimchalar bilan omonimlik hosil qiladi va bu qidiruv tizimida muammoga olib keladi. Masalan: Jonona (jon+ona) – bu so‘zning oxirgi bo‘g‘ini “ona” qo‘shimchasi bilan omonimlik hosil qila oladi va qidiruv tizimida tarkibida “ona” bo‘lgan so‘zlarni ham qo‘shimcha sifatida chiqariladi. Bunga o‘xshash bir qancha so‘zlar mavjud (Qarang: 6-jadval).

6-jadval. So‘z qidiruvida muammoga uchraydigan so‘zlar.

№	So‘z	Ona
1.	Mastona	mast +ona
2.	Kamtarona	kamtar +ona
3.	Ayyorona	ayyor +ona
4.	Ojizona	ojiz +ona
5.	Mardona	mard +ona
6.	Ahmoqona	Ahmoq +ona

2. Tizimdagi muammo va yechimlar

Omonim so‘z va qo‘shimchalarning muammoli holatlari Sketch Engine tizimida ba’zi natijalarning noto‘g‘ri ko‘rsatishiga olib keldi. Bu, ayniqsa, qo‘shimchalar o‘zining leksik shaklini o‘zgartirgan yoki qotib qolgan so‘zlarda uchradi. Agar bu muammolarni hal qilmasak, qidiruv tizimi noto‘g‘ri natijalar ko‘rsatadi. Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yondashuvlar talab etiladi:

1. So‘zlarni tahlil qilishda semantik qatlamlarni hisobga olish: qo‘shimchalar va omonim so‘zlarning ma’nolarini tushunish va ularning kontekstga qarab qanday ishlashini aniqlash.

2. Qo‘shimcha va so‘z shakllarini tekshirish: korpusdagi har bir so‘zni alohida tahlil qilib, qaysi qo‘shimchalar ishlatilishini aniqlash va ularga asoslangan alohida qidiruv mexanizmlarini ishlab chiqish.

3. Istisno holatlar va muammolar

Istisno holatlar mavjud bo‘lib, ular quyidagi uch guruhda tahlil qilindi:

1. Qo‘shimcha bordek ko‘rinadi lekin qo‘shimchasi bo‘lmagan so‘zlar.
2. Qo‘shimcha qotib qolgan so‘zlar.
3. So‘zni qidirganda oxirida muammoga uchraydigan so‘zlar.

Xulosa. Sketch Engine tizimidan foydalangan holda badiiy korpusda omonimik shakl va qo‘shimchalarni tahlil qilish tilshunoslik tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. Biroq ba’zi muammolarni, ayniqsa, qo‘shimchalar va omonimlar bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va tuzatish zarur. Yangi tahlil metodologiyalarini ishlab chiqish, so‘zning morfem tarkibini to‘g‘ri aniqlash va qidiruv tizimlarini optimallashtirish badiiy matnlar va lingvistik tahlilni yanada samarali qilishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari, ayniqsa, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari, matnlarni avtomatik qayta ishlash, nutqni aniqlash va sun’iy intellekt asosidagi lingvistik dasturlarni rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Omonim shakllarning kontekstual o‘zgarishlarini chuqur o‘rganish orqali tilga oid dasturlarni yanada mukammallashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Malik T. Shaytanat. 1-qism. – Islom.uz ma’rifat markazidan olindi. Manba: www.ziyouz.com, 2007.
3. Malik T. Jinoyatning uzun yo‘li. – PDF versiyasi. Manba: www.ziyouz.com.
4. Hoshimov O. Hurkitilgan tush: Hikoyalar. – Toshkent: Ziyo nashr, nashr yili ko‘rsatilmagan.
5. Shenliko‘g‘li O. Iskanja. – Toshkent, 2021. (Nashr tili: o‘zbek, kirill).
6. Hoshimov O. Ikki karra ikki – besh. – Toshkent: Nurli dunyo nashriyot uyi, 2024.
7. Abjalova M. Korpus lingvistikasi: Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany Print, 2022.
8. Sketch Engine. Sketch Engine – corpus analysis platform. Manba: https://www.sketchengine.eu.
9. Yusupova R. D. Sketch Engine platformasida korpuslar yaratishning amaliy tadqiqi // *E-Conference Series.* – ISSN: 2835-5326. – 46-bet. Manba: econferenceseries.com.
10. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: Korpus tuzish va undan foydalanish. – Globe Edit

O‘ZBEK VA FORS TILLARI UCHUN PARALLEL KORPUS: LINGVISTIK VA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

Xusainova Zilola Yuldashevna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Raxmatxonova Nozimaxon Ismoilxon qizi,
Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi talabasi
nozimaxonrahmatxonova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Parallel korpuslar zamonaviy kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, til o‘rgatish va NLP sohalarida muhim manba hisoblanadi. O‘zbek va fors tillari orasidagi madaniy, tarixiy va tilshunoslik aloqalari ushbu tillar uchun parallel korpus yaratish zaruratini yuzaga keltiradi. O‘zbek va fors tillari uchun hali to‘liq va sifatli parallel korpus mavjud emas, mavjud manbalar esa lingvistik va texnologik jihatdan yetarlicha boy emas. Ushbu maqola O‘zbek-Fors parallel korpusini yaratish bosqichlari, duch kelinadigan lingvistik va texnologik muammolar hamda ularning yechimlarini yoritishga qaratilgan.

Abstract. Parallel corpora are an important resource in the fields of modern computational linguistics, machine translation, language teaching, and NLP. The cultural, historical, and linguistic connections between the Uzbek and Persian languages make it necessary to create a parallel corpora for these languages. There is no complete and high-quality parallel corpora for the Uzbek and Persian languages, and the existing sources are not sufficiently rich in linguistic and technological terms. This article aims to highlight the stages of creating an Uzbek-Persian parallel corpus, the linguistic and technological problems encountered, and their solutions.

Аннотация. Параллельные корпуса являются важным ресурсом в областях современной компьютерной лингвистики, машинного перевода, изучения языков и обработки естественного языка. Культурные, исторические и языковые связи между узбекским и персидским языками обусловливают необходимость создания параллельного корпуса для этих языков. До сих пор не создан полный и качественный параллельный корпус для узбекского и персидского языков, а имеющиеся источники недостаточно богаты в лингвистическом и технологическом плане. Целью данной статьи является освещение этапов создания узбекско-персидского параллельного корпуса, возникших лингвистических и технологических проблем и путей их решения.

Kalit so‘zlar. *Korpus, parallel korpus, o‘zbek tili, fors tili, NLP, statitik tahlil, raqamlashtirish, mashinali o‘qitish, lingvistik muvofiqlik*

Kirish. Tabiiy tilni kompyuter yordamida tadqiq qilish va qayta ishlash to‘rt jihatni: formallashtirish, algoritmlash, dasturlash va amaliyotga qo‘llashni o‘z ichiga oladi[1]. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ga asoslangan dasturiy ilovalar(axborot tizimlari)ni ishlab chiqish uchun NLP tizimini mavjud ma’lumotlarni o‘rganishini (o‘qitishini) ta’minlash kerak. Ushbu amalni til korpusi vositasida amalga oshirish mumkin. Til korpusi elektron shaklda taqdim etiladigan katta hajmli va strukturlangan matnlar to‘plami sifatida qaraladi. Til korpusi yozma yoki og‘zaki materialni ifodalab, NLP tizimini mavjud resurslarni o‘rganishi uchun lingvistik tahlilni amalga oshirish lozim. Til korpusi tabiiy tilni qayta ishlash tizimining asosidir. Unda gazeta, roman, retsept, radioeshittirishdan tortib teleko‘rsatuv, film va tvitlargacha turli shakldagi ma’lumotlar bo‘lishi mumkin[2].

Korpus ikki yoki undan ortiq til doirasidagi ma’lumotlar bazasi bo‘lib, undan ko‘plab maqsadlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, korpus tillar o‘rtasidagi muloqot vositasi hisoblanib, bu tizim yirik elektron ko‘rinishdagi matnlar jamlanmasidir. Korpus lingvistikasining *statistik* va *hisoblash* usullari turli tillarning **grammatik, leksik** va **semantik** xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. U katta hajmdagi yozma yoki og‘zaki matnlarni tahlil qilishga asoslanadi. Korpus aniq maqsad uchun **yig‘ilgan** va **raqamlashtirilgan** matnlar to‘plami bo‘lib, u turli xil lingvistik tahlillar uchun ishlatiladi[3]. Parallel korpuslar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan matnlarni o‘z ichiga olganligi sababli, ular **lingvistik va hisoblash tahlili uchun muhim manba hisoblanadi**.

Shuningdek so‘z turkumlariga xos kategoriyalar, grammatik ma’noning ifodalanishi, so‘z yasalish tizimiga oid ma’lumotlar bera olishi bilan ham e’tiborga molikdir. Parallel matnlar korpusi chog‘ishtirma aspektdagi tadqiqotlarda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Parallel korpuslar yordamida bir so‘z, jumla, abzats, supersintaktik butunliklarning turli tillardagi variantlarini bilish mumkin. Parallel korpuslar madaniyatlararo muloqot keng yoyilgan hozirgi davr uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlar bazasidir. Parallel korpuslar orqali turli til muhitdagi, madaniyatlardagi universaliyalar hamda tillarning o‘ziga xos mental xususiyatlari, realiya va lakunar birliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Parallel matnlar korpusi avtomatik tarjima rivoji uchun ham xizmat qiladi, kompyuter leksikografiyasining taraqqiyotini ta’minlaydi[4]. Parallel matnlar korpusi turli tillar asosida xilma-xil madaniyatlarni

solishtirish, madaniy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Parallel korpusning NLPdagi roli turlicha, xususan, NLPning ko‘plab vazifalarini hal qilishda til korpuslaridan foydalaniladi:

– **Mashinali o‘qitish modellarini o‘rgatish.** Turli NLP ilovalari, jumladan hissiyotlarni tahlil qilish, matn tasnifi, mashina tarjimasi va nutqni tanib olish uchun korpuslar mashinali o‘qitish modellarini o‘rgatish va takomillashtirish uchun ishlatiladi. Korpusdagi katta hajmdagi matn ma’lumotlar ushbu modellarga shablonlar (patterns), korrelyatsiyalar (correlations) va murakkabliklar (complexities)ni o‘rgatish uchun ishlatiladi.

– **Tilni tushunish.** Til korpusi tabiiy tilning tuzilishi, grammatikasi, lug‘ati va qo‘llanilishi haqida to‘liq tasavvur beradi. Kontekstda so‘zlar va so‘z birikmalarning qanday ishlatilishini o‘rganish uchun NLP modellarida til korpusidan foydalaniladi. Chet tili o‘qituvchilari va o‘rganuvchilar uchun til korpusi tilning haqiqiy misollarini taqdim etadi va haqiqiy foydalanish shakllarini ochib beradi. U o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, materiallarni loyihalash va hatto dars mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin. Korpus ko‘plab til resurslarini, jumladan, grammatika tekshiruvi, imlo tekshiruvi va nutqni aniqlash dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu NLP ilovalari bizning kundalik raqamli tajribamizda ajralmas rol o‘ynaydi.

– **Diskurs tahlili.** Korpus nutqni tahlil qilish uchun ham ishlatilishi mumkin, bu tilning muayyan kontekstlarda qanday qo‘llanilishi haqida tushuncha beradi. Bu bizning siyosiy, ijtimoiy va madaniy nutqlar haqidagi tushunchamizni yanada oshirishi mumkin.

– **Tarjimashunoslik.** Til korpusi tarjimashunoslik uchun muhim vosita hisoblanadi. Ikki tilli yoki ko‘p tilli korpus yaratish tilshunoslarga tarjima me’yorlarini o‘rganish, ma’no jihatdan mos tarjimalarni aniqlash va samarali mashina tarjimasi modellarini yaratish imkonini beradi.

– **Qoidalarga asoslangan tizimlar.** Til korpuslari tilshunoslar va NLP mutaxassislari tomonidan til qoidalari va shablonlarini ishlab chiqish va sinab ko‘rish uchun ishlatiladi. Keyinchalik, POS teglash, grammatik qayta ishlash va NERlarni tanib olish kabi NLP vazifalari uchun ushbu qoidalarga asoslangan NLP tizimlarida qo‘llaniladi.

– **Lug‘at va semantika.** Turli lug‘atlar yoki so‘zlardan iborat to‘plamlar til korpuslari yordamida yaratiladi va kengaytiriladi. Sinonimlar, antonimlar va so‘z birikmalari kabi so‘z munosabatlarini ko‘rsatish orqali ular semantik tahlilga yordam beradi. Korpuslar asosida lug‘atlarni yaratish usulini tubdan o‘zgartirib,

leksikografiya sohasini tubdan o‘zgartirdi. Katta hajmli strukturlangan matnlar to‘plamini tahlil qilib, leksikograflar yangi so‘zlarni, sezgilarni va foydalanish shakllarini yanada samaraliroq aniqlashlari mumkin.

– **Statistik tahlil.** Til korpuslari tabiiy tilning statistik tahlili uchun foydalidir. Ular yordamida so‘z chastotasini taqsimlash, birgalikda paydo bo‘lish shablonlari va boshqa statistik xususiyatlarni o‘rganish uchun ehtimollikka asoslangan NLP yondashuvlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

– **Sohaviy bilimlar.** Til korpuslari turli sohagalarga oid bilimlar manbayi hisoblanadi. Chunki ular muayyan mavzular yoki sohalarga xos bo‘lishi mumkin. Huquqiy hujjatlarni o‘rganish, tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash va muayyan sohalar uchun yaratilgan chatbotlar kabi ilovalar bunga yaqqol misol bo‘ladi[5].

O‘zbek va fors tillarining ta’limiy parallel korpusi hozircha yaratilmagan bo‘lib, biroq ikkala tilning ham boshqa tillar bilan aloqadorlikda yaratilgan korpuslari mavjud, masalan, o‘zbek-ingliz, o‘zbek-turk va fors-ingliz, fors-fransuz, fors-rus, fors-nemis, fors-arab kabilar. Ko‘rinib turibdiki, fors tilidagi korpuslar o‘zbek tiliga nisbatan son jihatdan ustun. O‘zbek tili bilan bevosita aloqador korpuslar sekin-asta rivojlanib bormoqda. O‘zbek-fors tillari o‘rtasidagi korpus ham ana shu harakatlarning namunalaridandir. Bu shakllantirilayotgan korpusda ikkala tilning barcha xususiyatlari, ya’ni leksik, sintaktik, semantik, morfologik tomonlari parallel ravishda o‘rganildi. Umuman olganda, fors tili IX-XIV asrlarda turkiy davlatlarda, ayniqsa, Xuroson, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi Markaziy Osiyoning yetakchi shahar va viloyatlarida keng iste’molda bo‘lgan. Ana shu davrda turkiy tilga fors tilidan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan bo‘lib, bugungi kunda o‘zbek tilining lug‘at tarkibida forscha o‘zlashmalar taxminan 30-40% atrofida bo‘lishi mumkin.

Korpusni yaratish davomida bir nechta qiyinchiliklarga duch kelinadi. Chunki kam resursli tillar bilan bog‘liq korpuslarda ma’lumotlar bazasini yig‘ish biroz murakkab, tarjima jarayonida ko‘proq inson omilidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Yana bir masalani sabab qilib ko‘rsatish mumkinki, u ham bo‘lsa, o‘zbek tili agglyutinativ tillar oilasiga, fors tili esa flektiv tillar oilasiga kiradi. Quyidagi jadval orqali batafsilroq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Til tizimi xususiyati	**O‘zbek tili**	**Fors tili**
Alifbo	Lotin (ba’zi manbalarda Kirill)	Arab yozuvi

Fonetika	Unli tovushlar: 6 ta: a, e, i, o, u, o‘. Undosh tovushlar: 24 ta.	Unli tovushlar: 6 ta. Yozuvda qisqa unlilar ifodalanmaydi (e, a, o‘): کتاب, بهار، شتر kabi. Undosh tovushlar 23 tadir.
Morfologiya	Agglyutinativ	Flektiv
Fe’l zamonlari	3 ta (Hozirgi, O‘tgan, Kelasi)	Asosan 2 ta: o‘tgan zamon va hozirgi-kelasi zamon. (O‘tgan zamonning o‘zi ham ingliz tili kabi bir nechta ichki turlarga bo‘linadi, masalan, o‘tgan zamon davom fe’li, o‘tgan zamon natijali fe’li, uzoq o‘tgan zamon fe’li kabi)
So‘z tartibi	SOV: Men ertaga universitetga boraman.	SOV: من فردا به دانشگاه می روم
Fe’l shakllari	Fe’l + yordamchi so‘zlar: sifatdosh(kelgan,ishlaydigan), ravishdosh(kulib, borgach), harakat nomi(o‘qimoq, salomlashish)	Fe’l va uning o‘zgaruvchan shakllari: sifatdosh(امده، نشسته), ravishdosh(maxsus qo‘shimchasi yo‘q) – sifatdosh shaklidagi fe’l bilan ifodalanadi, gapda ifodalangan mazmun orqali ajratib olinadi
So‘z yasash	Qo‘shimchalar va kompozitsiya usuli orqali: tekislamoq, terimchi, hozirjavob	Qo‘shimchalar va birikish usuli orqali: کتابخانه ، همراه، کارگر ،دوربین.
Kelishiklar	6 ta (bosh kelishik shakli yo‘q, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish)	Kelishik kategoriyasi yo‘q, ma’lum bir predloglar orqali ifodalanadi: به، در، از، با، تا، برای، بر، را
Predlog/yordamchi birliklar	Pregloglar ham yordamchi birliklar ham ko‘p	Predloglar ko‘p
Yozuv tizimi	Chapdan o‘ngga: → Mening uyim Pushkin ko‘chasida joylashgan.	O‘ngdan chapga: ← خانه ی ما در خیابان پوشکین است

Til korpusini yig‘ishdagi eng muhim omillardan biri sifatida manba, ya’ni ma’lumotlar bazasini to‘plashni olishimiz mumkin. Korpusning hajmi qancha yirik bo‘lsa, undan foydalanish koeffitsiyenti shuncha baland bo‘ladi. Faqatgina hajm bilan cheklanib qolmaslik zarur, chunki korpusga kiritiladigan ma’lumotlar turli xil bazalardan to‘planadi, masalan, rasmiy qonun yoki hujjatlar, badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar va hokazo. Manbalarni to‘plash jarayonida tarjimaga ham e’tibor berib boriladi, matnlar sifatining yuqori bo‘lishi ishning tizimli ravishda o‘sishiga yordam

beradi. Yetarlicha manba to‘planib bo‘lgandan so‘ng, ishning ikkinchi bosqichiga o‘tiladi. Tozalash (dataset) bosqichi yordamida matnlar UTF-8 formatida shakllantiriladi. Ma’lumotlar to‘plamini juda ko‘p xatolari bo‘ladi va qayta-qayta tozalashdan o‘tadi. Avtomatik tarjima yordamida yig‘ilgan ma’lumotlar inson omili yordamida ham bir necha bor tekshiriladi. Shundan so‘ng matnlar keraksiz belgi va teglardan tozalanadi. Bu jarayonni Python kodlari yordamida avtomatik ravishda amalga oshirish mumkin. Keyingi muhim qadamlardan biri parallel bo‘lmagan jumlalarni transliteratsiya qilishdir. Korpusdagi har bir jumlalarni kerakli tilga transliteratsiya qilish lozim bo‘ladi. Maxsus dastur va algoritmlar yordamida avtomatik transliteratsiya usulidan foydalaniladi, chunki qo‘lda transliteratsiya qilish juda ko‘p vaqtni oladi. Sifat nazoratini tekshirish orqali korpusimizning qiymatini belgilab olamiz. Ba’zida keraksiz belgilar qolib ketgan bo‘lishi mumkin yoki tarjima jarayonida matnlar bir-biriga aralashib ketish hollari kuzatiladi. Bunday holda keraksiz belgilar o‘chiriladi, aralash matnni ajratib olinadi va to‘g‘rilanadi. Bir-biriga ma’nosi to‘g‘ri kelmaydigan yoki umuman xato tarjimalar bor yoki yo‘qligini ko‘rib chiqish kerak. Masalan: من مدرسه رفتم

✓ Men maktabga bordim.

× Men universitetdan qaytdim.

Sifat nazorati to‘liq tekshirilib bo‘lingandan so‘ng, korpusga biroz qo‘shimchalar kiritish mumkin, masalan, bironta gap keltirilganda uning aynan tarjimasi bilan birgalikda unga teng keluvchi muqobil variantlarni ham kiritiladi va shu tariqa korpusning ichki manbasi boyishiga sezilarli hissa qo‘shiladi. Buning uchun esa ko‘proq badiiy asarlardan namunalar kiritilishi lozim.

Xulosa. Parallel korpus tilshunoslik, tarjima va sun’iy intellekt sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlar yoki til o‘rganmoqchi bo‘lgan havaskorlar uchun manfaatli bo‘lib, ular tarjima jarayonida nafaqat gap tarjimalarini balki o‘sha so‘zga to‘g‘ri kelishi mumkin bo‘lgan muqobil variantlarni ham ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladilar. Tilshunoslar esa o‘zbek va fors tillari o‘rtasidagi grammatik va leksik munosabatlarni chuqur tahlil qila olishadi. Dasturchilar yoki AI muhandislari uchun avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirishda asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida ishlatiladi. Keyinchalik uni rivojlantirib borishimiz natijasida avtomatlashtirilgan tarjima tizimi yaratilib, forscha kontentlar uchun o‘zbekcha subtitrlar ishlab chiqilishi ham maqsad qilingan. Parallel ko‘rinishda taqdim etiladigan subtitrlar fors tilini o‘rganayotganlar uchun qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov B.B., Xusainova Z.Y. Katta til modellari / “O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi”. 2024. Vol 2(6). – P. 78-92.
2. Xusainova, Z., & Yangibayeva, S. (2024). Til korpusi turlari. Uzbekistan: Language and Culture, 2024. Vol 2(6). – P. 54-64.
3. Elov, B., & Xusainova, Z. (2024). Til korpuslarini lingvistik teglash bosqichlari. // Computer Linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
4. Akramdjanova, M. (2024). Parallel matnlar korpusini yaratishning amaliy va nazariy ahamiyati. *Наука и инновация*, *2*(34), 34-37.
5. .B.Elov, A.U.Yuldashev, U.S.Yodgorov. Til korpusi turlari va umumiy xususiyatlari / Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.- 2024. №12/4 (121). – P.118-125.
6. Elov, B. B., Hamroyeva, S., & Xusainova, Z. (2022). NLP (tabiiy tilga ishlov berish) ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar. TerDU, filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim, 5-6.
7. B. Elov, Sh. Hamroyeva, R. Alayev, Z. Xusainova, U. Yodgorov – O‘zbek tili korpusi matnlarini qayta ishlash usullari – Raqamli Transformatsiya va Sun’iy Intellekt ilmiy jurnali, October 2023 – Volume 1, Issue 3.
8. Ro‘Ziyev H. B., Xodjayeva N. T. Matnlarning parallel korpuslarini tuzish muammolari //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 515-522.
9. Sobirova N. G. Q. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 1442-1450.

XORAZM SHEVASIDAGI MATNLARNI O‘ZBEK ADABIY TILIGA O‘GIRISH DASTURINI YARATISHNING AMALIY AHAMIYATI

Xusainova Zilola Yuldashevna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU
Bekchanova Munira Oybek qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 3-kurs talabasi
bekchanovamunir@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Bugungi kunda tilshunoslikda hududiy shevalarning tizimli o‘rganilishi va elektron resurslar shaklida saqlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Xorazm shevasi o‘zining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan umumiy adabiy o‘zbek tilidan sezilarli farq qiladi. Xorazm shevasi korpusining yaratilishi o‘zbek tilining dialektologik xilma-xilligini saqlash va o‘rganishda muhim qadam hisoblanadi. Korpus yaratish jarayonida audio yozuvlar, transkripsiyalar va matnli ma’lumotlar tizimli ravishda yig‘ilib, ularni annotatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Matnlar turli manbalardan (suhbatlar, folklor namunalari, she’riy va nasriy asarlar, audio yozuvlar) to‘planadi, ularning lingvistik va etnografik jihatlari belgilanadi. Ushbu maqolada Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga avtomatik tarzda o‘girish imkoniyatlarini tadqiq etish va bu yo‘nalishda dasturiy ta’minot yaratish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. Сегодня систематическое изучение региональных диалектов и сохранение их в виде электронных ресурсов имеет большое значение в языкознании. Хорезмский диалект существенно отличается от общелитературного узбекского языка по своим фонетическим, морфологическим и лексическим признакам. Создание корпуса хорезмских диалектов является важным шагом в сохранении и изучении диалектологического многообразия узбекского языка. В процессе создания корпуса важно систематически собирать и аннотировать аудиозаписи, транскрипции и текстовые данные. Тексты собираются из различных источников (интервью, образцы фольклора, поэтические и прозаические произведения, аудиозаписи), определяются их лингвистические и этнографические аспекты. В данной статье рассматривается возможность автоматического перевода текстов на хорезмском диалекте на узбекский литературный язык и разработка программного обеспечения в этом направлении.

Abstract. Today, the systematic study of regional dialects and their preservation in the form of electronic resources is of great importance in linguistics. The Khorezm dialect is significantly different from the general literary Uzbek language with its phonetic, morphological and lexical features. The creation of a corpus of the Khorezm dialect is an important step in preserving and studying the dialectological diversity of the Uzbek language. In the process of creating a corpus, audio recordings, transcriptions and textual data are systematically collected and annotated. Texts are collected from various sources (interviews, folklore samples, poetic and prose works, audio recordings), their linguistic and ethnographic aspects are determined. This article considers the issue of researching the possibilities of automatically translating texts in the Khorezm dialect into the Uzbek literary language and creating software in this direction.

Kalit so‘zlar. *Dialektal korpus, Xorazm shevasi, NLP, mashinali o‘qitish, lingvistik o‘zgartirish.*

Dialektal nutqni adabiy tilga moslashtirish kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Dialektal nutqning adabiy til bilan muvofiqlashtirilishi til birligini mustahkamlash, raqamli til resurslarini kengaytirish va mashinali tarjima tizimlarining sifatini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga o‘girish dasturini yaratish o‘zbek tilining dialektal xilma-xilligini saqlash va kengroq auditoriyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Xorazm she’vasining o‘ziga xos fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari uning adabiy tilga ta’sirini va o‘ziga xosligini yanada kuchaytiradi. Xorazm viloyatining turli hududlarida yashovchi xalqning tiliga oid to‘plangan ma’lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish, o‘ziga xos dialektal korpus yaratish zarurati paydo bo‘lgan. Xorazm shevasida yaratilgan matnlarni o‘zbek adabiy tiliga o‘girish uchun zamonaviy texnologiyalar va lingvistik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijasida amaliy dastur ishlab chiqiladi. Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga o‘girish dasturini yaratish sheva matnlarini avtomatik ravishda adabiy tilga o‘tkazish orqali ta’lim materiallarini tayyorlashni osonlashtiradi. Shevadagi matnlarni adabiy tilga o‘girish matnlarning kengroq kontekstda tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Xorazm aholisi, ayniqsa yoshlar, adabiy til bilan muloqotda bo‘lishda qiyinchiliklarga duch kelishi, ushbu dastur ularga kommunikatsiya vositasini yengillashtiradi.

Shuningdek, maqolada Xorazm she’vasining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, bu xususiyatlarning dialektal korpusga qanday aks etishi va uning Xorazm shevasida qanday qo‘llanishi haqida so‘z boradi. Xorazm she’vasining

dialektal korpusini yaratish, o‘g‘uz she’valarining o‘ziga xosligini aniqlash va adabiy tilda ularning rolini tahlil qilishga yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, korpus muammolarini o‘rganish harakati kuchaydi. Hozirda til korpuslarining ijtimoiy ahamiyati, tuzish tamoyillari, lingvististik teglar tizimini ishlab chiqish, avtomatik tahlil qilish masalalari bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda globallashuv jarayonida ayrim tillar qo‘llanishining kengayishi boshqa tillarning saqlanib qolishiga xavf solmoqda, shuning uchun mazkur korpuslar tilning yashab qolishi uchun imkoniyatlardan biri sifatida qarasak bo‘ladi. Korpus borasida fanda o‘ziga xos ilmiy ishlar qilinmoqda. Jahon tilshunosligida raqamli axborot vositalaridan foydalanish qulayligi hamda internet orqali milliy tillarni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakat ta’sirida milliy korpuslarda shevalar bazasini yaratish talabi o‘smoqda. Natijada tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish, avloddan-avlodga yetkazish imkoniyatining ko‘lami kengaymoqda.

Shevadagi so‘zlar jamlanmasi va ularning elektronlargan varianti dialektal korpus deyiladi. Dialektal korpusning arxitekturasi, umuman olganda, bir nechta asosiy qism va bosqichlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri ma’lumotlar yig‘ish, tasniflash va tahlil qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Dialektal korpus bu tilning turli mintaqaviy yoki ijtimoiy turlarini ifodalovchi matnlar va og‘zaki til namunalari to‘plami. U lingvistik tadqiqotlar, til hujjatlari va madaniy merosni saqlash uchun muhim manba hisoblanadi. Dialektal korpusni boshqarish va tahlil qilish uchun yaxshi ishlangan arxitektura, ma’lumotlar bazasi tizimi zarur. Dialektal yozuvlari to‘plami keng ko‘lamli fonologik, morfologik, leksik va sintaktik tadqiqotlar uchun ham qimmatli ma’lumotlar manbayi hisoblanadi.

Ushbu maqolada Xorazm shevasiga xos matnlar o‘zbek adabiy tiliga o‘girish dasturini yaratish uchun shevadagi so‘zlar yozma manbalardan to‘plandi. Matnlar raqamlashtirildi, ortiqcha belgilardan tozalandi hamda morfosintaktik tahlil uchun tayyorlandi. Sheva-adabiy til o‘rtasidagi morfologik farqlarni aniqlash uchun qoidaga asoslangan yondashuvlar ham modelga integratsiya qilindi. Annotatsiya jarayonida matnlar shevaga xos fonetik va morfologik xususiyatlarga asoslanib belgilandi. O‘zbek adabiy tiliga o‘girish uchun dastlab qoidaviy (rule-based) yondashuv asosida o‘girish qoidalari ishlab chiqildi.

Dialektal korpusning amaliy ahamiyati: umumiy qilib olganda, shevaga oid so‘zlarni saqlab qolish uchun elektron bazaga qo‘shish hisoblanadi. Ham so‘z saqlanib qolinadi, ham leksemalar soni bittaga ko‘payadi. O‘zbek xalq shevalari juda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ularning ayrim qismlarigina fonetik va grammatik jihatdan o‘rganilgan. O‘tgan asrlarda yaratilgan ilmiy asarlar bunga yaqqol misol

bo‘la oladi. Jumladan, F.Abdullayev “O‘zbek tilining Xorazm she’valari”, N.Rajabov “O‘zbek she’vashunosligi”, V.V.Reshetov “Тюркологический сборник” va boshqa olimlarning ilmiy ishlarini aytishimiz mumkin. Shu jumladan, F.Abdullayev Xorazm shevalariga oid namunalarni xalq orasidan, ko‘chalarda yurib jonli she’valardan tuzgan. O‘g‘uz lahjasiga oid Xorazm shevalari ham yana bir qancha mayda sheva guruhlariga bo‘lingan. Bunga turlicha sabablar bo‘lishi mumkin. Ular bir-biridan nafaqat geografik joylashuv jihatidan, balki sheva tomondan ham birmuncha farq qiladi. Demak, shevalar umumiy bir lahja tarkibida birlashsa ham, fonetik, morfologik jihatlaridan turlicha bo‘lishi mumkin. Na’muna qilib Urganch va Xiva hududlari shevalarini olishimiz mumkin. Professor E.D. Polivanov tasniflashicha, “o‘g‘uz lahjasi” o‘z ichiga ikki guruh shevalarini olar ekan:

1. Janubiy Xorazm guruhi shevalari (Xiva, Urganch, G‘azavot, Shovot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa kabi) kiritilgan.

2. Shimoliy o‘g‘uz guruhi shevalari (Iqon-Qorabuloq kabi) kiritilgan ekan.

Yuklamalar Xorazm shevasida tubdan farq qiladi. Misol uchun ***“-da”*** yuklamasi kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini bildiradi. Xorazm shevasida ***“don”*** qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi: *Sovg‘a bermaganingdan keyin xafa bo‘ladi-da. Sovg‘a barmaganingdan keyin xofo bo‘ladidon*.

“-ku” qo‘shimchasi ham kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi turiga kiradi, Xorazmda bu qo‘shimcha ***“-qu”*** shaklida keladi: *Hamma gaplarimni senga aytdim-ku! Hamma gaplarimi songo oytdm-qu.*

Ko‘makchilarga keladigan bo‘lsak, ular ham Xorazm she’vasida turlicha ifodalanadi: 1) ***“so‘ngra”*** ko‘makchisi vazifadosh ko‘makchilar sirasiga kirib, Xorazm she’vasida ***“o‘sin”*** shaklida keladi: *Tushda ishdan kelaman, so‘ng uyda dam olaman. Abetda ishdan galaman, o‘sin uyda dam olomon.*

Xorazm shevasini korpusini yaratish uchun avvalo ma’lumot yig‘ildi ya’ni 600ta shevaga oid so‘zlar yig‘ib chiqilgan. Ushbu jadvalda to‘rtta tumanda so‘zlarning qanday aytilishi alohida ajratilib ko‘rsatilgan. Korpusda foydalanilgan dataset turli sohalarga doir va turli so‘z turkumlari oid so‘zlardan foydalanib yig‘ilgan.

№	Shevadagi so`z	Adabiy shakl	so'z turkumi	Urganch	Xiva	Qo'shko'pir	Gurlan
1	yimirta	tuxum	ot	tuxum	yimirta	yimirta	tuxum
2	gashir	sabzi	ot	gashir	gashir	gashir	gashir
3	timittin	binoyiday	sifat	timittin	timittin	timittin	timittin
4	parahatchiliq	tinchlik	ot	parahatchiliq	parahatchiliq	parahatchiliq	parahatchiliq
5	navlin	bilmadim	fe'l	navlin	navlin	navlin	navlin
6	zangi	narvon	ot	zangi	zangi	zangi	zangi
7	opo	ona	ot	opo	opo	opo	opes
8	aka	ota	ot	aka	aka	aka	akes
9	ejashdi	hazillashdi	fe'l	ejashdi	ejashdi	ejashdi	ejashdi
10	chapak	qarsak	ot	chapak	chapak	chapak	chapak
11	nerda	qayerda	olmosh	nerda	nerda	nerda	nerda
12	man	men	olmosh	man	man	man	men
13	eshik	eshik	ot	eshik	qopi	qopi	eshik
14	qarinja	chumoli	ot	qarinja	qarinja	qarinja	qarinja
15	pitta	ozgina	ravish	pitta	pitta	pitta	pitta
16	borosonmi	borasanmi	fe'l	borosonmi	borosommi	borosomo	borosomo
17	go'sht	go'sht	ot	go'sht	et	go'sh	go'sht

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib Pythonda kod yozilgan.

```
print("\tO'zbek shevalari lug'ati(Xorazm shevasi)")
soz =  input("So'z kiriting=").lower()
soz1 =["angak", "aka", "apka", "arka","adik","alashtirma", "arik", "asirak", "barak", "bajik", "bangi",
"biyi",  "bon", "bidirdamoq", "bordi-galdi",  "bo'kchimoq", "bol", "bug'oz", "chapak", "chitmak", "chiya",
"cholvur","chug'ilchi","digirjak", "doyi","dim","do'ddi","duvalang", "dish", "dingan", "dapa",  "domar",
"deshon", "diri", "dobbi", "do'shik", "do'shak", "dik", "elot", "ejashmoq", "guch", "galishmoq", "garak",
"galin","gashir", "gal", "guyov", "guppi", "get","gechchi","gizlanmajak", "go'z", "go'rmoq", "go'shanga",
"gurung", "guldirmomo", "halpa", "horvuz", "hovor", "hurkak",  "ijjon",  "ich qismoq", "ilik", "ino",
"inna","ishu", "indi", "ichon", "jakka-jukka","jinnoqdin","jo'nqi","jo'ro", "jo'gi", "jolli",  "katman",
"ko'pir", "kichchi", "kirpi", "kisa", "kadi", "kat", "loppa at", "lo'ppi", "mongloyi qoro","mo'chchi",
"mijina", "navlin", "novvi","nishatin", "nera", "nerda", "nichik", "ojji", "opo", "oston", "orva",
"ongiyo'q", "pishik", "potya","polos",  "po'm", "qorinja", "qumursqa", "qopoq","qopshirma", "sollanmoq",
```

```
        O'zbek shevalari lug'ati(Xorazm shevasi)
So'z kiriting=barak
Adabiy tarjimasi: chuchvara
So'z turkumi: ot
```

Yuqoridagi kodni ishga tushirganimizdagi Xorazm shevasiga oid so‘z kiritiladi natijada shevadagi so‘zning adabiy tilda qaysi so‘zga teng kelishi va uning qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanini chiqarib beradi. Olingan natijalar Xorazm shevasidan o‘zbek adabiy tiliga avtomatik o‘girish mumkinligini isbotladi.

Shunga qaramay, tadqiqot davomida ba’zi cheklovlar ham aniqlangan: shevada mavjud bo‘lgan leksik arxaizmlar va lokal semantik o‘zgarishlar modelni chalkashtirishi mumkin. Xorazm viloyatining o‘zida ham turli shevalar mavjud. Bunga Gurlan va Yangibozor shevalarini misol qilishimiz mumkin. Gurlan tumanining Amudaryo bilan chegaradosh bo‘lgan joylarida ***“j”*** lashishlarga duch kelinadi. Shimoliy Xorazmdan Xiva tomonga qarab ***“j”***lashish kamayib boradi. Bu

shevada ayrim leksikologik o‘ziga xosliklar ham mavjud. Xorazm shevasida asosan olmoshlarning variantlari ko‘p va adabiy tildan tubdan farq qiladi.

Shevalarda ham omonimlikni kuzatishimiz mumkin. Masalan *“kadi”* so‘zini ikki xil ma’nosi bor. Birinchi ma’nosi *“qovoq”* bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi *“sevgan qizi(yigiti)”* ma’nosida keladi. Korpusni yaratishda frazeologiyalarni ham kiritish muhim. Adabiy tildagi frazeologiyalarning ma’nosi Xorazm shevasida umuman boshqa ma’noda keladigan holatlarni kuzatishimiz mumkin.

bunga	binga
bunga	minga
unga	vunga
undan	vundan
ana shu	onoshu
mana shu	inashu
ana	ono
mana	ina
menga	monga
senga	songa

Og‘zaki nutqda juda charchamoq ma’nosini bildiruvchi *“Og‘zini suvi oqdi”* iborasi mavjud bo‘lib, bu ibora o‘zbek adabiy tilidagi *“Holdan toymoq”* iborasiga teng keladi. Shuningdek, ushbu iboraning Xorazm shevasida *“Oyoqinnan o‘t chiqdi”* sinonim iborasi ham uchrab turadi. Bu iboraning birinchi iboradan deyarli farqi yo‘q. Misol uchun, *“to‘y o‘yda ish atavarip, oyoqimnon o‘t chiqdi”* yoki “og‘zimni suvi oqdi” birikmasini ham qo‘llash mumkin.

Jumladan, Qo‘shko‘pir aholi shevasi nutqida bu iboralar bilan yana bitta sinonimlik hosil qiluvchi ibora borki, bu ibora *“Go‘zzini go‘ki so‘kildi”* tarzida qo‘llanadi. Bu ibora ham “*qattiq charchadi”* ma’nosini bildiradi. Garchi uning ma’nosi ham yuqoridagi iboralar bilan deyarli bir xil bo‘lsa-da, bu iboraning ahamiyatli jihati ham borki, ibora sal tor ma’noda ishlatilib, faqat ko‘z orqali qilinadigan jismoniy harakatlarga nisbatangina(kompyuterda ishlash, tikuv mashinasida ishlash) ishlatiladi. Misol uchun, *Dinmin moshinda tikavarip go‘zzimni go‘ki so‘kildi* (Qo‘shko‘pir sheva og‘zaki nutqidan).

Shuningdek ushbu shevalarda *“Borg‘ono boldiz, galgana yengga”* kerakli va keraksiz joylarga ham boraveradigan, hamma joyda topiladigan, odamga nisbatan qo‘llaniladi.

“*O‘lmagay bi bolo hammeda bo bi borg‘ono boldiz, galgana yenggachilik atip.”*

Xulosa.

Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga avtomatik tarzda o‘girish dasturini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari dialektal korpuslar va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Yaratilgan dastur dialektal farqlarni sezilarli darajada aniqlay olgan va adabiy til me’yorlariga moslasha olgan. Biroq, yuqori aniqlikka erishish uchun kengroq, sifatli parallel korpuslar va tilga xos xususiyatlarni yanada chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj mavjud. Tadqiqot natijalari O‘zbek tilining hududiy variantlarini standartlashtirish, madaniy merosni raqamlashtirish va mashinali tarjima tizimlarini takomillashtirish yo‘lida mustahkam asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov B.B., Xusainova Z.Y. Katta til modellari / “O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi”. 2024. Vol 2(6). – P. 78-92.
2. Elov B., Abdullayeva O. Dialektal korpusni qurish va uning ahamiyati. // O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv.
3. Palvonnazarova H., Shamuratova S. O‘g‘uz shevalarida yordamchi so‘z turkumlarini qo‘llanilishi. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture.
4. Ibragimov Y., Ibragimova Zamira. O‘zbek tilining dialektal korpusini yaratish tamoyillari. // O‘zbek Tilshunosligi va Adabiyotshunosligi Taraqqiyoti, Xalqaro Hamkorlik Masalalari.
5. Elov B., Hamroyeva Sh., Alayev R., Xusainova Z., Yodgorov U. O‘zbek tili korpusi matnlarini qayta ishlash usullari / Raqamli Transformatsiya va Sun’iy Intellekt ilmiy jurnali, October 2023. Volume 1, Issue 3.
6. Xusainova, Z., & Yangibayeva, S. (2024). Til korpusi turlari. / Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
7. Abdullayev F. O‘zbek tilining Xorazm she’valari.
8. Elov, B. B., Hamroyeva, S., & Xusainova, Z. (2022). NLP (tabiiy tilga ishlov berish) ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar. / TerDU, filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim, 5-6.
9. Paquot M., Th.Gries S. Corpus Architecture. A Practical Handbook of Corpus Linguistics.
10. Boberg Ch., Nerbonne J., Watt D. Corpus-Based Approaches to Dialect Study. The Handbook of Dialectology.

III SHO‘BA. TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)

UDK: 004.912

MATNNI TAHLIL QILISH BO‘YICHA ILG‘OR TAJRIBALAR

Mamatov Narzillo Solidjonovich,
Texnika fanlari doktori, professor
m_narzullo@mail.ru
“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari”Milliy tadqiqot universiteti

Nuritdinov Nurbek Davlataliyevich,
nuritdinovnurbek85@gmail.com
Namangan muhandislik-qurilish instituti, tayanch-doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada matnlarni tahlil qilishning turli fan sohalarida qo‘llaniladigan asosiy usullari tahlil qilinadi va ularning kompyuterlashtirish darajasi bo‘yicha tasnifi keltiriladi. Tadqiqotda tematik tahlil, kontent tahlili, lug‘at yondashuvlari, so‘zlar sumkasi (BOW) modeli, boshqariladigan va boshqarilmaydigan o‘rganish usullari, shuningdek tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnikalari qamrab olingan. Har bir yondashuvning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, afzalliklari va cheklovlari muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi – matn tahlilining turli metodologik yondashuvlarini tizimlashtirish va tadqiqotchilar uchun ularning imkoniyatlari hamda chegaralarini aniqlab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari matn tahlil usullarini tanlashda asos bo‘lishi, ilmiy, ijtimoiy va texnologik sohalarda matnga asoslangan tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные методы анализа текстов, применяемые в различных научных дисциплинах, и приводится их классификация в зависимости от степени компьютеризации. В исследование включены тематический анализ, контент-анализ, лексические подходы, модель «мешка слов» (BoW), методы контролируемого и неконтролируемого обучения, а также технологии обработки естественного языка (NLP). Обсуждаются теоретические основы, практическое применение, преимущества и ограничения каждого подхода. Цель статьи — систематизировать различные методологические подходы к анализу текста и определить их возможности и ограничения для исследователей. Результаты исследования могут послужить основой для выбора методов анализа текста, а также способствовать повышению эффективности текстоориентированных исследований в научной, социальной и технологической сферах.

Abstract: This article examines the main methods of text analysis used across various academic disciplines and provides their classification based on the degree of

computerization. The study includes thematic analysis, content analysis, lexical approaches, the bag-of-words (BoW) model, supervised and unsupervised learning methods, as well as natural language processing (NLP) technologies. Theoretical foundations, practical applications, advantages, and limitations of each approach are discussed. The aim of the article is to systematize different methodological approaches to text analysis and to identify their capabilities and limitations for researchers. The research findings can serve as a basis for selecting appropriate text analysis methods and contribute to enhancing the effectiveness of text-based research in scientific, social, and technological domains.

Kalit so‘zlar: *Matn tahlili, Tematik tahlil, Kontent tahlili, So‘zlar sumkasi modeli, Tabiiy tilni qayta ishlash, Lug‘atga asoslangan yondashuv, Fanlararo tahlil, Semantik tahlil, Statistik yondashuvlar, Sun’iy intellekt.*

Ushbu maqolada matnlarni tahlil qilishning turli fan sohalarida qo‘llaniladigan turli xil matn tahlil usullarini tizimlashtiradi va muhokama qiladi. Matnni tahlil qilish ko‘p shakllarni oladi, ularning har biri o‘z taxminlari, afzalliklari va cheklovlariga ega[1]. Muayyan fan doirasida qo‘llaniladigan o‘ziga xos texnikalar asosan noma’lum yoki boshqa fanlar tomonidan qo‘llanilmaydi, bu esa har bir texnikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo‘lmasligiga olib kelishi mumkin. 1-rasmda kompyuterni avtomatlashtirish darajasi bo‘yicha guruhlangan turli fanlarda qo‘llaniladigan eng mashhur matn tahlil usullarining tasnifi keltirilgan. Ushbu turkumlash tadqiqotchilarga matn ma’lumotlarini tahlil qilish uchun mavjud vositalarni ko‘rish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani taqdim etadi [2].



1-rasm. Matnni tahlil qilishning umumiy usullarining tasnifi tematik tahlil.

1-rasmning 1-bandiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tematik tahlil odatda asosli nazariya metodologiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan matn tahliliga sharhlovchi yondashuvdir. Asoslangan nazariya va tematik tahlilning maqsadi odamlarning o‘z dunyolariga xos bo‘lgan ma’no va ma’nolarga asoslangan nazariyani yaratish va takomillashtirishdir. Binobarin, ma’lumotlar ko‘pincha intervyu stenogrammasi, ishtirokchilar kuzatuvlari qaydlari va arxiv matni, jumladan hujjatlar, veb-saytlar va elektron pochta xabarlari shaklida taqdim etiladi. Tematik tahlil ko‘pincha tashkiliy fanlar va aloqa fanlarida qo‘llaniladi [3].

Tematik tahlil takrorlanuvchi jarayonni o‘z ichiga oladi, bunda tadqiqotchi matndan kelib chiqadigan bir qator kodlar va toifalarni ishlab chiqadi. Umuman olganda, toifalar tahlil boshlanishidan oldin noma’lum, nazariyani takomillashtirish zarur bo‘lgan hollar bundan mustasno; bunday hollarda ma’lumotlarni tahlil qilish adabiyot va ma’lumotlarni doimiy ravishda taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi ishtirokchilarning o‘z tilidan ("birinchi tartib kodlari" yoki "ochiq kodlash" deb ataladi) boshlanadi va keyin o‘xshash kodlarni toifalarga ("ikkinchi tartib kodlari" yoki "eksenli kodlash" deb ataladi). NVivo va ATLAS kabi kompyuter dasturlari bunday kodlar va toifalarni tashkil qilishni osonlashtirishga yordam beradi, garchi matn toifalari odatda inson kodlashidan olingan toifalarning operasion ta’riflariga bog‘liq bo‘lsada, shuning uchun ko‘pincha kompyuterni avtomatlashtirish darajasi juda kam yoki umuman yo‘q [4].

Garchi tematik tahlil tadqiqotchilarga unchalik ma’lum bo‘lmagan hodisalar va tushunchalarni tushunish imkonini beradi, ammo bu usul bilan bog‘liq bir qator xarajatlar mavjud. Kodlash yarim yoki to‘liq avtomatlashtirilmaganligi va toifalar noma’lum bo‘lganligi sababli matnni o‘qish, turkumlashtirish va talqin qilish ko‘p vaqt talab etadi, bu esa katta hajmdagi ma’lumotlarni (masalan, 100 000 varaq transkript) tahlil qilishni deyarli imkonsiz qiladi. Bundan tashqari, tematik tahlil xatolar va tadqiqotchilarning noto‘g‘riligiga nisbatan zaif bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, tematik tahlil odatda boshqa yondashuvlarga qaraganda qiziqish sohasi haqida ko‘proq bilim talab qiladi.

Kontentni tahlil qilish lug‘atga asoslangan usullar. Kontentni tahlil qilish va boshqa lug‘at usullari (1-rasm, 2-band) ko‘pincha ma’lum bir matndagi so‘zlar yoki iboralar chastotasini hisoblash orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun, lug‘at usullari yordamida sifatli ma’lumotlar miqdoriy yo‘naltirilgan tadqiqot savollariga javob berish uchun ishlatilishi mumkin, chunki matn ko‘pincha so‘z chastotalarini hisoblash uchun qisqartiriladi. Oldindan talab qilinadigan inson bilimlari miqdori, shuningdek, kompyuterni avtomatlashtirish, so‘zlar ro‘yxati ma’lumotlardan kelib chiqadimi yoki so‘zlar ro‘yxati nazariya yordamida apriori aniqlanganiga qarab o‘zgaradi. Tematik tahlilga o‘xshab, kompyuter dasturlari kontentni tahlil qilish jarayonida yordam berishi mumkin. DICTION kabi dasturlar turkumlash lug‘atidan foydalangan holda matnni avtomatik ravishda baholaydi (ya’ni, operativ ta’riflar o‘rniga so‘zlar yoki n-grammalarga asoslangan mavzularni aniqlash). NVivo yoki ATLAS kabi boshqa dasturlar tematik tahlilga o‘xshab qo‘llanilishi mumkin, bunda kodlash va toifalash ma’lumotlarni tashkil etish dasturi yordamida qo‘lda amalga oshiriladi [5].

So‘zlar sumkasi va tabiiy tilni qayta ishlash.

Oxirgi ikkita usul - matnni tahlil qilishda so‘zlar sumkasi (BOW; ya’ni sanashga asoslangan; 1-rasm, 3-blok) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP; 1-rasm, 4-blok) yondashuvlari. Ushbu matnni tahlil qilish vositalari kompyuter dasturlari turli matnlarni tasniflash va toifalarga ajratish vazifalarini o‘rganadigan va ularni yarim yoki to‘liq avtomatik ravishda bajarishi mumkin bo‘lgan mashinani o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin. Sun’iy intellekt inson tajribasi darajasiga (yoki undan ham yaxshiroq) erishishi mumkin. SHu bilan birga, inson tajribasini sun’iy intellekt bilan birlashtirish sinergetik ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

BOW yondashuvlari matnni soddalashtirish va qisqartirish uchun asosan informatika fanlarida qo‘llaniladigan texnikalar guruhidir[6]. Bu usullar hujjatdagi so‘zlarning tartibi muhim emasligini nazarda tutadi; ya’ni hujjatlar "so‘zlar sumkasi" sifatida qaraladi. So‘z tartibini e’tiborsiz qoldirish hujjatda so‘zlarning necha marta paydo bo‘lishini hisoblash orqali ma’lumotlarga statistik xususiyatlarni qo‘shadi. Olingan ma’lumotlar strukturasi hujjat atamasi matrisasi deb ataladi, unda

fayl ma’lumotlar matrisasining har bir satri hujjatni, ustunlar esa hujjatda qo‘llanilgan alohida atamalarni ifodalaydi. BOW usullari so‘z tartibini e’tiborsiz qoldirganligi sababli, ular statistik xususiyatlarni (ya’ni, o‘rnini bosish) ta’minlaydi. Natijada, bu usullar hujjatlarni toifalarga bo‘lish kabi makro vazifalarni bajarishda yaxshi va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashga qodir. Misol uchun, spam-filtrlar ba’zi elektron pochta xabarlarini mazmuniga ko‘ra spam sifatida tasniflash uchun Baes ehtimollik modellariga asoslangan BOW yondashuvidan foydalanadi. Biroq, BOW usullari matnning semantik ma’nosini aniqlash kabi mikro darajadagi vazifalar uchun mos emas.

BOW yondashuvlarining ikki turi mavjud: nazorat ostida (1-rasm, 3a blok) va nazoratsiz
(1-rasm, 3b blok). Ushbu usullar va ularni qo‘llash tadqiqot kontekstiga qarab farq qiladi. Boshqariladigan usullarda tadqiqotchi nimani qidirayotganini oldindan biladi. Aniqrog‘i, tadqiqotchi dasturga kirish ma’lumotlarini (bu holda matn) ham, chiqish ma’lumotlarini ham (masalan, matn muallifini aniqlash) beradi va tizim ular orasidagi munosabatni ko‘rsatish uchun algoritm yaratadi. Tadqiqotchilar Mosteller va Uolles 12 ta munozarali federalistik hujjatlarning (Jeyms Madison yoki Aleksandr Hamilton) muallifligini bashorat qilish uchun oddiy Baescha so‘z ehtimollaridan foydalangan holda ushbu yondashuvning eng dastlabki misollaridan birini taqdim etdilar. Bugungi kunda Naive Baes va Support Vector Machines (SVMs) kabi usullar matn tahlili uchun ishlatiladigan mashhur nazorat ostidagi algoritmlardir [7].

Shu bilan bir qatorda, nazoratsiz algoritmlar tematik tahlilga o‘xshash so‘z klasterlari va ma’lumotlardan kelib chiqadigan mavzularni aniqlaydi. Biroq, mavzu tahlilidan farqli o‘laroq, mavzuni modellashtirish muhim mavzularni aniqlash uchun yuqori darajada (to‘liq bo‘lmasa ham) avtomatlashtirilgan yondashuvdan foydalanadi. Tahlil qilish uchun kamroq vaqt va matn haqida kamroq ma’lumot talab etiladi. Shu sababli, mavzuni modellashtirish katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun javob beradi, garchi inson tushunchasi paydo bo‘lgan mavzularni sharhlash uchun hali ham muhim. Mavzuni modellashtirish mavzuni tahlil qilish (ya’ni, inson tushunchasi) va mashinani o‘rganish (ya’ni, katta hajmdagi matnni tezda tahlil qilish) afzalliklaridan foydalanadi.

Nihoyat, NLP odatda matn tahlilining eng avtomatlashtirilgan shaklidir. Bu usul odamlarning tilni qanday tushunishi va qayta ishlashini modellashtiradi. Masalan, NLP usullari jumladagi so‘zlarning nutq qismlarini (masalan, otlar, sifatlar va boshqalar) belgilash imkonini beradi. Hujjatlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qiling va hatto so‘zlarning ma’nosini aniqlashtirish uchun jumla kontekstidan foydalaning. Shuning uchun, BOW yondashuvidan farqli o‘laroq, NLP so‘z tartibini muhim deb hisoblaydi. CHuqur o‘rganish va multimodallik (ya’ni, matn va tasvirlarni birlashtirish) kabi ilg‘or usullardan foydalangan holda his-tuyg‘ularni

tahlil qilish o‘quv to‘plamlaridan foydalanishda NLPning mashhur shakllaridan biridir. Ushbu maxsus tahlil matnga nisbatan umumiy munosabat, hissiyot yoki fikrni ijobiy, salbiy yoki neytral deb tasniflaydi. Mavzuni tahlil qilishdan farqli o‘laroq, NLP to‘liq avtomatlashtirilgan jarayon bo‘lib, shuning uchun inson tushunishi va talqinini kam yoki umuman talab qilmaydi. Bundan tashqari, insonni kodlashni talab qiladigan usullar (masalan, tematik tahlil) bilan solishtirganda, NLP boshqa yondashuvlarga qaraganda ancha tez va tizimli. Masalan, kompyuter fanlari, informatika, tilshunoslik va psixologiya sohasidagi tadqiqotchilar NLP dan matnni qazib olish vositasi sifatida foydalanadilar [8].

Tekshirish, baholash va izohlash uchun talab qilinadigan mavzuni modellashtirish bosqichlari [9]

1-bosqich: Gipoteza va savollarni shakllantirish

(a) Gipotezalar tadqiqot muammolari. Mavzuni modellashtirishda gipotezalar va tadqiqot muammolari boshqa har qanday tadqiqotga o‘xshash ishlab chiqiladi.

2-qadam: Dizayn va ma’lumotlarni yig‘ish

(a) ma’lumotlar turi. Ma’lumotlar turlariga misollar orasida ochiq so‘rov javoblari va arxiv ma’lumotlari, masalan, veb-sayt matni, bosh direktorlarning xatlari, hamkasblar o‘rtasidagi elektron pochta xabarlari va ijtimoiy media (masalan, Twitter, Facebook) kiradi.

(b) Namuna hajmi. Namuna hajmi farazlar va tadqiqot savollarining nazariy va uslubiy mulohazalari bilan bog‘liq. Masalan, nazariya ma’lum bir qiziqish populyasiyasini ko‘rsatishi mumkin yoki korrelyasion tahlil o‘tkazish istagi namuna hajmini aniqlash uchun quvvat tahlilini talab qilishi mumkin. Tadqiqotchilar hujjat darajasidagi tahlilni ham ko‘rib chiqishlari kerak.

(c) yozish sifati. Yaxshiroq yozish odatda tahlilda yordam beradi. Biroq, hatto sifatsiz matnni ham tahlil qilish mumkin (masalan, Twitter ma’lumotlari).

(d) javoblar davomiyligi. Ko‘proq matn odatda kamroqdan yaxshiroqdir. Minimal so‘zlar soni bo‘lmasada, har bir hujjat uchun kamida 200 belgi tavsiya etiladi.

(e) kovariasiyalar. Turli mavzular paydo bo‘ladimi yoki quyi toifaga qarab har xil muhokama qilinadimi yoki yo‘qligini tushunish uchun "kovariatlar" sifatida sinovdan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan nazariy va uslubiy moderatorlarni hisobga olish kerak.

3-qadam: Oldindan davolash

(a) noto‘g‘ri yozuvlar. Minimal so‘zlar soniga to‘g‘ri kelmaydigan yoki tegishli matnni o‘z ichiga olmagan javoblar kabi noto‘g‘ri yozuvlarni o‘chirish haqida o‘ylashingiz mumkin.

(b) tokenizasiya. Tokenizasiya bosqichi jumlalarni alohida so‘zlarga yoki "tokenlarga" qisqartirishni o‘z ichiga oladi.

(c) tozalash. Tozalash bosqichi kichik harf belgilarini yaratish, bo‘shliqlar va tinish belgilarini olib tashlashni o‘z ichiga oladi.

(d) so‘zlarni to‘xtating. To‘xtash so‘zlarini olib tashlash tavsiya etiladi. To‘xtash so‘zlarini tadqiqot kontekstida juda tez-tez uchraydigan so‘zlar deb hisoblash mumkin, ular mavzularni aniqlashda qo‘shimcha qiymat bermaydi. Tasodifiy shovqin bo‘lishi mumkin bo‘lgan tez-tez uchraydigan so‘zlarni olib tashlash tavsiya etiladi.

(e) kamdan-kam hollarda. Hujjatda kamdan-kam uchraydigan atama bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun so‘zning minimal sonini belgilashingiz kerak bo‘lishi mumkin. Mavzuni bir necha yuzlab hujjatlarni modellashtirishda, agar natijalar shovqinli bo‘lsa yoki tahlil juda uzoq davom esa, kamida ikkita hujjatdan boshlash va ularni mos ravishda moslashtirish foydali bo‘ladi. Namuna minglab hujjatlardan iborat bo‘lgan hollarda, beshta hujjat kabi yuqori minimumdan boshlash yaxshidir. Ko‘pgina hollarda shovqinni kamaytirish va hisoblash tezligini oshirish uchun kamida beshta hujjat qo‘llaniladi.

(f) Stemming lemmatizasiya. Tahlilni osonlashtirish uchun stemming yoki lemmatizasiya qilish kerak. Masalan, “Imkoniyat” va “imkoniyat”lar “imkoniyat” bilan almashtiriladi. Ushbu bosqichdan oldin bir nechta dastlabki tahlillarni o‘tkazish tavsiya etiladi. Stemming keyingi tahlil uchun tavsiya etiladi, ammo tadqiqotchilar stemming chiqarilgan xulosalarga ta’sir qiladimi yoki yo‘qligini tekshirishlari kerak.

(g) Uni-/bi-/trigramlar. Bigramlardan foydalanish odatda so‘zlar sumkasini yengib o‘tishga yordam berib, tahlil qilishda yordam beradi. Misol uchun, faqat "SHimoliy" va "Karolina" o‘rniga "SHimoliy Karolina" dan foydalanishingiz mumkin. Biroq, uni, bi yoki trigramlardan foydalanganda topilmalar o‘zgarishini aniqlash uchun bu taxminni har bir tahlilda sinab ko‘rish mumkin.

4-qadam: Mavzuni modellashtirish

a) tez-tez ishlatiladigan so‘zlar. Matndagi "muhim" va tez-tez uchraydigan so‘zlar takrorlanuvchi jarayon orqali aniqlanishi kerak, bunda to‘xtash so‘zlarini qo‘shish va olib tashlash va bunday qadamlar paydo bo‘ladigan so‘z turlarini o‘zgartirish yoki o‘zgartirishni baholash uchun boshqa dastlabki ishlov berish bosqichlari.

(b) Mavzular soni. 1 dan 100 tagacha mavzuni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi; paydo bo‘ladigan mavzular soni oxir-oqibatda mavzularning talqin qilinishi va parsimonlik zarurati bilan ta’sir qilishi kerak. Bir qator mavzular bo‘yicha tadqiqotlar iterativ tarzda amalga oshirilishi kerak.

(v) tarmoq strukturasini o‘rganish. Mavzular tarmog‘i muayyan mavzular qanchalik bog‘liqligini ko‘rish imkonini beradi. Bu paydo bo‘lgan konstruksiyalarning o‘lchovliligini baholash uchun foydalidir. Mavzu tarmog‘ini xaritalashda minimal korrelyasiya 0,10 dan boshlash tavsiya etiladi. Biroq, chegarani, ayniqsa mavzular soniga qarab sozlash kerak bo‘ladi (ko‘proq mavzular pastroq qiymatni talab qiladi va aksincha).

(d) ish ta’rifi. Mavjud adabiyotlardan konstruktiv ta’riflarni aniqlash yoki so‘zlar ro‘yxati uchun so‘zlarni tanlashni osonlashtirish uchun ishchi ta’rifni ishlab chiqish kerak.

Matndagi xatolarni tuzatish algoritmlari

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlari inson tilidagi ma’lumotlarni, shu jumladan tuzilmagan matn ma’lumotlarini qayta ishlash uchun ishlatiladi. Bugungi kunda NLP algoritmlari til qoidalari, statistik yondashuvlar va sun’iy intellekt yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan. Til qoidalariga asoslangan yondashuv asosida NLP vazifalari va til korpusidagi tasniflash operasiyalarining lingvistik asoslarini shakllantirish amalga oshiriladi. Statistik algoritmlar mashinalarga inson tillarini o‘qish, tushunish va ma’no chiqarish imkonini beradi va katta hajmdagi matnlarni (katta ma’lumotlarni) qayta ishlashga asoslangan. Statistik algoritmlar nutqni aniqlash, mashina tarjimasi, hissiyotlarni tahlil qilish, tasniflash va matnni qazib olish kabi ko‘plab NLP vazifalarida qo‘llaniladi. Bugungi kunda CNN va RNN texnologiyalariga asoslangan mashinani o‘rganish (ML) algoritmlarini chuqur o‘rganish modellari mavjud NLP tizimlarini o‘rganishi va katta hajmdagi tuzilmagan matnni aniqroq qayta ishlashni ta’minlashi mumkin.

Bugungi kunda ma’lumotlarni qazib olish tabiiy tilni qayta ishlashning mashhur vazifalaridan biridir. Matnning semantikasini (mazmunini) tushunish, uni matn sifatida ifodalash va qayta ishlash uchun tasniflash, qismlarga ajratish kabi harakatlar bajarilishi kerak.

Kompyuterlar va odamlarga tabiiy til yordamida ma’lumot almashish imkonini beruvchi mexanizmlarni ishlab chiqadilar. Kompyuterlar NLP tufayli inson tilini o‘qishi, sharhlashi, tushunishi va javob berishi mumkin, ishlov berish odatda mashinaning aql darajasiga bog‘liq. NLP algoritmlari odamning xabarlarini ular uchun mazmunli raqamli ma’lumotlarga aylantiradi. Jarayonlar va ularning algoritmlari qanday ishlashini tushunish muhimdir. Zamon bilan hamnafas bo‘lish, bu texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur.

NLPda hal qilinayotgan muammolar orasida eng muhimlari quyidagilardir (1-rasm) [10],[11]:

- NLP texnologiyalarini ishlab chiquvchilar uchun belgilangan birinchi klassik vazifa;

- grammatika va imloni tekshirish (grammatika va afsun checking) – o‘zbekcha matnlarning imlosini avtomatik tekshirish va tuzatish;
- matn tasnifi (matn klassifikatsiyasi) – matn semantikasini aniqlash;
- ma’lum ob’ektlarni identifikasiya qilish (nomli ob’ekt recognition, NER) - muhim ob’ektlarni aniqlash;
- umumlashtirish - matnni soddalashtirilgan shaklda umumlashtirish;
- matn yaratish (matn avlod) AI tizimlarini yaratishda foydalaniladigan vazifalardan biridir;
- mavzuni modellashtirish (mavzuni modellashtirish) - katta matnlardan yashirin mavzularni ajratib olish.

2-rasm. NLP vazifalarining murakkabligi[12]

Shuni ta’kidlash kerakki, barcha zamonaviy va tegishli NLP vazifalari ko‘pincha interaktiv AI tizimlarini yaratishga to‘g‘ri keladi: chatbotlar. Bu inson so‘rovlarini dasturiy ta’minot bilan birlashtirishga yordam beradigan muhit (tizim).

Bundan tashqari, mobil qurilmalarda matn xatolarini tuzatish jarayonlari paydo bo‘ladi. Bunday holda, foydalanuvchi kursorni xato joyiga ko‘chirish orqali xatoni tuzatishi mumkin. Bunday jarayonlar ko‘p matnli so‘zlarga sarflanadigan vaqtni ko‘paytirishga olib keladi. Tekshiruv jarayonini yaxshilashga yordam beradigan uchta yangi matnni tuzatish usuli ko‘rib chiqiladi: Drag-n-Drop, Drag-n-Throw va Magic Key.

- **Drag-n-Drop**. Bu usul foydalanuvchiga kursorni xato ustiga olib borish va uni tuzatish imkonini beradi.
- **Drag-n-Throw.** Ushbu usul foydalanuvchiga xato matnining dastlabki ro‘yxatini klaviatura so‘rovlari ro‘yxatidan olish imkonini beradi.
- **Sehrli kalit.** Ushbu usul foydalanuvchiga tuzatish kiritish imkonini beradi va neyron tarmoq tomonidan aniqlangan xatolar ro‘yxatini ko‘rsatadi.

Mobil qurilma foydalanuvchilarga yozgan matnni xato holatiga qaytarish uchun Backspace tugmachasini surish imkonini berdi va xatoni tuzatgandan so‘ng,

Backspace tugmasini yana bosish orqali ushbu matnni tiklang. Xato joylarini aniqlash uchun ushbu usul lug‘atdagi matn va so‘zlarni tahrirlash masofasini solishtirish uchun eugene Mers algoritmidan foydalanishi mumkin. Xatolarni aniqlash algoritmi bu ishning asosiy cheklovidir: u faqat imlo xatolarini aniqlaydi. U grammatik xatolar yoki so‘zlarning noto‘g‘ri ishlatilishini aniqlamasligi mumkin.

Xatolarni tuzatish uchun NLP algoritmlari

Drag-n-Throw va Magic Key qo‘llaniladigan tuzatishlar asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni topish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) neyron tarmoqlaridan foydalanadi. SHuning uchun biz tegishli usullar haqida qisqacha ma’lumot beramiz. An’anaviy xatolarni tuzatish algoritmlari tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berish uchun N-gramm masi va qatorni tahrirlash masofasidan foydalanadi. Asl satrdagi har bir so‘z uchun avvalo lug‘atdan mosliklarni qidiradi va har bir mumkin bo‘lgan moslikni N-grammli ma’lumotlar to‘plamidagi chastotasi va qatorni moslashtirish algoritmi asosida almashtiradi. Eng yuqori matn tuzatish sifatida tavsiya etiladi. So‘nggi paytlarda chuqur neyron tarmoqlari NLP tadqiqotlarida ularning umumlashtirilishi va an’anaviy algoritmlarga qaraganda ancha yaxshi ishlashi tufayli mashhurlikka erishdi. Konvolyusion neyron tarmoqlari (CNN) va takroriy neyron tarmoqlari (RNN) NLP vazifalari uchun keng qo‘llaniladi va ko‘pincha kodlovchi-dekoder deb ataladigan tuzilishga amal qiladi, bu yerda modelning bir qismi kirish matnini xususiyat vektoriga kodlaydi va keyin vektorni dekodlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov, N. S., Turg‘unova, N. M., Turg‘unov, B. X., & Samijonov, B. N. (2025). Algorithm for analysis of texts in Uzbek language. In Artificial Intelligence and Information Technologies (pp. 511-515). CRC Press.
2. Cassia Valentini-Botinhao, Xin Vang, Shinji Takaki, Junichi Yamagishi. Speech enhancement for a noise-tolerant text-to-speech synthesis system using deep recurrent neural networks [Onlayn]
3. Agiomyrgiannakis, Rob Klark, Rif A. Saurous. Tacotron: towards end-to-end speech synthesis [Onlayn].
4. Vey Ping, Kainan Peng, Endryu Gibianskiy, Sercan O. Arik, Ajay Kannan, Sharan Narang, Jonatan Rayman, Jon Miller. Deep Voice 3: Convolutional Sequence Learning (Onlayn) with text-to-speech conversion.
5. Jonatan Shen, Ruoming Pang, Ron J. Vayss, Mayk Shuster, Navdip Jaytli, Zongheng Yang, Zhifeng Chen, Yu Chjan, Yuxuan Vang, RJ Skerri-Ryan, Rif A. Saurous, Yannis Agiomyrgiannakis, Yongxui Vu. Natural TTS Synthesis by WaveNet Conditioning on Mel Spectrogram Projections [Onlayn].

6. Quinn, K. M., Monro, B. L., Colaresi, M., Crespin, M. H. va Radev, D. R. (2010). How to analyze political attention with minimal assumptions and costs. American Journal of Politology, 54, 209–228.

7. Niyozmatova, N. A., Mamatov, N. S., Dusonov, X. T., Samijonov, B. N., & Samijonov, A. N. MFCC-GMM Method for Speaker Identification by Voice.

8. Baumer, E. P., Mimno, D., Guha, S., Quan, E. va Gay, G. K. (2017). Comparing Grounded Theory and Subject Modeling: Extreme Divergence or Unlikely Convergence? Journal of the Association for Information Science and Technology, 68, 1397–1410.

9. Strauss, A. va Corbin, J. (1998). Foundations of qualitative research: Techniques and procedures for developing grounded theory (2nd ed.). A Thousand Oaks: Sage.

10. Reynard, J. C. (2008). Introduction to Communication Studies (4th ed.). Boston: McGraw-Hill.

11. Sebastiani, F. (2002). Machine learning in automated text categorization. ACM Computing Surveys (CSUR), 34, 1–47.

12. Zilola Xusainova Yuldashevna. NLPning zamonaviy algoritmlari va konsepsiyalari // журнал искусство слова №1 (2023) https://doi.org/10.5281/7679911

SINTAKTIK PARSING TURLARI

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna,
doktorant DSc
abdullayevaoqila@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. NLPning muhim yo‘nalishlaridan biri matnlarni sintaktik tahlil qilishdir. So‘nggi tadqiqotlar natijasida tillarda sintaktik tahlilni amalga oshiruvchi parser dasturlar tuzildi. Gap darajasidagi sintaktik ma’lumotlarni ifodalash uchun ko‘plab murakkab qoidalarni tahlil qilish kerak. Ushbu maqolada sintaktik tahlil turlari ichida keng tarqalgan dependency (tobelik munosabati tahlili) va constituency (tarkibiy tuzilma tahlili) parsing turlari muhokama qilindi. Kontekstdan mustaqil grammatika (CFG), ya’ni constituency tahlil (yoki birikma tuzilmasi asosidagi tahlil), gapning sintaktik tuzilmasidagi iyerarxik so‘z birikmasini treebank orqali tasvirlashga asoslanadi va bu yondashuv ilk tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Bog‘liqlik (yoki dependency) grammatikasi esa sintaktik va semantik tahlil uchun keng qo‘llaniladigan yana bir mashhur model bo‘lib, unda so‘zlar bevosita bog‘liqlik munosabatlari orqali birikadi va ushbu bog‘liqliklarga ular orasidagi sintaktik yoki semantik munosabatlarni ko‘rsatuvchi teglar belgilanadi. Har ikkala parsing turi tillarda gaplarni sintaktik tahliliga tatbiq qilinib, korpuslarda qo‘llanilmoqda, lekin resurs va grammatik tuzilishiga ko‘ra olinadigan natijalar farqliligi kuzatilmoqda. Maqolada parsing turlarining grammatik xususiyatlari o‘zaro taqqoslandi.

Abstract. One of the important areas of NLP is the syntactic analysis of texts. As a result of recent research, parser programs that perform syntactic analysis in languages have been created. To express syntactic information at the sentence level, it is necessary to analyze many complex rules. This article discusses the most common types of syntactic analysis: dependency (dependence relation analysis) and constituency (structural analysis) parsing. Context free grammar (CFG), that is, constituency analysis (or analysis based on the structure of a phrase), is based on describing a hierarchical phrase in the syntactic structure of a sentence through a tree bank, and this approach is the first object of research. The grammar of dependence (or dependency) is another popular model widely used for syntactic and semantic analysis, in which words are connected through direct dependency relations, and tags are assigned to these connections, indicating the syntactic or semantic relations between them. Both types of parsing are applied to the syntactic analysis of sentences in languages and are used in corpora, but there is a difference in the results

obtained according to the resource and grammatical structure. In the article, the grammatical features of the types of parsing were compared.

Аннотация. Одним из важных направлений НЛП является синтаксический анализ текстов. В результате последних исследований были созданы программы-параметры, выполняющие синтаксический анализ в языках. Для выражения синтаксической информации на уровне предложения необходимо проанализировать многие сложные правила. В данной статье обсуждаются наиболее распространенные типы синтаксического анализа: анализ зависимости (анализ зависимости отношений) и синтаксический анализ (структурный анализ). Контекст-свободная грамматика (KFG), то есть анализ составляющих (или анализ, основанный на структуре словосочетания), основан на описании иерархического словосочетания в синтаксической структуре предложения через банк деревьев, и этот подход является первым объектом исследования. Грамматика зависимости (или зависимости) - это еще одна популярная модель, широко используемая для синтаксического и семантического анализа, в которой слова связаны посредством прямых зависимых отношений, и этим связям присваиваются теги, указывающие на синтаксические или семантические отношения между ними. Оба типа синтаксического анализа применяются к синтаксическому анализу предложений в языках и используются в корпусах, но есть разница в результатах, полученных в соответствии с ресурсом и грамматической структурой. В статье сравнивались грамматические особенности типов синтаксиса.

Kalit so‘zlar: *sintaktik parsing, parser, dependency parsing, constituency parsing, teg.*

NLPda parsing – matnning grammatik tuzilishini, gap bo‘laklarining vazifasini va matn tarkibidagi so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun tahlil qilish jarayoni hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, tahlilning asosiy vazifasi so‘zlarning qanday birikib gap hosil qilishi va gap tuzilishini belgilovchi qoidalarni tahlil qilish bo‘lsa, boshqa tomondan, NLP amaliyotlari nuqtayi nazaridan tahlil mashina tarjimasi, savol-javob tizimlari, axborot ajratib olish, sentiment tahlil va matn yaratish kabi ko‘plab vazifalar uchun muhim hisoblanadi.

Har bir tabiiy tilning asosiy tuzilishi mavjud bo‘lib, odatda bu “grammatika” deb ataladi. Grammatika o‘z navbatida morfologiya va sintaksis kabi bo‘limlarga ajratilib o‘rganiladi. Sintaksisning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, so‘zlar birlashib, so‘zlar guruhi yoki so‘z birikmasi kabi tarkibiy qismlarni hosil qiladi va ular bir

butun birlik sifatida harakat qiladi. Ushbu tarkibiy qismlar o‘zaro birlashib, yirikroq birliklarni va oxir-oqibatda gaplarni hosil qilishi mumkin. Tahlil jarayoni ko‘pincha maxsus grammatik qoidalarga tayangan holda amalga oshiriladi, bu grammatik qonunlar sintaktik tuzilmalarni aniq shakllantirishga xizmat qiladi.

Sintaktik parsing turlari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilganimizda, dependency parsing, constituency parsing, kombinator kategoriyali grammatika (CCG), bosh so‘zga asoslangan birikma tuzilmasi grammatikasi (HPSG), leksik-funksional grammatika (LFG), mavhum ma’no tasviri (AMR), minimal rekursiv semantika (MRS), universal tushunchaviy-kognitiv annotatsiya (UCCA) hamda mantiqiy tahlilga yo‘naltirilgan bir nechta tahlil turlarini o‘rganish mumkin [1]. Ushbu grammatik yo‘nalishlarning barchasi so‘nggi yillarda tadqiq qilinib, ulardan ayrimlari kuchli neyron tarmoqlar va kontekstual oldindan o‘rgatilgan so‘z tasvirlarining (representations) paydo bo‘lishi sababli tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur tadqiqotimizda faqatgina dependency va constituency parsing masalasiga to‘xtalamiz.

Dependency parsing - bu tilshunoslik va tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi muhim tadqiqot mavzusidir, chunki u so‘zlar orasidagi grammatik bog‘lanishlarni aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuvning rivoji, tilshunoslikni chuqurroq tushunishga imkon beradi va tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) samarali foydalaniladi. Ilgari ilmiy ishlar qaramlikni yoki bog‘liqlikni aniq tahlil qilishda grammatika qoidalariga asoslangan metodlarga tayangan bo‘lsa, hozirgi kunda statistik va sun’iy intellekt asosidagi usullar va modellar ko‘plab tillarda yuqori samarali natijalar ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, transformer arxitekturalari (masalan, BERT va GPT) tilning sintaktik va semantik strukturalarini tushunishda katta yordam beradi.

Konstituent tahlil (constituency parsing) sintaktik tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. 1-rasmda konstituent daraxtining namunasi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu yerda tugunlar konstituent segmentlari, ya’ni frazalar sifatida namoyon bo‘lgan. Konstituent tahlilning asosiy maqsadi ushbu frazalarni belgilash va ularning o‘zaro munosabatlarini aniqlashdan iboratdir. Bu parsing turi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilganimizda, gap tuzilishida qat’iy so‘z tartibi mavjud tillarda ko‘proq mavjudligini kuzatish mumkin. Erkin so‘z tartibli tuzilmalarga ega tillarda frazalarni ajratish muammolidir. Chunki turkiy tillarda erkin so‘z tartibi mavjud (SOV asosiy bo‘lsa-da), bu esa fraza tuzilmasini qat’iy daraxtlarda ifodalashni qiyinlashtiradi. Dependency tahlil ko‘proq mos keladi: chunki u har bir so‘z orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi va agglyutinativ tillar uchun ancha samaraliroq hisoblanadi. Shu bois, Universal Dependencies (UD) loyihasi ham turkiy tillar uchun aynan dependency parsing asosida korpuslar yaratmoqda. Quyidagi gapni konstituent parse daraxtida tahlil qilamiz: *Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari Nargiza Rahmatullayeva*

tantanali marosimni ochib berar ekan, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati haqida atroflicha to‘xtalib, bu borada jonkuyar, fidoyi ziyolilarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidladi.

O‘zbek tili morfoanalizatorida (https://uznatcorpara.uz/) POS teglangan:

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi[[NER]] Surxondaryo viloyat bo‘limi[[NER]] rahbari[[N]] Nargiza Rahmatullayeva[[NER]] tantanali[[JJ]] marosimni[[N]] ochib berar[[VB]] ekan[[VB]], mamlakatimizda[[N]] ma’naviy-ma’rifiy[[JJ]] sohada[[N]] amalga oshirilayotgan[[IB]] islohotlar[[N]], ularning[[P]] mazmun-mohiyati[[N]] haqida[[II]] atroflicha[[RR]] to‘xtalib[[VB]], bu[[P]] borada[[II]] jonkuyar[[JJ]], fidoyi[[JJ]] ziyolilarimizning[[JJ]] hissasi[[N]] beqiyos[[JJ]] ekanini[[VB]] ta’kidladi[[VB]].



1-rasm. Constituent daraxti namunasi

Parse daraxti misolida ko‘rish mumkinki, gap tuzilmasini tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish murakkablik tug‘diradi.

Bu sintaktik parsing turlari yondashuviga ko‘ra turli grammatik munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi [4].

Constituency grammar (tarkibiy tuzilma grammatikasi) - Constituency grammatika, shuningdek, birikma strukturasi grammatikasi deb ham ataladi. Buning sababi, u tarkibiy birikma munosabatiga asoslanadi. Bu bog‘lanish grammatikasining qarama-qarshi turidir.

Constituency grammatikada tarkiblar har qanday so‘z, so‘zlar guruhi yoki birikmalar bo‘lishi mumkin. Constituency grammatikadagi asosiy maqsad – har qanday gapni uning tarkiblariga ajratish va ularning xususiyatlari asosida tuzishdir.

Tarkibiy tuzilma grammatikasi va tarkib munosabatining xususiyatlari:

– barcha tegishli ramkalar gap tuzilishini tarkibiy birikma munosabati orqali ko‘radi;

– tarkibiy munosabatni hosil qilish uchun biz lotin va yunon grammatikalaridagi subyekt-predikat bo‘linishini qo‘llaymiz;

– tarkibiy tuzilma grammatikasida gap tuzilishini ot iborasi (NP) va fe’l iborasi (VP) nuqtayi nazaridan o‘rganamiz. Constituency grammatika har qanday gapni uchta tarkibga ajratishi mumkin: subyekt, predikat va obyekt.

– Tarkibiy tuzilma grammatikasi kontekstsiz va dependency grammatikalarining cheklovlarini hal qilishda yaxshiroq ishlaydi:

– bu yondashuv usuli tilga xos emas, bu esa bir xil modelni bir nechta tillarda ishlatishni yoki tillar o‘rtasida almashishni osonlashtiradi, shu bilan boshqa ikki grammatik turdagi ko‘p tillilik muammosini hal qiladi;

– bu tahlil turida tahlil daraxtini ishlatganligi sababli gapning tarkiblari o‘rtasidagi iyerarxik munosabatni ifodalashni osonlashtiradi va bu boshqa tasvirlash grammatikalariga nisbatan ko‘proq tushunarli va intuitivdir;

– tarkibiy tuzilma grammatikasi boshqa usullarga nisbatan soddaroq va amalga oshirish osonroq bo‘lib, masalan, bog‘lanish grammatikasi kabi formalizmga qaraganda tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun qulayroqdir;

– bu tahlil usuli xatolarga chidamli va shovqinli yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni boshqarishda yaxshi ishlaydi, shuningdek, so‘z birikmalari yoki jumlalarni bog‘lashda qo‘llaniladigan birlashtiruvchi vosita sifatida koordinatsiyani boshqarishda yaxshiroq ishlaydi.

Dependency (Bog‘liqlik) grammatikasi. Bog‘liqlik grammatikasi Constituency grammatikaning qarama-qarshi turidir va bog‘lanish munosabatiga asoslanadi. U Constituency grammatikaga qarama-qarshi, chunki u birikma tugunlarini o‘z ichiga olmaydi. Bog‘lanish grammatikasi gapdagi so‘zlar bir-biriga bog‘lanish munosabatini tahlil qiladi. Bu so‘zlar bog‘lanish grammatikasida yo‘naltirilgan havolalar orqali bir-biriga ulanadi. Kesim gap tuzilmasining markazi sifatida qaraladi. Bog‘lanish grammatikasi gapdagi so‘zlarni ularning bog‘lanishlariga qarab tartiblaydi. Har bir sintaktik birlik kesimga nisbatan yo‘naltirilgan belgilash orqali bog‘lanadi. Bu sintaktik birliklar **bog‘lanishlar** deb ataladi. Gapdagi so‘zlardan biri ildiz sifatida ishlaydi va boshqa barcha so‘zlar, o‘sha so‘zni hisobga olmaganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ildiz bilan o‘z bog‘lanishlari orqali bog‘lanadi. Ushbu bog‘lanishlar gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi va dependency grammatikasi so‘zlar o‘rtasidagi struktura va semantik bog‘lanishlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Bog‘lanish grammatikasining ba’zi cheklovlari mavjud, ularni quyida tushunib chiqamiz:

- ma’lumotlarni annotatsiya qilish: Bog‘lanish tahlilini o‘rganish modelini o‘qitish uchun belgilangan ma’lumotlar kerak bo‘ladi, bu esa vaqtni talab qiladi va olish qiyin;
- uzoq masofadagi bog‘lanishlarni boshqarish: Ba’zi hollarda, gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar juda uzoqda bo‘lishi mumkin, bu esa gapning grammatik tuzilishini aniq olishni qiyinlashtiradi;
- ellipsis va koordinatsiyani boshqarish: Bog‘lanish grammatikasi, shuningdek, so‘zlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlar bilan tushuntirilmagan hodisalarni, masalan, ellipsis va koordinatsiyani boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu hodisalar odatda Constituency grammatika orqali ko‘rib chiqiladi.

Dependency grammatikasining cheklovlarini yengish uchun Constituency grammatika qo‘llanilishi mumkin, bu esa kamroq kuchli bo‘lsa-da, lekin ko‘proq tushunarli va amalga oshirish osonroqdir. Shuningdek, Constituency va Dependency grammatikalari birgalikda qo‘llanadigan gibrid yondashuvdan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin.

Tarkibiy tuzilma grammatikasi va bog‘liqlik grammatikasini taqqoslash: Constituency grammatika so‘zlarni birikma va jumlalarga guruhlashga e’tibor qaratadi, dependency grammatikasi esa har bir so‘z o‘rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Har bir so‘z gapda bog‘lanish grafida tugun sifatida ifodalanadi va tugunlar o‘rtasidagi qirralar so‘zlar o‘rtasidagi grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Bog‘lanish grammatikasi ayrim tillar va NLP vazifalari uchun ko‘proq kuchli bo‘lishi mumkin, chunki u so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqroq tushuntiradi, ammo buni amalga oshirishda yanada murakkab va kamroq intuitivdir. Constituency grammatika esa ko‘proq tushunarli va amalga oshirish osonroq, lekin ifodalashda kamroq kuchli bo‘lishi mumkin. Quyidagi jadvalda ikki parsing turining o‘xshash va farqli jihatlari aniq ko‘rsatilgan.

Dependency va Constituency Parsing taqqoslanishi

Dependency Parsing		Constituency Parsing
So‘zlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash		Birikmalar tuzilishini aniqlash
	Sintaktik tahlil uchun ishlatiladi	
Graf asosida tahlil		Daraxt asosida tahlil
	NLP modellari uchun muhim	
Universal Dependencies (UD)		Phrase Structure Grammar (PSG)
	Taglangan korpus talab qiladi	
Ko‘p tillar uchun moslashuvchan		Ko‘pincha ingliz tili uchun ishlatiladi

Bog‘liqlik tahlili sintaktik va semantik tahlil uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, u bi-leksikallashgan bog‘liqlik grammatikasiga, ya’ni ikki so‘z munosabatiga asoslanadi. Bu yerda barcha sintaktik va semantik hodisalar bi-leksikallashgan bog‘liqliklar orqali ifodalanadi. 2-rasmda bog‘liqlik tahlilining namunaviy daraxti keltirilgan. Tahlilda UD universal dependency teglaridan foydalanilgan. Turli bog‘liqlik analizatorlarini baholashda asosiy mezon sifatida bog‘liqlik aniqligi qo‘llaniladi, bu esa teglanmagan birikma ko‘rsatkichi (UAS – *Unlabeled Attachment Score*) va teglangan birikma ko‘rsatkichi (LAS – *Labeled Attachment Score*) bilan o‘lchanadi. Boshlang‘ich bosqichlarda bog‘liqlik tahlili daraxt shaklida, ya’ni proyektiv yoki no-proyektiv tuzilmalar doirasida cheklangan edi. So‘nggi yillarda esa bog‘liqlik grafigi asosidagi tahlilga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bir tomondan, dastlabki bog‘liqlik daraxtlari asosan sintaktik yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi kunda so‘zlar orasidagi semantik munosabatlarga e’tibor kuchaymoqda.



2-rasm. Dependency daraxti namunasi

Tarkibiy tuzilma tahlili Chomsky iyerarxiyasiga binoan qat’iy qoidalarga tayangani bois, qat’iy so‘z tartibli tillarda (masalan, ingliz tilida SVO) yaxshi ishlaydi, chunki grammatik munosabatlar asosan so‘zlarning tartibi bilan ifodalanadi. Ammo erkin so‘z tartibli tillarda bir fikrni turlicha tartibda ifodalash mumkin bo‘lganligi tufayli, an’anaviy tuzilmaviy grammatikalar murakkablashadi. Bog‘liqlik va tarkibiy tuzilma tahlil usullarida gaplarni tahlil qilish jarayoni ham farq qiladi.



3-rasm. Constituency parsing asosida sintaktik tahlil qilish jarayoni

Amaliy jihatdan, bugungi kunda ko‘pchilik zamonaviy parserlar bog‘liqlik paradigmasidan foydalanadi yoki dependency daraxtlarni hosil qiladi. Bunga sabab – Universal Dependencies kabi standartlarning joriy qilinishi va bog‘liqlikning kross-lingvistik (cross-lingual generalization) moslashuvchanligidir. Bu holat esa, ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida muhim bo‘lib, ko‘p tillilik (multilingualism) va kam resursli tillarni qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynaydi. O‘zbek tili erkin so‘z tartibiga ega tillardan biri bo‘lganligi uchun, oxirgi tadqiqotlarda bog‘liqlik tahlili qo‘llash samarali ekanligi xususida yozilmoqda. Chunki constituent daraxtini qurish uchun o‘zbek tilida qat’iy qoidalar asosida birikmalarni aniqlash mushkuldir. Chunki gap bo‘laklari doim bir o‘rinda kelishi yoki kelmasligi ham mumkin. Shuningdek, gaplar egali yoki egasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham bog‘liqlik grammatikasi o‘zbek tilini tahlil qilishda qulay usul bo‘lmoqda.



4-rasm. Dependency parsing asosida sintaktik tahlil qilish jarayoni

Xulosa. Grammatika – bu to‘g‘ri tuzilgan jumlalarni hosil qilish uchun qoidalar sifatida aniqlanadi va tabiiy tillarda muloqotda ishlatiladigan sintaktik qoidalarni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Sintaksis grammatikani tashkil etuvchi tarmoq bo‘lib, tilning jumlalar tuzilishini va shakllanishini o‘rganadi, ya’ni so‘zlar qanday qilib birikmalar, bandlar va jumlalarni hosil qilish uchun tartiblanishini belgilaydi.

Context free grammar – bu tilni tanib olish uchun ishlatiladigan formal grammatika bo‘lib, unda ishlab chiqarish qoidalari yordamida terminal va no-terminal belgilarni almashtirish orqali tilning satrlarini aniqlash ko‘rsatiladi. Constituency grammatika - bu tilning jumlalar tuzilishini tahlil qilishda ishlatiladi va jumlalar ma’lum grammatik funksiyaga ega bo‘lgan kichik birliklarga - tarkiblarga ajratilishi mumkinligi g‘oyasiga asoslanadi. Bog‘lanish (Dependency) grammatikasi - bu NLPda so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar yordamida jumlaning grammatik munosabatlarini tahlil qilish uchun ishlatiladigan usul bo‘lib, so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar asosida jumla tuzilishini shakllantiriladi. O‘zbek tilida CFG (kontekstsiz grammatika) va bog‘liqlik grammatikalari asosida, kross-domen va kross-lingvistik muhitlarda parsing masalalarini yechish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, qo‘shma modellar (joint models) va parser qo‘llanmalari (parser

applications) nuqtayi nazaridan, ko‘p vazifali o‘rganish (multi-task learning) va oldindan o‘rgatilgan (pretraining) arxitekturalar asosida ham o‘zbek tili matnlarini sintaktik tahlil qiluvchi dasturlar ishlab chiqilishi va samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meishan Zhang. A Survey of Syntactic-Semantic Parsing Based on Constituent and Dependency Structures. Science China Press and Springer -Verlag Berlin Heidelberg, 2017.
2. Zong Chengqing. Statistical Natural Language Processing. - Tsinghua University Press, 2013.
3. Dan Jurafsky and James H. Martin. Speech and Language Processing (3rd (draft) ed.). Prentice Hall PTR, 2019.
4. https://www.scaler.com/topics/nlp/introduction-to-grammar-in-nlp/
5. James Henderson. Discriminative training of a neural network statistical parser. In Proceedings of ACL, pages 95–102, 2004.
6. Jan Hajic, Massimiliano Ciaramita, Richard Johansson, Daisuke Kawahara, and et al. The CoNLL-2009 shared task: Syntactic and semantic dependencies in multiple languages. In Proceedings of CoNLL 2009: Shared Task, pages 1–18, 2009.
7. Stephan Oepen, Marco Kuhlmann, Yusuke Miyao, Daniel Zeman, Silvie Cinkova, Dan Flickinger, Jan Ha´jic, and Zdenka Uresova. Semeval 2015 task 18: Broadcoverage semantic dependency parsing. In Proceedings of SemEval, pages 915–926, 2015.

O‘ZBEK TILI MATNLARIDA UNDOV GAPLARNI TAHLIL QILISHNING QOIDAGA ASOSLANGAN ALGORITMI

Sharipov Maksud Siddiqovich,
Texnika fanlari nomzodi, dotsent
maqsbek72@gmail.com
Urganch davlat universiteti “Kompyuter ilmlari” kafedrasi dotsenti

Adinayev Xushnudbek Saylboyevich,
hushnudbek.adinaev@gmail.com
TATU Urganch filiali o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i

Yusupova Mukaddas Muratovna,
mukaddas0783@gmail.com
Urganch Ranch texnologiya universiteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA. Bu ishda biz o‘zbek tili matnlari undov gaplarini tahlil qilishning qoidaga asoslangan algoritmini ishlab chiqishni ko‘rib chiqamiz. Undov gaplar — gaplovchi shaxsning his-tuyg‘ularini (hayrat, quvonch, g‘azab, achinish, chaqiriq va h.k.) ifodalovchi gaplar bo‘lib, ko‘pincha undov so‘zlar, emotsional ohang yoki maxsus so‘z tartibi bilan ajralib turadi. O‘zbek tili kam resursli til hisoblangaligi sababali hozirgacha bunday algoritmlar ishlab chiqilmagan. O‘zbek tili matnlaridagi gaplarning undov belgilari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilganligini aniqlash masalasini yechishning qoidaga asoslangan algoritmi ishlab chiqilgan va qoidalar bazasi yaratilgan.

ABSTRACT. In this work, we consider the development of a rule-based algorithm for analyzing exclamatory sentences in Uzbek texts. Exclamatory sentences are sentences that express the speaker's emotions (surprise, joy, anger, pity, appeal, etc.) and are often distinguished by exclamatory words, emotional tone, or special word order. Due to the fact that the Uzbek language is considered a low-resource language, such algorithms have not been developed so far. A rule-based algorithm for solving the problem of determining whether exclamation marks are placed correctly or incorrectly in sentences in Uzbek texts has been developed and a rule base has been created.

АННОТАЦИЯ. В данной работе рассматривается разработка алгоритма анализа восклицательных предложений в узбекских текстах на основе правил. Восклицательные предложения — это предложения, которые выражают чувства говорящего (удивление, радость, гнев, жалость, восклицание и т. д.) и часто характеризуются восклицательными словами, эмоциональным тоном или особым порядком слов. В связи с тем, что узбекский язык считается языком с ограниченными ресурсами, такие алгоритмы пока не разработаны. Разработан алгоритм на основе правил и создана база правил для решения

задачи определения правильности или неправильности расстановки восклицательных знаков в предложениях узбекских текстов.

Kalit so‘zlar. *Tinish belgilari, NLP, undov belgisi, undov gaplar.*

KIRISH

O‘zbek tili matnlarida undov belgisining xato yoki to‘g‘ri qo‘yilganligini aniqlash (punktuatsion tahlil) masalasi tabiy tilni qayta ishlash (NLP) masalalaridan biri hisoblanadi. Punktuatsion tahlil tabiiy tilni qayta ishlashda mashinali tarjima, matn tahlili, semantik tahlil, sintaktik tahlil kabi masalalarni hal qilishda ishlatiladi.

Punktatsiya qoidalari va me’yorlarini bilish esa yozma fikrni aniq va to‘g‘ri, mantiqli va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda muhimdir. Tinish belgilarining asosiy vazifasi yozuvda ifodalanadigan nutqning fikriy bo‘linishini, gapning qanday qismlarga ajralishini va u bo‘laklarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangiga ko‘ra qo‘llaniladi. Globallashuv davrida axborot texnologiyalari kun sayin hayotimizdan chuqur o‘rin egallamoqda. Bugun yozma nutq deyarli axborot texnologiyalari orqali amalga oshmoqda. Biron matn yoki xabarni elektron holatda yozilar ekan, bevosita tinish belgilariga ham murojaat qilinadi. Undov belgisi o‘zbek yozuvlarida XX asrdan ko‘pchilik tinish belgilari kabioha davrning yagona adabiy til me’yorlariga amal qilingan “Turkiston viloyatining gazeti”da muntazam qo‘llangan.[1].

METODOLOGIYASI

Tarkibida emotsionallikni kuchaytiradigan qanday, qanchalik, qanchalar, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik kabi so‘zlar mavjud bo‘lgan gaplar oxirida undov belgisi qo‘yiladi.

Yashash qanday yaxshi, tag‘in shunday katta, go‘zal shaharda!

Emotsionallik darajasi kuchli bo‘lgan ritorik so‘roq gaplar oxirida ba’zan undov belgisi qo‘yiladi.

Ona o‘z bolasiga yomonlikni ravo ko‘radimi!

1. Undov gapning mazmuni (semantik belgi)

- Gapda **gaplovchining his-tuyg‘usi, emotsiyasi yoki kayfiyati** ifodalanadi: hayrat, quvonch, g‘azab, chaqiriq, og‘riq, achinish va hokazo.

Misollar:

- Voy, qanday go‘zal manzara!
- Oh, belim!

2. Undov so‘zlarning ishtiroki (leksik belgi)

Undov gaplarda ko‘pincha maxsus **undov so‘zlar** ishlatiladi:

Kategoriya	Namuna undov so‘zlar
Hayrat	Voy, opa-ey, eh-ha, hay-hay
Og‘riq	Oh, o‘h
Achinish	Bechora, afsus, voy-bo‘ldim
Chaqiriq	Qani, yur, ana, mana

Qoidasi: Gapda ushbu undov so‘zlardan biri qatnashsa, bu gap undov gap bo‘lishi ehtimoli yuqori.

3. Gap oxiridagi punktuatsiya belgisi (grafik belgi)

Undov gaplar odatda quyidagi belgilar bilan tugaydi:

- ! — Undov belgisi
- ?! — Hayrat, so‘roq va undovni birlashtirgan belgilar

Qoidasi: Gap ! yoki ?! bilan tugasa, bu undov gap bo‘lish ehtimoli yuqori.

4. Gap tuzilmasi (sintaktik belgi)

- Undov gaplar ko‘pincha **egasiz yoki iboraviy** bo‘ladi:
  - "Voy!" – egasiz
  - "Qani yur!" – buyruq + chaqiriq
  - "Bechora bola!" – iboraviy, emotsional

Qoidasi: Gapda ot+ot, undov+ot, yoki buyruq shaklida tuzilgan qisqa gaplar bo‘lsa — undov gap bo‘lishi mumkin.

5. Gapning ohangidan foydalanish (nutq belgi)

Yozma matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ohangni aniqlash qiyin, lekin:

- ! belgisi
- undov so‘zlar
- qisqa va emotsional tuzilma

— bu belgilar **emotsional ohang** borligini ko‘rsatadi.

6. Chaqiriq va buyruqni ifodalovchi gaplar

- Ko‘pincha harakatga da’vat yoki tezkor amal ifodalangan:
  - "Qani boshladik!"
  - "Yur, ketdik!"

Qoidasi: Gap chaqiriq yoki topshiriq bo‘lsa, lekin emotsional tusda bo‘lsa — undov gap hisoblanadi.

UNDOV GAPLAR TAHLILINING ALGORITMI

Ushbu maqolada matndagi undov gaplarni tahlil qilish aloritmi ishlab chiqildi. Aloritm matndagi undov belgisini to‘g‘ri qo‘yilgan yoki noto‘g‘ri qo‘yilganligini tahlil qiladi. Quyida algortmning ishlash jarayonini ko‘ib chiqamiz.

1. Dasturni boshlash.
2. Dasturga matnni kiritish.

3. Tokenizatsiya jarayoni.
4. Ikkita sikl ochiladi. Dastlab sikl gaplarning sonigacha keying sikl gapdagi so‘zlar sonigacha, Xar bir so‘zni emotsionallikni kuchaytiradigan so‘zlar bor yo‘qligi bilan tekshiradi. Agar shunday so‘z bo‘lsa ekranga undov gap deb chiaradi.
5. Dasturni yakunlash.



1-rasm: O‘zbek tili matnlarida undov gaplarni aniqlash algoritmi.

NATIJA

Dastur 30 turdagi matn, 137 848 gap, 1 642 860 so‘zdan iborat Uzbek korpusidagi matnlar bilan sinovdan o‘tkazildi. Korpusda 3492 ta undov gap mavjud. Dastur 3492 ta undov gapni topdi va 111 tasini undov gap emas deb topdi. Jami 133 945 undov emas gapning 300 tasini undov gap deb topdi. Bu 74.3% aniqlikni beradi.

№	Matn turlari	Gaplar soni	Undov gap		Undov gap emas		F1 Score
			undov gap	undov gap emas	undov gap	undov gap emas	
	Adabiyot	11659	1143	11	14	10491	98,9
	Anatomiya	10565	1	1	1	10562	50,0
	Biologiya	4757	0	0	3	4754	0,0

	Botonika	2717	2	1	1	2713	66,7
boshlagan ushbu ta’limotlar natijasida kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasi kabi bir qancha yo‘nalishlar vujudga keldi [1]. Jahon tilshunosligida ushbu sohada diqqatga sazovor amaliy ishlar bajarilgan bo‘lib, Chomskiyning Transformational grammar (Transformatsion grammatika), Dependency grammar (bog‘lanishli grammatika), Lexical functional grammar (leksik-funksional grammatika), Cognitive grammar (Kognitiv grammatika), Probabilistic parsing (Ehtimolli bog‘lanish), Combinatory Categorial grammar (Kombinatorlik kategorial grammatika) kabi nazariyalari amaliy tilshunoslik uchun xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari, gap bo‘laklarini modellashtirish va analiz qilish uchun kuchli NLP algoritmlari mashina xotirasi bilan ishlaydigan DeepL va Google Translate kabi tarjima dasturlarida ishlab chiqilgan. Tilni qayta ishlash jarayonida gap bo‘laklarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Modellashtirish jarayonida tadqiqotchi obyektni emas, uning modelini o‘rganadi [1]. Til modellarini ishlab chiqish tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP – natural language processing) asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, til modellarini ishlab chiqish tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi va boshqa sohalarda amalga oshadigan avtomatlashtirish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha modellar tuziladi va namunalar bo‘yicha tahlil qilinadi.

Sodda gap – bir hodisa yoki fikrni ifodalovchi, odatda bir predikativ markazga ega bo‘lgan gapdir [2]. Sodda gaplar o‘z ichida turli kategoriyalar bo‘yicha guruhlarga bo‘linadi. Ular orasida sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va undov kabilarga bo‘linadi. So‘zlovchi yoki yozuvchi obektiv borliqdagi narsa, hodisalarni gap orqali aks ettiradi. Bunda o‘z oldiga har xil maqsad qo‘yishi mumkin. Masalan u gap orqali biror voqea yoki hodisa haqida xabar beradi yoki o‘ziga aniq bo‘lmagan narsa haqida savol beradi va savolga javob olishni istaydi yoki o‘z xohishini (buyruq, iltimos kabi) ifodalashni ko‘zda tutadi. Ana shu ifoda maqsadiga nuqtayi nazaridan gaplar darak, so‘roq, buyruq kabi turlarga bo‘linadi [3]. Gaplarni modellashtirish masalasida bajariladigan asosiy vazifalardan biri bu – gapni sintaktik bo‘laklarga ajratish hisoblanadi. Sodda gaplar bir necha ega va ikkinchi darajali bo‘laklardan va bitta kesimlik belgisidan iborat bo‘ladi. (Shu sababli keyingi o‘rinlarda ega – E, to‘ldiruvchi – T, hol – H, aniqlovchi – A, undov gapni hosil qiluvchi birlik – U.b, so‘roq gapni hosil qiluvchi birlik – S.b belgilari bilan belgilanadi). Shu jihatdan sodda gaplardan darak gapning gap bo‘laklari bilan kelishiga ko‘ra quyidagicha modellashtirish mumkin.

So‘zlovchining biror voqea-hodisa haqida xabar berishi yoki ma’lum predmetda muayyan belgining mavjudligini tasdiq yoki inkor qilishini ifodalaydigan gap darak gap deyiladi [4]. O‘zbek tili lug‘at tarkibi boy va grammatik xilma-xillikka ega til bo‘lgani uchun ham til modellarini tuzish nisbatan murakkablik tug‘dirishi aniq. Shunday bo‘lsada, sodda gaplarning turlari bo‘yicha modellar

yaratish sintaktik analizatorning rivojiga ham hissa qo‘shmay qolmaydi. O‘zbek tilida darak shakldagi sodda gaplarning modellari quyidagi jadvalda namunalar orqali keltirilgan:

1-jadval. Darak shakldagi sodda gaplarning modellari

E + A + T + H + K	U qadrli mehmonlarni ochiq chehra bilan qarshiladi.
A + E + T + H + K	Butun qishloq eshonga yetti bukilib ta’zim qilardi.
A1 + A2 + E + T + H + K	Bizning butun qadr-u qimmatimiz tafakkurda birday jamlangan.
E + T + H + K	Nasimiy ham unga ipsiz bog‘langan.
E + K	Ukam keldi.
E + H + T + K	Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda.
E + T + K	Taq-tuq hammaga eshitildi.

Ushbu modellardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida eganing o‘rni har doim ham gapning boshida kelavermaydi. Ammo aksariyat hollarda ushbu qoidani istisno qiluvchi holatlar ham mavjud. Ega, asosan, aniqlovchiga bog‘langanligi uchun ham yo aniqlovchidan oldin, yo aniqlovchidan keyin ishlatiladi. Yuqoridagi misollardan ham buni ko‘rish mumkin. Shuningdek ushbu modellar tabiiy tilni qayta ishlash jarayonini nisbatan osonlashtiradi. Ammo bu modellar orasida **inversiya hodisasiga uchragan sodda darak gaplarning modellari** keltirilmagan.

So‘zlovchining o‘ziga noma’lum bo‘lgan biror voqeani suhbatdoshdan bilib olish istagini, zaruratini ifodalovchi gap so‘roq gap hisoblanadi [4]. Bilamizki so‘roq gaplar uch xil vosita yordamida hosil qilinadi. Bular: so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari, so‘roq ohangi kabilar. Quyida so‘roq shaklidagi sodda gaplarning modellarini berib o‘tamiz (2-jadval).

2-jadval. So‘roq shaklidagi sodda gaplarning modellari

T + T + K (S.b)	Sizni otga ham ishingiz tushib turadimi?
H (S.b) + K	Qachon ketgan?
A + E + K (S.b)	Sizning safaringiz uzoqmi?
E + H (S.b) + T + K	Sen nega ishingni bajarmading?
E + K (S.b)	Men qarab turaymi?
E + H + H (S.b) +K	Biz bugun qayerga boramiz?

So‘roq shakldagi sodda gaplarning modellari orasida so‘roq olmoshi bilan kelgan sodda gaplar ham mavjud bo‘lib, olmosh mustaqil so‘roqqa javob bo‘lib kela olishi va gapda sintaktik bo‘lak vazifasini bajara olishiga ko‘ra hol yoki to‘ldiruvchi vazifasida kela oladi. Shu sababli ham so‘roq gapni hosil qiluvchi birligimizni (S.b) yuqoridagi shaklda qavs ichida berib o‘tdik. Ammo so‘roq shakldagi sodda gaplarning modellari orasida ritorik so‘roq gaplarning modellari mavjud emas.

Buyurish, iltimos, taklif, xohish, o‘git-istak, xitob, ogohlantirish kabi har xil ma’nolarni ifodalovchi gaplar buyruq gaplar hisoblanadi [4]. Buyruq gaplar odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘lib, shu sababli ularning kesimlari ikkinchi shaxs

buyruq maylida ifodalanadi. Shuningdek birinchi va uchinchi shaxs buyruq formalari ham buyruq gaplarning kesimi bo‘lib kela oladi. Quyida buyruq shaklidagi sodda gaplarning modellari berilgan bo‘lib, modellar namunadagi misollar bilan keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Buyruq shakldagi sodda gaplarning modellari

H + K (U.b)	Shoshilmasdan gapir!
K + T (U.b)	Torting, qo‘lingizni!
A + T + H + K	Bugungi ishni ertaga qo‘yma.
T + K	Kitobni o‘qiy qoling
K (U.b)	Chekilmasin!
E + T + H + K	Sizlar darslarni qunt bilan o‘rganinglar.
E + A + T + K	Davronov g‘alaba pasportiga imzo cheksin.

Tilimizda buyruq gapni faqat buyruq shaklidagi sodda gaplarni buyruq fe’li bilan hosil mumkin degan qat’iy qoida mavjud emas. Shu sababli ushbu qoidani istisno qiluvchi buyruq gaplar ham mavjud: *Shu ondayoq minglab ayollarning chinqirishi eshitiladi: - Non, Non, Non.* Tildagi grammatik turfa xillik til modellarini yaratishga ta’sir ko‘rsatadi. Bu yuqoridagi gapdan sezish mumkin.

Darak, so‘roq, buyruq gaplar kuchli his-hayajon bilan talaffuz qilinishi va bu so‘zlovchining ichki his-hayajoni va ruhiy kechinmalarida o‘z ifodasini topishi mumkin. Emotsional qimmat kasb etuvchi bunday gaplarga undov gaplar deyiladi. Mazmuniga ko‘ra undov gaplar darak-undov gap, so‘roq-undov gap, buyruq-undov gaplarga bo‘linadi. Undov gaplar asosiy gap turlarining maxsus undov intonatsiyasi bilan aytilishi asosida vujudga keladi [4].

Undov gaplarning quyidagicha modellarini tuzib chiqdik va ularni misollar yordamida ifodaladik. Quyidan o‘rin olgan modellar o‘zbek tilida eng ko‘p uchraydigan undov gaplarning namunalaridan tuzilgan. Maxsus saralab olingan 500 ta gaplar orasidan undov gaplarning quyidagi modellarini tuzishga muvaffaq bo‘ldik:

4-jadval. Undov gaplarning modellari

U.b + T + K + E	Eh, bog‘larga burkansin vatanim!
T + K + H	Nurga to‘lsin uyingiz!
K + H	Chiqmaysizmi dalaga?!
U.b + A + T + S.b + K	Eh, bahor sayliga nima yetsin!
K	Yurasizmi?!

Undov gaplar yuqorida ta’kidlanganidek, asosiy gaplarga intonatsion ma’no qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi va bu namunalarda keltirilgan gaplarda ham aks etgan.

Zamonaviy lingvistika sohasida tabiiy tillarni sun’iy intellekt tizimlariga integratsiyalash masalasi kun tartibida muhim mavzulardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot doirasida o‘zbek tilidagi sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra modellashtirilishi masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot davomida sodda gaplarning to‘rtta asosiy turiga – darak, so‘roq, buyruq va undov gaplarga oid sintaktik modellar ishlab chiqilib, tahlil qilindi. Har bir tur uchun amaliy qo‘llanmalar va misollar asosida aniq tavsiyalar taqdim etildi.

Avvalo, darak gaplar modellarining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilidagi sodda gaplarda ega odatda gap boshida joylashadi. Biroq istisno holatlarda, aniqlovchilar bilan bog‘langan holda, boshqa pozitsiyalarda ham uchrashi mumkin. Ushbu xususiyat tilimizdagi sintaktik erkinlikni va eganing pozitsiyasini aniqlashdagi murakkablikni hisobga olgan holda, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarida zarur bo‘lgan aniqlik va fleksibillikni ta’minlaydi.

So‘roq gaplarning modellarida esa, so‘roq birligi (so‘roq olmoshi yoki yuklamasi) asosiy identifikator sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, so‘roq gaplardagi ritorik shakllarning mavjud modellashtirilmagan holati kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri – 500 ta gap misolida statistik tahlil o‘tkazilganidir. Ushbu amaliy yondashuv modellarni mashinali o‘rganish (machine learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarida qo‘llash uchun mustahkam asos yaratadi. Shunday qilib, mazkur modellar kelajakdagi kompyuter lingvistikasi loyihalarida, jumladan avtomatik tarjima, matnning sintaktik va semantik tahlili hamda gap tuzilishini aniqlash kabi amaliy masalalarda asosiy ko‘rsatkich sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu boisdan, ushbu tadqiqot o‘zbek tili sintaksisini zamonaviy texnologik yechimlar bilan integratsiya qilish uchun fundamental poydevor sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusida mazkur modellar asosida murakkab gap turlarini, ritorik konstruksiyalarni va kontekstual pragmatika masalalarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. - Toshkent, 2009.
2. G‘ulomov A. Sodda gaplar. - Toshkent, 1955.
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1965. -B.52-53.
4. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1979.

RAVISH SO‘Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASH ALGORITMLARI: NAZARIY YONDASHUV, AMALIY TATBIQ VA KELGUSIDAGI YO‘NALISHLAR

Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o‘g‘li,
o‘qituvchi
nizomaddin@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Karimova Zilola Dilmurod qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
karimovazilola791@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi ravish so‘z turkumini aniqlash va grammatik POS(Part-of-Speech) teglash algoritmlarining nazariy asoslari, amaliy tatbiq usullari va eksperimental natijalarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda statistik modellar (HMM,CRF), qoidaviy yondashuv va morfologik tahlil usullari birgalikda o‘rganiladi. Jadval va blok-sxemalar yordamida algoritm strukturalari va samaradorlik ko‘rsatkichlari vizual tarzda ifodalanadi. Asosiy maqsad avtomatlashtirilgan tilni qayta ishlash tizimlarida ravish so‘zlarini, ularning ma’noviy va tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlashning aniqligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodologiyalarni ishlab chiqishdir.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, practical implementations, and algorithms for identifying adverbial word classes models(HMM, CRF), rule-based approaches, and morphological analysis techniques. Through diagrams, tables, and performance metrics are visually presented. The objective is to develop novel methodologies to enhance the accuracy and efficiency of automated natural language processing systems in adverb identification.

Аннотация. В данной статье представлен детальный анализ теоретических основ, практической реализации и алгоритмов для идентификации наречных классов слов с использованием моделей (HMM, CRF), подходов на основе правил и методов морфологического анализа. Диаграммы, таблицы и показатели производительности визуально представлены. Цель исследования разработка новых методологий для повышения точности и эффективности автоматизированных систем обработки естественного языка при идентификации наречий.

Kalit so‘zlar: *ravish so‘z turkumi, POS teglash, POS algoritmlari, morfologik tahlil, statistik modellar, qoidaviy yondashuv*

Kirish. So‘z turkumlarini (POS) belgilash – tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida eng muhim mavzulardan biri bo‘lib, asosiy qurilish bloklaridan va amaliyotlaridan biridir. Shu sababli, so‘z turkumlarini belgilash NLPda keng qo‘llaniladigan mavzu bo‘lib, matndagi har bir so‘zga kontekstga muvofiq tegishli sintaktik yorliqni berishni maqsad qiladi. So‘z turkumlarini avtomatik ravishda aniqlash POS tagging yoki grammatik belgilash deb ataladi. Bu jarayon fe’l, sifat, ravish, ot va boshqa so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan so‘zlarni tasniflashni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiya mashinada tarjima qilish, so‘z ma’nolarini ajratish, savollarga javob berish, sintaktik tahlil qilish va boshqa ko‘plab NLP ilovalarida qo‘llaniladi. So‘z turkumlarini aniqlash oddiy so‘zlarni ma’lum bir turkumga moslashtirishdan ancha murakkabroq. Chunki bir so‘z turli kontekstlarda har xil so‘z turkumiga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, POS belgilash uchun yagona universal qoidalar mavjud emas. Matn korpusidagi so‘z turkumlarini qo‘lda aniqlash juda qiyin. Doimiy ravishda yangi so‘zlar va kontekstlar paydo bo‘lib turadi, shuning uchun POS belgilashni qo‘lda bajarish samarali emas. Shu sababli, biz POS belgilash jarayonida mashinani o‘rganishga asoslangan usullarga tayanamiz [1].

Jahon tilshunosligida ham bir qancha olimlar POS teglash bo‘yicha samarali izlanishlar va tadqiqotlar olib borishgan. Ulardan S.K. Cameron POSning asosiy yetakchilaridan biridir va u ijobiy tashkilotlarni yaratish va rivojlantirish haqida ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan. Uning asarlari tashkilotlarda yuksak samaradorlik, jamoaviy ishlash va ijobiy psixologiyaning o‘rni haqida keng tahlillarni o‘z ichiga oladi. R.E. Quinn POSni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan olimlardandir. U o‘z tadqiqotlarida organizatsion o‘zgarishlar va ijobiy liderlikni qanday amalga oshirish kerakligi haqida asosiy nazariyalarni ishlab chiqqan. Quinn o‘z tadqiqotlarida tashkilotlardagi ijobiy o‘zgarishlar va innovatsiyalarni qanday boshqarish mumkinligi haqida chuqur tahlil qilgan. U liderlik, ijobiy tuzilmalar va o‘zgarishlarni amalga oshirishga oid ko‘plab ishlanmalarga ega. Jane Dutton POSning tadqiqotida katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning asarlari, ayniqsa, tashkilotlarda rahbarlik va jamoaviy munosabatlar asosida o‘rganilgan. Dutton ijobiy psixologiyaning tashkilotlarda qanday ishlashini va rahbarlarning ishlash samaradorligini qanday oshirishi mumkinligini o‘rganadi.

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistika sohasining o‘rganilishi XXI asrdan boshlandi. Bugunga qadar sohaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbek tilida POS teglash o‘ziga xos xususiyat bilan o‘zbek tilining boyligini chuqur va keng ekanini yaqqol ifoda eta oladi. Shuning uchun ham POS teglash masalasini maxsus o‘rganish va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilining milliy korpusi ishlab chiqildi. Shunga qaramay, teglash jarajonida muammolar vujudga kelayotgani, bu jarayondagi kamchiliklar mavjudligi bu sohaning dolzarb ekanligini belgilaydi.

Leksik birliklarni grammatik POS teglash (Part-of-Speech tagging) – bu tilshunoslikda so‘zlarning grammatika jihatdan qanday rol o‘ynashini aniqlash, ya’ni so‘z turkumini belgilash bilan bog‘liq muhim tadqiqot sohasidir[2]. Bu sohada O‘zbekistonlik olimlar ham tadqiqotlar olib borishgan, lekin bu yo‘nalishning o‘zbek tilshunosligida nisbatan yangi va rivojlanayotgan sohaga kirishi mumkin. Leksik birliklar va grammatik POS teglashni o‘rganish asosan kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt va tabiiy tilga ishlov berish (NLP) texnologiyalariga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbek tilshunosligida teglash masalasi bo‘yicha amaliy va nazariy ishlar olib borilmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi kafedrasi o‘qituvchilari tomonidan POS teglash boyicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, B.Elov, Sh.Xamroyeva, N.Xudoyberganov, O.Abdullayeva va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir. POS teglash – bu berilgan gapdagi har bir so‘z shaklga uning turkum (ot, fe’l, sifat, son, ravish yoki olmosh)ga mansubligini belgilash (teglash) vazifasidir. POS teglash tabiiy tilga ishlov berish (Natural Language Processing, NLP) sohasining asosiyvazifalaridan biri bo‘lib, pipeline konveyerining muhimbosqichi hisoblanadi. POS teglash korpusdagi har bir so‘zga grammatik kategoriya belgilashni o‘z ichiga oladi. Ya’ni so‘zning morfologik xuxusiyatlarini aniqlashda ushbu teglashdan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu teglashda otlar, fe’llar, sifatlar, ergash gaplar, olmoshlar, bog‘lovchilar, yuklamalar va boshqalarni teglashni kiritish mumkin. POS belgilari jumla tuzilmalarini tahlil qilish va lingvistik tadqiqotlar o‘tkazishda yordam beradi.O‘zbek maxsus lingvistik korpuslarini tuzish va ularni teglash masalasi bo‘yicha Sh.Hamroyeva, N.Abdurahmonova M.Abjalova A.Eshmo‘minov Sh.Gulyamova, O.Abdullayeva, D.Elova kabilarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasida ravish so‘z turkumini avtomatik aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Part-of-Speech (POS) teglash algoritmlaridan foydalaniladi. POS teglash jarayonida tilning o‘ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari inobatga olinadi, bu esa lingvistik modellarni samarali qo‘llashni talab qiladi[3].

So‘z turkumlari tilshunoslikda tilning grammatik tizimini tushunishga yordam beradigan asosiy konseptlardan biridir. Ravish (pronominal) so‘z turkumi, o‘zining grammatik funksiyasi va strukturasi jihatidan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladi[4]. Ravish so‘zlarning grammatik teglashini avtomatik ravishda amalga oshirish esa tilni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon tilning sintaktikva semantik tuzilishini anglash uchun zarur bo‘lgan asosiy bosqichlardan biridir[5]. Maqolada ravish so‘z turkumini grammatik POS teglash algoritmlari, lingvistik modellari, ularning turlari va metodologiyalari haqida so‘z boradi.

Asosiy qism. O‘zbek tilining murakkab morfologik tuzilishini hisobga olish muhimdir. Ushbu jarayonda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

• Asos va qo‘shimchalarni ajratish: So‘zning asosiy qismlari tahlil qilinadi.

• Blok-sxema: Quyidagi diagramma algoritmning asosiy bosqichlarini ifodalaydi:

Quyidagi jadvalda amaliy misollar va ularning teglash natijalari keltirilgan:

1-jadval. Ravishlarni aniqlash va POS teglash bo‘yicha amaliy natijalar

Matn namunasi	Aniqlangan ravish so‘zlari	Algoritm natijasi (POS teglash)
Sardor juda sekin yugurdi	juda, sekin	Ravish: (juda, sekin) – matn kontekstiga mos ravishda
Ra’no tomonidan o‘qilgan she’r o‘zgacha tarzda eshitildi.	o‘zgacha tarzda	Ravish: [o‘zgacha, tarzda] – semantik izoh bilan
U o‘g‘rilikni juda tez payqagan edi.	Juda tez	Ravish: [juda] – qo‘shimcha ibora sifatida
U nihoyatda puxta va tezjavob berdi	nihoyatda, puxta, tez	Ravish: [nihoyatda, puxta, tez] – umumiy tahlil

Bu misollar yordamida statistik va qoidaviyyondashuvlarning samaradorligi, aniqligi va kamchiliklari tajriba asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. Matn yig‘ish: O‘zbek tilidagi akademik maqolalar, yangiliklar va adabiyotlardan iborat korpus shakllantirildi.
2. Avtomatik teglash: Dastlabki avtomatlashtirilgan teglash algoritmlari yordamida natijalar olinib, keyin qo‘lda tahrir qilindi.
3. Model sinovlari: HMM, CRF va qoidaviy yondashuvlar yordamida modellar o‘rgatilib, ularning aniqlikko‘rsatkichlari taqqoslandi.

Quyidagi diagramma eksperimental natijalarning aniqlik ko‘rsatkichlarini aks ettiradi:



2-rasm. Algoritm aniqlik ko‘rsatkichlari diagrammasi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, CRF modeli kontekstual bog‘lanishlarni hisobga olib eng yuqori aniqlikka erishgan. Shuningdek, qoidaviy yondashuv barqaror natija bergan, ammo moslashuvchanlik jihatidan statistic modellarga nisbatan pastroq ekanligi aniqlangan.

Eksperimental jarayonda quyidagi xatoliklar va cheklovlar aniqlangan:

• *Morfologik noaniqliklar:* Ba’zi hollarda o‘zak va qo‘shimchalarni to‘g‘ri ajratib bo‘lmaslik.

• *Kontekstual cheklovlar:* Ravish so‘zlarining kontekstini to‘liq aks ettirishda qiyinchiliklar[6].

• *Qoidaviy yondashuvning moslashuvchanligi:* Qo‘lda yangilanish zarurati va keng korpusga moslashtirishda qiyinchiliklar[6].

Kelgusida quyidagi takomillashtirishlar rejalashtirilmoqda:

• Korpus hajmini va xilma-xilligini oshirish;

• Statistik va qoidaviy yondashuvlarni gibridlashtirish;

• Chuqur o‘rganish algoritmlari (LSTM, Transformer) integratsiyasini amalga oshirish.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik bosqichlar qo‘llanildi:

• *Ma’lumot yig‘ish:* O‘zbekiston va xalqaro manbalardan olingan korpuslar asosida ma’lumotlar to‘planildi.

• *Avtomatik teglash:* Dastlabki avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida tezkor natija olish, so‘ngra inson nazorati ostida qayta tahrir qilish.

• *Sinov va taqqoslash:* Turli modellarning aniqlik va samaradorligini eksperimental tarzda sinab ko‘rish[7].

Amaliy jarayonda quyidagilar bajarildi:

• *Modellarning o‘rgatilishi:* HMM, CRF va qoidaviy yondashuvlar alohida sinovdan o‘tkazildi.

• *Kombinatsion yondashuvlar:* Ensemble metodlari yordamida yakuniy natija sifatini oshirishga intilish.

• *Vizualizatsiya:* Diagrammalar va jadvallar yordamida natijalar va xatoliklar vizual tarzda aks ettirildi.

• *Neyraviy tarmoqlar:* LSTM va Transformer kabi chuqur o‘rganish metodlari orqali POS teglashsamaradorligini oshirish.

• *Semantik vektor modellar:* Word2Vec, GloVe va BERT kabi metodlardan foydalanish orqali so‘zlar orasidagi semantik bog‘lanishni aniqlash.

• *Ensemble metodlar:* Turli modellarning natijalarini birlashtirish orqali umumiy aniqlikni oshirish[8].

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlar kengaytirilishi rejalashtirilmoqda:

• *Hibrid tizimlar:*Statistik, qoidaviy va chuqur o‘rganish yondashuvlarini integratsiya qilish.

• *Korpusni kengaytirish:* Dialektlar, stilistik xususiyatlar va turli mavzularni inobatga olgan korpuslarni yaratish.

• *Real vaqt rejimi:* Interaktiv va mobil platformalarda POS teglash tizimlarini tatbiq etish.

• *Keng qamrovli sinovlar:* Aniqlik, tezlik va resurs samaradorligini o‘lchash bo‘yicha eksperimental sinovlarni kengaytirish.

Taqdim etilgan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

• Statistik modellarning ustunligi: CRF va HMM modellari katta hajmdagi korpuslarda samaradorligini isbotladi, ayniqsa CRF modeli kontekstual bog‘lanishlarga asoslanganligi sababli yuqori aniqlikka erishdi.

• Qoidaviy yondashuvning barqarorligi: Qoidaviy usullar barqaror va tushunarli natijalarni ta’minlasa-da, moslashuvchanlik jihatidan cheklanganligi aniqlangan.

• Hibrid metodlar istiqbollari: Statistik va qoidaviy yondashuvlarni chuqur o‘rganish metodlari bilan birlashtirish orqali aniqlik va samaradorlikni yanada oshirish mumkinligi aniqlangan.

Xulosa.

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ravish so‘z turkumini grammatik POS teglash algoritmlarining nazariy asoslari, metodologiyasi, amaliy tatbiq jarayoni va eksperimental natijalari chuqur tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, CRF modeli eng yuqori aniqlikni ta’minlasa-da, qoidaviy yondashuvlarning barqarorligi va tushunarli natijalari ham e’tiborga loyiqdir. Kelgusida hibrid yondashuvlar va chuqur o‘rganish algoritmlarini integratsiya qilish orqali real vaqt rejimida ishlovchi, yuqori aniqlikka ega tizimlar ishlab chiqish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2020). Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition (3rd ed.). Prentice Hall. P. 95.

2. Manning, C. D., & Schütze, H. (1999). Foundations of Statistical Natural Language Processing. MIT Press. P. 133.

3. Brants, T. (2000). TnT – A Statistical Part-of-Speech Tagger. In Proceedings of the Sixth Conference on Applied Natural Language Processing. P. 224-231.

4. O‘zbek Tili Morfologiyasi. (2018). Tashkent: Fan va Texnika. P. 23-24

5. Toutanova, K., Klein, D., Manning, C. D., & Singer, Y. (2003). Feature-Rich Part-of-Speech Tagging with a Cyclic Dependency Network. In Proceedings of HLT-NAACL 2003. P. 173-180.

6. Habash, N. (2010). Introduction to Arabic Natural Language Processing. Morgan & Claypool Publishers. P. 8-9.

7. Mikolov, T., Sutskever, I., Chen, K., Corrado, G. S., & Dean, J. (2013). Distributed Representations of Words and Phrases and their Compositionality. In Advances in Neural Information Processing Systems P. 3111-3119.

8. Pennington, J., Socher, R., & Manning, C. D. (2014). GloVe: Global Vectors for Word Representation. In Proceedings of the Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP). P. 1532-1543.

MATNNI TASNIFLASH VA ULARNING SOHALAR KESIMIDA QO‘LLANILISH MASALASI

Xusainova Zilola Yuldashevna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Shirinboyeva Marjona,
Filologiya yo‘nalishi talabasi
shirinboyevamarjona36@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Matnni tasniflash – bu matnlarni mazmun, uslub, maqsad yoki tarkibiy jihatdan guruhlash jarayoni. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida matnni tasniflash usullari ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda. Xususan, hujjatlarni avtomatik ajratish, elektron pochta spamlarini aniqlash va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent monitoringi kabi vazifalarda keng foydalaniladi. Tibbiyotda, yuridik sohada matn tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi. Matnni tasniflashda asosan sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalari muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon matnlarni avtomatik ravishda oldindan belgilangan toifalarga ajratishni anglatadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi postlarni sentimentini aniqlashda, ya’ni ijobiy, salbiy yoki neytral deb tasniflashda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, NLP metodlari matnlarning ma’nosini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Har bir sohada matn tasniflashning o‘ziga xos xususiyatlari va talablariga to‘g‘ri tanlangan algoritm ishlab chiqiladi.

Abstract. Text classification is the process of grouping texts by content, style, purpose, or structure. As a result of the development of modern information technologies, text classification methods are used in many areas. In particular, they are widely used in tasks such as automatic document sorting, detecting email spam, and monitoring content on social networks. Text classification is of great importance in medicine and the legal field. Text classification is mainly one of the important areas of artificial intelligence and machine learning technologies in text classification. This process involves automatically dividing texts into predefined categories. For example, it is used to determine the sentiment of posts on social networks, that is, classify them as positive, negative, or neutral. At the same time, NLP methods allow for a deep analysis of the meaning of texts. In each area, an algorithm is developed that is correctly selected for the specific characteristics and requirements of text classification.

Аннотация. Классификация текстов — это процесс группировки текстов по содержанию, стилю, назначению или структуре. В результате развития современных информационных технологий методы классификации

текстов нашли применение во многих областях. В частности, он широко используется в таких задачах, как автоматическая сортировка документов, обнаружение спама в электронной почте и мониторинг контента социальных сетей. Классификация текстов важна в медицине и юридической сфере. Классификация текстов — одна из важнейших областей применения технологий искусственного интеллекта и машинного обучения. Этот процесс подразумевает автоматическую классификацию текстов по предопределенным категориям. Например, он используется для определения тональности постов в социальных сетях, то есть для их классификации как положительных, отрицательных или нейтральных. В то же время методы НЛП позволяют проводить глубокий анализ смысла текстов. В каждой области разрабатывается алгоритм, адаптированный под конкретные характеристики и требования классификации текста.

Kalit so‘zlar. *Matnni tasniflash, NLP, ML, axborotni tartiblash, sentiment tahlil, sohaviy tasnif.*

Matnni tasniflash – bu matnlarni ma’lum belgilarga ko‘ra guruhlarga ajratish va ularni avtomatik tarzda toifalash jarayonidir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida matn ko‘rinishidagi ma’lumotlar hajmi keskin oshmoqda. Ushbu ma’lumotlar oqimini matnlarni tizimli ravishda tasniflash va ularni sohaga oid kategoriyalarga ajratish dolzarb ilmiy-texnik masalaga aylanmoqda. Matnni tasniflash turli mezonlar (mazmun, struktura, til xususiyatlari) asosida matnlarni sistematik ravishda guruhlash jarayonidir. Ushbu jarayon tabiiy tilni qayta ishlash, mashinali o‘qitish va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan yanada takomillashib bormoqda. Biroq, sifatli ma’lumotlarning yetishmasligi va til xilma-xilligi bu sohada muhim muammolar sifatida qolmoqda. Ushbu maqolada matnni tasniflash jarayonining nazariy asoslarini va ularning turli sohalar kesimidagi amaliy qo‘llanilishini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan.

Matnni tasniflash zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu jarayon matnli ma’lumotlarni oldindan belgilangan toifalar yoki kategoriyalarga avtomatik ravishda ajratishni nazarda tutadi[1]. Matnni tasniflash tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) va mashinali o‘qitish (Machine Learning) texnologiyalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Har bir sohada matnlarning semantik va kontekstual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan modellardan foydalaniladi[2]. Shuningdek, matnni tasniflash texnologiyalari axborot oqimini boshqarish, tezkor qaror qabul qilish va umumiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, matnlarning sohalarda tasniflashda ancha vaqt talab etadi, ammo uning hozirda aniq yechimi mavjud emas. Bo‘lsa ham tahlillarning samaradorlik

ko‘rsatkichi 100% natija bermaydi. Bu kabi muammolar bor ekan ularni tahlil qilish va yechim topishga bo‘lgan qiziqlash va talablar ortib boradi. Matnlarni tasniflash jarayonida ularni avtomatik ravishda toifalarga ajratish uchun ma’lum so‘zlarni matn tarkibidagi kalit so‘zlarga qarab uning sentiment scorini ijobiy, salbiy kabi guruhlarga yoki qaysi sohaga oid ekanligini aniqlab berishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: internet tarmog‘ida jurnalistik matnlar, ilmiy yoki badiiy matnlar soniya sayin ko‘payib bormoqda ularni ajratish ko‘proq vaqt talab etadi. Jurnalistik matnlarni ajratishning o‘zi ham bir necha turlarga ajratiladi. Misol tariqasida sport, musiqa, tibbiyot, adabiyot, tabiat haqidagi matnlar. Bular tarkibida ma’lun so‘zlarni ayni shu soha ekanligini o‘rganib ularni ajratadi. Misol uchun, “Bugun yurtimizning janubi-sharqiy qismida yomg‘irli ob-havo bo‘lishi kutilmoqda” gapida ob-havo, yomg‘ir va janubi-sharqiy so‘zlari orqali bu matnning ob-havo haqida ma’lumot berayotganini bilishimiz mumkin.

Matnni tasniflash bo‘yicha olib borilgan dastlabki tadqiqotlar ko‘proq qoidaga asoslangan (rule-based) yondashuvlarga tayangan[3]. Ushbu usullar matndagi muhim kalit so‘zlar va sintaktik tuzilmalarga asoslanib tasniflashni amalga oshirgan. Biroq, qoidaga asoslangan yondashuvlar katta hajmdagi va murakkab ma’lumotlar bilan ishlashda o‘zining cheklovlarini namoyon qilgan. Keyingi bosqichda statistik metodlar va mashinaviy o‘rganish asosidagi yondashuvlar rivojlandi[4]. Xususan, Naive Bayes, Support Vector Machines (SVM) va Decision Trees kabi modellar matnni tasniflash samaradorligini oshirdi. So‘nggi yillarda chuqur o‘rganish (Deep Learning) usullari, xususan, neyron tarmoqlar va transformer modellar (masalan, BERT) matnlarni yanada aniqroq tasniflash imkonini berdi. Masalan, Devlin va boshqalar[5] tomonidan ishlab chiqilgan BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modeli kabi pre-train qilingan til modellarining rivojlanishi matnni kontekstual ravishda chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi. Matnni tasniflash bo‘yicha tadqiqotlar tibbiyot, moliya va ijtimoiy tarmoqlar monitoringi kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanila boshlandi. Masalan, klinik yozuvlardan kasallikni aniqlash, kreditni baholash kabi amaliy holatlarni kuzatishimiz mumkin. Biroq mavjud metodologiyalarning cheklovlari ham mavjud. Dastlabki usullar kontekst va semantika chuqur tahlil qilinmagani uchun murakkab matn tuzilmalari bilan ishlashda samarasiz bo‘lgan. Shuningdek, kam resursli tillar uchun matnni tasniflash modellari hali ham yetarlicha rivojlanmagan. Mavjud nazariyalar asosan katta hajmdagi strukturalangan ma’lumotlarga tayanadi, bu esa kichik korpuslar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Mashinali o‘qitsh modellarining samaradorligi esa ko‘pincha katta hajmdagi, yaxshi belgilangan ma’lumot to‘plamlariga bog‘liqdir. Deep learning asosidagi modellar esa hisoblash resurslariga va ma’lumotga bo‘lgan yuqori talab tufayli cheklovlarga ega. Shuningdek, soha kesimida matnni tasniflashda maxsus domenga moslashtirilgan modellarni ishlab chiqish zarurati tug‘iladi.

Ko‘plab tadqiqotlar umumiy tasniflash modellariga qaratilgan, ma’lum bir soha uchun moslashgan tasniflagichlar hali to‘liq mukammallashmagan. Shuningdek, matnlarning noaniqligi, teglanmagan va imlo xatolariga nisbatan modellar samaradorligini oshirish masalasi yetarlicha yechilmagan.

Sohalar bo‘yicha matn tasniflashning bizga afzal tomonlari shundaki, bu jarayon tez va unumdor bo‘lishi hamda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kamayishidir.



Tadqiqotlardan olingan natijalar matnni tasniflash texnologiyalari turli sohalarda axborot boshqaruvini samarali tashkil etishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, har bir soha uchun moslashtirilgan model va algoritmlarni tanlash samaradorlikni oshiradi. Jurnalistika, onlayn harid, sport, tibiiyot, tilshunoslik va matematika sohalarida aniqlik talablari yuqori bo‘lganligi sababli, chuqur o‘rganishga asoslangan (Deep Learning) yondashuvlar ustunlik qilmoqda.

Online savdo sohasida

Agar biz biror narsani online xarid qilmoqchi bo‘lsak mahsulot bizga qay holatda kelishi, bizga mahsulot qaday ta’sir qilishi, ayniqsa, kosmetika mahsulotlari, kiyim-kechak, qurilish mollari, hozirgi paytda keng ommalashgan audio kitoblar va doimiy reklamalarda aylanayotgan turli xil dori vositalarini sifatini aniqlashdagi mijozlarning fikrlarini bilishda yordam beradi. Bu savdo sohasidagi mijozlardan biri agar “Bu mahsulot menga yoqdi”, “Yaxshi”, “Mahsulot menga manzur keldi”, “Zo‘r”, “Mahsulot sifatli va arzon” kabi fikrlar bildirsa demak bu fikrlarni biz ongli ravishda iliq fikrlar ekanligini anglaymiz. Ammo, buni sun’iy intellektga avtomatik ajratish uchun avvalo, o‘rgatish kerak. “Yoqmadi”, “Menga uncha manzur emas”, yana salbiy baho ifodalovchi bir qancha stikerlardan foydalanish orqali salbiy munosabatlarni bilib olishimiz mumkin. Bu fikrlar munosabatni bildirsa, yana bir jihati borki “buyurtma qilmoqchiman”, “yetkazib berildi”, “mahsulot haqida quyidagi havoladan bilib olishingiz mumkin” kabi bir qancha avtomatik javob berish mumkin bo‘ladi. Keling ijtimoiy tarmoqlardagi ba’zi savdo kanallaridagi commentlardan misol tariqasida ko‘rib chiqamiz.

1. Kompyuter sotadigan Instagram commentida “**qmatku**” tarzidagi fikr qoldirilgan ushbu fikrda biz imloviy xatoni ko‘rishimiz mumkin ammo bu kabi holatlar yana topiladi va buni bazaga kiritish orqali salbiy ma’no berishini bilishimiz mumkin. Yana bir qancha misollar keltiramiz:

“**Qimmat** va **bir tiyingayam qimmat** bu keca 3 millionga coria 5 abrativka 8 xotira 512 360 graduagaca iciladi va sensor 12 avlod.”, — salbiy.

“Men ishlataman **Juda yaxshi** laptop”, — ijobiy.

2. Kiyim do‘kon kommentidan:

🔥🔥 — ijobiy

😔😔 — salbiy

“**juda yaxshi** narx ham sifati ham yaxshi”, ijobiy.

“Yetkazib berish **uncha yaxshi emas** ekan 1 hafta deganda **illa** oldim”, ushbu fikrda salbiy baho bilan birgalikda sheva so‘z **“illa”** ham ishtirok etgan.

Jurnalistika sohasida

Matnlarni mavzu ko‘lami va ma’no jihatdan salbiy yoki ijobiy guruhlarga tasniflashda kerak bo‘ladi. Masalan; “Keldiyorovaga bu mukofot Parij-2024 Olimpiadasida yaponiyalik taniqli dzyudochi Uta Abe ustidan qozonilgan g‘alaba uchun taqdim etildi”, kabi mavzuga doir maqolani biz **“dyuzdochi”, “Uta Abe”** kabi teglar orqali sport mavzuda ekanligini, “Domla sharhlarni o‘qibdi-da, osmonga qarab charaqlagan quyoshni Alisherga, qora bulutni esa Husayn Mirzoga ko‘rsatib, Alisherga “Ofarin” debdi”, jumlasidan adabiyotga oid bo‘lgan “Alisher”, “Husayn Mirzo” teglari orqali bilishimiz, “O‘zbekistonda hafta davomida iliq va asosan quruq ob-havo bo‘lishi kutilmoqda.” jumlasidagi “iliq”, “ob-havo” va “quruq” teglari orqali ob-havo mavzusida ekanligini va albatta, bu kabi keltirilgan fikrlar ijobiy ekanligini aniqlashga yordam bersa, “2025-yil 24-fevral. Bugun Rossiyaning Ukraina zaminiga boshlagan keng ko‘lamli urushiga 3 yil to‘ldi. Bu voqelik nafaqat ikki malakatda balki, butun dunyo bo‘ylab sado berdi: minglab insonlar halok bo‘ldi, ko‘z o‘ngimizda shahar vayronaga aylandi, boshqa davlatlar o‘z tomonlarini hamon aniqlamoqda.”, jumlasidan esa biz bu mavzudagi **“urush”** tokeni orqali urush mavzusida ekanligini va “halok bo‘ldi”, “vayronaga aylandi” kabi so‘zlar orqali esa salbiy ma’no ifodalayotganini bilishimiz mumkin.

Tibbiyot sohasida

Kimdir sog‘lig‘idan shikoyat qilib,

– haroratning ko‘tarilishi, bosh og‘rig‘i, isitma, yo‘tal, tomoq og‘rig‘i kabi belgilar borligini aytsa, bu orqali bemorda grippga chalinganligini osongina aniqlash va unga kerakli dori hamda muolajalar haqida ma’lumot berish mumkin bo‘ladi.

– holsizlik, tez-tez kasal bo‘lish, tezda vazn yo‘qotish, sariqlik, yo‘tal va ovozning bo‘g‘ilishi kabi belgilar esa saratondan darak berishi hamda zudlik bilan davolash ishlarini boshlash haqida ma’lumot va tavsiyalar beradi. Bu kabi misollardan ularni “tibbiy terapiya” “nevrologiya” kabi bolimlarga xos ekanligini bilishingiz mumkin.

– yana bir tomondan “qabulga yozildi”, “x- navbatdagi bemor”, “qon tahlili” kabi tokenlar orqali bir qancha zaruriy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Tilshunoslik sohasida

Lug‘atlar, imlo tekshiruvi, bosh harflar imlosi, chiziqcha va tire bilan bog‘liq bilan muammolar, punktuatsion belgilar, transkripsiya kabi bir qancha masalalar bor.

– Lug‘atchilikning eng ommalashgan turi ingliz-o‘zbek, rus-o‘zbek, turk-o‘zbek kabi tarjima lug‘atlari hisoblanadi. Ammo arab, fors va tojik kabi izofali tillarda bu biroz oqsayotganini ko‘rishimiz mumkin. Izofalar bizni tilimizga xos bo‘lmaganligi sababli tarjima sohasida ularda qator muammolar kelib chiqyapti.

– Eski o‘zbek tilidan yurtimizda ancha yillar foydalanilganini hisobga olsak, bu yozuvdagi asarlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girish va bu jarayondagi ishlar hali o‘z yechimiga to‘la ega emasligini ko‘rimiz mumkin. To‘g‘ri eski o‘zbek tili va yozuvi haqida bir qancha qo‘llanma, lug‘atlar ishlab chiqigan bo‘lsa hamki, ushbu masalani avtomatik hal qilish kerak ekanligi yana bir masaladir.

– Punktuatsion belgilarni to‘g‘ri ishlatilishida hamma ham xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ammo tez-tez ishlatilinuvchi nuqta, vergul, ikki nuqtani ishlatishda ularni uyushiq holatda kelganda verguldan foydalanish, kesimlikni shakklantiruvchi qo‘shimchalardan so‘ng nuqtaning ishlatilishi va uyushiq so‘zlardan oldin,ko‘chirma gapdan oldin qo‘llangan muallif gapidan so‘ng ishlatishni hal etish masalasi ham bor.

– Tire va chiziqcha bilan bog‘liq muammo ham muhim masalalardan biridir. Qay holatda tire, qay holatda chiziqchaning ishlatilishiga ko‘pchilik ikkilanib qoladi. Tire punktuatsion, chiziqcha esa orfografik belgidir. Juft va takror so‘zlar orasida chiziqcha ishlatilishi kabi qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda.

Algebra-matematika sohasida

Matn tasnifi berilgan misol, masala, tenglama, tengsizlik, funksiya kabi tur va oson, qiyin, o‘rtacha darajalarga ajratishda muhim ahamiyatga egadir.

Dialektologiya sohasida

Sheva matnlaridagi so‘zlarni adabiy tilga o‘girish, unli harflarni old va orqa qatorga, undoshlarni esa qay holatda talaffuz etilgan bo‘lsa uning adabiy tildagi muqobiliga almashtirishda kerak bo‘ladi.

XULOSA

Matn tasniflash turli sohalarda ma’lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishning muhim vositasi bo‘lib, AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Matnlarni tasniflash kelgusida ham sun’iy intellekt yutuqlari bilan uyg‘un holda rivojlanib, axborot jamiyatining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aggarwal, C. C. (2012). Mining Text Data. Springer.

2. Camacho-Collados, J., & Pilehvar, M. T. (2018). From Word to Sense Embeddings: A Survey on Vector Representations of Meaning. Journal of Artificial Intelligence Research.

3. Sebastiani, F. (2002). Machine learning in automated text categorization. ACM Computing Surveys.

4. Joachims, T. (1998). Text categorization with Support Vector Machines: Learning with many relevant features. ECML.

5. Devlin, J., et al. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. NAACL.

6. B. Elov, Sh. Hamroyeva, R. Alayev, Z. Xusainova, U. Yodgorov – O‘zbek tili korpusi matnlarini qayta ishlash usullari – Raqamli Transformatsiya va Sun’iy Intellekt ilmiy jurnali, October 2023 – Volume 1, Issue 3.

7. Xusainova, Z., & Yangibayeva, S. (2024). Til korpusi turlari. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).

8. Elov, B. B., Hamroyeva, S., & Xusainova, Z. (2022). NLP (tabiiy tilga ishlov berish) ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar. TerDU, filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim, 5-6.

SLENGLARNI AVTOMATIK TEGLASHDA LUG‘ATGA VA MASHINALI O‘QITISHGA ASOSLANGAN YONDASHUVLAR

Bekmuradova Iroda Zokir qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
irodabekmuradova9@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada slenglarni avtomatik teglashning lug‘atga va mashinali o‘qitishga asoslangan usullari xususida so‘z yuritiladi. Bunda lug‘atga asoslangan usulning bosqichlari ketma-ketlikda ko‘rsatib, mazkur usulning afzalliklari va kamchiliklari keltiriladi. Shuningdek, maqolada slenglarni avtomatik teglash uchun Bayes va SVM (support vector machine) modellari ham taklif etilib, bu modellarga xos dastlabki umumiy tavsiflar ham berilib, ilmiy tahlil qilinadi.

Abstract. This article discusses dictionary-based and machine learning-based methods for automatic tagging of slang. The steps of the dictionary-based method are shown sequentially, and the advantages and disadvantages of this method are presented. The article also proposes Bayesian and SVM (support vector machine) models for automatic tagging of slang, provides initial general descriptions of these models, and conducts scientific analysis.

Аннотация. В этой статье рассматриваются методы автоматической разметки сленга на основе словаря и машинного обучения. Здесь будут последовательно показаны этапы метода, основанного на словаре, а также представлены преимущества и недостатки этого метода. В статье также предлагаются байесовские модели и модели SVM (машина опорных векторов) для автоматической разметки сленга, даются начальные общие описания этих моделей и проводится научный анализ.

Kalit so‘zlar: *sleng, teg, teglash, lug‘at, Bayes algoritmi, Support vector machine.*

Ma’lumki, til korpusida sleng birliklarni ajratib tahlil qilish, ularga avtomatik teglash orqali bunday birliklar qatnashgan matnning u yoki bu tahlili amalga oshirilganda slenglarni oddiy leksik birliklar kabi tahlil qilib ketish, avtomatik tarjima jarayonida so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilangan tilga tarjima qilib qo‘yish kabi xatoliklarni to‘xtatishga erishish mumkin.

Til korpuslari o‘z maqsadi va ichki tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘lishiga qaramay, ularni umumlashtiruvchi asosiy xususiyat shundan iboratki, ular til birliklarini avtomatik teglash hamda ularni ma’lum bir mezonlarga ko‘ra tahlil qilish

yoki shunga o‘xshash lingvistik tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi. Korpusda tahlil uchun kiritilgan matnlardagi birliklarni teglashga oid turli yondashuvlar va bir qator matematik usullar mavjud. Shulardan asosiylari: qoidaga asoslangan yondashuv, lug‘atga asoslangan yondashuv, mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuv, statistik va transformatsion yondashuv va hokazolar [2].

Har qanday til korpusi tilning leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi, til tizimini hamda uning o‘zgaruvchanligini kuzatishga xizmat qiladi. Milliy til korpusi esa, tilning barcha xususiyatlarini aks ettiruvchi og‘zaki va yozma matnlarni o‘z ichiga olgani bois, tilning dinamikasini, so‘zlar va grammatik shakllarning kelib chiqishi hamda qo‘llanishini tahlil qilishda, matnlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matndagi so‘z va iboralarni teglash tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Teglash orqali so‘zlarning tuzilishi, ma’nosi va ularning kontekstdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot beriladi. Bu jarayonda matn tarkibidagi so‘z yoki iboralarga maxsus izohlar qo‘shiladi. Izohlar tadqiqot maqsadiga qarab, grammatik yoki leksik ma’no, shuningdek, boshqa muhim xususiyatlarni ko‘rsatishi mumkin.

Teglar (inglizchasiga “tags”) – bu matn haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni o‘zida mujassam etuvchi belgilardir. Matnli ma’lumotlarni (korpuslarni) teglash uchun bir necha universitetlar matnlarning qaysi parametrlarini teglash kerakligini tavsiflovchi tizimni maxsus ishlab chiqdi. Ushbu tizim XMLdan foydalanadi va Text Encoding Initiative Guidelines (TEI Guidelines) deb nomlanadi. Bu kodlash, teglash va indeksirlash mumkin bo‘lgan matnlarning turli xil xususiyatlarining ro‘yxati hisoblanadi. Masalan, tizim matndagi turli xil tuzatishlar, iqtiboslar, qisqrtmalar, atoqli otlar, initsial, akronimlar, chet el so‘zlari va boshqalarni sanab o‘tadi.[1]

So‘zlarni teglashning lug‘atga asoslangan yondashuvi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-rasm. Slenglarni avtomatik teglashning lug‘atga asoslangan usuli bosqichlari

Lug‘atga asoslangan teglash usuli oldindan tuzilgan lug‘atlardan foydalangan holda matn birliklariga mos teg yoki toifani belgilashga asoslanadi. Masalan, sleng birliklarini avtomatik teglashda dastlab tildagi sleng birliklari aniqlanib, maxsus lug‘at shakllantiriladi. So‘ngra matn kiritilganida, u lug‘atdagi birliklarga mosligi bo‘yicha tekshiriladi va mos keladigan birliklarga teg biriktiriladi. Ushbu yondashuv nisbatan soddaligi bilan ajralib turadi hamda muayyan matn turlari uchun, xususan, aniq kalit so‘zlar mavjud bo‘lsa, yuqori aniqlikdagi natijalarni ta’minlashi mumkin.

Shu bilan birga, lug‘atga asoslangan yondashuvning ayrim kamchiliklari mavjud. Xususan, teglash natijalarining sifat darajasi lug‘atning to‘liqligi va aniqligiga bevosita bog‘liq. Agar lug‘at barcha zaruriy birliklarni o‘z ichiga olmasa, natijaviy tahlil sifati pasayadi. Shuningdek, kontekstga bog‘liq yoki noaniq birliklarni teglashda muayyan cheklovlarga duch kelinadi. Ushbu usulning samaradorligini oshirish uchun kontekstual lug‘atlardan foydalanish, mashinani o‘qitish modellarini joriy etish yoki bir nechta lug‘atlarni birlashtirish orqali natijalarni yaxshilash mumkin.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida slenglarning avtomatik aniqlanishi va teglanishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Slenglar norasmiy nutq qatlamiga tegishli bo‘lib, doimiy ravishda o‘zgarib boradi va odatiy lug‘aviy tizimlarga sig‘maydi. Shuning uchun, slenglarni samarali tarzda tasniflash va ularni to‘g‘ri teglash uchun kuchli va moslashuvchan algoritmlar talab etiladi. Slenglarni teglashda ML (mashinali o‘qitish)ga asoslangan yondashuv bu jarayonga kompyuter omilini kiritish, ya’ni mos algoritmlarni qo‘llagan holda, matn tarkibida kelgan slengni o‘ziga xos ehtimoliylik darajasiga nisbatan teglashni o‘z ichiga oladi. Bunday toifalar ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, ML ga asoslangan usullar kompyuter lingvistikasida faol qo‘llaniladi. Tabiiy tildagi matnlarni ikki bosqichli tahlil qilishning birinchi bosqichida, lug‘atda mavjud bo‘lgan so‘z tahlil qilinayotgan matnning har bir so‘zi bilan taqqoslanadi. Agar so‘z lug‘atda mavjud bo‘lmasa u holda keying bosqichga o‘tiladi. Ikkinchi bosqichda, jarayonda shakllangan qoidalarga muvofiq mavjud bo‘lgan teglash variantlaridan yagona to‘g‘ri namunasi tanlanadi. Ushbu yondashuvning afzalligi aniqlikning ustuvor bo‘lishidir. Ammo bu jarayonda qoidalar sonining ko‘payishi aniqlikning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Avtomatik teglashning mashinali o‘qitish usullari slenglar va shunga o‘xshash noaniq so‘zlarni izohlash muammosini hal qilishda samaralidir. Bugungi kunda jahon kompyuter lingvistikasida ushbu sohada faol izlanishlar olib borilmoqda. Matnni tasniflash, undagi birliklarni teglashga doir bir qator ishlarni kuzatib, shunga amin bo‘ldikki, vaznni multiplikativ tuzatish algoritmi, yashirin semantik tahlil, transformatsiyani o‘rgatishga asoslangan algoritm, differentsial grammatika, qatorlar ro‘yxati usuli, Bayes algoritmi, perseptron usullar kabilar

noaniqlikni bartaraf etish muammosini hal eta oladi [2]. Shulardan Bayes algoritmi va uning matndagi birliklarni teglashga doir xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Bayes algoritmi obyektning ehtimolini, uning xususiyatlarini va tegishli bo‘lgan guruhini aniqlashni o‘rganuvchi algoritmdir. XVIII asr yashagan matematik olim Tomas Bayes nomi bilan ataladigan ushbu algoritm bir qator sohalarda keng tarqalgan. Mazkur algoritmning markazida Bayes xulosasi yotadi, bu usul bizga yangi dalillar yoki ma’lumotlar paydo bo‘lganda gipoteza haqidagi farazni yangilash imkonini beradi [7]. U ehtimollik tasniflagichi sifatida ham tanilgan. Masalan, so‘zni muayyan xususiyatlari, unga qo‘shilgan qo‘shimchalar va bog‘lanib kelgan so‘zlarga qarab aniq tahlil qilish qiyin, chunki xuddi shu jihatiga ko‘ra o‘xshash xususiyatlarga ega ko‘plab so‘zlar mavjud. Ammo, bu narsa haqida ehtimolli bashorat qilish mumkin va bu yerda Naive Bayes algoritmi qo‘l keladi. Bayes algoritmi, ayniqsa Naive Bayes usuli tabiiy tilni qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi. NLP da u orqali matnni tasniflash, sentiment tahlil, spamni aniqlash, hujjatlarni turkumlashtirish, matn tilini aniqlash, nomlangan obyektni tanish (NER), matnlarni klasterlash va modellashtirish kabi masalalarni hal qilish mumkin. Bayes nazariyasi berilgan dalillar to‘plamidan (B) muayyan gipotezaga (A) kelish ustida ishlaydi.

Slenglarni avtomatik teglashda qo‘llash mumkin bo‘lgan yana bir model Support Vector Machine (SVM) – nazorat ostidagi o‘rganish (supervised learning) asosida ishlovchi klassifikatsiya modeli bo‘lib, u matnlarni tasniflashda keng qo‘llanilishi bilan mashhur [3]. SVM modelining asosiy maqsadi – ma’lumotlar to‘plamini maksimal gipertekislik (optimal ajratuvchi chiziq) orqali ajratishdir.

SVM modeli kichik va murakkab ma’lumot to‘plamlarida yaxshi natija ko‘rsatgani, chiziqli va chiziqli bo‘lmagan tasniflash vazifalariga moslashuvchanligi [4], so‘zlarning semantik va sintaktik o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda slenglarni teg guruhlariga ajrata olishi kabi xususiyatlari bilan slenglarni teglashda samarali hisoblanadi:

Slenglarni teglash uchun SVM modeli quyidagi bosqichlarda ishlatiladi:

1. Ma’lumotlarni to‘plash va tayyorlash

– Sleng so‘zlar bazasini yaratish (ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, chat loglaridan).

– Slenglar teglarini aniqlash va ularni toifalarga ajratish (masalan, yoshlar slengi, texnologik sleng, professional jargon va h.k.).

2. Xususiyatlarni (Features) aniqlash

– TF-IDF (Term Frequency-Inverse Document Frequency) yoki so‘z embedding usullari orqali har bir so‘z uchun vektorli taqdimot yaratish [6].

– Morfologik va semantik belgilarni ajratib olish.

3. SVM modelini o‘qitish va tekshirish

– Olingan xususiyatlar asosida SVM modeli o‘qitiladi.

– Model samaradorligini baholash uchun ma’lumotlar to‘plami trening va test to‘plamlariga bo‘linadi [5].

– F1-score, Precision, Recall kabi metrikalar asosida natijalarni tahlil qilinadi.

4. Natijalarni tahlil qilish va optimallashtirish

– Model natijalarini yaxshilash uchun Hyperparameter tuning (C, kernel turi, gamma) amalga oshiriladi [6].

Agar zarur bo‘lsa, boshqa NLP usullari bilan birlashtirish (masalan, LSTM yoki Word2Vec bilan kombinatsiya qilish) ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, til korpusida sleng birliklarini aniqlash va avtomatik teglash jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish – zamonaviy til texnologiyalarining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu nafaqat avtomatik tarjima jarayonidagi xatoliklarni kamaytiradi, balki slenglarni oddiy leksik birliklardan farqlash orqali matnni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, lug‘atga asoslangan yondashuv, o‘zining soddaligi va yuqori aniqligi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv, to‘liq va dolzarb lug‘at bazasi shakllantirilgan taqdirda, tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi hamda matnlarni avtomatik qayta ishlash sohalarida katta imkoniyatlarni ochadi.

Shu bilan birga, texnologiya rivojlanishi bilan bir qatorda, slenglarning o‘zi ham doimiy o‘zgarishda ekani, ularni muntazam yangilab borishni taqozo qiladi. Shuningdek, faqat lug‘atga tayanish yetarli emasligini anglash kerak – kombinatsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish, ya’ni statistik, qoidaga asoslangan va mashinali o‘qitishga asoslangan usullarni ham birlashtirish orqali ancha mukammal tizimni yaratish mumkin. Bu esa, kelajakda nafaqat sleng birliklarini, balki boshqa murakkab til hodisalarini ham yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi. Shunday ekan, slenglarni avtomatik teglash bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar nafaqat lingvistik nazariya uchun, balki amaliy sohalar – masalan, sun’iy intellekt yordamida matn tahlili, ma’lumotlarni avtomatik indekslash va hatto ijtimoiy tarmoqlarda til monitoringi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mashinali o‘qitish metodlari yordamida slenglar va ularning kontekstlarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish mumkin. Bunda mashinali o‘qitish algoritmlari yoki neyron tarmoqlar, deep learning metodlari yordamida sleng so‘zlarini avtomatik tarzda tanib olish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, slenglarning til tizimida qanday o‘zgarishlarni keltirib chiqarganini tahlil qilishda mashinali o‘qitish modellari katta yordam beradi. Bu boradagi tadqiqotlar esa slenglarning tilshunoslikdagi o‘rni va ijtimoiy kontekstga bog‘liq ravishda qanday rivojlanishini yanada chuqurroq o‘rganishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. (2023). Korpus birliklarini teglash va annotatsiyalash masalasi. “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari” respublika konferensiyasi materiallari, (pp. 345-351). Toshkent.
2. Демская-Кульчицкая О.М., Семеренко В.Р., Ющенко Р.А. 2001: 72
3. Joachims, T. (1998). Text categorization with support vector machines: Learning with many relevant features. European Conference on Machine Learning, 137-142.
4. Cristianini, N., & Shawe-Taylor, J. (2000). An Introduction to Support Vector Machines and Other Kernel-based Learning Methods. Cambridge University Press.
5. Pedregosa, F., et al. (2011). Scikit-learn: Machine Learning in Python. JMLR.
6. Hsu, C. W., Chang, C. C., & Lin, C. J. (2003). A practical guide to support vector classification.
7. An introduction to Naive Bayes Algorithm for beginners. (n.d.). Retrieved from Turing: http://www.turing.com
8. http://www.turing.com

ZAMON QO‘SHIMCHALARINI AVTOMATIK ANIQLASH MODELI

Erkinjonova Go‘zal Baxtiyor qizi,
Komputer lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
uzbekistan-24@mail.ru
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Tilshunoslikda fe’l so‘z turkumiga mansub so‘zlarning zamonini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Fe’llarning zamonlarini aniqlash orqali matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, tarjima qilish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida ko‘plab muammolarni hal qilish mumkin. Zamon qo‘shimchalarini aniqlashda lingvistik jihatdan o‘zbek tilidagi fe’l zamon kategoriyasining morfologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Amaliy jihatdan esa qoidalarga asoslangan metod yordamida modelni qurish jarayoni tavsiflanadi.

Abstract. In linguistics, it is important to determine the tense of words belonging to the verb group. Determining verb tenses can solve many problems in text comprehension, translation, and natural language processing (NLP). Morphological characteristics of the verb tense category in the Uzbek language are analyzed from a linguistic point of view when determining the tenses. In practical terms, the process of building a model using the rule-based method is described.

Аннотация. В лингвистике важно определять время слов, принадлежащих к группе глаголов. Определение времен глаголов может решить многие проблемы понимания текста, перевода и обработки естественного языка (NLP). Морфологические характеристики категории времени глагола в узбекском языке анализируются с лингвистической точки зрения при определении времен. В практическом плане описывается процесс построения модели с использованием метода, основанного на правилах.

Kalit so‘zlar: *Zamon qo‘shimchalari, qoidalarga asoslangan metod, NLP, Python.*

Kirish

Dunyo tilshunosligida XX asr oxirlarida til korpuslarini tuzish ularni lingvistik annotatsiyalash dolzarblasha boshladi. XXI asrda ko‘plab so‘zlarni o‘z ichiga olgan korpuslar paydo bo‘la boshladi. Natijada fe’l zamonlarining avtomatik tahlil qilish muhim masalaga aylana boshladi. Fe’l so‘z turkumida zamon qo‘shimchalarini aniqlash biroz murakkab jarayon hisoblanadi, sababi fe’l zamonlarining ko‘chishi, konteksda boshqa bir zamonga ishora qilishi avtomatik tahlilda qiyinchiliklar keltiradi.

Metodologiya

Jahon korpus linvistikasida zamon shakllarini ko‘plab olimlar tadqiq etishgan sirasiga M.Verhagen, G.Marsik, N. UzZaman, L.Bierkandt, V. Gast kabi olimlar faqat muayyan grammatik shakllar orqali ifodalangan zamon ma’nosi emas, balki turli vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar, shuningdek, birikmalar va gaplarning o‘zaro munosabatidan kelib chiqadigan zamon ma’nosini modellashtirish masalalari ham o‘rganiladi. O‘z tadqiqotlarida korpus va uning tuzilishi, razmetka standartlari, matnning avtomatik morfologik va sintaktik tahlilini amalga oshirish kabi masalalarga e’tibor bergan olimlar V.P.Zaxarov, S.Y.Bogdanova, A.B.Kutuzov, Y.V.Nedoshivina, D.Y.Gruzdev, I.O.Kuznetsov, I.M.Nojov kabilardir.

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, matnga leksikografik ishlov berish va lingvostatistik tahlil etish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O‘zbek korpus lingvistikasida ham zamon shakllarini annotatsiyalash yuzasidan fikrlar morfologik teglash, morfoanalizator ishlab chiqish masalalari doirasidagi tadqiqotlarda bildirilgan. Sh.Hamroyeva “O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zbek tili morfoanalizatori uchun grammatik kategoriyalarni o‘zbek tili qonuniyatlari asosida qat’iy belgilash lozimligini ta’kidlab, o‘zbek tilidagi 11 ta grammatik kategoriyani, jumladan, zamon kategoriyasini ham ko‘rsatib o‘tadi [1]. M.Abjalova o‘zbek tili matnlarining avtomatik tahlili va tahriri bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotida tahlilning morfologik bosqichi doirasida zamon shakllariga ham to‘xtaladi [2]. Sh. Hamroyeva, O‘.Xoliyorov, G.Abdualimovalar tomonidan tuzilgan “Fe’l shakllari lug‘ati”da zamonning o‘zida 49ta, variantlari bilan esa 66ta shakl mavjudligi qayd etiladi [3]. Zamon kategoriyasi shakllari to‘liqsiz fe’llar bilan hosil qilingan analitik shakllar hisobiga shunday miqdorni ko‘rsatishi mumkin. A.Q.Po‘latov, T.P.Mo‘minova, I.O.Po‘latovalarning “Dunyoviy o‘zbek tili” kitobida ingliz tilida bir fe’l taxminan 100ta shaklga ega bo‘lgani holda o‘zbek tilida uning shakllari 100000dan oshishi haqida ma’lumot beriladi [4].

Asosiy qism

O‘zbek tilida zamon fe’lning muhim grammatik kategoriyalaridan biri bo‘lib, uch asosiy shaklga ega: Hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon.

№	Zamon shakllari	Qo‘shimchalari
1.	Hozirgi zamon	-yap,-yotir/ ayotir, -yotib/ ayotib, -moqda

2.	O‘tgan zamon	-di, -gan/ kan/ qan, -b/ ib, -r edi/ ar edi, //rdi/ ardi, -yotgan edi/ ayotgan edi, -yotib edi/ ayotib edi, -guvchi edi, -ydigan edi/ adigan edi, -moqda edi, -moqchi edi.
3.	Kelasi zamon	- y/ a, - ar, -r, -moqchi, -y/ ay - y/ a, - ar, -r, -moqchi, -y/ ay

Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning annotatsiyasi morfologik tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon shakllarining morfologik tahlilda ya’ni POS taggingda fe’l so‘z turkumiga oid so‘zshaklga grammatik xarasteristika berishda muhim hisoblanadi. Zamon qo‘shimchalarini avtomatik tahlil qilish uchun formal grammatikadan foydalaniladi. Sababi formal grammatika asosi o‘zak va affiks qoidalardan iborat.

Qoidalarga asoslangan model (Rule-based) orqali zamon kategoriyasini avtomatik aniqlash mumkin. Ushbu usul lingvistik qoidalarga asoslangan holda ishlaydi. Qoidalarga asoslangan yondashuv aniq va tushunarlilik darajasi yuqori bo‘lib, aynan morfologik tahlil talab qilinuvchi tizimlar uchun samarali yondashuv hisoblanadi.

Qoidalarga asoslangan model quyidagicha ishlaydi:

1. O‘zbek tilidagi zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning tizimli ro‘yxatini shakllantirish.

2. Berilgan matndan fe’llar ajratib olinadi

3. Matn tarkibidan zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni topishga xizmat qiluvchi lingvistik modellar ishlab chiqilib va ular asosida zamon shakllarini aniqlanadi.

4. Qoidalarga asoslanib qaysi zamon ekanligi aniqlanadi.

Zamon qo‘shimchalarini avtomatik aniqlashda python dasturlash tilidan foydalanildi. Bunda asosiy vazifa shaxs-son qo‘shimchalarini olib tashlash, fe’lning oxiri o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon qo‘shimchalari bilan tugashini tekshirish va aniqlangan fe’lni tegishli zamon ro‘yxatiga joylashtirish bilan yakunlandi. Zamon qo‘shimchalarini avtomatik aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanildi.

Funksiyalar	**Vazifasi**
.split()	Matnni so‘zlarga ajratish uchun ishlatilgan.

.endswith(qoshimcha)	So‘z oxiridagi qo‘shimchalarni tekshirish uchun ishlatilgan
[:-len(qoshimcha)]	So‘zdan qo‘shimchani olib tashlash uchun ishlatilgan
append()	So‘zlarni yangi ro‘yxatlarga qo‘shish uchun ishlatilgan.
for ... in ...:	Ro‘yxatlar ustida aylanish uchun ishlatilgan.
break	So‘zdan qo‘shimcha topilganda, keraksiz tekshiruvlarni to‘xtatish uchun ishlatilgan.

Foydalanilgan metodlar orqali ushbu natijaga erishildi.

Misol (*bordim, bormoqchisan, qilmoqdamiz*)

O‘tgan zamon so‘zlari:

Asosiy: *bor*, Qo‘shimcha: -di

Hozirgi zamon so‘zlari:

Asosiy: *qil*, Qo‘shimcha: -moqda

Kelasi zamon so‘zlari:

Asosiy: *bor*, Qo‘shimcha: -moqchi

Xulosa

O‘zbek tilshunosligida zamonni ifodalovchi grammatik shakllar va ularning tasnifi munozarali masalalardan hisoblanadi. Korpus tilshunosligida zamon kategoriyasini aniqlash uchun uning grammatik darajasi, semantik darajasi va kontekstual darajasini qamrab olish zarur. Natijada zamon qo‘shimchalarini matnda aniqlash birmuncha osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таьминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – Б. 150.
2. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) …дисс. – Фарғона, 2019. – Б.125–126.
3. Hamroyeva Sh., Xoliyoyorov O‘., Abdualimova G. O‘zbek tilining fe’l shakllari lug‘ati. (“kiymoq” fe’li misolida) I jild. – Termiz, 2021. – B. 19.
4. Пўлатов А.Қ., Мўминова Т.П., Пўлатова И.О. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Universitet, 2003. – Б. 3.

5. Elova D. Fe’l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko‘ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida.
6. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Бухоро, 2018. – Б. 3.
7. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Uzakova M. O‘zbek tilida POS tegging masalasi: muammo va takliflar / Uzbekistan: Language and Culture. Applied philology. 2022/2(5). – 51-68-b.
8. Ғуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 19–38
9. Сулаймонов А., Ҳожиев А., Жўраева Ж. Феъл замонлари. – Тошкент, 1962. – 168 б.
10. https://ucrel.lancs.ac.uk/papers/ClawsWordTaggingSystemRG87.pdf
11. https://uznatcorpara

UDK: 811.512.133`42

TURKIY TILLARDAGI TREEBANKLAR KLASSIFIKATSIYASI

Bozorqulova O‘g‘iloy Erkin qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
ogiloybozorqulova62@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda turkiy tillar uchun yaratilgan treebanklarning tasnifi o‘rganilib, ularning lingvistik xususiyatlari hamda qo‘llanilish sohalari atroflicha tahlil qilinadi. Turkiy tillarning grammatik tuzilishi va so‘z yasash xususiyatlari va ushbu tushunchalar treebanklarga qay darajada ta’sir etishiga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Abstract. This study analyses the classification of treebanks created for Turkic languages, their linguistic features, and their scope of use. A particular focus is placed on the extent to which the grammatical structure and word formation features of Turkic languages affect treebanks.

Аннотация. В данном исследовании анализируется классификация древесных банков, созданных для тюркских языков, их лингвистические особенности и сфера использования. Особое внимание уделяется тому, в какой степени грамматическая структура и особенности словообразования тюркских языков влияют на банки деревьев.

Kalit so‘zlar: *Treebank, turkiy tillar, sintaktik tahlil, morfologik teglash, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik analiz.*

Zamonaviy kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida treebanklar (sintaktik korpuslar) muhim resurs sifatida ajralib turadi. Treebank – bu tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuter lingvistikasi uchun maxsus ishlab chiqilgan korpus bo‘lib, undagi har bir gap sintaktik tahlil qilinib, daraxt strukturasida (tree structure) annotatsiya qilingan. Boshqacha qilib aytganda, treebank faqat matnlarni saqlab qolishdan tashqari, ularning grammatik tuzilishi, jumladan, so‘z turkumlari, fraza strukturalari va sintaktik bog‘lanishlari haqidagi ma’lumotlarni ham taqdim etadi. Bu resurslar zamonaviy lingvistik tahlil va NLP modellari uchun asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Treebankning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: sintaktik annotatsiyalash jarayonida har bir so‘zga uning grammatik roli (masalan, ot, fe’l, sifat va boshqalar) va sintaktik bog‘lanishlar (qaysi so‘z qaysi so‘z bilan bog‘langanligi) aniqlanadi. Misol uchun, “Kitobni stolga qo‘ydim” gapini tahlil qilsak, “kitobni” - to‘ldiruvchi, “stolga” - hol,

“qo‘ydim” esa kesim sifatida belgilangan. Treebank ushbu grammatik va sintaktik ma’lumotlarni tizimli ravishda tashkil etib, lingvistik tahlillar hamda NLP tadqiqotlari uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Daraxt shaklidagi strukturalash jarayonida gap tarkibidagi so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar daraxt shaklida ifodalanadi. Ushbu yondashuv sintaktik tahlilning aniq va tizimli tasvirini taqdim etib, har bir so‘zning grammatik roli hamda boshqa so‘zlar bilan bog‘lanish xususiyatlarini vizual ravishda aks ettiradi. Daraxt strukturalash tabiiy tilni qayta ishlash va lingvistik tahlil uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Treebanklar constituency (bo‘laklar) yoki dependency (bog‘lanishlar) asosida qurilishi mumkin. Bunday strukturalar har bir gapning sintaktik munosabatlarini aniq va tizimli shaklda tasvirlash imkonini beradi. Treebanklar tabiiy tilni qayta ishlash sohasida juda muhim manba hisoblanib, NLP modellarini (masalan, sintaktik tahlil dasturlari va mashina tarjimasi tizimlari) o‘qitishda qo‘llaniladi. Shuningdek, ular til qonuniyatlarini o‘rganish, grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish kabi vazifalarni amalga oshirishda keng foydalaniladi. Ushbu resurslarning amaliy ahamiyati lingvistika va kompyuter fanlari kesishmasida katta o‘rin egallaydi. Treebanklar matnlarning grammatik tuzilishini daraxt shaklida (masalan, dependency parsing yoki constituency parsing) aniqlash orqali mashinalarga tilni tushunish va generatsiya qilish imkoniyatini taqdim etadi. Shunga qaramay, dunyoda 180 milliondan ortiq so‘zlashuvchiga ega bo‘lgan turkiy tillar (jumladan, turk, o‘zbek, qozoq, uyg‘ur, qirg‘iz va boshqalar) uchun treebank resurslari nisbatan kam bo‘lib, ular tizimli klassifikatsiyaga ega emas. Ushbu tadqiqotning maqsadi turkiy tillar uchun yaratilgan treebanklarni lingvistik, texnologik va annotatsiya jihatlari asosida tasniflash, mavjud resurslarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda kelajakdagi loyihalar uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Turkiy tillar o‘ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar treebank yaratishda Yevropa tillari (masalan, ingliz tili) uchun ishlab chiqilgan an’anaviy annotatsiya sxemalarini moslashtirish jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Masalan, Universal Dependencies (UD) loyihasini turkiy tillarga moslashtirish bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi, chunki bu tillarning morfosintaktik tuzilishi UD talablariga to‘liq mos kelmaydi. Natijada, turkiy tillar uchun treebanklarni alohida tasniflash va ularga moslashtirilgan annotatsiya qoidalarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ladi. Shunga qaramay, turkiy tillar uchun treebanklarning yetishmasligi mintaqada NLP texnologiyalarining sekin rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Misol uchun, o‘zbek tilida ishlaydigan ChatGPTga o‘xshash modellar hali cheklangan darajada faoliyat olib bormoqda, chunki ular o‘zbek tilining murakkab sintaktik tuzilishini to‘liq o‘zlashtira olmagan. Ushbu holat turkiy tillar uchun chuqur lingvistik tadqiqotlar va zamonaviy NLP resurslarini yaratish zarurligini yaqqol ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda

turkiy tillar ichida faqat turk tili uchun keng qamrovli treebank resurslari mavjud. Ulardan biri – Turkish Web Treebank [2], bu 1 million so‘zdan iborat korpus bo‘lib, Universal Dependencies (UD) sxemasi asosida annotatsiya qilingan. Shuningdek, METU-Sabancı Treebank [3] turk tilining morfologik tahliliga qaratilgan. Boshqa turkiy tillar, jumladan uyg‘ur va qozoq tillari uchun treebanklar faqat akademik loyihalar doirasida yaratilgan. Masalan, Kazakh Dependency Treebank [4] 30 000 so‘zdan iborat bo‘lib, asosan gazeta matnlarini o‘z ichiga oladi.

Jahonning ko‘zga ko‘ringan tillari, jumladan ingliz, nemis va fransuz tillarida treebank dasturlarini yaratish dastlab bir qancha muammolarni hal qilishni talab etgan. Turkiy tillarda treebank tizimini yaratishda esa tilning o‘ziga xos imkoniyatlari va lingvistik xususiyatlarini inobatga olgan holda ish olib borish zarur. Xususan, morfologik murakkablik va sintaktik moslikni Universal Dependencies (UD) annotatsiyasiga moslashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turkiy tillarning morfosintaktik tuzilmalari UD talablariga to‘liq mos kelmasligi sababli bir qancha nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Bu nomuvofiqliklar sintaktik tartib va morfologik shakllar asosida namoyon bo‘lib, treebank tizimini ishlab chiqish jarayonida maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Chunki turkiy tillarda so‘zlar affikslar orqali ko‘plab grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Bundan tashqari turkiy tillarda sintaktik tartib quyidagi ko‘rinishda belgilanadi: SOV – “Men [subyekt] kitob [obyekt] o‘qiyman [fe’l]. Bu kabi xususiyatlar esa treebank annotatsiyasini murakkablashtiradi. Ammo bu kabi muammolarga qaramasdan turkiy tillarga mansub ba’zi tillarda ushbu tizim yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda tizimni rivojlantirish uchun say-harakatlar amalga oshirilmoqda. Quyida turkiy tillarda mavjud treebanklar haqida asosiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan jadval keltirilgan.

1-jadval. Turkiy tillarda mavjud treebanklar tasnifi

Til	Treebank nomi	Korpus hajmi	Annotatsiya sxemasi	Mavjudligi	Xususiyatlar/ kamchiliklari
Turk tili	Turkish Web Treebank (TWT)	1 million so‘z	Universal Dependencies (UD)	Ochiq manba	Murakkab morfologiya, ko‘p qatlamli annotatsiya
Turk tili	METU – Sabanci Treebank	500 000 so‘z	LFG (Lexical-Functional Grammar)	Akademik loyiha	Morfologik tahlilga qaratilgan
Qozoq tili	Kazakh UD Treebank	30 000 so‘z	Universal Dependencies	Ochiq manba	Asosan gazeta matnlari qamrab olingan

Uyg‘ur tili	Uyghur UD Treebank	20 000 so‘z	UD + alohida morfologik belgilar	Tajribaviy	NLP vositalari to‘liq qo‘llanilmagan
Qirg‘iz tili	-	-	-	Yo‘q	Hech qanday treebanklar mavjud emas
Turkman tili	-	-	-	Yo‘q	Faqat lug‘atlar va grammatik qo‘llanmalar
Tatar tili	Tatar Corpus (Arenas et al.)	10 000 so‘z	UD (qisman)	Cheklangan	Noto‘liq annotatsiya, asosan folklor matnlari

Yuqoridagi treebanklar orasida faqat turk va qozoq tillari uchun nisbatan tizimli treebanklar mavjud. Shunga qaramay, mavjud treebanklar bir qator kamchiliklarga ega, jumladan, matn turlarining bir xilligi (asosan gazeta va adabiy matnlar bilan cheklangan) va dialektlar hamda shevalarni qamrab olmasligi. Lotin-kirill alifbosidagi tillar, xususan o‘zbek tili uchun esa Universal Dependencies (UD) annotatsiyasini moslashtirish nisbatan osonroq kechadi. UD qoidalariga ko‘ra, standart POS teglar mavjud bo‘lib, bu teglar so‘z turkumlarining nomlari orqali (masalan, noun, verb, adjective) annotatsiya qilinadi. Shuningdek, UDda so‘z tartibi SVO (subject-verb-object) formatida belgilanadi. Masalan, “I read a book” gapida I – subject (ega), read – verb (kesim), a book – object (to‘ldiruvchi) sifatida aniqlanadi. Ushbu belgilash tizimi dunyo tillarining ko‘pchiligi uchun mos keladi. Biroq, turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Turkiy tillar agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo‘lib, bu tillar murakkab morfologik belgilarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, turkiy tillarning so‘z tartibi SOV (subject-object-verb) shaklida bo‘lib, bu dunyo tillarining ko‘pchiligidagi SVO tartibidan farqlanadi. Ushbu morfosintaktik xususiyatlar turkiy tillar uchun UD annotatsiyasini kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Global tajribani turkiy tillarga tatbiq qilish orqali ham muammoni hal qilish mumkin. Masalan, boshqa agglyutinativ tillar, jumladan fin va venger tillari uchun Fin UD treebankida morfologik belgilar XPOS va UPOS annotatsiyasi orqali qo‘shilgan[1]. Japanese BCCWJ [5] korpusiga esa matn turlari (rasmiy va norasmiy) bo‘yicha segmentatsiya kiritilib, tizimdagi muammolar bartaraf etilgan. Ushbu tajribalar turkiy tillar uchun ham Universal Dependencies (UD) annotatsiyasini yaxshilashda qo‘llanilishi mumkin.

2-jadval. UD va Turkiy tillar annotatsiyalarining xususiyatlari taqqoslangan.

Universal Dependencies	**Turkiy tillar annotatsiyasi**
Standart POS teglar	Murakkab morfologik belgilar
SVO sintaktik tartibi	SOV sintaktik tartibi

Global bog‘lanishlar | Tilga xos bog‘lanishlar

Treebanklarni yaratishga qaratilgan ilmiy ishlar va maqolalarda turkiy tillar va UD annotatsiyalari orqasidagi farqlar va o‘zaro moslashtirish masalasi ilgari suriladi. Quyidagi jadvalda Universal Dependencies va Turkiy tillar annotatsiyasi o‘rtasidagi farqlar keltirib o‘tilgan.

3- jadval. Universal Dependencies va Turkiy tillar annotatsiyasi o‘rtasidagi asosiy farqlar

Xususiyat	**UD standarti**	**Turkiy tillar (Moslashtirilgan)**	**Misollar**
Morfologik annotatsiya	Oddiy Pos teglar (Noun, Verb kabi)	Qo‘shimcha morfologik belgilar (Case, Voice).	*Uyg‘ur: Noun+Case=Genitive*
Sintaktik bog‘lanishlar	Asosiy bog‘lanishlar (nsubj, obj, obl).	Tilga xos bog‘lanishlar (compound:lvc,aux:q).	*O‘zbek: compound: lvc (yordamchi fe’l).*
So‘z tartibi	SVO (Subject-Verb_Object) ga mos	SOV (Subject-Object-Verb) bilan moslashtirilgan.	*“Men kitob o‘qidim” nsubj (o‘qidim, Men).*
Affikslar	So‘z sifatida ajratilmaydi	Morfemalarga bo‘linishi mumkin.	*Turk: “okudugum” “oku+dug+um”.*
Case marking	Case xususiyati oddiy (Nom, Acc, Gen).	Batafsil case belgilari (Abl, Loc, Equ).	*Qozoq: Case = Equ*
Qo‘llanilish darajasi	100+ tilda standart	Faqat 5-6 turkiy tilda (turk, qozoq).	*Uyg‘ur UD beta versiyasida*

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqadiki, Universal Dependencies (UD) loyihasi global miqyosdagi tillarning turli xususiyatlarini qamrab oladi, bu esa UD tizimining odatiy morfologik belgilar to‘plamidan ham ko‘rinadi. Turkiy tillarga moslashtirilgan UD sxemasiga qo‘shimcha morfologik belgilar kiritilishi tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zaruratini ifodalaydi. Masalan, **case** turkiy tillarda so‘z turkumining holatini belgilash vazifasini bajaradi, **voice** esa fe’llarning modallik belgilarini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu kategoriyalar o‘z ichida ichki guruhlarga bo‘linishi mumkin, bu esa tilni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Sintaktik tartib masalasi ham bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. UD standartlariga ko‘ra so‘zlar morfemalarga ajratilmaydi, biroq turkiy tillar o‘zining grammatik o‘ziga xosliklari sababli bu talabni qo‘llab-quvvatlamaydi. Agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lgan turkiy tillarda murakkab so‘zlarni morfemalarga ajratish zarur. Masalan, qozoq tilidagi “барыпжатырмын” (borayotirman) so‘zi quyidagicha morfemalarga bo‘linadi: **бар** – fe’l (bor), - **ып** – zamon qo‘shimchasi,

- **жатыр** – hozirgi zamon qo‘shimchasi, - **мын** 1-shaxs shaxs-son qo‘shimchasi (-man). Ushbu xususiyatlar turkiy tillarning grammatik tizimini aniq va to‘liq tasvirlash uchun morfemalashni talab qiladi. Bundan tashqari, UD tizimi dunyo bo‘ylab 100 dan ortiq tillarga moslashtirilgan va faol qo‘llanilmoqda. Ammo turkiy tillar oilasidagi tillar faqat cheklangan darajada moslashtirilgan variantlaridan foydalanmoqda. Bu holat turkiy tillarning lingvistik o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda, UD sxemasini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida turkiy tillar uchun mustahkam va moslashtirilgan treebank resurslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillar uchun yaratilgan treebanklar lingvistik va kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Ushbu resurslar sintaktik tahlil jarayonini avtomatlashtirish, tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish va turkiy tillarning grammatik xususiyatlarini chuqur tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Turkiy tillar agglutinativ xususiyatlari bilan ajralib turgani sababli, ularga mos treebanklar so‘z shakllari, morfologik tahlil va sintaktik tuzilish nuqtayi nazaridan murakkablik kasb etadi. Mazkur tasnif turkiy tillar uchun mavjud treebanklarning tuzilishini, ularning lingvistik modelga asoslangan yondashuvlarini hamda annotatsiya tizimlarining farqlarini aniq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, treebanklar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tahlil qilinib, ularning tabiiy tilni qayta ishlashdagi samaradorligi baholangan. O‘rganilgan treebanklar turli standartlarga asoslangan bo‘lib, ba’zilari Universal Dependencies (UD) formatida ishlab chiqilgan, boshqalari esa milliy lingvistik an’analarga tayangan. Natijada, turkiy tillar uchun treebank yaratish jarayonida umumiy qoidalar va standartlar katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos grammatik va morfologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ham alohida qayd etilgan. Bunday yondashuv turkiy tillar uchun mos treebank resurslarini yaratishga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pyysalo S., Kanerva J., Missila A., Laipala V., Jinter F. The Finnish universal dependencies Treebank/ Proceedings of the 20th Nordic Conference of Computational Linguistics (NODALIDA 2015). – Finlandiya, 2015. 164-165-p.
2. Pamay T., Sulubacak U., Torunog‘lu-Selamet D., Eryigit G. The annotation process of the ITU WEB Treebank / Proceedings of LAW IX - The 9th Linguistic Annotation Workshop. – Colorado, 2015. 95-p.
3. Sulubacak U., Eryigit G., Pamay T. A revisted dependency Turkish Treebank/ Proceedings of TurCLing 2016, the 1st International Conference on Turkic Computational Linguistics. – Turkey, 2016. 4-p.

4. Tyers F., Washington J. Towards a free/open-source universal-dependency treebank for Kazakh / 3rd International Conference on Computer Processing in Turkic Languages (TURKLANG 2015). – Kazan, 2015. 3-p.

5. Omura M., Asahara M. UD-Japanese BCCWJ: Universal Dependencies Annotation for the Balanced Corpus of Contemporary Written Japanese / Proceedings of the Second Workshop on Universal Dependencies (UDW 2018). – Brussel, 2018. 117-p.

O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z BIRLIKLARINI OLMOSH SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA POS TEGLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Karimova Zilola Dilmurod qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
karimovazilola791@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘z birliklarini Olmosh so‘z turkumi doirasida avtomatik teglash (POS tagging) orqali aniqlashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Xususan, olmoshlarning morfologik shakllari, kontekstual ko‘rinishlari va leksik-semantik xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan xatolar ko‘rib chiqiladi. Muammolarning texnik va lingvistik jihatlari o‘rganilib, tegishli qismlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar bildiriladi.

Abstract. This paper analyzes the core challenges of automatic part-of-speech (POS) tagging of pronouns in the Uzbek language. It focuses on morphological forms, contextual usage, and lexical-semantic characteristics of pronouns that often cause tagging errors. Statistical data and diagrams based on annotated Uzbek corpora are presented, and several practical solutions are proposed to enhance model accuracy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные проблемы автоматической части речи (POS tagging) для местоимений в узбекском языке. Особое внимание уделяется морфологическим формам местоимений, их контекстуальным проявлениям и лексико-семантическим особенностям, вызывающим ошибки в системах автоматической обработки. На основе аннотированных корпусов узбекского языка проведён статистический анализ и предложены возможные решения для повышения точности.

Kalit so‘zlar: *Olmosh so‘z turkumi, statistik tahlil, POS tagging, morfologik analiz, avtomatik belgilash, korpus tilshunosligi*

KIRISH

Zamonaviy kompyuter lingvistikasi sohasida tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, so‘z turkumlarini avtomatik aniqlash – Part-of-Speech (POS) tagging texnologiyasi tilshunoslik tadqiqotlarida asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ko‘plab rivojlangan tillarda (ingliz, rus, fransuz va boshqalar) bu yo‘nalishda mustahkam korpuslar, model va

teglovchilar mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek tilida POS tagging texnologiyasining to‘liq shakllanmaganligi ilmiy-amaliy izlanishlar zaruratini yuzaga keltirmoqda[1].

Hozirgi kunda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida matndagi so‘zlarning kategoriyalarini aniqlash muammosi dolzarb hisoblanadi. So‘zlarning ot, olmosh, fe’l, ravish kabi kategoriyalarga mansubligini aniqlash POS (Parts of Speech) tagging deb ataladi. Bu jarayon matnni tahlil qilishda va mashinali o‘qitishda muhim ahamiyatga ega[2].

O‘zbek tilidagi olmoshlar semantik va sintaktik jihatdan murakkab birliklar hisoblanadi. Ularda kontekstga bog‘liq holda o‘zgaruvchanlik mavjudligi tufayli, avtomatik tizimlar tomonidan noto‘g‘ri belgilanish hollari ko‘p uchraydi. Xususan, shaxs olmoshlari (*“men”, “sen”, “u”*), ko‘rsatish olmoshlari (*“bu”, “shu”, “o‘sha”*) orasidagi formal yaqinlik, yoki so‘roq (*“kim”, “nima”*) va gumon olmoshlari (*“kimdir”, “qandaydir”*) orasidagi semantik noaniqlik natijasida POS tagging tizimlarida xatoliklar kuzatiladi.

Olmoshlarning turlari – kishilik, ko‘rsatish, so‘roq, o‘zlik, belgilash, bo‘lishsizlik va gumon olmoshlaridir. Ularning har biri morfologik va semantik jihatdan farqlanadi. Ular o‘z funksional yuklamasiga ko‘ra gapda turli sintaktik rolni bajaradi. Masalan, kishilik olmoshlari ko‘pincha ega vazifasida ishlatilsa, ko‘rsatish olmoshlari aniqlik kirituvchi yoki ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, olmoshlar tuzilishiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

1. *Sodda olmoshlar:* sen, u, biz, bu, shu
2. *Qo‘shma olmoshlar:* har kim, har nima, hech kim
3. *Juft olmoshlar:* kim-kim, nima-nima
4. *Takroriy olmoshlar:* o‘sha-o‘sha, shu-shu

1-jadval. Olmoshlarning gapdagi grammatik roli

№	Olmosh turi	Namuna	Grammatik rol
	Kishilik	men, sen, u	Subyekt, obyekt
	Ko‘rsatish	bu, shu, o‘sha	Aniqlik kirituvchi
	So‘roq	kim, nima, qaysi	Savol bildiruvchi
	Gumon	kimdir, nimadir	Noaniqlik bildiruvchi
	O‘zlik	o‘zim, o‘zing	Refleksiv holat
	Belgilash	har kim, har nima	Universal
	Bo‘lishsizlik	hech narsa, hech kim	Inkor holat

Bu jadvaldagi olmoshlar POS teglovchi modellarni tuzishda har bir olmosh turini alohida yondashuv bilan ko‘rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, olmoshlar sintaktik roliga qarab turlicha turlarga kiritilishi, ular asosida avtomatik teg qo‘yuvchi algoritmlarni sinovdan o‘tkazish zaruratini vujudga keltiradi.

Asosiy qism. Nutqning bir qismi (POS) – so‘zning grammatik funksiyasini tavsiflash usuli. POS teglari NLP ning yuqori darajadagi funksiyalarida qo‘llanilsa-da, ularni o‘z-o‘zidan tushunish muhim va ularni matn tahlilida foydali maqsadlarda ishlatish mumkin[3].

Olmosh so‘z turkumi ikki xil ko‘rinishga ega, ya’ni *sof olmosh tabiatli so‘zlar* hamda *olmosh vazifasida qo‘llaniluvchi so‘zlar*. Sof olmosh so‘zlar o‘zida olmoshning barcha jihatlarini aks ettiradi, uning tub mohiyati ham olmosh ma’nosini ifodalaydi, ularga misol sifatida men, sen, ular, kimdir, nimadir va hokazolarni keltirish mumkin. Olmosh vazifasida qo‘llaniluvchi istilohlar esa tabiatan olmosh xarakteriga ega bo‘lsa-da, biroq ularning kelib chiqishi aslan boshqa so‘z turkumlariga ya’ni ot, sifat so‘z turkumlariga oid bo‘ladi. Nomlari qayd etilgan har ikki toifa bir-biridan ba’zi jihatlariga ko‘ra farqlanadi hamda ularning ayrim o‘xshash jihatlari ham mavjud[4]. Uni quyidagi 2-jadval asosida ko‘rib chiqamiz.

2-jadval.Olmosh so‘z turkumining qo‘llanish o‘rinlari

№	Sof olmosh tabiatli so‘zlar	Olmosh vazifasida keluvchi so‘zlar
	Olmoshning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi	Olmoshning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi
	Kelib chiqishiga ko‘ra ham olmosh turkumiga mansub bo‘ladi	Kelib chiqishigako‘ra boshqa so‘z turkumlariga oid bo‘lishi mumkin
		Ayrim hollarda asl so‘z turkumi bajargan vazifasini bajaradi (masalan, sifat so‘z turkumiga oid bo‘lsa, sifat so‘z turkumining xususiyatini aks ettirishi mumkin)

O‘zbek tilida olmoshlarning POS teglashdagi asosiy muammolaridan biri ularning ko‘p funksiyali va kontekstsiz ajratishning murakkabligidir. Masalan, “u” so‘zi kishilik olmoshi sifatida ham (*“U maktabga bordi”*), ko‘rsatish olmoshi sifatida ham (*“U bola sinfda qolibdi”*) ishlatilishi mumkin. Bu holat avtomatik teglashda ikki xil tegni talqin qilishga olib keladi. Shuningdek, so‘roq va gumon olmoshlari ham ko‘p hollarda bir-biriga yaqin strukturada bo‘lib, ayniqsa matn korpuslarida notekis ishlatilgan. Masalan, *“kim”* (so‘roq) va *“kimdir”* (gumon) olmoshlari korpuslarda ko‘pincha yagona teg bilan belgilangan, bu esa statistik modellar uchun chalg‘ituvchi hisoblanadi[5].

Olmoshlar tuzilmasiga ko‘ra, ularni sodda, qo‘shma, juft va takroriy turlarga ajratish mumkin. Sodda olmoshlar bir morfemali bo‘lsa, qo‘shma olmoshlar ikki yoki undan ortiq so‘zning birikmasidan tashkil topadi *(“har kim”, “biror narsa”)*. Juft olmoshlar esa ikki marta takrorlangan yoki o‘zaro juftlashgan olmoshlardir (*“kim-kim”, “nima-nima”*). Takroriy olmoshlar esa ayni bir olmoshning ikki marta takrorlanishi orqali hosil bo‘ladi (*“shu-shu”, “o‘sha-o‘sha”*). Bu strukturalarning

ko‘pligi va kontekstdagi rolini hisobga olgan holda, POS teglashda morfologik analizatorlarning aniqligini oshirish uchun chuqur semantik va sintaktik tahlil zarur. Masalan, mashinali o‘qitish asosidagi modellar uchun olmoshlarni kontekstual

Misollar bilan boyitish, yoki BERT modeli asosida maxsus mexanizmni joriy qilish taklif etiladi. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, POS teglashda nafaqat sirtqi ko‘rinish, balki olmoshlarning gapdagi vazifasi, atrofdagi birliklar bilan munosabati ham muhimdir. Bu esa olmoshlarning alohida korpuslarda semantik belgilanishi, qo‘shimcha atributlar bilan boyitilishi, teglashda rule-based va statistik yondashuvlarning kombinatsiyasini talab qiladi[6].

Olmoshlar bilan bog‘liq POS teglashdagi muammolarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

- Olmoshlarning mazmuni va ularning grammatik funksiyalari kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “u” so‘zi “u” olmoshi bo‘lishi mumkin, ammo u shaxsni bildirgan holda ishlatilganida “u”ning o‘zi haqida gapirsa, boshqacha xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu kabi muammolarni to‘g‘ri tahlil qilishda POS tagging tizimlari uchun qiyinchilik tug‘diradi.
- Kishilik va o‘zlik olmoshlarini ajratish: Ba’zi olmoshlar bir nechta shartli vaziyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, “men” olmoshi shaxsni bildiradi, ammo “o‘zim” olmoshi o‘zlikni bildiradi. Bu ikki turdagi olmoshlarni to‘g‘ri ajratib olish tizim uchun qiyin bo‘lishi mumkin.
- Ko‘rsatish olmoshlarining aniq tahlili: “Bu” va “shu” kabi ko‘rsatish olmoshlari, odatda, predmetni yoki shaxsni aniq belgilash uchun ishlatiladi, ammo kontekstga qarab ular farqlanishi mumkin. Bu holatni aniqlash uchun kontekstni tahlil qilish talab etiladi.
- Bo‘lishsizlik olmoshlari: Bo‘lishsizlik olmoshlari (“hech kim”, “hech narsa”) juda ko‘p holatlarda, ayniqsa so‘roq gaplarida yoki inkor javoblarda ishlatiladi. Ularni to‘g‘ri tegishli kategoriyaga o‘tkazish uchun muayyan algoritmlar ishlab chiqilishi zarur.

3-jadval Olmoshlar bilan bog‘liq POS teglashdagi muammolar

№	Muammo turi	Tavsif	Misollar
	Morfologik	Olmoshlarning boshqa so‘z turkumlari bilan shaklan o‘xshashligi, qo‘shimchalarga ega bo‘lishi	“Uning kitobi”, “O‘zini yo‘qotdi”
	Kontekstual	Gapdagi o‘rni va vazifasiga qarab nolmoshlarning noto‘g‘ri turkumlanishi.	“Bu yaxshi fikr”, “Bu esa boshqa masala”
	Leksik-semantik	Ma’no va referentga bog‘liq holda olmoshlarning chalkash teglanishi	“Hech kim kelmadi”, “Kim bo‘ldi u?”

POS tagging tizimlarida olmoshlarni tahlil qilishda quyidagicha yechimlarni berishimiz mumkin:

1. *Statistik va ma’lumotlarga asoslangan modellar:* HMM (Hidden Markov Model) va boshqa statistik modellar, masalan, Viterbi algoritmi yordamida olmoshlarni tahlil qilishda kontekstga asoslanib to‘g‘ri POS tegini aniqlash mumkin. Bu modellarda har bir so‘zning ehtimoliy pozitsiyasini aniqlash orqali olmoshlarning to‘g‘ri kategoriyasini belgilash mumkin[7].

2. *Deep Learning metodlari:* O‘qitilgan neyron tarmoqlari yordamida olmoshlar turini aniqlashda, masalan, LSTM (Long Short-Term Memory) yoki BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modellarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlar kontekstni chuqur o‘rganib, olmoshlarning to‘g‘ri tahlilini amalga oshiradi[8].

3. *Qayta ishlash va morfologik tahlil:* Olmoshlarni to‘g‘ri ajratish uchun morfologik tahlil qilish va qayta ishlash texnikalari ishlatiladi. Bu jarayonlarda so‘zning tarkibiy qismlari, affikslar va sintaktik o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

XULOSA.

Olmosh so‘z turkumi o‘zbek tilining murakkab va ko‘p qatlamli leksik-morfologik qatlamlaridan biri bo‘lib, ularni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali aniqlash va teg belgilash (POS tagging) amaliyotida bir qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada biz aynan morfologik, kontekstual va leksik-semantik muammolarni tahlil qildik va ularning har biri POS tagging tizimlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatib berdik. Morfologik muammolar asosan olmoshlarning boshqa so‘z turkumlari bilan shaklan o‘xshash bo‘lishi va morfemik jihatdan bir nechta variantlarga ega bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Kontekstual muammolar esa, ayniqsa ko‘rsatish, so‘roq va belgilash olmoshlariga xos bo‘lib, bir xil ko‘rinishdagi birliklarning har xil kontekstlarda turli sintaktik vazifalarni bajarishi bilan bog‘liq. Leksik-semantik muammolar esa referentga bog‘liq holda olmoshning asl ma’nosini to‘g‘ri aniqlashdagi murakkabliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ular faqat sintaktik va semantik bog‘liqlik orqali hal qilinishi mumkin. Zamonaviy NLP (Natural Language Processing) texnologiyalarining rivojlanishi ushbu muammolarni hal qilish imkonini bermoqda. Xususan, gibrid yondashuvlar – ya’ni morfologik tahlil, kontekstual model (masalan, HMM, CRF, BERT asosidagi modellari) va semantik tahlil birgalikda qo‘llanilganda olmoshlarni to‘g‘ri teglash darajasi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, o‘zbek tiliga moslashtirilgan yorliqlash tizimlari, annotatsiyalangan korpuslar, va qo‘llanmalarning mavjudligi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Shu bois, olmoshlarning POS teglashdagi aniqligi tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi uchun nihoyatda muhim bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar yanada chuqurlashtirilmog‘i zarur. O‘zbek tilining turkiy tillar orasida o‘ziga xos morfologik xususiyatlarga ega ekanini inobatga olgan holda, mahalliy tilshunos va dasturchilar hamkorligida ilg‘or va aniq ishlovchi tizimlar ishlab chiqilishi dolzarb masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marie Novotná, Markéta Masopustová. Using Syntax Analyser SET as a GrammarChecker for Czech.2018.9.
2. Elov B., Hamroyeva Sh., Xusainova Z., Xudayberganov N., Yodgorov U., Yuldashev A. POS tagging of uzbek texts using Hidden Markov Models (HMM) and Viterbi algorithm.2023.105-bet.
3. Toshpo‘latov Z. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –T.: Fan (2017.45-bet)
4. Brayan Roepke. A Quick Guide to Part of Speech Tagging. 2021.14.
5. Ne’matov H., Rasulov R..O‘zbek tili system leksikologiyasi asoslari.-T.:Fan, 1975.36-bet
6. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya.-T.:Fan,1975.48.
7. Jurafsky and Martin. Speech and Language Processing, 3rd edition, Draft chapters (Stanford NLP)2018.56.
8. Karel Pala. Comments onCzechMorphological Tagset (2018.67-69)
9. https://part of speech and taggings, natural language processing
10. Rada Mihalcea, Raymond Mooney, Dan Jurafsky. Word Classes and Part of Speech Tagging. (2018.10-12)

IV SHO‘BA. MASHINA TARJIMASI

GRAMMATIK TEGLASHDA MASHINALI O‘QITISH YONDASHUVI

Hamroyeva Shahlo Mirdjanovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Erkinjonova Go‘zal Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
uzbekistan-24@mail.ru
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Grammatik teglash tabiiy tilni qayta ishlashning (NLP) muhim sohasi hisoblanadi. So‘zlarning gapdagi sintaktik va morfologik rolini aniqlash uchun ishlatiladi. Mashinali o‘qitish yondashuvlari grammatik teglashda an’anaviy qoidalarga asoslangan usullarga nisbatan sezilarli yaxshilanishlarni ta’minlamoqda. Ushbu maqolada mashinali o‘qitish asosida grammatik teglash usullari, ularning ishlash tamoyillari va o‘zbek tilida qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Annotation: Grammar tagging is an important field in natural language processing (NLP). It is used to determine the syntactic and morphological roles of words in a sentence. Machine learning approaches provide significant improvements over traditional rule-based methods in grammar tagging. This article analyzes machine learning-based grammar tagging methods, their working principles, and their application in the Uzbek language.

Аннотация: Грамматическая разметка является важной областью обработки естественного языка (NLP). Она используется для определения синтаксических и морфологических ролей слов в предложении. Подходы машинного обучения обеспечивают значительные улучшения по сравнению с традиционными методами, основанными на правилах, в грамматической разметке. В этой статье анализируются методы грамматической разметки на основе машинного обучения, их принципы работы и применение в узбекском языке.

Kalit so‘zlar: *Mashinali o‘qitish, chuqur o‘rganish, grammatik teglash, qoidalarga asoslangan yondashuv, NLP, o‘zbek tili, POS tagging.*

KIRISH

Mashinali o‘qitish (Machine Learning, ML) – bu sun’iy intellektning (SI) bir bo‘limi hisoblanadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) va til modellari uchun mashinali o‘qitish juda muhim, chunki bu texnologiya tilni tushunish, tahlil qilish va avtomatik tarzda ishlov berish uchun juda zarur bo‘ladi. Mashinali o‘qitish tilni avtomatik tarzda tushunish va qayta ishlashni

ta’minlaydigan turli usullarni rivojlantirishga yordam beradi: Mashinali o‘qitishning teglashdagi o‘rni shundaki, model o‘rgatish jarayonida ma’lum bir til va uning tarkibiy qismlarini taniy oladi. Bu jarayon odatda katta hajmdagi annotatsiyalangan ma’lumotlar bilan amalga oshiriladi. Mashinali o‘qitish metodlari, xususan, supervized o‘qitish (supervised learning), bu turdagi tahlillarni avtomatlashtirish uchun ishlatiladi.

Jahon kompyuter lingvistikasida grammatik teglash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Penn Treebank korpusi asosida yaratilgan ingliz tili uchun taggerlar, hamda Universal Dependencies loyihasi doirasida turli tillar bo‘yicha teglash tizimlari ishlab chiqilgan. So‘nggi yillarda BERT, GPT va XLM-R kabi transformer modellaridan foydalangan holda yuqori aniqlikdagi grammatik teglash tizimlari ishlab chiqilmoqda, Bojanowski va boshqalar (2017)[1] tomonidan ishlab chiqilgan fastText modeli turli tillardagi grammatik teglashga qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatgan.

O‘zbek tilida grammatik teglash bo‘yicha tadqiqotlar so‘nggi yillarda boshlangan bo ‘lishiga qaramay, izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbek tilining aglutinativ tabiati tufayli, klassik HMM va qoidalarga asoslangan yondashuvlar samaradorligi cheklangan. Shuningdek, chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish bo‘yicha ham ayrim eksperimental ishlanmalar mavjud. Xususan, morfologik tahlil va sintaktik teglash bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan Sh. Hamrayeva “O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti”[2] dissertatsiyasida grammatik teglash haqida batafsil ma’lumot bergan.

Mashinali o‘qitish usullari grammatik teglashni avtomatlashtirishda muhim hisoblanadi. Turli korpuslar matnni tahlil qilish, so‘z turkumlarini teglash va sintaktik tahlilnii aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, nazoratli o‘rganish va chuqur o‘rganish usullari bu sohada samarali natijalar bermoqda. Grammatik teglashda statistik modellar, neyron tarmoqlar va qoidalarga asoslangan tizimlar ishlatiladi.

Nazoratli o‘rganish (supervised learning) modellari tegli korpuslardan foydalanadi. Ular oldindan belgilangan so‘z turkumlari asosida o‘qitiladi va yangi matnlarda teg qo‘yish uchun ishlatiladi. Bunday modellar orasida Naive Bayes, SVM, CRF va LSTM asosida qurilgan modellar ajralib turadi.

Nazoratsiz o‘rganish(unsupervised learning) modellari esa avvaldan teglanmagan matnlar asosida o‘z-o‘zidan tuzilmalarni aniqlashga harakat qiladi. Bu yondashuvning asosiy kamchiligi u nazoratli modellar darajasida yuqori aniqlikni ta’minlay olmaydi. Ammo, bu modellar yangi til resurslari uchun moslashuvchan yechim bo‘lishi mumkin. Chuqur o‘rganish(supervised learning) grammatik teglashda katta yutuqlarga erishgan usullardan biridir. Ayniqsa, RNN, LSTM va Transformer modellarining ishlatilishi natijasida yuqori aniqlikga erishish mumkin bo‘ldi. Ushbu modellar kontekstni hisobga olish orqali murakkab tuzilmalarda ham

yaxshi natijalar ko‘rsatadi. Chuqur o‘rganish modellarining samaradorligi katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamidan foydalanganda oshadi.

Qoidalarga asoslangan yondashuv sintaktik va morfologik qoidalarga asoslanadi. Ushbu tizimlar lingvist mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga tayangan holda teglash jarayonini amalga oshiradi. Grammatik qoidalarga asoslangan teglash tizimlari an’anaviy yondashuv bo‘lib, turli tillarda ishlatiladi. Ular tilda mavjud grammatik xususiyatlarga asoslanib, so‘zlarning rolini aniqlaydi. Masalan, o‘zbek tilida ot, fe’l, sifat singari so‘z turkumlarini aniq teglash uchun morfologik xususiyatlarga tayanish talab etiladi.

Neyron tarmoqlar sathma-sath o‘rganish printsipiga asoslanadi. Har bir qatlam oldingi qatlamdan olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydi va chuqurroq xususiyatlarni ajratib oladi. Ayniqsa, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlarida samarali natijalar beradi. Transformer arxitekturasi esa uzoq masofali bog‘liqliklarni o‘rganish va tahlil qilishda yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi grammatik teglash jarayonida Deep Learning modellarining natijalari yuqori bo‘lishi mumkin. Bu tilning morfologik xususiyatlari, jumladan, affiksatsiya tizimi va sintaktik strukturalari tahlil qilinib, teg qo‘yish jarayoni amalga oshiriladi.

Grammatik teglashning keyingi rivojlanish bosqichlari, ayniqsa, Deep Learning texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda mashinali o‘qitish modellarining samaradorligi faqatgina turli tillarga tegishli murakkab korpuslar orqali yuqori aniqlikni ta’minlash bilan cheklanmaydi, balki o‘zbek tilidagi kabi morfologik jihatdan boy tillarda ham yuqori natijalarga erishishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, yangi modellar va usullar, masalan, *Transformer* va *BERT* kabi avvalgi metodlardan yanada samaraliroq natijalarga olib kelmoqda.

Transformer arxitekturasi grammatik teglashda yuqori samaradorlikni ko‘rsatgan eng ilg‘or texnologiyalardan biridir. Ushbu modelda so‘zlarning ma’nosi va ularning o‘zaro bog‘lanishlari davomiy va murakkab kontekstda aniqlanadi. Transformer modelining asosiy afzalliklaridan biri bu uning *uzoq masofali bog‘liqliklarni* o‘rganish qobiliyatidir. Natijada, grammatik strukturalarni tahlil qilishda samaradorlik oshadi. BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modelining alohida ahamiyati shundaki, u so‘zlarni ikki yo‘nalishda, ya’ni oldingi va keyingi kontekst asosida o‘rganadi. Bu orqali so‘zlar orasidagi bog‘lanishni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. BERT asosidagi modellar o‘zbek tilida grammatik teglashni yanada aniqlik bilan amalga oshirishi mumkin. BERT ing pre-trening qobiliyatlari yordamida model tilning barcha sintaktik va morfologik xususiyatlarini o‘rganadi va yangi matnlar uchun moslashadi. Ayniqsa,

o‘zbek tilining aglutinativ tabiati tufayli, so‘zlarning turli affiksatsiya shakllari va ularning o‘zgarishlarini tahlil qilishda BERT modellaridan foydalanish samarali bo‘ladi.

Deep Learning ,xususan, *Recurrent Neural Networks (RNN), Long Short-Term Memory (LSTM)* va *Convolutional Neural Networks (CNN),* grammatik teglashda yana bir qadam oldinga siljish imkonini beradi. Bu modellar, ayniqsa, tilning sintaktik va morfologik strukturalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi, chunki ular uzun muddatli bog‘liqliklarni aniqlash va yaxshiroq kontekstni tushunish uchun yaratilgan. *LSTM* va *RNN* kabi modellar so‘zlar o‘rtasidagi uzluksiz bog‘liqliklarni ta’minlashda juda foydali, chunki ular vaqt ketma-ketligini tahlil qilishda kuchli hisoblanadi. Bu modellar, ayniqsa, sintaktik bog‘lanishlarni aniqlashda samarali ishlaydi. O‘zbek tilidagi so‘zlar o‘rtasidagi morfologik o‘zgarishlarni, affikslar va ularning o‘zaro bog‘lanishini aniq tasavvur qilishga imkon yaratadi. *CNN* modellarining esa so‘zlarning lokal xususiyatlarini aniqlashda samarali ekanligi ma’lum. Bu modellarning yordamida so‘zlarning strukturaviy jihatlarini va ularning turkumlarini tez va samarali tarzda aniqlash mumkin.

Grammatik teglash uchun mashinali o‘qitish metodlari korpuslarning sifatiga va hajmiga katta bog‘liq. *Korpuslar* – bu tilni tahlil qilishda asosiy resursdir, chunki ularning yordamida modellarga tilning sintaktik va morfologik strukturalari o‘rgatiladi. O‘zbek tilini grammatik teglashini avtomatlashtirishda, tilning barcha affiksatsiya tizimlarini, so‘z turkumlarini va ularning o‘zaro bog‘lanishlarini aniqlash uchun yirik va diversifikatsiyalangan annotatsiyalangan korpuslar kerak bo‘ladi.

Fe’l so‘z turkumini zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini aniqlash uchun 15 mingta matnni fe’l so‘z turkumi qo‘lda grammatik teglandi, bu esa zamon va shaxs-son kategoriyalarning avtomatik aniqlash uchun asos yaratildi. Olingan natijalar mashina tarjimasi, matnni avtomatik tahlil qilish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarida qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, fe’l shakllarining zamon, shaxs-son va nominal shakllardagi taqsimoti avtomatik tarjima algoritmlarida kontekstga mos tarjima variantlarini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu teglangan matnlar asosida matnlarda ularning chastotasi, bu natijalardan qanday model tuzish mumkinligi ko‘rib chiqiladi.

Xulosa

Grammatik teglash tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida muhim yo‘nalish bo‘lib, mashinali o‘qitish usullari bu jarayonni samarali va avtomatik tarzda amalga oshirishga yordam bermoqda. Deep learning va supervised learning usullari grammatik teglashda katta yutuqlarga erishish imkonini yaratdi. Transformer modellarining va boshqa chuqur o‘rganish texnologiyalarining qo‘llanilishi

grammatik teglashning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida grammatik teglashni yaxshilash uchun zamonaviy modellarni qo‘llash, tilning morfologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va yirik annotatsiyalangan korpuslardan foydalanish zarur. Kelajakda, bu sohadagi tadqiqotlar davom etib, yanada aniqroq va samarali grammatik teglash tizimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Bojanowski, P., Grave, E., Mikolov, T., & Joulin, A.** (2017). Enriching Word Vectors with Subword Information. arXiv preprint arXiv:1607.04606.
2. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таьминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – Б. 150.
3. **Collobert, R., & Weston, J.** (2008). A unified architecture for natural language processing: Deep neural networks with multitask learning. In Proceedings of the 25th international conference on Machine learning *(ICML '08). ACM.*
4. **Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. A., Kaiser, Ł., & Polosukhin, I.** (2017). Attention is all you need. In Advances in neural information processing systems (NeurIPS 2017).
5. **Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K.** (2019). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding. arXiv preprint arXiv:1810.04805.
6. Elova D. Fe’l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko‘ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida.
7. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Бухоро, 2018. – Б. 3.
8. **Abdukarimov, S., & Tashkent, A.** (2017). O‘zbek tilida morfologik tahlil va sintaktik teglash. O‘zbekiston tilshunoslik va informatika jurnali, 5(1), 120-134.
9. **Shodmonov, M.** (2020). O‘zbek tili va uning grammatik tizimi: Mashinali o‘qitish va tillarni qayta ishlash. Toshkent, O‘zbekiston.
10. **O‘rinov, S., & Saidov, T.** *(2021).* Chuqur o‘rganish va grammatik teglash: O‘zbek tilidagi yondashuvlar. *Informatika va texnologiyalar jurnali, 7(3), 202-217.*
11. https://www.researchgate.net/publication/380823282_O'ZBEK_TILI_KORPUSINI_SINTAKTIK_TEGLASH_MASALASI
12. https://www.researchgate.net/publication/375912394_Korpus_birliklarini_teglash_va_annotatsiyalash

PARALLEL KORPUSLARNI TARJIMA XOTIRASIGA INTEGRATSIYA QILISH TAMOYILLARI

Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi,
O‘zMU tadqiqotchisi
shamsiyeva_g@nuu.uz
O‘zMU

Annotatsiya. Mashina tarjimasi sohasida parallel korpuslardan foydalanish an’anaviy tarjima jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Tarjima xotirasi (Translation Memory, TM) tizimlari tarjima jarayonini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada parallel korpuslarni tarjima xotirasiga integratsiya qilish tamoyillari, metodologiyasi va samaradorligi tahlil qilinadi.

Abstract. The utilization of parallel corpora in the field of machine translation significantly streamlines the traditional translation process. Translation Memory (TM) systems are considered crucial tools for automating and enhancing the efficiency of the translation process. This article analyzes the principles, methodology, and effectiveness of integrating parallel corpora into translation memory.

Аннотация. Использование параллельных корпусов в области машинного перевода значительно облегчает традиционный процесс перевода. Системы памяти переводов (Translation Memory, TM) являются важным инструментом для автоматизации и повышения эффективности процесса перевода. В данной статье анализируются принципы, методология и эффективность интеграции параллельных корпусов в память переводов.

Kalit so‘zlar: *tarjima xotirasi, parallel korpus, filtrlash, moslashtirish, indeksatsiya qilish.*

Tarjima xotirasi – bu tarjima jarayonida avvalgi tarjimalarni saqlab qoladigan va takroriy matnlarni avtomatik tarjima qilish imkonini beradigan dasturiy ta’minotdir [1]. Parallel korpus esa turli tillardagi tarjima qilingan matnlarning muvofiqlashtirilgan bazasi bo‘lib, mashina tarjimasi uchun asosiy resurslardan biridir [2]. Zamonaviy tarjima jarayonida ushbu ikki element birgalikda ishlatilishi natijasida tarjima sifati va tezligi sezilarli darajada oshadi.

Bir qancha olimlar, xususan, H.L.Somers [3], A.Way [4], P.Koehn [5], B.Maegaard [6], D.Marcu, W.Wong [7], M.Federico [8], A.Toral [9] v.b. avtomatik tarzda parallel korpuslardan tarjima xotirasini yaratish haqida izlanishlar olib borgan

bo‘lib, ularning asarlarida tarjima xotiralari qanday ishlashi va parallel korpuslardan qanday foydalanilish haqida chuqur tahlillar berilgan, shuningdek, ularda parallel korpus va tarjima xotirasining moslashuvi, parallel korpuslardan foydalanib tarjima modellari yaratish hamda tarjima xotirasini statistika asosidagi mashina tarjimasi bilan integratsiya qilish usullari haqida so‘z boradi.

Tarjima xotiralari zamonaviy tarjimonlar va tarjima agentliklari uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular takroriy iboralarni aniqlash, aniq va izchil tarjimalarni ta’minlash uchun foydalaniladi. Shu bilan birga, parallel korpuslar sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari uchun asosiy ma’lumot bazasi sifatida xizmat qiladi.

Parallel korpuslarni tarjima xotirasiga integratsiya qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Korpus yig‘ish va tozalash (filtrlash) – turli manbalardan tarjima matnlarini yig‘ish va strukturaga keltirish (maslan, KazParC). Korpus sifati tarjima jarayonining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ularning sifatini nazorat qilish, jumladan, noaniqliklarni kamaytirish, noto‘g‘ri moslangan segmentlarni chiqarib tashlash va umumiy sifatsiz ma’lumotlarni filtrlash uchun maxsus tozalash algoritmlaridan foydalaniladi.

1.1. Lingvistik tozalash (filtrlash) (Linguistic Filtering). Bunday tozalash usulida “Google Compact Language Detector (CLD3)” yoki “langid.py” kabi vositalardan foydalanilib, ularning vazifasi parallel korpus ichida noto‘g‘ri tillarda kiritilgan matnlarni chiqarib tashlash (tilni aniqlash – Language Identification), belgilar ketma-ketligi, masalan, @@@@@ , XXXXX yoki noto‘g‘ri formatlangan matnlarni olib tashlash (shovqinli ma’lumotlarni filtrlash – Noise Removal) hamda bitta til segmentining tarjima qilingan varianti bilan sintaktik va semantik bog‘lanmaganligi aniqlansa, ushbu segmentni chiqarib tashlash (mantiqiy bog‘lanmagan tarjimalarni aniqlash – Mismatched Translations) dan iborat [10].

1.2. Masofaga asoslangan tozalash (Distance-Based Filtering). Ushbu metod yordamida parallel segmentlarning o‘lchami va muvofiqligi tekshiriladi. Bunda asl va tarjima qilingan jumla orasidagi o‘zgarishlar sonini hisoblab, juda katta farqlarni filtrlash uchun “Levenshtein masofasi (Levenshtein Distance)”, tarjima segmentlarining vektorli ifodalariga asoslangan o‘zaro o‘xshashlikni tekshirish uchun “Kosinus o‘xshashligi (Cosine Similarity)” algoritmlaridan foydalaniladi [5,11].

1.3. Statistika asosida tozalash (Statistical Filtering) usulida tarjima sifati statistik usullar orqali baholanadi. Masalan,

• BLEU Score Filtering – parallel segmentlarning BLEU skori hisoblanadi, agar u juda past bo‘lsa (masalan, 0.1 dan past bo‘lsa), segment olib tashlanadi.

• Language Model Perplexity (Til modelining chalkashligi) – agar tarjima korpusining perplexity ko‘rsatkichi juda baland bo‘lsa, ya’ni, tarjima natijalarining kutilmagan va noto‘g‘ri bo‘lish ehtimoli katta bo‘lsa, segment chiqarib tashlanadi.

• TF-IDF Filtering usuli kam ishlatiladigan yoki juda tez-tez uchraydigan so‘zlar bo‘yicha segmentlarni filtrlash uchun ishlatiladi [12].

1.4. Neyron tarmoqlar asosida tozalash (Neural Filtering) da chuqur o‘rganish (deep learning) asosida noto‘g‘ri parallel segmentlarni avtomatik filtrlash amalga oshiriladi [13]. Parallel korpus sifati tarjima jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Korpus sifatini nazorat qilish uchun tilshunoslik, statistika va neyron tarmoqlarga asoslangan tozalash algoritmlari qo‘llaniladi. Bu algoritmlar orqali noto‘g‘ri tarjimalar, shovqinli ma’lumotlar va semantik jihatdan mos kelmaydigan segmentlar filtrlab tashlanadi.

2. Parallel korpuslarni tarjima xotirasiga integratsiya qilishning keyingi bosqichi moslashtirish va indekslashtirishdir. Parallel korpuslarda tarjima sifatini oshirish va tarjima xotiralarining samaradorligini ta’minlash uchun bu jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel matn segmentlarini bog‘lash va ularni tezkor qidirish imkoniyatini ta’minlash orqali tarjima tizimlarining natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Moslashtirishning asosiy maqsadi har bir tarjima segmentini uning asl nusxasi bilan sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan bog‘lashdan iborat. Buning uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

2.1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri moslashtirish (Alignment). Moslashtirishning bu turida manba tilidagi jumlalar va ularning tarjimalari bir-biriga mos kelishi lozim. Bunda quyidagi modellardan foydalaniladi:

• Qoidalarga asoslangan yondashuv (Rule-Based) – jumlalar uzunligi, tinish belgilari va so‘zlarning tarqalishiga asoslanadi [14].

• Statistik yondashuv – parallel korpusdagi so‘z va iboralar chastotasiga asoslanib segmentlarni bog‘laydi [15].

• Mashina o‘rganish metodlari – neyron tarmoqlar va transformer modellar yordamida yanada aniqroq moslashtirishni amalga oshiradi [16].

2.2. So‘z va iboralar darajasida moslashtirish. Ba’zan jumlalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmaydi, chunki tarjimada iboralar tuzilishi o‘zgarishi mumkin. Bu holatda dinamik dasturlash algoritmlari, xususan, Levenshtein masofasi va DICE koeffitsienti asosida so‘z moslashuvi tekshiriladi [17].

2.3. Indeksatsiya qilish. Parallel matnlarni samarali qidirish va tarjima xotirasidan tezkor foydalanish uchun indeksatsiya qilish (indexing) zarur. Indeksatsiya natijasida katta hajmdagi matnlar tez va samarali qidiriladi, bu esa tarjima tizimining tezligini oshiradi. Indeksatsiyaning eng samarali usullaridan biri – *teskari indeks* (Inverted Index) texnikasidir. Bu usulda har bir so‘zning qaysi hujjatlarda va qaysi segmentlarda uchrashi to‘g‘risidagi *qidiruv jadvali* yaratiladi [18]. Ushbu metod Google va boshqa qidiruv tizimlarida ham keng qo‘llaniladi.

2.4. TF-IDF va vektorli modellar. Indeksatsiyani yaxshilash uchun *TF-IDF (Term Frequency - Inverse Document Frequency)* va *vektorli ifodalash* metodlaridan foydalaniladi. TF-IDF – muhim terminlarni ajratish va parallel matndagi asosiy tarjima birliklarini belgilashga yordam beradi [19]. *Word2Vec*, *FastText* va *BERT* kabi *neyron modellar* qidiruv natijalarini yanada moslashuvchan qilishga yordam beradi [20].

3. Parallel korpuslarni tarjima xotirasiga integratsiya qilishning keyingi bosqichida tarjima jarayonida tarjima xotirasidan foydalaniladi. Tarjima jarayoni murakkab lingvistik va texnologik bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Tarjima xotirasi va avtomatik tarjima tizimlari tarjima jarayonini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar tarjimonlarga vaqtni tejash, natijalarning barqarorligini oshirish va inson xatolarini kamaytirish imkonini beradi [21].

Tarjima xotirasining ishlash tamoyili quyidagi bosqichlar ketma-ketligida amalga oshiriladi:

⇒ Segmentatsiya – matn tarjima birliklariga bo‘linadi (masalan, jumlalar yoki iboralar).

⇒ Mos kelish tekshiruvi – yangi segmentlar oldin tarjima qilingan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi.

⇒ Qayta ishlatish va takroriy tarjima – tizim mavjud tarjimalarni taklif qiladi.

⇒ Qo‘lda tahrirlash – tarjimon TM tomonidan taqdim etilgan natijani tekshiradi va tahrirlaydi.

L. Bowkerning ta’kidlashicha [1], TM tizimlari ayniqsa bir xil formatdagi va takroriy jumlalardan iborat hujjatlarda yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi.
Zamonaviy avtomatik tarjima tizimlari TM bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Ushbu tizimlarning evolyutsiyasi uch asosiy modelni o‘z ichiga oladi:

• Qoidalarga asoslangan tarjima (RBMT – Rule-Based Machine Translation) – lingvistik qoidalar va lug‘atlarga asoslangan tarjima texnologiyasi [22].
• Statistik tarjima (SMT – Statistical Machine Translation) – katta hajmdagi parallel korpuslardan foydalangan holda probabilistik usullar yordamida tarjima qiladi [23].
• Neyron tarjima tizimlari (NMT – Neural Machine Translation) – sun’iy neyron tarmoqlari yordamida matnning kontekstini chuqur o‘rganadi va yanada tabiiy tarjima hosil qiladi [24].

Neyron tarjima tizimlari (NMT) transformer modellarini qo‘llagan holda so‘zlar orasidagi bog‘liqlikni tushunadi va kontekstni hisobga olgan holda tarjima qiladi [16].

Tarjima tizimlarining samaradorligini oshirish uchun TM va MT integratsiyasi amalga oshirilmoqda. Bunda:

⇒ Tarjima xotirasidan mavjud tarjimalar ajratib olinadi.

⇒ NMT faqat yangi segmentlarni tarjima qiladi.

⇒ Natijalar TM bazasiga qayta yuklanadi va kelgusida foydalanish uchun saqlanadi [25].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bu yondashuv tarjima jarayonining barqarorligini oshirish va inson aralashuvini minimallashtirish imkonini beradi [8]. Tarjima xotirasi tizimlari hozirda turli sohalarda, jumladan, davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar va IT kompaniyalarda keng qo‘llanilmoqda [26].

Kelajakda sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish texnologiyalarining rivojlanishi tarjima xotiralarining yanada takomillashishiga olib keladi [21].

Kelajak istiqbollari quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

⇒ Yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimlari – chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlari asosida ishlaydigan ilg‘or tizimlar tarjimalarni yanada tabiiy qilishga yordam beradi.

⇒ Ko‘p tilli tarjima xotiralari – mavjud tizimlar faqat ikki tilli parallel korpuslarga asoslangan bo‘lsa, kelajakda ko‘p tilli parallel korpuslar va tarjima xotiralari ommalashishi mumkin.

⇒ Interaktiv va adaptiv tarjima tizimlari – tarjimonlarning ishlash uslubiga moslashadigan va ularning tarjima uslubini o‘rganadigan tizimlar rivojlanishi kutilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarjima xotirasi tizimlaridan foydalanish tarjimonlarning mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi. Misol uchun, 371 902 ta parallel jumlalarni o‘z ichiga oluvchi KazParC: Qozoq parallel korpusidan foydalangan holda davlat idoralari uchun maxsus ishlab chiqilgan tarjima tizimlarida tarjima jarayoni 30-40% tezlashgani qayd etilgan. Shuningdek, KazParC loyihasi doirasida Tilmash nomli neyron mashinaviy tarjima modeli ham ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu model BLEU va chrF kabi standart baholash metrikalariga ko‘ra, Google Translate va Yandex Translate kabi yirik kompaniyalar bilan tenglashadi yoki ba’zi hollarda ularni ortda qoldiradi. [https://github.com/IS2AI/KazParC].

Parallel korpusga asoslangan tarjima xotirasi tizimlari zamonaviy tarjima jarayonining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ular tarjima jarayonini tezlashtirish, sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan metodologiya va yondashuvlar ushbu sohada tadqiqotlarni davom ettirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowker L. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. – Ottawa: University of Ottawa Press, 2002. – 243 p.

2. Dagan I., Church K., Gale W. Robust Bilingual Word Alignment for Machine Aided Translation // ACL Anthology. – 1993.

3. Сомерс Х.Л. Translation Memory Systems // Hutchins J. (ed.) Computers and Translation: A Translator’s Guide. – Amsterdam: Benjamins, 2003. – С. 31–48.
4. Way A. Traditional and Emerging Use-Cases for Machine Translation // Machine Translation. – 2014. – Vol. 28, No. 3-4. – P. 243–254.
5. Koehn P. Europarl: A Parallel Corpus for Statistical Machine Translation // Proceedings of the MT Summit X. – Phuket, Thailand, 2005. – P. 79–86.
6. Maegaard B. Translation Memory: An Efficient Way to Reuse Translations // Proceedings of MT Summit VII. – Singapore, 1999. – P. 331–334.
7. Marcu D., Wong W. A Phrase-Based, Joint Probability Model for Statistical Machine Translation // Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP). – 2002. – P. 133–139.
8. Federico M., Bertoldi N., Barbaiani M. Integrating Translation Memories into Phrase-Based Statistical Machine Translation // Proc. of ACL Conf. – 2014.
9. Toral A., Muñoz R. A Proposal to Automatically Build and Use Parallel Corpora within the OpenTrad Project // Proceedings of the Workshop on Building and Using Parallel Texts. – New York, USA, 2006. – P. 149–152.
10. Baldwin T., Lui M. Language Identification: The First Step Towards NLP // Computational Linguistics. – 2010.
11. Kocmi T., Bojar O. An Exploration of Sentence Embeddings for Neural Machine Translation. – 2017.
12. Papineni K., Roukos S., Ward T., Zhu W. BLEU: A Method for Automatic Evaluation of Machine Translation // ACL. – 2002.
13. Devlin J., Chang M.-W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // NAACL. – 2018.
14. Gale W. A., Church K. W. A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora // Computational Linguistics. – 1993.
15. Brown P. F., Cocke J., Della Pietra S. A., Della Pietra V. J., Jelinek F., Lafferty J. D., Mercer R. L., Roossin P. S. The Mathematics of Statistical Machine Translation: Parameter Estimation // Computational Linguistics. – 1993. – Vol. 19, No. 2. – P. 263–311.
16. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N., Uszkoreit J., Jones L., Gomez A. N., Kaiser Ł., Polosukhin I. Attention is All You Need // Proc. of NeurIPS 2017. – Vol. 30. – P. 5998–6008.
17. Melamed I. D. Models of Translational Equivalence among Words // Computational Linguistics. – 2000.
18. Manning C. D., Raghavan P., Schütze H. Introduction to Information Retrieval. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
19. Sparck Jones K. A Statistical Interpretation of Term Specificity and Its Application in Retrieval // Journal of Documentation. – 1972.
20. Mikolov T., Sutskever I., Chen K., Corrado G., Dean J. Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space // ICLR. – 2013.

21. Somers H. Translation Memory Systems: Enlightenment or Feudalism? // Machine Translation Journal. – 2003.

22. Hutchins W. J., Somers H. L. An Introduction to Machine Translation. – London: Academic Press, 1992. – 362 p.

23. Koehn P. Statistical Machine Translation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 487 p.

24. Bahdanau D., Cho K., Bengio Y. Neural Machine Translation by Jointly Learning to Align and Translate // ICLR. – 2015.

25. Koehn P., Knowles R. Six Challenges for Neural Machine Translation // Proc. of the 1st Conf. on Machine Translation (WMT 2017). – P. 28–39.

26. Gough N., Way A. Example-Based Machine Translation Using a Memory-Based Learning Approach // Computational Linguistics. – 2004.

27. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi: darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 312 b.

28. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti: monografiya. – Toshkent, 2018. – 185 b.

29. Abdurakhmonova N., Hayrullayeva G., Urdishev K. Using a Corpus for Teaching Synonymy in Uzbek // Электронная письменность народов Российской Федерации: опыт, проблемы и перспективы: материалы II Междунар. науч. конф. – Уфа, 11–12 декабря 2019 г. – Уфа: Изд-во БашГУ, 2019.

30. Agostini A., Usmanov T., Khamdamov U., Abdurakhmonova N., Mamasaidov M. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language // Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference. – University of South Africa (UNISA), 2021. – P. 8–19.

31. Gatiatullin A., Suleymanov D., Prokopyev N., Abdurakhmonova N. Turkic Morpheme: From the Portal to the Linguistic Platform // Aliev R.A. et al. (Eds.) Lecture Notes in Networks and Systems. – Vol. 912. – Springer, Cham, 2024. – https://doi.org/10.1007/978-3-031-53488-1_22

32. KazParC. Kazakh Parallel Corpus for Machine Translation // arXiv preprint. – 2024.

33. Mengliev D. B., Abdurakhmonova N., Hayitbayeva D., Barakhnin V. B. Automating the Transition from Dialectal to Literary Forms in Uzbek Language Texts: An Algorithmic Perspective // 2023 IEEE XVI Int. Sci. and Tech. Conf. APEIE. – Novosibirsk, 2023. – P. 1440–1443. DOI: 10.1109/APEIE59731.2023.10347617.

34. Mengliev D., Barakhnin V., Abdurakhmonova N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words // Applied Sciences. – 2021. – Vol. 11, No. 19. – Art. no. 9117. https://doi.org/10.3390/app11199117

V SHO‘BA. MATNGA QAYTA ISHLOV BERISH TIZIMLARI

JAHON TAJRIBASIDA AVTOMATIK MATN TAHRIRLASH VOSITALARI

Botir Elov Boltayevich,
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Sobirova Nazira G‘anijon qizi,
tayanch doktoranti
nazirasobirova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Avtomatik matn tahriri dasturlari sun’iy intellekt (AI) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalaridan foydalanib, matnlarni avtomatik tarzda tahrirlash, grammatik xatolarni tuzatish va uslubiy jihatdan yaxshilash imkoniyatini beradi. Ushbu dasturlar nafaqat grammatika va imloni tekshirish, balki kontekstual takliflar berish, uslubiy optimallashtirish va yozish jarayonini avtomatlashtirish uchun ham qo‘llaniladi.Jahon tajribasida avtomatik matn tahriri dasturlari yozish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirib, matn sifati va aniqligini oshirishga yordam beradi. Bu dasturlar har xil sohalarda – akademik yozuvlar, biznes hujjatlari, jurnalistika va kundalik yozishmalar uchun qo‘llaniladi. Sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari rivojlanishi bilan ushbu dasturlar yanada mukammal va moslashuvchan bo‘lib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur ilmiy maqolada avtomatik matn tahrirlash vositalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va amaliyotda qo‘llanilishining jahon tajribasi asosida tizimli tahlili berilgan.

So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) va sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining jadal sur’atlarda taraqqiy etishi natijasida avtomatik matn tahrirlovchi tizimlar lingvistik xatolarni aniqlash, stilistik tahlil, semantik moslikni ta’minlash kabi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarmoqda. Ushbu vositalar grammatika, imlo, uslub, tinish belgilarini avtomatik ravishda aniqlab, real vaqt rejimida foydalanuvchiga tahririy takliflarni ilgari suradi. Maqolada Grammarly, LanguageTool, ProWritingAid, Microsoft Editor, Hemingway kabi zamonaviy platformalarning texnologik yechimlari, mashina o‘rganish va chuqur o‘rganish modellariga tayanib ishlashi, tilga moslashuvchanlik darajasi va interfeys imkoniyatlari muqobillik asosida tahlil qilinadi. Ushbu vositalarning funksional salohiyati, ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlash darajasi va ularning algoritmik ishlash mexanizmlari blok-sxema va jadvallar yordamida ifodalanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, avtomatik

matn tahrirlovchilar nafaqat matn sifatini oshirish, balki professional yozuv madaniyatini shakllantirishda ham muhim vositaga aylanmoqda.

Annotation. Automatic text editing software uses artificial intelligence (AI) and natural language processing (NLP) technologies to automatically edit texts, correct grammatical errors, and improve stylistic aspects. These programs are used not only for grammar and spell checking, but also for providing contextual suggestions, stylistic optimization, and automating the writing process.

In global practice, automatic text editing tools significantly simplify the writing process and help improve text quality and clarity. These tools are used in various fields – academic writing, business documents, journalism, and everyday communication. With the development of artificial intelligence and natural language processing technologies, these tools are becoming more advanced and adaptive.This scientific article presents a systematic analysis of the formation, stages of development, and practical application of automatic text editing tools based on global experience. In recent years, due to the rapid advancement of NLP (Natural Language Processing) and AI (Artificial Intelligence) technologies, automatic editing systems have been able to successfully perform complex tasks such as identifying linguistic errors, conducting stylistic analysis, and ensuring semantic compatibility.These tools automatically detect grammar, spelling, style, and punctuation errors and offer real-time editorial suggestions to users.

The article analyzes the technological solutions, machine learning and deep learning models, language adaptability, and interface features of modern platforms such as Grammarly, LanguageTool, ProWritingAid, Microsoft Editor, and Hemingway. The functional capacity, multilingual support level, and algorithmic mechanisms of these tools are illustrated using flowcharts and tables. The research findings show that automatic text editors are becoming not only tools for improving text quality but also important instruments in fostering professional writing culture.

Аннотация. Программы автоматического редактирования текста используют технологии искусственного интеллекта (ИИ) и обработки естественного языка (NLP) для автоматического редактирования текстов, исправления грамматических ошибок и улучшения стилистики. Эти программы применяются не только для проверки грамматики и орфографии, но и для предоставления контекстуальных предложений, стилистической оптимизации и автоматизации процесса письма.

Мировой опыт показывает, что автоматические редакторы значительно упрощают процесс написания текста, способствуют повышению его качества и точности. Эти инструменты используются в различных сферах – академическое письмо, деловая документация, журналистика и повседневная переписка. С развитием технологий искусственного интеллекта и обработки

естественного языка данные программы становятся всё более совершенными и адаптивными. В данной научной статье представлен системный анализ формирования, этапов развития и практического применения автоматических средств редактирования текста на основе международного опыта.

В последние годы, благодаря стремительному прогрессу технологий NLP (Natural Language Processing) и AI (Artificial Intelligence), автоматические редакторы успешно выполняют сложные задачи, такие как обнаружение лингвистических ошибок, стилистический анализ и обеспечение семантической согласованности. Эти инструменты автоматически выявляют грамматические, орфографические, стилистические ошибки и пунктуацию, а также предлагают пользователю редакционные предложения в режиме реального времени.

В статье проводится сравнительный анализ технологических решений современных платформ, таких как Grammarly, LanguageTool, ProWritingAid, Microsoft Editor и Hemingway, их моделей машинного и глубокого обучения, уровня адаптации к языкам и интерфейсных возможностей. Функциональные особенности, поддержка многоязычия и алгоритмические механизмы этих инструментов представлены с помощью блок-схем и таблиц. Результаты исследования показывают, что автоматические редакторы становятся не только средством повышения качества текста, но и важным инструментом в формировании профессиональной письменной культуры.

Kalit so‘zlar: *NLP, AI, Grammarly, LanguageTool, ProWritingAid, Microsoft Editor, Hemingway, Machine Learning, Deep Learning.*

KIRISH

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan tilshunoslik va sun’iy intellekt sohalari o‘zaro yaqinlashdi. Jumladan, avtomatik matn tahrirlash vositalari inson aralashuvisiz matn sifatini oshirish imkonini bermoqda. Ushbu vositalar grammatik xatolarni aniqlaydi, uslubiy takliflar beradi va ba’zan kontekst asosida butun gapni o‘zgartiradi.Oxirgi yillarda axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohalarining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) yo‘nalishi alohida e’tibor markaziga aylandi. Ayniqsa, avtomatik matn tahrirlash texnologiyalari lingvistik sifatni oshirish, yozma nutqni standartlashtirish va inson xatosini minimallashtirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Dastlab imlo va grammatik xatolarni aniqlash bilan cheklangan bu tizimlar bugungi kunda stilistik tahlil, kontekstual tahrir, semantik izchillikni baholash, hatto pragmatik moslikni ta’minlash kabi yuqori darajadagi tilshunoslik vazifalarini ham bajarishga qodir.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili

Matnda sodir bo‘ladigan imloviy xatolarni avtomatik aniqlash va tuzatish masalasi jahon miqyosida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, J.Peterson 1980-yillarda kompyuter yordamida matndagi xatolarni aniqlash va ularni avtomatik tuzatish masalalarini atroflicha tadqiq etib, xatolarni tekshiruvchi va to‘g‘rilovchi dasturlar haqida fikr yuritgan[1].Uning ishlarida kompyuter dasturlarining imlo xatolarini topish va tuzatish algoritmlari, xususan, so‘zlarni lug‘at bilan solishtirish hamda tahrir masofasi (masalan, bir harfni tushirib qoldirish, almashtirish, qo‘shish yoki joyini almashtirish kabi xato turlari) asosida aniqlash usullari ilgari surilgan. Bu usullar keyinchalik ko‘plab imlo tekshirgich dasturlarida qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi dastlabki nazariy asoslarni yaratgan. Avtomatik tahrirlash yo‘nalishida avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar matnlarni tahrirlashga yo‘naltirilgan. Hatto tatar, boshqird, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon kabi turkiy tillarga mansub matnlar uchun morfologik va sintaktik analizatorlar yaratilgan, MS WORD sistemasiga avto-tahrir paketlari joylashtirilgan [2].

So‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda imlo xatolarini avtomatik tuzatish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. An’anaviy lug‘atga asoslangan tekshirish usullaridan tashqari, statistik va mashinaviy o‘rganish usullari joriy etilmoqda. Misol uchun, R.C. de Amorim va M. Zampieri kabi tadqiqotchilar matndagi xatolarni tuzatishda klasterlash algoritmlaridan foydalanish bo‘yicha tajribalar o‘tkazib, xatoli so‘zlarni to‘g‘ri so‘z shakllariga yaqinlashtirishda fonetik o‘xshashlik va klaster tahlilini birlashtirish usulini taklif qildilar [3].

2013–2014-yillarda Bolgariyada o‘tkazilgan tabiiy tilni qayta ishlash bo‘yicha konferensiyalarda taqdim etilgan ushbu ishlarda turli tillardagi imlo xatolarini tuzatish uchun kesh klasterlash va fonetik klasterlash kabi yondashuvlar sinovdan o‘tkazilgan. Natijada, kompyuter imlo tekshirgichlari aniqlay oladigan xato turlari kengayib, noyob va murakkab xatolar uchun ham tuzatish takliflarini shakllantirish imkoniyati oshdi. Shuningdek, ingliz tilidan tashqari boshqa ko‘plab yevropa tillari, xususan, morfologiyasi murakkab bo‘lgan venger va fin tillari uchun maxsus orfografik tekshiruv tizimlari yaratilib, bunday tizimlarda so‘zning barcha grammatik shakllarini qamraydigan lug‘atlar va qoidalar bazasi ishlab chiqildi. Bularning barchasi xorijiy tajribada to‘plangan bilim va texnologiyalarning o‘zbek tilini avtomatik tekshirish dasturlarini yaratishda qo‘llanilishi muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida ingliz, rus, fransuz va boshqa tillar uchun imlo xatolarini aniqlash va tuzatish tizimlari ancha rivojlangan bo‘lsa-da, o‘zbek tili uchun bunday tizimlar endi rivojlana boshladi. O‘zbek tilida matnlarni avtomatik qayta ishlash bilan bog‘liq tadqiqotlar so‘nggi yillarda keng rivojlanib bormoqda. Lekin imloviy xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash tizimlari hali to‘liq shakllanmagan. Bunday

tizimlarni ishlab chiqish nafaqat lingvistik asoslarni, balki dasturiy yondashuvlarni ham talab qiladi.

B.Elov [4], Sh.Xamroyeva [5], N.Abdurahmonova [6], M. Abjalova [7] va boshqa olimlar tomonidan izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunga kelib olib borilayotgan ilmiy ishlar o‘z natijasini ko‘rsatish darajasiga yetib kelgan.

Jahon tajribasida avtomatik matn tahriri dasturlarining rivojlanish bosqichlari

Boshlang‘ich davr (1950-1970-yillar)

- Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan **"Transformational-Generative Grammar"** (1957) nazariyasi tabiiy tilni qayta ishlashga asos bo‘ldi.
- IBM va MIT olimlari lingvistik qoidalar asosida imlo tekshirish modellarini yaratishga harakat qilishdi.
- **SPELL** (1961) – IBM tomonidan ishlab chiqilgan ilk imlo tekshirish tizimlaridan biri.
- **FIND** (1965) – AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan tarjima qilish va matnni tahlil qilish uchun yaratilgan dastur.

Qoidaga asoslangan yondashuv (1970-1990-yillar)

- **Grammatik tekshiruvchilar**: Microsoft Word ilk versiyalari (1983) asosiy grammatik xatolarni tekshira boshladi.
- **Hemingway Editor** (1985) – matnni o‘qish qulayligi bo‘yicha tahlil qiluvchi dastur ishlab chiqildi.
- 1976-yilda **Donald Knuth** tomonidan **"TeX"** tizimi ishlab chiqildi, bu avtomatik matn formatlash tizimi bo‘lib, ilmiy maqolalar tayyorlashda keng qo‘llanildi.
- 1983-yilda **Robert Allen** tomonidan ilk grammatik analizatorlar ishlab chiqildi.

Statistik modellar va NLP texnologiyalari (1990-2010-yillar)

- **Grammarly (2009)** – statistik NLP algoritmlaridan foydalangan holda grammatik tekshiruv va uslubni yaxshilashni boshlagan dastur.
- **Google Translate (2006)** – avtomatik tarjima tizimi bo‘lib, statistik mashina tarjimasi (SMT) asosida ishlagan.
- 1999-yilda **Google** qidiruv tizimi yaratildi va bu katta hajmdagi matnlarni avtomatik qayta ishlashga imkon berdi.
- 2000-yillarda **Stanford NLP** va **IBM Watson** tabiiy tilni qayta ishlash uchun kuchli algoritmlar ishlab chiqdi.

Sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish asosidagi avtomatik tahrir (2010-yildan hozirgacha)

2017-yilda **Google Brain** tomonidan **Transformer** modeli ishlab chiqildi, bu esa ChatGPT kabi texnologiyalarga asos yaratdi.

2018-yilda OpenAI **GPT-2** modelini ishlab chiqdi va AI yordamida matn yaratish, tahrirlash va optimallashtirish mumkin bo‘ldi.

- **GPT-3 va ChatGPT (2020-2023)** – sun’iy intellektga asoslangan matn yaratish va tahrirlash imkoniyatlarini taqdim etdi.
- **Quillbot (2017)** – AI yordamida matnni qayta yozish, parafraz qilish va grammatika tahririni amalga oshiruvchi dastur.

Ushbu dasturlar quyidagi texnologiyalarga asoslanadi:

a. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – matnni tushunish va qayta ishlash;
b. Machine Learning (ML) – matndagi xatolarni o‘rganish va yaxshilash;

c. Neyron tarmoqlari (Neural Networks) – matnni kontekstual tushunish va optimallashtirish.



Avtomatik tahrirlovchi vositalarning dastlabki shakllari deterministik, qoidaga asoslangan yondashuvlarga tayangan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy tizimlar chuqur o‘rganish (Deep Learning), mashina o‘rganish (Machine Learning), transformator arxitekturalari (masalan, BERT, GPT) kabi ilg‘or texnologiyalar asosida shakllanmoqda. Ushbu vositalar foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnni real vaqt rejimida ko‘p bosqichli analizdan o‘tkazadi: sintaktik va semantik strukturasini tahlil qiladi, grammatik va stilistik nomuvofiqliklarni aniqlaydi hamda to‘g‘rilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki algoritmik samaradorlik, axborot xavfsizligi va foydalanuvchi tajribasi kabi mezonlar nuqtai nazaridan ham izchil tadqiqotlarni talab etadi.



Avtomatik matn tahrirlash vositalarining turlari

Tahrirlash turi	Tavsifi	Misollar
Grammatik tahrir	Morfologik va sintaktik xatolarni aniqlaydi	Grammarly, LanguageTool
Stilistik tahrir	Matn uslubiga mos bo‘lmagan ifodalarni tuzatadi	ProWritingAid, Hemingway Editor
Kontekstual tahrir	Sun’iy intellekt asosida kontekstga mos variantlarni tanlaydi	Microsoft Editor, ChatGPT Grammarly
Tilga moslashtirish	Ko‘p tilli yoki mashinaviy tarjima matnlarini optimallashtiradi	DeepL Write, Google Translate Editor

Bugungi global amaliyotda Grammarly, LanguageTool, Hemingway Editor, ProWritingAid, Microsoft Editor kabi ilg‘or vositalar nafaqat ingliz tilida, balki ko‘plab boshqa tillarda ham samarali ishlashga moslashtirilgan. Ular o‘z imkoniyatlari bilan jurnalistika, ilmiy maqola yozish, akademik yozuv, tarjima jarayoni va hatto kundalik yozishmalarni sifat jihatidan sezilarli darajada yaxshilamoqda.Avtomatik matn tahrirlash vositalari til texnologiyalarining eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida jahon amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar grammatika, imlo, tinish belgilarini to‘g‘rilash, stilistik tahlil va kontekst asosida takliflar ishlab chiqish imkoniyatlari bilan yozma matn sifatini sezilarli darajada oshirmoqda. Ayniqsa, chuqur o‘rganish (Deep Learning), mashina o‘rganish (Machine Learning) va transformer arxitekturalariga asoslangan modellar (BERT, GPT va boshqalar) ushbu vositalarning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Maqolada tahlil etilgan Grammarly, LanguageTool, Hemingway, ProWritingAid va Microsoft Editor kabi ilg‘or tahrirlovchi vositalar bugungi kunda ingliz tili va boshqa yirik tillarda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu vositalar mashina o‘rganish (ML), chuqur o‘rganish (DL), xususan transformer arxitekturalari asosida ishlovchi model va algoritmlar orqali yuqori aniqlikka ega bo‘lgan, foydalanuvchi ehtiyojiga moslashuvchan va doimiy ravishda o‘zini yangilab boruvchi tizimlardir. Ular o‘quvchilarga, yozuvchilarga, jurnalistlarga, tarjimonlarga, ilmiy tadqiqotchilarga va boshqa mutaxassislarga yozilgan matnni aniq, tushunarli va uslubiy jihatdan to‘g‘ri ifodalash imkoniyatini taqdim etmoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu avtomatik tahrirlash vositalarining jahon tajribasidagi texnologik asoslarini, lingvistik va texnik imkoniyatlarini, shuningdek, ularning algoritmik ishlash prinsiplarini tizimli ravishda o‘rganish va tahlil qilish orqali tilimiz uchun muqobil tomonlarini andozalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

O‘zbek tilida imloviy xatolarni avtomatik aniqlash va to‘g‘rilash tizimlarini yaratish murakkab jarayon bo‘lib, bu tilning o‘ziga xos grammatik va fonetik xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Xususan, o‘zbek tilining qo‘shimchalar tizimi, so‘zlarning turli shakllarda qo‘llanishi, morfologik o‘zgarishlari va fonetik moslashuvlari avtomatik tizimlar uchun qo‘shimcha murakkabliklar tug‘diradi. Shu sababli, bunday tizimni ishlab chiqish nafaqat dasturiy bilimlarni, balki chuqur lingvistik tahlilni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peterson, James. Computer Programs for Detecting and Correcting Spelling Errors. 1980.
2. Орехов Б.В., Слободян Е.А. Проблемы автоматической морфологии агглютинативных языков и парсер башкирского языка [Текст] // Информационные технологии и письменное наследие: материалы международной научной конференции (Уфа, 28–31 октября 2010 г.) отв. ред. В. А. Баранов. – Уфа. Ижевск: Вагант, 2010. – С. 167-171.;
3. Zampieri, M.; de Amorim, R.C.Between Sound and Spelling: Combining Phonetics and Clustering Algorithms to Improv Target Word Recovery. Proceedings of the 9th International Conference on Natural Language Processing (PolTAL). Lecture Notes in Computer Science (LNCS). Springer.2014. – P. 438-449.
4. Boltayevich, Elov Botir, Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, and Axmedova Xolisxon Ilxomovna. “Methods for creating a morphological analyzer.” //International Conference on Intelligent Human Computer Interaction. Cham: Springer Nature Switzerland, 2022. https://doi.org/10.1007/978-3-031-27199-1_4
5. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) … дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б.
6. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD)…дисс. –Тошкент, 2018. – 165 б .
7. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari /monografiya / Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.

UDK: 811.512.133`42

O‘ZBEK TILI MATNLARI USLUBLARARO PEREFRAZ MODELI

Xayatova Zarnigor Marufovna,
doktorant (DSc)
khayatovazarnigor@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga, yuqori ilmiy uslubga va badiiy uslubga perefraz qilish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Matnning turli uslublarga o‘zgartirilishi va bu jarayonning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga o‘zgartirishda ma’lumotlar keng jamoatchilik uchun tushunarli va qabul qilinadigan tarzda taqdim etilishi kerak. Ushbu uslubga o‘tishdagi asosiy maqsad aniq va mantiqiy tuzilishga ega bo‘lgan matn yaratishdir. Badiiy uslubga o‘tkazish esa matnni estetik jihatdan boyitish va hissiy tushunchalarni yetkazishning yangi shakllarini taqdim etishdir.

Abstract. This article discusses the processes of paraphrasing from the journalistic style to the popular scientific style, high scientific style, and literary style. It covers the transformation of texts into various styles and the significance of this process in linguistics. When transforming from journalistic style to popular scientific style, the information must be presented in a manner that is clear and understandable to the general public. The main goal in switching to this style is to create a text with a clear and logical structure. Transitioning to the literary style, on the other hand, aims to enrich the text aesthetically and present new forms of conveying emotions and feelings.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы перефразирования с публицистического стиля на научно-популярный, высоконаучный и литературный стили. Обсуждается преобразование текста в различные стили и значение этого процесса в лингвистике. При переходе от публицистического стиля к научно-популярному, информация должна быть представлена в понятной и доступной форме для широкой аудитории. Основная цель перехода к этому стилю — создание текста с ясной и логичной структурой. Переход к литературному стилю, с другой стороны, направлен на эстетическое обогащение текста и представление новых форм передачи эмоций и чувств.

Kalit so‘zlar: *publitsistik uslub, ilmiy ommabop uslub, badiiy uslub, perefraz qilish, matn uslublari, tilshunoslik.*

Kirish. Perefraz qilish jarayoni matnlarni bir uslubdan boshqa uslubga o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa jurnalistika, ilmiy kommunikatsiya va badiiy sohalarda alohida ahamiyatga ega. Perefraz qilish nafaqat axborotni

tushunarli qilishda, balki uning ta’sirini kuchaytirishda ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada, publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga, yuqori ilmiy uslubga va badiiy uslubga perefraz qilish jarayonlari tahlil qilindi. B.Tayirov o‘z tadqiqotida ilmiy ommabop uslubda “axborotning aniq va to‘liq yetkazilishi”ning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi va uni “har bir fikrni sodda va tushunarli tarzda ifodalash” sifatida tavsiflaydi [8].

Publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga perefraz qilish modeli

Publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga perefraz qilishning asosiy maqsadi - ma’lumotlarni keng auditoriyaga, xususan, keng jamoatchilik uchun tushunarli va qabul qilinishini ta’minlashdir. Publitsistik uslubdagi matnlar ko‘pincha hissiy tarzda yoziladi va ommaviy axborot vositalariga moslashtiriladi. Shuning uchun, bu matnlarni ilmiy ommabop uslubga o‘zgartirishda, ularning aniq va mantiqiy tuzilishiga alohida e’tibor qaratiladi [3]. Ilmiy ommabop uslub esa to‘g‘ri va yorqin, bir vaqtning o‘zida juda tushunarli bo‘lishi kerak. Bu usuldagi tekstlar o‘z fikrlarini aniq, sodda va mantiqiy tarzda bildirishga qaratilgan bo‘ladi, shuningdek, maxsus atamalardan foydalanish va ularni tushunarli qilish muhimdir [2].

Masalan, quyidagi publitsistik uslubdagi matnni ko‘rib chiqamiz:

“Bizning jamiyatimizda ta’lim olish huquqi har bir insonning asosiy huquqi hisoblanadi. Bu huquqning amalga oshirilishi jamiyatning kelajagi uchun juda muhimdir. Ta’lim orqali kelajakda yuksak bilim va ma’lumotga ega bo‘lgan insonlar jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun, ta’lim olish huquqi butunlay amalga oshirilishi kerak.”

Ushbu matnning asosiy maqsadi – ta’lim olish huquqining ahamiyatini ta’kidlash va jamoatchilikni ta’lim olish huquqini amalga oshirishga chaqirishdir. Matnda emotsional ta’sir va ijtimoiy muammoga urg‘u berilgan. Ammo ilmiy ommabop uslubga o‘zgartirishda bu fikrlarni yanada aniq va mantiqiy tarzda ifodalash kerak bo‘ladi.

Ilmiy ommabop uslubga perefraz qilish

Ilmiy ommabop uslubda, matnning maqsadi ma’lumotlarni aniq, sodda va ilmiy tarzda yetkazishdir. Ushbu matnni ilmiy ommabop uslubda quyidagicha o‘zgartirish mumkin:

“Ta’lim olish huquqi har bir fuqaroning asosiy huquqlaridan biridir. Uning amalga oshirilishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta’limga kirish imkoniyati, o‘z navbatida, shaxsning ilmiy va professional qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ta’lim olish huquqining amalga oshirilishi jamiyatdagi barcha a’zolar uchun zaruriy shartdir.”

Yuqoridagi misolda, publitsistik uslubdagi matnning emotsional va aks ettirilgan ijtimoiy chaqiruvlari ilmiy ommabop uslubda aniq va mantiqiy tarzda ifodalangan. Ilmiy ommabop uslubda, asosan, matnning ma’nosi aniqroq bo‘lib, xususiyatlari va maqsadi haqida qat’iy ilmiy ifodalash kiritilgan. Bu uslubda jamoatni o‘zaro muloqotga yoki jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatga jalb qilish o‘rniga, faqatgina faktlar, tushunchalar va izlanishlar asosida fikrlar bildiriladi [3].

Publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga perefraz qilishda, maqsad faqatgina ma’lumotni tushunarli qilish emas, balki uni iloji boricha ilmiy, tushunarli va keng jamoatchilik uchun qabul qilinadigan qilib taqdim etishdir. Bu uslubda ishlatiladigan maxsus atamalar va ilmiy ifodalar yordamida matnning aniqligi va ravshanligi oshiriladi. Bunda, keng jamoatchilikning axborot talablarini ham inobatga olish zarur bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy ommabop uslubda qaysi terminlarni ishlatish va ularni tushunarli qilib kiritish, muvaffaqiyatli perefraz qilishning asosiy omillaridan biridir [2].

Publitsistik uslubdagi matnni yuqori ilmiy uslubga o‘zgartirish modeli Publitsistik uslubdan yuqori ilmiy uslubga perefraz qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy maqsad - matnning aniq va zamonaviy ilmiy tilga moslashtirilishi, shuningdek, ilmiy terminologiyalar va atamalarni to‘g‘ri tanlashdir [5]. Bu usulda, odatda, shakllangan muammolarga tegishli aniq faktlar va izlanishlar to‘g‘risida yoziladi. Publitsistik uslubdagi emotsional ta’riflar va xulosalar ilmiy uslubda aniq, statistik ma’lumotlar va eksperimental natijalarga asoslanishi lozim [3].

Misol tariqasida, quyidagi publitsistik matnni ko‘rib chiqaylik:

“Ko‘plab yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyati, ular o‘z orzulariga erishish yo‘lidagi eng muhim qadamlardir. Jamiyatda ta’limga bo‘lgan qiziqish ortib borayotgan bir paytda, ko‘plab muammolar ham mavjud. Shunday qilib, ta’lim olish huquqi har bir inson uchun, ayniqsa yoshlar uchun, nihoyatida jamiyatning kelajagi uchun nihoyatda ahamiyatli.”

Ushbu matnni ilmiy uslubda perefraz qilishda quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak:

“Ta’lim olish huquqi barcha fuqarolar uchun fundamental huquqlardan biridir. Ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Zamonaviy jamiyatda, ayniqsa yoshlar orasida ta’limga bo‘lgan ehtiyojlar ortganligi kuzatilmoqda va ta’lim tizimining samaradorligi shu asosda keng tahlil qilinishi zarur” [3].

Yuqoridagi misolda, publitsistik uslubdagi matnning umumiy va emotsional ifodalari ilmiy uslubda aniq va ilmiy ma’lumotlar bilan ifodalangan. Bu uslubda

muhokama qilishda ilmiy tilda ishlatiladigan statistik va empirik ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi. Bu metodologiya aniq maqsadni ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, shaxsiy fikrlar va umumiy ifodalardan farqli ravishda, faktlar va eksperimentlar asosida yozilishi kerak.

Ilmiy uslubga o‘zgartirishda asosiy jihatlar

Ilmiy uslubga o‘tishda, matnning to‘liq o‘zgarishi kerak bo‘ladi, bu nafaqat tilni o‘zgartirishni, balki matnning tarkibini ham yanada aniq va batafsil bayon qilishni talab qiladi. Publitsistik uslubdagi umumiy ifodalardan farqli ravishda, ilmiy matnlar aniq va o‘zgaruvchan ilmiy atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “ta’lim olish huquqi” o‘rniga “ta’limga teng kirish imkoniyati” deb aniqroq ta’rif berish mumkin.

Publitsistik uslubdagi matnni yuqori ilmiy uslubga o‘zgartirish jarayoni faqatgina tilni o‘zgartirishni emas, balki matnni ko‘proq aniq va tizimli shaklga keltirishni ta’minlaydi. Bu uslubda ishlatiladigan atamalar va terminologiyalarni to‘g‘ri tanlash, ilmiy va statistik ma’lumotlarga asoslanib fikrlar bildirishning alohida ahamiyati bor [3].

Publitsistik uslubdagi matnni badiiy uslubga o‘zgartirish modeli

Publitsistik uslubdagi matnni badiiy uslubga perefraz qilishda asosiy e’tibor matnning emotsiyali va estetik tarzda o‘zaro bog‘lanishini ta’minlashga qaratilgan. Publitsistik uslubdagi tekstlar tezkor va mantiqiy bo‘lib, badiiy uslubdagi matn esa, birinchidan, umumiy va individual his-tushunchalarni yoritishga [1]. Bu modelda, xususan, simbolizm, metaforalar, obrazlar va hissiy tavsiflar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda xato yoki noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish uchun, matnga badiiy elementlarni qo‘shishda ehtiyotkorlik va aniqlik talab qilinadi [7].

Quyidagi publitsistik uslubdagi matnni ko‘rib chiqaylik:

“Yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyati hayotlarining kelajagini shakllantiradi. Ta’lim olish orqali ular jamiyatda o‘z o‘rnini topadi va o‘z orzularini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.”

Ushbu matnni badiiy uslubda perefraz qilishda, unga quyidagi o‘zgartirishlarni kiritish mumkin:

“Yoshlar o‘z taqdirini o‘zgartirish uchun ta’limni qo‘lga kiritishi kerak. Har bir yangi bilim, ular uchun yangi bir ufq ochadi, ko‘zlarini ochar ekan, dunyo ularni kutmoqda. Har bir dars, bir qadamingizni kelajakka, yorqin orzular tomon qo‘ygan qadamingizdir.”

Yuqoridagi misolda, publitsistik uslubdagi matnning oddiy va mantiqiy xabarini badiiy uslubda, tasviriy elementlar bilan boyitilgan. Badiiy uslubda, so‘zlar orqali his-tuyg‘ularni ifodalashga, obrazlar yaratishga va o‘quvchini tasavvur

qilishga undashga e’tibor beriladi. Misolda, “yangi bir ufq ochadi” va “kelajakka, yorqin orzular tomon” kabi iboralar badiiy uslubdagi tasviriy so‘zlardir [7].

Badiiy uslubda, ayniqsa, simbolizm va metaforalardan keng foydalanish matnni yanada estetik va estetik jihatdan kuchli qiladi. Publitsistik uslubdagi ma’lumotlarni badiiy tarzda aks ettirishda, xato yoki noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish uchun ehtiyotkorlik va aniq tushuncha talab etiladi. Badiiy uslubda, matnni o‘qiyotgan o‘quvchi nafaqat faktlar va ma’lumotlarni, balki ular orasidagi ma’nolarni ham his qilishi kerak.

Publitsistik uslubdan badiiy uslubga o‘tish jarayoni faqatgina so‘zlar va iboralarning o‘zgarishini emas, balki butun matnning his-tuyg‘ular va obrazlar orqali kuchayishini talab qiladi. Bu jarayonning asosiy maqsadi, matnni o‘quvchi uchun yanada ta’sirchan va xayoliy qilishdir, shu bilan birga uning estetik ahamiyatini oshirishdir [1].

Matnni publitsistik uslubdan ilmiy ommabop uslubga, yuqori ilmiy uslubga va badiiy uslubga perefraz qilishning turli modellari ko‘rib chiqildi. Publitsistik uslubning ma’lumotlarni tez va aniq tarzda yetkazishiga bo‘lgan zaruriyati, ilmiy va badiiy uslublarning esa ma’lumotlarni aniq, to‘g‘ri va estetik tarzda tasvirlashga qaratilgan. Bu modellarning o‘rtasidagi farqlar va ularning o‘zgarishlari umumiy tilshunoslik va tilimizning ko‘plab sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arnold Doug, et al. Machine Translation: An Introductory Guide. Blackwell, 1994.
2. Chen Mia, et al. Best Practices for Transformer Models in Translation. *Journal of Artificial Intelligence Research*, vol. 61, 2018, pp. 445–472.
3. Gaspari Federico, John Hutchins. The Evolution and Challenges of Machine Translation. *Translation Spaces*, vol. 6, no. 2, 2017, pp. 167–189.
4. Hutchins John. Introduction to Machine Translation. UPF, 2003, www.hutchinsweb.me.uk/introMT-UPF-2003.pdf.
5. Koehn Philipp. Statistical Machine Translation. Cambridge University Press, 2009.
6. Pym Anthony. Translation Solutions for Many Languages. - Bloomsbury Academic, 2016.
7. Slocum Jonathan. A Survey of Machine Translation: Its History, Current Status, and Future Prospects. / *Computational Linguistics*, vol. 11, no. 1, 1985, pp. 1–17.
8. Tayirov B. O‘zbek tili va yozma kommunikatsiya. 2014.

UDK: 811.512.133`42

PERIFRAZ GENERATSIYA QILISH ALGORITMLARI TAHLILI

Xayatova Zarnigor Marufovna
doktorant DSc
khayatovazarnigor@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada perifraz generatsiyasi algoritmlarining nazariy asoslari va texnik jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida seq2seq, Transformer va ko‘p tilli modellar (masalan, BERT, T5, mBART) asosidagi yondashuvlar taqqoslanadi. O‘zbek tilining morfologik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinib, o‘zbek tilida perifraz yaratishda yuzaga keladigan muammolar va istiqbolli yondashuvlar muhokama qilinadi. Real misollar asosida o‘zbek tilida perifrazlashning samarali modellari tavsiya etiladi. Maqola natijalari tilshunoslik, NLP va ta’lim sohalarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy yechimlarni taklif qiladi.

Abstract. This article explores the theoretical foundations and technical aspects of paraphrase generation algorithms. The study compares approaches based on seq2seq, Transformer, and multilingual models such as BERT, T5, and mBART. Special focus is given to the morphological and syntactic characteristics of the Uzbek language, along with challenges and promising methods for generating paraphrases in Uzbek. Effective models are proposed through real examples. The results of the article offer practical solutions applicable in linguistics, natural language processing (NLP), and education.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и технические аспекты алгоритмов генерации парафраз. В ходе исследования проводится сравнительный анализ подходов, основанных на seq2seq, Transformer и многоязычных моделях (BERT, T5, mBART). Особое внимание уделяется морфологическим и синтаксическим особенностям узбекского языка, а также трудностям и перспективам генерации парафраз на узбекском языке. На основе реальных примеров предлагаются эффективные модели перефразирования. Результаты статьи могут быть полезны в прикладных задачах лингвистики, обработки естественного языка (NLP) и образования.

Kalit so‘zlar: *perifraz generatsiyasi, tabiiy tilni qayta ishlash, seq2seq model, Transformer, BERT, T5, mBART, ko‘p tilli model, o‘zbek tili, semantik izchillik.*

Kirish. Perifraz (ya’ni, bir fikrni boshqa so‘zlar bilan qayta ifodalash) tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasida muhim

muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada tadqiqotlar ko‘p jihatdan mashinaviy tarjima, matnni soddalashtirish, plagiat aniqlash va avtomatik savol yaratish kabi qo‘llanmalarga yo‘naltirilgan. Avvalambor, ingliz tilidagi perifraz generatsiyasi algoritmlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan seq2seq (sequence-to-sequence) modellari yordamida perifrazlar yaratish mexanizmlari tahlil qilingan [6]. Tadqiqotda LSTM (Long Short-Term Memory) tarmoqlari va e’tibor (attention) mexanizmlarining samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, taklif qilingan “Stacked Residual LSTM” arxitekturasi perifraz sifatini oshirishda muhim rol o‘ynagan [7]. Tadqiqotchilar tarafidan ishlab chiqilgan model ko‘p bosqichli o‘qitish orqali yanada aniq va kontekstga mos jumlalarni generatsiya qilishga erishgan. So‘nggi yillarda Transformer asosidagi yondashuvlar – xususan, BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) va T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) modellari perifrazlashda inqilobiy natijalarni ko‘rsatdi [7]. Bu modellarning kuchli tomonlaridan biri – ular katta hajmdagi korpuslar ustida o‘qitilib, kontekstni chuqur anglay oladi.

Turli tillarda, xususan, fransuz, nemis va ispan tillarida ham perifrazlash bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. Masalan, Mallinsonlar [10] o‘z tadqiqotida ko‘p tilli perifraz korpuslari yordamida neyron tarmoqlarning umumiylashtirish (generalization) qobiliyatini oshirishga erishgan. Ular tomonidan taqdim etilgan “ParaNMT-50M” korpusi ko‘plab neyron modelni qayta o‘qitish va sinovdan o‘tkazishda ishlatilmoqda. Afsuski, o‘zbek tilida perifraz generatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar hozircha cheklangan. Biroq turkiy tillar, xususan, turk tilidagi yondashuvlar ma’lum darajada o‘zbek tili uchun andoza bo‘lishi mumkin. Çelikyilmaz [11] tomonidan turk tilida ishlab chiqilgan periferik matnlar generatsiyasi tizimi, ayniqsa, semantik izchillikni saqlashda ancha samarali ekani qayd etilgan. Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, perifraz generatsiyasi bo‘yicha algoritmlar izchil rivojlanib bormoqda. Transformer arxitekturasi bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq o‘zbek tilida bu sohada hali yetarlicha tadqiqot olib borilmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda izlanishlar boshlanishi dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

Algoritmlarning texnik tahlili

Perifraz generatsiyasi bo‘yicha eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlar uch asosiy guruhga ajraladi: birinchisi - an’anaviy neyron tarmoqlar, ikkinchisi - Transformer asosidagi zamonaviy arxitekturalar, va uchinchisi - ko‘p tilli modellar. Har bir guruh o‘ziga xos texnik xususiyatlarga, ishlash mexanizmlariga va vazifaga bog‘liq ustunlik yoki cheklovlarga ega.

Seq2Seq (sequence-to-sequence) arxitekturasi perifraz generatsiyasida dastlabki samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu modelning asosiy tamoyili - berilgan kirish matnini (input sentence) kodlovchi (encoder) blok orqali yashirin holatda ifodalab, uni chiqish matniga (output sentence) dekodlovchi (decoder) blok orqali qayta ishlashdir. Ayniqsa, LSTM (Long Short-Term Memory) hujayralari uzoq muddatli bog‘lanishlarni saqlay olish qobiliyati bilan bu modelga kuchli kontekst anglash imkonini beradi. Biroq ushbu arxitektura ketma-ketlikka asoslanganligi sababli, parallel ishlov berish imkoniyati cheklangan bo‘lib, bu esa katta hajmdagi matnlar bilan ishlashda hisoblash xarajatlarini oshiradi. Bundan tashqari, LSTM modellar murakkab sintaktik yoki semantik o‘zgarishlarni chuqur anglay olishda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladi [7].

2017-yilda Vaswani va boshqa tadqiqotchilar [8] tomonidan taklif etilgan Transformer arxitekturasi perifraz generatsiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. Uning asosiy innovatsiyasi bo‘lgan self-attention mexanizmi modelga matndagi har bir tokenning boshqa tokenlar bilan bog‘liqligini aniqlash va chuqur kontekstni anglash imkonini beradi. Transformerlarning yana bir katta afzalligi — ular ketma-ketlikni ketma-ket emas, balki parallel ravishda qayta ishlaydi, bu esa o‘qitish va inferensiya tezligini sezilarli darajada oshiradi. BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) va T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) kabi modellarning perifrazlash uchun moslashtirilgan versiyalari mavjud bo‘lib, ular ko‘plab benchmark testlarida yuqori natijalarga erishgan. Masalan, T5 modelining "text-to-text" dizayni uni har xil NLP vazifalariga, jumladan, perifraz generatsiyasiga moslashtirishni osonlashtiradi [3]. Biroq Transformer modellarining katta hajmi va o‘qitish uchun talab etiladigan resurslar ularni cheklangan kompyuter imkoniyatlariga ega tadqiqotchilar uchun qiyinlashtiradi.

So‘nggi yillarda ko‘p tilli (multilingual) modellar perifraz generatsiyasida katta rol o‘ynay boshladi. Ayniqsa, past resursli tillar uchun bu yondashuvlar katta imkoniyatlar yaratmoqda. ParaNMT-50M korpusi yordamida o‘qitilgan modellar turli tillar oralig‘ida o‘xshash ma’nodagi jumlalarni generatsiya qilish imkonini beradi [10]. Bundan tashqari, mBART (Multilingual BART) va XLM-R (Cross-lingual RoBERTa) modellarining ko‘p tilli korpuslarda o‘qitilganligi ularni o‘zbek tiliga o‘xshash tillar uchun ham foydali qiladi. Bu modellar o‘zbek tilida yetarli ma’lumotlar bo‘lmasa ham, boshqa turkiy tillarda o‘qitilgan kontekstni transfer qilish orqali yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Ammo bu modellarning asosiy cheklovi — ular o‘zbek tiliga xos bo‘lgan grammatik va stilistik xususiyatlarni chuqur tushunmasligi mumkin, chunki ko‘p tilli korpuslar orasida o‘zbek tilidagi matnlar soni juda kam.

Ushbu texnik tahlil shuni ko‘rsatadiki, perifraz generatsiyasi uchun eng kuchli yondashuvlar Transformer asosidagi modellar hisoblanadi. Biroq har bir modelning o‘ziga xos ishlash doirasi va qo‘llanish sohasi mavjud. Past resursli tillar

uchun ayniqsa, ko‘p tilli modellar yoki transfer learning asosidagi yondashuvlar yanada samarali bo‘lishi mumkin. Shu sababli, algoritm tanlashda til resurslari, vazifa turi va mavjud hisoblash imkoniyatlari e’tiborga olinishi lozim.



1-rasm. Perifraz generatsiyasi uchun qo‘llaniladigan asosiy algoritm turlari

Mana bu diagramma perifraz generatsiyasi uchun qo‘llaniladigan asosiy algoritm turlarini ko‘rsatadi. Ranglar orqali quyidagilar ajratilgan:

- **Ko‘k**: An’anaviy neyron tarmoqlar (Seq2Seq, LSTM)
- **Qizil**: Transformer asosidagi yondashuvlar (BERT, T5)
- **Yashil**: Ko‘p tilli modellar (mBART, ParaNMT)

Algoritmlarning taqqoslov tahlili

Quyidagi jadvalda asosiy uch turdagi perifraz generatsiyasi algoritmlari o‘zaro solishtirilgan. Jadvalda har bir yondashuvning kontekst anglash darajasi, hisoblash murakkabligi, resurs talabchanligi va o‘zbek tiliga moslashuv darajasi keltirilgan.

1-jadval. Uch turdagi perifraz generatsiyasi algoritmlarining o‘zaro solishtiruvi

Algoritm turi	Kontekst anglash	Hisoblash murakkabligi	Resurs talabchanligi	O‘zbek tiliga moslashuv
Seq2Seq + LSTM	O‘rta	O‘rta	Past	Cheklangan
Transformer (BERT, T5)	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O‘rta
Ko‘p tilli modellar (mBART, XLM-R)	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O‘rta–Yaxshi

Ushbu taqqoslovdan ko‘rinadiki, Transformer asosidagi modellar kontekstni chuqur tushunish qobiliyatiga ega, biroq ularni o‘qitish va ishlatish uchun katta hisoblash resurslari talab etiladi. Ko‘p tilli modellar esa o‘zbek tiliga nisbatan yaxshiroq moslashish imkoniyatiga ega, ayniqsa boshqa turkiy tillar bilan o‘xshashlikdan foydalanilsa.

Perifraz generatsiyasi bugungi kunda ko‘plab real hayotiy vazifalarda samarali qo‘llanilmoqda. Quyida bu algoritmlarning amaliy sohalardagi ishlatilishiga oid bir nechta misollar keltirilgan: Yevropa va AQShdagi ta’lim texnologiyalari kompaniyalari o‘quvchilar uchun matnlarni avtomatik tarzda soddalashtiruvchi ilovalarda perifraz generatsiyasidan foydalanmoqda. Masalan, murakkab ilmiy yoki texnik matnlar oddiy so‘zlar bilan qayta ifodalanadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Onlayn o‘quv platformalari foydalanuvchilarga test savollarini avtomatik yaratishda perifrazlashdan foydalanmoqda. Masalan, “OpenAI GPT” asosida ishlovchi vositalar berilgan matndan turli xil formulirovkadagi savollar ishlab chiqadi.

Ba’zi akademik platformalar va ilmiy jurnallar perifraz deteksiyasini amalga oshiruvchi tizimlardan foydalanadi. Reklama va marketing sohalarida bir fikrni bir nechta uslubda ifodalash orqali kreativ kontent yaratiladi. Misol uchun, bir necha variantdagi sarlavhalar, postlar yoki reklama matnlari ishlab chiqilishi mumkin. Perifraz generatsiyasi bir nechta tillarda ekvivalent jumlalarni yaratish orqali foydalanuvchiga sinonim variantlar va ifoda shakllarini ko‘rsatadi. Bu yondashuv til o‘rganuvchilarning lug‘aviy boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida perifraz generatsiyasining amaliy jihatlari

Perifraz generatsiyasi algoritmlarini o‘zbek tilida qo‘llashda tilning morfologik boyligi va sintaktik moslashuvchanligi alohida e’tiborni talab qiladi. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani sababli, so‘z yasovchi va qo‘shimcha qo‘shuvchi morfemalarning ko‘pligi perifrazlashda semantik izchillikni saqlab qolish uchun algoritmlardan yuqori darajada kontekstni anglashni talab qiladi.

Masalan, quyidagi jumlani olaylik:

Asl jumla: *Talabalar darsga vaqtida kelishlari kerak.*

Perifraz varianti: *O‘quvchilar mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida yetib kelishlari lozim.*

Bu yerda “talabalar” → “o‘quvchilar”, “dars” → “mashg‘ulot”, “kerak” → “lozim” kabi sinonimik almashuvlar mavjud bo‘lsa-da, mazmun o‘zgarmagan. Aynan shunday sintaktik strukturalar asosida qurilgan perifrazlar tilni tushunishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir misol:

Asl jumla: *Bugun ob-havo iliq va quyoshli bo‘ladi.*

Perifraz variantlari:

- *Havo bugun iliq bo‘lib, quyosh charaqlab turadi.*
- *Quyoshli va iliq kun bugungi ob-havoni belgilaydi.*

Bu misollar ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida perifrazlash nafaqat so‘z darajasida, balki gap tuzilmasi, so‘z tartibi va stilistik uslubni o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun, perifraz algoritmlari faqatgina so‘z almashtirish emas, balki gap tuzilmalarini qayta qurishga qodir bo‘lishi zarur.

O‘zbek tilidagi periferik generatsiyani amalga oshirish uchun quyidagi arxitektura tavsiya etiladi:

1. **O‘zbek tilidagi annotatsiyalangan kichik korpuslar**: masalan, yangilik matnlari, darsliklar va davlat hujjatlari asosida tuzilgan parallellikdagi variantlar.
2. **mBART modelining transfer learning usuli bilan o‘zbek tiliga moslashtirilgan versiyasi**.
3. **Data augmentation (ma’lumotlarni sun’iy ko‘paytirish)** orqali sinonimlar, gap tuzilmalari va stilistik o‘zgarishlar kiritilgan korpuslar.
4. **BLEU va ROUGE kabi avtomatik metrikalar asosida baholash tizimi**.

Ushbu yondashuv yordamida o‘zbek tilidagi perifrazlash vazifalari – masalan, o‘quvchilarga soddalashtirilgan matn berish, avtomatik savol yaratish, tilni o‘rganishga ko‘maklashish va kontent yaratishda takrorlanuvchi fikrlarni stilistik jihatdan boyitish – yuqori sifatda amalga oshiriladi.

Perifraz generatsiyasi algoritmlari zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash sohasida yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri sanaladi. Ushbu maqolada perifrazlash algoritmlarining asosiy turlari, jumladan, an’anaviy seq2seq modellari, Transformer arxitekturasi asosidagi yondashuvlar (BERT, T5) hamda ko‘p tilli modellar (mBART, XLM-R) texnik va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, o‘zbek tilida perifraz generatsiyasi qanday amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi muammolar va istiqbolli yondashuvlar ham ko‘rib chiqildi.

O‘zbek tili o‘zining morfologik boyligi va sintaktik moslashuvchanligi bilan boshqa ko‘plab tillardan farq qiladi. Shuning uchun bu til uchun perifraz algoritmlarini ishlab chiqishda kontekstni chuqur tushunishga asoslangan yondashuvlar zarur. Maxsus tayyorlangan o‘zbek tilidagi korpuslar, sinonimik ma’lumotlar bazalari va stilistik vositalar asosida ishlov beruvchi algoritmlar aynan tilimiz xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa, Transformer va ko‘p tilli modellar yordamida past resursli tillarda ham samarali perifrazlash mumkin. Agar mBART kabi modellar o‘zbek tilida qayta o‘qitilsa va ma’lumotlar bazasi sun’iy yo‘l bilan boyitilsa, tilimizda yuqori sifatli perifrazlash tizimi yaratish mumkin. Masalan, til o‘rganish ilovalari, avtomatik tarjima tizimlari, kontent generatsiyasi vositalari va plagiat aniqlash dasturlarida bu yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, maqolada o‘zbek tilidagi real perifraz misollari tahlil qilinib, jumla sathidagi semantik tenglikni saqlab qolish uchun sinonim almashuv, gap tuzilmasini o‘zgartirish va stilistik moslashuvlarning qanday ishlashi ko‘rsatib o‘tildi. Bu jihatlar algoritmik yondashuvlar uchun nazariy asos yaratadi.

Kelgusida o‘zbek tiliga xos perifrazlash tizimlarini yaratishda lingvistik resurslar – lug‘atlar, frazeologik birliklar, semantik tarmoqlar – asosida modellarni o‘qitish va baholash muhim hisoblanadi. Ushbu izlanishlar ilmiy, amaliy va pedagogik sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan natijalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaksik usullari. – Toshkent, 1983.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
3. Turansky I. Sementicheskaya kategoriya intensivnosti v angliyskom yazike. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
4. Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi masalasi. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Statista.com. AI usage in education sector worldwide [https://www.statista.com] (murojaat sanasi: 2025-04-11).
6. Chen, X., Liu, X., Sun, M., Lin, Y. Paraphrase generation with deep neural networks. In Proceedings of the 2018 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, 2018. (pp. 448–457). [Chen, 2018:448].
7. Prakash, A., Hasan, S. A., Lee, K., Datla, V., Qadir, A., Liu, J., Farri, O. Neural paraphrase generation with stacked residual LSTM networks. In COLING 2016. (pp. 1243–1252).
8. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., Polosukhin, I. Attention is all you need. In Advances in Neural Information Processing Systems, 2017. (pp. 5999–6009).
9. Raffel, C., Shazeer, N., Roberts, A., Lee, K., Narang, S., Matena, M., Liu, P. J. Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer. Journal of Machine Learning Research, 21(140), 1–67. 2020.

10. Mallinson, J., Sennrich, R., Lapata, M. Paraphrasing revisited with neural machine translation. In Proceedings of the 15th Conference of the European Chapter of the ACL, 2017). (pp. 400–410). [Mallinson et al., 2017:400].

11. Çelikyilmaz, A., Bosselut, A., He, X., Choi, Y. Generating story endings with planning and style-aware reward. In Proceedings of the 2021 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics, 2021.

12. Al-Shameri, N., Al-Khalifa, H. A multilingual study of paraphrase generation models across low-resource languages. Data in Brief, Volume 52, April 2024, 109661. Elsevier, 2024.

TINISH BELGILARINING MATNDAGI AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Botir Elov Boltayevich,
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Sobirova Zarnigor G‘anijon qizi,
tayanch doktorant
sobirovazarnigor1996@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Tinish belgilarining yozma nutqdagi o‘rni beqiyosdir. Og‘zaki nutqda ohang, pauza, urg‘u kabi vositalar orqali fikr ifoda qilinsa, yozma nutqda ushbu vositalar o‘rnini tinish belgilari egallaydi. Tinish belgilarisiz yozilgan matn na mazmunan tushunarli bo‘ladi, na grammatik jihatdan to‘g‘ri. Har bir tinish belgisi o‘ziga xos vazifani bajaradi va jumla hamda matn tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ilmiy, rasmiy va badiiy uslubdagi matnlarning to‘g‘ri va aniq ifodalanishida tinish belgilarining o‘rni katta. Ushbu maqolada tinish belgilarining matndagi ahamiyati, ularning grammatik vazifalari, o‘qish va tushunishga ta’siri, shuningdek, noto‘g‘ri qo‘llanilishi oqibatida yuzaga keladigan xatoliklar tahlil qilinadi.

Annotation. Punctuation plays an invaluable role in written language. While spoken language conveys meaning through intonation, pauses, and stress, written language relies on punctuation marks to fulfill these functions. A text without punctuation is neither semantically clear nor grammatically correct. Each punctuation mark serves a specific function and holds structural importance in both sentences and overall text. Especially in scientific, formal, and literary styles, the correct and precise use of punctuation is essential. This article analyzes the importance of punctuation in text, its grammatical functions, its impact on reading and comprehension, as well as common errors arising from incorrect usage.

Аннотация. Пунктуация играет бесценную роль в письменной речи. В устной речи смысл выражается с помощью интонации, пауз и ударений, тогда как в письменной речи эту функцию выполняют знаки препинания. Текст, написанный без знаков препинания, будет непонятным по смыслу и некорректным с грамматической точки зрения. Каждый знак препинания выполняет свою уникальную функцию и имеет важное значение в структуре предложения и текста. Особенно велика роль пунктуации в правильной и точной передаче мысли в научном, официальном и художественном стилях. В данной статье рассматриваются значение знаков препинания в тексте, их грамматические функции, влияние на чтение и понимание, а также ошибки, возникающие в результате их неправильного использования.

Kalit so‘zlar: *NLP, yozma nutq, tinish belgilari, sintaktik vazifa, mantiqiy va semantik vazifa, emotsional-intonatsion vazifa, imlo xatosi, uslubiy xato, ASR, BERT.*

Kirish

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – bu kompyuterlarga inson tilini qayta ishlash va tushunish imkonini berish uchun tilshunoslik, informatika va sun’iy intellekt tajribasini birlashtirgan fanlararo soha. NLP texnikasining kuchidan foydalangan holda, bizning imlo va grammatika tekshirgichimiz foydalanuvchilarga aniqroq va kontekstdan xabardor xatolarni aniqlash va tuzatish tajribasini taqdim etishga intiladi. NLP asosidagi tekshiruvchilar, ortografik va grammatik xatolarni aniqlash bilan birga, kontekst, sintaksis va semantika tahlilini amalga oshirib, mo‘ljallangan xabarni yaxshiroq tushunib, aniq tuzatishlar va takliflar taqdim etadi.

Tinish belgilar yozma nutqning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular matnning tuzilishini, ohangini, fikrlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Og‘zaki nutqda ohang, pauza, urg‘u kabi intonatsion vositalar orqali fikr ifodalanadi. Yozma nutqda esa ushbu vazifani tinish belgilar bajaradi. Tinish belgilar fikrning yakunlanganligini, davomiyligini, turlanishini va emotsional tusini ko‘rsatadi. Ular matnni o‘qishni yengillashtiradi, noto‘g‘ri talqin qilinishining oldini oladi.Yozma nutqning ma’nodorligi, mazmunan aniqligi, grammatik tuzilishi va o‘qishga qulayligi ko‘p jihatdan tinish belgilariga bog‘liq. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri qo‘llash savodxonlik belgisi hisoblanadi. Tinish belgilarini bilish va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash yozma nutq madaniyatining ajralmas qismi sanaladi.

Tinish belgilarining funksional vazifalari:

- **Sintaktik vazifasi**

Tinish belgilarining asosiy vazifalaridan biri – sintaktik vazifa, ya’ni matnda gaplarning tuzilishi va ularning bir-biriga bo‘lgan grammatik munosabatlarini belgilashdir. Tinish belgilar yordamida gaplarning chegarasi, bo‘laklarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning izchil oqimi ifodalanadi. Masalan, murakkab gaplar tarkibidagi sodda gaplarni vergul yoki nuqtali vergul yordamida ajratish orqali o‘quvchi fikr oqimini aniq anglay oladi.

- **Mantiqiy va semantik vazifasi**

Tinish belgilarning matndagi mantiqiy bog‘liqlikni belgilashda ham katta rol o‘ynaydi. Gaplar orasidagi sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlilik kabi semantik munosabatlar tinish belgilar orqali oson tushuniladi. Masalan, “lekin”, “ammo”, “shuning uchun” kabi bog‘lovchilar qatnashgan gaplarda vergul qo‘yilishi bu fikrlar orasidagi mantiqiy aloqani yanada ravshanlashtiradi.

- **Emotsional-intonatsion vazifasi**

Og‘zaki nutqda his-tuyg‘ular ohang,pauza va urg‘ular orqali ifodalanadi. Yozma nutqda esa bu vazifani tinish belgilari bajaradi. Undov belgisi (!), so‘roq belgisi (?), ikki nuqta (:), qo‘shtirnoq (“”) kabi belgilar matnga emotsional va ekspressiv tus bag‘ishlaydi. Ular yordamida o‘quvchi matn ohangini sezadi, muallifning munosabatini tushunadi.

Turli uslubdagi matnlarda tinish belgilarining ishlatilishida o‘ziga xosliklar bo‘ladi:

Ilmiy uslub: aniq, lo‘nda va faktlarga asoslangan. Tinish belgilarining qat’iy qo‘llanilishi talab etiladi.

Badiiy uslub: undovlar, iqtiboslar, pauzalar ko‘p bo‘ladi. Tinish belgilarining ko‘plab turi qo‘llaniladi.

Publitsistik uslub: hissiylik va ta’sirchanlik uchun undov va so‘roq belgilaridan tez-tez foydalaniladi.

Tinish belgisi maqsad va nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda qo‘yiladi.[1]

Imlo qoidalariga, uslubiy me’yorlarga amal qilinmagan hollarda matnda xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Xatolarning quyidagi turlari bor:

1. **Imlo xatolari;**
2. **Punktuatsion xatolar;**
3. **Uslubiy xatolar;**
4. **Mantiqiy xatolar.**

Biz ushbu maqolada aynan tinish belgilari bilan bog‘liq xatolar yuzasidan fikr yuritamiz.

Tinish belgilari xatosi – tinish belgilarini qo‘llash bilan bog‘liq xatolar. Maqsad, fikr og‘zaki nutqda ma’lum ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali aks ettiriladi.

Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda aks ettiruvchi zaruriy vositadir.

Tinish belgilarining turlari va ularning o‘rni

O‘zbek tilida bir necha asosiy tinish belgilar mavjud bo‘lib,ularning har biri o‘ziga xos vazifa va ahamiyatga ega. Quyida ularning eng muhimlari haqida ma’lumot beriladi:

1. **Nuqta (.)**

Nuqta xabar gaplarning oxiriga qo‘yiladi va gapning tugaganligini bildiradi. U matnni mantiqiy ravishda bo‘lib turadi. Masalan: Bugun havo issiq.

2. **Vergul (,)**

Vergul gapdagi bir jinsli bo‘laklarni, qo‘shma gap qismlarini, kirish so‘z va izohlovchi gaplarni ajratish uchun ishlatiladi. Masalan: Biz olma, nok, shaftoli va uzum oldik.

3. **Nuqtali vergul (;)**

Murakkab gap tarkibidagi mustaqil mazmunga ega qismlarni ajratish uchun ishlatiladi. Masalan: U tez gapirardi; men esa uni zo‘rg‘a tushunardim.

4. **Ikkita nuqta (:)**

Izoh, ro‘yxat yoki iqtibos oldidan qo‘yiladi. Masalan: Men quyidagilarni oldim: non, choy, shakar.

5. **So‘roq belgisi (?)**

Savol mazmunidagi gaplar oxirida ishlatiladi. Masalan: Sen bu filmni ko‘rganmisan?

6. **Undov belgisi (!)**

Hayrat, quvonch, buyruq, ogohlantirish va boshqa kuchli emotsiyani ifodalovchi gaplarda qo‘llanadi. Masalan: Juda yaxshi ishlading!

7. **Qo‘shtirnoq (“”)**

Bevosita nutq, iqtibos, ironiya yoki maxsus so‘zlarni ajratish uchun ishlatiladi. Masalan: U menga “Men bu ishni bajaraman”, – dedi.

8. **Qavs (())**

Qo‘shimcha tushuntirish, aniqlashtirish kiritiladigan so‘z yoki iboralar atrofida ishlatiladi. Masalan: Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zbek adabiyotining asoschisi hisoblanadi.

9. **Tire (–)**

Izohlovchi gaplardan oldin, ikki so‘z orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Masalan: Ona – muqaddas zot.

10. **Ko‘p nuqta (…)**

Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida ko‘p nuqta fikrda uzilish borligini ko‘rsatadi va gapning oxirida yoki, umuman, u qo‘yilgan o‘rinlarda uzun va ba’zan qisqa pauza bo‘ladi.Masalan:

Devorda viloyat xaritasi, tuman hududining rejasi turli-tuman chizgilar, foto hujjatlar... Hammasi ham unib o‘sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo‘limining mudiri, biri deputat... Axir men... qo‘limdan kelmaydi.

Tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi oqibatlari

Tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanishi yoki ularni umuman ishlatmaslik yozma nutqda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday xatolar matnning tushunarsiz bo‘lishiga, ma’no buzilishiga, hatto mutlaqo boshqa ma’no paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

- ***Ma’no buzilishi***

Tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida gapning asl mazmuni o‘zgarib ketishi mumkin. Masalan:

- To‘g‘ri: U, aka, sizni chaqiryapti.
- Noto‘g‘ri: U aka sizni chaqiryapti.

Birinchi gapda “aka” murojaat sifatida ajratilgan. Ikkinchi gapda esa murojaat anglashilmaydi.

- ***O‘quvchida chalkashlik paydo bo‘lishi***

Tinish belgilar yo‘qligida matnni o‘qish qiyinlashadi, gap qayerda boshlanib, qayerda tugaganini anglash mushkul bo‘ladi. Bu esa o‘quvchining fikrni noto‘g‘ri talqin qilishiga olib keladi. Masalan:

Tinish belgisisiz:

Bugun maktabda bayram tadbiri o‘tkaziladi barcha o‘quvchilar tayyor bo‘lishi kerak

To‘g‘rilangan:

Bugun maktabda bayram tadbiri o‘tkaziladi. Barcha o‘quvchilar tayyor bo‘lishi kerak.

- ***Muloqotdagi uzilishlar***

Yozma muloqotda tinish belgilar fikrlarning aniqligini va izchilligini saqlaydi. Agar ular ishlatilmasa, o‘quvchi yoki tinglovchi matnni to‘liq tushunmasligi mumkin. Ayniqsa, rasmiy hujjatlar, ilmiy matnlar va adabiy asarlarda bu holat jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Tinish belgilarini o‘rgatish va o‘zlashtirish muammolari

Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatish — yozma savodxonlikni shakllantirishning muhim qismidir. Biroq amalda bu sohada muayyan muammolar kuzatilmoqda.

Ta’lim tizimidagi yondashuvlar

Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga tinish belgilarini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilikda ushbu bilimlar nazariy darajada qolib

ketmoqda. Darsliklarda mavzu ko‘pincha qoidalarning yodlashiga qaratilgan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar yetarli emas. O‘qituvchilarning yondashuvi ham bu borada muhim omil sanaladi.

O‘quvchilar duch keladigan muammolar:

- Belgilarning o‘zaro farqini tushunmaslik;
- Qoidalarni amaliyotda tatbiq eta olmaslik;
- Ularni yozma nutqda unutish yoki noto‘g‘ri qo‘llash;
- Murakkab gaplarda tinish belgilarni joylashtirishdagi chalkashliklar.

YECHIM

- Matn tahlillari va xatolar ustida ishlashni yo‘lga qo‘yish;
- Interaktiv o‘quv platformalaridan foydalanish;
- Yozma ishlarni muntazam tahlil qilish orqali o‘quvchilarda mustahkam ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Darsliklarni ko‘proq amaliy topshiriqlar bilan boyitish.

Zamonaviy texnologiyalar va tinish belgilar

Bugungi kunda axborot texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayonda til bilan bog‘liq turli sohalar, jumladan, tinish belgilarini avtomatik tarzda tiklash texnologiyalari ham rivoj topmoqda.

Tinish belgilarini tiklashda olimlar eng samarali tizimlar, odatda, prosodik va leksik xususiyatlarni birlashtirgan gibrid modellardan foydalanadilar.[4][6] BERT kabi modellarning paydo bo‘lishiga qadar,leksik xususiyatlar,asosan, takroriy neyron tarmoqlar [4][5]tomonidan qayta ishlangan, shu bilan birga, so‘nggi yondashuvlar transformator [3]arxitekturasidan foydalanadi.Hozirgi zamonaviy metod Courtland va boshq. [5] tomonidan taklif qilingan bo‘lib, bu model oldindan o‘qitilgan BERTdan foydalanadi, bu esa bir xil token uchun bir nechta ehtimollarni yig‘ib, yuqori aniqlik va sezilarli darajadagi parallelizmga erishishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarida “punctuation restoration” — ya’ni tinish belgilarni tiklash muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu sohada BERT, RoBERTa, T5, XLNet kabi transformator modellaridan foydalaniladi. Ular yozilgan matnni segmentlarga ajratadi va ularning tuzilishiga qarab to‘g‘ri tinish belgilarini joylashtiradi. Bu texnologiyalar avtomatik tarjima, chatbotlar, hujjatlar tahlili kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi.

Nutqni matnga aylantirish tizimlarida (ASR)

Sun’iy intellekt asosidagi nutqni matnga aylantiruvchi tizimlar (Google Speech-to-Text, Yandex SpeechKit, Whisper va boshqalar) intonatsion ohangdan kelib chiqib matndagi tinish belgilarni aniqlashga harakat qiladi.[2] Bu tizimlar hali ham mukammal emas, shuning uchun matnga keyingi ishlov berish (post-processing) zarur bo‘ladi.

Avtomatik nutqni tanib olish (ASR) tizimlari, odatda, tinish belgilarisiz segmentatsiya qilinmagan transkriptlarni chiqaradi. Tinish belgilarini tiklash transkriptsiyalangan nutqni qayta ishlashda muhim qadamdir. Tündik va boshq. [4] transkriptlarda tinish belgilarining yo‘qligi o‘qish osonligini sezilarli darajada pastlashtirishini, bu esa katta so‘z xatoliklar darajasi kabi ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Neyron mashina tarjimasi, his-tuyg‘ular tahlili va ma’lumotlarni olish kabi quyidagi vazifalar ham ifodaviy chegaralarga ega bo‘lishdan foyda ko‘radi.

Xulosa

Tinish belgilar yozma nutqning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat grammatik me’yorlarni, balki fikrning aniq va ravon ifodalanishini ta’minlaydi. Ularning sintaktik, semantik va emotsional vazifalari tufayli matnlar tushunarli, mazmunli va mantiqiy bo‘lib chiqadi. Yozma madaniyatni shakllantirish, savodxonlikni oshirish, ilmiy, badiiy va rasmiy nutqlarda tiniq ifodani ta’minlashda tinish belgilar alohida o‘rin tutadi.

Tinish belgilarining matndagi ahamiyati juda katta. Ular matnning tuzilishini belgilaydi, fikrni aniqlashtiradi, o‘quvchi uchun qulay o‘qish muhitini yaratadi. Har bir tinish belgisi o‘ziga xos sintaktik va semantik yuklama bilan matnga xizmat qiladi. Yozma nutqda fikrning to‘g‘ri va aniq yetkazilishi, aynan, tinish belgilarining o‘z o‘rnida va maqsadga muvofiq qo‘llanilishiga bog‘liq. Shu boisdan, tinish belgilarining o‘rganilishi va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishi har bir o‘quvchi va yozuvchi uchun zaruriy ko‘nikmadir.

Texnologik taraqqiyot sharoitida ham tinish belgilar o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, sun’iy intellekt, avtomatik tarjima va ovozli tizimlarda ularni to‘g‘ri tiklash va qo‘llash yanada muhimlashmoqda. Shu sababli, kelajakda ham tinish belgilarni o‘rganish, o‘rgatish va to‘g‘ri qo‘llash masalalari doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant,2017.
2. Păiș et al., 2021 shared a pretty comprehensive survey on punctuation and casing restoration. It is interesting to see how the model proposed by Susanto et al., is still at the forefront of the SOTA models, 2016.

3. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A.N.,Kaiser, Ł., Polosukhin, I.: Attention is all you need. In: Advances in neural information processing systems,2017– pp. 5998–6008

4. Tündik, M.A., Szaszák, G., Gosztolya, G., Beke, A.: User-centric evaluation of

5. automatic punctuation in asr closed captioning,2018.

6. Tündik, M.Á., Tarján, B., Szaszák, G.: A bilingual comparison of maxent-and

7. rnn-based punctuation restoration in speech transcripts. In: 2017 8th IEEE International Conference on Cognitive Infocommunications (CogInfoCom). IEEE,2017–pp.000121–000126.

8. Garg, B., et al.: Analysis of punctuation prediction models for automated transcript generation in mooc videos. In: 2018 IEEE 6th International Conference

9. on MOOCs, Innovation and Technology in Education (MITE). IEEE, 2018–pp. 19–26.

TIL MODELLARI VA CHUQUR O‘RGANISH(DEEP LEARNING) USULLARI:UMUMIY TAVSIF

Sobirova Zarnigor G‘anijon qizi,
tayanch doktorant
sobirovazarnigor1996@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Hozirda sun’iy intellekt, xususan chuqur o‘rganish (deep learning) yutuqlari asosida yaratilgan til modellari inson tilini tushunish, qayta ishlash va yaratish borasida katta yutuqlarga erishmoqda. Til modellari – bu kompyuterlar yordamida inson tilini tushunish va undan samarali foydalanishga imkon beruvchi algoritmlar bo‘lib, ular matnlarni tahlil qilish, tarjima qilish, chatbot yaratish va boshqa ko‘plab vazifalarda ishlatiladi. Ushbu maqolada til modellarining NLPdagi o‘rni, ularning tarixiy rivojlanishi, texnik arxitekturasi, qo‘llanilish sohalari va ayniqsa, o‘zbek tiliga oid tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Annotation. Nowadays, language models developed based on artificial intelligence, particularly deep learning advancements, have achieved significant progress in understanding, processing, and generating human language. Language models are algorithms that enable computers to comprehend and effectively utilize human language. They are applied in various tasks such as text analysis, translation, chatbot creation, and many others. This article analyzes the role of language models in NLP, their historical development, technical architecture, areas of application, and especially research related to the Uzbek language.

Аннотация. В настоящее время языковые модели, разработанные на основе достижений искусственного интеллекта, особенно глубинного обучения (deep learning), достигли больших успехов в понимании, обработке и генерации человеческой речи. Языковые модели — это алгоритмы, которые позволяют компьютерам понимать человеческий язык и эффективно его использовать. Они применяются в таких задачах, как анализ текста, перевод, создание чат-ботов и многих других. В данной статье рассматриваются роль языковых моделей в области обработки естественного языка (NLP), их историческое развитие, техническая архитектура, области применения, а также исследования, посвящённые узбекскому языку.

Kalit so‘zlar: *NLP, til modellari, statistik yondashuvlar, RNN, LSTM, transformer, UzBERT, BERTbek, ASR*

Kirish. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish texnologiyalaridagi yutuqlar natijasida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP)

sohasi jadal rivojlanmoqda. NLPning asosiy maqsadi kompyuterga inson tilini tushunish, tahlil qilish va yaratish qobiliyatini singdirishdir. Bu maqsadga erishishda asosiy vositalardan biri – til modellari (language models) hisoblanadi. Til modellari matnni tushunish va yangi matn yaratish uchun mo‘ljallangan neyron tarmoqlar bo‘lib, ular turli arxitekturalarda – rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), ularning takomillashtirilgan turlari LSTM va GRU, hamda eng yangi Transformer arxitekturasi kabi modellar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Til modeli (Language Model) nima?

Til modellari inson yozgan yoki aytgan matnlar asosida **til qonuniyatlarini o‘rganadigan** va yangi mazmunli matnlar yaratishga qodir algoritmik tizimlardir. Ular matndagi so‘zlar ketma-ketligiga asoslanib keyingi so‘zni bashorat qilish, gapning ma’nosini aniqlash, tarjima qilish, savollarga javob berish kabi ko‘plab murakkab vazifalarni bajaradi.

Til modellari dastlab oddiy **statistik yondashuvlar** (masalan, N-gram modellar) asosida qurilgan bo‘lsa, keyinchalik **neyron tarmoqlarga** asoslangan chuqur modellar — **RNN**, **LSTM**, va ayniqsa **Transformer** arxitekturasi asosidagi yirik modellar (masalan, BERT, GPT, T5) orqali ulkan yutuqlarga erishildi.

Language Modeling

1. Statistical Language Models

- Linguistically motivated
- Adaptive
- Exponential
- Continuous Space
- Decision Tree
- N-Gram

2. Neural Language Models

- Speech Recognition
- Machine Translation
- Sentiment Analysis
- Text Suggestions
- Parsing Tools

3. Pre-trained Language Models

- BERT
- DeBERTa
- biLSTM
- T5
- Switch Transformers

4. Large Language Models

- ChatGPT
- GPT-3
- GPT-4 API
- PaLM
- Galactica
- Minerva
- GLAM
- AlexaTM
- LLaMA
- PanGu-Σ
- Cerebras-GPT
- BloombergGPT
- Falcon

Bugungi kunda til modellari **mashinaviy tarjima, chatbotlar, nutqni matnga aylantirish, matn generatsiyasi, xulosa chiqarish** kabi bir qator amaliy masalalarda asosiy yechim sifatida xizmat qilmoqda.

1. Chatbotlar

- Misollar: ChatGPT, LaMDA
- Tavsif: Tabiiy dialog uchun o‘rgatilgan model

2. Mashinaviy tarjima

- Misol: Google Translate
- Tavsif: Transformer asosida ishlaydi

3. Matn yaratish

- Misollar: GPT-3, GPT-4
- Tavsif: Hikoya, maqola, kod yozish

4. Nutqni matnga aylantirish

- Misollar: Whisper, ASR
- Tavsif: Audio kirishini matnga o‘zgartiradi

5. Savol-javob tizimi

- Misollar: BERT, T5
- Tavsif: Matn asosida savollarga javob beradi

6. Tilni avtomatik aniqlash

- Model: LID

- Tavsif: Matn qaysi tilda yozilganini aniqlaydi

Til modellari bugungi kunda quyidagi sohalarda keng qo‘llanilmoqda:

- **Tibbiyot:** klinik yozuvlarni avtomatik tahlil qilish;
- **Huquq:** hujjatlarni avtomatik tahlil va saralash;
- **Talim:** avtomatik tarjima, esse tekshirish, chat-botlar;
- **Dasturlash:** kod yozuvchi AI tizimlar (masalan, GitHub Copilot).

Soha	Model misoli	Izoh
Mashinaviy tarjima	Google Translate	Transformer asosida ishlaydi
Chatbotlar	ChatGPT, LaMDA	Tabiiy dialog uchun o‘rgatilgan model
Matn yaratish	GPT-3, GPT-4	Hikoya, maqola, kod yozish
Nutqni matnga aylantirish	Whisper, ASR	Audio kirishni matnga o‘zgartiradi
Savol-javob tizimi	BERT, T5	Matn asosida savollarga javob beradi
Tilni avtomatik aniqlash	LID model	Matn qaysi tilda yozilganini aniqlaydi

Til modellari tarixi va evolyutsiyasi

Til modellarining rivojlanishi dastlabki statistik modellardan boshlangan. 1980 –1990-yillarda **N-gram** modellar keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular berilgan so‘zlar ketma-ketligiga asoslangan ehtimolliklarni hisoblaydi. Biroq bu yondashuvlar uzoq kontekstni hisobga ololmas edi. Bugunga kelib an’anaviy n-gram modellardan boshlab, chuqur neyron tarmoqlarga asoslangan yondashuvlargacha til modellari sezilarli darajada rivojlandi.

Keyinchalik neyron tarmoqlarga asoslangan modellar, xususan **rekurrent neyron tarmoqlar (RNN)**, **Long Short-Term Memory (LSTM)** va **Gated Recurrent Unit (GRU)** kabi modellar paydo bo‘ldi. Ular ketma-ketlikdagi so‘zlar orasidagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlash imkonini berdi.

2017-yilda **Transformer** modeli[1] taqdim etilishi bilan yangi bosqich boshlandi. Transformer arxitekturasi parallel hisoblash imkoniyati, self-attention mexanizmi va samaradorligi bilan til modellarining rivojiga inqilobiy turtki berdi.



Til modellar turlari

A) **N-gram modeli (Statistik model):** so‘zlar ketma-ketligi asosida keyingi so‘zni ehtimol asosida aniqlaydi. Masalan, trigram model: $P(w_3 \mid w_1, w_2)$ Faqat uzoq kontekstni tushunmaydi.

B) ***RNN (Recurrent Neural Network):*** *Har bir so‘z ketma-ketlikda o‘rganiladi , har bir qadamda* ***hidden state*** *yangilanadi. Uzoq kontekstni eslab qolishda qiyinchilik bor (*vanishing gradient *muammosi).*

C) ***LSTM (Long Short-Term Memory):*** *RNN asosida yaratilgan.* ***Forget gate, Input gate, Output gate*** *kabi eshiklar bilan uzoq kontekstni eslab qoladi. Matn tarjima, nutq tanish kabi sohalarda ishlatilgan.*

D) ***Transformer :*** *Parallel ishlaydi, self-attention mexanizmi bilan har bir so‘z boshqa so‘zlarga “qaraydi”. Asosiy komponentlar:*

- **Self-attention**
- **Multi-head attention**
- **Position encoding**

GPT, BERT, T5 kabi modellar shu asosda yaratilgan.

Til modellarining asosiy komponentlari:

- **Plan** – Reja tuzish bosqichi.

- **Do** – Amalga oshirish bosqichi.
- **Check** – Tekshirish yoki nazorat qilish bosqichi.
- **Act** – Harakat qilish yoki takomillashtirish bosqichi.

O‘zbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo‘nalishida so‘nggi yillarda jadal izlanishlar boshlanib, bir qator resurs va modellar yaratilmoqda.Shu bilan birga, *O‘zbek tili hozircha resurslar jihatidan “low-resource” (resursi cheklangan) til* deb qaraladi – ya’ni kattaroq korpuslar, belgilangan (annotated) ma’lumotlar bazalari va yirik o‘qitilgan modellar kamligi sababli til texnologiyalari sohasida hali mavjud bo‘shliqlar bor[2].

Zero, ilgari O‘zbek tili uchun katta hajmli matn korpuslari va belgilangan ma’lumotlar to‘plamlarini yaratish ustida yetarlicha ish olib borilmagani ta’kidlanadi [3].

Biroq, ayni paytda bu bo‘shliqni to‘ldirish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda – masalan, 2022-yilda O‘zbek tilining morfologik va sintaktik jihatdan belgilangan korpusini yaratish bo‘yicha loyiha doirasida maxsus *POS (so‘z turkumi) va sintaksis* anotatsiya tizimi ishlab chiqilib, birlamchi belgilangan korpus tuzila boshlandi. Shuningdek, O‘zbek tilining Universal Dependencies formatidagi birinchi sintaksis daraxtkorpusi ham yaratilgan bo‘lib, unda 500 ga yaqin jumla sintaktik tahlil bilan belgilangan (ushbu resurs hozircha kichik hajmda bo‘lsa-da,kelgusida kengaytirilmoqda).

Matn korpusi mavjudligi chuqur o‘rganish modellari uchun nihoyatda muhim – chunki yirik **til modellari**ni sifatli o‘qitish uchun katta hajmdagi matn ma’lumotlari talab etiladi. O‘zbek tilida asosiy ochiq matn manbalaridan biri – **O‘zbekcha Vikipediya** bo‘lib, unda taxminan 124 ming maqola mavjudligi haqida xabar berilgan [4], biroq Vikipediya tarkibining bir qismi avtomatik tarjima qilingan yoki rasmiy ensiklopedik matnlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilganligi tufayli til modeli o‘qitish uchun ma’lum cheklovlar mavjud – jumladan, maqolalarning uslubi qisqa va telegrafik bo‘lishi, yoki ayrim matnlarda kirill-lotin aralash yozuv belgilari uchrashi kabi muammolar aniqlangan. Shu sabab, tadqiqotchilar Vikipediya ma’lumotlarini tozalash va qo‘shimcha manbalar bilan boyitishga e’tibor qaratmoqdalar.

Xususan, yaqinda O‘zbek tilida keng qamrovli **yangiliklar korpusi** shakllantirildi – masalan, Daryo.uz saytining ~200 ming yangilik maqolasidan iborat korpus tuzilib, undagi jumlalar tuzilishi va til jihatdan Vikipediya ma’lumotiga qaraganda ancha xilma-xil va toza ekani qayd etildi. Bunday sifatli korpuslar yirik til modellari uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

UzBERT haqida

So‘nggi yillarda O‘zbek tilida ham **chuqur o‘rganishga asoslangan til modellari** paydo bo‘laboshladi. Dastlabki ishlardan biri – Mansurov B. va Mansurov A. tomonidan taqdim etilgan **UzBERT** modeli bo‘lib, u 2021-yilda e’lon qilingan[5].

UzBERT – **BERT arxitekturasi** asosida O‘zbek tilida oldindan o‘qitilgan ilk yirik model hisoblanadi. Tadqiqotchilar ushbu modelni O‘zbek tilidagi matnlarda (kirill va lotin yozuvlaridagi ma’lumotlar bilan) o‘qitib, natijada UzBERT **ko‘p tilli mBERT modeliga nisbatan** O‘zbek matnini tushunish vazifalarida ancha yuqori natijalarni ko‘rsatganini ma’lum qilganlar .Ya’ni, ayni paytgacha O‘zbek tilida alohida model bo‘lmagani sabab mBERT (100+ tilni qamragan ko‘p tilli BERT) ishlatilar edi, biroq monolingual UzBERT o‘sha vazifalarda aniq ustunlikka ega ekani empiric ravishda ko‘rindi.

UzBERT modeli ochiq manbada e’lon qilinib, MIT litsenziyasi ostida hamjamiyatga taqdim etilgan.

Yana bir yondashuv – 2023-yilda Elmurod Kuriyozov va hamkorlari tomonidan yaratilgan **BERTbek** modeli bo‘lib, bu ham O‘zbek tilidagi matnlarda pre-training qilingan Transformer arxitekturali modeldir. BERTbek modelini yaratish uchun tadqiqotchilar maxsus matn korpusi tuzdilar: O‘zbekcha Vikipediya maqolalarining tozalangan nusxasi va yangilik saytlaridan olingan 200 mingdan ortiq maqolalar jamlanmasida model **Masked Language Modeling** vazifasida oldindan o‘qitildi. So‘ngra BERTbek turli vazifalarga moslab fine-tuning qilinib, natijalari baholandi. Xususan, **O‘zbek tilidagi matnlarni toifalash (klassifikatsiya) bo‘yicha yangi ma’lumotlar to‘plami** ustida turli modellarning solishtirma tahlili o‘tkazildi Ushbu tahlilda an’anaviy **qoida asosida** ishlovchi usullar zamonaviy chuqur o‘rganish modellaridan ancha ortda qolishi ko‘rindi – **RNN** va **CNN** kabi neyron tarmoqlar bazaviy usullardan ancha yaxshiroq natija ko‘rsatdi. Ayniqsa, oldindan o‘qitilgan til modeli sifatida BERTbekni qo‘llagan yechim eng yuqori aniqlikka erishdi va boshqa modellardan ustun chiqdi. Bu natijalar O‘zbek tilida **pretraining+fine-tuning** yondashuvi samaradorligini ko‘rsatib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbek tilidagi modellar faqat matn bilan cheklanmay, ovozli nutq uchun ham rivojlanmoqda: masalan, 2020-yillarda O‘zbek tili uchun bir necha soatlik nutq korpuslari tuzilib, **Automatic Speech Recognition (ASR)** tizimlarida *Deep Learning* modellari qo‘llanila boshlandi. Bunday dastlabki loyihalar O‘zbek nutqini matnga avtomatik o‘girishda ijobiy natijalar bermoqda. Umuman olganda, so‘nggi paytda O‘zbek tilini raqamli muhitda qo‘llashni osonlashtirish uchun **lug‘atlar**, **morfologik tahlilchilar**, **matn korpuslari** va **til modellari** borasida bir qator ochiq loyihalar paydo bo‘ldi. Bu jarayon hali boshida turgani bois, mavjud modellarni

yanada takomillashtirish va katta resurslar yaratish ustida izlanishlar davom etmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, chuqur o‘rganishga asoslangan til modellari so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, *rekurrent arxitekturalar*dan *attention*ga asoslangan Transformer arxitekturalariga o‘tish natijasida sifat va samaradorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu modellarning mashinaviy tarjima, dialoglashuv tizimlari (chatbotlar), matn yaratish, tilni avtomatik aniqlash kabi ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, yirik *pretrained* modellarning kichik *fine-tuning* bilan moslashuvi turli topshiriqlarda inson darajasiga yaqin natijalarga erishish imkonini bermoqda.

O‘zbek tili kabi resurslari cheklangan tillar uchun ham chuqur o‘rganish asosida ilk yirik modellarning yaratilgani va ularning muloqot, klassifikatsiya kabi vazifalarda ijobiy natijalari mahalliy NLP rivoji uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Albatta, hali oldinda O‘zbek tilida katta korpuslar tuzish, modellarning yanada takomillashtirilgan versiyalarini yaratish va keng qo‘llash vazifalari turibdi.

Modelni o‘rgatish va optimallashtirishning ilg‘or usullari – attention mexanizmlari, turli optimizatorlar, transfer learning yondashuvlari – esa bu jarayonda tadqiqotchilarga asosiy qurol bo‘lib qoladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, chuqur o‘rganishdagi yondashuvlar uyg‘unligi tufayli til modellari tez suratlarda kuchayib, nafaqat global tillar, balki o‘z tilimiz – O‘zbek tilida ham ajoyib natijalar sari siljimoqda. Til modellari tabiiy tilni kompyuter orqali qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning arxitekturasi (RNN, Transformer), o‘qitish metodlari (pretraining, attention, optimizatorlar) va qo‘llanilish sohalari har tomonlama chuqur tadqiq etilmoqda. O‘zbek tili uchun ham ilk yirik modellar yaratilmoqda va resurslar boyitilmoqda. Kelgusida O‘zbek tilida ko‘p funksiyali, ochiq manbali va kuchli til modellarining paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaswani, A., et al. (2017). *Attention is All You Need*.
2. Sanatbek Matlatipov, Hulkar Rahimboeva, Jaloliddin Rajabov, and Elmurod Kuriyozov. 2022. Uzbek sentiment analysis based on local restaurant reviews
3. Maksud Sharipov, Jamolbek Mattiev, Jasur Sobirov, and Rustam Baltayev. 2022. Creating a morphological and syntactic tagged corpus for the uzbek language. CEUR Workshop Proceedings, 3315:93 – 98.
4. https://dumps.wikimedia.org/uzwiki

5. B Mansurov and A Mansurov. 2021b. Uzbert: pretraining a bert model for uzbek. arXiv preprint arXiv:2108.09814.

6. Devlin, J., et al. (2019). *BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding*. NAACL-HLT.

7. Brown, T., et al. (2020). *Language Models are Few-Shot Learners*.

8. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). *Speech and Language Processing*. Pearson.

MATNNI PERIFRAZ QILISH

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Ibragimova Mohitob Eldor qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi IV kurs talabasi
mohitobibragimova@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Maqolada perifraz tushunchasi va uning lingvistik xususiyatlari keng yoritilgan. Perifraz – so‘z yoki iboralarning semantik jihatdan qayta shakllantirilishi bo‘lib, u matnning ifodalilik darajasini oshirish, plagiatdan qochish va tushunarli bayon qilish uchun ishlatiladi. XX asr tilshunosligida perifraz fenomeni turli yondashuvlar orqali tadqiq qilingan bo‘lib, uning nominativ, ekspressiv, tasviriy va uslubiy funksiyalari aniqlangan. Shuningdek, maqolada perifraz qilish usullari, akademik yozuvda plagiatdan qochish yo‘llari hamda ilmiy manbalarda to‘g‘ri iqtibos keltirish zarurligi batafsil ko‘rib chiqilgan. Perifraz usullari sinonimlar orqali perifraz, gap tuzilishini o‘zgartirish, passiv va faol gaplar orasidagi almashish, mazmunni qisqartirish va kengaytirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Maqolada shuningdek, perifraz qilishda foydalanish mumkin bo‘lgan onlayn vositalar haqida ham ma’lumot beriladi. Ushbu tadqiqot perifrazani lingvistik muammo sifatida o‘rganish, uni amaliy yozuvlarda samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *perifraza, XX asr, tasviriy, lingvistika, akademik yozuv, uslub, tilshunoslik, APA uslubi, MLA uslubi, plagiat, iqtibos, faol gaplar(aniq nisbat), passiv gaplar(majhul nisbat), Specific gap(aniq gaplar), general gap(umumiy gaplar), sinonimlar, tasviriy ifodalar, frazeologizmlar, QuillBot*

PERIFRAZ yoki PERIFRAZA – (gr. reriphrasis – yaqin gapiraman so‘zidan) ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, unda narsa yoki inson o‘z nomi bilan emas, balki unga xos asosiy belgilar, xususiyatlar nomi bilan yuritiladi. Perifraza ko‘pincha she’riy nutqqa tasviriylik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi[1].

Umuman, dunyo tilshunosligida perifrazalar talqiniga bag‘ishlangan juda ko‘plab monografik tadqiqotlar olib borilgan, barcha izlanishlarda bu atama “perefras”, “perifrazis”, “perifrasis”, “perifraza” “parafraz”, “parafraza”, “parafrazis” kabi fonetik hodisalarning variantlashuvi asosida izohlanganligiga guvoh bo‘ldik. “Parafraza” va “perifraza” atamalarida “para” ham, “peri” ham yunonchadan olingan bo‘lib, “para” – yonida, atrofida, yonma-yon ma’nolarida, “peri” – haqida, to‘g‘risida, xususida ma’nolarida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida

perifraza terminini qo‘llashni mantiqan to‘g‘ri deb hisoblaymiz[2]. H.Shamsiddinov ham “perifraza” atamasini qo‘llashni ma’qullaydi[3].

Perifraz qilish - bu biror matnni o‘zgartirish yoki boshqalarning g‘oyalarini o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalashdir. Bu jarayon matnning ma’nosini saqlagan holda, so‘zlar va gaplar shaklini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Matnni perifraz qilish orqali biz manbaning mazmunini yanada tushunarli va aniqroq ifodalashga erishamiz.

XX asrning 50-yillarida perifrazalar dunyo tilshunosligida, ayniqsa, rus tilshunosligida I.Z.Ilina (1954), V.P.Utkina (1959)lar tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar (istiora (metafora), metonimiya, sinekdoxa, majoz (allegoriya), kinoya, sifatlash (epitet), kichraytirish (litota), mubolog‘a (giperbola)) bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Perifrazalar emotsional-ekspressivlik ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgan, so‘zlovchining xarakter xususiyatini ochib beruvchi, tasviriy obrazlar orqali ifodalangan erkin ibora yoki butun jumla shaklida ma’noga ega bo‘lgan tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida talqin qilinib kelingan [2]. Perifraza hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha tadqiq etilganligi va unga turlicha ta’riflar berilganligiga e’tibor qaratar ekanmiz, tilshunoslikda XX asrning 70- yillaridan boshlab perifrazalarning xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish bir qadar oshganligini kuzatamiz. Perifraza lingvistik muammo sifatida birinchilardan bo‘lib V.P.Grigorev tadqiqotlarida so‘z-obraz-denotat munosabatlari nuqtai nazaridan o‘rganildi. Olim uni “poetik nutq hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri”, deb tavsifladi[4]. I.P.Galperin perifrazaning vazifalarini obyektlar nominatsiyasi, uning predmeti va boshqa nutqiy iboralar o‘rtasidagi munosabatlariga ko‘ra ajratadi. Galperin ta’kidlaydiki, perifraz quyidagi funksiyalarga ega: nominative, tasviriy, boyitish, ekspressiv, muqobil, hissiy-baholash, uslubni shakllantirish, ko‘tarish. I.A. Sidorov perifrazaning funksiyalarini o‘rganar ekan, perifrazaning nominativ, ekspressiv, cheklangan uchta funksiyasini ajratishni taklif qiladi. Biroq, bu funksiyalarning soni turli so‘zlarning turli xil tomondan tahlil qilish uchun yetarli emas. L. V. Grehneva, V. P. Moskvina, M. A. Sirivli asarlari orqali perifraza tushunchasi tushuntirish sifatida ko‘rsatilgan, ular ham ma’lumot beruvchi, boyitish va to‘plash deb nom berishgan. P.Sh.Allayorova perifrazani bu mumkin bo‘lgan qisqa va sodda so‘z o‘rniga uzunroq iborani ishlatishni o‘z ichiga olgan usul hisoblanadi deb ta’kidlaydi[5]. Fransuz tilshunosi Sh.Balli perifrazalarga nisbatan “fikr (jumla)ni takrorlashning kengaytirilgan shakli” sifatida baho berishi munozaralarga sabab bo‘ldi[6]. Yana qator manbalarda perifraza sodda tushunchani murakkab usullar orqali ta’riflash (I.V.Arnold), bir tushunchani bir necha so‘zlar orqali atash (M.V.Lomonosov), fenomenning mantiqiy ifodasini hissiy ifodaga almashtirish (A.A.Potebnya), obrazli sinonim (A.I.Efimov), oddiy so‘zni tavsiflovchi birikma bilan almashtirish (O.S.Axmanova), so‘zni kengroq ifoda etish (Ө.Aytbayұli) sifatida tushuntiriladi[2]. B.Dal perifraza

yunoncha “siqilgan nutqning batafsil, keng tushuntirilgani” degan xulosaga keladi[7].

Perifraz qilishning ahamiyati turli yozuvlarda, ayniqsa, akademik va ijodiy yozuvda katta rol o‘ynaydi. Bu nafaqat boshqa manbalar bilan ishlashni talab qiladi, balki yozuvchiga o‘z ovozini saqlab qolgan holda mazmunni yaratishga imkon beradi. Quyida perifrazning muhimligini ko‘rsatuvchi asosiy sabablar keltirilgan:

1.Plagiatdan qochish uchun - matnni perifraz qilish orqali siz boshqa manbalardan foydalanasiz, lekin ayni vaqtda o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalaysiz. Bu esa o‘zingizni plagiatdan himoya qilishning eng samarali usullaridan biridir. Perifraz asl matn fikrlarni ko‘rsatishga imkon beradi, shu bilan birga manbaga hurmat saqlanadi.

2.Mazmunni aniqroq yetkazish - ba’zan asl matn murakkab yoki biz uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Perifraz qilish matnni soddalashtirish va bizga osonroq tushunadigan shaklda taqdim etishga yordam beradi.

3. Asosiy fikrlarni qisqartirish - perifraz qilish orqali matnning muhim qismlarini ajratib, ularni qisqacha bayon qilishingiz mumkin. Bu, ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa va tushunarli shaklda taqdim etishda foydalidir.

4. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish - perifraz qilish lug‘at boyligini oshiradi va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon davomida yangi so‘zlarni o‘rganasiz va gaplarni turli usullarda shakllantirishni mashq qilasiz.

5. O‘rganuvchilar bilan bog‘lanish - boshqalarga mos tilda va uslubda yozish uchun perifraz qilish muhim. Masalan, murakkab ilmiy ma’lumotlarni oddiy va aniq so‘zlar bilan qayta ifodalash orqali turli auditoriyalar uchun tushunarli bo‘lishni ta’minlaydi.

Quyida samarali perifraz qilish uchun asosiy usullar keltirilgan(1-jadvalga qarang):

1-jadval. Perifraz qilish usullari

Usul	Izoh	Asl matn	Perifraz qilingan shakli
Sinonimlar, tasviriy ifodalar, frazeologizmlardan foydalanish	Bir so‘z yoki iborani o‘xshash ma’noli boshqa so‘z bilan almashtirish.	“Universitetimiz katta yutuqlarga erishmoqda”.	“Universitetimiz ulkan yutuqlarga erishmoqda”.
So‘z shaklini o‘zgartirish	So‘zlarning turkumini yoki grammatik shaklini o‘zgartirish. Masalan, otni fe’lga, fe’lni sifatga almashtirish.	“Xususiylashtirish bir qancha masalalarda muvaffaqiyatsizlikka uchradi(Bayliss va McKinley (2007)).”	“Bayliss va McKinley (2007) ta’kidlashicha, xususiylashtirishning muvaffaqiyatsizligi ko‘plab omillarga bog‘liq.”

Faol va passiv gaplar o‘rtasida almashish(Aniq nisbatdagi gaplarni majhul nisbatdagi gapga aylantirish, ingliz tilida)	Faol gapni passiv gapga yoki aksincha o‘zgartirish orqali matnga yangilik qo‘shish.	“O‘qituvchi talabalarga yangi mavzuni tushuntirdi.”	“Yangi mavzu talabalarga o‘qituvchi tomonidan tushuntirildi.”
So‘z tartibini o‘zgartirish	Jumlalar ichidagi so‘zlarning joylashuvini o‘zgartirish orqali yangi tuzilma yaratish.	“Talabalar yangi texnologiyalardan foydalanishni o‘rganmoqda.”	“Yangi texnologiyalardan foydalanishni talabalar o‘rganmoqda.”
Jumlalarni qisqartirish yoki kengaytirish	Jumla uzunligini o‘zgartirish orqali matnni yangicha ifodalash.	“Ilm-fan yutuqlari odamlar hayotini sezilarli darajada yaxshilaydi.”	Qisqartirish: “Ilm-fan yutuqlari hayotni yaxshilaydi.” Kengaytirish: “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari insonlar turmush sifatini sezilarli ravishda oshirishga xizmat qiladi.”
O‘z so‘zlaringiz bilan ifodalash	Matnni o‘zingizning so‘zlaringiz bilan yozib, asl matn mazmunni saqlash.	“Iqlim o‘zgarishi global muammo bo‘lib, jiddiy choralarni talab qiladi.”	“Global darajadagi iqlim o‘zgarishi muammosi katta e’tibor va qat’iy choralarga ehtiyoj sezadi.”
Specific gapdan general gapga yoki aksincha o‘tish	Maxsus ma’lumotlarni umumlashtirish yoki umumiy ma’lumotni aniqlashtirish.	“Smartfon foydalanuvchilari ijtimoiy tarmoqlarda kuniga o‘rtacha uch soat vaqt o‘tkazadi.”	Umumiylashtirish: “Ko‘pchilik texnologiyalardan kun davomida aktiv foydalanadi.” Aniqlashtirish: “Odamlar ijtimoiy tarmoqlarni smartfon orqali muntazam tekshiradi.”
Hissiyotni o‘zgartirish yoki neytrallashtirish	Matnning hissiyot darajasini o‘zgartirish yoki uni neytral shaklda ifodalash.	“Bu ish juda qiziqarli va hayratlanarli!”	Neytral shakl: “Bu ish juda qiziq.”

Matnni perifraz qilganimizda iloji boricha plagiatdan qochishimiz kerak. Perifraz qilish boshqalarning fikrlarini o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalashni anglatadi, ammo bu o‘zingizning g‘oyangiz emas, balki boshqa manbaga asoslanganligini ko‘rsatish uchun manba keltirish zarur. Nima uchun perifraz qilishda manba keltirish kerak?

Manba egasiga hurmat ko‘rsatish uchun: Perifraz orqali sizning yozganingiz aslida boshqa bir muallifning fikri ekanligini tan olasiz.

Plagiatdan qochish uchun: Manba ko‘rsatilmagan perifraz plagiat hisoblanishi mumkin.

To‘g‘ri manbaga yo‘naltirish uchun: O‘rganuvchilar siz taqdim etgan fikrni chuqurroq o‘rganishni xohlasa, manba orqali to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘ladi.

Manba shakli odatda matnda ishlatilayotgan havola uslubiga bog‘liq. Misollar (2-jadvalga qarang):

2-jadval. Perifrazda manba keltirish usullari

Usul	Izoh	Misol
APA uslubi	Matnda muallifning familiyasi, nashr etilgan yili va sahifa raqami ko‘rsatiladi.	“Kompyuter texnologiyalari ish unumdorligini sezilarli darajada oshiradi” (Smith, 2020).
MLA uslubi	Matnda faqat muallifning familiyasi va sahifa raqami ko‘rsatiladi.	“Texnologiyalar ishlab chiqarishda inqilob qildi” (Smith 45).
Havolani jumlaga kiritish		Smith (2020) ta’kidlaganidek, kompyuter texnologiyalari ko‘plab sohalarda samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qachon iqtibos keltirish shart bo‘lmaydi? Agar siz umumiy bilim yoki keng ma’lum bo‘lgan faktlar haqida yozayotgan bo‘lsangiz, iqtibos talab qilinmaydi. Masalan:

- Quyosh sharqdan chiqadi.
- Suvning qaynash harorati 100°C ga teng.

Plagiat – bu boshqalarning g‘oyalarini, so‘zlarini yoki asarlarini o‘zlashtirib, o‘z nomidan taqdim etish. Bu odatda ilmiy, adabiy yoki boshqa yozma ishlar kontekstida yuzaga keladi va axloqiy, huquqiy yoki akademik qoidalarni buzadi.

Quyida plagiatning asosiy turlarini ko‘ramiz.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa ko‘chirish: Boshqa birovning matnini iqtibos keltirmasdan yoki manba ko‘rsatmasdan to‘liq yoki qisman ko‘chirish.

Parafrazani noto‘g‘ri ishlatish: Asl manbadan ma’lumotni qayta yozish jarayonida yetarli darajada o‘zgarish kiritmaslik yoki manbani keltirmaslik.

O‘z-o‘zidan plagiat: O‘zining oldingi yozgan ishlarini, yangilik yaratmasdan, yangi vazifalarda qayta ishlatish.

Manbalarni yashirish: Boshqa manbalar asosida yozilgan fikrlarni o‘z nomidan taqdim etish, ammo haqiqiy manbalarni ko‘rsatmaslik.

Vizual plagiat: Rasmlar, grafikalar, jadval va boshqa vizual materiallarni iznsiz ishlatish.

Yarim plagiat: Matnning ba’zi qismlarini o‘zgartirib, lekin asl fikr va g‘oyalarni o‘zgartirmasdan o‘zlashtirish.

Quyidagi perifraz qiluvchi saytlaning barchasi ingliz va ba’zi tillar uchun juda yaxshi natija olish mumkin, ammo hozirgi vaqtda o‘zbek tili uchun perifraz qiluvchi samarali saytlar mavjud emas.

1.QuillBot(1-rasm)

Juda ko‘p maqtovga sazovor bo‘lgan vosita bo‘lib, bepul va pullik versiyalari mavjud.

Xususiyatlari: 8 xil paraphrasing rejimlari (Formal, Creative, Academic va boshqalar), sinonimlar tanlash imkoniyati va Google Docs kabi platformalar bilan integratsiya. Narxi: Bepul; Premium versiyasi $8.33/oydan boshlanadi.



1-rasm. ***QuillBot interfeysi***

2.Grammarly Paraphraser

Matnni qayta yozish bilan birga grammatik va uslub xatolarini tuzatadi.

Xususiyatlari: Matn ravonligini oshirish va plagiyatni oldini olish, interfeysi qulay va oson foydalanish mumkin. Narxi: Bepul versiyasi mavjud; Premium versiyasi $12/oydan boshlanadi.

3. Wordtune

Turli xil yozish ehtiyojlari uchun mos keladigan, juda foydali vosita.

Xususiyatlari: Jumlalarni qisqartirish, kengaytirish va moslashuvchan o‘zgartirish imkoniyatlari. Narxi: Bepul; Premium versiyasi $6.99/oydan boshlanadi.

4.Paraphraser.io

Qulay va ko‘p tilli platforma, o‘quvchilar va yozuvchilar uchun mos.

Xususiyatlari: Bir nechta paraphrasing rejimlari va plagiyat tekshiruv integratsiyasi. Narxi: Bepul; Premium versiyasi $7/oydan boshlanadi.

5.Jasper AI

Ilmiy va biznes yozuvlari uchun ajoyib vosita.

Xususiyatlari: Mantiqiy va kontekstual tahlil bilan matnni yuqori sifatli qayta yozadi. Narxi: $39/oydan boshlanadi.

Perifraz qilish – bu matnni qayta ishlash san’ati bo‘lib, uning yordamida har qanday ma’lumotni yangi ko‘rinishda ifodalash mumkin. Bu usul yozuvchining ijodiy yondashuvi va tilni chuqur tushunishini talab qiladi. Perifraz qilish ko‘p hollarda plagiatdan qochish vositasi sifatida qaraladi, ammo bu jarayonning ahamiyati bundan ancha kengroq.

Birinchidan, perifraz qilish orqali murakkab matnni o‘rganuvchi uchun osonroq va tushunarliroq qilish mumkin. Ushbu usul ma’lumotni turli auditoriyalarga moslashtirishda yordam beradi, bu esa yozuvchining asarlarini kengroq o‘rganuvchilar guruhiga yetkazadi.

Ikkinchidan, bu usul ijodiy va ilmiy yozuvlarda fikrlarni qayta ifodalash, ularni kengaytirish yoki qisqartirish imkonini beradi. Gaplarning shaklini o‘zgartirish, sinonimlardan foydalanish yoki muayyan fikrlarni yangi uslubda taqdim etish orqali har bir matn o‘ziga xos ko‘rinish kasb etadi.

Perifraz qilishda usullar muhim ahamiyatga ega. Sinonimlarni tanlash, gap tartibini o‘zgartirish, grammatik shakllarni moslashtirish kabi usullar matnni boyitadi va mazmunni yangi qirralaridan ko‘rsatadi. Bu usullar orqali yozuvchi o‘z mahoratini namoyon qilishi, o‘rganuvchini matnga jalb qilishi va asl g‘oyalarni yanada o‘tkirroq ifodalashi mumkin. Shuningdek, perifraz qilish orqali yozuvchi matnni plagiatdan xoli qilish bilan birga, manbalar bilan munosib munosabatni saqlab qoladi. Manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish va iqtiboslar bilan ishlash orqali yozuvning ilmiy va axloqiy standartlari ta’minlanadi. Perifraz qilish faqat akademik sohada emas, balki kundalik hayotda, ijodiy yozuvlarda va hatto biznes yozishmalarida ham keng qo‘llaniladi. Bu usul o‘z fikrlarini boshqalarga ta’sirli va aniq ifodalashni xohlagan har bir inson uchun zarur ko‘nikma hisoblanadi.

Yakunida aytish mumkinki, perifraz qilish har bir yozuvchining ijodiy va professional rivojlanishi uchun muhim vositadir. U nafaqat yozuv sifatini oshiradi, balki yozuvchini kengroq auditoriya bilan bog‘laydi, murakkab fikrlarni

soddalashtiradi va har qanday mazmunni yodda qolarli tarzda ifodalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. O‘rayeva,D. Quvvatova Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati. –T., 2019. - B. 117
2. Ahmadova U. “Perifraza” atamasi va uning nomlashdagi o‘rni. 2021. - B. 435
3. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35. (Shamsiddinov H. Perifraza xususida ayrim mulohazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 1993, № 4. – B. 29-35.)
4. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сб. докл. и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С.158. (Grigoryev V.P. K problem perifrazi // Sb. dokl. i soobsheniy lingvisticheskogo obshestva. – Kalinin, 1974. – B. 158.)
5. Shahnoza Allayorova Primqulovna Perifrazaning tilishunoslikdagi vazifalari va xususiyatlari. 2023.
6. Балли Ш. Французкая стилистика: Пер. с фр. – Москва, 1961. – С. 126. (Balli Sh. Franzuskaya stilistika: Per. s fr. – Moskva, 1961. – S. 126.)
7. Даль. В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. 3-том. – Москва: Издание книгопродавца-типографа М.О. Вольфа, 1882. – 576 с. (Dal V.I. Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika. 3-tom, M., 1882. – 576 s; Shu manba. – 14 s.)
8. https://www.futurelearn.com/info/courses/english-for-study-intermediate/0/steps/35241
9. https://write.smumn.edu/wp-content/uploads/sites/38/2020/09/Paraphrasing-Techniques.pdf
10. https://wisc.pb.unizin.org/esl117/chapter/two-techniques-for-paraphrasing/
11. https://www.lib.sfu.ca/about/branches depts/slc/writing/sources/techniques-paraphrasing
12. https://researcher.life/blog/article/top-7-tried-and-tested-paraphrasing-techniques/
13. https://www.scribbr.com/working-with-sources/how-to-paraphrase/
14. https://uq.pressbooks.pub/academicwritingskills/chapter/paraphrasing-skills/
15. https://www.grammarly.com/blog/summarizing-paraphrasing/paraphrasing-a-sentence/
16. https://quillbot.com/guides/paraphrasing
17. https://libguides.uta.edu/researchprocess/paraphrasing

18. https://owl.purdue.edu/owl/research_and_citation/using_research/quoting_paraphrasing_and_summarizing/paraphrasing.html
19. https://www.verbling.com/ru/articles/post/6-easy-steps-to-paraphrasing-in-english-559ed5e6448aa5ca55a11572
20. https://prowritingaid.com/how-to-paraphrase
21. https://www.grammarly.com/blog/summarizing-paraphrasing/paraphrasing-a-poem/
22. https://blog.wordvice.com/how-to-paraphrase-in-research/
23. https://www.uts.edu.au/current-students/support/helps/self-help-resources/academic-skills/how-paraphrase-effectively
24. https://aithor.com/blog/how-to-paraphrase-a-sentence-effectively-techniques-and-examples
25. https://www.elegantthemes.com/blog/business/best-paraphrasing-tools
26. https://www.papertrue.com/blog/paraphrasing-tools/
27. https://wordvice.ai/blog/best-online-paraphrasing-tools
28. https://quillbot.com/paraphrasing-tool

UDK: 811.512.133`42

KORPUS LINGVISTIKASIDA PARSERLARNING UMUMIY TAVSIFI

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna,
doktorant DSc
abdullayevaoqila@gmail.com
ToshDO‘TAU

O‘tkirova Fotima Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi IV bosqich talabasi
otkirovafotima@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus lingvistikasining taraqqiyoti va jahonda yaratilgan parserlarning tavsifi, turlari, ularning ishlash prinsiplari, yaratilish maqsadi, hosilalar strukturasi hamda tilshunoslikdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Rivojlanib borayotgan soha lingvistikasida parserlarning o‘rni haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Abstract. This article discusses the development of corpus linguistics and the description, types, operating principles, purpose of creation, structure of derivatives, and significance in linguistics of parsers created in the world. Detailed information is provided about the role of parser in the linguistics of the emerging field.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие корпусной лингвистики и описание, типы, принципы работы, цель создания, структура производных и значение созданных в мире парсеров в лингвистике. Предоставляется подробная информация о роли анализаторов в развивающейся отраслевой лингвистике.

Kalit so‘zlar: *Korpus lingvistikasi, korpus, parser, parser turlari, matn, tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil, grammatik tahlil, treebank.*

XXI asrning global muammolaridan biri tabiiy tillarning milliy xususiyatini saqlab qolishdan iborat. Dunyo tillarining elektron korpuslarini yaratish va rivojlantirishda NLP hamda til texnologiyalariga doir tadqiqotlarni izchil ravishda olib borish dolzarb vazifaga aylandi[1]. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasining metodologiyasi yoki tilshunoslikning matn korpusini yaratish va tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi til tadqiqotlarini o‘tkazishda keng qo‘llaniladi. Korpus lingvistikasining rivojlanishi bilan matn materiallarining katta ma’lumotlari bazalarini izchil yaratish va kompyuter xotirasida saqlash mumkin

bo‘ldi. Dunyoda tilshunoslikning taraqqiyoti talabi bilan jahon korpus tilshunosligida olib borilayotgan nazariy hamda amaliy izlanishlar bizning yurtimizda ham soha rivoji hamda mamlakat ravnaqi uchun kerakli va zarur nuqta ekani kundan kun ayon bo‘lmoqda.

Korpus lingvistikasi – bu tilni matn korpusi orqali o‘rganishning empirik usuli. Korpuslar – bu ma’lum bir til xilma-xilligini ifodalashga qaratilgan nutq yoki yozuv matnining muvozanatli, ko‘pincha, qatlamli to‘plamlari. Bugungi kunda korpuslar, odatda, mashina tomonidan o‘qiladigan ma’lumotlar to‘plami deya tadqiqotlarda eslatiladi. Ushbu soha XX asrning 60-yillarida kompyuter lingvistikasining bo‘limi sifatida shakllangan tarmog‘i bo‘lib, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda lingvistik korpuslarni (matnlar korpuslarini) qurish va ulardan foydalanishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Lingvistik korpus yoxud til korpusi muayyan lingvistik muammolarni hal qilishga mo‘ljallangan, maxsus saralangan va teglangan elektron shakldagi matnlar majmuasi hisoblanadi va pragmatik ahamiyatga ega eng yirik elektron baza sanaladi. Tilshunoslikda tilni o‘rganish uchun foydalaniladigan matematik va kompyuter asosidagi metodlar kompyuter lingvistikasini tashkil etadi. Bu soha tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlaridan farqli ravishda empirik va statistik yondashuvlar bilan tahlil qilishni talab qiladi.

Soha mashinaga asoslangan tahlillarni amalga oshirishda bir qancha dasturlardan foydalanadi. Ana shunday soha texnologiyalarining asosiy vositalaridan biri parserlar (tilni qayta tahlil qilish dasturlari) hisoblanadi. Bunday dasturlar bir necha xil bo‘lib, tilning tuzilishini, grammatikasini va semantik xususiyatlarini tushunish uchun kerak bo‘lgan tizimlarni yaratadi. Korpus lingvistikasi matnlarni qayta tahlil qilishda empirik usullarga tayangani uchun korpusdagi mavjud so‘z, gap va ular orasidagi o‘zaro sintaktik aloqalarni aniqlashda parserlar asosiy vosita sanaladi. Korpuslar – tilni qayta real ishlatishdagi barcha xususiyatlarini o‘zida jamlagan matnlar majmuyi. Tahlil qiluvchi dasturlar matnlarni sintaktik analiz qilib, grammatik modellarni qayta quradi. Korpus lingvistikasi yordamida tilshunoslar grammatik tuzilmalar, so‘z birikmalari, kollokatsiyalar va boshqa til xususiyatlarini tahlil qilishadi. Matnlarning grammatik tuzilishini aniqlashda parserlar muhim dastur sanaladi. Bunday dasturlar, ko‘pincha, quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:



1-rasm. Parserlarning ahamiyati

Parserlarning turi va ularning tavsifi

Matnni grammatik jihatdan tahlil qilib, uning sintaktik strukturasini aniqlovchi dasturiy ta’minot vositalariga **parserlar** deyiladi. Bugungi kunda parserlarning quyidagi turlari mavjud:

1. **Sintaktik parserlar** kiritilgan gaplarning sintaksis strukturasini aniqlaydi va ushbu strukturaga mos keluvchi sintaktik sxema quradi. Dastlab, jumlalarni sintaktik jihatdan tahlil qiladi. Matnlarni ma’lum bir til grammatikasiga moslashtirib, iboralar va tilda gaplarni tuzish uchun qo‘llaniladigan yaxlit birliklarni ajratib oladi. Sintaktik tahlilning maqsadi qanday qilib tarkibiy qismlar gaplarni shakllantirish uchun ma’lum bir sintaktik tartibda joylashtiriladi, degan savolga javob berish hisoblanadi. Bunday tahlil dasturlarida gaplardagi mavjud so‘zlarning o‘zaro munosabati hamda bog‘liqligi yakuniy natijasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy tilshunoslikda parsing, asosan, kompyuter yordamida sintaktik tahlil qilishni anglatadi(2-rasm).



2-rasm. Sintaktik parser natijasi

Bu turdagi parserlar ikki turga bo‘linadi:

Top-down (yuqoridan pastga) parserlar – gaplarni grammatik qoidalarga tayanib tahlil qiladi. Bunday parserlar yuqoridan pastga usulidan foydalanadi hamda tahlil sxemasi boshlang‘ich belgidan ildiz sifatida pastki qismdagi terminal belgilarga qarab o‘sib borishi tarzida shakllanadi(3-rasm). Oddiy tillar bilan ishlashda bunday tahlilni amalga oshirish va tushunish pastdan yuqoriga qarab shakllangan tahlildan osonroq.



3-rasm. Top-down parserning tahlil sxemasi

Bunday tahlil qilishning yana-da samarali varianti ham bor bo‘lib, u **LL-Parsing** deb ataladi. Bunday tahlilda *Lookhead* belgisi hisobga olinib, keyingi qoidani qo‘llash kerakligini oldindan aytib turish imkoni bo‘ladi. LL sinfidagi parserlar top-down parserlar singari tahlil jarayonida ortga qaytishi shart bo‘lmaydi.

Recursiv Descent Parserlar Top-down parserlarning yana bir turi bo‘lib, o‘ziga xos yuqoridan pastga yo‘natirilgan tahlil dasturi sanaladi. Bu turdagi tahlil usuli rekursiv ravishda ishlaydi va qoidalarni bosqichma-bosqich amalga oshiradi.

Bottom-up (pastdan yuqoriga) parserlar – berilgan matndagi so‘zlardan tortib, grammatik qoidalar yordamida yaxlit sintaktik struktura hosil qiladi. Dastlab, dastur matndagi jumlalarni so‘z birikmalariga ajratib oladi. Keyin ushbu birikmalar umumiy grammatik tuzilishga asoslangan holda guruhlanadi. Oxirida butun jumlaning sintaktik strukturasi hosil qilinadi(4-rasm).



4-rasm. Bottom-up parser sxemasi

Bottom-up parserlarning **LR Parser (Left to right)** va **Operator Precedence Parser** kabi 2 turi mavjud. LR Parserlar jumlani chapdan o‘ngga qarab tahlil qiladi. Bunday dastur tahlili bilan murakkab bo‘lgan grammatik qoidalarni tushunish

mumkin bo‘ladi. Tez ishlaydi hamda kuchli parser hisoblanadi. Operator Precedence Parser, asosan, operatorlarning ustuvorlik darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Bunday dastur turlari oddiyroq bo‘lgan grammatik qoidalarni tahlil qilish uchun juda samarali deb baholanadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida yaratilgan sintaktik tahlil dasturlari tilshunoslikka ko‘plab tahlil usullari va grammatik strukturalarni taqdim etdi. Bu kabi aqlli parserlarning yaratilishi o‘ziga xos bo‘lgan tahlil metodlari tufayli ko‘plab istisnoli sintaktik vaziyatlarga to‘g‘ri yechimlar berdi(5-rasm).



5-rasm. Parserlar klassifikatsiyasi

2. Semantik Parserlar matnning ma’no jihatidan tahlilini amalga oshiradi. Ular gaplardagi mavjud leksemalarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsadida ishlab chiqiladi. Semantik parserlar so‘zlarning ma’nosini matnning umumiy mazmuniga aloqador holatda aniqlaydi. Masalan, “Dugonam gulni hidladi” va “Dugonam gulni uzdi” jumlalaridagi *gul* so‘zi har ikki gapda ham turli rol o‘ynagan. Semantik parser yordamida bu farqni aniqlash osonlashadi. Bir qancha muammolarga qaramasdan, bugungi kunda yuqori aniqlikda ishlovchi semantik parserlar yaratilgan. Bu kabi muammo turlaridan ayrimlari tabiiy tildagi gaplarning noaniq bo‘lishi, gaplar murakkab tuzilmalar va munosabatlarga ega bo‘lishidir.

3. Stoxastik va Statik parserlar. Bu kabi parser turlarini ishga tushirish uchun bir nechta inson omili bilan bog‘liq jarayonlar talab etiladi. Jumladan, katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamidan foydalanib, dasturga muayyan matnni to‘g‘ri tahlil qilish o‘rgatiladi hamda eng ehtimoliy modellar asosida tahlil qila boshlaydi. Bu usulda yaratilgan tahlilchi dasturlar bir necha million misollarni tahlil qilib, ma’lum grammatik strukturalarni o‘rganib chiqadi.

Statik parserlar avvaldan belgilangan grammatik qoidalarga asoslangan bo‘lib, ayni matnni aniq sintaktik tuzilishga ajratadi. Bunday tahlil dasturlarida barcha grammatik qoidalar oldindan belgilanadi.

4. Dependency (bog‘liqlik) parserlarda har bir so‘z boshqa biror so‘zga bog‘lanadi va bu bog‘lanish tizimi biror “root” so‘zi atrofida tashkil topadi. Root so‘zi – gapdagi asosiy so‘z bo‘lib, barcha boshqa so‘zlar shu asosda bog‘lanadi. Masalan, “Men kitob o‘qidim” degan jumlada “o‘qidim” – root so‘z bo‘lib, “men”

va “kitob” so‘zlari unga bog‘langan. Natijada bog‘lanishlar yo‘naltirilgan chiziqlar shaklida ifodalanadi. Har bir bog‘lanish bir so‘zni boshqasiga bog‘laydi va bu bog‘lanish yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ya’ni, bir so‘z ikkinchisiga bog‘lanib, uni boshqaradi. Bunday munosabatlar grammatik jihatdan gapning to‘g‘riligini tekshiradi. Bunday tahlil turida gapning strukturasini tasvirlash uchun turli diagrammalar (dependency trees) ishlatiladi. Har bir so‘z node (tugun) sifatida ifodalanadi va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar yo‘naltirilgan chiziqlar bilan ko‘rsatiladi. Diagrammalarni ko‘rish orqali tilshunoslar va kompyuter tizimlari grammatik tuzilmalarni osongina tahlil qilishi mumkin(6-rasm).



6-rasm. Dependancy parsing natijasi

Xulosa qilib aytganda, Dependency parsing (bog‘lanish tahlili) va, umuman, parser dasturlari tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarining, masalan, savol-javob tizimlari yoki mashina tarjimasi kabi ko‘plab sohalarida muhim bosqich hisoblanadi. o‘zbek tili morfologik jihatdan boy va grammatik jihatdan murakkab til bo‘lib, uni avtomatik tarzda qayta ishlashni yanada qiyinlashtiradi. O‘zbek tiliga oid NLP vositalari va resurslarining cheklanganligi bu vazifani yanada murakkablashtiradi. Qoidalarga asoslangan hamda ma’lumotlarga asoslangan chuqur o‘rganish (deep learning) modellari parserlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashda natijalarni ko‘rsatmoqda. Biroq, chuqur o‘rganishga asoslangan tizimlar yaxshi natijalarga erishish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarga muhtoj bo‘ladi. Bu boradagi tadqiqotlar chuqur o‘rganilishiga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova N., Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. / Journal of Foreign Language Teaching and Apllied Linguistics (J-FLTAL). 2019.
2. Salvatella M.L. Parsing ad Evaluation. Improving dependency grammars accuracy. PhD. diss – Universitat de Barcelona, 2016.
3. Ruket Cakici. Wide Coverage parsing for Turkish. –M., 2009.

4. Collins Michael, James Brooks. Prepositional attachment through a backed-off model. –Cambridge., 1995.
5. Foth K., Menzel W. Learning the contraints weights of a dependency grammar using genetic algorithms // 3th International conference on Domain Decomposition Methods, 2001. –P 243-247.
6. Abjalova M. Korpus lingvistikasi/uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, 2022.
7. https://www.geeksforgeeks.org/types-of-parsers-in-compiler-design/

AVTOMATIK IMLO TUZATISH BO‘YICHA TADQIQOTLAR TAHLILI: TAVSIF VA MUAMMOLARI

Ahmedova Maftuna Kaxramon qizi,
magistrant
maftunaAhmedova1997@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Matndagi imloni avtomatik to‘g‘rilashga qaratilgan tadqiqotlar uchta bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi muammoga e’tibor qaratgan: so‘z bo‘lmagan xatoliklarni aniqlash; so‘z xatolarini tuzatish; kontekstga bog‘liq so‘zlarni to‘g‘rilash. Birinchi muammoda berilgan so‘zlar ro‘yxatida uchramaydigan qatorlarni aniqlash uchun samarali andoza moslashtirish (pattern-matching) va n-gramm tahlil usullari ishlab chiqilgan. Ikkinchi muammoda umumiy va maxsus ilovalarga mo‘ljallangan turli xil imlo tuzatish usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ayrimlari imlo xatolari qoliplarini batafsil o‘rganishga asoslangan. Uchinchisida esa tabiiy tilni qayta ishlash vositalari yoki statistik til modellaridan foydalangan holda bir nechta tajribalar o‘tkazilgan.

Ushbu maqolada imlo xatolari qoliplari bo‘yicha tadqiqot natijalari tahlil qilindi, matndagi avtomatik xatolarni tuzatishning barcha yo‘nalishi bilan bog‘liq tadqiqot masalalari muhokama qilindi.

Abstract. Research on automatic spelling correction in text has focused on three progressively more complex problems: detecting non-word errors; correcting word errors; and correcting words in context. In the first problem, efficient pattern-matching and n-gram analysis methods were developed to detect strings that do not appear in a given list of words. In the second problem, various spelling correction methods were developed for general and specific applications, some of which are based on a detailed study of spelling error patterns. In the third, several experiments were conducted using natural language processing tools or statistical language models.

This article analyzes the results of research on spelling error patterns and discusses research issues related to all areas of automatic text correction.

Аннотация. Исследования в области автоматического исправления орфографии в тексте были сосредоточены на трех постепенно усложняющихся проблемах: обнаружение несловесных ошибок; исправление орфографических ошибок; Исправление слов в зависимости от контекста. В первой задаче были разработаны эффективные методы сопоставления с образцом и анализа n-грамм для выявления строк, которые не встречаются в заданном списке слов. Во второй задаче были разработаны различные методы исправления орфографии для общего и частного применения, некоторые из

которых основаны на детальном изучении закономерностей орфографических ошибок. Третий этап включал в себя несколько экспериментов с использованием инструментов обработки естественного языка или статистических языковых моделей.

Kalit so‘zlar: *imlo qoidalari, noleksik birliklar, avtomatik imlo tuzatish, tinish belgilari.*

Imlo tekshiruvchi va tuzatuvchi dasturlar – bu berilgan matndagi grammatik va kontekstual imlo xatolarini aniqlaydigan va ularni maxsus algoritm yoki qoidalar to‘plami asosida to‘g‘rilaydigan dasturiy ilovadir. Ba’zi imlo tekshiruvchi dasturlar noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar uchun to‘g‘ri muqobil variantlar ro‘yxatini yoki so‘zlar ketma-ketligi bo‘yicha takliflarni taqdim etadi. Avtomatik imlo tekshirish aksariyat tillarda so‘z protsessorlari (matn muharrirlari) uchun keng tarqalgan xususiyat hisoblanadi. Shuningdek, deyarli barcha veb-brauzerlarda ichki imlo tekshirgichlari mavjud. Avtomatik imlo tuzatish sohasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot e’tiborini tortib kelmoqda. Tadqiqot ishlarida ushbu mavzuga oid qisqacha kirish qismi mavjud bo‘lsa-da, hozirgacha nazariy asoslarni umumlashtiruvchi va shu kungacha ishlab chiqilgan yondashuvlarga umumiy ko‘rinish beruvchi tadqiqot yetishmaydi.

O‘zbek tili kam resursga ega bo‘lgan tillardan biri hisoblanib, unga oid tadqiqotlar, ma’lumotlar va vositalar hali rivojlanish bosqichida. Ma’lumotlar bazasida katta hajmdagi matnlarning yetishmasligi yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Avtomatik imlo tuzatish tizimi tabiiy tilni qayta ishlash tizimining (NLP) bir qismi hisoblanadi. Matnlarni interaktiv tarzda tuzatish juda qiyin bo‘lganligi sababli, ma’lumotlar bazasidagi matnlar avtomatik ravishda to‘g‘rilanishi kerak. Imlo tuzatish tizimi oldingi va keyingi matn kontekstiga asoslanib, eng mos tuzatish variantini tanlaydi. Imlo tekshiruvchi dasturlar bo‘yicha tadqiqotlar 1950-yillarning oxirlariga borib taqaladi va hozirda ular ingliz, nemis va xitoy tillari kabi ko‘plab tillar uchun yaxshi rivojlangan. 1992-yilda Kukich[1]tomonidan taqdim etilgan izlanish keng qamrovli tadqiqotlarni boshlab berdi. Imlo xatolarini avtomatik tuzatish bo‘yicha ko‘p tadqiqotlar mavjud. Mitton tomonidan yozilgan kitob imlo xatolari turlarini tahlil qilib, avtomatik imlo tuzatish tizimini yaratish yondashuvlarini tasvirlab bergan [2]. Yannakoudakis va Favtroplar aksariyat imlo xatolari fonologik va ketma-ketlikka asoslangan maxsus qoidalarga bo‘ysunishini yozgan. Bu mualliflar maqolasida imlo xatolarini uchta asosiy kategoriya bo‘yicha tasniflab, 1377 ta imlo xatosi shakllarining tahlil natijalarini taqdim etgan[3]:

1. Undosh harflarga oid xatolar
2. Unli harflarga oid xatolar
3. Ketma-ketlik xatolari

Ba’zi yozuv tizimlari: arab, vetnam yoki slovak kabi yozuvlarda turli xil harf variantlaridan foydalanadi, bu esa so‘zning ma’nosini o‘zgartirishi mumkin. Gimenes va Roman braziliya-portugal tilida diakritik belgilarning tushirib

qoldirilishi imlo xatolarining keng tarqalgan turi ekanligini tasdiqlagan[4]. Zamonaviy adabiy arab tilida matnlar odatda diakritik belgilarsiz yoziladi[5]. Bu tipografik xatolik bo‘lib, muallif qo‘shimcha belgilardan foydalanmaydi va o‘quvchi asl ma’noni o‘zi tushunishini kutadi. Yo‘qolgan diakritik belgilar odatda qisqa unli tovushlarni yoki harflarning o‘zgarishini bildiradi. Ular harflarning tepasiga yoki tagiga joylashtiriladi. Arab matnlariga unli tovushlarni va boshqa diakritik belgilarni qo‘shish jarayoni diakritizatsiya yoki vokalizatsiya deb ataladi[6]. Azmi va Almajed arab tilidagi diakritizatsiya muammosiga e’tibor qaratib, uning baholash mezonini taklif qilgan[7]. Asahiah va boshqalar[8] esa arab tilidagi diakritizatsiya texnikalari bo‘yicha sharh nashr etgan.

Avtomatik imlo tuzatish tizimi imlo xatolarini aniqlaydi va tuzatish uchun nomzod variantlar to‘plamini taklif qiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Avtomatik imlo tuzatish jarayoni[9]

So‘z yangi yoki shunchaki kam uchraydigan, kam tanilgan nom (NER) bo‘lishi yoki boshqa tilga tegishli leksema bo‘lishi mumkin. Biroq to‘g‘ri yozilgan so‘z gapda semantik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Avtomatik imlo tuzatish tizimini ishlab chiqish uchun imlo xatosining paydo bo‘lish jarayonini tushunish zarur. Kukich imlo xatolarini to‘g‘ri so‘zlar lug‘atiga asoslanib quyidagi guruhlarga ajratgan:

Haqiqiy so‘z xatolari – so‘z noto‘g‘ri yozilgan bo‘lsa-da, uning to‘g‘ri shakli so‘zlar lug‘atida mavjud bo‘ladi.

So‘z bo‘lmagan xatolar – noto‘g‘ri yozilgan so‘z shakli to‘g‘ri so‘zlar lug‘atida mavjud emas.

Ko‘pgina imlo tuzatish tizimlari so‘z bo‘lmagan xatolarni aniqlash uchun so‘zni to‘g‘ri so‘zlar lug‘atidan qidiradi. Bu bosqich so‘zlarni qidirish va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan hash jadvali (hash table) yoki qidiruv daraxti kabi tezkor qidiruv usullarini talab qiladi. Ko‘pgina so‘z bo‘lmagan xatolarni tuzatish tizimlari ochiq kodli oldindan belgilangan imlo tuzatish tizimlaridan foydalanadi, masalan, **Aspell** yoki **Hunspell** xatolarni aniqlash, tuzatish nomzodlarini yaratish va dastlabki nomzodlarni saralash uchun qo‘llaniladi.

Kukich[10]hamda Pirinen va Linden[11] ushbu jarayonni uch bosqichga ajratgan:

1. Xatoni aniqlash
2. Tuzatish variantlarini yaratish
3. Tuzatish variantlarini tartiblash

Tadqiqotlarda avtomatik imlo tekshiruvchi dasturlarning ishlash tizimining Blok-sxema algoritm bosqichlarining umumiy ko‘rinishlari taklif qilingan. 2-rasmda taklif qilingan imlo tekshirish algoritmining blok-sxemasini ko‘rish mumkin.



2-rasm. Taklif qilinadigan imlo tekshirish algoritmining blok-sxemasi

Ba’zi tadqiqotlarda Avtomatik imlo tekshiruvchi dasturlarning noto‘g‘ri birlikni aniqlash va to‘g‘ri variantini taklif etish tizimi farqli ekanligini uchratish mumkin. To‘g‘ri tuzilgan ma’lumotlar bazasi, matnlar resursi yetarli bo‘lmagan tillar uchun xatolari oldindan belgilangan qoidalar va modellar asosida aniqlaydigan va tuzatadigan tizimlar taklif qilinadi. Bu tizim **A priori imlo tuzatish tizimi** deb nomlanadi. Qoidalarga asoslangan bu tizim – **Lug‘at asosida ishlaydi**, ya’ni so‘zlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini oldindan tuzilgan lug‘atga qarab aniqlaydi, shuningdek, qoidalar asosida xatolarni tuzatadi: tilga xos grammatik va orfografik qoidalar asosida tuzatishlar kiritadi. Aynan mana shu tizim o‘zbek tilida ham imloni tuzatuvchi dasturlarning ishlab chiqilishida ilk bosqich hisoblanadi. Ammo qoidalarga asoslangan modellarda lug‘at bazasi cheklanganligi va so‘zni individual tahlil qilganligi sababli kontekstga ko‘ra tuzatishda xatoliklarga sabab bo‘ladi. Dastlab Google yoki Microsoft Word ning dastlabki imlo tekshiruvchilari ham lug‘at asosida ishlagan, lekin hozirgi zamonaviy tizimlar kontekstga asoslangan neyron tarmoqlar yordamida yanada rivojlangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, avtomatik imlo tuzatish ham mashina tarjimasiga o‘xshash jarayon hisoblanadi. Xatolarni o‘z ichiga olgan matn eng ehtimoliy to‘g‘ri shaklga “tarjima qilinadi”. Ushbu yondashuv butun natijaviy jumlani hisobga oladi. Bugungi kunda ko‘pchilik norasmiy xat va hujjatlardagi imloviy xatolarni tekshirish uchun ko‘p vaqt sarflaydi. Imloni tekshiruvchi tizimlarning yaratilishi esa barcha shu xizmatlarni yagona kutubxona sifatida taqdim etadi, shuningdek, foydalanuvchilar uni o‘z dasturlariga qo‘shishlari mumkin.

Bu quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

1. **Vaqtni tejash:** Taklif etilgan algoritm kompyuterda bir soniyada minglab so‘zlarning imlosini tekshirishi va har soniyada o‘nlab so‘zlar uchun tuzatish tavsiyalarini berishi mumkin.
2. **Aniqlik:** Algoritm 70-80% hollarda so‘zni to‘g‘ri yozilishini birinchi tavsiya sifatida taklif qiladi, 90% hollarda esa to‘g‘ri yozilgan so‘zning variant yuqori beshlik ichida bo‘ladi.
3. **Xarajatlarni tejash:** Imlo tekshirish jarayonini avtomatlashtirish natijasida kompaniyalar,nashiryot va davlat tashkilotlari qo‘lyozmalarni tekshiruvchi xodimlar uchun xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kukich, K. Techniques for automatically correcting words in text. Acm Comput. Surv. 1992, 24, 377–439.
2. Mitton, R. English Spelling and the Computer; Longman Group: Harlow, Essex, UK, 1996; p. 214
3. Yannakoudakis, E.J.; Fawthrop, D. The rules of spelling errors. Inf. Process. Manag. 1983, 19, 87–99
4. Gimenes, P.A.; Roman, N.T. Spelling error patterns in Brazilian Portuguese. Comput. Linguist. 2015, 41, 175–184
5. Zitouni, I.; Sarikaya, R. Arabic diacritic restoration approach based on maximum entropy models. Comput. Speech Lang. 2009, 23, 257–276.
6. Zitouni, I.; Sarikaya, R. Arabic diacritic restoration approach based on maximum entropy models. Comput. Speech Lang. 2009, 23, 257–276.
3. Sultonov, X. (2006). O‘zbek tili va uning dialektik turlari. – Tashkent: O‘zbekistan davlat nashriyoti.
4. Usmonov, N. (2003). O‘zbek tili grammatikasi va dialektologiyasi. – Tashkent: Akademnashr.
5. Xolmatov, Sh. (2009). O‘zbek tilining dialektik va leksik xususiyatlari. – Tashkent: O‘qituvchi.
6. Abduqodirov, S. (2012). O‘zbek tili dialektlarining fonetik xususiyatlari. – Tashkent: Fan va texnologiya.
7. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali
8. “Filologiya masalalari” jurnali
9. “O‘zbekiston tilshunosligi” jurnali

10. O‘zbek tilshunoslarining ilmiy jurnali - (https://www.tilshunoslik.uz)
11. S. Datta Investigating English-Language Dialect-Adjusted Models. A Thesis Submitted to the Faculty in partial fulfillment of the requirements for the degree of Bachelor of Arts in Computer Science by Samiha Datta Advised by Professor Soroush Vosough. Dartmouth College Dartmouth Digital Commons. June 2023. p95
12. A.Melikyan Technology for creating digital explanatory dictionaries. E3S Web of Conferences 210, 02003 (2020)Don State Technical University, 344003, Gagarin Sq., 1, Rostov-on-Don, Russia 2020. p11
13. www.language.uz
14. www.tilshunoslik.uz

VIII SHO‘BA. SEMANTIK TIZIMLAR VA LINGVISTIK ONTOLOGIYALAR

SENTIMENT TAHLILIDA SO‘Z TURKUMLARINING ROLI

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Xusainova Zilola Yuldashevna,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Sentiment tahlilda so‘z turkumlarining roli matnning emotsional ulushini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘zbek tilida bu jarayon tilning agglyutinativligi, morfologik murakkabligi va kodli almashish (rus/ingliz so‘zlari) kabi xususiyatlar tufayli yanada murakkablashadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sifatlar (“ajoyib”, “yomon”) va ravishlar (“juda”, “ortiqcha”) to‘g‘ridan-to‘g‘ri sentimentni ifodalashda ustunlik qiladi, fe’llar (“yoqtirmoq”, “yomon ko‘rmoq”) esa harakatning emotsional yo‘nalishini belgilaydi. Otlar (“zavq”, “qayg‘u”) ko‘pincha abstrakt tushunchalar orqali bilvosita hissiyotni anglatadi. Inkor konstruksiyalari (“emas”, “yo‘q”) va bog‘lovchilar (“lekin”, “shuningdek”) kabi elementlar sentimentni teskariga o‘zgartirishi yoki nuanslarni kuchaytirishi mumkin. Ushbu maqolada sifat, fe’l, ravish va ot kabi asosiy so‘z turkumlarining matnning hissiy mazmunini aks ettirishdagi ahamiyati hamda ularning semantik xususiyatlari yoritildi. Tadqiqotda leksikon asosidagi metodlar va mashinali o‘qitish yondoshuvlari yordamida so‘z turkumlarining aniqligi va to‘liq aks ettirilishini ta’minlash zarurligini isbotlandi. Shuningdek, inkor va salbiy konstruksiyalar, bog‘lovchilar va kontekstual elementlar yordamida matnda ifodalangan hissiyotlarning murakkab o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tilning murakkab semantik va morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, sentiment ifodalarining nozik tafsilotlarini aks ettirish imkoniyatini beradi. Eksperimental natijalar, so‘z turkumlari asosida ajratilgan xususiyatlarning sentiment tahlilda yuqori samaradorlikka erishish uchun asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi. Maqola sentiment tahlilida so‘z turkumlarining roli va ularning integratsiyalashuvi asosida innovatsion metodologik yechimlarni taklif etib, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Аннотация. В анализе настроений роль словосочетаний является решающим фактором в определении эмоционального содержания текста. В

узбекском языке этот процесс еще больше осложняется такими особенностями языка, как агглютинативность, морфологическая сложность и переключение кодов (русские/английские слова). Исследования показывают, что прилагательные («отлично», «плохо») и наречия («очень», «чрезмерно») доминируют в выражении прямого чувства, тогда как глаголы («нравится», «не нравится») определяют эмоциональную направленность действия. Существительные («удовольствие», «грусть») часто выражают эмоции косвенно, через абстрактные понятия. Такие элементы, как отрицательные конструкции («не», «не») и союзы («но», «также»), могут изменить смысл или усилить нюанс. В статье подчеркивается важность ключевых категорий слов, таких как прилагательные, глаголы, наречия и существительные, в отражении эмоционального содержания текста, а также их семантических свойств. Исследование продемонстрировало необходимость обеспечения точности и полноты классов слов с использованием методов, основанных на лексике, и подходов машинного обучения. Сложная взаимосвязь эмоций, выраженных в тексте, также анализировалась с использованием отрицательных и отрицательных конструкций, союзов и контекстуальных элементов. Такой подход позволяет отразить тонкие детали выражения эмоций, учитывая сложные семантические и морфологические особенности языка. Экспериментальные результаты подтверждают, что признаки, извлеченные на основе категорий слов, являются ключевым фактором в достижении высокой эффективности анализа настроений. В статье предлагаются инновационные методологические решения, основанные на роли групп слов и их интеграции в анализ настроений, что создает прочную основу для будущих научных исследований.

Kalit so‘zlar: *Sentiment tahlil, so‘z turkumlari, sifat (adjective), fe’l(verb), ravish (adverb), ot(noun), inkor konstruksiyalari, emotsional intensivlik, kontekstual elementlar, semantik tahlil, NLP.*

Kirish

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida sentiment tahlil algoritmlari kundalik hayot, biznes va ijtimoiy media analitikasi uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda so‘z turkumlari – *otlar, fe’llar, sifatlar, ravishlar* va boshqa lingvistik kategoriyalar – matnning semantik va hissiy mazmunini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlarda, ayniqsa, leksikon asosidagi sentiment tahlilda **sifatlar va ravishlarning** hissiy qiymatini aks ettirishdagi ahamiyati keng yoritilgan [1]. Shuningdek, **fe’llar va otlar** kabi asosiy so‘z turkumlari matnning asosiy ma’lumotini yetkazishda kalit so‘z turkum sifatida rol o‘ynab, ularning kontekstual aloqalari tahlilda sezilarli ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Olib borilgan adqiqotlarda so‘z turkumlarini ajratish va tahlil qilish orqali sentimentni aniqlashda yanada boy va to‘liq semantik ma’lumot olish mumkinligi ko‘rsatilgan. Ushbu

yondashuv orqali, matnning strukturaviy va leksik xususiyatlari inobatga olinib, hissiyotlarning aniqligi oshiriladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, murakkab sintaktik va semantik tuzilishga ega matnlarda sentiment tahlilining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, so‘z turkumlarining rolini tahlil qilish, sentimentni aniqlash algoritmlarining umumlashuv qobiliyatini mustahkamlash va aniqlikni oshirishga yordam beradi. Leksik, morfologik va semantik jihatdan so‘z turkumlarini ajratib olish metodlari, modelning trening jarayonida muhim xususiyatlar sifatida qo‘llaniladi. Ushbu metodologik yondashuv, sentiment tahlil algoritmlariga nafaqat to‘g‘ri ma’lumot uzatish, balki ma’lumotlar orasidagi noaniq aloqalarni ham aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, so‘z turkumlarining statistik tahlili va semantik modellashtirish, modelning optimallashtirish bosqichida ham qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, sifat va ravish kabi so‘z turkumlarining sentiment ifodasidagi roli, **matnning hissiy ahamiyatini aniqlashda yuqori darajada seziladi**. Bundan tashqari, so‘z turkumlarini ajratish orqali olinadigan xususiyatlar, mashinali o‘qitish algoritmlarida o‘zaro bog‘lanishlarni yanada puxta aks ettirishga yordam beradi. Ushbu ilmiy yondashuv, tilning murakkab semantik va kontekstual jihatlarini inobatga olib, sentiment tahlilning yuqori aniqlikdagi yechimlarini yaratishda muhim poydevor hisoblanadi. Shunday qilib, maqolamiz so‘z turkumlarining sentiment tahlilida o‘ynagan rolini, modelning umumiy samaradorligiga qo‘shgan hissasini va kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli metodologik yechimlarni taqdim etishga qaratilgan. Natijada, ushbu tadqiqot nafaqat mavjud adabiyotlar asosida, balki amaliy tajriba va statistik tahlillar orqali ham so‘z turkumlarining sentiment tahlilidagi ahamiyatini ilmiy asosda isbotlaydi.

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida sentiment tahlilining samaradorligini oshirishda so‘z turkumlarining roli keng o‘rganilgan va adabiyotlarda e’tirof etilgan. B.Pang va L.Lee [1] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sifatlar va ravishlarning matnning hissiy mazmunini aks ettirishdagi o‘ziga xos roli ta’kidlangan bo‘lsa, ularning to‘g‘ri identifikatsiyasi tahlil natijalarining aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Socher va boshqa tadqiqotchilar tadqiqotlari fe’l va otlar kabi asosiy so‘z turkumlarining kontekstual ma’lumotlarni yetkazishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi [2]. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, har bir so‘z turkumi o‘zining semantik xususiyatlariga ega bo‘lib, ular sentiment tahlilning nozikligini va to‘liq aks ettirilishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Morfologik tahlil va leksik resurslarga asoslangan metodlar yordamida so‘z turkumlarini aniqlash, sentiment tahlilda so‘zlarning hissiy qiymatini aniq belgilash imkonini beradi[3]. Bunga qo‘shimcha ravishda, chuqur o‘rganish metodlari, masalan, Kim (2014) tomonidan ishlab chiqilgan konvolyutsion neyron tarmoqlari, so‘z turkumlarini inobatga olgan holda matnning semantik va kontekstual

xususiyatlarini samarali o‘rganishga yordam beradi[4]. Tadqiqotchilar, leksikon asosidagi yondoshuvlar va mashinali o‘qitish algoritmlarini integratsiyalash orqali, so‘z turkumlarining hissiy ifodalarini yanada mukammal tahlil qilish imkoniyatini oshirishni maqsad qilgan. Ushbu yondoshuvlar yordamida, sifatlar va ravishlar kabi so‘z turkumlari orqali sentiment tahlilning aniqligi sezilarli darajada oshirilishi, otlar va fe’llar esa matnning kontekstual tuzilishini aks ettirishda qo‘llanilishi ta’kidlangan. Adabiyotlarda keltirilgan natijalar, so‘z turkumlariga asoslangan xususiyat ajratish metodlarining sentiment tahlilning aniqligini oshirishda samarali ekanligini dalillar bilan isbotlagan. Shu bilan birga, so‘z turkumlarining statistik va semantik tahlili, modelning umumlashuv qobiliyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynashi ham aniqlangan. Natijada, sentiment tahlilda so‘z turkumlarining roli chuqur o‘rganilib, bu yondoshuv kelgusidagi ilmiy izlanishlar va amaliy ilovalar uchun istiqbolli metodologik poydevor sifatida xizmat qilishi isbotlandi. Ushbu tadqiqot natijalari, so‘z turkumlarining sentiment ifodasidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritib, tilning murakkab semantik va kontekstual xususiyatlarini aks ettirishda innovatsion yechimlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida so‘z turkumlarining sentiment tahlilga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlar nisbatan kam bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Elov va boshqa tadqiqotchilar (2024) negatsiyani ifodalovchi so‘zlar (“hech”, “yo‘q”) va ularning turkumlarini (ot, ravish) tahlil qilib, salbiy kontekstlarni aniqlash algoritmini taklif qildi [5]. Z.Xusainova (2023) O‘zbek tilining agglyutinativligi tufayli so‘z turkumlarining morfologik o‘zgarishi sentimentni aniqlashdagi murakkabliklarni tahlil qildi [6]. B. Elov, A.Abdullayevlar (2024) ravishlar (“juda”, “g‘oyat”) va modal so‘zlar (“ehtimol”, “balki”) hissiy intensivlikni modellashtirishda 20% aniqlik oshishiga sabab bo‘lishini isbotladi [7]. Shuningdek ular LSTM tarmoqlari yordamida so‘z turkumlarining uzoq masofali bog‘lanishlarini (masalan, sifat + ot) o‘rganib, modelning F1-skorini 18% oshirdi. SVM yordamida otlar (“zavq”, “qayg‘u”) va ularning semantik maydonlarini klassifikatsiya qilish samaradorligini solishtirdi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida sifatlar sentimentni aniqlashda 70% ishonchlilikga ega[8], o‘zbek tilida esa bu ko‘rsatkich morfologik murakkablik tufayli pastroq (55-60%). Cambria (2024) semantik-psixolingvistik yondashuvlar orqali so‘z turkumlarining pragmatik ma’nolarini hisobga olishni tavsiya qildi [9]. Abdurakhmonova va boshq. (2024) “emotsional lug‘at” yaratishda so‘z turkumlarini alohida kategoriyalashtirish zarurligini ta’kidladi [10]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek tilida so‘z turkumlarini hisobga olgan holda ishlangan modellar aniqligini oshirish uchun morfologik va kontekstual tahlillarni integratsiyalash talab etiladi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda, o‘zbek tilida so‘z turkumlarini sentiment tahlil jarayonidagi ahamiyatini keltiramiz. Sentiment tahlilida matn mazmunidagi hissiyotlarni aniqlash uchun turli so‘z turkumlarining

rolini hisobga olish muhim. O‘zbek tilidagi matnlarni sentiment tahlil qilishda quyidagi so‘z turkumlariga e’tibor qaratish kerak:

1. **Sifat (adjective):** Sifatlar matnning hissiy mazmunini aks ettirishda eng muhim rol o‘ynaydi, chunki ular obyektning yoki holatning sifatini aniq belgilaydi va ularning ijobiy yoki salbiy xarakterini ifodalaydi. Sifatlar ko‘pincha biror narsa yoki holatning sifatini, ya’ni uning qanday ekanligini ifoda etadi. **Sifatlar** matndagi asosiy hissiyotlarni bevosita ifoda etadi. Sifatlar orqali foydalanuvchilarning fikrlarida aks etgan hissiyot darajasi va intensivligi aniqlanadi, bu esa sentiment tahlil algoritmlarining semantik vaznini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, “*yaxshi”*, *“ajoyib”*, “*yomon”*, *“dahshatli”*, *“qo‘rqinchli”* kabi sifatlar yordamida matnda qanday hissiyot mavjudligi aniqlanadi.

2. **Fe’l (verb):** Fe’llar, matndagi harakatlar va jarayonlarni ifodalash orqali hissiyotning dinamik jihatlarini yoritadi. Masalan, *“yoqtirdi”, “qabul qilmaydi”* kabi fe’llar gapning asosiy ma’nosini va uning hissiy yo‘nalishini aniqlashda qo‘llaniladi. Fe’l tarkibidagi semantik ma’lumotlar, modelga sentimentning qaysi yo‘nalishda ifodalanganligini aniqlash imkonini beradi.

3. **Ravish (adverb):** Ravishlar sifatlar yoki fe’llarga nisbatan qo‘shimcha ma’lumot beradi va hissiyotlar darajasini kuchaytirishi yoki yumshatishi mumkin. **Ravishlar** sifatlar va fe’llarning kuchini, intensivligini oshirish yoki yumshatishda yordam beradi. Masalan, “*juda”, “ancha”, “tezda”* kabi ravishlar gapdagi hissiyotlarning nozikligini oshiradi, bu esa tahlil modelining aniq va puxta sentiment ifodasini shakllantirishiga yordam beradi.

4. **Ot (noun):** Otlar matnning asosiy predmetlarini va kontekstini belgilovchi elementlardir. Ular orqali, gapning mavzusi va unda aks etgan sentiment obyektlari aniqlanadi (masalan, *“film”, “xizmat”, “kitob”*). Otlar tahlilda kontekstual munosabatlarni belgilashda, sentimentning qaysi obyektga nisbatan ifodalanganligini tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

5. **Inkor va salbiy konstruksiyalar:** Inkor va salbiy konstruksiyalar matnda ifodalangan salbiy hissiyotlarni aniqlash va ijobiy fikrlarni inkor etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. “*Emas”, “yo‘q”, “inkor qilinadi”* kabi so‘zlar gap tarkibidagi salbiy yoki neytral sentimentni aniq belgilaydi va modelga noaniq ma’lumotlarni kamaytirishda yordam beradi.

6. **Bog‘lovchilar va kontekstual elementlar:** Bog‘lovchilar (masalan, *“ammo”, “lekin”, “va”, “shuningdek”*) va kontekstual elementlar gaplar o‘rtasidagi semantik aloqalarni shakllantirib, matnning umumiy kontekstini belgilaydi.

Ushbu elementlar yordamida, model gapning strukturasini yaxshiroq tahlil qilib, ijobiy, salbiy yoki neytral hissiyotlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ular gapning semantik tuzilishini aniqlashda yordam beradi.

Shunday qilib, sifat, fe’l, ravish, ot, inkor va salbiy konstruksiyalar, shuningdek, bog‘lovchilar va kontekstual elementlar sentiment tahlilida matnning semantik mazmunini to‘liq aks ettirishda, nozik hissiyotlarni aniqlashda va aniq tasniflashda o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Ushbu so‘z turkumlarining to‘g‘ri ajratilishi va tahlili, sentiment modelining aniqligi hamda ishonchliligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

№	So‘z tukumi	Izoh
1.	**Sifat**	his-tuyg‘uni bevosita bildiradi
2.	**Fe’l**	harakat yoki holat orqali his-tuyg‘uni ifodalaydi
3.	**Ot**	hissiyot va tushunchalar
4.	**Ravish**	kuchaytirish, zaiflashtirish yoki aniqlik berish

Shuningdek, kontekst va morfologik tuzilmani hisobga olgan holda, maxsus sentiment lug‘atlaridan yoki mashinali o‘qitish metodlaridan foydalanish, so‘zlar orasidagi munosabatlarni aniqlashda qo‘shimcha ma`lumotlarni beradi. Shu bilan birga, kontekstual semantik aloqalarni ham hisobga olish zarur, chunki bitta so‘z turli kontekstlarda turlicha hissiyotlarni bildirishi mumkin. Yuqoridagi so‘z turkumlari yordamida matnni bo‘laklarga ajratish, so‘zlarni tegishli sentiment kategoriyalariga joylashtirish va natijada matnning umumiy hissiy xususiyatini aniqlash mumkin.

1-jadval. Sifatlar va ularning sentiment bahosi

№	Sifat	Sentiment bahosi	Namuna
1.	ajoyib	5	Bu film ajoyib edi.
2.	yaxshi	3	Xizmat yaxshi bo‘ldi.
3.	yomon	-3	Bu joy yomon ekan.
4.	dahshatli	-5	Ko‘rgan manzara dahshatli edi.
5.	mukammal	5	Uning chiqishi mukammal edi.
6.	zo‘r	4	Konsert zo‘r bo‘ldi.
7.	zerikarli	-3	Uchrashuv zerikarli edi.

2-jadval. Fe’llar va ularning sentiment bahosi

№	Fe’l	Sentiment bahosi	Namuna
1.	yoqtirmoq	+4	Men bu musiqani **yoqtiraman**.
2.	yomon ko‘rmoq	-4	U bunday odatni **yomon ko‘radi**.
3.	xursand bo‘lmoq	+5	Men bu xabarni eshitib **xursand bo‘ldim**.
4.	xafa bo‘lmoq	-3	U natijadan **xafa bo‘ldi**.
5.	sevinmoq	+5	U bu sovg‘ani olib **sevinib** ketdi.

6.	qo‘rqmoq	-4	Tunda yolg‘iz qolishdan **qo‘rqaman**.
7.	hayratlanmoq	+3	Yangi kashfiyot uni **hayratlantirdi**.
8.	hafsalasi pir bo‘lmoq	-5	Yomon natija uning **hafsalasini pir qildi**.

3-jadval: Otlar va ularning sentiment bahosi

№	Ot	Sentiment bahosi	Namuna
1.	quvonch	+5	Yangi g‘alaba **quvonch** baxsh etdi.
2.	g‘am	-3	Yolg‘izlik uni **g‘amga botirdi**.
3.	baxt	+4	Haqiqiy **baxt** oiladan boshlanadi.
4.	qayg‘u	-5	Yo‘qotish uning hayotida katta **qayg‘u** keltirdi.
5.	omad	+4	Unga **omad** kulib boqdi.
6.	tashvish	-3	U ertangi imtihondan **tashvishda** edi.
7.	g‘azab	-4	Uning yuzida **g‘azab** ko‘rinib turardi.
8.	ilhom	+5	Yangi she’r yozishga **ilhomi oldi**.

4-jadval: Ravishlar va ularning sentiment bahosi

№	Ravish	Sentiment bahosi	Namuna
1.	juda	+3	Men bu joyni **juda** yaxshi ko‘raman.
2.	mutlaqo	+5	Bu kitob **mutlaqo** ajoyib!
3.	hech	-4	Bu ish **hech** yoqmadi.
4.	biroz	+1	U kecha **biroz** xursand edi.
5.	ancha	+3	Uning kayfiyati **ancha** ko‘tarildi.
6.	nihoyatda	+5	U **nihoyatda** baxtiyor edi.
7.	bejirim	+4	Ushbu bezaklar **bejirim** ishlangan.
8.	juda ham	+3	Bu restoran **juda ham** chiroyli ekan.

Xulosa

Sentiment tahlilning asosiy vazifasi matndagi hissiy tonni (ijobiy, salbiy, neytral) aniqlashdan iborat bo‘lib, bunda so‘zlar semantik va pragmatik jihatdan asosiy indikator hisoblanadi. So‘z turkumlari (ot, sifat, fe’l, ravish va boshqalar) sentimentni ifodalashda turlicha rol o‘ynashi lingvistik tadqiqotlarda ko‘p marta ta’kidlangan. O‘zbek tilida bu masala yanada murakkabdir, chunki tilning agglyutinativ tuzilishi so‘z shakllarining ko‘pligiga, morfologik bog‘liqliklarga va kontekstual nuanslarga olib keladi. Masalan, sifatlar (“ajoyib”, “yomon”) to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional ulushlangan bo‘lsa, otlar (“zavq”, “qayg‘u”) ko‘pincha mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Fe’llar esa (“yoqtirmoq”, “yomon ko‘rmoq”) nutqdagi harakatning hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ravishlar (“juda”, “ortiqcha”) emotsional intensivlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, so‘z

turkumlarining sentimentga ta’sirini tahlil qilishda ikkita asosiy muammo mavjud: birinchidan, bir xil so‘z turkumining turli kontekstlarda qarama-qarshi ma’nolar kasb etishi (masalan, “do‘st” – ijobiy, lekin “soxta do‘st” – salbiy); ikkinchidan, kodli almashish (rus/ingliz tillaridan so‘zlar) tufayli semantik noaniqlik. O‘zbek tilidagi so‘z turkumlarini morfologik jihatdan normalizatsiya qilish (lemmatizatsiya) orqali ularni sentiment lug‘atlariga integratsiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilida so‘z turkumlarining sentiment tahlilga ta’sirini tizimli o‘rganilib, ularni modellashtirishda samarali yondashuvlar taklif qilindi. Natijalar nafaqat lug‘atli tizimlarni boyitish, balki neyron tarmoqlarning kontekstni tushunish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pang B. and Lee L. (2008). Opinion mining and sentiment analysis. Foundations and Trends® in information retrieval, 2(1-2), 1-135.
2. Socher R., Perelygin A., Wu J., Chuang J., Manning C. D., A. Y. and Potts C. (2013, October). Recursive deep models for semantic compositionality over a sentiment treebank. In Proceedings of the 2013 conference on empirical methods in natural language processing (pp. 1631-1642).
3. Esuli A. and Sebastiani F. (2006, May). Sentiwordnet: A publicly available lexical resource for opinion mining. In LREC (Vol. 6, pp. 417-422).
4. Kim S. H. and Kim D. (2014). Investor sentiment from internet message postings and the predictability of stock returns. Journal of Economic Behavior & Organization, 107, 708-729.
5. Elov B. and Xudayberganov, N. (2024). O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari. Computer Linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
6. Xusainova Z. (2023). O‘zbek tili milliy korpusi qidiruv tizimini optimallashtirishda lemmatizatsiyadan foydalanish. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
7. Elov B., Alayev R. and Abdullayev A. (2024). Tabiiy tilning statistik modellari. digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 178-189.
8. Tang D., Wei F., Qin B., Yang N., Liu T. and Zhou M. (2015). Sentiment embeddings with applications to sentiment analysis. IEEE transactions on knowledge and data Engineering, 28(2), 496-509.
9. Cambria E. (2024). Semantics Processing. In Understanding Natural Language Understanding (pp. 113-228). Cham: Springer Nature Switzerland.
10. Mengliev D., Abdurakhmonova N., Barakhnin, V. Vasliddinova, K. Rahimov H. and Djalolova, K. (2024, June). Enhancing sentiment analysis in Uzbek language texts through weighted lexical features. In 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2450-2453). IEEE.

O‘ZBEK TILIDAGI MATNLARNI SO‘Z TURKUMLARI ORQALI SENTIMENT TAHLIL QILISHDA GAP MODELLARINI ISHLAB CHIQISH

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Xusainova Zilola Yuldashevna,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Abdullayev Abdulla Quranbayevich,
NTM ta’limni kredit tizimini boshqarish bo‘lim boshlig‘i
abdulla_abdullayev9270@mail.ru
Urganch innovatsion university

Annotatsiya. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, sentiment tahlil texnologiyalari foydalanuvchilar fikrlarini avtomatik ravishda tahlil qilish, ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda sentiment tahlil texnologiyalari ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar, sharhlar va foydalanuvchi fikrlariga asoslangan ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Ingliz, xitoy, ispan va boshqa yirik tillar uchun bunday tizimlar yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida sentiment tahlilga yo‘naltirilgan tadqiqotlar hali boshlang‘ich bosqichda qolmoqda. Shu bois, o‘zbek tili uchun xos leksik va grammatik xususiyatlarni hisobga olgan holda samarali sentiment tahlil modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy muammodir. O‘zbek tilida so‘z turkumlari, ya’ni sifat, fe’l, ravish, ot va boshqa grammatik birliklar, gapdagi semantik ulushni belgilovchi asosiy elementlar hisoblanadi. Ushbu turkumlar matndagi hissiy ifodaning aniqligini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. So‘z turkumlariga asoslangan sentiment tahlil modellarini yaratish esa tilning ichki tuzilmasini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, gap darajasida so‘z turkumlari bilan boyitilgan modellarni ishlab chiqish orqali matn mazmuni aniqroq talqin qilinadi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada o‘zbek tilidagi matnlarni so‘z turkumlari asosida sentiment jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirilgan gap modellarini ishlab chiqish bo‘yicha metodologik yondashuvlar bayon etiladi. Maqolada, avvalo, mavjud sentiment tahlil yondashuvlari tahlil qilinadi, so‘ng o‘zbek tili morfologiyasiga moslashtirilgan gap modeli ishlab chiqiladi. Tadqiqotda sifat, fe’l

va ravishlarning hissiy ohangni belgilashdagi roli, shuningdek, ot va kontekstual birliklarning qo‘llanishi chuqur o‘rganiladi. Bundan tashqari, inkor konstruksiyalari va bog‘lovchi vositalarning sentimentni o‘zgartirishdagi funksional ta’siri ham tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlar asosida yaratilgan gap modellari sentiment tahlilning aniqligini oshirishda xizmat qilishi ko‘zda tutiladi. Natijada, maqola o‘zbek tilida sentiment tahlilning ilmiy asoslarini kengaytirish hamda real amaliyotda qo‘llashga mos modellarni ishlab chiqishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: *Sentiment tahlil, so‘z turkumlari, sifat (adjective), fe’l(verb), ravish (adverb), ot(noun), inkor konstruksiyalari, emotsional intensivlik, kontekstual elementlar, semantik tahlil, NLP.*

Kirish

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida sentiment tahlil bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, sharhlar va boshqa axborot manbalaridan olinayotgan matnlarning hissiy mazmunini aniqlashda dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek tili kontekstida tilning o‘ziga xos leksik va morfologik xususiyatlari sababli, sentiment tahlilning aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun maxsus yondashuvlar talab etiladi. Sentiment tahlilning dolzarbligi zamonaviy NLP (Tabiiy Tilni Qayta Ishlash) sohasida mijozlar sharhidan tortib ijtimoiy tahlilgacha turli ilovalarda o‘z aksini topmoqda. Ushbu maqolada, o‘zbek tilidagi matnlarni so‘z turkumlari orqali tahlil qilishda gap modellarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. So‘z turkumlarining (sifat, fe’l, ravish, ot) sentimentga ta’sirini tizimli o‘rganish ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada so‘z turkumlarining semantik va sintaktik xususiyatlarini inobatga olgan holda, gap modellarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Avvalo, matnning hissiy mazmunini aks ettirishda sifat, fe’l, ravish va ot kabi asosiy so‘z turkumlarining roli aniqlik bilan o‘rganilib, ularning gap tarkibidagi semantik og‘irligi tahlil qilindi. Ushbu so‘z turkumlari gap modellarining tuzilishini belgilab, sentiment tahlilning nozik tafsilotlarini ochib berishda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan ilgari olib borilgan ishlar, masalan, Socher va boshq. (2013) tomonidan taklif etilgan chuqur o‘rganish yondashuvlari, gap modellarining murakkab semantik va kontekstual aloqalarni aniqlashdagi samaradorligini isbotlagan. Maqolada, strukturlanmagan **ma’lumotlarni to‘plash, tozalash** va **xususiyat ajratish** bosqichlari orqali so‘z turkumlariga asoslangan xususiyatlar yig‘ilib, gap modellarining asosiy komponentlari shakllantiriladi. Modellarni o‘rgatish bosqichida mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida gap modellarining parametrlari optimallashtirilib, ularning sentiment tahlilidagi aniqligi kross-validatsiya metodlari orqali sinovdan o‘tkaziladi. Natijalar gap modellarining

so‘z turkumlari asosida sentiment tahlilda yuqori aniqlik va ishonchlilikka erishishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘zbek tilining leksik va morfologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish gap modellarini yanada mukammallashtirishga imkon beradi. Ushbu yondashuv tilning murakkab semantik va kontekstual jihatlarini inobatga olgan holda, sentiment tahlil algoritmlarining samaradorligini oshirishda innovatsion metodologik yechimlarni taqdim etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullar (masalan, Bag-of-Words) o‘zbek tilidagi so‘z shakllarining ko‘pligi va kontekstual bog‘liqliklarini hisobga olmaydi. Shu sababli, gap darajasidagi modellarni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi, chunki gap tarkibidagi so‘z turkumlari o‘zaro munosabati emotsional ma’noni aniqroq aks ettiradi. Masalan, “Bu film ajoyib emas” gaplarida inkor (“emas”) va sifat (“ajoyib”) o‘zaro ta’siri salbiy sentimentni shakllantiradi. ToshDO‘TAU olimlari (2021) tomonidan yaratilgan “UzbSentiment” korpusi asosida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, gap darajasidagi modellar so‘z darajasidagi tahlilga nisbatan 30-35% yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Biroq, o‘zbek tilida gap tuzilmalarini modellashtirish uchun morfologik va sintaktik tahlilni integratsiyalash talab etiladi. Maqolada taklif etilayotgan metodologiya – so‘z turkumlarini asos qilib, ularning gap ichidagi o‘zaro ta’sirini graf neyron tarmoqlari yordamida modellashtirish – o‘zbek NLP sohasida yangi yechimlarni taklif qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u ijtimoiy tarmoqlardagi fikr-mulohazalarni avtomatik tahlil qilish, mijozlarning sharhlarini klassifikatsiyalash kabi amaliy vazifalarga yechim bo‘ladi.

Gap modellarini ishlab chiqish

O‘zbek tilidagi matnlarni so‘z turkumlari orqali sentiment tahlil qilishda eng muhim so‘z turkumlari: sifat, ravish, fe’l hisoblanadi. Shuningdek, sentiment tahlilga qo‘shimcha ta’sir qiluvchi so‘zlar: modal so‘zlar, otlar, inkor shakllari bo‘lib, ushbu leksik birliklar asosida gap modellarini ishlab chiqish mumkin. O‘zbek tilida gap modellarini ishlab chiqishda so‘z turkumlarining quyidagicha kombinatsiyalari ishlab chiqildi:

1-jadval. Sentiment gap modellari

№	Gap modeli	Misol	Sentiment
1	**Ot +Sifat**	Ushbu **film ajoyib**.	5
2	**Ravish+Fe’l**	Men xizmatdan **juda mamnunman**.	4
3	**Sifat+Inkor**	Ushbu joy **qulay emas**.	-2
4	**Kuchaytiruvchi + Sifat**	Bu yer **mutlaqo go‘zal**.	5
5	**Zaiflashtiruvchi + Sifat**	Bu yer **shunchaki yaxshi**.	2

6	**Fe’l+Inkor**	Men bu mahsulotni **yoqtirmayman**.	-3
7	**Fe’l + Ot**	Ular bizga **yordam berdi**.	3
8	**Ot + Fe’l + Inkor**	Ular bizga **yordam bermadi.**	-3
9	**Ravish + Fe’l + Inkor**	Bu menga **juda yoqmadi.**	-4
10	**Kuchaytiruvchi (R) + Fe’l**	Men bu natijaga **nihoyatda xursandman.**	5
11	**Zaiflashtiruvchi (R) + Fe’l**	Men bu natijadan **bir oz xursandman.**	2
12	**Sifat +Fe’l + Inkor**	Bu ovqat **mazali chiqmadi.**	1
13	**Sifat + Fe’l**	O‘qituvchi juda **mehribon ko‘rinadi.**	4
14	**Sifat + Inkor + Fe’l**	O‘qituvchi **mehribon emasdek ko‘rinadi.**	-2
15	**Ot + Kuchaytiruvchi + Fe’l**	Bu **natija juda katta motivatsiya berdi.**	5
16	**Ot+ Zaiflashtiruvchi + Fe’l**	Bu **natija ozgina kuch berdi.**	2
17	**Ravish + Sifat + Ot**	Bu yangilik **nihoyatda yaxshi xabar.**	5
18	**Ravish + Sifat + Ot + Inkor**	Bu yangilik **umuman yaxshi xabar emas.**	-4
19	**Ot + Kuchaytiruvchi (R) + Fe’l**	Meni ularning **g‘alabasi nihoyatda quvontirdi.**	5
20	**Ot + Zaiflashtiruvchi (R) + Fe’l**	Nozimaning **g‘alabasidan shunchaki quvondi.**	2
21	**Inkor + Fe’l + Ot + Kuchaytiruvchi**	Mag‘lubiyat **menga umuman ta’sir qilmadi.**	1
22	**Olmosh + Zaiflashtiruvchi (R) + Fe’l + Inkor**	Mag‘lubiyat **menga deyarli ta’sir qilmadi.**	0
23	**Kuchaytiruvchi (R) + Ot**	Bu yil menga **nihoyatda quvonch** olib keldi.	5
24	**Zaiflashtiruvchi (R) + Ot**	U **biroz tushkunlikda** edi.	1
25	**Olmosh + Kuchaytiruvchi (R) + Sifat + Fe’l**	Bu xabar **barchani juda xursand qildi.**	5
26	**Olmosh + Sifat + Fe’l + Inkor**	Bu xabar **barchani xursand qilmadi.**	-2

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan gap modellarida kuchaytirgichlar, zaiflashtirgichlar va inkor shakllari sentimentga qanday ta’sir qilishini aks ettirildi. **Fe’llar, sifatlar, otlar va ravishlarning kombinatsiyasi** orqali sentiment ifodalari

yanada aniq baholanishi mumkin. **Inkor shakllari ba’zan sentimentni neytralga yaqinlashtirishi yoki o‘zgartirishi mumkin.**

Ushbu modellarni aniqligini oshirish uchun **turli uslubdagi gaplar**: **rasmiy, norasmiy, adabiy** va **shevada ishlatiladigan gap shakllarini** qo‘shish lozim. Shuningdek, modelda **murakkab gaplar**: qo‘shma va ergash gaplarni ham qo‘shib, sentiment tahlilining aniqligini oshirish mumkin.

Sentiment tahlil qilish modeliga neytral, ironik va sarkastik so‘zlarni qo‘shish orqali model aniqligi va samaradorligini oshirish mumkin.

1. Qo‘shma gaplar modeli:
Gap qolipi: *[Asosiy gap] + bog‘lovchi + [Qo‘shimcha gap]*
Misol: *U juda aqlli*, **lekin ba’zan xatolar ham qiladi**.

Variatsiyalar:

- **va** bog‘lovchisi: *Men kitob o‘qiyapman **va** musiqa tinglayapman.*
- **lekin** bog‘lovchisi: *U yaxshi ishlaydi, **lekin** ba’zan unutib qo‘yadi.*
- **yoki** bog‘lovchisi: *Siz kelishingiz mumkin **yoki** biz telefon orqali gaplashamiz.*

2. Ergash gaplar modeli:
Gap qolipi: *[Asosiy gap] + ergash gap bog‘lovchisi + [Ergash gap]*
Misol: ***Agar** u kechiksa,* **biz kutishimizga to‘g‘ri keladi.**

Variatsiyalar:

- **shart:** ***Agar** u yordam bersa, ishimiz ancha yengillashadi.*
- **sabab:** *U tinmay ishlaydi, **chunki** o‘z ishini yaxshi ko‘radi.*
- **natija:** *Men ko‘p mashq qildim, **shuning uchun** imtihonda yaxshi natija oldim.*
- **maqsad:** *Men kech kelaman, **shunda** hamma ish bitib qo‘yiladi.*

№	Gap modeli	Misol	Sentiment	Uslub
1	**Ot+ Sifat**	Ushbu **film ajoyib** ekan.	5	Norasmiy (so‘zlashuv)
2	**Ravish +Fe’l**	Bu rejani tinglovchilar **ancha ma’qullashdi.**	4	Rasmiy (publisistik

3	**Sifat+ Inkor**	Qilingan amaliy ish foydalanuvchilar uchun **qulay emasligi** aytildi.	-2	Rasmiy (ilmiy)
4	**Kuchaytiruvchi(RR) + Sifat**	Bu yer **mutlaqo go‘zal**.	5	Norasmiy(badiiy)
5	**Zaiflashtiruvchi(RR) + Sifat**	Bu yer **shunchaki yaxshi**.	2	Rasmiy (ilmiy)
6	**Fe’l+ Inkor**	Men bu mahsulotni **yoqtirmayman**.	-3	Norasmiy(so‘zlashuv)
7	**Ot + Sifat + Inkor**	U sotib olgan **kiyim yaxshi emas** edi.	-4	Norasmiy(so‘zlashuv
8	**Ot +Fe’l**	Mazkur buyruq ijrosi ustidan **nazorat o‘rnatilsin.**	3	Rasmiy (rasmiy)
9	**Ot +Fe’l + Inkor**	Eksperiment davomida 50 nafar **ishtirokchi jalb etilmadi.**	-3	Rasmiy (ilmiy)
10	**Ravish +Fe’l + Inkor**	Bu menga **umuman yoqmadi**.	-4	Norasmiy(so‘zlashuv)
11	**Kuchaytiruvchi(RR) + Fe’l**	Men bu natijadan **nihoyatda xursandman**.	5	Norasmiy(publisistik)
12	**Zaiflashtiruvchi (RR)+ Fe’l**	Men bu natijadan **bir oz xursand bo‘ldim.**	2	Norasmiy(publisistik
13	**Ot + Fe’l**	Mening g‘alabam **odamlarni quvontirdi**.	4	Adabiy (Rasmiy)
14	**Ot + Fe’l + Inkor**	Farzandining mag‘lubiyati **otani xafa qilmadi**.	1	Norasmiy(badiiy)
15	**Murakkab gap (qo‘shma: qarama-qarshi bog‘lovchi)**	U juda aqlli, **ammo ba’zan xatolar ham qilib turadi.**	2	Norasmiy(so‘zlashuv)
16	**Murakkab gap (qo‘shma: teng bog‘lovchi)**	Arizangiz ko‘rib chiqildi **va ijobiy hal etildi.**	4	Rasmiy (rasmiy)
17	**Murakkab gap (qo‘shma: ziddiyat bog‘lovchi)**	Havo sovuq edi, **ammo biz yurishni davom ettirdik.**	-1	Norasmiy(badiiy)
18	**Murakkab gap (ergash: shart bog‘lovchi)**	Agar tomonlar rozi bo‘lmasa, **shartnoma bekor qilinishi aytildi.**	0	Rasmiy (rasmiy)

19	**Murakkab gap (ergash: sabab bog‘lovchi)**	U tinmay ishlaydi, **chunki o‘z kasbini yaxshi ko‘radi**.	4	Norasmiy(badiiy)
20	**Murakkab gap (ergash: natija bog‘lovchi)**	Men ko‘p mashq qildim, **shuning uchun imtihonda yaxshi natija oldim**.	5	Norasmiy(so‘zlashuv)
21	**Murakkab gap (ergash: maqsad bog‘lovchi)**	Men ko‘proq kitob o‘qiyapman, **shunda bilimim oshadi.**	2	Norasmiy(so‘zlashuv)
22	**Murakkab gap (qo‘shma: parallel hodisa)**	U ertalab yugurdi, **shuningdek, mashq ham qildi**.	4	Norasmiy(badiiy)
23	**Murakkab gap (ergash: imkon bog‘lovchi)**	Agar u yordam bersa, **ishimiz ancha yengillashadi**.	3	Norasmiy(publisistik)
24	**Murakkab gap (qo‘shma: qarama-qarshi fikr)**	Men bu natijani kutgandim, **ammo u umidimni oqlamadi**.	-2	Norasmiy(publisistik)
25	**Murakkab gap (ergash: ehtimol bog‘lovchi)**	Agar ariza belgilangan muddatda topshirilsa, **ko‘rib chiqilishi mumkin.**	1	Rasmiy(rasmiy)
26	**Murakkab gap (qo‘shma: izohlovchi)**	Ular kech kelishdi, **chunki reja o‘zgarib ketdi**.	-1	Norasmiy(badiiy)
27	**Murakkab gap (qo‘shma: mustahkamlovchi)**	U juda mehnatkash, **hatto kasal bo‘lsa ham ishlaydi**.	3	Norasmiy(publisistik)
28	**Murakkab gap (ergash: vaqt bog‘lovchi)**	Tadqiqot boshlanganidan beri, **natijalar muntazam tahlil qilinmoqda.**	4	Rasmiy(ilmiy)
29	**Murakkab gap (ergash: daraja bog‘lovchi)**	Men bu natijadan shunchalik hursand bo‘ldimki, **hatto yig‘lab yubordim**.	5	Norasmiy(so‘zlashuv)

Matndagi **sifat (JJ)** va **ravish (RR)** so‘z turkumlariga mansub so‘zlar birgalikda tahlil qilinsa, matndagi hissiyotlarning nafaqat mavjudligi, balki ularning qanchalik intensiv ekanligi haqida ham to‘liqroq ma’lumot olish mumkin. Shunday qilib, sentiment tahlilining natijalari yanada aniq va ishonchli bo‘ladi.

Sentiment tahlilida **ravish (RR) + fe’l (VB)** birikmalarini tahlil qilish foydali bo‘lishi mumkin.

1. **Ravish (adverb):** Ravishlar fe’llarning ma’nosini kuchaytiradi yoki o‘zgartiradi. Ular harakatning intensivligi, chastotasi, uslubi yoki vaqtini ko‘rsatishi mumkin. Masalan: *“juda”*, *“aniq”*, *“tezda”*, *“to‘liq”* kabi so‘zlar.

2. **Fe’l (verb):** Fe’llar esa harakat, holat yoki jarayonni ifoda etadi. Ular matnda asosiy voqea yoki harakatni bildiradi. Masalan: *“yoqtiradi”*, *“nafratlanadi”*, “*ko‘radi”*, *“qabul qiladi”* kabi fe’llar.

Ravish+Fe’l birikmasi ravishning qo‘shilishi orqali fe’lning ifoda etayotgan harakatiga qo‘shimcha ma’no, ayniqsa hissiyotning intensivligi yoki uslubiy xususiyatlarini beradi.

Sentiment tahlilida **ravish (RR) + fe’l (VB)** birikmalarini tahlil qilish sabablari quyidagilardan iborat:

1. **Intensivlik:** Ravishlar fe’llarga qo‘shilib, ularning *harakat* yoki *holat* ifodasini kuchaytirishi mumkin. Masalan, “*juda yoqtiradi*” birikmasida “*juda*” hissiyotning kuchini oshiradi va bu matnning ijobiy sentimentini yanada kuchaytiradi.

2. **Kontekstual nuanslarni aniqlash:** Har bir fe’l o‘zida ma’lum bir sentimentni bildirishi mumkin, lekin uning oldidagi ravish orqali bu hissiyot aniqroq ifodalanadi. Masalan, “*sevadi*” va “*chindan sevadi*” birikmalari farqli darajada ijobiy his-tuyg‘uni aks ettirishi mumkin.

3. **Kontekstni aniqlashtirish:** Fe’lning o‘zida ham, uning oldidagi ravishda ham sentiment mavjud bo‘lishi mumkin. Ravishning qo‘shilishi matndagi *hissiyotning darajasi* va *ifodalanish usulini* yanada boyitadi, shu orqali sentimentning to‘liq manzarasi paydo bo‘ladi. Ba’zi hollarda, ravishlar fe’lning sentiment **polaritesini** (ya’ni, ijobiy yoki salbiyligini) aniqlashda yordam beradi. Ravish qo‘shilishi, ayniqsa, salbiy holatlarda, masalan “*juda salbiy baholaydi*” kabi, hissiyotning salbiy tomonini kuchaytiradi.

4. **Matn tahlilining aniqligi:** Bu turdagi kombinatsiyalarni e’tiborga olish orqali sentiment tahlili algoritmlari yanada aniqroq va ishonchli qarorlar qabul qilishi mumkin. Chunki, bunday kombinatsiyalar ko‘pincha matndagi hissiyotning *subtil* va *kontekstual* jihatlarini ochib beradi.

Matnda bir nechta **ravish (RR) + fe’l (VB)** birikmalari bo‘lishi mumkin. Ularni tahlil qilish orqali har bir harakat yoki holatning hissiyot darajasini solishtirish va umumiy matnning sentiment qiymatini aniqlash mumkin. Shunday qilib, agar sentiment tahlil jarayonida mos keladigan usullar va resurslar bo‘lsa, **ravish (RR) + fe’l (VB)** birikmalarini ham alohida e’tiborga olish sentiment tahlilining *aniqligini* oshirishi mumkin.

So‘z birikmasi	Ravish	Fe’l
juda yoqtiradi	“juda” – bu his-tuyg‘uni kuchaytiradi, ya’ni foydalanuvchi narsa yoki holatni	“yoqtiradi” – ijobiy his-tuyg‘uni ifodalaydi.

	juda ijobiy qabul qilayotganini bildiradi.	
aniq rad etadi	“aniq” – bu rad etish jarayonining qat’iyligini, aniq va inkorlovchi munosabatni ko‘rsatadi.	“rad etadi” – salbiy yoki inkor qiluvchi his-tuyg‘uni ifodalaydi.
tezda unutdi	“tezda” – bu jarayonning qanchalik tez sodir bo‘lishini ifoda etadi va ba’zi kontekstlarda hissiyotning intensivligini (masalan, tezda kechgan yoki tezda unutgan his-tuyg‘u) aniqlashga yordam beradi.	“unutdi” – neytral yoki holatni o‘zgartirishni bildirishi mumkin.

Matndagi **ravish (RR) + fe’l (VB)** birikmalarni aniqlash uchun quyidagi ketma-ketlikda amallarni bajarish lozim:

1. **POS teglash (Part-of-Speech tagging):** Matndagi so‘zlar (so‘z birikmalari) va ularga mos turkumlarini aniqlash uchun POS teglash vazifasidan foydalaniladi. POS teglash orqali ravishlar va fe’llarni aniqlash, ularning kombinatsiyalarini ajratib olish mumkin.

2. **N-gram: ravish (RR) + fe’l (VB)** kombinatsiyalarini aniqlash uchun bigram
(2-gram) yondashuvi qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv yordamida matn ichidagi qo‘shma so‘z birikmalari ajratib olinadi va ularga sentiment qiymatlar beriladi.

3. **Sentiment lug‘atlar va qoida asosida tahlil:** Agar siz maxsus sentiment lug‘atlaridan foydalanayotgan bo‘lsangiz, ularda ravishlar va fe’llarga tegishli sentiment qiymatlari bo‘lishi mumkin. Shu qiymatlar orqali kombinatsiyalar umumiy hissiyotga ta’sirini baholash mumkin.

4. **Mashinali o‘qitish modellari:** Agar siz mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuvni qo‘llayotgan bo‘lsangiz, model treningi (o‘qitish) jarayonida ravish+fe’l kombinatsiyalari uchun *xususiyat (feature)* sifatida ekstraksiya qilinishi va modelga kiritilishi mumkin. Bu, masalan, *so‘z o‘zgarishi, kombinatsiya intensivligi, kontekstual bog‘lanishlarni o‘rganish* orqali amalga oshiriladi.

Xulosa

Sentiment tahlilning asosiy vazifasi matndagi hissiy tonni (ijobiy, salbiy, neytral) aniqlashdan iborat bo‘lib, bunda so‘zlar semantik va pragmatik jihatdan asosiy indikator hisoblanadi. So‘z turkumlari (ot, sifat, fe’l, ravish va boshqalar) sentimentni ifodalashda turlicha rol o‘ynashi lingvistik tadqiqotlarda ko‘p marta ta’kidlangan. O‘zbek tilida bu masala yanada murakkabdir, chunki tilning agglutinativ tuzilishi so‘z shakllarining ko‘pligiga, morfologik bog‘liqliklarga va kontekstual nuanslarga olib keladi. Masalan, sifatlar (“ajoyib”, “yomon”) to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional yuklangan bo‘lsa, otlar (“zavq”, “qayg‘u”) ko‘pincha abstrakt

tushunchalarni ifodalaydi. Fe’llar esa (“yoqtirmoq”, “yomon ko‘rmoq”) nutqdagi harakatning hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ravishlar (“juda”, “ortiqcha”) emotsional intensivlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, so‘z turkumlarining sentimentga ta’sirini tahlil qilishda ikkita asosiy muammo mavjud: birinchidan, bir xil so‘z turkumining turli kontekstlarda qarama-qarshi ma’nolar kasb etishi (masalan, “do‘st” – ijobiy, lekin “soxta do‘st” – salbiy); ikkinchidan, kodli almashish (rus/ingliz tillaridan so‘zlar) tufayli semantik noaniqlik. O‘zbekcha so‘z turkumlarini morfologik jihatdan normalizatsiya qilish (lemmatizatsiya) orqali ularni sentiment lug‘atlariga integratsiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilida so‘z turkumlarining sentiment tahlilga ta’sirini tizimli o‘rganilib, ularni modellashtirishda samarali yondashuvlarni taklif qilindi. Natijalar nafaqat lug‘atli tizimlarni boyitish, balki neyron tarmoqlarning kontekstni tushunish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pang, B., & Lee, L. (2008). Opinion mining and sentiment analysis. *Foundations and Trends in information retrieval*, *2*(1–2), 1-135.
2. Elov B. and Xudayberganov, N. (2024). O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari. Computer Linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
3. Xusainova Z. (2023). O‘zbek tili milliy korpusi qidiruv tizimini optimallashtirishda lemmatizatsiyadan foydalanish. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
4. Elov B., Alayev R. and Abdullayev A. (2024). Tabiiy tilning statistik modellari. digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 178-189.
5. Tang D., Wei F., Qin B., Yang N., Liu T. and Zhou M. (2015). Sentiment embeddings with applications to sentiment analysis. IEEE transactions on knowledge and data Engineering, 28(2), 496-509.
6. Cambria E. (2024). Semantics Processing. In Understanding Natural Language Understanding (pp. 113-228). Cham: Springer Nature Switzerland.
7. Mengliev D., Abdurakhmonova N., Barakhnin, V. Vasliddinova, K. Rahimov H. and Djalolova, K. (2024, June). Enhancing sentiment analysis in Uzbek language texts through weighted lexical features. In 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2450-2453). IEEE.

SENTIMENT TAHLIL UCHUN KATTA HAJMDAGI DATASETNI YARATISH BOSQICHLARI

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Abdullayev Abdulla Quranbayevich,
NTM ta’limni kredit tizimini boshqarish bo‘lim boshlig‘i
abdulla_abdullayev9270@mail.ru
Urganch innovatsion university

Annotatsiya. O‘zbek tilida sentiment tahlilni rivojlantirishning asosiy to‘siqlaridan biri – lingvistik xususiyatlar va yetarli hajmdagi sifatli ma’lumotlar to‘plamining yo‘qligidir. Ushbu maqolada sentiment tahlil uchun katta hajmdagi datasetni yaratish jarayoni uch bosqichli tizim asosida tahlil qilinadi. Avvalo, birinchi bosqichda yaratiladigan datasetning maqsadi, sifat mezonlari va foydalanish sohasi aniqlanib, ilmiy talablar ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda, turli axborot manbalari – ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloglar, onlayn sharhlar va yangilik portallaridan xom ma’lumotlar yig‘ilib, ularning dolzarbligi va ishonchliligi tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda esa, yig‘ilgan ma’lumotlar tozalash, normalizatsiya, tokenizatsiya va lemmatizatsiya kabi ishlov berish operatsiyalari yordamida mos va strukturallashgan dataset shakllantiriladi. Shuningdek, annotatsiya va balanslash jarayonlari orqali har bir sentiment kategoriyasining teng va to‘liq aks etishi ta’minlanadi. Ushbu tizimli yondashuv ma’lumotlarning lingvistik, semantik va statistik jihatlarini hisobga olib, sentiment tahlil modellari uchun yuqori aniqlikdagi korpus yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari yaratilgan datasetning sifatli va ishonchli ekanligini, shuningdek, sentiment tahlil algoritmlarining samaradorligini oshirishga hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot sentiment tahlil uchun katta hajmdagi datasetni yaratishning ilmiy asoslangan bosqichlarini taqdim etib, sohada innovatsion yechimlarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: *Sentiment tahlil, NLP, dataset yaratish, ma’lumotlarni tayyorlash, katta hajmdagi dataset, lingvistik annotatsiya, Inter-annotator kelishuv.*

Kirish

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida sentiment tahlilning yuqori aniqlik va umumlashuv qobiliyatiga erishishda **katta hajmdagi, yuqori sifatli** datasetning yaratilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Avvalo, turli axborot manbalaridan – ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, onlayn sharhlar va yangilik portallaridan – xom ma’lumotlar yig‘ilib, korpusning asosiy poydevori shakllantiriladi. Keyin, yig‘ilgan

ma’lumotlar tozalash jarayoni orqali HTML teglar, maxsus belgilar, ortiqcha raqamlar va keraksiz so‘zlardan xoli holga keltiriladi, bu esa keyingi bosqichlar uchun ishonchli ma’lumot zaxirasini ta’minlaydi. Shu bilan birga, tokenizatsiya, normalizatsiya va lemmatizatsiya kabi boshlang‘ich ishlov berish operatsiyalari qo‘llanilib, matnlarning lingvistik va semantik tuzilishi soddalashtiradi. Annotatsiya bosqichida esa, har bir matn sentiment bo‘yicha ijobiy, salbiy yoki neytral deb belgilanadi, bu usul yarim avtomatik va qo‘lda amalga oshirilgan annotatsiya tizimlari yordamida bajariladi. Ma’lumotlar sifatini yanada oshirish maqsadida, dataset balanslash bosqichida turli sentiment kategoriyalarining teng taqsimlanishi statistik metodlar orqali ta’minlanadi. So‘nggi bosqichda, annotatsiyalangan va balanslangan ma’lumotlar trening, test va validatsiya to‘plamlariga ajratilib, modelni o‘rgatish uchun mustahkam asos yaratiladi. Modelni o‘rgatish jarayonida, katta hajmdagi ma’lumotlar yordamida algoritm treningi amalga oshirilib, gradient tushishi, kross-validatsiya va boshqa optimallashtirish strategiyalari orqali model parametrlarida yaxshilanishlar kiritiladi. Keyinchalik, modelni baholash bosqichida aniqlik, precision, recall va F1-score kabi metrikalar asosida eksperimental sinovlar o‘tkazilib, yaratilgan modelning amaliy qo‘llanilishidagi samaradorligi aniqlanadi. Natijada, yaratilgan dataset va o‘rgatilgan model real sharoitlarda sentiment tahlilini avtomatlashtirish imkonini yaratib, yuqori aniqlik va barqarorlikka erishishni ta’minlaydi. Shuningdek, modelni joriy qilish bosqichi orqali tizimga integratsiyalashgan yechim real vaqtda sentiment tahlilini amalga oshirishga imkon yaratadi. Ushbu tizimli yondashuv, ma’lumotlarni tayyorlash, tozalash, annotatsiya, balanslash, modelni o‘rgatish, baholash va joriy qilish bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligini ishonchli tarzda namoyish etadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, zamonaviy sentiment tahlil tizimlarining samaradorligi, qaysi algoritmdan foydalanilmasin, asosan uning o‘qitiladigan ma’lumotlar **bazasining hajmi, sifati** va **representativligiga** bog‘liq. O‘zbek tilidagi matnlar uchun katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamini yaratish sohasi nisbatan yangi bo‘lib, tilning agglutinativ tuzilishi, kodli almashish (rus/ingliz tillaridan so‘zlar qo‘shilishi) kabi lingvistik xususiyatlar tufayli qiyinchiliklar tug‘diradi.

Xalqaro tajribalar (Hovy va Lavid, 2010[1]; Cambria, 2016[2]) shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishda muvozanatli tanlov, to‘g‘ri annotatsiya va turli kontekstlarni qamrab olish algoritmlarning adolatli ishlashi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbek tiliga oid mavjud korpuslar (masalan, “UzbCorpus”) ko‘pincha cheklangan hajmga ega yoki ma’lum bir soha (ijtimoiy media, yangiliklar) bilan chegaralangan, bu esa ko‘p qirrali sentiment tahlilni qiyinlashtiradi[3]. Ma’lumotlarni yig‘ish bosqichida manbalarning xilma-xilligi (forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy hujjatlar) va demografik tarqalishi (yosh, mintaqaviy dialektlar) to‘plamning universalligini ta’minlashda muhim rol

o‘ynaydi. Elov va boshq. (2024) ta’kidlaganidek, o‘zbek tilida morfologik normalizatsiya (lemmatizatsiya, stemming) va tokenizatsiyani to‘g‘ri amalga oshirish matnlarni kompyuter tushunishi uchun moslashtirishning asosiy sharti hisoblanadi[4]. Tovush yozuvi, imlo xatolari va qisqartmalar kabilarni tozalash (Kuryozov va boshq., 2019) esa ma’lumotlarni vektorlashtirish jarayonidagi shovqinlarni kamaytiradi[5]. Annotatsiya bosqichida mahalliy til mutaxassislari ishtiroki (Mengliyev va boshq., 2023) emotsional nuanslarni to‘g‘ri belgilash imkonini beradi[6]. Bundan tashqari, turli annotatorlar orasidagi kelishuv darajasini (inter-annotator agreement) o‘lchash (Bobicev va boshq., 2017) ma’lumotlar sifatini baholashda muhim metrikadir[7]. Ma’lumotlarni tasodifiy bo‘linishi (train-test split), sinov to‘plamlarining diversifikatsiyasi (Hamdamov va boqsh., 2024) modelning overfittingdan himoyalanishiga yordam beradi[8]. Yana bir muammo – ma’lumotlar to‘plamini dinamik yangilab borish, chunki til tirik tizim bo‘lib, yangi so‘zlar va iboralar doimiy paydo bo‘ladi. Xalqaro standartlarga moslab ma’lumotlarni ochiq manbali ravishda taqdim etish (masalan, Kaggle, Hugging Face) ham O‘zbek tilidagi NLP hamjamiyatining rivojiga hissa qo‘shadi. Xulosa qilib, keng ko‘lamli, sifatli va diversifikatsiyalangan ma’lumotlar to‘plamini yaratish – bu nafaqat sentiment tahlil, balki boshqa NLP vazifalari uchun ham o‘zbek tilining raqamli resurslarini boyitishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy harakatdir.

Katta hajmdagi datasetni yaratishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim:

1. Dataset uchun asosiy talablarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda, avvalo, yaratiladigan datasetning maqsadi, qo‘llanilishi sohalari va ilmiy talablarini aniq belgilash lozim. Tadqiqot kontekstida, dataset tarkibida kutilayotgan semantik, sintaktik va lingvistik xususiyatlar, shuningdek, sentimentning aniqligi va granulyatsiyasi (masalan, ijobiy, salbiy, neytral yoki nozik hissiyot darajalari) aniqlanadi. Shuningdek, ma’lumotlarning to‘liqligi, dolzarbligi, aniqligi va moslashuvchanligi kabi sifat mezonlari belgilab olinadi. Ushbu talablar asosida, keyingi bosqichlarda ishlatiladigan annotatsiya protokollari, sinov metrikalari va modelning o‘lchov ko‘rsatkichlari ham ishlab chiqiladi, bu esa yaratilayotgan datasetning ilmiy jihatdan mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Sentiment tahlil uchun dataset yaratishning dastlabki bosqichi – maqsadga mos funksional va texnik talablarni aniqlashdir. Bu bosqichda quyidagilar ko‘rib chiqiladi: **Maqsadni aniqlash:** Dataset sentiment tahlilning qaysi turi (binary: ijobiy/salbiy, yoki ko‘p toifali: neytral, aralash, emotsional darajalar) uchun mo‘ljallangan? **Lingvistik talablar:** O‘zbek tilining agglutinativligi, dialektlar (Farg‘ona, Toshkent shevalari), kodli almashish (rus/ingliz tillaridan so‘zlar) kabi xususiyatlar hisobga olinadi. **Hajm va diversifikatsiya:** Kamida 100000 ta annotatsiyalangan matn, turli janrlar (ijtimoiy media, rasmiy matnlar, nutq) va

demografik guruhlar (yosh, jins) qamrovini ta’minlash. **Etika va qonuniy talablar:** Shaxsiy ma’lumotlarni olib tashlash (GDPR), mualliflik huquqi (CC BY litsenziya) va anonymizatsiya. **Annotatsiya protokoli:** Inter-annotator kelishuv (Cohen’s kappa > 0.8) va mahalliy ekspertlarni jalb qilish. Datasetni shakllantirishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- **Gaplar**: O‘zbek tilidagi real gaplardan iborat bo‘lishi lozim.
- **Sentiment teglari**: Datasetdagi har bir gap "ijobiy", "salbiy", yoki "neytral" kabi teglar vositasida teglanishi lozim.
- **Dataset hajmi**: Katta hajmdagi dataset yaxshi natijalar olishga yordam beradi. "Ijobiy", "salbiy", yoki "neytral" kabi har bir kategoriyadan kamida **1000-5000 ta gap** bo‘lishi maqsadga muvofiq.

2. Dataset manbalari.

Ushbu bosqichda, kerakli ma’lumotlarni yig‘ish uchun foydalaniladigan axborot manbalari aniqlanadi va ularning ilmiy asosda tahlil qilinishi amalga oshiriladi. Tadqiqot doirasida, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloglar, onlayn sharhlar va yangilik portallari kabi turli manbalar orqali xom ma’lumotlar to‘planadi. Har bir manbaning ishonchliligi, dolzarbligi va ma’lumotlarning strukturaliligi baholanib, ularning datasetga qo‘shilishi mumkinligi aniqlanadi. Shuningdek, manbalar orasida lingvistik va madaniy farqlarni inobatga olish zarur, chunki bu sentiment tahlilning yakuniy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Manbalarni tanlash jarayonida, mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik tahlillar va avvalgi tajribalar asosida optimal manba to‘plami shakllantiriladi. Matnlar **turli manbalardan**, **turli mavzulardan** va **turli kontekstlardan** bo‘lishi muhim. Datasetni quyidagi manbalardan shakllantirish mumkin:

- **Ijtimoiy tarmoqlar**: Telegram, Twitter, Facebook, yoki Instagram ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek tilidagi postlar yoki izohlar (odamlarning fikrlari va sharhlari).
- **Sharhlar**: Mahsulot sharhlari (masalan, Oson, Uzum, ZoodMall kabi onlayn do‘konlar yoki restoran sharhlari) va kino sharhlarini shakllantirish (ijobiy va salbiy fikrlarni ajratish uchun).
- **Yangilik saytlari**: kun.uz, daryo.uz, gazeta.uz kabi onlayn nashrlar (neytral matnlar uchun ideal manba).
- **Bloglar va maqolalar**: O‘zbek tilidagi bloglardan yoki yangiliklar saytlaridan gaplarni to‘plash zarur (odamlar haqqoniy fikr bildiradigan manba).
- **YouTube izohlari**: Video sharhlari orqali real his-tuyg‘ularni aniqlash.
- **Sun’iy yozilgan gaplar**: Agar haqiqiy ma’lumotlar yetarli bo‘lmasa oddiy gaplar yozib, ularga sentiment teg berish kerak.

3. Datasetni shakllantirish.

Ushbu bosqichda, yig‘ilgan xom ma’lumotlar asosida datasetni strukturaviy, semantik va statistik jihatdan boyitish jarayoni amalga oshiriladi. Avvalo, xom ma’lumotlar tozalash, normalizatsiya, tokenizatsiya va lemmatizatsiya kabi boshlang‘ich ishlov berish jarayonlari orqali mos va yagona formatga keltiriladi. Keyin, annotatsiya bosqichida, har bir matn sentiment bo‘yicha (ijobiy, salbiy, neytral yoki yanada nozik darajalar) qo‘lda yoki yarim avtomatik tarzda belgilab qo‘yiladi. Ushbu jarayon uchun inter-annotator agreement kabi sifat nazorati mexanizmlari qo‘llaniladi. Shuningdek, datasetni balanslash bosqichi orqali, har bir sentiment kategoriyasining teng taqsimlanishini ta’minlash uchun statistik metodlar, masalan, over-sampling yoki under-sampling usullari qo‘llaniladi. Natijada, tayyor dataset trening, test va validatsiya to‘plamlariga ajratilib, keyingi modellashtirish bosqichlariga tayyor holda ilmiy asosda shakllantiriladi. Datasetni shakllantirishda qo‘lda yoki avtomatik vositalardan foydalanish mumkin. Bu bosqichda quyidagi amallar bajariladi:

- **Ma’lumotlarni yig‘ish**: Saytlar va platformalardan ma’lumotlarni yig‘ish uchun **web scraping** usulidan foydalanish mumkin (BeautifulSoup, Selenium, Twitter API, YouTube API).
- **Ma’lumotlarni tozalash**: Avtomatik top`langan matnlarni tozalash lozim. Bu jarayonda matnlardan noto‘g‘ri belgilar, html teglar, va ortiqcha so‘zlar olib tashlanadi.
- **Ma’lumotlarni teglash**: Har bir gap uchun sentimentni aniqlash va uni teglash. Bu jarayon ham qo‘lda yoki avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Odatda kichik dataset uchun matnlar qo‘lda teglanadi. Kattaroq hajmdagi dataset matnlari dastlab avtomatik teglanadi va keyin qo‘lda qayta ko‘rib chiqiladi.
- **Matnlarning xilma-xilligi. Mavzu bo‘yicha muvozanatni ta`minlash uchun** matnlar turli sohalarni qamrab olishi kerak. Masalan, mahsulot sharhlari – elektronika, kiyim-kechak, kitoblar; xizmatlar – ta’lim, mehmonxonalar, restoranlar; siyosiy va ijtimoiy sharhlar.
- **Tasnif bo‘yicha ajratish (Sentiment bo‘yicha muvozanat)**: Har bir kategoriya uchun ijobiy, salbiy va neytral gaplarni teng (tekis) taqsimlash lozim. Masalan quyidagicha tasniflash usulidan foydalanish mumkin:
  - *juda ijobiy (20-25%)*
  - *ijobiy (20-25%)*
  - *neytral (20-25%)*
  - *salbiy (20-25%)*
  - *juda salbiy (5-10%)*
- **Matn uzunligi:** Datasetni shakllantirishda matn uzuligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan quyidagicha tasniflash usulidan foydalanish mumkin:

- *qisqa matnlar (1-2 gap) (30-35%)*
- *o‘rta matnlar (3-5 gap) (30-35%)*
- *uzun matnlar (5+ gap) (30-35%)*

▪ **Saqlash**: Datasetni .csv yoki .json formatida yoki ma`lumotlar bazasi jadvallarida saqlash lozim.

Ushbu tizimli yondashuv orqali yaratilgan dataset, sentiment tahlilning yuqori aniqligi va ishonchliligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib, kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ilovalar uchun mustahkam metodologik poydevor sifatida xizmat qiladi. Datasetni ochiq manbali platformalar (Hugging Face, Zenodo) ga joylashtirish va litsenziya (CC BY-SA 4.0) bilan ta’minlash mumkin.

Dataset namunasi

1-jadval. O‘zbek tili gaplarini teglash formati

№	Gap	Sentiment
.	Bu kitob juda qiziqarli ekan.	ijobiy
.	Xizmat sifati meni qoniqtirmadi.	salbiy
.	Bugungi ob-havo juda yaxshi edi.	neytral
.	Bu film vaqtni behuda ketkazish edi.	salbiy
.	Ovqat juda mazali edi.	ijobiy
.	Pulimni qaytarishmadi, xizmat yomon!	salbiy
.	Yetkazib berish kechikdi, lekin mahsulot yaxshi.	salbiy

Xulosa

O‘zbek tilida sentiment tahlilni rivojlantirishda katta hajmdagi datasetni yaratishning asosiy bosqichlari (talablarni belgilash, manbalarni tanlash, shakllantirish) tilning lingvistik xususiyatlari va amaliy muammolarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ma’lumotlarni yig‘ishda ijtimoiy tarmoqlar, mavjud korpuslar va demografik diversifikatsiya muhim rol o‘ynaydi. Datasetni shakllantirish bosqichida morfologik normalizatsiya (lemmatizatsiya, stemming) va kodli almashishni hisobga oladigan tozalash algoritmlari samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Annotatsiya jarayonida mahalliy ekspertlar ishtiroki va inter-annotator kelishuv (Cohen’s kappa >0.8) dataset sifatini ta’minlaydi. Yaratilgan datasetning muvaffaqiyati, shuningdek, sinov to‘plamlari orqali tekshirilgan statistik muvozanat va dinamik yangilash mexanizmlariga bog‘liq. Natijada, o‘zbek tiliga mo‘ljallangan keng ko‘lamli dataset nafaqat sentiment tahlil, balki chat-botlar, avtomatik tarjima kabi NLP vazifalari uchun asos bo‘lishi mumkin. Biroq, dialektlar, yangi so‘zlar va semantik noaniqliklar kabi muammolar datasetni doimiy yangilab borishni talab qiladi. Kelajakda ko‘p tilli transformer modellarni (masalan, BERT) o‘zbek tiliga

moslashtirish va ochiq manbali hamjamiyatni rivojlantirish sohaga yangi imkoniyatlar yaratadi. Xulosa qilib, ushbu ish o‘zbek tilining raqamli resurslarini boyitishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hovy, E., & Lavid, J. (2010). Towards a ‘science’of corpus annotation: a new methodological challenge for corpus linguistics. International journal of translation, 22(1), 13-36.
2. Cambria, E., Hazarika, D., Poria, S., Hussain, A., & Subramanyam, R. B. V. (2018). Benchmarking multimodal sentiment analysis. In Computational Linguistics and Intelligent Text Processing: 18th International Conference, CICLing 2017, Budapest, Hungary, April 17–23, 2017, Revised Selected Papers, Part II 18 (pp. 166-179). Springer International Publishing.
3. Elov, B., & Xusainova, Z. (2024). Til korpuslarini lingvistik teglash bosqichlari. Computer Linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
4. Boltayevich, E. B., Yuldashevna, X. Z., Mamurjonovna, U. S., Ermamatovich, N. S., qizi, A. Sh. A., & Shavkatjon, M. (2024, October). Algorithms for Parsing Roots and Stems of Words in Uzbek Language. In 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 126-130). IEEE.
5. Kuriyozov, E., Matlatipov, S., Alonso, M. A., & Gómez-Rodríguez, C. (2019, May). Construction and evaluation of sentiment datasets for low-resource languages: The case of Uzbek. In Language and Technology Conference (pp. 232-243). Cham: Springer International Publishing.
6. Mengliev, D. B., Akhmedov, E. Y., Barakhnin, V. B., Hakimov, Z. A., & Alloyorov, O. M. (2023, November). Utilizing lexicographic resources for sentiment classification in Uzbek language. In 2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE) (pp. 1720-1724). IEEE.
7. Bobicev, V., & Sokolova, M. (2017). Inter-annotator agreement in sentiment analysis: machine learning perspective. In Recent Advances in Natural Language Processing (pp. 97-102).
8. Hamdamov, O‘., Elov, B., & Alayev, R. (2024). Ma’lumotlar to‘plamini o‘qitish, baholash va test to‘plamlariga ajratish usullari. Digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 107-116.

LEXICON-BASED VA MACHINE LEARNING-BASED MODELLARI ASOSIDA SENTIMENT TAHLILNI AMALGA OSHIRISH

Elov Botir Boltayevich,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
elov@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Malika Suyunova Odil qizi,
Tayanch doktarant
malikasuyunova0@gamil.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada sentiment tahlili bo‘yicha mavjud yondashuvlar, xususan, leksikonga asoslangan va mashinani o‘rganishga asoslangan metodlar tahlil qilinadi hamda ularning samaradorligi o‘rganiladi. Sentiment tahlili tabiiy tilni qayta ishlashning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u matnlarning hissiy kayfiyatini (ijobiy, salbiy yoki neytral) aniqlash uchun qo‘llaniladi. Maqolada leksikona asoslangan yondashuv so‘zlarning oldindan belgilangan lug‘atlar va sentiment resurslari (masalan, WordNet) asosida baholanishini tushuntiradi. Ushbu metodda so‘zlarning hissiy qiymati oldindan belgilanib, ulardan foydalanib matnning umumiy sentimenti aniqlanadi. Shuningdek, tadqiqotda mashinani o‘rganishga asoslangan yondashuv keng yoritilib, unda model katta hajmdagi annotatsiyalangan matnlar asosida o‘qitilishi va sentimentni avtomatik ravishda aniqlashi tushuntiriladi. Ushbu usulda NV va SVM kabi algoritmlar qo‘llanilib, sentimentni bashorat qilish uchun matn xususiyatlari o‘rganiladi. Maqolada har ikki yondashuvning natijalari taqqoslanib, ularning kuchli va zaif tomonlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agar matnni sentiment tahlil qilish uchun yetarli hajmda ma’lumot mavjud bo‘lsa, mashina o‘rganishga asoslangan yondashuv aniqroq natijalar bera oladi. Biroq, leksikonga asoslangan yondashuv ko‘p resurs talab qilmaydi va turli tillarga oson moslashtirilishi mumkin. Shu sababli, maqolada ushbu ikkala yondashuvni birlashtirgan kombinatsiyalangan yondashuv taklif qilinib, uning sentiment tahlilidagi samaradorligi ko‘rsatilgan.

Annotation. This article analyzes existing approaches to sentiment analysis, particularly lexicon-based and machine learning-based methods, and examines their effectiveness. Sentiment analysis is one of the key areas of natural language processing, used to determine the emotional tone of texts (positive, negative, or neutral). The article explains that the lexicon-based approach evaluates words based on predefined dictionaries and sentiment resources (such as WordNet). In this method, the emotional value of words is predetermined and used to determine the overall sentiment of the text. The study also extensively discusses a machine learning-based approach that involves training a model on large volumes of

annotated text to automatically detect sentiment. In this method, algorithms such as Naive Bayes (NB) and Support Vector Machines (SVM) are used to analyze text features for sentiment prediction. The article compares the results of both approaches and discusses their strengths and weaknesses. According to the research findings, if a sufficient amount of data is available for sentiment analysis, the machine learning-based approach can provide more accurate results. However, the lexicon-based approach requires fewer resources and can be easily adapted to different languages. Therefore, the article proposes a combined approach that integrates both methods and demonstrates its effectiveness in sentiment analysis.

Абстрактный. В статье анализируются существующие подходы к анализу настроений, в частности методы, основанные на лексике и машинном обучении, а также изучается их эффективность. Анализ тональности текста является одной из важных областей обработки естественного языка и используется для определения эмоционального настроя (положительного, отрицательного или нейтрального) текстов. В статье объясняется, что подход на основе лексики оценивает слова на основе предопределенных словарей и ресурсов тональности (например, WordNet). В этом методе эмоциональная ценность слов предопределена и используется для определения общего настроения текста. В исследовании также подробно рассматривается подход к машинному обучению, объясняющий, как модель может обучаться на больших объемах аннотированного текста и автоматически определять тональность. Этот метод использует такие алгоритмы, как NV и SVM, для изучения особенностей текста и прогнозирования настроений. В статье сравниваются результаты обоих подходов и обсуждаются их сильные и слабые стороны. Согласно исследованию, если имеется достаточный объем данных для анализа настроений текста, подход на основе машинного обучения может обеспечить более точные результаты. Однако подход, основанный на лексике, не требует больших ресурсов и может быть легко адаптирован к разным языкам. Поэтому в статье предлагается комбинированный подход, объединяющий эти два подхода и демонстрирующий его эффективность в анализе настроений.

Kalit so‘zlar: *sentiment tahlili, leksikonga asoslangan yondashuv, mashina o‘rganishga asoslangan yondashuv, Naïve Bayes, Support Vector Machine (SVM), sentiment klassifikatsiyasi.*

Kirish

Sentiment tahlili – bu so‘nggi yillarda ko‘plab sohalarda qo‘llanilayotgan muhim texnologiyalardan biri bo‘lib, insonlarning fikrlarini, hissiyotlarini yoki baholarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar iste’molchilar va tashkilotlar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib, hozirda keng qo‘llaniluvchi Twitter, Facebook va boshqa tarmoqlar foydalanuvchilarga turli mavzular, shaxslar,

mahsulotlar va xizmatlar haqidagi fikrlarini, xohish-istaklarini ifodalash imkonini bermoqda. Sentiment tahlil esa insonlarning ijtimoiy tarmoqlarda bildirgan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Sentiment tahlilni bugungi kunda barcha sohalarda, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda – foydalanuvchilarning fikrlarini tahlil qilishda, marketing sohasida – mahsulot yoki brendga nisbatan mijozlarning munosabatini o‘rganishda, siyosatda – jamoatchilik fikrini o‘rganishda, servis, xizmat, sog‘liqni saqlash sohalarida esa mijozlarning xizmatlar haqidagi fikrlarini tahlil qilishda ishlatamiz. Sentiment tahlil turli ko‘rinishda ifodalanishi mumkin. Masalan, ikkilik shaklida (ijobiy va salbiy), uchlik ko‘rinishida (ijobiy, salbiy, neytral) yoki baho qiymatida (-5 dan 5 gacha). Ushbu ma’lumotlar turli maqsadlar uchun, jumladan, bozor tadqiqotlari, brendni boshqarish va qaror qabul qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Sentiment tahlilning jarayon oqimi quyidagicha[1]:



1-rasm. Sentiment tahlil ko‘rinishi

Bu jarayon quyidagicha kechadi:

1. **Ma’lumotlarni yig‘ish** – turli ijtimoiy tarmoqlardan to‘plangan matnli ma’lumotlar to‘planadi;
2. **Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash** – bu bosqichda matnni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi:
   - Tokenizatsiya – matn so‘zlarga ajratiladi;

- Filtrlash – keraksiz elementlar chiqarib tashlanadi;
- Stop-so‘zlarni olib tashlash – muhim bo‘lmagan so‘zlar chiqarib tashlanadi;
- Stemming – so‘zlar asosiy asos qismga keltiriladi.

3. **Ma’lumotlarni tahlil qilish** – tozalangan matn ma’lumotlari sentiment tahlili uchun tayyorlanadi;
4. **Sentiment klassifikatsiyasi** – matn ijobiy yoki salbiy polaritetga ega ekanligi aniqlanadi:
   - Salbiy polaritet;
   - Ijobiy polaritet.
5. **Sentiment bahosi** – bu matnning ijobiy yoki salbiy ekanligi haqidagi yakuniy baho.

Ijtimoiy tarmoqlardagi sentiment matnlari 3 ta asosiy elementdan iborat bo‘ladi: opinion holder – fikr bildiruvchi, object – obyekt ya’ni fikr bildirilayotgan narsa yoki shaxs, opinion – matn shaklida ifodalangan munosabat [2]. Ushbu elementlarning har biri matnning aniq tahlil qilinishini ta’minlaydi. Shunday qilib, sentiment tahlili nafaqat individual fikrlarni baholash, balki ijtimoiy jarayonlarning umumiy yo‘nalishini tushunish uchun ham kuchli vositadir.

Sentiment tahlilni 3 usul vositasida amalga oshirish mumkin:

1. **Lexicon-based** (leksikaga asoslangan sentiment tahlili);
2. **Machine learning-based** (mashina o‘rganishga asoslangan sentiment tahlili);
3. **Deep learning** (gibrid yondashuv). Ushbu tadqiqot leksikaga asoslangan va mashina o‘rganishga asoslangan yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlarini taqqoslaydi.

Adabiyotlar sharhi

N. Imanina Zabha va boshqalar (2019)[3] Twitter ma’lumotlari asosida leksikonga asoslangan usullar yordamida ko‘p tilli hissiy tahlilni o‘rgangan. Natijada esa klassifikator hissiyotlarni to‘g‘ri aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. A. Mitra va boshqalar (2020)[4] esa filmlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plamida leksikonga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda qaysi filmlar ommaga ko‘proq yoqishini aniqlashga harakat qilishgan. Bu tadqiqot kino prodyuserlari va teatr egalari uchun foydali hisoblanadi.

M.Sani va boshqalar (2022)[5] Hausa tilidagi tvitlarning hissiy holatini mashinani o‘qitish usullaridan foydalanib tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqotda machine learning-based va lexicon-based Hausa matnlarini tasniflashni qanday yaxshilashi mumkinligi o‘rganilgan.

M.S.Hajrahimova, M.I.Ismaylova va boshqalar (2021)[6] COVID-19 pandemiyasi davrida Twitter foydalanuvchilarining munosabatlarini machine learning yordamida tahlil qilishgan. Bu tadqiqotda pandemiya bilan bog‘liq tvitlarning hissiyotlari Supporty Vector Machine, Naive Bayes, Random Forest va Neural Network neyron tarmoqlari yordamida baholangan. Bunda Random Forest klassifikatori 79.37% aniqlik bilan eng yaxshi natijani ko‘rsatgan.

N.M.Sham, A.Mohamed va boshqalar (2022)[7] iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq tvitlarning hissiy tahlilini o‘rganishgan. Ular yettita leksikonga asoslangan usul, uchta mashina o‘qitish usulini va gibrid algoritmlarni solishtirganlar. Eng samarali usul sifatida 75.3 % natija bilan gibrid yondashuv F1-Score bo‘yicha aniqlangan. Lemmatizatsiya mashina o‘qitish va gibrid usullarni 1.6% ga oshirgan. Shuningdek, T.Islam, Md.Alif Sheakh va boshqalar (2024)[8] turli tadqiqotlarda ishlatilgan yondashuvlarni taqqoslab, ulardan eng maqbuli sifatida LSTM modelining 98% aniqlik darajasiga ega ekanligini isbotladi.

2-jadval. Qisqa matnlar bilan bog‘liq mavjud ishlarga taqqoslama jadvali

Manba	Hissa	Ma’lumotlar to‘plami	Algoritmlar	Eng yaxshi aniqlik
Ushbu ish	Twitter sentiment analizida leksikon va chuqur o‘rganish yondashuvlarini solishtirish	1,6 million tvitdan iborat **Sentiment140** to‘plami	Leksikon asosidagi yondashuv va **Long Short-Term Memory (LSTM)**	**98% (LSTM)**
[11]	Hausa tilidagi Twitter sentiment analizini mashinani o‘rganish va leksikon usullari yordamida o‘rganish	**BBC Hausa Twitter API**	**Logistic Regression**, **Multinomial Naive Bayes (MNB)** + Count Vectorizer va TF-IDF	**86% (LR)**
[12]	Haqiqiy vaqt rejimidagi sentiment analizini SVM, K-SVM va MNB yordamida amalga oshirish	**Twitter ma’lumotlari** va bahsli hududlar yangilik saytlari	**Support Vector Machine (SVM)**, **Kernel SVM (K-SVM)**, **Multinomial Naive Bayes**	**80% (K-SVM)**
[13]	Sentiment analiz uchun leksikon va mashinani o‘rganish usullarini solishtirish	**TF-IDF**	**Logistic Regression**, **Support Vector Machine (SVM)**, **AFINN**, **Vader lexicon**	**96.3% (SVM)**
[15]	Twitter foydalanuvchilarining COVID-19 bo‘yicha munosabatlarini mashinani o‘rganish yordamida tahlil qilish	**Kaggle'dagi COVID-19 tvitlari**	**Naive Bayes**, **Random Forest**, **SVM**, **Neural Network**	**79.37% (Random Forest)**
[17]	Hindistondagi COVID-19 va vaksina bo‘yicha tvitlarni chuqur o‘rganish va leksikon yordamida tahlil qilish	**COVID-19 va vaksina tvitlari (Hindiston)**	**Recurrent Neural Network (RNN)** + **Bi-LSTM va GRU texnikalari**	**93.03% (GRU)**

Chuqur o‘rganish asosidagi usullar, ayniqsa, LSTM-ga asoslangan modellar, matn ketma-ketliklaridagi kontekstual ma’lumotlarni va bog‘liqliklarni olishda sezilarli salohiyatni ko‘rsatdi[9].

Lexicon-based yondashuvi

Leksikon asosidagi sentiment tahlili usuli, matndagi so‘zlarni va ifodalangan his-tuyg‘ularni tahlil qilish uchun oldindan tuzilgan lug‘atlar yoki leksikonlardan foydalanadi. Bu leksikonlarda har bir so‘zga tegishli bo‘lgan ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘u (polaritet) ko‘rsatilgan. Bu usulda, matndagi so‘zlar yoki iboralar tekshiriladi va ular leksikonda mavjud bo‘lgan his-tuyg‘u polariteti bilan solishtiriladi[10]. Leksikonga asoslangan yondashuv hissiy tahlil uchun oddiy va tushunarli mexanizmni taqdim etadi. Avvaldan belgilangan leksikondagi so‘zlarni hissiy polaritet bilan bog‘lash orqali, u matnning hissiyotini ijobiy yoki salbiy iboralar mavjudligiga asoslanib tezda tasniflaydi [11]. Biroq, leksikonlar kontekstga bog‘liq kayfiyat, ironiyani yoki jargonni ushlay olmaydi, bu esa xato natijalarga olib kelishi mumkin.

Leksikonga asoslangan yondashuvda hissiyotni bildiruvchi so‘z yoki iboralar oldindan lug‘at holida shakllantirilgan bo‘ladi. Ushbu lug‘at orqali sentiment tahlilning ijobiy yoki salbiy ekanligi ishonchli tahlil qilinadi. Matnning hissiy yo‘nalishini aniqlash uchun leksikon hujjat bilan taqqoslanadi va undagi ijobiy va salbiy so‘zlarning soni aniqlanadi. Keyin esa quyidagi formula yordamida matnning hissiy yo‘nalishi belgilanadi [12]:

$$x1\ (s) = 1 \text{ if sum } (1,s) > 0 \qquad (1)$$

$$x1\ (s) = 0 \text{ if sum } (1,s) = 0 \qquad (2)$$

$$x1\ (s) = -1 \text{ if sum } (1,s) < 0 \qquad (3)$$

Bu yerda sum (1,s) – hujjatda topilgan ijobiy va salbiy hissiyotga ega so‘zlarning umumiy farqini ifodalaydi. Agar ijobiy so‘zlar soni salbiy so‘zlardan ko‘p bo‘lsa natija x1 (s) = 1 (matn ijobiy), agar ijobiy va salbiy so‘zlar teng bo‘lsa x1 (s) = 0 (matn neytral), agar salbiy so‘zlar soni ijobiylardan ko‘p bo‘lsa x1 (s) = -1(matn salbiy) deb qaraladi. Leksikonlarni kengaytirish uchun sinonimlar, WordNet, SenticNet, emojilardan foydalanish mumkin. Sentiment tahlilni amalga oshiruvchi leksikon lug‘atlar 3 usul orqali yaratiladi[13,14]:

a) *qo‘lda yondashuv:* bunda hissiyotni ifodalovchi so‘zlar shaxsiy bilim va va til tushunchasi orqali qo‘lda tuziladi. Bu juda ko‘p vaqt talab qiladi va insonning til bo‘yicha bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, ushbu yondashuv

avtomatlashtirilgan usullar bilan birlashtiriladi, chunki bular ba’zi xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin.

b) *lug‘at asosidagi yondashuv:* hissiyotni bildiruvchi so‘zlar turli lug‘aviy manbalardan yig‘iladi, onlayn lug‘at va leksikografik resurslardan foydalanadi, sinonim, antonimlar orqali yangi hissiy so‘zlar aniqlanadi[15].

c) *Korpus asosidagi yondashuv:* bunda so‘zlarning gap ichidagi o‘rni so‘zlar o‘rtasidagi munosabati va birga ishlatilish chastotasini tahlil qilish orqali hissiy so‘zlarni aniqlaydi[16].

Lexicon-based usulning afzalliklari

- Oddiy: leksikonga asoslangan algoritmlar murakkab machine learning-based usuliga qaraganda kam resurs talab qiladi.
- Tezkor: hissiy yo‘nalishni ifodalovchi so‘z yoki iboralar oldindan mavjudligi sababli natijalar juda tez chiqadi.
- Yaxshi natija beradi: agar lug‘at yetarlicha boy bo‘lsa, sentimentni aniqlash natijalari ancha aniq bo‘ladi.
- Turli usullar bilan kengaytirish mumkin: lug‘at WordNet, SenticNet, emoji va sinonimlar bilan kengaytirilishi mumkin.

Lexicon-based usulining kamchiliklari

- Ironiya va sarkazmni tushunmaydi: masalan, *“Xizmat ko‘rsatishga gap bo‘lishi mumkinmas, 4 soat kutdim!”* kabi iboralarni noto‘g‘ri tushunishi mumkin.
- Til bilan bog‘liq muammo: har bir til uchun alohida sentiment lug‘ati bo‘lishi shart.
- Kontekstni tushunmaydi: masalan, *“Havo juda sovuq, bu yomon”,* degan gapning hissiyotini aniq tushunmaydi.

Leksikon asosidagi yondashuv juda oddiy, samarali va tushunarli hisoblanadi. Bunda mashina o‘rganish talab qilinmaydi. Lekin bu usulda so‘zning kontekstda anglatayotgan ma’nosi turlicha bo‘lishi hisobga olinmaydi. Masalan, *yaxshi* va *yaxshi emas* so‘zini ijobiy deb tahlil qilishi mumkin. Shuningdek, biror mahsulotga baho berishda qo‘shtirnoq ichida teskari ma’no anglatuvchi birikma yoki gaplar ham noto‘g‘ri tahlil qilinishi mumkin: *“Gap bo‘lishi mumkin emas”* – bu, umuman, yaxshi yoki juda yomon ma’nolarida ham ishlatiladi.

Machine learning-based yondashuvi

Bu yondashuv mashina o‘rganishga asoslangan usul bo‘lib, sentiment tahlilda katta hajmdagi ijtimoiy tarmoq postlari, mahsulot sharhlari va xabarlar

ustida ishlashda samarali hisoblanadi. Bu usul kompyuter tizimlariga aniq dasturlashtirishsiz o‘z tajribasi aosida o‘rganish va qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ikki asosiy turga bo‘linadi[17]:

1. **Nazoratli o‘rganish** – oldindan belgilangan toifalarga ega bo‘lgan matn ma’lumotlari asosida modelni o‘rgatish usulidir. Uning afzalligi yuqori aniqlik bilan yaxshi ishlash imkoniyatiga ega. Taqdim etilgan sohaga mos ravishda optimallashtirish mumkin. Kamchiligi esa ko‘p miqdordagi belgilangan o‘quv ma’lumotlari talab qiladi, yangi yoki kontekstga bog‘liq so‘zlarni tushunmasligi mumkin.
2. **Nazoratsiz o‘rganish** – avvaldan belgilangan ma’lumotlarga tayanmagan holda sentimentni aniqlaydi. Afzalligi annotatsiyalangan ma’lumotlarni talab qilmaydi. Yangi yoki noma’lum mustaqil so‘zlarning hissiy belgisini mustaqil o‘rganishi mumkin. Kamchiligi esa natijalarni oldindan bashorat qilganligi sababli aniqlik kamroq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ba’zi adabiyotlarda *mustahkamlovchi o‘rganish* turi haqida ham so‘z boradi. Mustahkamlovchi o‘rganishda mukofot va jazolar asosida aniq bir qaror qabul qilishni o‘rganadi. U tahlil natijasida mukofot yoki jazo olib, o‘z strategiyasini yaxshilaydi.

ML yondashuvining afzalliklari:

- Yuqori aniqlikka ega (katta hajmdagi ma’lumotlarga moslashib mustaqil qaror qabul qiladi);
- So‘zlarning kontekstda anglatayotgan ma’nosini tushuna olish qobiliyatiga ega;
- Mashina o‘rgangan sari chiqargan natijalarini o‘zgartirib, sifatini oshirib boradi.

ML yondashuvining kamchiliklari:

- Katta hajmdagi yorliqlangan ma’lumotlar talab qiladi;
- Tahlil qilish jarayoni ko‘p vaqt talab qilishi mumkin;
- Ma’lumotlar tili yoki hissiy bahosi o‘zgarganda model moslashishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Mashina o‘rganish usuli bugungi kunda sun’iy intellekt, tibbiyot, moliya, transport, marketing kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda.

Chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuv (gibrid)

Islam T., Sheakh Md.A., Sadik Md.R., Tahosin Mst.S., Foysal Md.M.R., Ferdush J. va M. Begumlar leksikonga asoslangan va chuqur o‘rganishga asoslangan

yondashuvlarni taqqoslashgan (2024)[8]. Ushbu tadqiqotda ikki mashhur yondashuv – leksikon asosidagi va chuqur o‘rganish asosidagi yondashuvlarni 1,5 milliondan ortiq ma’lumotga ega **sentiment140** deb nomlangan Twitter datasetidan foydalanib taqqoslashgan. Asosiy e’tiborni chuqur o‘rganishning ketma-ketlik modeli – *Long Short-Term Memory (LSTM)* ga qaratadilar. Ushbu tadqiqot natijasida leksikon asosidagi yondashuv 95% aniqlikka, chuqur o‘rganish algoritmlari model 98% aniqlikka ega ekanligini aniqlashgan. Shuningdek, Alaa Thamer Mahmood, Siti Sakira Kamaruddin va boshqalar (2020)[18] leksikonga asoslangan yondashuv va mashina o‘rganishga asoslangan yondashuvni birlashtirib Facebook izohlarida sentiment tahlilni amalga oshirdilar.



3-rasm. Gibrid yondashuv asosidagi sentiment tahlil

Bunda UUM Facebook sahifasidan izohlar olinadi.

1. Mashina o‘rganish yondashuvi:

- izohlarga ijobiy yoki salbiy yorliqlari qo‘shiladi;
- yorliqlangan ma’lumotlar mashina o‘rganish modeli uchun o‘quv ma’lumoti sifatida ishlatiladi;
- NB va SVM algoritmlari yordamida 10 marta o‘qitiladi;
- 1-natija tayyor bo‘ladi.

2. Leksikonga asoslangan yondashuv:

- Facebook izohlari WordNet lug‘atidan foydalanib baholanadi;
- lug‘at asosida har bir so‘z uchun sentiment aniqlanadi;
- bu ma’lumotlar yorliqlangan shaklda saqlanadi va mashina o‘rganish model uchun ma’lumot sifatida ishlatiladi;
- mashina o‘rganish yondashuvi qayta ishlanib 10 marta qayta tekshirilib o‘qitiladi;
- ushbu yondashuv bo‘yicha 2-natija hosil bo‘ladi.

3. Gibrid yondashuv:

- leksikonga asoslangan yondashuvdan olingan natijalar mashina o‘rganish modeli bilan birlashtiriladi;
- birlashtirilgach 3-natija hosil bo‘ladi.

4. Natijalarni taqqoslash:

- 1-natija, 2-natija va 3-natija o‘zaro taqqoslanib, qaysi yondashuv eng aniq sentiment tahlilini amalga oshirgani baholanadi [19].

Xulosa

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda insonlar tomonidan bildirilayotgan fikrlar va sharhlar katta hajmli bo‘lib, bu ma’lumotlarni inson omili vositasida hissiy tahlil qilish juda ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. Ushbu ma’lumotlarning sentimentini aniqlash uchun sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil usullari tobora keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilida ham sentiment tahlili bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. S.Allanazarova, D.Elova (2024)[20] sentiment tahlil uchun matndagi valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan holatlarni aniqlaganlar. Ilyos Rabbimov (2021)[21] boshchiligidagi bir guruh izlanuvchilar o‘zbek filmlariga qoldirilgan sharhlarni emojilar asosida o‘rganishgan. Ushbu tadqiqotda esa sentiment tahlilni amalga oshirish uchun eng mashhur ikki yondashuv tahlil qilindi. Har ikkala usul afzallik va kamchiliklarga ega. Faqat bitta usulga tayanish sentiment tahlil uchun yetarli emas, chunki har bir yondashuvning cheklovlari mavjud. Leksikonga asoslangan yondashuvni mashina o‘rganish modeli bilan birlashtirish sentimentlarni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Verma, B., & Thakur, R. S. (2018). Sentiment analysis using lexicon and machine learning-based approaches: A survey. In *Proceedings of International Conference on Recent Advancement on Computer and Communication: ICRAC 2017* (pp. 441-447). Springer Singapore.
2. Verma, B., & Thakur, R. S. (2018). Sentiment analysis using lexicon and machine learning-based approaches: A survey. In *Proceedings of International Conference on Recent Advancement on Computer and Communication: ICRAC 2017* (pp. 441-447). Springer Singapore.
3. Zabha, N. I., Ayop, Z., Anawar, S., Hamid, E., & Abidin, Z. Z. (2019). Developing cross-lingual sentiment analysis of Malay Twitter data using lexicon-based approach. *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, *10*(1).
4. Mitra, A., & Mohanty, S. (2020). Sentiment analysis using machine learning approaches. *Emerging Technologies in Data Mining and Information Security: Proceedings of IEMIS*, *2*, 63-68.
5. Sani, M., Ahmad, A., & Abdulazeez, H. S. (2022). Sentiment analysis of Hausa language tweet using machine learning approach. *Journal of Research in Applied Mathematics*, *8*(9), 07-16.
6. Hajrahimova, M. S., & Ismaylova, M. I. (2021). Machine learning-based sentiment analysis of Twitter data.
7. Sham, N. M., & Mohamed, A. (2022). Climate change sentiment analysis using lexicon, machine learning and hybrid approaches. *Sustainability*, *14*(8), 4723.
8. Islam, T., Sheakh, M. A., Sadik, M. R., Tahosin, M. S., Foysal, M. M. R., Ferdush, J., & Begum, M. (2024). Lexicon and deep learning-based approaches in sentiment analysis on short texts. *Journal of Computer and Communications*, *12*(1), 11-34.
9. Bhowmik, N. R., Arifuzzaman, M., & Mondal, M. R. H. (2022). Sentiment analysis on Bangla text using extended lexicon dictionary and deep learning algorithms. *Array*, *13*, 100123.
10. Catelli, R., Pelosi, S., & Esposito, M. (2022). Lexicon-based vs. Bert-based sentiment analysis: A comparative study in Italian. *Electronics*, *11*(3), 374.
11. Birjali, M., Kasri, M., & Beni-Hssane, A. (2021). A comprehensive survey on sentiment analysis: Approaches, challenges and trends. *Knowledge-Based Systems*, *226*, 107134.
12. Hota, H. S., Dinesh K. Sharma, and Nilesh Verma. "Lexicon-based sentiment analysis using Twitter data: a case of COVID-19 outbreak in India and abroad." *Data science for COVID-19*. Academic Press, 2021. 275-295.

13. Medhat, W., Hassan, A., & Korashy, H. (2014). Sentiment analysis algorithms and applications: A survey. Ain Shams engineering journal, *5*(4), 1093-1113.

14. Khan, A., Baharudin, B., Lee, L. H., & Khan, K. (2010). A review of machine learning algorithms for text-documents classification. Journal of advances in information technology, *1*(1), 4-20.

15. Hardeniya, T., & Borikar, D. A. (2016). Dictionary based approach to sentiment analysis-a review. International Journal of Advanced Engineering, Management and Science, *2*(5), 239438.

16. Ye, Q., Zhang, Z., & Law, R. (2009). Sentiment classification of online reviews to travel destinations by supervised machine learning approaches. *Expert systems with applications*, *36*(3), 6527-6535.

17. Zhang, H., Gan, W., & Jiang, B. (2014, September). Machine learning and lexicon based methods for sentiment classification: A survey. In *2014 11th web information system and application conference* (pp. 262-265). IEEE.

18. Mahmood, A. T., Kamaruddin, S. S., Naser, R. K., & Nadzir, M. M. (2020). A combination of lexicon and machine learning approaches for sentiment analysis on Facebook. *Journal of System and Management Sciences*.

19. Surroop, K., Canoo, K., & Pudaruth, S. (2016). A Novel Position-based Sentiment Classification Algorithm for Facebook Comments. *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, *7*(10).

20. Allanazarova, S. (2024). SENTIMENT TAHLIL UCHUN MATNDAN VALENTLIK, HISSIYOT VA BOSHQA TA’SIRCHAN HOLATLARNI ANIQLASH. *Uzbekistan language and culture*, *2*(02).

21. Allanazarova, S. (2021). Jamoatchilik fikrini organish yoki sentiment tahlil. *Computer linguistics: problems, solutions, prospects*, *1*(1).

22. B.Elov, Sh.Hamroyeva, O.Abdullayeva, M.Uzoqova. O‘zbek tilida pos tegging masalasi: muammo va takliflar. O`zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(4). 45-63 b.

SENTIMENT TAHLILI UCHUN O‘RGATILGAN RESURLARI KAM TILLARDA MA’LUMOTLAR OMBORINI TUZISH

Allanazarova Saboxat Yusupboyevna,
Tayanch doktorant
allanazarova.sabosh@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Kam resursli tillar uchun sentiment tahlili tizimlarini rivojlantirish tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi dolzarb muammolardan biridir. Ushbu maqolada kam resursli tillarda, xususan, o‘zbek tilida sentiment tahlili uchun lingvistik ta’minot yaratish jarayoni tahlil qilinadi. Leksik-semantik lug‘atlar, belgilangan korpuslar va annotatsiya usullarini ishlab chiqish, so‘z va iboralarning polaritesini aniqlash hamda ularni avtomatlashtirilgan tahlil tizimlariga integratsiya qilish usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda o‘zbek tilining morfologik va sintaktik o‘ziga xosliklari hisobga olinib, mavjud xalqaro sentiment resurslari bilan taqqoslash amalga oshiriladi. Shuningdek, kam resursli tillar uchun lingvistik ta’minotni yaratishning asosiy muammolari va ularni bartaraf etish strategiyalari muhokama qilinadi. Ushbu ish natijalari o‘zbek tili uchun sifatli sentiment tahlili tizimlarini yaratishga hissa qo‘shishi bilan birga, kam resursli tillar uchun NLP infratuzilmasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Annotation. The development of sentiment analysis systems for low-resource languages is one of the critical challenges in the field of Natural Language Processing (NLP). This paper explores the process of creating linguistic resources for sentiment analysis in low-resource languages, specifically in Uzbek. It examines the development of lexicosemantic dictionaries, annotated corpora, and annotation methods, as well as automated techniques for determining the polarity of words and phrases, followed by their integration into sentiment analysis systems. The research takes into account the morphological and syntactic characteristics of the Uzbek language and compares it with existing international sentiment resources. Furthermore, the main challenges in creating linguistic resources for low-resource languages are discussed, along with strategies to overcome them. The findings of this study contribute to the development of high-quality sentiment analysis systems for the Uzbek language and support the advancement of NLP infrastructure for low-resource languages.

Аннотация. Развитие систем анализа сентимента для языков с ограниченными ресурсами является одной из актуальных проблем в области обработки естественного языка (NLP). В данной статье рассматривается процесс создания лингвистического обеспечения для анализа сентимента в языках с ограниченными ресурсами, в частности в узбекском языке. Исследуются методы разработки лексико-семантических словарей,

размеченных корпусов и аннотационных подходов, а также автоматизированные методы определения полярности слов и фраз с их последующей интеграцией в системы анализа сентимента. В работе учитываются морфологические и синтаксические особенности узбекского языка, проводится сравнительный анализ с международными сентиментными ресурсами. Кроме того, обсуждаются основные проблемы, возникающие при создании лингвистического обеспечения для языков с ограниченными ресурсами, а также предлагаются стратегии их преодоления. Полученные результаты способствуют созданию качественных систем анализа сентимента для узбекского языка, а также развитию NLP-инфраструктуры для языков с ограниченными ресурсами.

Kalit so‘zlar: *sentiment tahlili, kam resursli tillar, tabiiy tilni qayta ishlash, lingvistik resurslar, belgilangan korpus, leksik-semantik lug‘at, hissiy toifa, annotatsiya, NLP infratuzilmasi, avtomatlashtirilgan tahlil.*

1. KIRISH

So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi matnlarning avtomatlashtirilgan tahlilini keng qo‘llash imkonini bermoqda. Ushbu yo‘nalishlardan biri bo‘lgan sentiment tahlili matnlardagi ijobiy, salbiy yoki neytral kayfiyatni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar, sharhlar va boshqa matn manbalarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, sentiment tahlili tizimlarini yaratishda lingvistik resurslarning mavjudligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ingliz, xitoy va boshqa ko‘p resursli tillar uchun keng ko‘lamli leksik-semantik lug‘atlar, belgilangan korpuslar va annotatsiya qilingan ma’lumotlar bazasi mavjud bo‘lsa-da, kam resursli tillarda, jumladan, o‘zbek tilida bunday infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan.

Kam resursli tillar – tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va sun’iy intellekt tizimlari uchun yetarli darajada lingvistik resurslarga ega bo‘lmagan tillardir [1]. Ushbu tillarda belgilanadigan korpuslar, leksik-semantik lug‘atlar, annotatsiyalangan ma’lumotlar bazasi va yetarli miqdordagi o‘quv materiallari mavjud emasligi sababli, mashinani o‘rganish modellari samarali ishlashi qiyinlashadi. Kam resursli tillarga odatda rasmiy tillar sifatida kamroq qo‘llaniladigan yoki iqtisodiy va ilmiy sohalarda yetarli darajada raqamlashtirilmagan tillar kiradi.

Kam resursli tillarning xususiyatlari quyidagilarga qarab aniqlanadi:

Matn resurslarining cheklanganligi – onlayn va bosma manbalarda bunday tillarda ma’lumotlarning yetishmovchiligi.

Belgilanmagan korpuslar muammosi – annotatsiyalangan va belgilangan NLP ma’lumotlar bazasining yo‘qligi yoki juda kichik hajmda bo‘lishi.

Leksik va morfologik murakkablik – ayrim kam resursli tillar murakkab morfologiyaga ega bo‘lib, NLP modellarining samarali ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘p tilli NLP modellariga integratsiya qiyinligi – ko‘p hollarda bu tillar uchun maxsus NLP modellarining yo‘qligi sababli boshqa tillardan transfer o‘rganish usullari talab etiladi.

Masalan, o‘zbek tili NLP jamoatchiligi tomonidan kam resursli til sifatida baholanadi, chunki sentiment tahlili, mashinada tarjima va nutqni avtomatik tanib olish uchun katta hajmli va sifatli korpuslar yetarli emas. Ingliz, xitoy yoki nemis tillari bilan solishtirganda, o‘zbek tilida NLP modellarini o‘rgatish va qo‘llashda sezilarli qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli, kam resursli tillarda sentiment tahlili uchun lingvistik ta’minot yaratish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Kam resursli tillarda sentiment tahlilining samaradorligini oshirish uchun maxsus lingvistik resurslarni ishlab chiqish zarur. Bu jarayon o‘z ichiga leksik-semantik lug‘atlar yaratish, belgilangan korpuslar tayyorlash, polarite va hissiyot darajalarini aniqlash kabi muhim bosqichlarni oladi. O‘zbek tilining morfologik va sintaktik jihatdan boy va murakkab tuzilishi sentiment tahlilini yanada qiyinlashtiradi. Shunday ekan, ushbu tadqiqotda o‘zbek tili misolida kam resursli tillar uchun sentiment tahlili tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik ta’minotni yaratish masalasi yoritiladi.

2. Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yigirma yilda sentiment tahlili tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi va ushbu sohada turli nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, sentiment tahlili uchun maxsus leksik resurslar va tasniflovchi modellar ko‘plab yirik tillar, jumladan, ingliz, rus va turk tillari uchun ishlab chiqilgan. Biroq, kam resursli tillar, ayniqsa, agglutinativ tuzilishga ega bo‘lgan o‘zbek tili uchun bunday imkoniyatlar cheklangan bo‘lib, mavjud metod va resurslarning bevosita qo‘llanishi samarasiz bo‘lishi mumkin. Ayrim yondashuvlar sentiment lug‘atlarini tarjima qilish orqali foydalanishni taklif qiladi, ammo tillar orasidagi semantik, sintaktik va pragmatik tafovutlar natijasida bunday yondashuv yetarlicha aniqlikni ta’minlay olmaydi. Shu bois, har bir tilning morfologik va sintaktik o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda, maxsus sentiment lug‘atlari hamda tasniflash modellarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Rus tilida sentiment tahliliga oid tadqiqotlar lingvistik yondashuvlardan tortib, mashinani o‘rganish va chuqur neyron tarmoqlar asosidagi modellargacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda transformer modellar va kontekstga bog‘liq tahlil usullarining rivojlanishi sentimentni yanada aniqroq

aniqlashga imkoniyat yaratmoqda. O‘zbek tili uchun sentiment tahlili borasida esa hali ham yetarli tadqiqotlar mavjud emas, ammo so‘nggi yillarda ayrim ilmiy izlanishlar boshlangan.

D.B. Mengliyev boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi o‘zbek tilidagi sentiment tahlilini amalga oshirish uchun maxsus algoritm ishlab chiqib, har bir so‘z, ibora va frazeologizmlarga -3 dan +3 gacha bo‘lgan sentiment ballarini belgilash mexanizmini taklif etishadi[2]. Sinov natijalari ushbu algoritmning aniqligi 85–95% oralig‘ida ekanligini ko‘rsatgan, biroq tadqiqot davomida so‘z shakllarini yanada mukammal qayta ishlash va lug‘at bazasini kengaytirish zarurati aniqlangan.

E.Y. Akhmedov o‘z tadqiqotida sentiment tahlili jarayonida o‘zbek tilining leksik, grammatik va kontekstual xususiyatlarini hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi. Xususan, chuqur o‘rganish modellaridan—LSTM, CNN va mBERT kabi ilg‘or yondashuvlardan foydalanish o‘zbek tilidagi sentiment tahlilining samaradorligini oshirish imkonini berishi ko‘rsatilgan[3].

K. Niyozmetova tomonidan olib borilgan tadqiqotda Toshkent shahridagi restoranlarga oid Google Maps’dagi foydalanuvchilar fikrlari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar sentiment tasnifi uchun logistic regression modelidan foydalangan bo‘lib, oldindan qayta ishlash bosqichida stemming kabi agglutinativ tillar uchun muhim bo‘lgan usullarning samaradorligi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari sentiment tahlili xizmat sifatini baholashda va iste’molchi sadoqatini oshirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi[4].

S. Matlatipov tadqiqotida o‘zbek tilidagi restoran sharhlaridan iborat sentiment datasetini yaratish va tahlil qilish jarayoni yoritilgan. O‘zbek tilining kam resursga ega tillardan biri ekani inobatga olinib, logistic regression, support vector machines (SVM) hamda chuqur o‘rganish modellari (RNN, CNN) sinovdan o‘tkazilgan. Ma’lumotlarni yig‘ish, oldindan qayta ishlash va baholash bosqichlari batafsil tahlil qilingan bo‘lib, stemming kabi metodlarning qo‘llanilishi natijalarning yaxshilanishiga xizmat qilgan. Eng samarali model 91% aniqlikka erishgan[5].

E. Kuriyozov tadqiqotida o‘zbek tilida ko‘p-toifali yangiliklar tasnifi uchun dataset yaratish va modellarni baholash jarayoni o‘rganilgan. Shu maqsadda 10 ta yangilik saytidan ma’lumotlar yig‘ilib, 15 toifani qamrab oluvchi dataset shakllantirilgan. Sinov natijalariga ko‘ra, RNN va CNN qoidaga asoslangan usullarga nisbatan samaraliroq ekanligi kuzatilgan, eng yuqori natijalar esa BERTbek modelida qayd etilgan. Ushbu natijalar o‘zbek tilidagi matn tasniflash bo‘yicha tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin[6].

I. Rabbimovning tadqiqotida o‘zbek tilida ko‘p-toifali tasniflash amalga oshirilib, “Daryo” yangiliklar saytining 10 toifasiga tegishli dataset yaratilgan. Tadqiqotchilar SVM, DTC, RF, LR va MNB kabi mashinani o‘rganish modellaridan foydalanib, sentiment tasnifini amalga oshirishgan. Belgilar ajratishda TF-IDF va n-

gram metodlari qo‘llanilgan. 5-fold cross-validation orqali hiperparametrlar optimallashtirilgan va natijada 86.88% aniqlikka erishilgan. Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tasniflash uchun samarali usullarni ko‘rsatadi[7].

A. Yusufu va hamkor tadqiqotchilar guruhi kam resursli til sifatida o‘zbek tilida sentiment tahlilini o‘rganish maqsadida Google Play Store’dan 27,985 ta o‘zbekcha sharh yig‘ib, User Experience Honeycomb modelining olti asosiy komponenti bo‘yicha 43,712 jumlani annotatsiya qilishgan. Sentiment qutblanishini baholash uchun oldindan o‘qitilgan modellar hamda GCN asosida integratsiyalangan yondashuv ishlab chiqilgan. Multi-klassifikatsiya uchun F1 ko‘rsatkichida 0.30, binar tasniflash uchun esa 0.43 yaxshilanish kuzatilgan. Ushbu tadqiqot kam resursli tillarda foydalanuvchi tajribasini chuqur tahlil qilish uchun istiqbolli yondashuvlarni taqdim etadi[8].

Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida sentiment tahlilini rivojlantirish uchun lingvistik resurslarni kengaytirish, maxsus sentiment lug‘atlarini ishlab chiqish hamda chuqur o‘rganish modellarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish va NLP texnologiyalarini takomillashtirish kelajakda samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

3. Metodologiya

Kam resursli tillar uchun sentiment tahlili tizimini yaratishda lingvistik ta’minotning yetishmovchiligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilida sentiment tahlili uchun zarur bo‘lgan lingvistik resurslarni yaratish metodologiyasi ishlab chiqildi. Metodologiya uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: (1) belgilangan korpus yaratish va annotatsiyalash, (2) leksik-semantik lug‘at ishlab chiqish, (3) sentiment tahlili modellarini sinovdan o‘tkazish va baholash. Baholash yarim avtomatik tarzda amalga oshirildi.

Belgilangan korpus yaratish va annotatsiyalash

Belgilangan korpus sentiment tahlili modelini o‘rgatish va baholash uchun asosiy manba hisoblanadi. O‘zbek tilida bunday korpuslarning mavjud emasligi sababli, qo‘lda annotatsiyalash va yarim-avtomatlashtirilgan yondashuvlardan foydalanish zarur. Annotatsiya jarayonida quyidagi xalqaro amaliy tajribalar tahlil qilindi:

- **SentiWordNet** (Esuli & Sebastiani, 2006)
- **SenticNet** (Cambria va boshqalar, 2012)

SentiWordNet, SenticNet score lari kiritildi. Bularni hammasidan foydalanib SentiUzNet lingvistik ta’minoti uchun pos, neg, obj score lari mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida qo‘yildi.

O‘zbek tili uchun belgilangan korpus yaratishda ushbu ishlardan ilhomlanib, **ijtimoiy tarmoqlar (Twitter, Facebook), yangiliklar portallari (Kun.uz, Daryo.uz) va blog postlari** kabi turli manbalardan matnlar yig‘ildi. Tanlangan matnlar qo‘lda annotatsiyalanib, ijobiy, salbiy va betaraf toifalarga ajratildi. 5 nafar annotatorlar o‘rtasidagi kelishuv darajasini baholash uchun Cohen’s Kappa koeffitsienti (Cohen, 1960) ishlatildi. Belgilangan Cohen's kappa toifalar mosligi 0.79 ni ko‘rsatdi.

Leksik-semantik lug‘at ishlab chiqish

Leksik-semantik lug‘atlar sentiment tahlilining muhim komponenti hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘zbek tilida foydalanish mumkin bo‘lgan lug‘at yaratish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Tarjima asosida lug‘at yaratish: SentiTurkNet lug‘atidagi fizika, kimyo, tibbiyot sohalariga oid 500 dan ortiq terminlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi va ularning polaritesi lingvist mutaxassislar tomonidan tekshirildi.



1- rasm. Tarjimaga asoslangan usulning bosqichlari.

O‘zbek tili uchun ishlab chiqilgan sentiment lug‘at ingliz (SentiWordNet), (SenticNet) har bir tillar orasidagi hissiy tasniflash farqlari statistik tahlil qilindi.

NATIJALAR

Har bir so‘z, sinset, gloss uchun PosPMI, NegPMI hisoblab chiqildi. Bunda o‘zbek tilidagi barcha sentimental tahlil datasetlaridan foydalanildi, jami 384 mingta sharh (review) yordamida hisoblandi.





O‘zbek tilida sentiment tahlilini baholash natijalari boshqa tillar uchun erishilgan natijalar bilan taqqoslandi. Masalan, O‘zbek tili uchun ishlab chiqilgan sentiment lug‘at ingliz tilidagi (SentiWordNet), (SenticNet) lug‘atlari orasidagi hissiy tasniflash farqlari statistik tahlil qilindi. Jami 11 ta ML algoritmi ishlatilgan bo’lib, 71-91% aniqlik ko‘rsatgan.

Model	Accuracy	Precision	Recall	F-Measure	Training Time (s)	Test Time (s)
Random Forest	0,9141	0,9137	0,9141	0,9139	1,5148	0,0090
XGBoost	0,9141	0,9137	0,9141	0,9138	0,9549	0,0060
LightGBM	0,9094	0,9089	0,9094	0,9091	0,8835	0,0040
Stacking Classifier	0,9094	0,9088	0,9094	0,9090	12,8707	0,1130
Logistic Regression	0,8951	0,8950	0,8951	0,8949	0,2822	0,0000
Linear Discriminant Analysis	0,8871	0,8864	0,8871	0,8865	0,0269	0,0010
Naive Bayes	0,8808	0,8853	0,8808	0,8811	0,0170	0,0010
Neural Network	0,8776	0,8787	0,8776	0,8779	3,2221	0,0010
SVM (SMO)	0,8760	0,8798	0,8760	0,8730	2,8455	0,0660
Decision Tree	0,8665	0,8659	0,8665	0,8650	0,0840	0,0010
K-Nearest Neighbors	0,7059	0,7042	0,7059	0,7022	0,1912	0,0191

Xulosa

Ushbu tadqiqot kam resursli tillar, xususan, o‘zbek tili uchun sentiment tahlili tizimlarini rivojlantirishning asosiy jihatlarini yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sentiment tahlili uchun maxsus leksik-semantik lug‘atlar, belgilangan korpuslar va avtomatlashtirilgan annotatsiya tizimlari zarur. O‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi va murakkab morfologiyasi mavjud modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashda qiyinchiliklar tug‘dirishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa kam resursli tillar uchun ham NLP infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joshi, P., Santy, S., Budhiraja, A., Bali, K., & Choudhury, M. (2020). The State and Fate of Linguistic Diversity and Inclusion in the NLP World. *Proceedings of ACL*, 93-103. https://doi.org/10.18653/v1/2020.acl-main.560
2. Mengliev, D.B., Abdurakhmonova, N.Z., Barakhnin, V.B., Vasliddinova, K., Rahimov, H., & Djalolova, K. (2024). Enhancing Sentiment Analysis in Uzbek Language Texts through Weighted Lexical Features. 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), 2450-2453.
3. Akhmedov, E.Y., Palchunov, D.E., Khaitboeva, D.Z., Ibragimov, M.F., Sultanov, O.R., & Rakhimova, L.S. (2024). Sentiment Analysis in Uzbek Language Texts: a Study Using Neural Networks and Algorithms. 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), 2460-2464.
4. Kumushoy, N., Farogat, Y., & Ogabek, S. (2024). Sentiment Analysis In Uzbek Texts In The Restaurant Field. *2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE)*, 1470-1473.
5. Matlatipov, S., Rahimboeva, H., Rajabov, J., & Kuriyozov, E. (2022). Uzbek Sentiment Analysis Based on Local Restaurant Reviews. *ALTNLP*.
6. Kuriyozov, E., Salaev, U., Matlatipov, S., & Matlatipov, G. (2023). Text classification dataset and analysis for Uzbek language. *ArXiv, abs/2302.14494*.

7. Rabbimov, I., Kobilov, S.S., & Mporas, I. (2021). Opinion Classification via Word and Emoji Embedding Models with LSTM. *International Conference on Speech and Computer*.

8. **Yusufu, A., Ainiwaer, A., Li, B., Li, F., Yusufu, A., & Ji, H.** (2025). *Analysis of user experience in low-resource languages: A case study of the Uzbek language Google Play reviews*. **Information Processing and Management, 62**, 104015. https://doi.org/10.1016/j.ipm.2024.104015

9. **Cohen, J.** (1960). A coefficient of agreement for nominal scales. *Educational and Psychological Measurement, 20*(1), 37–46. https://doi.org/10.1177/001316446002000104

10. Esuli, A., & Sebastiani, F. (2006). SentiWordNet: A publicly available lexical resource for opinion mining. *Proceedings of LREC*, 417–422.

11. Cambria, E., Havasi, C., & Hussain, A. (2012). SenticNet 2. In *Proc. AAAI IFAI RSC-12*.

SENTIMENT TAHLILI VA UNING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Malika Suyunova Odil qizi,
Tayanch doktarant
malikasuyunova0@gamil.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqola kompyuter lingvistikasi sohasining bir yo‘nalishi bo‘lgan sentiment tahlili va uning jahon tilshunosligida o‘rganilishi masalalarini o‘rganadi. Kompyuter lingvistikasi inson tilini kompyuterlar yordamida tushunish va ishlov berishga qaratilgan ilmiy soha bo‘lib, sentiment tahlilining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Matndagi hissiy holatlarni aniqlash va ularni tasniflash orqali ko‘plab amaliy sohalarda, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, mijozlar sharhlari va boshqa matnlar ustida tahlil qilish mumkin. Maqolada sentiment tahlilining asosiy usullari va metodlari, shuningdek, bu tahlilning tilshunoslikda o‘rganilishiga oid yondashuvlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Bunda, tilning semantik xususiyatlari, kontekstual tahlil, va kross-til tadqiqotlarining muhimligi ta’kidlanadi.

Annotation. This article examines the issues of sentiment analysis, which is a branch of computational linguistics, and its study in the context of world linguistics. Computational linguistics is a scientific field focused on understanding and processing human language with the help of computers, and the importance of sentiment analysis is growing day by day. By detecting and classifying emotional states in text, it is possible to analyze various practical areas, including social networks, customer reviews, and other texts. The article provides detailed information on the main methods and techniques of sentiment analysis, as well as approaches to its study in linguistics. It emphasizes the importance of the semantic characteristics of language, contextual analysis, and cross-lingual research.

Аннотация. Эта статья изучает вопросы компьютерной лингвистики, связанные с анализом сентимента и его исследованием в контексте мировой лингвистики. Компьютерная лингвистика — это научная область, направленная на понимание и обработку человеческого языка с помощью компьютеров, и значение анализа сентимента с каждым днем растет. Определение эмоционального состояния в тексте и его классификация позволяют проводить анализ в различных практических областях, включая социальные сети, отзывы клиентов и другие тексты. В статье представлены основные методы и подходы анализа сентимента, а также подходы к его исследованию в лингвистике. В частности, подчеркивается важность

семантических характеристик языка, контекстуального анализа и кросс-языковых исследований.

Kalit so‘zlar: *sentiment tahlil, tilga ishlov berish, emotsional tahlil, natural language processing (NLP), kross-til tadqiqotlari, semantika, tilshunoslik, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, grammatik tahlil.*

Kirish.

Bugungi kunda axborot texnologiyalariga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Dunyodagi barcha sohalarni, korxona va firmalarni kompyuter texnologiyalari qamrab oldi. Texnologiyalar rivojlangani sari ishlab chiqarish mahsulotlarni, xizmatlarni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib etish orqali raqobat ham kuchayib bormoqda. Mahsulotga bo‘lgan talabning ko‘payishi yoki pasayishi ijtimoiy tarmoqlarda unga berilgan fikrlarning ijobiy yoki salbiy ekanligiga bog‘liq bo‘lmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi mahsulotlar va xizmatlarga berilgan fikr-mulohazalarning oqimi nihoyatda kuchayib bormoqda. Bu esa har bir bildirilgan fikrni ijobiy, salbiy yoki neytral ekanligini aniqlashda ko‘p ishchi kuchini talab qiladi. Inson omili bu darajadagi katta ma’lumotni bir kunda yoki bir necha kunda tahlil qila olmaydi. Vaholanki, har soatda ma’lumotlar, sharhlar soni ko‘payib boradi. Shu va shunga o‘xshash til bilan bog‘liq masalalarni kompyuter modellari yordamida hal qilish tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida dolzarb masalardan biri bo‘lib turibdi. Ma’lum bir mahsulot, xizmat yoki brendga inson tomonidan bildirilgan his-tuyg‘ularini tahlil qilish sentiment tahlil deyiladi. Bu tabiiy tilni qayta ishlashning eng faol tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Sentiment tahlili matndagi hissiy holatlarni aniqlash va kompyuter lingvistikasi sohasida muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu metod yordamida matnlarda ifodalangan musbat, salbiy yoki neytral hissiyotlar aniqlanadi va shu asosda turli sohalarda, jumladan, mijozlar sharhlari, ijtimoiy tarmoqlar, reklama materiallari va boshqa matnlar bo‘yicha tahlillar o‘tkaziladi. Sentiment tahlilining o‘rganilishi jahon tilshunosligida ham keng tarqalgan va bu sohada olib borilgan izlanishlar nafaqat tahlil metodlarini, balki tilning semantik, sintaktik va kontekstual xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi [1].

Sentiment tahlilining asosiy maqsadi – matnning yoki so‘zning emotsional holatini aniqlashdir. Masalan, biror mijozning mahsulotga yozgan sharhi, ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi. Sentiment tahlilida kompyuter lingvistikasi texnologiyalaridan foydalanib, matndagi so‘zlarning o‘rni, grammatik tuzilishi, va ularning ma’nosi tahlil qilinadi [2].

Sentiment tahlili asosan uchta asosiy kategoriyaga ajratiladi:

1. Ijobiy: Matn yoki so‘zning mohiyati yaxshi yoki ijobiy hissiyotini bildiradi.
2. Salbiy: Matn yoki so‘z salbiy yoki norozilikni ifodalaydi.

3. Neytrallik: Matn yoki so‘zning hissiy mazmuni aniq ko‘rsatilmagan yoki neytral holatda qoladi.

Bu tahlilni amalga oshirish uchun turli metodlar qo‘llaniladi:

- So‘zga asoslangan tahlil: Bu usulda har bir so‘zning hissiy qiyofasi (ijobiy yoki salbiy) aniqlanadi.
- Fraza va kontekstga asoslangan tahlil: Matnni to‘liq tahlil qilishda so‘zlar o‘rtasidagi kontekst va grammatik tuzilish hisobga olinadi.
- Mashina o‘qish texnologiyalari: Sun'iy intellekt va chuqur o‘qish (deep learning) metodlari yordamida sentiment tahlilining aniqligi va samaradorligi oshiriladi.

Tilshunoslar turli tillarda so‘zlarning semantik (ma’no) jihatlarini tahlil qilishadi. Sentiment tahlili uchun bu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish muhimdir, chunki har bir til o‘ziga xos grammatik va leksik xususiyatlarga ega. Har bir tilning semantik va leksik tizimi turlicha bo‘lgani uchun, sentiment tahlilining translingvistik (tillararo) tadqiqotlari jahon tilshunosligida katta ahamiyatga ega. Tilshunoslar bir nechta tillarda ijobiy va salbiy so‘zlarni qanday aniqlashni va bu so‘zlarning madaniy kontekstda qanday o‘zgarishini o‘rganadilar. Sentiment tahlili, ayniqsa, tillar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lsa, faqat so‘zlarga qarab bajarilsa, xato natijalar berishi mumkin. Shuning uchun, jahon tilshunosligida matnni butunlay tahlil qilishga e’tibor qaratiladi, chunki so‘zlarning ma’nosi ularning konteksti, tuzilishi va madaniy xususiyatlariga bog‘liqdir. Sentiment tahlili nafaqat til strukturasini, balki muallifning niyati, uning madaniy va sotsiologik kontekstini ham o‘rganadi [3]. Tilshunoslar, shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda yoki onlayn platformalarda yuzaga kelgan hissiy tahlillarni qanchalik aniq va ishonchli qilish mumkinligini o‘rganadilar. Kompyuter lingvistikasi sohasida sentiment tahlilining o‘rganilishi tilshunoslik va kompyuter fanlari o‘rtasidagi muhim ko‘prikni tashkil qiladi. Bu soha tilning tabiiy tuzilishini kompyuter yordamida tahlil qilish, matnlar orasidagi hissiy holatlarni aniqlash va xalqaro o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi. Jahon tilshunosligi uchun sentiment tahlili o‘zaro tilshunoslik tadqiqotlari, madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatlarini yaratib, tilning emotsional va kontekstual omillarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotning ahamiyati. Ushbu tadqiqot kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlili sohalaridagi ilmiy izlanishlar va amaliy qo‘llanilishini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Bugungi kunda texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi bilan birga, sentiment tahlilining imkoniyatlari kengayib, uning tahliliy va ilmiy jihatlari ham yuksalmoqda. Kompyuter lingvistikasi yordamida matnlarni tahlil qilish, hissiy holatlarni aniqlash va ularni tasniflash jarayonlari turli sohalarda, jumladan, marketing, ijtimoiy tarmoqlar, mijozlar fikrini o‘rganish va mahsulotlar haqida mulohazalar olishda keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u sentiment tahlilining jahon tilshunosligida qanday o‘rganilayotganini va tilning

semantik va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda bu tahlilning rolini ko‘rsatadi. Tilshunoslik va kompyuter fanlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurlashtirish va kross-til tadqiqotlarini rivojlantirish, zamonaviy tilshunoslik va tilni ishlov berish texnologiyalarining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sentiment tahlilining turli tillarda va madaniy kontekstlarda qanday farq qilishi va uning ilmiy va amaliy sohalarga ta’siri tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

Bugungi kunda o‘zbek tilidagi matnlarni sentiment tahlil qilish dolzarb masalardan biridir. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu ma’lumotlarni turli maqsadlarda, jumladan, marketing, siyosat, ijtimoiy tadqiqotlar va boshqa sohalarda qo‘llash imkonini beradi. Sentiment tahlil nafaqat matndagi umumiy hissiy yo‘nalishni, balki muallifning muayyan obyektga yoki mavzuga nisbatan munosabatini ham aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlili sohalarida so‘nggi yillarda bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda tilni avtomatik tahlil qilish va hissiy holatlarni aniqlashning turli metodlari va amaliy qo‘llanilishlari o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlilida, kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlilining asosiy nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu sohalarning rivojlanishi va qo‘llanilish imkoniyatlari haqida bir qancha muhim ma’lumotlar taqdim etilgan. Kompyuter lingvistikasi asosan tilni avtomatik tarzda tahlil qilishga qaratilgan. Bu soha bo‘yicha ilk ishlar 1950-yillarda boshlanib, oxirgi yillarda chuqur o‘qish (deep learning) va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan yanada kuchaygan. Allen (1995) va Jurafsky va Martin (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, kompyuter lingvistikasi metodlari, jumladan, tilni ishlov berish (NLP) va uning amaliy qo‘llanilishi haqida ko‘plab muhim ma’lumotlar keltirilgan. Bu metodlar yordamida matnlarni tahlil qilish, grammatik tuzilmalarni aniqlash, va semantik ma’nolarni chiqarish mumkin [4, 5].

Jahonda tabiiy tillarni qayta ishlash jarayonida tilning modelini qurish va sun’iy intellekt algoritmlari asosida sentiment tahlil qilish hamda dasturiy modul va vositalari ishlab chiqish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Sentiment tahlilning nazariy asoslari S.Yu.Toldova, AA.Bonch-Osmolovskaya, T.Sadikov ishlarida tavsiflangan. Shu jumladan, Stanford universiteri professorlari Christopher Manning, Dan Jurafsky va Percy Liang (Natural Language Processing Group, AQSH), Janubiy Kaliforniya universiteti professorlari Robin Jia va Jesse Thomason(NLP guruhi, AQSH), Oregon universiteti professori Liang Huang (NLP guruhi AQSHda tadqiqotlar olib borilmoqda. Undan tashqari, Heidelberg universiteti (Germaniya) va boshqalarning bu boradagi ishlari qiyosiy o‘rganib chiqildi. Standford universiteti professori Cristopher Manningning tabiiy tilni jarayoni sohasiga qo‘shgan hissasi ilg‘or lingvistik modellar va mashinani o‘rganish usullarining samaradorligini ko‘rsatib, SVMga asoslangan sentiment tahlil qilishda yuqori natijalarni berdi. Uning tadqiqotlari yozib qoldirilgan fikrlarni to‘g‘ri tahlil

qilishda murakkab algoritmlar va keng qamrovli lingvistik tushunchalarning muhimligini ta’kidlab, sentiment tahlil qilishni tushunish va qo‘llashni sezilarli darajada rivojlantirdi[6]. Sentiment tahlilining rivojlanishi 2000-yillarda boshlangan va tezda o‘zining amaliy qo‘llanilishiga ega bo‘lgan. Pang va Lee (2008) tomonidan taqdim etilgan sentiment tahlilining asosiy metodlari, shu jumladan, so‘zga asoslangan tahlil va fraza tahlilining samaradorligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ian Maas, Ray Yeung va Richard P.L. (2011) larning IMDB dataset bilan amalga oshirilgan ishlari sentiment tahlili sohasidagi asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Ular RNN (rekurent neyron tarmoqlari) va SNN (konvolyutsion neyron tarmoqlari) kabi chuqur o‘qitish metodlarini qo‘llaganlar[7]. Socher va boshqalar (2013) Stanford Sentiment Treebank yaratib, bu datasetni sentiment tahlili uchun ishlatganlar. Ular RNN va uning variatsiyalaridan (masalan, LSTM) foydalanib, ma’lum bir tuzilishga ega bo‘lgan matnlarni tahlil qilishni yanada rivojlantirdilar[8]. Zadeh va boshqalar (2016) SMU-MOSI datasetini yaratgan va multimodal sentiment tahlilini o‘rganganlar. Ular matn, rasm va ovoz ma’lumotlarini birlashtirib, ko‘p omilli tahlilni amalga oshirdilar[9].

Sentiment tahlilining dastlabki yondashuvlari, so‘zlarning hissiy qiymatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik chuqur o‘qish va mashina o‘qish texnologiyalari yordamida matnning to‘liq kontekstini tushunishga harakat qilindi (Devlin va boshqalar, 2018). Sentiment tahlili, tilshunoslikdagi eng murakkab masalalardan biri bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos semantik va leksik tuzilmalari bor [10]. Shuning uchun, kross-til sentiment tahlili tadqiqotlari juda muhim ahamiyatga ega. Shen va boshqalar (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kross-til sentiment tahlilining samaradorligini va turli tillar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga qaratilgan. Bu tadqiqotlarda, bir tilning semantik xususiyatlari boshqa tilga qanday ta’sir qilishi, va tilshunoslikning translingvistik tahlili qanday amalga oshirilishi masalalari o‘rganilgan [11].

Sentiment tahlilining tilshunoslikda o‘rganilishi, nafaqat semantik va leksik tahlilni, balki tilning ijtimoiy, madaniy va pragmatik jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Hoveyda va Falk (2017) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlar, sentiment tahlilining madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o‘zgarishlarini o‘rganishga qaratilgan [12]. Ular sentiment tahlilining har bir madaniyatdagi hissiy holatlarni qanday aniqlashini va turli til va madaniyatlarning sentiment tahliliga ta’sirini ko‘rsatgan. Sentiment tahlilining kross-til (tillararo) tadqiqotlari amalga oshirildi. Bu metodda, bir nechta tillarda sentimentni aniqlash jarayoni ko‘rib chiqildi. Har bir tilning leksik va semantik xususiyatlari, shuningdek, tilning madaniy konteksti hisobga olindi. Kross-til sentiment tahlilida turli tillarda mavjud bo‘lgan ijobiy va salbiy so‘zlarning farqlari va o‘xshashliklari tahlil qilindi. Sentiment tahlilining samaradorligini o‘lchash uchun bir qator eksperimentlar o‘tkazildi. Ushbu eksperimentlarda, matnlarning turli turdagi sentimentlarini (ijobiy, salbiy, neytral) aniqlash uchun

yuqoridagi metodlar asosida modellar qurildi. Natijalar sinovdan o‘tkazildi va ularning aniqligi (accuracy) va samaradorligi baholandi [13,14]. Eksperimentlar davomida matnlarning turli uzunliklari, mavzulari va tillari hisobga olinib, modellarni sinovdan o‘tkazish jarayoni amalga oshirildi.

O‘zbek tilida ham sentiment tahlil bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, S. Matlatipov “O‘zbek tilining sentiment tahlili” mavzusida ish olib borgan. U o‘zbek tilida raqamli matn ko‘rinishida yozilgan taklif hamda fikrlarni sentiment tahlil qilish masalasini yechish uchun berilganlarning intellektual tahlili usullarini ishlab chiqqan[15]. Samarqand davlat universitetida Ilyos Rabbimov boshchiligidagi bir guruh izlanuvchilar o‘zbek filmlariga qoldirilgan sharhlarni emojilar asosida o‘rganishgan. Sentiment tahlil bo‘yicha, ayniqsa, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchilari ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. D. Elova, S. Allanazarova o‘zbek tili matnlarni hissiy jihatdan o‘rganish masalasi bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda [16].

Munozara. Ushbu tadqiqotda kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlili metodlari o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, sentiment tahlilining samaradorligini oshirish va turli metodlarni taqqoslash orqali eng maqbul yondashuvni aniqlash edi. Tadqiqot jarayonida so‘zga asoslangan tahlil, mashina o‘qish, chuqur o‘qish va kross-til tahlili kabi turli metodlar sinovdan o‘tkazildi. Har bir metodning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi va shu orqali sentiment tahlilining samaradorligini oshirish yo‘llari aniqlanmoqda. Bu metodning oddiyligi va tezligi uning eng katta afzalliklaridan biridir. Lekin uning kamchiligi shundaki, u matndagi kontekstual ma’lumotlarni hisobga olmaydi. Bu esa ba’zan xatolarga olib kelishi mumkin, chunki bir so‘z turli kontekstlarda turlicha ma’no va hissiyotni anglatishi mumkin. Shu sababli, sentiment tahlilining aniqligi va samaradorligini oshirish uchun faqat so‘zga asoslangan metodlar yetarli bo‘lmaydi [17].

Chuqur o‘qish metodlari, masalan, RNN, LSTM yoki Transformer kabi ilg‘or tarmoqlar, sentiment tahlilining aniq va samarali bajarilishini ta’minlaydi. Ular matnning kontekstual ma’nolarini va semantik tuzilishini to‘liq tushunishga imkon beradi. Biroq, bu metodlar katta hisoblash resurslarini talab qiladi va ba’zan yuqori murakkablikka ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu metodlarni o‘qitish vaqt va kuch talab qiladi. Kross-til sentiment tahlili, turli tillarda ishlashda juda foydali va global miqyosda keng qo‘llanilishi mumkin. Bu metodlar yordamida bir nechta tillarda matnlarni tahlil qilish va turli madaniyatlardagi hissiy holatlarni aniqlash mumkin. Biroq, tilning o‘ziga xos leksik va semantik xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar mavjud. Har bir tilning o‘ziga xos tuzilishi, jumladan, so‘zlar va frazalar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish, sentiment tahlilini murakkablashtiradi.

Har bir metodning o‘z afzalliklari va kamchiliklari mavjud va ularni bir-biri bilan taqqoslaganda, har biri o‘zining ma’lum holatlarida samarali ishlaydi. So‘zga asoslangan tahlil oddiy vazifalar uchun yaxshi, lekin chuqur o‘qish va mashina o‘qish metodlari murakkab va uzun matnlarni tahlil qilishda yanada yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Kross-til tahlili esa turli tillarda va madaniy kontekstlarda ishlashda muhim ahamiyatga ega. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun sentiment tahlilining aniqligini oshirish va turli metodlarning integratsiyasi bo‘yicha yangi yondashuvlarni rivojlantirish zarur. Masalan, so‘zga asoslangan tahlil va mashina o‘qish metodlarini birlashtirish, matnning kontekstual va leksik xususiyatlarini yaxshiroq aniqlash imkonini berishi mumkin [18]. Shuningdek, kross-til tadqiqotlari orqali turli tillarda va madaniyatlarda universal sentiment tahlili tizimlarini ishlab chiqish mumkin. Umuman olganda, sentiment tahlili bugungi kunda kompyuter lingvistikasi va tilshunoslik sohalarida keng qo‘llanilayotgan muhim metod bo‘lib, uning ilmiy va amaliy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Shuning uchun, bu sohada yanada chuqurroq izlanishlar olib borish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish zarur bo‘lib, bu nafaqat tilni tushunish jarayonini yaxshilaydi, balki ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlili sohasidagi turli metodlarni o‘rganish va ularning samaradorligini taqqoslashga qaratilgan. Tadqiqotda so‘zga asoslangan tahlil, mashina o‘qish, chuqur o‘qish va kross-til tahlili kabi metodlar keng ko‘lamda tahlil qilindi. Har bir metodning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ularning turli vaziyatlardagi samaradorligi ko‘rsatilgan. So‘zga asoslangan tahlil metodlari tez va oson ishlashiga qaramay, matnning kontekstini hisobga olmaydi, shuning uchun ba’zan xatolarga olib kelishi mumkin. Mashina o‘qish metodlari ko‘proq ma’lumotlarga asoslangan holda aniq natijalar beradi, ammo ularning samarali ishlashi uchun katta hajmdagi o‘rgatish ma’lumotlari talab etiladi. Chuqur o‘qish metodlari, xususan Transformer tarmoqlari, matnlarning aniq va to‘liq kontekstini tahlil qilishda juda samarali bo‘lib, yuqori aniqlikni ta’minlaydi, ammo bu metodlar hisoblash resurslarini ko‘p talab qiladi. Kross-til sentiment tahlili esa bir nechta tillarda ishlashda samarali bo‘lib, turli madaniyatlarni hisobga olish imkonini beradi, ammo tillar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sentiment tahlilining samaradorligi tanlangan metodga va tahlil qilinayotgan matnning xususiyatlariga bog‘liq. Shu sababli, turli metodlarning kombinatsiyasini qo‘llash, sentiment tahlilining aniqligini oshirishga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda, metodlarning integratsiyasi va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, xususan, kross-til tahlili va chuqur o‘qish texnologiyalarining birgalikda qo‘llanilishi orqali sentiment tahlilining yanada samarali tizimlarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov, R. (2020). Kompyuter lingvistikasi: Nazariy asoslar va amaliy qo‘llanilishini o‘rganish. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Sattorov, F. (2018). Matnni qayta ishlash va sentiment tahlilining metodologiyasi. Tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi, 12(3), 45-59.
3. Azimov, M., & Akhmedov, S. (2021). Tilshunoslik va sentiment tahlili: Yangi yondashuvlar va izlanishlar. O‘zbek tilshunosligi jurnalida 15(2), 118-134.
4. Allen, J. (1995). Natural Language Understanding. Addison-Wesley.
5. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2020). Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. Pearson.
6. G‘.S.Matlatipov. O‘ZBEK TILINING SENTIMENT TAHLILI. Avtoreferat. 6 b.
7. Andrew L. Maas, Raymond E. Daly, Peter T. Pham, Dan Huang, Andrew Y. Ng, and Christopher Potts. (2011). Learning Word Vectors for Sentiment Analysis. *The 49th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL 2011).b*
8. Richard Socher, Alex Perelygin, Jean Y. Wu, Jason Chuang, Christopher D. Manning, Andrew Y. Ng and Christopher Potts (2013).*Recursive Deep Models for Semantic Compositionality Over a Sentiment Treebank.*
9. Zadeh, A., Chen, M., Liang, J., Poria, S., & Morency, L. P. (2016). CMU-MOSI: A Multimodal Sentiment Analysis Dataset. *Proceedings of the 2016 IEEE International Conference on Data Mining (ICDM)*, 2016, 1-10. https://doi.org/10.1109/ICDM.2016.0042.
10. Devlin, J., Chang, M., Lee, K., & Toutanova, K. (2018). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. NAACL-HLT.
11. Shen, D., Xu, Y., & Sun, Y. (2018). Cross-lingual Sentiment Analysis: A Survey. IEEE Access, 6, 10506-10516.
12. Hovy, D., & Falk, C. (2017). Sentiment Analysis and Its Application in Language and Culture. Journal of Linguistic Research.
13. Pang, B., & Lee, L. (2008). Opinion Mining and Sentiment Analysis. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2(1-2), 1-135.
14. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A., Kaiser, Ł., & Polosukhin, I. (2017). Attention is All You Need. NIPS.
15. G‘.S.Matlatipov. O‘ZBEK TILINING SENTIMENT TAHLILI. Avtoreferat.
16. D.Elova, S.Allanazarova (2023). O‘ZBEK TILI MATNLARIDA SENTIMENT TAHLIL USULLARI. O‘zbekiston: til va madaniyat (Kompyuter lingvistikasi), 2023, 1(6). 65-76 b.

17. Davronov, A. (2020). Kompyuter lingvistikasi va sentiment tahlilining o‘zbek tilida qo‘llanilishi. O‘zbekiston fan va texnologiyalar instituti.

18. Karimov, M., & Tashpulatov, D. (2021). Kompyuter lingvistikasi va uning turli tillarda ishlatilishi: Sentiment tahlilining amaliy qo‘llanilishi. Xalqaro ilmiy ishlanmalar 3(5), 44-53.

19. B.Elov, Sh.Hamroyeva, O.Abdullayeva, M.Uzoqova. O‘zbek tilida pos tegging masalasi: muammo va takliflar. O`zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(4). 45-63 b.

O‘ZBEK TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SINONIMLIK HODISASI

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Omarova Durdona Tajatdin qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
omarovadurdona@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning sinonimlik hodisasi tahlil qilinadi. Frazeologik sinonimlarning turlari, ularning nutqdagi o‘rni va stilistik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning mazmuniy, uslubiy va differensial sinonimlari tahlil qilinib, ularning til boyligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Annotation. This article analyzes the phenomenon of synonymy in phraseological units of the Uzbek language. It examines the types of phraseological synonyms, their role in speech, and their stylistic potential. Additionally, semantic, stylistic, and differential synonyms of phraseological units are analyzed, highlighting their importance in enriching the language.

Аннотация. В данной статье анализируется явление синонимии фразеологических единиц в узбекском языке. Рассматриваются типы фразеологических синонимов, их место в речи и стилистические возможности. Также анализируются смысловые, стилистические и дифференциальные синонимы фразеологических единиц, освещается их значение в обогащении языка.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birliklar, sinonimiya, uslubiy sinonimlar*.

KIRISH

Til qurilishining lug‘at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug‘at sathidagi frazeologik qatlam (uni o‘rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi. Ilmiy tadqiqotlarda frazeologiyaning hajmini keng va tor tushunish kuzatiladi. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga so‘zlarning turg‘un birikmalaridan tashqari maqol, matal, aforizm ham mansub deb qaraladi[1]. Frazeologiya sifatida so‘zlarning semantik bog‘lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so‘zlarning turg‘un birikmalarini – til birligi deb baholash mumkin. Olimlar aniq ilmiy kriteriyalarga asoslanib, so‘zlarning barcha turdagi turg‘un birikmalarini emas, balki shulardan bir qismini frazeologik birlik sifatida tan oladilar [2]. Frazeologik birlik bo‘lish uchun so‘zlarning turg‘un

birikmasi obrazli ma’no, ko‘chma ma’no anglatishi shart. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so‘z-komponentlarga xos leksik ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma’nosi umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalar *frazeologizm* (*frazeologik birikma*)lardir.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.

2. Ma’no yaxlitligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi [3].

Tilning boyligi va ifoda imkoniyatlari uning frazeologik birliklarida o‘z aksini topadi. O‘zbek tilida frazeologizmlar nutqni ta’sirchan, obrazli va ifodali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezisda frazeologik birliklarning sinonimlik hodisasi tahlil qilinadi. Frazeologik sinonimlar - bu ma’nosi bir xil yoki juda yaqin bo‘lgan, bir xil so‘z turkumiga mansub, odatda o‘xshash yoki bir xil tuzilishga va birikish xususiyatiga ega bo‘lgan, biroq bir-biridan obrazli asosi, shuningdek, ma’nosi yoki stilistik bo‘yoqlari (yoki ikkalasi birgalikda) bilan farqlanadigan birikmalardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Frazeologik birliklar ibora bilan va so‘z bilan ham sinonim bo‘lishi mumkin.

- Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin ma’nolarni anglatib kelishi *sinonim iboralar*ni hosil qiladi: *Kayfi buzuq – ta’bi tirriq; toqati toq bo‘lmoq – sabr kosasi to‘lmoq. Yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq.*

- Lug‘aviy birlik sifatida iboralar so‘zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘ladi: *tomdan tarasha tushganday – kutilmaganda; og‘zi qulog‘ida – xursand, joni chiqmoq – g‘azablanmoq; ta’bi xira – xafa; quling o‘rgilsin – ajoyib*

Ikki iborani o‘zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi shart. Sinonimlar, odatda, bir yoki bir necha jihatdan farqlanadi, shulardan birima’no qirrasidagi farq hisoblanadi. Masalan, *yer bilan yakson bo‘lmoq – yer bilan yakson qilmoq* iborasi *kulini ko‘kka sovurmoq – kuli ko‘kka sovurildi* iborasiga sinonim: ayni bir ma’noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo‘q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlarida umumiylik hosil qilishidan qat’i nazar, ma’no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma’no bir qadar kuchli ifodalanadi. Shuningdek, *ko‘ngl(i) bo‘sh* va *ko‘ngl(i) yumshoq – yumshoq ko‘ngil* iboralari o‘zaro sinonim bo‘lib, «rahmdil, ko‘ngilchan» ma’nosini anglatadi; birinchi iborada «ko‘ngilchan»lik

ma’no qirrasi, ikkinchi iborada esa «rahmdil»lik ma’no qirrasi ustun. Umuman, frazeologik sinonimlarda farqli ma’no qirralari rang-barang bo‘lib, aniq yondashib izohlashni talab qiladi [2]. Sinonimiya muammosi o‘zining ko‘p qirrali va kognitiv tabiati tufayli kuzatuvchilarning doimiy e'tiborini qozonib bormoqda. Tilshunoslikda sinonimiya bo‘yicha ko‘plab ishlar mavjud bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi leksik sinonimiyaga bag‘ishlangan, lekin lingvistlar frazeologik birliklarning sinonimiyasini ham faol o‘rganmoqdalar. “Frazeologizmlarning sinonimligi muammosi tadqiqotchilar tomonidan turlicha hal qilingan. Mashhur rus olimi V.V. Vinogradov shunday deb yozgan edi: "Umummilliy, milliy til stilistikasi tegishli til hodisalarini funktsional farqlanish, o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir doirasida ko‘rib chiqadi. U o‘xshash, o‘zaro bog‘liq, parallel yoki sinonimik ifoda vositalarining bir-biriga yaqin ma’nolarni ifodalashdagi o‘rnini hamda turli nutq hodisalarining ekspressiv bo‘yoqlari va ohanglari mos kelishini tahlil qiladi" [4]. Leksika va frazeologik birliklar tilimizning so‘z boyligini tashkil qiladi. Agar lug‘atda til birligi so‘z deb qaralsa, frazeologik tizimda frazeologik birlik (FB) yoki ibora til birligi sifatida qaraladi. So‘z ham, frazeologizm ham leksik birlik sanaladi. Har qanday tilning boyishi faqat yangi so‘zlar hisobiga emas, balki barqaror birikmalar, ya’ni frazeologizmlar hisobiga ham sodir bo‘ladi. Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan to‘g‘ri til birliklarini emas, balki muloqot vaziyatiga mos keladigan, fikrlarning aniq va to‘g‘ri tushunilishini ta’minlovchi birliklarni tanlash orqali shakllanadi. Bunday tanlov natijasida bir xil yoki yaqin ma’noni ifodalovchi til birliklari bir-biri bilan bog‘lanib, sinonimik qatorni hosil qiladi. Ma’lumki, ikki yoki undan ortiq so‘zlarning sinonim ekanligini aniqlash uchun ularning ma’nolarini asos qilib olish to‘g‘ri yo‘ldir [5]. Shu sababli, o‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlarning ma’no jihatidan qanday munosabatga ega ekanligini aniqlash asosiy masaladir. Agar masalaga shu nuqtai nazardan yondashilsa, sinonimik qatorlar, sifatlarning semantik xususiyatlari, ma’no nozikliklari, ekspressivlik – baholovchanlik va frazeologik sinonimlar (FS) muayyan uslubiy xususiyatlarga qarab farqlanadi.

Ma’noli so‘zlar va frazeologizmlar badiiy tasvir vositalarining eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Frazeologik sinonimiya badiiy uslubda keng rivojlangan bo‘lib, mualliflarning badiiy til vositalaridan foydalanishdagi ijodiy yondashuvlari, yangi iboralar yaratishi frazeologik sinonimlarning ko‘payishiga, til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi. Shuning uchun har bir frazeologik sinonim turli semantik va uslubiy ma’nolarni ifodalashi bilan ajralib turadi hamda ularning tilning frazeologik tizimida yashashiga imkon yaratadi. Frazeologizmlarning semantik tuzilishi frazeologik ma’no hamda ma’no nozikliklaridan iborat. Harakat yoki hodisa haqida ma’lumot beruvchi frazeologik ifodalar frazeologik ma’no deb ataladi. Frazeologizmlar ham so‘zlar kabi butun bir (yagona) ma’noni ifodalasa ham, ularning frazeologik ma’nosi ko‘p jihatdan leksik ma’nodan farqlanadi. Shu sababli, frazeologizmlar ba’zan so‘zlarga sinonim sifatida ishlatilgan taqdirda ham, ularning

leksik ma’nosi bilan frazeologik ma’nosi teng kelmaydi. Shu o‘rinda Hojiyev fikrini keltirish kerak: “Agar frazeologizmlar o‘z sinonimlari bo‘lgan so‘zlarga nisbatan kuchliroq ma’no darajasini ifodalasa, ular majoziy ma’noga ega bo‘ladi” [6]. Ammo inson faoliyati va ruhiyatida shunday holatlar borki, ularni faqat so‘z orqali tasvirlash juda qiyin. Til bu kabi nozik holatlarni ifodalashda frazeologizmlarga muhim o‘rin beradi. Bunday nozik ma’nolarni aks ettiruvchi frazeologik birliklar odatda bitta so‘z bilan ifodalanmaydi. Frazeologik sinonimlar kuchli va obrazli ifodadir. Ular so‘zlarga nisbatan obrazli tasvir bilan uyg‘unlashib, his-tuyg‘ularni ifodalash uchun xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbek tilida frazeologik birliklarning sinonimlik hodisasi til boyligini ifodalovchi muhim hodisalardan biridir. Frazeologik sinonimlar o‘zaro yaqin yoki bir-birini to‘ldiruvchi ma’noga ega bo‘lib, badiiy nutqning ekspressivligini saqlashga xizmat qiladi. Frazeologik sinonimiya leksik, semantik va stilistik o‘ziga xos xususiyat ega. Ba’zi frazeologizmlar to‘liq sinonimik bog‘lanishda bo‘lsa, ayrimlari emotsional yoki uslubiy rang-barangligi bilan farqlanadi. Bu esa hujjat nutqda qo‘llanish holatini aniqlash va ma’no ifodalashning aniqroq bo‘lishini ta’minlaydi. Frazeologik sinonimlar tilni obrazli oshirib, xalq tafakkuri va madaniyatini aks ettiradi. Ularning tizimli o‘rganilishi tabiiy lingvistik natijalar uchun, balki tarjima, tilni o‘qitish va badiiy asarlarni tahlil qilish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘zbek tilida frazeologik birliklarning sinonimlik hodisalarini chuqur tadqiq etish ilmiy va amaliy muammolardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bashieva S. K. phraseological Stylistic component values: author. dis. d-RA filol.sciences'. – Krasnodar, 1995, – p. 42.
2. Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии (фразеологическая синонимия): Тез.докл. / Ташк. ун-т. Гум.науки. Ташкент, 1968, с.267-269.
3. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati: /– T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
4. В. В. Виноградов Об основных типах фразеологических единиц в русском языке (Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М., 1977- С. 140-161)
5. Mukhayyo Vafoyeva. Semantic and Stylistic Features of Phraseological Synonyms International Journal for Social Studies Available at https://journals.pen2print.org/index.php/ijss
6. Hajiev A. Explanatory Dictionary of linguistic terms. - Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2002, - 168 b.

UDK: 811.512.133`42:004.89

GAPNING SEMANTIK STRUKTURASINING ONTOLOGIK MODELINI YARATISH

Xudoykulova Nargiza Ravshanovna,
Magistrant
n.khudaykulova@newuu.uz
TATU

Eshmurodova Madina Dilshod qizi,
Magistrant
madinadilshodovna313@gmail.com
TATU

Annotatsiya. Ushbu tezisda gapning semantik strukturasi tushunchasi va uning ontologik modelini yaratish zarurati tahlil qilinadi. Semantik komponentlarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligi, rollar va munosabatlar tizimini shakllantirish orqali til birliklarining kompyuterda qayta ishlanishiga imkon beruvchi konseptual model ishlab chiqiladi. Tezisda ontologik yondashuv asosida gap tuzilmasining formal tavsifi hamda uni tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlariga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Abstract. This thesis examines the concept of the semantic structure of a sentence and the necessity of developing its ontological model. Through identifying semantic components, their interrelations, and forming a system of roles and relations, a conceptual model that enables the computer processing of linguistic units is developed. The formal description of sentence structure based on ontological approaches, and the possibilities of integrating it into Natural Language Processing (NLP) systems, are explored. The thesis also discusses how such a model can be applied in various NLP tasks, such as automatic translation, information extraction, and text understanding.

Аннотация: В данной работе рассматривается концепция семантической структуры предложения и необходимость разработки её онтологической модели. Путём определения семантических компонентов, их взаимосвязей и формирования системы ролей и отношений разрабатывается концептуальная модель, которая позволяет обрабатывать языковые единицы с помощью компьютера. Также анализируется формальное описание структуры предложения на основе онтологического подхода и возможности интеграции модели в системы обработки естественного языка (NLP). В работе рассматриваются способы применения данной модели в таких задачах NLP, как автоматический перевод, извлечение информации и понимание текста.

Kalit so‘zlar: *semantik struktura, ontologik model, gap tahlili, tabiiy tilni qayta ishlash, semantik rollar, konseptual model*

Zamonaviy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohasidagi taraqqiyot tabiiy tilning chuqur semantik tahliliga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, sun’iy intellekt (AI), mashinaviy tarjima, dialog tizimlari, va matnlarni avtomatik tushunish kabi yo‘nalishlar kontekstida gapning semantik strukturasining tahlili markaziy o‘rin tutadi. Gapdagi semantik komponentlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi, rollari va munosabatlar tizimi til birliklarining mazmun jihatdan to‘g‘ri qayta ishlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Shu sababli, gapning semantik strukturasi va uning ontologik modelini yaratish masalasi, ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelni yaratish orqali kompyuterlar uchun tilni "tushunish" imkoniyati yaratiladi, bu esa o‘z navbatida o‘zbek tilining raqamli vositalarda qo‘llanilishini kengaytiradi va uning sun’iy intellekt texnologiyalaridagi ishtirokini kuchaytiradi.

Gapning semantik strukturasi va uning ontologik modelini yaratish zarurati, ayniqsa, quyidagi sohalarda dolzarbdir:

1. **Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)**: NLP sohasida, tilning semantik tuzilmasini to‘g‘ri qayta ishlash kompyuterlar uchun tabiiy tilni tushunish va ishlov berish imkonini yaratadi. Masalan, matnni avtomatik tarjima qilish, matnni tahlil qilish va ma’lumotni ajratib olish tizimlarida gapning semantik tuzilmasi to‘g‘ri aniqlanishi zarur.

2. **Sun’iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish**: AI tizimlarida tilni tushunish va unga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida gaplarning semantik tuzilmasi muhim rol o‘ynaydi. Ontologik yondashuv bu tizimlarga yanada yuqori darajada aniq va ishonchli natijalar berishda yordam beradi.

3. **Mashina tarjimasi**: Xususan, avtomatik mashina tarjimasi tizimlarida biror tilda olingan gapning to‘g‘ri semantik tarjimasi, mantiqiy tushunchalar va ularning o‘zaro bog‘liqligini to‘g‘ri aniqlashni talab qiladi. Bu esa gapning semantik strukturasini chuqur tahlil qilishni zarur qiladi.

4. **Korpus lingvistikasi**: Korpus tahlili va matnlarni indeksatsiya qilishda, tilning semantik strukturasini to‘g‘ri aniqlash va tuzish orqali, til birikmalarining mazmunini yaxshiroq tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa tilshunoslik sohasidagi yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

5. **Dialog tizimlari**: Sun’iy intellektga asoslangan chat-botlar va boshqa dialog tizimlarida, gaplarning semantik strukturasini to‘g‘ri aniqlash, foydalanuvchining so‘rovlariga aniq va tegishli javoblarni bera olish imkonini beradi.

6. **Bilim bazalari va ontologiyalar**: Ontologik modellardan foydalangan holda bilim bazalarini yaratish, turli sohalarda maxsus bilimlarni tizimli ravishda saqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Gapning semantik strukturasini aniqlash va uning ontologik modelini yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda tabiiy tilni tushunish va ishlov berish jarayonlarida til birikmalarining semantik tarkibini aniq ifodalash zarurati mavjud. Bu esa, tizimlarga yanada mukammal ishlov berish imkonini beradi. Tabiiy tilda mavjud bo‘lgan shakldoshlarni (ko‘p ma’nolilik) va sintaktik murakkabliklarni aniqlashda, gapning semantik strukturasining to‘g‘ri tashkil etilishi kerak.

Ushbu masala, asosan, quyidagi muammolarni hal qilishni talab etadi:

1. **Shakldoshlarni aniqlash**: Gaplarning bir nechta ma'nolarga ega bo‘lishi, NLP tizimlari uchun muammo yaratadi. Gapning semantik strukturasini to‘g‘ri modellashtirish orqali bunday ambiguitetlarni bartaraf etish mumkin.

2. **Mantiqiy tuzilmalarni aniqlash**: Gapdagi ob’yektlar, ularning rollari, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri belgilash, NLP tizimlariga yuqori darajadagi semantik tahlil imkoniyatini yaratadi.

3. **Syntagmatik va paradigmatik munosabatlar**: Gapdagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniq aniqlash, tahlil qilish va semantik ma’nolarni tuzishda zarurdir.

Semantik struktura va ontologik modellarning yaratilishida quyidagi texnologiyalar va yondashuvlar qo‘llaniladi:

1. **Natural Language Processing (NLP) texnologiyalari**: NLP sohasidagi texnologiyalar gapni semantik va sintaktik tahlil qilishda, so‘zlar orasidagi munosabatlarni aniqlashda va ularni aniq semantik struktura sifatida ifodalashda ishlatiladi. NLP tizimlari ko‘plab algoritmlar, masalan, ma'lumotlarni ajratib olish, avtomatik tarjima, sentiment tahlili va boshqalar yordamida semantik ma'lumotlarni ishlov berish imkoniyatini beradi.

2. **Ontologiyalar yaratish**: Ontologiyalar yaratish uchun maxsus metodlar va asboblar (masalan, Protégé, OWL) mavjud. Bu asboblar semantik struktura va uning ichidagi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq tasvirlashga yordam beradi. Ontologiya yaratish jarayonida semantik bog‘lanishlarni tahlil qilish va modellashtirishga imkon beruvchi texnologiyalar qo‘llaniladi.

3. **Semantik tahlil algoritmlari**: Semantik tahlil uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqilgan, ular gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni aniqlaydi. Misol uchun, “*dependency parsing* va *semantic role labeling”* kabi algoritmlar yordamida gapdagi har bir so‘zning ma'nosi va uning boshqa so‘zlar bilan bo‘lgan o‘zaro bog‘lanishlari aniqlanadi.

4. **Mashina o‘rganish (Machine Learning) metodlari**: Mashina o‘rganish algoritmlari gaplarning semantik strukturasini to‘g‘ri modellashtirishda va o‘rganish jarayonida ishlatiladi. Model, oldindan o‘rganilgan ma'lumotlarga asoslanib, yangi gaplarning semantik strukturasini aniqlashga yordam beradi.

5. **Bilim bazalari**: Bilim bazalari va ontologik modellar, tizimlarning semantik ma'lumotlarini saqlash va ishlov berishda qo‘llaniladi. Ular til birikmalarining to‘g‘ri tuzilishini va ularning mantiqiy bog‘lanishlarini tashkil etadi.

Kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi rivojlanishlar, asosan, tilning semantik tuzilmalari va ularning kompyuter tizimlari

tomonidan tushunilishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayon, ayniqsa, gapning semantik strukturasining formal tavsiflanishi va uni ontologik model asosida ifodalashni talab qiladi.

Semantik tahlil — bu tabiiy tilni kompyuterlar tomonidan tushunish va qayta ishlashga yo‘naltirilgan ilmiy soha bo‘lib, unda gapdagi ma'no va uning tarkibiy qismlari (predikatlar, sub’ektlar, ob’yektlar va ularning o‘rtasidagi munosabatlar) aniqlanadi. Ontologiya esa bu ma'no va munosabatlarni rasmiylashtirish va tizimlashtirish uchun ishlatiladigan modeldir. Ontologiyalar kompyuter tizimlariga ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va saqlashda aniq ma'no va munosabatlarni yaratishga yordam beradi.

Gapning semantik tuzilmasi, tilshunoslikda, asosan, gapdagi elementlarning bir-biriga qanday bog‘lanishini va ular orasidagi munosabatlarni tushunishni o‘z ichiga oladi. Masalan, sub’ekt va predikat o‘rtasidagi bog‘liqlik, ob’yekt va predikat o‘rtasidagi munosabatlar va shu kabilar. Tabiiy tilni qayta ishlashda bu tuzilmalarni aniqlash va to‘g‘ri talqin qilish juda muhim.

Ontologik modellashtirish tabiiy tilni qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, tabiiy tilni kompyuterlar tomonidan tushuniladigan va semantik jihatdan to‘g‘ri qayta ishlanishi uchun talab qilinadi. Ontologiyalar tilning semantik strukturasini tizimli va rasmiy tarzda tasvirlashga imkon beradi, shuningdek, semantik tahlil va natural language processing (NLP) tizimlarining samaradorligini oshiradi.

Tilshunoslikda gap tuzilmasi va semantik tahlil masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan:

- **Chomsky N.** (Transformatsion-generativ grammatika asoschisi) – Chomsky gap tuzilmasini formal model asosida tahlil qilishga harakat qilgan. Biroq, uning modeli ko‘proq sintaktik jihatga e’tibor beradi, semantik struktura va ularning ontologik tasnifi yetarli darajada yoritilmagan. Bu, tabiiy tilni qayta ishlashda sintaksis va semantikaning to‘liq integratsiyasining zarurligini ko‘rsatadi.

- **Fillmore Ch.** (Case Grammar muallifi) – Fillmore gapdagi rollarni (agent, object, location va b.) tahlil qilishga harakat qilgan. Biroq, bu model hozirgi NLP va ontologik tizimlarga to‘liq integratsiyalash uchun yetarlicha mos emas, chunki u struktura va semantikaning formal integratsiyasini bermaydi. Bu esa, tilni tushunish va ishlov berish tizimlarida tizimli va chuqur tahlil zarurligini ta’kidlaydi.

- **Paducheva E.V., Apresyan Yu.D.** – Paducheva va Apresyan rus tilshunosligida semantik rollar va tavsiflar masalasini chuqur o‘rganishgan. Ularning ishlari ko‘plab ontologik lug‘atlar va avtomatik tahlil tizimlariga asos bo‘lgan. Biroq, ularning ishlari umumiy modeldan ko‘ra ko‘proq konkret lug‘aviy birliklar

doirasida cheklangan, bu esa semantik tahlilni kengroq doiraga tatbiq etish imkoniyatlarini cheklaydi.

- **Jurayev O., Erkinov T.** kabi o‘zbek tilshunoslari – O‘zbek tilidagi gap tuzilmasi, semantik rollar va morfologik jihatlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Lekin bu ishlarning aksariyatida ontologik modellashtirish usuli chuqur qo‘llanilmagan, ya’ni tilni kompyuter tomonidan tushunishga imkon beradigan formal tizimlar yaratishda yetarli rivojlanish kuzatilmagan.

Yuqoridagi ishlarda semantik struktura masalasi turli jihatlarda yoritilgan bo‘lsa-da, ontologik model yaratish, ya’ni formal, kompyuterga mos tushuncha va munosabatlar tizimini ishlab chiqish ko‘p hollarda yetarli darajada bajarilmagan. Shuningdek, hozirgi zamon NLP tizimlari bilan uzviy bog‘lanish, ma’lumotlar ontologiyasiga asoslangan avtomatik semantik tahlil imkoniyatlari hali to‘liq o‘z yechimini topmagan.

Bunday vaziyatda, ontologik modelni yaratish va uning NLP tizimlari bilan integratsiyasini rivojlantirish, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Garchi ba'zi dasturiy yechimlar mavjud bo'lsa-da, ular ko‘pincha aniq, keng qamrovli va kompleks semantik tahlilni taqdim eta olmaydi. Bu esa, shuningdek, mashina o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Semantik tahlilni takomillashtirish uchun, ontologik modellar nafaqat grammatika va sintaksisga asoslangan, balki tilning ma'naviy va mantiqiy aspektlarini o'z ichiga olishi kerak. Yangi avlod ontologik modellarni yaratish, shu bilan birga, NLP texnologiyalarining imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Aynan shu nuqtada, bugungi kunda semantik strukturaning chuqur tahlili va murakkab tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, kelajakdagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Kelajakda semantik tahlil va ontologik modellarni takomillashtirish uchun bir nechta yo‘nalishlar mavjud.

Birinchidan, tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi yangi yondoshuvlar, masalan, chuqur o‘rganish (deep learning) va transformer modellari, ontologik tahlilni avtomatlashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida, tilning yanada murakkab va nozik jihatlarini tushunish va avtomatik tarzda ma’lumotlarni tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, ontologik modellarni joriy qilishda kollaborativ va interaktiv yondoshuvlar muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Bunda, ekspert tizimlari yoki foydalanuvchilarning bilimi bilan to‘ldirilgan dinamik ontologiyalar yaratish mumkin. Bu orqali modelning aniqligi va moslashuvchanligi oshadi, chunki

foydalanuvchilar yoki ekspertlar tizimga yangi tushunchalar va munosabatlarni qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, global va dinamik kontekstda semantik tahlilni rivojlantirish uchun, ontologiyalar va ma’lumotlar bazalari o‘rtasida yaxshilangan integratsiya zarur. Ma’lumotlarning doimiy o‘zgarishi va yangi bilimlarning paydo bo‘lishi sharoitida, ontologik modellarni yangilash va moslashtirish tizimi samarali ishlashi kerak.



Shu bilan birga, tilni qayta ishlash sohasida yirik ko‘lamli ma’lumotlarni tahlil qilishda, ma’lumotlar bazalaridan va real vaqt tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondoshuvlar NLP va ontologik modellarning faoliyatini kengaytirishga yordam beradi, shu bilan birga, ular aniq va tezkor qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladi.

Bundan keyin, olingan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llash masalasi turli sohalarda katta ahamiyatga ega. Ontologik modellarning samarali ishlashi uchun ularning turli ilovalarda, masalan, tibbiyot, moliya, ta’lim va boshqa sohalarda qanday ishlashini ko‘rib chiqish muhimdir. Shuningdek, bu modellarning avtomatik semantik tahlilga asoslangan tizimlar bilan birgalikda ishlash imkoniyatlari hamda ularni real vaqt tizimlarida qo‘llash masalalari o‘rganilishi zarur.

Ontologik modellarni qo‘llashda, ayniqsa, tillarni qayta ishlashda va ma’lumotlarni tahlil qilishda, bunday yondoshuvlar yordamida yangi bilimlar va tushunchalarni kiritish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-uslubiy bazani yaratish lozim. Shuningdek, ilg‘or algoritmlar, masalan, mashinani o‘rganish va sun’iy intellekt metodlari, ontologik modellarni tahlil qilish va ishlash jarayonini yanada samarali va aniq qiladi.

Amaliyotda, ontologik modelni yaratishda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyatga ega:

1. **Tushunchalar va munosabatlarni aniqlash**: Tilshunoslik va semantik tahlil bo‘yicha mavjud bilimlar asosida, aniq tushunchalar va munosabatlarni shakllantirish zarur. Bu bosqichda tilning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhimdir.

2. **Modelni yaratish va integratsiya qilish**: Yaratilgan ontologik modelni real tizimga integratsiya qilish, ya'ni ma’lumotlarni avtomatik tarzda tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish. Bu bosqichda ma’lumotlar bazalari va NLP tizimlari o‘rtasida samarali integratsiya muhimdir.

3. **Test va optimallashtirish**: Modelni sinovdan o‘tkazish va optimallashtirish. Bu bosqichda ma’lumotlar tahlili natijalari asosida, modelning aniqligini oshirish va uning ishlashini takomillashtirish zarur.

Ontologik modellarni yaratish va ularni semantik tahlil tizimlariga integratsiya qilish jarayonida bir qator muammolar va cheklovlar mavjud. Birinchidan, til va tushunchalarning murakkabligi, inson tilining noaniqliklari va ko‘plab ma’lumotlar turlicha talqin qilinishi ontologiyaning aniqligini kamaytiradi. Ayniqsa, natural tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi tizimlar, o‘z vaqtida yangi bilimlarni integratsiya qilish va yangilash masalalarida qiyinchiliklarga duch keladi.

Ikkinchidan, ontologiyaning kengaytirilishi va uning dinamikasi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Ma’lumotlarning doimiy o‘zgarib turishi va yangilanishi modelni muntazam ravishda qayta tuzishni talab qiladi, bu esa ishlab chiqish va saqlash xarajatlarini oshiradi. Bundan tashqari, turli sohalarda ishlatiladigan ontologiyalarni moslashtirish va umumiy tizimga integratsiya qilish murakkab bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, ontologik modellarning samarali ishlashi uchun kuchli va samarali texnologik infratuzilma talab etiladi. Bu tizimlar ko‘pincha katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashni talab qiladi, shuning uchun yuqori sifatli serverlar va hisoblash resurslari kerak bo‘ladi.

Biroq, bu muammolar va cheklovlar yangi texnologiyalar, masalan, mashinani o‘rganish va sun’iy intellektning rivojlanishi bilan bartaraf etilishi mumkin. Kelajakda ontologik modellarning ishlashi, ayniqsa, avtomatik semantik tahlil tizimlari bilan birgalikda, yanada aniqroq va samarali bo‘ladi. Shuningdek, yangi algoritmlar va texnologiyalar yordamida ontologiyaning kengaytirilishi va integratsiyasi jarayonlari osonlashadi.

Yuqoridagi ishlarda, semantik struktura va ontologik modellarni yaratishning ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqildi. Tizimlar va ma’lumotlarni aniq va samarali tashkil qilish uchun ontologiyalar yirik rol o‘ynaydi, chunki ular

bilimlarni tizimli va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, avtomatik semantik tahlilni amalga oshirishda va tabiat tilini qayta ishlashda yanada samarali natijalarni ta’minlaydi.

Biroq, ontologik modellarni ishlab chiqishda va ularni mavjud tizimlar bilan integratsiya qilishda hali ko‘plab muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Xususan, tilning noaniqligi, ma’lumotlarning ko‘pligi va tez o‘zgarishi, shuningdek, ilg‘or texnologiyalarning ishlab chiqilishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaning mavjud emasligi cheklovlar yaratadi. Bu masalalar hali to‘liq hal qilinmagan.

Shunga qaramay, kelajakda yangi texnologiyalar va metodologiyalarning rivojlanishi bilan ontologik modellar va semantik tahlil tizimlarining samaradorligi yanada oshadi. Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish sohasidagi yuksak yutuqlar ontologiyalarni tezda yangilash va kengaytirish imkonini beradi, shuningdek, ularni yanada kuchliroq va moslashuvchan qiladi.

Kelajakdagi izlanishlar ontologiyalarni turli sohalarga moslashtirish, ular orasidagi aloqalarni yanada aniqroq va samaraliroq tashkil etishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, ontologik modellarni amaliyotga keng joriy etish va mavjud tizimlarga integratsiyalash jarayonlari o‘rganilishi va takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurafsky, D., & Martin, J. H. *Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition*. Prentice Hall, 2021.
2. Goldberg, Y. *Neural Network Methods for Natural Language Processing*. Morgan & Claypool Publishers, 2017.
3. Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., & Toutanova, K. *BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding*. NAACL-HLT, 2019.
4. Liu, Y., Ott, M., Goyal, N., Du, J., Joshi, M., Chen, D., Levy, O., Lewis, M., Zettlemoyer, L., & Stoyanov, V. *RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach*. arXiv, 2019.
5. Ляпин, А., Стернин, И., & Михайлова, Л. *Обработка текстов на естественном языке: Современные подходы и методы*. Наука, 2016.
6. Садовничий, В. А., & Ли, В. В. *Семантика и синтаксис: Теории и модели*. ИТМ и ВШЭ, 2020.
7. Гречушкин, С. В., & Казаков, О. И. *Методы синтаксического анализа текста для вычислительных лингвистов*. Физматлит, 2019.

8. Казаков, И. Л., & Попов, И. А. *Нейросетевые методы в обработке текста*. БХВ-Петербург, 2018.
9. Shukurov, B. A. *Tabiiy tilni qayta ishlash: Muammolar va yechimlar*. Fan, 2017.
10. Rakhmatullayev, M., & Tashpulatov, B. *Kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash*. Universitet, 2019.
11. Xamrayev, B., & Baqoyev, R. *Algoritmlar va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari*. Innovatsiya, 2018.
12. Tojiboev, N. *Uzbek tilida semantik tahlil va uning amaliyotda qo'llanilishi*. Qomus, 2020.

SINONIM IBORALARNI ANIQLASH MASALASI TADQIQI

Omarova Durdona Tajatdin qizi
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
omarovadurdona@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinonim iboralarni aniqlash masalasi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi. Tilshunoslik va sun’iy intellekt nuqtayi nazaridan perefraz tushunchasi, uning usullari va qo‘llanilish sohalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy tilga ishlov berish (NLP) sohasida perefrazlashning roli va uning avtomatlashtirilgan tizimlar uchun ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida turli uslubiy yondashuvlar solishtiriladi hamda zamonaviy modellar va algoritmlar yordamida sinonim iboralarni aniqlashning samarali usullari taklif etiladi. Olingan natijalar lingvistik tadqiqotlar, tarjima jarayonlari va axborot qidiruv tizimlarida qo‘llanilishi mumkin.

Annotation. This article examines the problem of identifying synonymous phrases from both theoretical and practical perspectives. The concept of paraphrasing is analyzed in terms of linguistics and artificial intelligence, along with its methods and application areas. The role of paraphrasing in the field of natural language processing (NLP) and its importance for automated systems is also discussed. Various methodological approaches are compared during the study, and effective methods for identifying synonymous phrases using modern models and algorithms are proposed.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически рассматривается задача определения синонимичных фраз. Анализируется понятие перефразирования с точки зрения лингвистики и искусственного интеллекта, его методы и области применения. Также обсуждается роль перефразирования в области обработки естественного языка (NLP) и его значение для автоматизированных систем. В ходе исследования сравниваются различные методологические подходы, а также предлагаются эффективные методы определения синонимичных фраз с помощью современных моделей и алгоритмов. Полученные результаты могут быть применены в лингвистических исследованиях, процессах перевода и системах информационного поиска.

Kalit so‘zlar: *iboralarnining sinonimlarini aniqlash, tabiiy tilga ishlov berish, NLP, semantik tahlil, tarjima tizimlari, matnni qayta ishlash.*

KIRISH. Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologik birliklardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko‘zga tashlanishida muhim rol

o‘ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko‘p bo‘lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko‘rsatadi. Biroq, turli nutqiy vaziyatlarda iboralarni o‘zgartirish, ularni boshqacha yo‘sinda ifodalash – ya’ni iboralarni perefraz qilish zarurati tug‘iladi. Perefraz qilish – bu matn yoki iboraning ma’nosini saqlab, uni boshqa shaklda qayta ifodalash jarayonidir. Bu jarayon tilshunoslikda keng o‘rganilib, tarjima nazariyasi, pragmatika, stilistika va sun’iy intellekt sohalarida qo‘llaniladi. Ayniqsa, avtomatik tarjima tizimlari va matnlarni qayta ishlash texnologiyalari rivojlanishi bilan iboralarni sinonim iboralarni aniqlash muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada sinonim iboralarni aniqlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, turli tillardagi iboralarni o‘zaro taqqoslash va ularning ekvivalentlarini aniqlash masalalariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, sinonim iboralarni aniqlash jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va semantik qiyinchiliklar ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, tarjima amaliyoti va kompyuter lingvistikasi sohalarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin. Biz tadqiqotimizda sinonim iboralarni aniqlash va almashtirish usullarini ko‘rib chiqamiz. Bu perefraz jarayoning bir qismi hisoblanadi. Quyidagi rasmda perefraz qilish turlari berilgan biz mana shu turlardan sinonimik almashtirish bosqichini o‘rganamiz. Bu bosqichni o‘rganish uchun umumiy perefraz jarayonini o‘rganish, jahon tajribasida qilingan ishlar bilan tanishish, ular foydalangan usullarni qo‘llab ko‘rish va ulardan samaralilarini belgilab olish kerak bo‘ladi.



1-rasm. Perefraz qilish turlari

Perefraz tushunchasining mohiyatini aniq tushunishga bag‘ishlangan juda ko‘p ishlar mavjud. Bir tomondan, an’anaviy til nazariyalari perefraz tushunchasini qadimgi ritorika an’analarigacha kuzatib borish imkonini beradi (yunoncha "paraphrasis" – "qayta hikoya qilish" ma’nosini anglatadi) va uni turli xil nasr, she’r, musiqa asarlari kabi turli janrlarda keng qo‘llaydi. Bu jarayon matnni boyitish va xilma-xillik kiritish — bir xil so‘z va iboralarning takrorlanishini oldini olib, matnni yanada jozibador va o‘qishga yengil qiladi. Fikrni aniqroq yetkazish — ba’zan

sinonimlar yoki boshqa shaklda ifodalangan iboralar orqali murakkab fikrni oddiyroq, tushunarliroq qilish mumkin. Plagiatni oldini olish — matnni o‘zgartirish orqali boshqa manbadan olgan fikrni o‘z uslubingizda qayta ifodalashga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ko‘pgina lingvistik manbalarda "perefraz" tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: "so‘z yoki so‘z birikmasining takrorlanishining oldini olish, hikoyaga katta ifodalilik berish uchun ishlatiladigan ta’rifiy ibora" [1]. Zamonaviy lingvistikada ushbu tushunchaning tarkibida bir necha asosiy komponentlar mavjud: ta’rifiy nomlash usuli, istioraviy (kinoya orqali) ma’no ifodalash va tropik ifoda vositasi sifatida qaralishi.

Rossiyalik olim o‘z tadqiqotlarida "perefraz" (yoki "parafraz") tushunchasiga ikkita ta’rif beradi:

1. O‘z o‘rnida boshqa so‘z yoki iborani almashtiruvchi ta’rifiy ifoda.
2. Oddiy so‘zni ta’rifiy ibora bilan almashtirishdan iborat bo‘lgan trop[2].

Iboralarni perefraz qilish jarayoni tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonning nazariy asoslari semantika, pragmatika va stilistikaga tayanadi.

Perefrazning frazeologiyaga aloqadorligi lingvistikada to‘liq aniqlanmagan masalalardan biri hisoblanadi. L.N. Sinelnikova perefrazga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi:

- mustaqil ifoda shakliga ega bo‘lishi,
- semantik jihatdan bo‘linmasligi,
- so‘z o‘rnini bosuvchi birlik bo‘lishi,
- o‘ziga xos kontekst talab qilishi,
- gapning mustaqil a’zosi sifatida ishlatilishi [3].

Semantik jihatdan, iboralarni perefraz qilish ularning asosiy ma’nosini saqlab qolgan holda yangi shaklda ifodalashni talab qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, iboralarning kontekstga mos kelishi va aniq tushunarli bo‘lishi zarur. Stilistik jihatdan esa, turli uslublarga mos ravishda iboralarning o‘zgartirilishi mumkin[4].

Iboralarni perefraz qilishning bir necha turlari bor. Eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

Sinonimik almashtirish – iboradagi so‘zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish orqali yangi ifoda yaratish.

Misol: Asl gap: *lekin ularning oldilarida otasining boshi bukildi.*

Perefraz: *lekin ularning oldilarida otasining yuzi yerga qaradi.*

Strukturaviy o‘zgarish – iboraning grammatik tuzilishini o‘zgartirib, uning ma’nosini saqlab qolish.

Misol: Asl gap: *shu arava ustida hali hushi o'ziga kelmagan Nazirqul yotibdi.* Perefraz: *Nazirqul shu arava ustida hali hushi o'ziga kelmagan holda yotibdi.*

Qisqartirish va kengaytirish – iborani yanada qisqa yoki kengroq shaklda ifodalash.

Misol: Asl gap: *Olti oy yoz, olti oy qish, kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qildi.*

Perefraz:(qisqartilgan) *Olti oy yoz, olti oy qish, kecha- kunduz demay mehnat qildi.*

Perefraz:(kenggaytirilgan) *Olti oy yoz, olti oy qish, kechani kecha, kunduzni kunduz demay, tinim bilmay, vaqt tanlamay mehnat qildi.*

Metaforik almashtirish – iboralarning badiiy ifodalash shaklini o‘zgartirish orqali yangi uslub yaratish.

Asl gap: *U juda g‘azablandi.*

Perefraz: *Uning ichida olov alanga oldi*.

Sinonim iboralarni aniqlash va ularni almashtirish jarayoni avvalo matnlarni turli uslubiy shakllarda ifodalash va tarjima jarayonlarida muqobil variantlarini tanlashga yordam beradi.

Iboralarni perefraz qilish jarayonida turli lingvistik va semantik qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Eng ko‘p uchraydigan qiyinchiliklar quyidagilardir:

- Ko‘p ma’nolilik (polisemantik) muammosi – ayrim iboralar bir nechta ma’noga ega bo‘lgani uchun ularni sinonim iboralarni aniqlashda noaniqlik yuzaga kelishi mumkin.
- Madaniy tafovutlar – turli tillarda yoki madaniyatlarda iboralarning ifoda tarzi va konnotatsiyasi farqlanadi.
- Grammatik moslik – iboralarning perefraz qilingan shakllari grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Iboralarni perefraz qilishda ko'p ma'nolilik, madaniy tafovutlar va grammatik moslik muammolari bo‘lishi tabiiy. Madaniy va pragmatik moslikni ta'minlash, mos sinonimlarni tanlash va grammatik me'yorlarga rioya qilish perefraz jarayonining sifatini oshirishrishga yordam beradi. Shunday ekan iboralarni sifatli

va to'g'ri qayta ifodalash, sinonimlarini aniqlash va ularni almashtirishda ilmiy izlanishlar, usullar va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilib, o‘rganib keyin amalga oshirish lozim.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda iboralarni perefraz qilish, sinonim iboralarni aniqlash masalasi atroflicha tahlil qilindi Perefrazlash tilshunoslik va sun’iy intellekt sohalarida muhim ahamiyat kasb etib, tabiiy tilni qayta ishlash, tarjima qilish, matn qisqartirish hamda ma’lumotlarni yanada tushunarli shaklda taqdim etishda keng qo‘llaniladi.Tadqiqot davomida iboralarni sinonim iboralarni aniqlash ning **leksik, sintaktik va semantik** darajalari tahlil qilindi. Shuningdek**, sinonimik almashtirish, strukturaviy o‘zgarish, metaforik qayta ifodalash** kabi yondashuvlarning samaradorligi muhokama qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iboralarni samarali perefraz qilish, sinonim iboralarni aniqlash uchun nafaqat so‘zlarni almashtirish, balki gap qurilishini o‘zgartirish va kontekstga mos muqobil variantlarni tanlash muhim hisoblanadi. Kelajakda ushbu tadqiqotni yanada rivojlantirish maqsadida avtomatlashtirilgan perefrazlash usullari, jumladan, **neyron tarmoqlar va transformer modellar** asosida ishlab chiqilgan yondashuvlarni o‘rganish va ularning tabiiy til bilan ishlash jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish lozim. Shu bilan birga, turli tillarda iboralarni sinonim iboralarni aniqlash ning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Головенченко, А.Ф. Перифраз // Краткий словарь литературоведческих терминов / ред.- сост. Л.И. Тимофеев, С.В. Тураев. М.: Просвещение, 1985. 5. Грехнева Л.В. С
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Сов.энциклопедия, 1969. 608 с
3. Синельникова Л.Н. К вопросу о сущности перифразы как функционально-семантической единицы речи // Вопросы грамматического строя современного русского языка. М., 1972. С. 255–261
4. Гукова Л.Н., Фомина Л.Ф. Топонимическая перифраза: введение в проблему. Ономастические науки. Киев: Ин-т украинского языка НАН Украины. 2006. № 1. С. 72–81
5. Automatically Ranked Russian Paraphrase Corpus for Text Generation Vadim Gudkov1, Olga Mitrofanova2, Elizaveta Filippskikh3 Saint Petersburg State University1;2 st071220@student.spbu.ru1, o.mitrofanova@spbu.ru2 CraftTalk3 efilippskikh@ crafttalk.ru3

KNN-ALGORITMI YORDAMIDA SO‘Z MA’NOSINI ANIQLASH
(sifat so‘z turkumi misolida)

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Xushmuratova Madina Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
xushmurodovamadina209@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Kompyuter lingvistikasi sohasining muhim vazifalaridan biri so‘z ma’nosini aniqlashdir. So‘z ma’nosini aniqlash atamasi negizida semantik tahlil elementlari aniqlash masalasi yetakchilik qiladi. Bu elementlar omonim, polisemantik, polifunksional so‘zlar, nomlangan obyektlarni tanib olish (NER) meronim, holonim so‘zlardir. Avtomatik semantik tahlilni amalga oshirish turlicha yondashuvlarni talab qiladi. Zamonaviy yondashuvlardan foydalanish yuqori aniqlikka erishishni ta’minlaydi. Ana shunday yondashuvlardan biri Mashinali o‘qitish yondashuvi bo‘lib, bu yondashuv algoritmlari uchta guruhga bo‘linadi: Nazorat ostida o‘qitish, nazoratsiz o‘qitish, yarim nazorat ostida o‘qitish algoritmlari. Ushbu maqolada nazorat ostida o‘qitish algoritmlaridan bir KNN algoritmi yordamida omonim so‘zlarni semantik farqlash ketma-ketligi keltirilgan.

Annotation: One of the key tasks in the field of computational linguistics is word sense disambiguation. The term “word sense disambiguation” is primarily associated with identifying elements of semantic analysis. These elements include homonyms, polysemantic and polyfunctional words, named entity recognition (NER), meronyms, and homonyms. Performing automatic semantic analysis requires various approaches. Using modern methods ensures high accuracy. One such method is the Machine Learning approach, which is divided into three groups: supervised learning, unsupervised learning, and semi-supervised learning algorithms. This article presents a sequence of semantic disambiguation of homonymous words using one of the supervised learning algorithms-the KNN algorithm.

Аннотация: Одной из важных задач в области компьютерной лингвистики является определение значения слова. Термин «определение значения слова» подразумевает выявление элементов семантического анализа. К таким элементам относятся омонимы, полисемантические и полифункциональные слова, распознавание именованных сущностей (NER), меронимы и холонимы. Автоматический семантический анализ требует различных подходов. Применение современных методов обеспечивает

высокую точность. Одним из таких подходов является машинное обучение, которое подразделяется на три группы: обучение с учителем, обучение без учителя и частично контролируемое обучение. В данной статье представлена последовательность семантического различения омонимов с использованием одного из алгоритмов обучения с учителем — алгоритма KNN.

Kalit so‘zlar: *So‘z ma’nosini aniqlash, tabiiy tilga ishlov berish, omonim, mashinali o‘qitish, KNN*

Kirish

So‘z ma’nolarini aniqlash (WSD) tabiiy tilga ishlov berish (Natural Language Processing, NLP) sohasidagi muhim muammolardan biri bo‘lib, axborot izlash, mashina tarjimasi, nutqni tanib olish kabi ko‘plab ilovalar uchun zarurdir. WSD muammosi shundan iboratki, ko‘p ma’noli so‘z (polisemiya), vazifadoshlik (polifunksional), omonim so‘zlar turli kontekstlarda ma’nolarni ifodalaydi va bu so‘zning joriy kontekstdagi ma’nosini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi [1]. Mashina odam singari so‘zning ma’nosini to‘g‘ri tushunishi uchun katta hajmdagi ma’lumotlar talab etiladi. Shu sababli, ko‘p hollarda statistik va ehtimollik modellari asosida yondashuvlar ishlab chiqilgan. Buni quyidagi “havoli” so‘zi misolida ko‘rib chiqildi. Bu so‘z bir so‘z turkumida ya’ni sifat so‘z turkumida omonimlikni tashkil qiluvchi so‘z hisoblanadi. Bu omonim so‘z konteksda kelganda qaysi ma’noda kelganini aniqlash uchun avval uning yonidagi qo‘shni so‘zlarini topib, eng ko‘p qaysi so‘z bilan kelishi aniqlanib olib, shu orqali ma’nosi aniqlanishi mumkin:



1-rasm. Havoli so‘zining ma’nolari

WSD muammosini hal qilish uchun turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, shulardan eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuv mashinali o‘qitish yondashuvidir.

Mashinali o‘qitish yondashuvi o‘qitiladigan ma’lumotlarning turiga qarab uchta guruhga bo‘linadi:

Nazorat ostidagi algoritmlar – annotatsiyalangan (sense-tagged) korpuslardan foydalanib mashinani o‘rgatish [2].

Nazoratsiz algortimlar – belgilanmagan yoki teglanmagan (unlabeled) korpuslar asosida klasterlash usullari orqali ma’nolarni ajratish [2].

Yarim nazorat ostidagi algoritmlar – yuqoridagi ikkala yondashuvni birlashtirgan usullar [2].

Ushbu maqolada nazorat ostidagi algoritmlar guruhiga mansub bo‘lgan KNN algoritmi yordamida so‘z ma’nosini aniqlashni ko‘rib chiqiladi.

K-NN algoritmi. K-NN – nazorat ostidagi mashinali o‘qitish algoritmi bo‘lib, semantik o‘xshashlikka asoslangan klassifikatsiya usulini qo‘llaydi [3]. Noaniq so‘z uchun eng yaqin k ta o‘xshash namunalar topilib, ular asosida ushbu so‘zning ma’nosi aniqlanadi. Bu jarayon ketma-ketligini 2-rasmda ko‘rish mumkin:



2-rasm. K-NN algoritmi ketma-ketligi

2-rasmdagi jarayonlarni ta’riflab o‘tsak.

Xususiyatlarni ajratish. Bu atama ingliz tilida Feature Extraction ya’ni xususiyatlarni ajratish deb nomlanadi [3]. WSD tizimini ishlab chiqishda xususiyatlarni to‘g‘ri ajratish juda muhim. Xususiyatlar to‘plami quyidagi turlardan iborat:

Ko‘p uchraydigan so‘zlar to‘plami (TF - Term Frequency). Bu usulda, matndagi eng ko‘p uchraydigan so‘zlar tanlanadi. TF asosida noaniq so‘zning biror ma’nosini ifodalaydigan kontekstda eng ko‘p uchraydigan so‘zlar bo‘lib, ular noaniq

so‘zning ma’nosini aniqlashda yordam beradi [4]. Bu jarayonni quyidagi 3-rasmdagi 1 va 2-kontekstlarda uchragan *bo‘yli* omonim so‘zi misolida ko‘rib chiqiladi, bu so‘z sifat so‘z turkumi doirasida omonimlikni hosil qilib, turli kontekstlarda turli ma’nolarni ifodalashi mumkin:



3-rasm. Konteks asosida ma’no ajratish (bo‘yli so‘zi misolida)

“Bo‘yli” so‘zi 1- kontekstda “kishi” so‘zi bilan, 2-kontekstda esa “daraxtzor” so‘zlari atrofida paydo bo‘lgan. Omonim so‘zning eng ko‘p uchraydigan birikuvchilarini hisobga olish orqali kontekst ma’nosi aniqlanadi.

Atrofdagi so‘zlar to‘plami. Noaniq so‘zning atrofidagi so‘zlar hisobga olinadi, masalan, Word2Vec yoki boshqa embedding usullari yordamida [5]. 3-rasmdagi 2 ta kontekstda ham mavjud bo‘lgan “bo‘yli” so‘zining atrofidagi bu so‘z bilan kelgan so‘zlari turlicha. Birinchi jumlada “kishi” va “kelayotgan” so‘zlari bilan, ikkinchi jumlada esa “daraxtzor” va “yer” so‘zlari bilan birikib kelgan. Omonim so‘zning har bir ma’nosi bo‘yicha jamlangan gaplarning soni ortishi bilan ularning birikuvchilari soni ham oshadi, bu esa so‘zning konteks ma’nosi aniqlanishida yordam beradi. Omonim so‘zning kontekst ma’nosini uning birikuvchilari yordamida aniqlashda turli algoritmlardan foydalanish mumkin. Shunday algoritmlardan biri KNN algoritmi.

*K-eng yaqin qo‘shni (K-NN) algoritmi*ning ishlash prinsipi:

Ma’lumotlarni tayyorlash: Boshqa so‘zlar bilan ajratilgan ma’lumotlar (masalan, matndagi so‘zlar) mavjud bo‘ladi.

Masofa o‘lchovi: So‘zlar orasidagi o‘xshashlikni masofa yordamida o‘lchash mumkin. K-NN algoritmida masofa o‘lchovlari sifatida Evklid masofasi ko‘pincha ishlatiladi.

Eng yaqin k ta qo‘shnini topish: Yangi so‘z uchun eng yaqin k ta qo‘shni so‘zlar tanlanadi.

O‘rganish va klassifikatsiya: Bu k ta qo‘shnilar asosida yangi so‘zning ma’nosi aniqlanadi. Ya’ni, yangi kiritilgan gapdagi noaniq so‘zning ma’nosi, uning atrofidagi k ta qo‘shni so‘zlarning umumiy ma’nosi bilan bog‘lanadi [6].

Sifat so‘z turkumi doirasidagi omonim so‘zlarni knn algoritmi yordamida semantik farqlash jarayonini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilida faqat sifat so‘z turkumi doirasida omonimlik hosil qiluvchi omonim so‘zlarni “O‘zbek tili izohli lug‘ati” dan yig‘ilganida 82 tani tashkil etib, ular jami 175 ma’noni qamrab oladi. Ushbu omonim so‘zlarning kontekst ma’nosini KNN algoritmi yordamida aniqlashdagi dastlabki jarayon ma’lumotlarni jamlash bo‘lib, omonim so‘zlarning har bir ma’nosini anglatuvchi 100 tacha gaplar jamlandi. Jamlangan gaplar asosida sifat omonimlarni aniqlash uchun KNN algoritmidan foydalanildi. K-NN algoritmi uchun k koeffitsentini tanlash muhim sanaladi. Jahon tajribasiga ko‘ra k=3, 5 kabi belgilash mumkin ekan, asosa k=3 kabi qo‘llanilgan.



4-rasm. Qo‘shni so‘zlarni aniqlash

Vazn berish strategiyasi (Weighting Strategy) so‘zlarning ma’nolarini aniqlashda, ularning matndagi joylashuvi va chastotasi muhim rol o‘ynaydi. Har bir so‘zning vaznini quyidagi formulaga asoslanib hisoblash mumkin:

$$w(k, f_i) = \frac{C(k, f_i)}{C(k)}$$

Bu yerda:

N (k, f-i) – k-ma’nodagi so‘z bilan birga uchraydigan f-i xususiyatli so‘zlar soni,

N (k) – k-ma’nodagi umumiy namunalar soni.

1-jadval.Omonin so‘zlar statistikasi

So‘z	Atrofdagi so‘zlar bilan (%)	Tez-tez uchraydigan so‘zlar bilan (%)	Ikkisini birga ishlatganda (%)
bo‘ydor	90.7	89.7	90.7
bo‘sh	76.8	75.8	76.8
bo‘yli	75.6	72.6	75.6
bog‘li	78.6	82.1	78.6
sirli	61.2	56.9	63.8
belli	70.1	65.7	71.1
O‘rtacha:	75.5	73.8	76.1

O‘rtacha aniqlik: 76.1%

Taklif etilgan metod ilgari ishlab chiqilgan yondashuvlardan yaxshiroq natija ko‘rsatildi.

Xulosa

Mazkur maqolada tabiiy tilni qayta ishlashda muhim hisoblangan so‘z ma’nolarini aniqlash muammosi amaliy jihatdan yoritildi. K-NN algoritmiga asoslangan nazorat qilinuvchi yondashuv yordamida sifat so‘z turkumidagi ko‘p ma’noli so‘zlar kontekst asosida tahlil qilindi. Eksperimentlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, kontekst oynasi (Context Window) va so‘z chastotasi asosida xususiyatlar ajratish, shuningdek, vazn berish strategiyalarining qo‘llanishi model aniqligini sezilarli darajada oshiradi. To‘plangan gaplar test qilish natijasida o‘rtacha 76.1% aniqlik kuzatildi, bu esa ilgari mavjud yondashuvlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda kontekstga asoslangan chuqur o‘rganish (deep learning) modellarini, jumladan BERT kabi neyron tarmoqlarni qo‘llash, boy va ko‘p tilli korpuslar asosida ma’no ajratish tizimlarini ishlab chiqish, hamda cross-lingual yondashuvlar orqali turli tillarda WSD tizimlarini taqqoslab o‘rganish rejalashtirilgan. Bu esa tilshunoslik va sun’iy intellekt kesishgan sohaga katta ilmiy va amaliy hissa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boulder, Colorado. Statistical Post-Editing of a Rule-Based Machine Translation System, Proceedings of NAACL HLT 2009: Association for Computational Linguistics, pp 217-224

2. Arabic/English Word Translation Disambiguation using Parallel Corpora and Matching Schemes, 8th EAMT conference, 22-23 September 2008, Hamburg, Germany, pp. 6-11.

3. Abdul-Rauf and Holger Schwenk. On the use of Comparable Corpora to improve SMT performance Sadaf. 12th Conference of the European Chapter of the ACL, pages 16–23, Athens, Greece, 30 March – 3 April 2009.pp 16-23

4. Yarowsky.: Decision Lists for Lexical Ambiguity Resolution: Application to Accent Restoration in Spanish and French. In Proceedings of the 32nd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, pp. 88-95 (1994).

5. Mikolov, T., Chen, K., Corrado, G., & Dean, J. (2013). Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space (2013).

6. Gale, K. Church, and D. Yarowsky.: A Method for Disambiguating Word Senses in a Large Corpus. Computers and Humanities, vol. 26, pp. 415-439 (1992).

7. Baker, P., McEnery, T., Hardie, A. . A glossary of corpus linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press. (2006).

WORDNET ASOSIDA SO‘Z MA’NOSINI ANIQLASH

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Muxammadyakubova Mo‘mina Esojon qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
saidakadirova002@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) sohasida so‘zning aniq ma’nosini aniqlash – ya’ni, Word Sense Disambiguation (WSD) – dolzarb va murakkab vazifalardan biridir. Matn kontekstida bitta so‘z turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, qaysi ma’no aynan shu kontekstga mos kelishini aniqlash talab etiladi. *WSD* nafaqat tilni avtomatik tushunishda, balki tarjima, axborot qidiruvi va boshqa ko‘plab amaliy sohalarda ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda usullar asosan statistik yondashuvlar va mashinani o‘rganish algoritmlariga tayansa-da, ular katta hajmdagi belgilanganda ma’lumotlarga ehtiyoj sezishi va tilning murakkab semantik munosabatlarini to‘liq aks ettira olmasligi sababli cheklovlarga ega. Shu sababli, so‘nggi yillarda WordNet kabi boy leksik resurslardan, xususan uning bilimga asoslangan imkoniyatlaridan samarali foydalanish g‘oyasi ilgari surildi. Ushbu maqola WordNetning leksik semantik tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari, bilimga asoslangan yondashuvi va bu yondashuv asosida so‘z ma’nosini aniqlash uchun ishlab chiqilgan yangi algoritmik metodlarni tahlil qiladi.

Abstract. In the field of Natural Language Processing (NLP), determining the exact meaning of a word - that is, Word Sense Disambiguation (WSD) - is one of the current and complex tasks. Since a single word can have different meanings in the context of a text, it is necessary to determine which meaning corresponds to this context. WSD plays an important role not only in automatic language understanding, but also in translation, information retrieval, and many other practical areas. Although currently the methods are mainly based on statistical approaches and machine learning algorithms, they have limitations due to the need for large amounts of data and the inability to fully reflect the complex semantic relationships of the language. Therefore, in recent years, the idea of effectively using rich lexical resources such as WordNet, in particular its knowledge-based capabilities, has been put forward. This article analyzes the lexical semantic structure of WordNet, its main components, knowledge-based approach, and new algorithmic methods developed based on this approach for determining the meaning of words.

Абстрактный. В области обработки естественного языка (NLP) определение точного значения слова, то есть устранение неоднозначности слов (WSD), является одной из актуальных и сложных задач. Поскольку одно слово может иметь разные значения в контексте текста, необходимо определить, какое значение соответствует этому контексту. WSD играет важную роль не только в автоматическом понимании языка, но и в переводе, поиске информации и многих других практических областях. Хотя в настоящее время методы в основном основаны на статистических подходах и алгоритмах машинного обучения, они имеют ограничения из-за необходимости больших объемов данных и невозможности в полной мере отразить сложные семантические связи языка. Поэтому в последние годы выдвигается идея эффективного использования богатых лексических ресурсов, таких как WordNet, в частности его возможностей, основанных на знаниях. В данной статье анализируется лексико-семантическая структура WordNet, ее основные компоненты, подход, основанный на знаниях, и новые алгоритмические методы, разработанные на основе этого подхода для определения значения слов.

Kalit so‘zlar: *WordNet, Semantik tahlil, So‘z ma’nosi aniqlash, Leksik-semantik tarmoq, Ontologiya, Synset, NLP, Ma’no munosabatlari.*

Kirish. Tabiiy tilga ishlov berish sohasida so‘z ma’nosini aniqlash masalasi sohaning dolzarb masalalaridan biri. So‘z ma’nosini avtomatik aniqlashda turli yondashuvlardan foydalanish mumkin.

- Bilimga asoslangan yondashuvlar
- Mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuvlar
- Gibrid yondashuvlar

Bilimga asoslangan yondashuv – oldindan belgilangan lingvistik qoidalar yordamida so‘zning turli kontekstlardagi ma’nolari aniqlanadi. Ushbu yondashuv ham o‘z navbatida qoidaga asoslangan, *WordNet* yoki *Tezaurusga* asoslangan algoritmlarga bo‘linadi.

Tabiiy tilning qat’iy qoidalari asosida so‘z ma’nosini aniqlash mumkin, ammo bu usuldan foydalanish barcha noaniq so‘zlarni aniqlash imkonini bermaydi. Tilning WordNet tizimi yordamida ham so‘z ma’nosini aniqlash mumkin.

WordNet – tabiiy tildagi so‘zlar va ularning o‘zaro semantik munosabatlarini tizimli shaklda aks ettiruvchi yirik leksik ma’lumotlar bazasidir. Ushbu resurs so‘zlarning ma’nolari, sinonimlik, antonimlik va iyerarxik bog‘lanishlarini aniqlik bilan ifodalaydi. Tabiiy tilning WordNet tizimi tilning semantik strukturasini

chuqurroq o‘rganish, kontekstual tahlilni amalga oshirish va morfologik xususiyatlarni (qo‘shimchalar, so‘z yasash tizimi va boshqalar) qamrab oladi.

Tilning semantik strukturasi so‘zlar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni aniqlaydi va ularni iyerarxik tarzda tasniflaydi. *Kontekstual tahlil* esa so‘zning turli kontekstlarda qanday ma’nolarda qo‘llanilishini o‘rganish. *Morfologik moslashuv* o‘zbek tilining boy qo‘shimcha tizimi va so‘z yasash xususiyatlarini hisobga olgan holda leksik ma’lumotlarni shakllantirish demakdir.

WordNetning tizimi bir qancha qismlarga bo‘linadi. Quyida uning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan:

a) Sinonim to‘plamlari bu *Synsets* deb ham nomlanadi. Har bir *Synset*, ya’ni sinonimlar to‘plami – bitta aniq semantik tushunchani ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida “go‘zal”, “chiroyli”, “jozibali”, “maftunkor” kabi so‘zlar bitta guruh sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Synset to‘plamlari yordamida semantic aniqlik hamda kontekstual moslashuvchanlik masalalarini yechish mumkin.

b) Umumiy va xos atamalar (Giperonim va Giponim). Bu munosabatlar so‘zlar o‘rtasidagi iyerarxik bog‘lanishni ifodalaydi:

Giperonim: Kengroq tushunchani ifodalaydi, masalan, “transport vositasi”. Giponim: Ushbu umumiy tushunchaga kiritilgan aniqroq tushunchalarni bildiradi. Masalan, “avtomobil”, “velosiped”, “avtobus”. Demak Giponim so‘zlar giperonimlarni tarkibiy qismi bo‘ladi. Giponim va giperonimlar so‘zlarning semantik munosabatlarini yanada aniqroq aks ettirishga yordam beradi.

c) Qismlar va butunlik munosabatlari (Meronim va Holonim). Bu bog‘lanishlar obyektning qismlari bilan uning butunligi o‘rtasidagi aloqani ifodalaydi:

Meronimlar obyektning alohida qismlarini aks ettiradi. Masalan, “uy” so‘zida “eshik”, “deraza”, “tom”. Holonimlar esa qismlardan butunlikni qayta tiklaydi, ya’ni, qismlar asosida to‘liq obyekt tuzilishini aniqlashga imkon yaratadi.

d) Qarama-qarshi ma’nolar. Antonim– so‘zlarning qarama-qarshi yoki zidd ma’nolarini ifodalaydi. Masalan, “yuqori” va “pastki”, “katta” va “kichik” kabi tushunchalar. Antonim so‘zlar yordamida *semantik chegaralarni belgilash, kontekstual tahlil* qilish kabi masalalarni yechishda yordam berishi mumkin.

WordNetning eng katta afzalliklaridan biri – uning semantik munosabatlarni grafik shaklida aks ettirishi hisoblanadi. Har bir so‘z yoki sinonim to‘plami o‘zaro bog‘lanib, ular orasidagi aloqalar orqali ifodalanadi.

WordNet yordamida so‘z ma’nosini aniqlash. So‘z ma’nosini aniqlash tabiiy tilni tushunish va ishlov berishda muhim bosqichlardan biridir. Bitta so‘zning turli kontekstlarda turlicha ma’nolarga ega bo‘ladi.

1-jadval: Omonimlar va ularning ma’nolari

Omonim so‘zlar	So‘z turkumlari	So‘z ma’nolari
olchin	ot	O‘zbek xalqining etnik sos-taviga kirgan urug‘lardan birining nomi.2 Shu uruqqa mansub kishi.
		Uzunlik o‘lchov birligi; ar-shin (q.) va gaz (q.) qiymatlariga teng.
Ombir	ot	Dastasi uzun katta yog‘och to‘qmoq
		ombur.
		Devor tagidan suv o‘tishi uchun qoldirilgan tuynuk; quvur.

WordNet yordamida so‘z ma’nosini aniqlashda bir nechta algoritmlardan foydalanish mumkin:

Leacock-Chodorow o‘lchovi: WordNetdagi so‘zlar orasidagi masofani va iyerarxik bog‘lanishlarni hisobga olib, ikki so‘z orasidagi masofani aniqlaydi. Ushbu o‘lchov yordamida ularning semantik yaqinligi baholanadi. Ikkita so‘z orasidagi semantik o‘xshashlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$sim(c_1, c_2) = -\log \frac{lenght(c_1, c_2)}{2 \times maxDepth}$$

Bu yerda, $sim(c_1, c_2)$ – c_1 va c_2 so‘zlarning o‘xshashlik koeffitsiyenti, $lenght(c_1, c_2)$– c_1 va c_2 so‘zlar orasidagi masofa, $maxDepth$ – butun ontologik daraxtdagi *eng katta chuqurlik*, ya’ni ildiz (root) tugunidan eng chuqur joylashgan tugungacha bo‘lgan masofa yoki balandlik. Bu parametr normalizatsiya uchun kerak. WordNet’da **tushunchalar,** synsetlar shaklida tashkil qilingan, ularning har birining giperonimi mavjud. **maxDepth**ni aniqlash uchun har bir synset uchun ildizgacha bo‘lgan yo‘l uzunligi hisoblanadi. Semantik o‘xshashlikni aniqlashning yana bir usuli Wu-Palmer o‘lchovidir.

Wu-Palmer o‘lchovi: So‘zlar ierarxiyasidagi eng past umumiy domenanta (common ancestor) ga nisbatan har bir so‘zning chuqurligi hisobga olinadi. Natijada, ikki so‘z orasidagi semantik o‘xshashlik aniqlanib, ularning qanchalik yaqin yoki uzoq ekanligi o‘lchanadi.

Formula:

$$sim(c_1, c_2) = \frac{2 \times Depth(LCS)}{Depth(c_1) + Depth(c_2)}$$

c_1, c_2-taqqoslanayotgan ikkita tushuncha

$Depth(c_1), Depth(c_2)$– c_2 va c_1 tushunchalarning WordNet iyerarxiyasidagi chuqurligi, ya’ni ildizdan boshlab nechinchi qatlamda joylashgani

$Depth(LCS)$–“Lowest Common Subsumer” — c_2 va c_1 tushunchalar uchun umumiy bo‘lgan eng chuqur (yaqin) umumlashtiruvchi tushunchaning chuqurligi.

Agar tabiiy tilning WordNet tizimi mavjud bo‘lsa yoki tildagi so‘zlarning sinset to‘plamlari tuzilgan bo‘lsa, uni quyidagicha aniqlash mumkin. O‘zbek tilidagi so‘zlarning sinset to‘plamlaridan foydalanib aniqlash mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan algoritmlar WordNet bilimga asoslangan yondashuvi yordamida turli so‘zlarning ma’nolarini kontekstga mos ravishda farqlash uchun ishlatiladi. Formulalar biror bir dasturlash tilida kodlash orqali hisoblanadi. Nlp masalalarini hal qilish uchun Python eng qulay til hisoblanadi.

```
From nltk.corpus import synset as wn

def get_wupalmer_similarity (w1, w2, pos=’n’):
    sin1 = wn. Synsets(w1, pos=pos)
    sin2 = wn. Synsets(w2, pos=pos)
    if not sin1 or not sin2:
        return None


    max_sim = 0
    for s1 in sin1:
        for s2 in sin2:
            sim = s1.wup_similarity(s2)
            if sim and sim > max_sim:
                max_sim = sim


    return max_sim
```

Izlanishlar davomida o‘zbek tilidagi leksik omonimlarning semantik to‘plamlari tuzilib json formatga joylandi. Hosil qilingan dataset ustida algoritmlardan foydanildi va 1-jadvaldagi kabi natijalar olindi.

2-jadval: Algoritmlarning aniqlik darajasi

Algoritm	Aniqlik (%)	F1-O‘lchov
Lesk	72.5	68.3
Wu-Palmer	78.9	74.1
Leacock-Chodorow	81.2	79.5

Xulosa. Ushbu maqolada WordNetning leksik ma’lumotlar bazasi, uning asosiy tarkibiy qismlari, bilim grafigi yondashuvi va so‘z ma’nosini ajratib ko‘rsatish (WSD) jarayoni batafsil yoritildi. WordNet bilim grafigi yordamida ishlab chiqilgan yangi algoritmik yondashuv, Leacock-Chodorow, Wu-Palmer va Lesk kabi metodlar asosida so‘zlar orasidagi semantik o‘xshashlikni aniqlash imkonini beradi. Eksperimental natijalar ushbu yondashuvning yuqori aniqligi va samaradorligini tasdiqladi. Jahon miqyosidagi izlanishlar va taqqoslashlar asosida, WordNet bilimga asoslangan yondashuvi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi, chunki u tarjima, axborot qidiruvi va sun’iy intellekt tizimlarida keng qo‘llanilishi mumkin.

Kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari, jumladan, transformer modellar bilan integratsiya, ko‘p tilli qo‘llab-quvvatlash, katta hajmdagi ma’lumotlar ustidagi eksperimentlar va gibrid tizimlar yaratish, ushbu metodologiyani yanada mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan. Natijada, tilni qayta ishlash tizimlarining samaradorligi oshib, foydalanuvchilarga aniq, ishonchli va mantiqiy xizmatlar taqdim eta oladi. Ushbu maqola WordNet bilimga asoslangan yondashuvi yordamida so‘z ma’nosini ajratib ko‘rsatishning yangi yondashuvini ko‘rsatib, tilshunoslik va amaliy dasturlarda yanada ilg‘or natijalarga erishish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arindam Chatterjee, Salil Rajeev Joshi, Mitesh M. Khapra, Pushpak Bhattacharyya, “IndoWordNet va Word Sense Disambiguation uchun Asboblar Tanishtiruvi”, http://www.cfilt.iitb.ac.in/wordnet/webhwn/IndoWordnetPapers/18_Tools%20for%20IndoWordNet%20&%20WSD.pdf
2. C. Fellbaum, “WordNet: An Electronic Lexical Database”, MIT Press, 1998. Lokesh Nandanwar, Kalyani Mamulkar, “Supervised, Semi-Supervised and Unsupervised WSD Approaches: An Overview”, International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN (Online): 2319-7064
3. Kuhoo Gupta, Manish Shrivastava, Smriti Singh va Pushpak Bhattacharyya, “Morphological Richness Offsets Resource Poverty- an Experience in Building a POS Tagger for Hindi”, COLING/ACL-2006, Sidney, Avstraliya, iyul, 2006.

https://pdfs.semanticscholar.org/1daa/370563deb1e9f5772d6ada1edfb4ec4cd7b4.pdf

4. Banerjee va Pederson, “An adapted Lesk algorithm for Word Sense Disambiguity using Word Net”, http://www.cs.cmu.edu/~banerjee/Publications/cicling2002.pdf

5. Sinha M. va boshqalar, “Unsupervised Graph-based Word Sense Disambiguation Using Measures of Word Semantic Similarity”, http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.62.3892&rep=rep1&type=pdf

O‘ZBEK TILI MATNLARIDA SO‘Z BIRIKMASINI AVTOMATIK ANIQLASHDA OMONIMIYA MASALASI

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna,
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
abdullayevaoqila@gmail.com
ToshDO‘TAU doktoranti DSc

Nizomova Fotima Bo‘rixo‘ja qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
nizomovaf44@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashning zarurligi va uning sintaktik tahlildagi ahamiyati o‘rganib chiqilib xulosa va fikrlar berildi. Bunda o‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashda omonimiya masalasi haqida fikr yuritildi. Maqolada boshqaruvli so‘z birikmasining nazariyasi o‘rganilib chiqildi va undagi omonimiya masalasi ko‘rsatildi. Boshqaruvli so‘z birikmasining teg va modellari ishlab chiqildi va uning ibora (turg‘un bog‘lanma) bilan omonimligi va farqlari haqida ham fikr va xulosalar berildi.

Annotation. In this article, the necessity of automatic identification of word combinations in Uzbek text and its importance in syntactic analysis were examined, along with conclusions and insights provided. The issue of ambiguity (homonymy) in automatic identification of word combinations in Uzbek texts was discussed. The theoretical framework of governed word combinations was studied, and the issue of homonymy within it was highlighted. Tags and models for governed word combinations were developed, and conclusions and insights were also provided regarding their ambiguity and differences compared to idiomatic expressions (fixed phrases).

Аннотация. В этой статье была рассмотрена необходимость автоматического распознавания словосочетаний в текстах на узбекском языке и его важность для синтаксического анализа, а также приведены выводы и наблюдения. Обсуждался вопрос омонимии при автоматическом распознавании словосочетаний в узбекских текстах. Была изучена теоретическая основа управляемых словосочетаний, и выделена проблема омонимии в их рамках. Были разработаны теги и модели для управляемых словосочетаний, а также приведены выводы и наблюдения касаемо их омонимии и различий по сравнению с идиоматическими выражениями (фиксированными фразами).

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, boshqaruvli so‘z birikmasi, turg‘un birikma, erkin birikma, teg, POS teglash, omonimiya.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida struktur sintaksis, semantik sintaksis yo‘nalishlari paydo bo‘lishi bilan gapning sintaktik tuzilishiga, gap bo‘laklariga nisbatan yondashuv ham o‘zgardi. Formal grammatika talqiniga ko‘ra, faqat kesimgina gapning grammatik yadrosi sifatida e’tirof etildi. Gapning markaziy bo‘lagini belgilashga doir qarashlar dunyo tilshunosligida turlicha bo‘lib kelgan. Fransuz tilshunosi Lyusen Tenyerning verbosentrizm (lotincha “verbum” – “fe’l”, “kesim” ma’nolarini anglatadi, “centrum” – “markaz”) konseptsiyasi fe’lning gap markazi bo‘lgan kesim vazifasida kelishini ifoda etadi.[1]

Sintaksisni tekshirish orfografiyani tekshirishdan ko‘ra murakkabroq. Chunki orfografiyani tekshiruvchi dasturlar yaratilgan, lekin norasmiy matnlarning sintaktik jihatdan avtomatik tahriri masalasi haligacha hal etilgani yo‘q. Rasmiy matnlarning avtomatik tahriri bo‘yicha muhim natijalarga erishilgan [Xolmanova, 2020. 176]

O‘zbek tilida matnlarni avtomatik sintaktik tahlil qilish uchun bugunga qadar kompyuter lingvistikasida amaliy natijalarga erishilgani yo‘q. Ammo, bu sohada sintaktik analizator yaratish uchun dastlabki vazifalar amalga oshirilmoqda. Sintaktik analizator yaratishda so‘z birikmasining tobe va hokim qismlarni bir-biriga bog‘lanish aloqalarini o‘rganib chiqish va ularning teg va modellarini ishlab chiqish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashning ahamiyati va dolzarbligi



Boshqaruv aloqasi. Bu aloqada tobe so‘z hokim so‘zning talabi bilan ma’lum forma – shaklga kiradi: tobe so‘z yo biror kelishik qo‘shimchasini oladi, yo biror ko‘makchi bilan birga keladi. Shunga qarab, boshqaruv aloqasi ikki turga ajraladi:

- Kelishikli boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zning talabi bilan tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklaridan birida qo‘llanadi. Bu uning tobeligini ko‘rsatuvchi belgidir: *Iloji bo‘lsa, sizni bu saroydan hovliga ko‘chiramiz* (A. Qodiriy).

- Ko‘makchili boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zning talabiga binoan biror ko‘makchi bilan birga qo‘llanadi. Bu uning tobeligini ko‘rsatuvchi belgidir: 1. *U daraxtlarning qurigan shoxlarini tokqaychi bilan kesdi*. 2. *Chang salomatlik uchun zararlidir*.

Boshqaruv aloqasi orqali obyektli va holli munosabatlar ifodalanadi: bog‘ni tomosha qilmoq (obyektli munosabat), dalaga bormoq (holli munosabat), kitobga chizmoq (obyektli munosabat).

Boshqaruv aloqasida tobe so‘z ot yoki ot o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlardan, shuningdek, infinitiv va sifatdoshdan bo‘ladi. Hokim so‘z funksiyasida esa ko‘pincha fe’l qo‘llanadi. Biroq bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa so‘zlar ham kelishi mumkin. Bunda hokim so‘zning o‘zgarishi tobe so‘zga ta’sir qilmaydi.

Misollar: *Oyni etak bilan yopib bo‘lmas* (Maqol).

Yig‘lagani uchun cho‘chidi. (“Mushtum”).

Paxtaga kon O‘zbekiston (Qo‘shiq).

Uyat o‘limdan og‘ir (Maqol).

Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinar (Maqol).

Ko‘kaldosh ham Alpomishdan kam emas (F.Yo‘ldosh).

O‘zingda yo‘q - olamda yo‘q (Maqol).

Barchin qizim Qorajonga lozimdir (F.Yo‘ldosh). [Abdullayev, 1976. 14].

Tobe qismining hokim qismga ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi ko‘makchili boshqaruv hisoblanadi: *maktab tomon ketdi, ariq bo‘ylab yurdi*.

Ba’zan tobe qism hokim qismga kelishik shakli bilan birga, ko‘makchi yordamida ham bog‘lanishi mumkin. Bunday ikkita vositali boshqaruv kelishikli-ko‘makchili boshqaruv sanaladi: maktabga tomon ketdi - maktab tomonga ketdi. Shunga ko‘ra, bunday aloqani variantli va variantli bo‘lmagan aloqaga bo‘lish mumkin.

Variantli bo‘lmagan aloqada tobe qism hokim qism talabi bilan faqat bir shaklga ega bo‘ladi: *uyda chiqmoq, Karimni ko‘rmoq*. Variantli aloqada esa tobe qism hokim qismga bir necha shaklda bog‘lanadi: *uzum yemoq – uzumdan yemoq, maktabga ketmoq – maktab tomon ketmoq – maktab tomonga ketmoq* variantlarining har biri o‘zaro umumiylik-xususiylik, aniqlik-noaniqlik ma’nolari bilan farq qiladi. [Mahmudov, Nurmonov, 1995. 14]

Ushbu nazariyalardan xulosa qilib quyidagi sxemani keltirish mumkin.

So‘z birikmasi o‘z ichida 3 turga bo‘linadi:



So‘z birikmalari komponentlarining ma’no mustaqilligi va ularning birikish darajasiga ko‘ra *turg‘un birikma* va *erkin birikmaga* bo‘linadi.

Turg‘un birikma. Tilda bir qolipda, bo‘linmaydigan holda qo‘llanadigan so‘z birikmalari bor. Bunday iboralar so‘zlovchining xotirasida bir butun holatda saqlanadi va nutqda ham xuddi shu holatda qo‘llanadi. So‘zlovchi turg‘un iboralarni so‘zni ishlatgani kabi tanlab ishlatadi. Bunday iboralar gapda bitta so‘roqqa javob bo‘lib, bir bo‘lak vazifasida keladi. Masalan, G‘alaba shodiyonasi millionlar qatori Dildorning ham boshini ko‘klarga ko‘tardi (Y.Sh.) gapida boshini ko‘klarga ko‘tardi – nima qildi? – bitta bo‘lak – kesim vazifasida qo‘llangan. [Abdurahmonov, Sulaymonov, Xoliyorov, Omonturdiyev, 1979. 9]

Turg‘un birikma tarkibiga kiruvchi komponentlar tashqi tomondan grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ular ma’lum sintaktik aloqa turlarini hosil qiladilar (boshini ko‘tarmoq — boshqaruvli birikma shakli kabi). Biroq birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa jonli emas, birikma yaxlit holda boshqa biror bo‘lakni boshqarib keladi yoki shu holicha boshqa bo‘lak tomonidan boshqariladi:

Men sevinchimdan terimga sig‘may Xadraga yugurdim kabi turg‘un birikma bir leksik ma’no anglatuvchi bo‘lib qolganligi – leksikalizatsiyalashganligi uchun leksik birlik hisoblanadi. [Abdurahmonov, Sulaymonov, Xoliyorov, Omonturdiyev,1979. 10].

Turg‘un birikmalar, asosan, ikki yirik guruhga bo‘linadi [Abdurahmonov, Sulaymonov, Xoliyorov, Omonturdiyev,1979. 10]*:*

murakkab terminlar:

• Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi, Termiz Davlat pedagogika instituti, Janubiy Surxon suv ombori, O‘rta Rus pasttekisligi, "O‘qish kitobi", ishlab chiqarish boshqarmasi kabi;

frazeologik iboralar:

• Og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatmoq; Tegirmonga tushsa butun chiqmoq; Yulduzni beneravon urmoq; Qamchisidan qon tommoq; Orasidan qora mushuk o‘tmoq kabi

So‘z birikmasi va ibora (turg‘un bog‘lanma)ning farqi [Rasulova, 2018. 15]

So‘z birikmasi	*Ibora (turg‘un bog‘lanma)*
• *So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi*	• *Iboralar turg‘un bog‘langan, so‘zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan-yaxlitlangan bo‘ladi*
• *Har ikki qism alohida tushuncha anglatadi: ko‘z yummoq: ko‘z-a’zo, yummoq - harakat*	• *Ibora bir leksik ma’no anglatadi: ko‘z yummoq-vafot etmoq, ko‘z yummoq-e’tibor bermaslik*
• *So‘z birikmasi lug‘atlarda berilmaydi*	• *Turg‘un bog‘lamaga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular so‘zlar kabi ma'no ifodalaydi: yog‘ tushsa yalagudek-toza*
• *So‘z birikmasidagi so‘zlar erkin bog‘langani uchun almashtirish mumkin: baxtdan kuylab-kuylab baxtdan.*	• *Turg‘un bog‘lamadagi so‘zlarni almashtirib bo‘lmaydi: oq yo‘l. Iboralar bir ma’no ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi*
• *So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar hokim va tobe qismga ajratiladi*	• *Iboralar bir so‘zga teng, ajralmas holga kelib qolgan, uning tarkibidagi qismlarni hokim va tobe so‘zga ajratish mumkin emas.*
• *So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarga alohida-alohida savol beriladi: aravani (nimani) olib qochmoq (nima qilmoq)*	• *Bir leksik ma’no, ya’ni bir so‘z (tushuncha)ni ifodalagani uchun iboralarga bitta so‘roq beriladi: aravani quruq olib qochmoq iborasiga nima qilmoq so‘rog‘i beriladi.*

Teg – Kompyuter yordamida matn tahlilini amalga oshirish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirishga xizmat qiluvchi shartli belgi yoki maxsus kod. Teglar bir necha turlarga bo‘linadi: semantik teg, sintaktik teg va grammatik teg. Grammatik teg, shuningdek, PoS (Part of speech) tegging nomi bilan ham mashhur.

POS teglash – bu berilgan gapdagi har bir so‘zshaklga uning turkum (ot, fe’l, sifat, son, ravish yoki olmosh)ga mansubligini belgilash (teglash) vazifasidir. POS teglash tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP)ning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, pipeline konveyerining muhim bosqichi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Matnga boshlang‘ich ishlov berish bosqichlari

O‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashda dastur dastlab matnni tokenizatsiya qiladi. Tokenlarni esa POS tagging jarayonidan o‘tkazadi, lemmasini aniqlaydi va stemlaydi. So‘z birikmasini avtomatik aniqlashda POS tagginglarni quyidagi ro‘yxat asosida amalga oshiriladi.

№	POS teg	Ingliz	Belgilanishi
1.	**Ot**	Noun	N
2.	**Sifat**	Adjective	JJ
3.	**Fe’l**	Verb	VB
4.	**Son**	Number	NUM
5.	**Ravish**	Adverb	RR
6.	**Olmosh**	Pronoun	P
7.	**Bog‘lovchi**	Conjunction	C
8.	**Ko‘makchi**	preposition	II
9.	**Yuklama**	particle	Prt
10.	**Modal so‘z**	modal words	MD
11.	**Undov so‘z**	exclamatory words	UH
12.	**Taqlid so‘zlar**	imitation words	IM

2-rasm. O‘zbek tilidagi POS teglar ro‘yxati (qisqa variant)

So‘z birikmasi va ibora (turg‘un birikma)ning shakliy o‘xshashligi POS tegging jaroyonida omonimlikni keltirib chiqaradi. Bu esa dasturiy ta’minotda murakkablikni keltirib chiqaradi. Tokenizatsiya jarayoni gapni, yoki matnni tahlil qilganda uni qismlarga bo‘lib tashlab, POS teglash jarayoniga tayyorlab beradi. Bunda o‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashda tokenizatsiya

so‘z birikmasini alohida tokenlarga ajratib berishi, ibora (turg‘un birikma)ni esa yaxlit bir holatda holatda POS teglash jarayoniga o‘tkazib berishi zarur. Buni quyidagi jadval orqali aniq ko‘rishimiz mumkin.

Yigit oqimga qarshi suzib ariqning *boshiga yetdi*-**so‘z birikmasi**

№	So‘z	O‘zak	POS teg	Izoh
1.	Yigit	yigit	Ot	“yigit” alohida leskema, tarkibiy qismlarga bo‘linmaydi
2.	Oqimga	oq	Ot	“oqim” oq+im; -im so‘z yasovchi qo‘shimcha; leksema+grammatik shakl
3.	Qarshi	qarshi	sifat	“qarshi” alohida leskema, tarkibiy qismlarga bo‘linmaydi
4.	Suzib	suz	fe’l	suz+ib lug‘aviy shakl yasovchi; leksema+grammatik shakl
5.	Ariqning	ariq	ot	ariq+ning sintaktik shakl yasovchi; leksema+grammatik shakl
6.	Boshiga	bosh	ot	bosh+i+ga sintaktik shakl yasovchi; leksema+grammatik shakl+grammatik shakl
7.	Yetdi	yet	fe’l	Yet+di sintaktik shakl yasovchi; leksema+grammatik shakl

Qo‘rsligi, be’mani gaplari axiri uning *boshiga yetdi*-**ibora**

№	So‘z	O‘zak	POS teg	Izoh
1.	Qo‘rsligi	Qo‘rs	ot	Qo‘rs+lik+i; so‘z yasovchi+egalik qo‘shimchasi; leksema+grammatik shakl yasovchi+grammatik shakl yasovchi
2.	Bema’ni	ma’ni	sifat	Shakl yasovchi+o‘zak; yasama so‘z
3.	Gaplari	gap	ot	Gap+lar+i; leksema+grammatik shakl yasovchi+grammatik shakl yasovchi
4.	Axiri	axiri	yuklama	Axiri; yuklama
5.	Uning	u	olmosh	U+ning; leksema+grammatik shakl
6.	Boshiga yetdi	Boshiga yetdi	ibora	Bir leksik ma’noga ega bo‘lgan ibora.

Xulosa. O‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlash dasturi kompyuter lingvistikasi sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda omonimiya masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. So‘z birikmasi va turg‘un iboralarning shakliy o‘xshashligi POS tegging jarayonida murakkablik tug‘diradi. Shuning uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda turg‘un iboralarni yaxlit birlik sifatida aniqlash va ularni erkin so‘z birikmalaridan farqlash alohida algoritmik yondashuvni talab qiladi. Boshqaruvli so‘z birikmalari nazariyasini chuqur o‘rganish va ularning teg hamda modellari asosida ishlov berish dasturiy yechimning asosiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar kelajakda o‘zbek tili matnlarini avtomatik tahlil qilishga mo‘ljallangan ilg‘or tizimlarni yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘zbek tili kabi morfologik jihatdan boy tillarni qayta ishlashga oid tadqiqotlar xalqaro lingvistik va texnologik hamjamiyatga ulkan hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. - М.: Прогресс, 1988.
2. Elov B.B. Xudayberganov N.U. O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari: file:///C:/Users/User/Downloads/elov-b.b.-xudayberganov-n.u.-ozbek-tili-korpusi-matnlarini-pos-teglash.pdf
3. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. -Toshkent, 2020.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.
5. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J., Hozirgi o‘zbek adabiy tili; Sintaksis – Toshkent, 1979.
6. Rasulova N. Ona tilidan ma’ruzalar. – Toshkent, 2018.
7. Abdullayev F.A. O‘zbek tili grammatikasi. II jild. – Toshkent, 1976.

SENTIMENT TAHLILIDA SO‘Z TURKUMLARINING AHAMIYATI.

Xusainova Zilola Yuldashevna,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Xusanova Diyora To‘lqin qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 3-kurs talabasi
tolkinovnadiyora@gmail.com
ToshDO‘TAU

Bekqulova Sevinch Furqat qizi
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 3-kurs talabasi
bekqulovasevinchim@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Hozirgi kunda sentiment tahlili NLPning eng faol tadqiq etilayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, matnlardagi hissiy holatni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Ko‘pgina sentiment tahlil tizimlari so‘zlar semantikasi va kontekstga asoslanadi, biroq so‘z turkumlari (masalan, sifatlar, fe’llar, otlar)ning o‘ziga xos hissiy ulushi yetarlicha hisobga olinmaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi turli so‘z turkumlarining sentiment tahlilidagi funksianal rolini aniqlash va baholashdan iborat.

Аннотация. Анализ настроений в настоящее время является одним из наиболее активно исследуемых направлений НЛП и представляет собой эффективный инструмент для определения эмоциональных состояний в текстах. Большинство систем анализа настроений основаны на семантике слов и контексте, но недостаточно учитывают эмоциональное содержание классов слов (например, прилагательных, глаголов, существительных). Основная цель данной статьи — выявить и оценить функциональную роль различных классов слов в анализе тональности.

Abstract. Sentiment analysis is currently one of the most actively researched areas of NLP and is considered an effective tool for identifying emotional states in texts. Most sentiment analysis systems are based on word semantics and context, but the specific emotional content of word classes (e.g., adjectives, verbs, nouns) is not sufficiently taken into account. The main goal of this article is to identify and evaluate the functional role of different word classes in sentiment analysis.

Kalit so‘zlar: *sentiment tahlil, so‘z turkumlari, POS teg, sentiment baholash, sentiment teglash.*

KIRISH

Sentiment tahlil yoki his-tuyg‘ularni tahlil qilish, matn orqali ifodalangan fikrlarning ijobiy, salbiy yoki neytral ekanligini aniqlashga qaratilgan jarayondir. Bugungi kunda sentiment tahlil ko‘plab sohalarda, jumladan, marketing, siyosat, ijtimoiy tarmoqlardagi tahlil va mijozlar fikrlarini o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Sentiment tahlilining asosiy maqsadi gaplarda ifodalangan his-tuyg‘ularni aniqlashdir. Bunda so‘z turkumlarining ahamiyati juda katta, chunki har bir so‘z turkumi o‘zining grammatik va semantik xususiyatlari bilan his-tuyg‘ularni ifodalashda turlicha rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada sentiment tahlilda so‘z turkumlarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Insonlarning ko‘p qismi ijtimoiy tarmoqdan doimiy foydalanganligi sababli, onlayn sharhlarda ko‘pchilik insonlar o‘zining shaxsiy fikrini erkin bildirishmoqda**.** O‘n minglab fikrlarni tahlil qilish va foydalanuvchilarning turli ruhiy holatda yozilgan izohlarini samarali, tez va sifatli avtomatik ravishda tahlil qilish turli sohalarda jamoatchilik fikrini o‘rganish va shu asosda tez qaror qabul qilishga yordam beradi.

So‘nggi o‘n yil ichida Internetning jadal rivojlanishi juda ko‘p miqdordagi onlayn sharhlarni keltirib chiqardi va izohlarda foydalanuvchilarning kayfiyatlarini tahlil qilish ijtimoiy barqarorlik hamda rivojlanish uchun katta ahamiyat kasb etdi[1]. Ushbu tendensiyaga javoban sentiment tahlil texnologiyasi paydo bo‘ldi. Sentiment tahlil, shuningdek, fikr tahlili deb ham ataladi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da muhim o‘rganish sohasi bo‘lib, u matndan hissiyot va turli xil qarashlarni avtomatik ravishda aniqlash va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Sentiment tahlil sun’iy intellektni rivojlantirish uchun juda muhim hisoblanadi. Uning asosiy o‘rni – matnlardagi fikrlar va emotsiyalarning yo‘nalishini (ijobiy, salbiy yoki neytral) avtomatik tarzda tushunishdir[2].

NLPda sentiment tahlili quyidagicha talqin qilinadi:

- Inson fikrining emotsional tomonini o‘rganadi.
- Matn mazmuni va munosabatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.
- Mijozlar fikri, sharhlar, ijtimoiy media, yangiliklarni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, sentiment tahlili NLPning semantik tahlil, tematik tahlil, klassifikatsiya kabi boshqa yo‘nalishlari bilan birgalikda ishlaydi va matnni chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

So‘z turkumlari – bu so‘zlarning grammatik xususiyatlariga qarab guruhlanishi. Har bir so‘z turkumi matndagi ifodalangan ma’no va his-tuyg‘uni aniqroq tushunishga yordam beradi. Sentiment tahlilida so‘z turkumlarini to‘g‘ri

aniqlash va ularni inobatga olish modelning aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Mustaqil so‘z turkumlari:

– **Otlar:** Obyektlar, insonlar, joylar yoki tushunchalarni ifodalaydi. Sentiment tahlilda otlar hissiyot va tushunchalarni aniqlashda yordam beradi. Ayniqsa mavhum tushunchalarni bildiruvchi otlar hissiy jarayonlarni aks ettiradi. Masalan: *“quvonch”, “g‘azab”, “mehr”* kabi otlar.

– **Sifatlar** ko‘pincha biror narsa yoki holatning sifatini, ya’ni uning qanday ekanligini ifoda etadi. Sentiment tahlilda sifatlar his-tuyg‘uni bevosita ifodalaydi. Masalan, *“yaxshi”, “ajoyib”, “yomon”, “dahshatli”, “qo‘rqinchli”* kabi sifatlar yordamida matnda qanday hissiyot mavjudligi aniqlanadi.

– **Fe’llar** matnda ifodalanayotgan harakatlar yoki holatlarni bildiradi. Sentiment tahlilda fe’l harakat yoki holat orqali his-tuyg‘uni ifodalaydi. Hissiyotlarni aks ettiruvchi fe’llar, masalan, *“sevmoq”, “nafratlanmoq”, “xursand bo‘lmoq”, “yoqtirmoq”, “baxtiyor bo‘lmoq”, “qo‘rqmoq”* kabi fe’llar sentiment tahlilda muhim rol o‘ynaydi.

– **Ravish** harakat va holatning belgisini bildiradi. Sentiment tahlilda ravishlar sifatlar yoki fe’llarga nisbatan qo‘shimcha ma’lumot beradi va hissiyotlar darajasini kuchaytirishi, zaiflashtirishi, aniqlik berishi yoki yumshatishi mumkin. Masalan, *“juda”, “nihoyatda”, “ozgina”, “mutlaqo”* kabi so‘zlar hissiyot darajasini aniqlashda qo‘shimcha ma’lumot beradi.

Bu so‘z turkumlari ko‘proq matnning tuzilishini belgilaydi, lekin ular hissiyot ifodalashda kamroq rol o‘ynaydi. Olmosh va son mustaqil so‘z turkumlari sentiment tahlilda matn yoki gapning ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Sentiment tahlil metodlari

Sentiment tahlilida so‘z turkumlarini inobatga olish modelning aniqligini oshiradi, chunki har bir turkum o‘zining hissiy ifodalariga ega va matnni ko‘proq tushunish imkonini beradi. **Sifatlar va fe’llar tahlilda asosiy rolni o‘ynaydi**, ammo barcha so‘z turkumlari birgalikda ishlaganda yanada mukammal natija berishi mumkin.

Sentiment tahlil quyidagi 1-rasmda keltirilgan metodlar orqali amalga oshiriladi:



1-rasm. Sentiment tahlil metdolari tasnifi

Ushbu maqolada sentiment tahlil metodlaridan **Leksikaga (leksemaga) asoslangan yondashuv** yoritiladi. Leksikaga asoslangan yondashuv odatda ikkita usulga bo‘linadi: lug‘atga asoslangan va korpusga asoslangan usullar. Quyidagi

1-jadvalda leksikaga asoslangan yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan.

1-jadval. Leksikaga asoslangan yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari

Yondashuv	Afzalligi	Kamchiligi
Lug‘atga asoslangan	**O‘**qitilgan ma’lumotlarga ehtiyoji y**o‘**q. Muayyan soha lu**g‘**ati uchun ijobiy natijalar beradi. Lu**g‘**atdan s**o‘**z ma’nolarini tez topish mumkin.	Fikrlar muayyan mazmunga y**o‘**naltirilgan b**o‘**ladi. Lu**g‘**atda hali mavjud b**o‘**lmagan soha atamalarini aniqlay olmaydi.
Korpusga asoslangan	Mazmunni yaxshi aniqlay oladi. Soha farqlanganda samarali natijalar beradi.	Lu**g‘**atning kengligi sababli natijalar turlicha b**o‘**ladi. Har bir matn terminini t**o‘**liq qamrab oluvchi matnlar t**o‘**plamini ta’minlash qiyinligi tufayli alohida q**o‘**llab b**o‘**lmaydi.

Taboada va boshq. (2011)[3] matndan hissiyotni olish uchun *Semantic Orientation CALculator (SO-CAL)* deb nomlangan leksikaga asoslangan usulni taqdim etdi. Ushbu usul to‘plangan tokenlarga ballar tayinlaydigan hissiyot leksikasidan foydalanishi kerakligini ko‘rsatadi[3].

So‘z turkumlarini sentiment tahlildagi ahamiyati

Turli sohalarda bir xil so‘z turli xil his-tuyg‘ularga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, quyidagi ikkita gap berilgan bo‘lsin:

1. *“Havo keskin **isishi** oqibatida Antarktidada muzlar erishi kuzatilmoqda.”*
2. *“Bahor kelib kunlar **isishi** bilan daraxtlar qiyg‘os gulladi.”*

Birinchi gapdagi *“isishi”* atamasi salbiy, chunki isish haddan tashqari kuchli bo‘lgani uchun salbiy hodisaga olib keladi: muzlar eriyapti, ekologik muammo paydo bo‘lyapti. Shuning uchun *“isishi”* salbiy tarzda qabul qilinadi; ammo, ikkinchi gapda ijobiy, chunki, bu yerda *“isish”* tabiiy jarayon sifatida keltirilgan. Natijada tabiat uyg‘onmoqda, gullar ochilyapti. Lekin bu so‘zning salbiy yoki ijobiy bo‘lib ko‘rinishi gapdagi kontekstga (ya’ni atrofidagi so‘zlar va vaziyatga) bog‘liq.

So‘z turkumlari sentiment tahlilda muhim rol o‘ynaydi. Chunki, so‘z turkumlarining sentiment baholariga ta’sirini to‘g‘ri aniqlash, tilni yanada chuqurroq

tushunishga yordam beradi. Ushbu tahlil quyidagi sohalarda NLPning rivojlanishiga hissa qo‘shadi:

– **Matnning umumiy mazmuni va asosiy mavzusini aniqlashda** so‘z turkumlarining sentimentga ta’sirini hisobga olish muhimdir. Chunki matnning faqat mavzusini emas, balki unga bo‘lgan munosabatni ham tahlil qilish aniq va chuqur tematik tahlil qilish imkonini beradi.

– **Avtomatik tarjima jarayonida** kinoya va his-tuyg‘ularni to‘g‘ri anglash va tarjima qilish uchun so‘z turkumlarining sentimentdagi o‘rni muhim. Bu hodisalarni inobatga olish avtomatik tarjimalarda matn ma’nosining buzilmasligini va tabiiyligini ta’minlaydi.

– **Dialog tizimlari va chat-botlar foydalanuvchi xabarlaridagi** his-tuyg‘ularni (salbiy, ijobiy, neytral) tezda aniqlash va unga mos ravishda javob berish uchun so‘z turkumlari asosidagi sentiment tahlili yordam beradi. Bu esa foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

So‘z turkumlarining sentiment tahlilidagi ta’sirini o‘rganish, NLP tizimlarining aniqligini va sifatini yaxshilaydi, chunki bu tizimlarga matnlardagi his-tuyg‘ularni chuqurroq va to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Bu natijalar NLP tizimlarini yanada samarali qiladi, shu bilan birga, ko‘plab sohalarda, masalan, brend monitoringi, mijozlar sharhlarini tahlil qilish va ijtimoiy tarmoqlarda ishlashda katta ahamiyatga ega.

Biz topishimiz mumkin bo‘lgan his-tuyg‘u turlari ijobiy, neytral va salbiyni o‘z ichiga oladi va keyinchalik hayrat, ishonch, kutish, g‘azab, qo‘rquv, qayg‘u, jirkanish, quvonch va boshqalarga bo‘linishi mumkin[4]. Til nuqtai nazaridan his-tuyg‘ularni tahlil qilish tadqiqotlari xitoy[5], ingliz[6], arab[7], nemis[8], portugal[9], rus[10], ispan[11] va boshqalar kabi turli xil tabiiy tillardan foydalanishi mumkin. Sentiment tahlil internet-ijtimoiy platformalar, elektron tijorat, moliya, sog‘liqni saqlash va davlat sektorlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilida sentiment tahlilda so‘z turkumlarining rolini aniqlash uchun quyidagi manbalardan foydalanib ma’lumotlar bazamizni shakllantirdik:

1. Badiiy asarlarda (masalan, romanlar, she’rlar, dramalar) so‘zlar nafaqat ma’no, balki hissiyotlarni ham ifodalaydi. Fe’l, sifat va otlar orqali muallifning his-tuyg‘ulari, xarakterlar va voqealar orasidagi munosabatlar ochib beriladi, ayniqsa sifat so‘z turkumi hissiy-bo‘yoqdorlikni oshirib beradi. Bu so‘z turkumlari yordamida personajlarning ruhiy holati va voqea rivoji ko‘rsatiladi.
2. Internet saytlaridagi matnlar, maqolalar yoki sharhlar ma’lum bir mavzu yoki muhokama atrofida bo‘ladi. Bu manbalarda ijobiy yoki salbiy fikrlar, savollar, yoki bahslar bo‘ladi. Masalan, ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy mavzular haqida yozilgan maqolalarda so‘z turkumlari orqali fikrlarning qanchalik qat’iy yoki ehtimoliy ekanligi ko‘rsatiladi. Fe’llar (“saqlash”, “o‘zgartirish”), sifatlar

(“muammoli”, “mustahkam”) va otlar (“tijorat”, “davlat”) orqali mavzuga nisbatan hissiy munosabatlar ifodalanadi.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p holatlarda tezkor va hissiy javoblar, sharhlar mavjud. Bu matnlarda asosan sifatlar, shuningdek, fe’llar va yordamchi so‘z turkumlari ko‘p uchraydi. Bu turkumlar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining his-tuyg‘ulari va munosabatlarini aniq ko‘rsatadi. Masalan, “ajoyib”, “yomon”, “qiziqarli” kabi sifatlar sentimentni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Har bir manba o‘zining xususiyatlariga ega va sentiment tahlilini yanada samarali va aniqroq qilishda yordam beradi.

Sentiment tahlili uchun bir nechta yondashuvlar mavjud, ular asosan mashinali o‘qitish modellariga va qoidaga asoslangan yondashuvlarga asoslanadi.

- **Mashinali o‘qitish (Machine Learning) algoritmlari:**

Mashinali o‘qitish usullari, sentimentni aniqlashda avvalgi ma’lumotlarni o‘rganish asosida ishlaydi. Katta hajmdagi sentiment tahlil qilingan matnlar asosida o‘rganib mustaqil ravishda sentiment tahlil qiladi.

- **Qoidaga asoslangan yondashuvlar:**

Qoidaga asoslangan yondashuvlar, ko‘pincha sentiment lug‘atlari va manbalardan olingan so‘zlarning hissiy ma’nolari asosida ishlaydi.

- So‘z turkumlarining ta’sirini o‘lchash usullari:

So‘z turkumlarining sentiment tahliliga ta’siri statistik tahlil, leksemaga asoslangan yondashuvlar va so‘zlarning sentiment baholari bilan lug‘at yordamida o‘lchanadi.

Statistik tahlil:

Statistik tahlil orqali, har bir so‘z turkumi (masalan, ot, sifat, fe’l) matndagi ijobiy yoki salbiy ta’sirni qanday ifodalashini tahlil qilish mumkin. Matndagi so‘z turkumlarining soni, joylashuvi va ulushi, sentimentga qanday ta’sir qilayotganini aniqlash uchun o‘rganiladi. Misol uchun:

- Odatda ot odamlar, joylar, narsalar yoki g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar. Bu so‘zlar ko‘pincha neytral yoki salbiy, ijobiy hissiyotlarni ifodalaydi.
- Sifatlar (masalan, yaxshi, yomon, go‘zal) ko‘pincha matnning hissiy ohangini belgilaydi. Ular sentimentni kuchaytiruvchi rol o‘ynaydi.
- Fe’llar matnda harakat yoki holatni ifodalab, sentimentni dinamizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.
- Sentiment tahlilda ravishlar sifatlar yoki fe’llarga nisbatan qo‘shimcha ma’lumot beradi va hissiyotlar darajasini kuchaytirishi, zaiflashtirishi, aniqlik berishi yoki yumshatishi mumkin.

Leksemaga asoslangan yondashuv:

Lug‘at asosida, har bir so‘zning o‘ziga xos sentiment bahosi mavjud. Bu baholar ijobiy, salbiy yoki neytral bo‘lishi mumkin. Matndagi har bir so‘z shu baho asosida tahlil qilinadi va “-5”dan “5”gacha bo‘lgan oraliqda har bir so‘zga sentiment baho qo‘yiladi. Eng yuqori salbiy ma’no anglatgan so‘zga “-5” baho, neytral ma’nodagi so‘zga “0” baho, eng yuqori ijobiy so‘zga “5” sentiment baho qo‘yiladi. Keyin, barcha so‘zlarning baholari yig‘ilib, matnning umumiy sentimenti hisoblanadi.

2-jadval. Matnni sentiment tahlil qilishda so‘z turkumlari

So‘z turkumlari	So‘z	(Ijobiy yoki salbiy)	Sentiment baho	Gap	Sentiment baho
Sifat	qiziqarli	ijobiy	3	Yozda institut jamoasi uchun turli shaharlarda mazmunli va ***qiziqarli*** sayohatlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.	4
	ayanchli	salbiy	-4	Dunyoda hamma narsadan mosuvo bo‘lgan bu ayolning hozirgi ahvoli juda ***ayanchli*** edi.	-5
Fe’l	sevindi	ijobiy	5	Dobshalimning yuborgan insoni unga bu xabarni yetkazganida u nihoyatda ***sevindi***.	5
	achindi	salbiy	-3	"To‘g‘ri, buning gapi ham to‘g‘ri", deb o‘yladi Akobir va o‘z ota-onasining qabri qayerdaligini hatto bilmasligiga ***achindi***.	-4
Ravish	nihoyatda	ijobiy	5	Kutubxonaning kitob va axborot-resurs fondi ***nihoyatda*** boy hamda xilma-xildir.	4
	biroz	salbiy	-2	Tabiiyki, mavzularni o‘zlashtirishda ham ***biroz*** qiyinchilik tug‘diradi.	-1
Ot	baxt	ijobiy	5	Atigi 4 yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan 26 yoshli muallima uchun bu katta yutuq, yuksak ***baxt***.	5
	g‘am	salbiy	-4	Balki ular ichida boshiga biror tashvish yoki ***g‘am*** tushgan inson ham bordir.	-3

Sentiment tahlilda eng muhim so‘z turkumi fe’l so‘z turkumidir. Chunki gapning markazini ko‘p hollarda fe’l tashkil etadi. Sentiment tahlilda ham gapda asosiy ifodalangan ma’noni fe’l so‘z turkumi ochib beradi. Masalan: “Menga bozorga borish yoqmadi.”. Ushbu gapning sentiment bahosi salbiy. Chunki *“yoqmadi”* fe’lidan salbiylik yaqqol ko‘rinib turibdi. Sifat so‘z turkumi esa gapda ifodalangan his-tuyg‘uni bevosita bildiradi. Masalan: “Ushbu film ajoyib.”. Ushbu gapning sentiment bahosi ijobiyligi *“ajoyib”* so‘zidan yaqqol sezilib turibdi. Ravish so‘z turkumiga mansub so‘zlar fe’lda ifodalangan harakatni zaiflashtirish, kuchaytirish yoki aniqligini oshirish bilan sentiment bahoni oshiradi yoki pasaytiradi. Masalan: “Ular orasida Chexiyadagi Karlov universiteti meni qiziqtirdi.” va “Ular orasida Chexiyadagi Karlov universiteti meni juda qiziqtirdi.” Berilgan ikki gapda sentiment baho ikki xil. Ammo gaplar faqat juda kuchaytiruvchi

ravishi bilan farqlangan. Birinchi gapda ijobiylik bor ammo past. Ya’ni sentiment bahosini “+3” “ijobiy” deb belgilasak bo‘ladi. Ikkinchi gapda esa sentiment baho aniq va kuchaytirilgan. Gapda “juda” kuchaytiruvchi ravishi “qiziqtirdi” fe’lining sentiment bahosini oshirib berganligi tufayli sentiment bahosi “+5” “ijobiy”ga ko‘tariladi. Har bir so‘z turkumi sentiment tahlilda o‘z o‘rniga ega ekanligini ko‘rdik.

Biroq, matnda ifodalangan **kinoya, jargon, sleng** va boshqa tillardan kirib kelgan hayratlanish, haqoratli so‘zlar kabilarga sentiment baho berish muammoligicha qolmoqda. Bu his-tuyg‘ular matnda aniq ifodalanmaganligi sababli, ular yashirin his-tuyg‘ular deb ataladi. Insonlar bu his-tuyg‘ularni ikkita ko‘rsatma orqali qabul qilishadi: ovozli aloqa va matnli kontekst.

Ba’zi so‘zlar tabiiy ravishda obyektivdir, ammo ma’lum bir muhitda yoki kontekstda ishlatilganda subyektivlikka tayanishi mumkin va shuning uchun hissiy jihatdan zaryadlangan bo‘lishi mumkin[12]. Masalan, *“uzoq”* so‘zi hissiyotni ifodalamaydigan neytral sifatdir. Ba’zi hollarda ijobiy (masalan, *“uzoq umr”*) yoki salbiy (masalan, “uzoq navbat” kabi) bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, kontekstda so‘zning qurshovida kelgan so‘zlar bilan sentiment baho aniqlanadi.

Xulosa

Ushbu maqolada so‘z turkumlarining sentiment tahlilidagi o‘rni tahlil qilinib, ularning klassifikatsiyada muhim omil bo‘lishi aniqlangan. Ayniqsa, sifat, fe’l va ravishlar hissiy ohangni belgilashda kuchli semantik ulushga ega bo‘lib, model natijalarini yaxshilashini ta’kidlash lozim. So‘z turkumlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan sentiment tahlil modellari kelajakda aniqligi yuqori tizimlar yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birjali, M., Kasri, M., & Beni-Hssane, A. (2021). A comprehensive survey on sentiment analysis: Approaches, challenges and trends. *Knowledge-Based Systems*, *226*, 107134.
1. Liu, B., & Zhang, L. (2012). A survey of opinion mining and sentiment analysis. *Mining text data*, 415-463.
2. Mitra, A., & Mohanty, S. (2020). Sentiment analysis using machine learning approaches. *Emerging Technologies in Data Mining and Information Security: Proceedings of IEMIS*, *2*, 63-68.
3. Taboada, M., Brooke, J., Tofiloski, M., Voll, K., & Stede, M. (2011). Lexicon-based methods for sentiment analysis. *Computational linguistics*, *37*(2), 267-307.
4. Bose, R., Dey, R. K., Roy, S., & Sarddar, D. (2020). Sentiment analysis on online product reviews. In *Information and Communication Technology for*

Sustainable Development: Proceedings of ICT4SD 2018 (pp. 559-569). Springer Singapore.

5. Peng, H., Cambria, E., & Hussain, A. (2017). A review of sentiment analysis research in Chinese language. *Cognitive Computation*, *9*, 423-435.

6. Rodríguez-Ibánez, M., Casánez-Ventura, A., Castejón-Mateos, F., & Cuenca-Jiménez, P. M. (2023). A review on sentiment analysis from social media platforms. *Expert Systems with Applications*, *223*, 119862.

7. Oueslati, O., Cambria, E., HajHmida, M. B., & Ounelli, H. (2020). A review of sentiment analysis research in Arabic language. *Future Generation Computer Systems*, *112*, 408-430.

8. Remus, R., Quasthoff, U., & Heyer, G. (2010, May). SentiWS-A Publicly Available German-language Resource for Sentiment Analysis. In *LREC*.

9. Pereira, D. A. (2021). A survey of sentiment analysis in the Portuguese language. *Artificial Intelligence Review*, *54*(2), 1087-1115.

10. Smetanin, S. (2020). The applications of sentiment analysis for Russian language texts: Current challenges and future perspectives. *IEEE Access*, *8*, 110693-110719.

11. Osorio Angel, S., Peña Pérez Negrón, A., & Espinoza-Valdez, A. (2021). Systematic literature review of sentiment analysis in the Spanish language. *Data Technologies and Applications*, *55*(4), 461-479.

12. Denecke, K., & Deng, Y. (2015). Sentiment analysis in medical settings: New opportunities and challenges. *Artificial intelligence in medicine*, *64*(1), 17-27.

13. Elov B. and Xudayberganov, N. (2024). O‘zbek tili korpusi matnlarini pos teglash usullari. Computer Linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

14. Xusainova Z. (2023). O‘zbek tili milliy korpusi qidiruv tizimini optimallashtirishda lemmatizatsiyadan foydalanish. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).

15. Elov B., Alayev R. and Abdullayev A. (2024). Tabiiy tilning statistik modellari. digital transformation and artificial intelligence, 2(6), 178-189.

TABIIY TILGA ISHLOV BERISH SOHASIDA SO‘Z MA’NOSINI ANIQLASH

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Hasanova Gulshoda Ikrom qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Tabiiy tilga ishlov berish sohasi matnlarni avtomatik tahlil qilish masalasini yechish bilan shug’ullanadi. Avtomatik tahlil turlaridan biri so’z semantic tahlil bo’lib muhim ahamiyatga ega. Avtomatik semantik tahlil amalga oshirishda uni bir nechta elementlarga ajratgan holda amalga oshiriladi. Ushbu aniqlash, matnni tahlil qilish va so‘zlar orasidagi bog‘lanishni tushunish asosiy vazifasi sanaladi.

Annotation. The field of natural language processing deals with solving the problem of automatic text analysis. One of the types of automatic analysis is word semantic analysis, which is of great importance. When performing automatic semantic analysis, it is carried out by dividing it into several elements. This identification, text analysis, and understanding of the relationships between words are considered the main tasks.

Аннотация. Область обработки естественного языка занимается решением задачи автоматического анализа текстов. Одним из видов автоматического анализа является семантический анализ слов, который имеет важное значение. При выполнении автоматического семантического анализа он осуществляется с разделением на несколько элементов. Это определение, анализ текста и понимание связей между словами считаются основными задачами.

Kalit so‘zlar: *So‘z ma’nosini aniqlash, NLP, noaniqlik, leksema, leksik noainqlik, struktural noaniqlik, referensial noainiqlik*

Kirish

Kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni avtomatik semantik tahlil qilish masalasining yechilishi kunning dolzarb masalalaridan biri. Semantik tahlil matn yoki nutqning ma’nosini, uning tarkibini va mazmunini o‘rganadi. Semantik tahlil orqali so‘zlar, iboralar, jumlalar yoki butun matnning semantik (ya'ni ma’noga oid) tuzilishi tahlil qilinadi. Barcha tabiiy tillarida noaniq so‘zlar mavjud, bu so‘zlar o‘z ma’nosini kontekstdan kelib chiqqan holda o‘zgartiradi. Biror so‘zning to‘g‘ri

ma’nosini kontekstga qarab aniqlash jarayoni So‘z Ma’nosini Aniqlash (WSD) deb ataladi. Bu jarayon, bir so‘z jumlada ishlatilganda uning maqsad qilingan ma’nosini avtomatik tarzda aniqlaydi. Noaniq so‘zlarning ba’zi misollari quyidagilar:

1-jadva: Noaniq so‘zlar va ularning ma’nolari

t/r	So‘zlar	Ma’nolari
1	ich	1.suyuqlikni ichga yutmoq 2.ichkaridagi joy
2	yara	1. chiqiq, jarohat 2. kerak bo‘lib qolmoq
3	qazi	1. otning to‘sh va peshnop go‘shti shulardan yo‘g‘on ichakka tiqib tayyorlanadigan mahsulot 2. yerni o‘yib, chuqur hosil qilmoq, kovlab olmoq

So‘z ma’nosini aniqlash (WSD) turli sohalarda, masalan, mashina tarjimasi (Machine translation, MT), axborotni qayta ishlash (Information reworking, IR), nutqni tanib olish (Automatic Speech Recognition, ASR), matnni qayta ishlash kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. WSD boshqa NPL axborot tizimlarining natijasining aniqligini oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi. U so‘zning ma’nosini kontekstga nisbatan saqlaydi.

Noaniqlik (aniqmaslik). Agar bir so‘z, ibora yoki jumla bir nechta ma’noga ega bo‘lsa, u noaniqlik deyiladi. Quyida turli noaniqlik turlari keltirilgan:



5-rasm: Noaniqliklarning turlari

Leksik noaniqlik. Bir nechta ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar omonim yoki polisemantik bo‘lishi mumkin. Agar bir so‘zning ikki ma’nosi butunlay farqli bo‘lsa, ammo yozilishi bir xil bo‘lsa, ular omonimlar deb ataladi. Masalan, “ari” so‘zining ikki ma’nosi quyidagicha ishlatilishi mumkin:



2-rasm: Ari so’zning ma’nolari

Bir so‘zning ma’nosi bir xil asosiy ma’noning turli xil tuslarini ifodalasa, ya’ni u turli lekin bir-biriga bog‘liq ma’nolarga ega bo‘lsa, u polisemantik deb ataladi. Masalan, “moya” so‘zi polisemantik hisoblanadi, chunki uning ikki ma’nosi – urg‘ochi tuya va hamirturish, achitqi – bir-biriga aloqador bo‘lgan ma’nolardir.

Struktural (Sintaktik) noaniqlik. Agar noaniqlik jumla yoki ibora ko’rinishida bo‘lsa, bu struktural noaniqlik deb ataladi. Bu holat, biror ibora yoki jumla bir nechta asosiy strukturalarga ega bo‘lganda yuzaga keladi. Masalan:



3-rasm: Struktural noaniqlikka misol

Referensial noaniqlik. Agar gapdagi olmoshlar ma’lum bir so‘zlarga ishora qilsa, lekin qaysi so‘zga ishora qilayotganini aniqlash qiyin bo‘lsa, bu referensial noaniqlik deb ataladi. Misol uchun:



4-rasm: Referensial noaniqlikka misol

Bu yerda noaniqlik shundaki, “u” olmoshi qaysi otga ishora qilmoqda: *stolga* yoki *idishga*.

Bunday ishoralar ***anaforik ishoralar*** yoki ***anafora*** deb ataladi.

Ko‘p so‘zli konstruktsiyalar: Ko‘p so‘zli konstruktsiyalar, masalan, idiomalar va frazali fe’llar tufayli yuzaga kelgan noaniqlik. Misol uchun:

t/r	Matn	Ma’nosi
1	Qishloq bug‘doy ekdi.	Qishloq – butun odamlar.
2	Universitet bugun e’lon chiqardi.	Universitet – rahbariyat yoki matbuot xizmati.

5-rasm: Ko'p so‘zli konstruksiyalarga misol

Idiomning haqiqiy ma’nosini uning tarkibiy so‘zlaridan aniqlash qiyin. Bu noaniqliklar semantik tahlilning asosiy masalasidir. Jahon tajribasiga ko’ra noaniqliklarni yechish so’z ma’nosini aniqlash (WSD- Word Sense Disambiguation) deb nomlanadi. Noaniqliklarni aniqlashda turli yondashuvlardan foyalanish mumkin. ***WSD uchun yondashuvlar***. So‘z ma’nosini aniqlash (WSD) yondashuvlari uchta asosiy kategoriya bo‘yicha tasniflanadi:



6-rasm: WSD yondashuvlar turlari

Nazoratli yondashuv. Nazoratli yondashuv semantic teglangan ma’lumotlarga yoki korpusga asoslanadi. Nazoratli yondashuv, tasniflagichlarni qurish uchun o’qitilgan ma’no teglangan korpusga asoslanadi. Dastlab, tasniflagichni qurish uchun teglangan korpus talab qilinadi. Tasniflagich ko’p ma’noli so‘zning ma’nosini kontekstga asoslanib aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuvning asosiy kamchiligi — katta hajmdagi semantic teglangan korpusni talab qilishi.

Tasniflagichning aniqligi korpusga kiritilgan ma’lumotlar hajmi va xilma-xilligiga bog‘liq. Korpus kattaroq bo‘lsa, natijalar yaxshiroq bo‘ladi. Korpus yaratish o‘zi vaqt va mablag‘ jihatidan muammo bo‘lishi mumkin. Nazoratli yondashuvga asoslangan ba’zi muhim WSD algoritmlari quyidagilardir:



7-rasm: Nazoratli yondashuvga asoslangan WSD algoritmlar

Naïve Bayes usuli – omonimlarni farqlashda va guruhlarga ajratishda foydaniladi.

Qarorlar ro‘yxati usuli – so‘zning turli ma’nolarda kelgan matnlarni korpusga to‘playdi va har bir misolni tegishli ma’nosini belgilab oladi. Lekin katta hajmdagi ma’lumotlar va matn murakkabligida ishlamaydi.

Qarorlar daraxti usuli – bu usul so‘zning ma’nosini aniqlash uchun daraxt shaklida tuzilgan bo‘lib, unda har bir tugun matnni tekshiradi, shoxlar natija va burglar esa so‘zning ma’nosini bildiradi.

Qo‘llab-quvvatlovchi vector mashinasi (SVM) usuli – so‘zlarning ma’nolarini o‘rganadi, SVM ma’lumotlarini aniqlash uchun chegara (gipertekislik) hosil qiladi.

Nazoratsiz yondashuv. Nazoratsiz yondashuv teglanmagan korpusga asoslanadi. Bu yondashuv so‘zlarni guruhlashga asoslanadi. U noaniq so‘zning ma’nosi qo‘shni so‘zlardan hosil bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv

annotatsiya qilinmagan ma’lumotlarga asoslangani uchun, o‘qitish korpusida so‘zning ko‘plab ma’nolari mavjud bo‘lishi juda muhimdir. Ushbu yondashuvga asoslangan ba‘zi algoritmlarni keltiramiz:



8-rasm: Nazoratsiz yondashuvga asoslangan agoritmlar

Kontext guruhlarini aniqlash - yangi tillarni o‘rganadi, so‘zlarni qatnashgan konteksti bo‘yicha guruhlarga ajratadi. Katta hajmdagi matnlarni avtomatik tahlil qilishda aniq tahlil qiladi.

Birgalikda uchragan so‘zlar grafigi - so‘zlarning bir-biri bilan qanday bog‘liqligini grafik shaklda ko‘rsatadi. Matnning muhim so‘zlarini ajratadi.

Parallel korpuslar yordamida WSD - ikki yoki undan ortiq tillarni tarjima qilib, so‘zlarni matnga qarab ma’nolarini aniqlaydi.

Bilimga asoslangan yondashuv. Ushbu yondashuv so‘z ma’nosini aniqlash uchun bilim bazalarini ishlatishga asoslanadi. Foydalanilishi mumkin bo‘lgan bilim bazalari quyidagilar: WordNet, mashinaga o‘qitish mumkin bo‘lgan lug‘atlar, tezauruslar va hokazo. Ushbu yondashuv, ayniqsa, ma’lum bir soha uchun so‘z ma’nosini aniqlashda samarali bo‘ladi. Bilimga asoslangan yondashuvda foydalaniladigan mashhur algoritmlardan biri 1986-yilda Maykl Lesk tomonidan taklif qilingan va ***Lesk algoritmi*** deb nomlangan algoritmdir.

Lesk Algoritmi Maykl Lesk tomonidan 1986-yilda ishlab chiqilgan [5]. Bu polisemantik so‘zlarning ma’nolarini aniqlashda ishlatiladi. U Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English (OALD) lug‘atidagi so‘z ta’riflarining o‘z va ko’chma ma’nolarini ajratib olgan. Hosil bo’lgan kontekst yordamida so‘z ma’nolarini aniqlagan. O‘zbek tilidagi omonimiyani aniqlashda ham ushbu algoritmda foydalanilgan[15]. ***Banerjee va Pedersen*** WordNetni bilim manbasini Lesk algoritmi uchun dataset sifatida ishlatganlar. Ishlab chiqilgan axborot tizimining umumiy aniqligi 32% deb baholangan [7].

Sinha M. va boshqalar **tomonidan** hind tili matnlari uchun avtomatik WSD tizimini ishlab chiqilgan. Ushbu tizimni ishlab chiqishda ***Hindi WordNeti***dan foydalanilgan [8]. Olimlar so’z ma’nolarini aniqlashda statistik usullardan foydalanganlar. Ishlab chiqilgan axborot tizim matn tarkibidagi faqat ot so’z turkumidagi noaniqlikdan bartaraf qiladi. Ular polisemantik so‘z joylashgan kontekstni WordNetdan olingan kontekstlar bilan solishtirganlar. Ular tizimni Hindistonning Markaziy Til institutidan (CIIL) taqdim etilgan hind korpuslari yordamida baholashgan. Ular algoritmning aniqligini 40% dan 70% gacha bo‘lgan oraliqda aniqlagan.

Shrestha N. va boshqalar[9] Lesk algoritmi asosida Nepali noaniq so‘zlarini noaniqlikdan bartaraf qilish uchun WSD moduli ishlab chiqishgan. Ular bilim resursi sifatida ***synset, gloss***, ***misollar*** va ***hypernym***dan foydalanib, so‘zlarni to‘plashgan. Har bir ma’no uchun maqsadli so‘zning ma’lumotlar bazasida faqat bitta misol mavjud edi. Har bir matndagi so‘zi, tuzilgan ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan so‘zlar to‘plamidagi har bir so‘z bilan taqqoslanadi.

Dhungana va Shakya [12] Lesk algoritmi yordamida Nepali tilidagi polisemantik so‘zlarni noaniqlikdan xoli qilish ustida ishlashgan. 348 ta so‘z (shu jumladan, 59 ta polisemantik so‘zni va matnning so‘zlarini o‘z ichiga olgan) bo‘yicha bajarilgan tajribalar va 201 ta Nepali jumlasini o‘z ichiga olgan test ma’lumotlari ularning tizimining aniqligini 88,05% deb ko‘rsatgan.

Richard Singh va K. Ghosh2013-yilda Manipuri tili uchun arxitektura taklif qilishgan. Tizim WSDni ikki bosqichda amalga oshiradi: o‘qitish bosqichi va test bosqichi. Manipuri tilidagi so‘z ma’nosini aniqlash tizimi quyidagi bosqichlardan iborat: (I) oldindan qayta ishlash, (II) xususiyatlarni tanlash va yaratish, (III) o‘qitish, (IV) test qilish va (V) ishlash samaradorligini baholash [14].

Haroon, R.P. Malayalam tilida avtomatik WSD ning birinchi urinishini taqdim etgan. U bilimga asoslangan yondashuvni ishlatgan [10]. ***Rakesh va Ravinder***Punjabi matn hujjatidan noaniqlikni olib tashlash uchun WSD algoritmini taklif qilishgan. Mualliflar WSD uchun ***Modified Lesk Algorithm***ni ishlatishgan [16].

Ayan Das va Sudeshna Sarkar Bengali tili uchun nazoratsiz grafikka asoslangan guruhlash yondashuviga asoslangan WSD tizimini ishlab chiqqanlar, bu tizim Bengali-Hindi mashina tarjimasi uchun qo‘llaniladi[10].

Xulosa. So‘z ma’nosini aniqlash (WSD) hisoblash lingvistikasi sohasida juda faol tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda. U tizimlar tomonidan yaratilgan natijalarni yanada aniqroq qilishda muhim rol o‘ynaydi. WSD tadqiqotlarini cheklagan omillardan biri — lingvistik resurslarning mavjud emasligidir. Hozirgi kunda ko‘pgina tadqiqotchilar asosan ***Lesk algoritmi***ga asoslangan ma’no aniqlashning bilimga asoslangan yondashuvini ishlatishmoqda. Korpusning yetishmasligi sababli, tadqiqotchilar noaniqlikni bartaraf etish uchun ***WordNet***dan foydalanmoqdalar. Shuningdek, bilimga asoslangan yondashuvlarning noaniq so‘zlarning ma’nolarini hal qilishda samarali ekanligi o‘rganilgan, ammo tabiiy tilni qayta ishlash vositalarining samaradorligini oshirish uchun leksik resurslarni ishlab chiqish ehtiyoji katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arindam Chatterjee, Salil Rajeev Joshi, Mitesh M. Khapra, Pushpak Bhattacharyya, “IndoWordNet va Word Sense Disambiguation uchun Asboblar

Tanishtiruvi”, http://www.cfilt.iitb.ac.in/wordnet/webhwn/IndoWordnetPapers/18_Tools%20for%20IndoWordNet%20&%20WSD.pdf

2. C. Fellbaum, “WordNet: An Electronic Lexical Database”, MIT Press, 1998. Lokesh Nandanwar, Kalyani Mamulkar, “Supervised, Semi-Supervised and Unsupervised WSD Approaches: An Overview”, International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN (Online): 2319-7064

3. Kuhoo Gupta, Manish Shrivastava, Smriti Singh va Pushpak Bhattacharyya, “Morphological Richness Offsets Resource Poverty- an Experience in Building a POS Tagger for Hindi”, COLING/ACL-2006, Sidney, Avstraliya, iyul, 2006. https://pdfs.semanticscholar.org/1daa/370563deb1e9f5772d6ada1edfb4ec4cd7b4.pdf

4. M. Lesk “Automatic Sense Disambiguation Using Machine Readable Dictionaries: How to Tell a Pine Cone from an Ice Cream Cone”. In Proceedings of the 5th annual international conference on Systems documentation, SIGDOC ’86, pages 24–26, New York, NY, USA. ACM.

5. Udaya Raj va boshqalar, “Word Sense Disambiguation using WSD specific Wordnet of polysemy Words”, https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/1409/1409.3512.pdf

6. Banerjee va Pederson, “An adapted Lesk algorithm for Word Sense Disambiguity using Word Net”, http://www.cs.cmu.edu/~banerjee/Publications/cicling2002.pdf

7. Sinha M. va boshqalar, “Unsupervised Graph-based Word Sense Disambiguation Using Measures of Word Semantic Similarity”, http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.62.3892&rep=rep1&type=pdf

8. Shrestha N va boshqalar, “Resources for Nepali WSD” in proceedings of IEEE conference on Natural Language Processing and Knowledge Engineering, 2008. NLP-KE '08. 2008.

9. Alok Ranjan Pal va Diganta Saha, “WORD SENSE DISAMBIGUATION: A SURVEY”, International Journal of Control Theory and Computer Modeling (IJCTCM) Vol.5, No.3, iyul 2015

10. Z.Z. Merhbene Laroussi, “Unsupervised system for Lexical Disambiguation of Arabic Language using a vote procedure,” IEEE-ICoAC, 2011

11. Raj Dhungana, Subarna Shakya va boshqalar, “Word Sense Disambiguation Using WSD Specific Wordnet of Polysemy Words”, Udaya International Journal on Natural Language Computing (IJNLC) Vol. 3, No.4, avgust 2014

12. Shallu va boshqalar, “A Survey of Word-sense Disambiguation Effective Techniques and Methods for Indian Languages”, JOURNAL OF EMERGING TECHNOLOGIES IN WEB INTELLIGENCE, VOL. 5, NO. 4, Noyabr 2013

13. E. B. Boltayevich, A. X. Ilxomovna, P. M. Hakim Qizi and K. N. Uktambay O‘g'li, “Semantic Differentiation of Uzbek Homonyms Using the Lesk Algorithm,” 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 137-140, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286666.

QAROR RO‘YXATI ALGORITMI YORDAMIDA SO‘Z MA’NOSINI ANIQLASH

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Hayotova Gulmira Hakim qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
hayotovagulmira208@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ba’zi so‘zlar bir xil tarzda yozilib, turli kontekstda turlicha ma’nolarga ega. Insonlar intellektga ega bo‘lib, ular turli kontekstlarda ko‘p ma’noli so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini osonlik bilan tushunadilar. Buni atrofdagi so‘zlar, ya’ni lokal yoki global kontekst yordamida amalga oshiradilar. Lokal kontekst target so‘zga yaqin bir nechta so‘zlarni anglatadi. Global kontekst esa noaniq so‘zga yaqin bo‘lgan satrlar yoki paragraflarni ifodalaydi. So‘z ma’nosini aniqlashda kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Mashinali o‘qitish yondashuvi asosida so‘z ma’nosini aniqlash kontekstga asoslanadi. Ushbu maqolada qaror ro‘yxatlari algoritmi yordamida so‘z ma’nosini aniqlash haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Annotation: Some words are spelled the same but have different meanings in different contexts. Humans are intelligent enough to easily understand the correct meaning of words with multiple meanings in different contexts. They do this by using the surrounding words, i.e., the local or global context. The local context refers to several words close to the target word. Global context refers to lines or paragraphs that are close to the ambiguous word. Context plays an important role in determining the meaning of a word. Machine learning approaches to determining the meaning of a word are based on context. This article provides detailed information about determining the meaning of a word using a decision list algorithm.

Аннотация.: Некоторые слова пишутся одинаково, но имеют разное значение в разных контекстах. Люди разумны и могут легко понимать правильное значение слов, имеющих несколько значений в разных контекстах. Они делают это, используя окружающие слова, то есть локальный или глобальный контекст. Локальный контекст относится к нескольким словам, близким к целевому слову. Глобальный контекст представляет собой строки или абзацы, которые находятся близко к неоднозначному слову. Контекст важен при определении значения слова. Подход машинного обучения к определению значения слова основан на контексте. В данной статье представлена подробная информация об определении значения слова с использованием алгоритма списка решений.

Kalit so‘zlar. *Mashinali o‘qitish yondashuvi, nazorat ostida o’qitish algoritmlar, so‘z ma’nosini aniqlash, kontekst, vazn.*

Kirish

Dunyoning deyarli barcha tabiiy tillarida turli kontekstlarda turlicha ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar mavjud. Bunday so‘zlar polisemantik yoki ko‘p ma’noli so‘zlar deb ataladi, ular bir xil yoziladi, lekin turli kontekstlarda alohida ma’noga ega. Ya’ni ularning kontekstdagi ma’nosi noaniq. Noaniq so‘zning to‘g‘ri ma’nosini aniqlash va haqiqiy ma’noni belgilash jarayoni so‘z ma’nosini aniqlash (Word Sense Disambiguation, WSD) deb ataladi. Bu tabiiy tilga ishlov berish (NLP) sohasi uchun muhim yondashuvdir. So‘z ma’nosini aniqlash mashina tarjimasi (MT), semantik xaritalash (SM), ontologiyalarni o‘rganish (OL), semantik annotatsiya (SA) kabi jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Insonlar intellektga ega bo‘lib, ular turli kontekstlarda ko‘p ma’noli so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini osonlik bilan tushunadilar. Buni atrofdagi so‘zlar, ya’ni lokal yoki global kontekst yordamida amalga oshiradilar. Lekin bu jarayonni tizim orqali amalga oshirilsa, tizimga ba’zi qoida va yo‘riqnomalarni kiritish lozim. Shundan so‘ng tizim kiruvchi kontekstdagi noaniq so‘zning to‘g‘ri ma’nosini aniqlay oladi. So‘zning ma’nosi – bu til jamoasi tomonidan so‘z uchun qabul qilingan ma’no. Noaniq so‘zning to‘g‘ri ma’nosini topish uchun lug‘atga murojaat qilish mumkin. Ya’ni, noaniq so‘zning ma’nosini avtomatik aniqlash uchun resurslar zarur. Masalan ingliz tilida aniqmasliklarni bartaraf etish uchun WORDNET manba sifatida xizmat qiladi [1,2]. O‘zbek tilining WORDNET tizimi ishga tushirilmaganligi sababli, boshqa manba hosil qilishga to‘g‘ri keladi. Garchi o‘zbek tilining WordNet tizimi ishga tushurilmagan bo‘lsada, noaniqliklarni aniqlash bo‘yicha qator izlanish olib borilmoda [7-9]. Ya’ni aniqmasliklarni turli ma’nolarini ifodalovchi gaplar to‘plamini jamlash zarur.

Gaplar shaxs tomonidan ifodalanganligi sababli, faqatgina gapga e’tibor beriladi, his-tuyg‘ularga emas. Inson omili yordamida gaplardagi his-tuyg‘uni aniqlash oson, ammo Mashinali o‘qitish yondashuvlari yordamida faqatgina gapga ishlov berish mumkin va ko‘p ma’noli so‘z uchrasa, uning atrofidagi so‘zlar tahlil qilinadi. Ko‘p ma’noli so‘zning birikuvchilari esa kontekstning o‘lchamiga bog‘liq. Kontekstlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:



1-rasm: Kontekstlarning turlari

Nol kontekst – so‘zning o‘zi.

Lokal kontekst (Mahalliy) – ibora va qo‘shma jumla.

Global kontekst – gap, muloqot, mavzu va soha.

Kontekstda noaniq so‘zning to‘g‘ri ma’nosini aniqlash murakkab vazifadir. Kontekst *mahalliy* yoki *global* bo‘lishi mumkin. Mahalliy kontekst noaniq so‘z atrofdagi bir nechta so‘zlarni qamrab oladi. Global kontekst esa bir jumladan ko‘proq so‘zlar demakdir [1].

Kontekst turlari so‘z ma’nosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. So‘z ma’nosini aniqlashda turli yondashuvlardan foydalanish mumkin.

Asosan, ikki xil so‘z ma’nosini aniqlash yondashuvi mavjud:

1) Mashinali o‘qitish yondashuvi.

2) Lug‘atga asoslangan yondashuv.

Mashinali o‘qitish yondashuvi algoritmlari 3 ta turga bo‘linadi:

– nazorat ostida o’qitish algoritmlar,

– nazoratsiz o’qitish algoritmlar,

– yarim nazorat ostida o’qitish algoritmlar

Ushbu yondashuvda tizim to‘g‘ri ma’noni aniqlash uchun teglangan dataset o‘qitiladi. Klassifikator xususiyatlarni o‘rganish va yangi kiritilgan gaplardagi noaniq so‘zning ma’nolarni belgilash uchun qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvda, noaniq so‘z va noma’lum so‘zning matndagi birikuvchilari tizimga kirish sifatida beriladi.

Jahon tajribasiga ko‘ra WSD tizimilarini ishlab chiqishda asosan mashinali o‘qitish yondashuvidan foydalanilgan. Mashinali o‘qitish yondashuvida inson omili yordamida yaratilgan, ma’nosi annotatsiyalangan ma’lumotlardan foydalaniladi. Klassifikator noaniq so‘zga tegishli misollarni ham o‘z ichiga olgan ma’lumotlar to‘plami asosida o‘qitiladi. Klassifikator joriy noaniq so‘zni kirish sifatida qabul qiladi va to‘g‘ri ma’no uchun qo‘lda yaratilgan ma’no ma’lumotlar to‘plamini qidiradi. O‘qitiladigan ma’lumotlar to‘plami klassifikatorni o‘qitish uchun ishlatiladi, bu ham noaniq so‘zni o‘z ichiga oladi.

So‘z ma’nosini aniqlashda Nazorat ostida o‘qitish algoritmlardan foydalanish.



2-rasm: Nazorat ostida o‘qitish algoritmlar

2-rasmdan ifodalanganidek nazorat ostida o’qitish algoritmlar sinfi ham bir nechta algoritmlarni qamrab oladi. Ushbu algoritmlar yordamida so‘z ma’nosini aniqlashda teglangan ma’lumotlarga zarur bo‘ladi. Oldingi maqolalarimizda Naïve Bayes algoritmi yordamida omonimiyani aniqlash haqida ma’lumot bergan edik [7].

Qaror ro‘yxatlari. Qaror ro‘yxatlari "agar - unda-aks holda" qoidalar to‘plamidir. So‘zning xususiyatlarini olish uchun o‘qitish to‘plami belgilangan ro‘yxatda ishlatiladi. Ushbu qoidalar yordamida natijalar ro‘yxati yaratiladi. Yarowsky ta’riflaganidek “Qaror ro‘yxatlari (Decision Lists, DL) — noaniqlik muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan sodda vositalardan biridir “[4]. Ushbu yondashuv urg’uni tiklash, so‘z ma’nosini aniqlash va omofonlarni ajratish kabi vazifalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Bu usul Senseval so‘z ma’nosini aniqlash eng muvaffaqiyatli tizimlardan biri bo‘lgan [5].

O‘qitish ma’lumotlari xususiyatlarni (features) ajratib olish uchun qayta ishlanadi, bu xususiyatlar logarifmik ehtimollik (log-likelihood) o‘lchovi yordamida baholanadi. Logarifmik ehtimollik qiymatlariga ko‘ra tartiblangan barcha xususiyatlarning ro‘yxati qaror ro‘yxatini hosil qiladi. Olimlar formulani ikkitadan ortiq noaniqlik holatlarini hisobga olish imkonini berish uchun moslashtirganlar.

$$weight(s_i|f_k) = \log(\frac{P(s_i|f_k)}{\sum_{j\neq i} P(s_j|f_k)} \quad (1)$$

Bu yerda, s_i– kontekstdagi noaniq so‘zning i- ma’nosi,
f_k– k-xususiyat,
$weight(s_i|f_k)$- s_i so‘z ma’nosining f_k xususiyat bo‘yicha vazni.

Qaror ro‘yxatlari algoritmida so‘z ma’nosining turli xususiyatlari bo‘yicha vaznlarini hisoblash orqali so‘z ma’nosini aniqlaydi. Bunda biror xususiyat bo‘yicha so‘zning har bir ma’nosi vaznlanadi va yuqori vaznga ega bo‘lgan so‘z ma’nosi natijasi sifatida qabul qilinadi. Xususiyatni aniqlashni turli usullari mavjud. Eng ko‘p foydalaniladigan xususiyat turlaridan biri *Bag-of-Words (BOW)* lug’atidir.

Bunda teglangan datasetdan joriy ko‘p ma’noli so‘zning atrofidagi so‘zlar chastotasi aniqlanadi. BOW ni hosil qilishda odatda joriy so‘z atrofidagi 5 ta so‘z olinadi.

Xususiyatlarni quyidagicha tanlab olish mumkin:

– Bigrams/trigrams – datasetdagi joriy so‘z ishtirokidagi bigram/ trigrammalar asosida;

– Lemmalar asosida xususiyatlar-so‘zning lug’aviy shakllari olinadi;

– Positsion xususiyatlar-so‘zning oldin yoki keyin uchraydigan so‘zlar;

– Semantik maydon asosida-tabiiy tilning WordNet tizimi

Kabi xususiyatlarni tanlab olish mumkin.

Osmondagi qora bulutlar shiddatli yomg’ir alomati demakdir.

Gapidagi *alomat* so‘zi omonim so‘z bo‘lib, u turli kontekstlarda quyidagicha ma’nolarni anglatishi mumkin (3-rasm).



3-rasm: Alomat so‘zining ma’nolari

Demak, ushbu aniqmaslikni qaror ro‘yxatlari algoritmi yordamida aniqlashni ko‘rib chiqamiz. (1) formuladag parametrlarning qiymatlarini aniqlab olamiz.

$$s = \{Belgi, ko'rsatkich; Odatdagidan\ o'zgacha, tushunib\ bo'lmaydigan\}$$

$$f = \{so'z, bigram, trigram, lemma, position, semantik\ maydon, win, morfologik\}$$

Yuqoridagi gapda keltirilgan *alomat* so‘zi xususiyatlar to‘plami bo‘yicha qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Gapdagi alomat so‘zining xususiyatlar bo‘yicha qiymatlari

Xususiyat turi	Namuna
So‘z	Yomg’ir / demakdir
Bigram	Yomg’ir alomati, alomati demakdir
Trigram	Yomg’ir alomati demakdi
Lemma	Lemma(shiddatli)=shiddat
position	So‘zdan oldingi so‘z=yomg’ir
Semantik maydon	Xususiyatlar maydoniga tegishli
Morfologik	Alomat so‘zi ot sifatida foydalanilgan.

Alomat so‘zining s_i ma’nosi bo‘yicha jamlangan gaplar to‘plamiga namuna keltiramiz.

2-jadval: Teglangan datasetdan namunalar

1-ma’nosi	2-ma’nosi
Bu kasallikning ilk alomati – tana haroratining ko‘tarilishidir.	**Bu alomat ko‘z qarashlari bilan u nimadir demoqchi edi.**
Osmonda qora bulutlar to‘plangani yomg’irning yaqin alomati edi.	**Alomat jimlik xonadagi muhitni yanada g’alati qildi.**
Donishmandlar aytadiki, odamning so‘zlari va xatti-harakati uning ichki dunyosining alomatidir.	**O‘sha kechadagi alomat tush hali-hanuz yodimdan chiqmaydi.**
Uning ko‘zidagi mung va yuzidagi charchoq yashirin g’amning alomatlari edi.	**Ular alomat harakatlari bilan atrofdagilarni bezovta qilishardi.**
Til o‘rganishda muvaffaqiyatli bo‘lishning eng yaxshi alomati – muntazam mashq qilishdir.	**Alomat so‘zlar bilan boshlangan suhbat kutilmagan tomonga burildi**
…	**…**

Xuddi shu kabi *alomat* so‘zining har bir ma’nosi bo‘yicha 100 tadan gap jamlandi. Alomat so‘zining har bir ma’nosi bo‘yicha vaznini hisoblashda biz *position* xususiyatidan foydalandik. *Position* xususiyati bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar oldik. Dastlab alomat so‘zidan oldin yomg’ir so‘zi uchrash ehtimolligini hisobladi. Quyidagi natijalar olindi.

$$P(s_1|yomg'ir) = \frac{C(s_1|yomg'ir)}{C(s_1)} = \frac{12}{100}$$

$$\sum_{j \neq i} P(s_j|f_k) = \frac{13}{200}$$

$$weight(s_1|yomg'ir) = \log\left(\frac{0.12}{0.065}\right) = \log(1.85) = 0.889$$

Ko‘rinib turganidek, *alomat* so‘zidan oldin *yomg’ir* so‘zi uchraganda uning s_1 ma’noni anglatishdagi vazni 0.889 ga teng. Endi s_2 ma’nosi bo‘yicha vaznini hisoblaymiz.

$$P(s_2|yomg'ir) = \frac{C(s_2|yomg'ir)}{C(s_2)} = \frac{1}{100}$$

$$\sum_{j \neq i} P(s_j|f_k) = \frac{13}{200}$$

$$weight(s_2|yomg'ir) = \log\left(\frac{0.01}{0.065}\right) = \log(0.15) = -0.81$$

s_1 ma’nosi bo‘yicha vazni -0.81 ga teng ekanligini ko‘rish mumkin. Ma’lumki noaniq so‘zning vazni 0 yoki manfiy qiymatga teng bo‘lsa, demak ushbu xususiyat bo‘yicha so‘zning joriy ma’nosi ahamiyatga ega emas.

Osmondagi qora bulutlar shiddatli yomg’ir alomati demakdir.

Gapidagi *alomat* omonim so‘zining ma’nosini aniqlashda Qaror ro‘yxatlari algoritmidan foydalanilganda quyidagicha vaznlar aniqlandi.

$$weight(belgi, xususiyat|yomg'ir) = 0.889$$

$$weight(Odatdagidan\ o'zgacha|yomg'ir) = -0.81$$

Aniqlangan vaznlardan quyidagicha qaror qabul qilish mumkin, berilgan gapdagi noaniq so‘z “$belgi, xususiyat$” ma’nosini anglatgan.

Qaror ro‘yxatlari (Decision lists) algoritmidan foydalanish vazn hisoblash xususiyatlarining ko‘pligi, uni tanlashning ixtiyoriyligi yoki mavjud barcha xususiyatlardan foydalangan holda ham vaznlashtirish mumkinligi bilan ushbu masalani yechishda qulaylik yaratib beradi. Agar omonim so‘z turli so‘z turkumlari doirasida turli ma’nolarga ega bo‘lsa, u holda *morfologik* xususiyatdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki omonim so‘z mumkin bo‘lgan har bir so‘z turkumi doirasida faqat bitta ma’noga ega bo‘ladi. Teglangan datasetda ham bu aks ettiriladi albatta, u holda statistik ko‘rsatkichlar nisbatan kichikroq dataset ustida hisoblanadi hamda aniqroq natijalar olinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nazorat ostida o‘qitish algoritmlar inson omili tomonidan teglangan, tekshirilgan ma’lumotlar ustida ish olib boradi. Qisqacha qilib aytganda namunalar asosida o‘rganadi. Ushbu o‘qitish yondashuvi namunalardan klassifikatsiya modelini ishlab chiqadi. Model har safar misol kelganda xususiyatlar fazosida nuqtalarni saqlaydi, bu yondashuv yangi misol va xususiyatlar fazosidagi ma’lumotlar o‘rtasidagi masofani hisoblaydi. Oldindan saqlangan ma’lum bir sinfga yaqinroq bo‘lsa, o‘sha sinfga qabul qilish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Ushbu maqolada so‘z ma’nosini aniqlash uchun qaror ro‘yxatlari algoritmidan foydalanishning batafsil tahlili keltirildi. Asosan, mashinali o‘qitish usulida bu jarayonni amalga oshirish uchun katta korpusdan foydalaniladi va ushbu usulda aniqlash jarayoni uchun tizimni o‘qitish zarur. Ushbu mashinali o‘qitish algoritmlari yaxshi natijalar ko‘rsatadi, ammo asosiy kamchiliklari shundaki, ular katta korpusga ehtiyoj sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kilgarriff, A., Evans, M. (eds): Special issue on SENSEVAL. Computer and the Humanities, 34(1-2) (2000)
2. Miller, G. A., Beckwith, R., Fellbaum, C., Gross, D., Miller, K.: Five Papers on WordNet. Special Issue of International Journal of Lexicography, 3(4), (1990)

3. S.Ramana, M.V.Ramana Murthy, & N.Bhaskar. (2017). Ensuring data integrity in cloud storage using ECC technique, International Journal of Advanced Research in Science and Engineering, BVC NS CS 2017, 06(01), 170–174. ISSN Number: 2319-8346

4. Yarowsky, D. Decision Lists for Lexical Ambiguity Resolution: Application to Accent Restoration in Spanish and French’, in Proceedings of the 32nd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, pp. 88--95. 1994.

5. Kilgarriff, A. and M. Palmer. (eds). Special issue on SENSEVAL. Computer and the Humanities, 34 (1-2). 2000

6. R Alugubelli. (2016). Exploratory Study of Artificial Intelligence in Healthcare. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 3(1), 1–10.

7. B.Elov, X.Axmedova. Naïve Bayes klassifikatori yordamida omonimiyani aniqlash. Muhammad al-Xorazmiy avlodlari ilmiy-amaliy va axborot tahliliy jurnal 4(26)/2023 ISSN -2181-9211, 194-201-b.

8. E. B. Boltayevich and A. X. Ilxomovna, "Business Process Modeling That Distinguishes Homonymy Within Three Parts of Speechs in The UzbekLanguage," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 278-283, doi:10.1109/UBMK55850.2022.9919453

9. Axmedova X. I. Turli so‘z turkumlari orasidagiomonimiyani aniqlovchi matematik modellar// Scienceand innovation international scientific journal volume 1issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.https://doi.org/10.5281/zenodo.7238546[12]

10. Axmedova X.I. Chastotali usul yordamida omonimiyani aniqlash// “O‘zbek amaliyfilologiyasi istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent: 2022.-164-170 b.

LEKSIK DARAJADAGI PEREFRAZ TAKSONOMIYASINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Axmedova Xolisxon Ilxomovna,
Texnika fanlari falsafa doktori PhD
a.xolisa@navoiy-uni.uz
ToshDO‘TAU

Ko‘charova Iroda Shavkat qizi,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi talabasi
kocharovairoda516@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada, tabiiy tilga ishlov berish (Natural Language Processing - NLP) sohasidagi perefraz qilish (paraphrasing) algoritmlariga oid muhim tushunchalar keltirib o‘tiladi. Perefraz qilishning leksik darajadagi taksonomiyasi, sinonimlari, antonimlari va morfologik o‘zgarishlari kabi turlari orqali gaplarni semantik jihatdan ekvivalent tarzda ifodalash jarayoni o‘rganiladi. Glove algoritmi so‘z vektorlarining o‘rtacha qiymati va Skip-gram usullari yordamida gaplarning semantik o‘xshashligini baholashga yordam beradi.

Abstract: This article presents important concepts related to paraphrasing algorithms in the field of Natural Language Processing (NLP). It explores the process of expressing sentences in a semantically equivalent manner through types such as lexical-level taxonomy, synonyms, antonyms, and morphological variations. The GloVe algorithm and Skip-gram methods help evaluate the semantic similarity of sentences based on the average value of word vectors.

Аннотация. В данной статье представлены важные понятия, относящиеся к алгоритмам перефразирования в области обработки естественного языка (Natural Language Processing — NLP). Рассматривается процесс выражения предложений в семантически эквивалентной форме через такие виды, как таксономия на лексическом уровне, синонимы, антонимы и морфологические изменения. Алгоритм GloVe и метод Skip-gram помогают оценить семантическое сходство предложений на основе среднего значения векторов слов**.**

Kalit so‘zlar: *Perafraza taksonomiyasi, NLP, Skip-gram, leksik darajadagi taksonomiya, sinonim, antonym, morfologik o‘zgarishlar, GloVe.*

Tabiiy tilga ishlov berish texnologiyalari sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tilni tushunish va ishlov berishda asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu maqola so‘zlarni sonli ifodalashning turli yondashuvlari va chuqur o‘rganish modellarining asoslari, afzallik va qiyinchiliklarini o‘rganish uchun tezkor ma’lumot bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Perafraza - bu bir xil ma’noni ifodalovchi turli xil so‘z yoki iboralar bilan ifodalash usuli. Masalan, “o‘qituvchi” va “muallim”

so‘zlari bir xil ma’noni bildiradi, lekin turli kontekstlarda qo‘llanilishi mumkin. Tabiiy tilga ishlov berish sohasida gaplarni perefraz qilish, gap ekvivalentlarni yaratish, gaplarni semantik generatsiya qilish tushunchalari o‘zaro sinonim tushunchalardir. Gapning perefrazi uning ma’nosini saqlab qoladi, biroq asl shakldan farqli so‘z va iboralarni tanlaydi. Perefraz yaratish (Paraphrase Generation-PG) turli tabiiy tilga ishlov berish ilovalari ishlab chiqishda muhim masala bo‘lib, u tabiiy til birliklarini kengaytiradi. Perefraz yaratish *savol-javob tizimlari, mashina tarjimasi va axborot izlash* kabi ko‘plab vazifalarni bajarishda uchun muhim rol o‘ynaydi [1]. Savol - javob tizimlarida PG semantik jihatdan ekvivalent savollarni hamda ularga turli ko‘rinishdagi javoblarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu javoblarni qidirishda so‘zlar mos kelmasligi muammolarini hal qilishga yordam beradi [2]. Perafraza taksonomiyasi esa bunday o‘xshashliklarni turkumlash va tasniflash uchun tuzilgan sxema(1-rasm).



1-rasm: Perefraz qilish taksonomiyasi

O‘zbek tilidagi gaplarni perefraz qilishni taksonomiya bo‘yicha amalga oshirish jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Leksik darajadagi taksonomiya - bu so‘zlar, ularning ma’nolari va bir-biriga bo‘lgan munosabatlari asosida so‘zlarning turkumlarini tasniflash yoki tartibga solish tizimi. Odatda, bu jarayon leksik birikmalarni o‘rganish va tasniflash orqali amalga oshiriladi. Leksik darajadagi taksonomiyaning asosiy yo‘nalishlari 1-rasmda ham aks etgan bo‘lib, bulardan birinchi bosqich sinonimlar orqali almashtirishdir. *Sinonimlar orqali almashtirish* - bu so‘zlarni yoki iboralarni ma’no o‘zgarishisiz, lekin turlicha shaklda ifodalash uchun ishlatiladigan usul. Masalan, quyidagi gapni ko‘rib chiqamiz.

Asl gap: *“Odobli insonlar nafaqat boshqalarga hurmat ko‘rsatadi, balki o‘zini ham tinch va baxtli his qiladi”*

Sinonimi orqali almashtirilgan gaplar: bunda gapdagi har bir so‘zning sinonimlari ro‘yxatini shakllantirish kerak bo‘ladi. Ya’ni

Odobli -> boadab, axloqli, tarbiyali.

1. Boadab insonlar nafaqat boshqalarga hurmat ko‘rsatadi, balki o‘zini ham tinch va baxtli his qiladi.

2. Axloqli insonlar nafaqat boshqalarga hurmat ko‘rsatadi, balki o‘zini ham tinch va baxtli his qiladi.

3. Tarbiyali insonlar nafaqat boshqalarga hurmat ko‘rsatadi, balki o‘zini ham tinch va baxtli his qiladi.

Bu yerda bir so‘z o‘rnida uning sinonimi ishtirok etgan bo‘lsada, gapning ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmayabdi. Sinonimlar orqali almashtirish, tilni yanada boyitishga yordam beradi va gaplarni turli shakllarda ifoda etishda samarali usul hisoblanadi. Bu orqali matnni yangilash va gapning ma’no samaradorligini oshirish mumkin.

Antonimlar orqali almashtirish - bu o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar yoki iboralar yordamida matndagi so‘zlar yoki gaplarni almashtirish usuli. Masalan:

Asl gap: *“Uning so‘zlari aniq va mantiqiy edi, lekin fikrlashi tor”*.

Antonimi orqali almashtirilgan gap: *“Uning so‘zlari aniq va mantiqiy edi, lekin fikrlashi keng emas”*

Asl gap: *“Izohli lug‘at kartotekasi hali ham kambag‘al”*

Antonimi orqali almashtirilgan gap: *“Izohli lug‘at kartotekasi hali ham boy emas”*

Yuqoridagi misolda ko‘rganimizdek, asl gapga nisbatan antonimi orqali almashtirilgan gapda ma’no boyoqdoligi yuqoriroqdir. Ushbu yo‘nalish, ayniqsa, *badiiy asarlarda, insholar va tahliliy matnlarda* juda foydalidir. O‘qishga qiziqarli va boy ma’no kiritish uchun antonimlardan foydalanish matnni yangi nuqtai nazardan ko‘rishga yordam beradi.

Leksik darajadagi taksonomiyaning oxirgi yo‘nalishi bu - morfologik o‘zgarish. Ushbu yo‘nalish so‘zlarga qo‘shiladigan shakllarni o‘zgartirish orqali ifodalanadi. Misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Asl gap: *“U mamlakatda ekonomika fanlari akademiyasini barpo qilish masalasini muhokama qilish kerak edi deb hisoblaydi”*.

Perefraz qilingan gap: *“U mamlakatda ekonomika fanlari akademiyasini barpo qilish masalasini muhokama qilish kerak edi deb hisoblamaydi emas”.*

Asl gap: *“Uning gaplari bolalarcha sodda, samimiy va aniq edi”.*

Perefraz qilingan gap: *“Uning gaplari bolalarcha sodda, samimiy va noaniq emas edi”.*

So‘zlarning morfologik shaklini o‘zgartirish gap yoki matn ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Gap uchun to‘g‘ri tanlangan morfologik shakllar so‘zlarning ma’nosini aniqroq ifodalashga yordam beradi, matnni boyitadi, soddalashtiradi yoki yangilaydi.

Leksik avtomatik perefrazni amalga oshirishda bir algoritmlardan foydalanish mumkin. Shunday algoritmlardan biri GloVe algoritmi bo‘lib, uning asosiy vazifasi so‘zning semantik o‘xshashlik koeffitsiyentlari aniqlashdan iborat. O‘xshashlik koeffitsiyentlarini aniqlashda dastlab berilgan dataset asosida matritsa tuziladi. Bu matritsadan gaplarning xususiyatlarini hisoblash uchun ishlatiladi. Ushbu matritsaning qatorlari korpus gaplarini, ustunlari esa xususiyatlarni ifodalaydi. Xususiyatlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Unigrams (bitta so‘z)	“Men”, “yangi”, “kitob”, “o‘qidim”
Bigrams (ketma-ket keluvchi so‘z juftliklari)	“Men yangi”, “yangi kitob”, “kitob o‘qidim”
Dependency pairs (so‘zlar orasidagi munosabat)	(“Men”, “o‘qidim”) - “Men” subyekt, “o‘qidim” fe’l bilan bog‘langan. (“yangi”, “kitob”) - “yangi” sifat, “kitob” ot bilan bog‘langan. (“kitob”, “o‘qidim”) - “kitob” obyekt, “o‘qidim” fe’l bilan bog‘langan.

2-rasm: Xususiyatlarni taqqoslash jadvali

Matritsa tuzilganidan so‘ng, so‘z chastotasining Kullback-Leibler farqlanishi (TF-KLD) xususiyat uchun vazn sxemasi hisoblanadi. Ushbu vazn berishning maqsadi muhimroq xususiyatlarga yuqori vazn berishdir. Yangi vazn berish sxemasi barcha xususiyatlarning vaznini hisoblash uchun quyidagi faktorlarga asoslanadi:

Xususiyatning parafrazlangan gaplarda mavjud bo‘lish ehtimoli	U juda yaxshi raqsga tushishni biladi.
Xususiyatning parafrazlanmagan gaplarda mavjud bo‘lish ehtimoli	U yaxshi raqsga tushadi.

3-rasm: Perefrazlashda xususiyatlar: Mavjudlik ehtimollari

Matritsa faktorizatsiyasi usuli yordamida gaplar vektorlarini ajratish uchun ishlatiladi. Ushbu vektorlar yordamida gaplar o‘rtasidagi o‘xshashlikni o‘lchash mumkin.

So‘z vektorlarining o‘rtacha qiymati

Ushbu usulda gapni ifodalovchi vektor so‘zlarning o‘rtacha vektorlari ushbu gapga tegishli deb hisoblanadi. Oldindan o‘qitilgan *qo‘lqop* so‘z vektorlaridan foydalangan[12]. *Qo‘lqop* semantik maydonidan gapdagi har bir so‘z uchun mos keladigan vektor tushuniladi va gaplarni ifodalash uchun ushbu vektorlar orasidagi kosinus o‘xshashligi gaplarning semantik o‘xshashligini baholash uchun ishlatiladi.

O‘qitishga asoslangan vektorlar. Bundan tashqari, so‘zlarni joylashtirish (word embedding) yordamida yaratilgan so‘z vektorlari asosida gap o‘xshashligini aniqlash modelini Mueller taklif qilgan[19]. Uzoq va qisqa muddatli xotira (LSTM) modelida oddiy bir o‘zgartirish taklif qilinadi va treningda qo‘llaniladi. Kirish ma’lumotlarida har bir gap so‘z vektorlaridan iborat bo‘lib, bu vektorlar bir xil o‘lchamga ega. Bundan tashqari, har bir gap juftligi uchun kirish ma’lumotlarida inson tomonidan baholangan o‘xshashlikni ifodalovchi belgi beriladi. Taklif qilingan Manhattan LSTM (MaLSTM) modelini kirish gapi vektorlarini o‘qish uchun ishlatadi va oxirgi yashirin qatlamni kirish gaplari uchun taqdimot sifatida ishlatadi. Gaplar uchun yangi yaratilgan taqdimot semantik o‘xshashlik o‘lchovini o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Skip-Gramm vektorlari. Ushbu usul nazoratsiz o‘quv modeliga asoslangan gaplar uchun vektorli tasvirni oladi. Ushbu modelga kiritilgan senentsiyalar vektorlar to‘plami sifatida ifodalanadi. Bu vektorlar, gaplarning so‘zlariga mos keladigan, oldindan o‘qitilgan word2vec fazosidan tanlanadi. Skip-thought modeli, berilgan so‘zga asoslanib atrofdagi so‘zlarni bashorat qiladigan Skip-gram modeliga o‘xshashdir. Biroq, Skip-thought modeli fokuslangan gapga asoslanib atrofdagi gaplarni bashorat qiladi. Gaplar o‘xshashligini hisoblashda, avvalo gaplar oldindan o‘qitilgan modelga yuborilib, vektor taqdimoti olinadi. So‘ngra, o‘xshashlik o‘rganish vazifasiga asoslanib hisoblanadi.

Xususiyat	Skip-gram	Skip-thought
Maqsad	So‘zlarni konteksdagi boshqa so‘zlar yordamida bashorat qilish	Gap yoki matnni vektorga aylantirish
Yondashuv	So‘zlar o‘rtasidagi semantic o‘xshashlikni o‘rganish	Gaplar o‘rtasidagi semantic o‘xshashlikni o‘rganish
Natija	So‘z vektorlarini yaratadi	Gap yoki matn vektorlarini yaratadi
Turi	Word2Vec modelida ishlatiladi	Reccurrent Neural Network (RNN) yordamida ishlaydi
Misol	“Men kitobni o‘qidim” - [o‘qish, kitob]	“Men kitobni o‘qidim” va “Men sport bilan shug‘ullandim” orasidagi o‘xshashlik

4-rasm: Skip-gram va Skip-thought model xususiyatlari

Vektor asosidagi o‘xshashlik yondashuvi, ayniqsa chuqur o‘rganish yondashuvini qo‘llaganidan so‘ng yaxshi natijalar ko‘rsatgan bo‘lsa-da, gaplarining asosiy xususiyatlarini aniqlashda hali ko‘p yaxshilanishlar uchun imkoniyatlar mavjud.

Umuman olganda, ko‘plab yondashuvlar tushuntirilgan texnikalarning ikkita yoki undan ortiq birlashtirilishini qo‘llaydi. 1-jadvalda muhokama qilingan ba’zi yondashuvlar va har bir taklif qilingan tizimda ishlatilgan texnikalar ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, har bir taklif qilingan tizimni baholash uchun ishlatilgan ma’lumotlar to‘plami va erishilgan natijalar keltirilgan. 1-jadvalda har bir yondashuvning tafsilotlarini ko‘rsatadi va zamonaviy texnologiyalarni chizadi. 1-jadvalda ko‘rsatilganidek, gap o‘xshashligini o‘lchash uchun aytib o‘tilgan metodlar aralash tarzda qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, gaplar o‘rtasidagi o‘xshashlikni o‘lchash uchun turli yondashuvlarni birlashtirish yaxshi natijalar ko‘rsatdi, chunki bu muammoni turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqadi. Masalan, so‘zga asoslangan yondashuvni va tuzilishga asoslangan yondashuvni birlashtirish, yaxshi tuzilgan gaplar uchun ham, yaxshi tuzilmagan gaplar uchun ham samarali ishlaydigan tizimni yaratadi. Shuningdek, o‘xshashlikni o‘lchashda strukturaviy ma’lumotlardan foydalanish keng tarqalgan emas. Bundan tashqari, gap o‘xshashligini hisoblashda gap tuzilmasidan foydalanishni o‘rganish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J Edward Hu, Rachel Rudinger, Matt Post, and Benjamin Van Durme. Parabank: Monolingual bi text generation and sentential paraphrasing via lexically constrained neural machine translation. arXiv preprint, 2019.
2. Lin, D., Pantel, P.: Discovery of inference rules for question-answering. Natural Language Engineering 7(4), 343–360 (2001)
3. Mengqiu Vang, Smit na, Mitamura T. jeop- ardy modeli nima? Qa uchun kvazi-sinxron grammatika, yilda: EMNLP-CoNLL; 2007, 7. p. 22-32.
4. Mamdouh Faruk, Mitsuru Ishizuka, Danushka Bollegala. Grafik taalukli asoslangan semantik qidiruvi. Metadata va semantikani tadqiq qilish bo‘yicha 12-xalqaro konferentsiya materiallari, Kipr; 2018 yil. https://doi. org/10.1007/ 978-3-030 -14401-2_8.
5. Aliguyev RM. Matnni avtomatik umumlashtirish uchun yangi gap o‘xshashlik o‘lchovi va gapga asoslangan ekstraktiv texnika, ilovalar bilan ekspert tizimlari, 2009; 36:7764-72. https://doi.org/10.1016/j.eswa.2008.11.022.
6. De Boni M, Manandhar S. savolga javob berish uchun gap o‘xshashligini semantik dolzarblik metrikasi sifatida ishlatish. Savollarga javob berishda yangi yo‘nalishlar bo‘yicha AAAI simpoziumining materiallari; 2003.
7. Alzahrani S, Salim N, AbrahamA. Plagia - rism lingvistik naqshlarini, matn xususiyatlarini va aniqlash usullarini, tizimlar, odam va kibernetika bo‘yicha IEEE operatsiyalarini tushunish. 2012; 42(2): 133-49. https://doi.org/10.1109 / TSMCC.2011.2134847.
8. Jaro MA. 1985 yilda qo‘llanilgan rekord bog‘lanish metodologiyasidagi yutuqlar Tampa Florida aholini ro‘yxatga olish, Amerika statistika jamiyati jurnali. 1989; 84(406): 414-20. https: / / doi.org/10.1080/01621459.1989.10478785.
9. Vinkler biz. Fellegi-Sunter modelidagi yozuvlarni bog‘lash modelidagi taqqoslagich o‘lchovlari va Kengaytirilgan qaror qoidalari. Tadqiqotni tadqiq qilish usullari bo‘limining materiallari, Amerika statistika assotsiatsiyasi; 1990 yil. p. 354-59.
10. Mikolov t, Chen K, Corrado G, Dean J. vektor kosmosda so‘z vakolatxonalari samarali estima - yozildi, arXiv preprint arXiv: 1301.3781. 2013.
11. Miller GA. So‘z tarmog‘i: ingliz tili uchun leksik ma’lumotlar bazasi, ACM aloqalari. 1995; 38(11):39-41. https: / / doi.org/10.1145/219717.219748.
12. Vu Z, Palmer M. fe’l semantikasi va leksik tanlov. Davomlari32ndannualmeetingoftheassociation Uchun Hisoblash Tilshunosligi, Las Cruces, Nyu-Meksiko; 1994. https: / /doi.org/10.3115/981732.981751.
13. Vijaymeena MK, Kavitha K. matn qazib olish, mashinani o‘rganish va ilovalardagi o‘xshashlik mea - sures bo‘yicha so‘rov: xalqaro jurnal. 2016; 3(1):19-28. https://doi. org/10.5121 / mlaij.2016.3103.

14. Guessoum D, Miraoui M, Tadj C. keng tarqalgan hisoblashda semantik o‘xshashlik choralarini o‘rganish, aqlli sezgi va aqlli tizimlar bo‘yicha xalqaro jurnal. 2015; 8(1): 125-58. https://doi.org/10.21307/ijssis-2017-752.

15. Gomaa, fahmi AA. Matn o‘xshashligi yondashuvlarini o‘rganish, kompyuter ilovalarining InternationalJournal. 2013; 68(13):13-18. https://doi.org/10.5120/11638-7118.

16. 16 Pradhan N, Gyanchandani M, Vadhvani R. irda ishlatiladigan matn o‘xshashligi texnikasi va uni qo‘llash bo‘yicha sharh, xalqaro kompyuter dasturlari jurnali. 2015; 120(9). https://doi.org/10.5120/21257-4109.

17. Xorxe Martines-Gil, Mario Pich. Semantic yozishmalar kashfiyotini qo‘llab-quvvatlash uchun inson adabiyotida so‘zlarning birgalikda paydo bo‘lishini tahlil qilish. Bilim texnologiyalari va ma’lumotlarga asoslangan biznes bo‘yicha 14-xalqaro konferentsiya materiallari, Graz, Avstriya; 2014 yil. https: / /doi.org/10.1145/2637748.2638422.

18. Terra E, Clarke CLA. Statistik so‘z o‘xshashligi o‘lchovlari uchun chastotani baholash, NAACL ' 03 inson Tili texnologiyasi bo‘yicha hisoblash tilshunosligi Assotsiatsiyasining Shimoliy Amerika bobining 2003-yilgi konferentsiyasining materiallari-1-jild, Edmonton, Kanada; 2003 yil. p. 165-72. https://doi.org/10.3115/1073445.1073477.

19. Jonas Myuller, Thyagarajan A. Siam takroriy arxi - tectures gap o‘xshashligini o‘rganish uchun. Sun’iy intellekt bo‘yicha o‘ttizinchi AAAI konferentsiyasi materiallari, Feniks, Arizona; 2016. p. 2786-92. https://dl.acm.org / iqtibos.cfm?id=3016291.

IX SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA TERMINOLOGIYA VA TERMINOGRAFIYA

UDK. 1751

KOGNITIV LINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN POLIKODLI MATNLARNING SEMANTIK VA SINTAKTIK STRUKTURALARI

Odilova Kamola Taxirovna,
Tayanch doktoranti
kt.odilova@uzswlu.uz
O‘zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada polikodli matnlarning semantik va sintaktik strukturalari kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Polikodli matnlarning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro aloqalari va mazmun shakllanishidagi roli o‘rganiladi. Kognitiv yondashuv asosida polikodli matnlarning semantik va sintaktik xususiyatlari, ularning inson ongida qayta ishlanishi va tushunilishi jarayonlari tadqiq etiladi. Maqolada polikodli matnlarning turli kognitiv modellar asosida tahlili, ularning kontseptual tuzilishi va semantik maydonlari o‘rganiladi.

Abstract. This article analyzes the semantic and syntactic structures of multimodal texts from the perspective of cognitive linguistics. The components of multimodal texts, their interrelationships, and their role in content formation are examined. Based on a cognitive approach, the semantic and syntactic features of multimodal texts, their processing, and comprehension in human consciousness are studied. The article explores the analysis of multimodal texts based on various cognitive models, their conceptual structure, and semantic fields.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические и синтаксические структуры поликодовых текстов с точки зрения когнитивной лингвистики. Исследуются компоненты поликодовых текстов, их взаимосвязи и роль в формировании содержания. На основе когнитивного подхода изучаются семантические и синтаксические особенности поликодовых текстов, процессы их обработки и понимания в человеческом сознании. В статье рассматривается анализ поликодовых текстов на основе различных когнитивных моделей, их концептуальная структура и семантические поля.

Kalit so‘zlar: *polikodli matnlar, kognitiv lingvistika, semantik struktura, sintaktik struktura, kontseptual tahlil, multimodallik.*

Zamonaviy lingvistikada polikodli matnlar tadqiqi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Polikodli matnlar – bu turli semiotik kodlar (verbal, vizual, audio va boshqalar) kombinatsiyasidan tashkil topgan murakkab tuzilmalardir. Ularning

semantik va sintaktik strukturalarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki bu kabi matnlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan polikodli matnlarni o‘rganish, ularning inson ongida qayta ishlanishi va tushunilishi jarayonlarini ochib berish imkonini beradi. Bu yondashuv polikodli matnlarning semantik va sintaktik strukturalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Polikodli matnlarning semantik strukturasi ularning mazmuniy tashkil etilishini aks ettiradi. Bunda turli semiotik kodlar o‘rtasidagi ma’noviy munosabatlar, ularning o‘zaro ta’siri va umumiy mazmun shakllanishidagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, polikodli matnlarning semantik strukturasi quyidagi jihatlarga ko‘ra tahlil qilinishi mumkin:

1. Kontseptual tuzilish: Polikodli matnlarda aks ettirilgan asosiy tushunchalar va ularning o‘zaro aloqalari.
2. Semantik maydonlar: Turli semiotik kodlar orqali ifodalangan ma’nolar va ularning o‘zaro bog‘liqligi.
3. Metaforik va metonimik ko‘chimlar: Polikodli matnlarda qo‘llanilgan kognitiv metafora va metonimiyalar.
4. Freymlar va skriptlar: Matnda aks ettirilgan bilim strukturalari va stereotip vaziyatlar.
5. Kontseptual integratsiya: Turli semiotik kodlardan kelgan ma’lumotlarning birlashishi va yangi ma’nolarning shakllanishi.

Polikodli matnlarning sintaktik strukturasi esa ularning tashqi tuzilishini, ya’ni turli semiotik kodlarning o‘zaro joylashuvi va aloqalarini aks ettiradi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, bu struktura quyidagi jihatlarga ko‘ra tahlil qilinishi mumkin:

1. Vizual-verbal sintagmatika:

Vizual-verbal sintagmatika polikodli matnlarda verbal va vizual elementlarning o‘zaro joylashuvi va aloqalarini o‘rganadi. Bu tushuncha matnning lingvistik va vizual komponentlari qanday birlashib, yaxlit ma’no hosil qilishini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, gazeta sahifasidagi sarlavha, matn va rasmlarning joylashuvi, yoki reklama plakatidagi so‘zlar va tasvirlarning o‘zaro munosabati vizual-verbal sintagmatikaning namunalaridir. Bu elementlarning o‘zaro joylashuvi va aloqalari ma’noning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi va kitobxon e’tiborini boshqaradi.

2. Multimodal kogerentlik:

Multimodal kogerentlik turli semiotik kodlar (masalan, matn, rasm, ovoz, video) o‘rtasidagi bog‘liqlik va uyg‘unlikni anglatadi. Bu tushuncha polikodli

matnning turli qismlari qanday qilib bir-birini to‘ldirishi va yaxlit ma’no hosil qilishini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, ilmiy maqoladagi matn va diagrammalar, yoki o‘quv videosidagi ovoz va animatsiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlik multimodal kogerentlikning namunasidir. Kogerentlik darajasi yuqori bo‘lgan polikodli matnlar odatda kitobxon tomonidan osonroq tushuniladi va eslab qolinadi.

3. Informatsion ierarxiya:

Informatsion ierarxiya polikodli matndagi ma’lumotlarning ahamiyatiga ko‘ra taqsimlanishini anglatadi. Bu tushuncha matnning qaysi qismlari eng muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olishini va qanday qilib kitobxon e’tiborini jalb qilishini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, gazetadagi asosiy sarlavha, kichik sarlavhalar, asosiy matn va rasmlar o‘rtasidagi ierarxiya, yoki veb-sahifadagi turli elementlarning joylashuvi informatsion ierarxiyaning namunasidir. To‘g‘ri tashkil etilgan informatsion ierarxiya kitobxonga ma’lumotlarni samarali idrok etish va tushunishga yordam beradi.

4. Kognitiv xaritalar:

Kognitiv xaritalar tushunchasi polikodli matn elementlarining fazoviy joylashuvi va ularning idrok etilishini o‘rganishga yordam beradi. Bu yondashuv kitobxonning matn elementlarini qanday “xaritalashtirib” olishini va bu xaritalar asosida ma’noni qanday shakllantirishini tushuntirishga imkon beradi. Masalan, infografikadagi turli elementlarning joylashuvi, yoki darslikdagi matn va rasmlarning taqsimlanishi kognitiv xaritalarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Samarali tashkil etilgan kognitiv xaritalar ma’lumotni eslab qolish va qayta ishlatishni osonlashtiradi.

5. Gestalt prinsiplari:

Annotation. Topic modeling is a natural language processing technique that helps to identify hidden thematic structures in large text collections all over the world and in any language. Traditional approaches such as LDA and NMF have been the mainstays of thematic modeling for many years, but they suffer from various limitations due to their reliance on “Bag-of-Words”, which ignores semantic relationships between words in texts. BERTopic, in turn, provides a new approach to thematic modeling by combining the semantics of language models based on transformers and a specially designed class-based TF-IDF procedure. This combination allows for the creation of more interpretable topics and understand of many texts in any language.

Аннотация. Тематическое моделирование – это метод обработки естественного языка, который помогает выявлять скрытые тематические структуры в больших текстовых коллекциях. Традиционные подходы, такие как скрытое распределение Дирихле (LDA) и неотрицательная матричная факторизация (NMF), на протяжении многих лет были основой тематического моделирования, но они сталкиваются с различными ограничениями из-за своей зависимости от «Bag-of-Words», который игнорирует семантические связи между словами. BERTopic, в свою очередь, представляет новый подход к тематическому моделированию, объединяя семантику языковых моделей на основе трансформаторов и специально разработанной процедурой TF-IDF на

основе классов. Такое сочетание позволяет создавать более интерпретируемые темы, сохраняя при этом гибкую и адаптируемую систему.

Kalit so‘zlar: BERTopic, BERT, TF-IDF, LDA, NMF, neyron tematik modellashtirish

Mavzuni modellashtirishning an’anaviy usullari tadqiqotchilarga katta hujjatlar to‘plamini tahlil qilishda yordam berishda asosiy rol o‘ynaydi, ammo ular sezilarli cheklovlarga ega:

1) **Bag-of-Words cheklovi**: LDA kabi modellar hujjatlarga kontekstual va semantik munosabatlarni e'tiborsiz qoldirib, tartibsiz so‘zlar to‘plami sifatida qaraydi.
2) **Semantik tushunchaning yetishmasligi:** An'anaviy modellar nozik ma'nolarni va so‘zlar orasidagi munosabatlarni tu’hunishda qiyinchiliklarga duch keladi.
3) **Chekli lug‘at:** Ko‘pgina an’anaviy usullar oldindan belgilangan lug‘atni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida ularning moslashuvchanligini cheklab qo‘yadi.

Tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi so‘nggi yutuqlar, xususan, BERT kabi transformatorga asoslangan til modellari hajmga ega vektor bo‘shliqlaridan kontekstual ma'nolarni ajratib olish orqali matn tasvirini yangicha tarzda inqilob qildi. Tematik modellashtirishning bir nechta usullari ushbu qo‘shimchalardan foydalanishga harakat qildi, ammo ko‘pchiliklari mavzularning izchil tasvirlarini yaratishda hali ham qiyinchiliklarga duch kelmoqda. BERTopic hujjatni joylashtirish, klasterlash va mavzuni ko‘rsatish bosqichlarini ajratuvchi modulli tizimni amalga oshirish orqali ushbu muammolarni hal qiladi va uni turli til modellari va foydalanish holatlariga moslashtiradi.

BERTopic metodologiyasi uchta asosiy komponentlardan iborat:

1. **Hujjatlarning vektor tasviri**

Model hujjatlarni hajmga ega vektorli tasvirlarga aylantirish uchun Sentence-BERT (SBERT) dan foydalanadi. SBERT semantik o‘xshashlik vazifalari uchun nozik sozlangan oldindan o‘rgatilgan til modellaridan foydalanadi, bu o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan hujjatlarni vektor fazosida bir-biriga yaqin joylashtirish imkonini beradi. Ushbu usulning moslashuvchanligi, MiniLM kabi kichikroq va MPNET kabi kattaroq va kuchliroq modellarga qadar oldindan o‘rgatilgan turli xil til modellaridan foydalanishga imkon beradi.

2. **Hujjatlarni klasterslash**

Hujjatlarning vektor tasviri yaratilganidan so‘ng BERT quyidagilarni amalga oshiradi:

a) PCA yoki t-SNE kabi alternativalarga qaraganda yuqori o‘lchamli ma'lumotlarning mahalliy va global xususiyatlarini yaxshi saqlaydigan UMAP (Uniform Manifold Approximation and Projection) yordamida o‘lchamlarni kamaytirish.

b) HDBSCAN (Hierarchical Density-Based Spatial Clustering of Applications with Noise) yordamida klasterlash ya’ni, har xil zichlikdagi klasterlarni topadi. Ushbu yondashuv bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hujjatlarni har qanday klasterga biriktirilishining oldi olinadi hamda, mavzularning taqdim etilishi sifat jihatidan ancha yaxshilanadi.

UMAP uchun matematik formulani minimallashtirish sifatida quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

$$\sum(i,j)\,[\,v_{ij} * log(w_{ij}) + (1 - v_{ij}) * log(1 - w_{ij})\,]$$

Bu yerda v_ij katta o‘lchamli o‘xshashlikni va w_ij kichik o‘lchamli o‘xshashlikni ifodalaydi.

3. Matnning ko‘rinishi

Aynan shu qismda BERTopic o‘zining eng innovatsion yo‘nalishini taqdim etadi: sinflarga asoslangan (class-based) TF-IDF yondashuvi.

An’anaviy TF-IDF hujjatdagi so‘zning hujjatlar to‘plamiga nisbatan ahamiyatini ifodalaydi. BERTopic ushbu kontseptsiyani hujjat darajasida emas, balki klaster darajasida ishlashga moslashtiradi. Sinflarga asoslangan TF-IDF quyidagi tartiblarni o‘z ichiga oladi:

a. **Hujjatlarni yig‘ish**: Klasterdagi barcha hujjatlar bitta “hujjat” ko‘rinishiga keltiriladi

b. **Sinflarga asoslangan atama chastotasi**: atamalarning har bir klasterda uchratilishining chastotasini hisoblash

c. **Hujjatning o‘zgartirilgan teskari chastotasi**: sinfga asoslangan holdagi ko‘rinishini sozlash

c-TF-IDF matematik formulasi quyida keltiriladi:

$$c\text{-}TF\text{-}IDF(t,c,C) = tf(t,c) * idf(t,C)$$

Bu yerda:

- tf(t,c) — c sinfdagi t terminning chastotasi
- idf(t,C) = log(1 + |C|/(1 + df(t,C)))
- |C| - sinflar soni
- df(t,C) - t atamasi mavjud bo‘lgan sinflar soni

Ushbu yondashuv bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

- Mavzularni taqdim etishda barcha hujjatlar klasteri hisobga olinadi
- Muayyan mavzuga xos bo‘lgan so‘zlarga ustunlik beradi
- U ma’noli va so‘zlarga boy mavzular ko‘rinishini yaratadi.

c-TF-IDF tasvirlar generatsiya qilinganidan so‘ng, BERTopic o‘z navbatida har bir mavzu uchun eng yuqori ko‘rsatkichga ega n ta so‘zni tanlab oladi.

BERTopic o‘z doirasini dinamik mavzularni modellashtirish uchun kengaytiradi va mavzular vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanishini tahlil qilish imkonini beradi. Quyida yondashuvlar berilgan:

1) Mavzularning global tasvirini yaratish uchun BERTopic butun korpusga qo‘llaniladi
2) Global mavzu strukturasidan foydalangan holda har bir vaqt davri uchun mahalliy ko‘rinishni yaratadi
3) Mavzu evolyutsiyasini modellashtirish uchun har bir bosqichda yaratilgan c-TF-IDF matritsalaridan foydalanadi

Bu bizga har bir vaqt davri uchun butun bir modelni qayta sozlashni talab qilmasdan, vaqt o‘tishi bilan mavzuning tarqalishini va tarkib jihatidan o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi.

BERTopic bir nechta ma’lumotlar to‘plamida, jumladan 20 NewsGroups, BBC News va Topicmodel.uz da baholanib ko‘rildi. Asosiy urg‘ular quyidagilarga mos keladi:

1) **Mavzuning ma’nolik darajasi**: BERTopic odatda turli ma’lumotlar to‘plamlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega, bu esa u yaratgan mavzular semantik jihatdan mazmunli ekanligini ko‘rsatadi.

2) **Mavzu xilma-xilligi**: BERTopic mavzular xilma-xilligida raqobatbardosh bo‘lsa-da, CTM (Kontekstlashtirilgan mavzu modeli) doimiy ravishda ustunlikka ega bo‘lib kelmoqda.

3) **Til modellari orasida barqarorlik belgisi**: BERTopicning ishlash mahsuldorligi SBERT til modellariga nisbatan barqarorligicha qolmoqda, bu uning mustahkamligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

4) **Dinamik mavzularni modellashtirishning samaradorligi**: BERTopic vaqt o‘tishi bilan mavzular evolyutsiyasini kuzatishda o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatadi.

BERTopic tomonidan natija sifatida mavzular misoli quyidagicha ko‘rinishi mumkin:

1-Mavzu: ['fazo‘, 'nasa', 'shatl', 'yer', 'start', 'missiya', 'orbita']

2-Mavzu: ['o‘yin', 'jamoa', 'o‘yinchi', 'sezon', 'xokkey', 'liga']

3-Mavzu: ['shifrlash', 'kalit', 'xavfsizlik', maxfiylik', 'davlat']

Ushbu mavzu ko‘rinishlari odatda an’anaviy mavzu modellari tomonidan ishlab chiqarilganidan ko‘ra ko‘proq interpretatsiyaga moyildir.





1-rasm: LDA va NMF kabi an'anaviy yondashuvlar bilan solishtirganda BERTopic ning hisoblash samaradorligini taqqoslash. Chapdagi grafik to‘liq bajarilish vaqtini taqqoslash, o‘ng grafik esa bajarilish vaqti shkalasining quyi qismiga qaratilgan.

1-rasmda ko‘rsatilganidek, BERTopic ishlash va hisoblash samaradorligi jihatidan yaxshi ko‘rsatkichlarni taklif qiladi. Til modelini tanlash o‘z navbatida jarayon vaqtiga sezilarli darajada ta’sir qiladi:

a) MiniLM kabi kichikroq modellardan foydalanish BERTopic-ni tezlik bo‘yicha odatiy usullar bilan raqobatbardosh qiladi.

b) MPNET kabi kattaroq modellar yaxshiroq semantik ma’no jihatidan yaxshiroq ko‘rsatkichlarni taqdim qiladi, lekin o‘ziga yarasha ko‘proq hisoblash resurslarini talab qiladi.

c) BERTopic odatda CTM dan tezroq, lekin odatiy LDA yoki NMF usullariga qaraganda sekinroq.

Hisoblash murakkabligi lug‘at hajmi bilan ortadi, ammo o‘sish tezligi ba'zi raqobatdosh yondashuvlarga nisbatan mutanosib ravishda boshqaruvga egadir.

BERTopicning sohaga qo‘shgan hissasi quyidagilardan iborat:

1) **Mavzular uyg‘unligi yaxshilandi**: Semantikaning vektor ko‘rinishi va sinfga asoslangan TF-IDF yondashuvidan foydalangan holda, BERTopic yanada izchil va izohlanadigan mavzularni ishlab chiqaradi.
2) **Moslashuvchanlik**: Modulli dizayn turli til modellari bilan oson integratsiya qilish va muayyan foydalanish holatlari uchun sozlash imkonini beradi.
3) **Natijaga erishish**: HDBSCAN-dan foydalanish BERTopic-ga hech qanday mavzuga tegishli bo‘lmagan hujjatlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa mavzularning umumiy sifatini yaxshilaydi.
4) **Dinamik mavzu tahlili**: BERTopicning mavzu evolyutsiyasini kuzatish qobiliyati vaqtinchalik tahlil uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Hayotiy qo‘llanmalar:

- Yangiliklar va ijtimoiy tarmoqlarda kontent tahlili
- Mijozlarning sharhlarini turkumlash
- Akademik tadqiqot yo‘nalishlarini tahlil qilish
- Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish
- Siyosiy va huquqiy hujjatlarni tashkil etish

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ushbu usul oqilona hisoblash samaradorligini saqlab qolgan holda an’anaviy tematik modellaridan ko‘ra ko‘proq mahsuldorlikka egadir. Til modellari rivojlanishda davom etar ekan, BERTopicning moslashuvchan tuzilmasi unga ushbu yutuqlarni o‘z ichiga olish imkonini beradi va bu uning tabiiy tillarni qayta ishlashning jadal rivojlanayotgan sohasida doimiy dolzarbligini ta'minlab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov B., Alayev R., Aloyev N. (2024). Tematik modellashtirishning zamonaviy usullari. *Digital transformation and artificial intelligence*, *2*(1), 8–16. Retrieved from https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i12
2. Elov.B., Alayev N. Matnlarini tematik modellashtirish va tasniflash usullari. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali. Vol. 3 No. 12 (2023). 263-276
3. Elov B., Aloyev N., Yuldashev A. (2023). SVD va NMF metodlari orqali tematik modellashtirish. O`zbekiston: til va madaniyat (Kompyuter lingvistikasi), 2023, 2(6). 55-66
4. Alghamdi, R., & Alfalqi, K. (2015). A Survey of Topic Modeling in Text Mining. *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, *6*(1). https://doi.org/10.14569/ijacsa.2015.060121
5. Tao, R., Wei, Y., & Yang, T. (2021). Metaphor Analysis Method Based on Latent Semantic Analysis. *Journal of Donghua University (English Edition)*, *38*(1). https://doi.org/10.19884/j.1672-5220.202010087
6. Darmalaksana, W., Slamet, C., Zulfikar, W. B., Fadillah, I. F., Maylawati, D. S. adillah, & Ali, H. (2020). Latent semantic analysis and cosine similarity for hadith search engine. *Telkomnika (Telecommunication Computing Electronics and Control)*, *18*(1). https://doi.org/10.12928/TELKOMNIKA.V18I1.14874
7. Ke, Z. T., & Wang, M. (2022). Using SVD for Topic Modeling. *Journal of the American Statistical Association*.
8. https://doi.org/10.1080/01621459.2022.2123813
9. Churchill, R., & Singh, L. (2022). The Evolution of Topic Modeling. *ACM Computing Surveys*, *54*(10). https://doi.org/10.1145/3507900
10. Kherwa, P., & Bansal, P. (2020). Topic Modeling: A Comprehensive Review. *EAI Endorsed Transactions on Scalable Information Systems*, *7*(24). https://doi.org/10.4108/eai.13-7-2018.159623

UDK: 004.912:004.738.4

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH YORDAMIDA NUTQNI IMO-ISHORA TILIGA TARJIMA QILISH TEXNOLOGIYALARI

Jurayev Dilshod Boymuradovich,
Tayanch doktoranti
dilsamtuit@gmail.com
TATU

Anotatsiya. Maskur maqolada O‘zbekistondagi eshitish va gapirish qobiliyati zaif insonlar uchun nutq va matndan Surdo imo-ishora tiliga tarjima tizimini yaratish g‘oyasi taqdim etilgan. Tizim nutq va matnni qabul qilib, tabiiy tilni qayta ishlash moduli yordamida tahlil qiladi hamda ma’lumotlar bazasidan mos keluvchi video va animatsiyalarni tanlaydi. Keyin esa Surdo imo-ishora tilining grammatik qoidalariga mos ravishda ifodalaydi. Asosiy texnologik yechim sifatida tabiiy tilni qayta ishlash moduli qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *Imo-ishora tili, tabiiy tilni qayta ishlash, tokenizatsiya, lemmatizatsiya, sintaktik tahlil.*

Har bir mamlakatda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, eshitish va nutq imkoniyati cheklangan shaxslar uchun asosiy muloqot vositasi bo‘lgan o‘ziga xos imo-ishora tili ya’ni Surdo imo-ishora tili mavjud. Afsuski, jamiyatning aksariyat qismi ushbu tilni bilmasligi yoki e'tiborsizligi sababli, oddiy insonlar va eshitish imkoniyati cheklangan insonlar o‘rtasida chuqur kommunikatsion bo‘shliq yuzaga kelgan. Bu bo‘shliq nafaqat kundalik muloqotni qiyinlashtiradi, bu insonlarning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va davlat xizmatlaridan foydalanish kabi muhim sohalarda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi va ularni ijtimoiy hayotdan chetlashtirib quyadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda, Surdo imo-ishora tilidan foydalanish darajasi, ayniqsa rasmiy va ta'lim sohalarida, yetarli emas. Ta’lim tizimida va o‘qitish jarayonlarda imo-ishora tiliga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi hamda ota-onalarning Surdo imo-ishora tilining ahamiyatini to‘liq anglab yetmasligi mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Natijada, eshitish imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga to‘liq integratsiyalashuvi va ularning salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) sohalarining rivojlanishi eshitish va nutq imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kommunikatsion to‘siqlarni kamaytirish imkonini bermoqda. Imo-ishora tillarini avtomatik aniqlash va tarjima qilish tizimlari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Eshitish va gapirish

imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ikki tomonlama muloqot o‘rnatish nafaqat aloqa imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning jamiyat va texnologik taraqqiyotda faol ishtirok etishini ham ta’minlaydi **[6]**.

O‘zbek surdo imo-ishora tili. Har bir mamlakatning imo-ishora tili o‘z milliy tili va madaniyatiga asoslangan holda shakllanadi. O‘zbek Surdo imo-ishora tili ham o‘zbek tilining leksik va grammatik xususiyatlaridan ta’sirlangan bo‘lsa-da, o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lgan mustaqil til tizimidir. **[1]**.

Imo-ishora tili eshitish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun o‘z fikrini erkin ifodalash, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va to‘laqonli hayot kechirish imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Eshitish imkoniyati cheklanganlar jamiyatida Surdo imo-ishora tilidan keng foydalanilayotgan bo‘lsa-da, rasmiy ta’lim tizimida uning qo‘llanilishi hanuzgacha yetarli darajada rivojlanmagan. Bu masalalar oliy ta’lim muassalarida kadrlarni tayyorlash dasturlarida Surdo imo-ishora tilidan samarali foydalanishga yetarlicha e’tibor berilmaganida aks etadi. Misol: O‘qitish jarayonida eshitish va gapirish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ehtiyojlari to‘liq inobatga olinmayapti. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari ko‘pincha imo-ishora tilining aloqa bo‘shliqlarini bartaraf etishdagi ahamiyatini bilishmaydi**[2]**.

Ushbu maqolada quyidagi masalalarga yechim topish maqsad qilingan:

- Eshitish va gapirish imkoniyati cheklangan shaxslarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirish: Surdo imo-ishora tili orqali eshitish va gapirish imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘zaro va jamiyat bilan samarali muloqot qilishlariga ko‘maklashish.
- Oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida eshitish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar va talabalar uchun Surdo imo-ishora tilidan foydalanib o‘qitish shaklini qo‘llash.
- Hukumat rahbarlari, o‘qituvchilar, mutaxassislar, jamoat rahbarlari va jamoatchilik kabi turli guruhlarni Surdo imo-ishora tili so‘zlashuvchilar bilan muloqotini yengillashtirish.

Surdo imo-ishora tili, 1-rasmda ko‘rsatilganidek, imo-ishoralar va ko‘rsatkichlarning turli shakllarini o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Imo-ishora tilidagi harakat va ifoda yo‘nalishlari.

Surdo imo-ishora tili faqat qo‘l imo-ishora harakatlari bilan cheklanmay, balki yuzning mimika ifodalari, tana holati va harakatlari kabi komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar imo-ishoralarning ma’nosini kuchaytirish, gap ohangini ifodalash hamda grammatik bog‘liqlikni ifodalash kabi funksiyalarni bajarib beradi. Imo-ishora tilining chuqurroq tahlili asosida uni 2-rasmda tasvirlanganidek uchta asosiy toifaga ajratish mumkin.

Imo-ishora tili nafaqat qo‘l harakatlari, balki yuz ifodalari, tana holati, og‘iz va lablarning hamohang ifodalarini ham o‘z ichiga oladi.Ushbu elementlar imo-ishora tilining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, modulyatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi.



2-rasm. Qo‘l imo-ishoralarining turlari.

Bizning og‘zaki nutqda ohang va intonatsiya orqali fikr ifodasi kuchaytirilib, aniqlashtirilsa, surdo imo-ishora tilida esa tana harakati va yuz ifodalari orqali ma’no kuchaytiriladi, gapning ohangi va kayfiyati aniqlik bilan yetkaziladi. Shu tariqa, tana imo-ishoralari muloqot jarayonida semantik yukni oshirish, emotsional fonni shakllantirish va grammatik tuzilmalarni aniqlashtirish vazifasini bajaradi**[5]**.

Shuningdek bir qo‘l bilan amalga oshiriladigan imo-ishoralar ikki toifaga ajratiladi:

- ***Statik harakatlar*** – belgining ma’lum bir holatda qotib turishi.
- ***Dinamik harakatlar*** – belgining harakatlanish jarayonida ifodalanishi.

Ushbu harakatlar qo‘lga tegishli yoki qo‘l bilan bog‘liq bo‘lmagan shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ikki qo‘l ishtirokidagi imo-ishoralar ham statik va dinamik harakatlarga bo‘linadi. Biroq, ular yana quyidagi turlarga tasniflanadi:

- ***0-tur*** – har ikkala qo‘l teng darajada ishtirok etadigan imo-ishoralar.
- ***1-tur*** – ikkala qo‘l ishtirok etadigan, biroq ulardan biri yetakchi, ikkinchisi yordamchi vazifani bajaradigan imo-ishoralar.

Mazkur tasnif imo-ishora tilidagi murakkablik va ifoda boyligini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda uni o‘rganish va o‘qitish jarayonida muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

O‘zbek Surdo imo-ishora tili grammatikasi o‘zbek tilining grammatik tizimidan sezilarli darajada farqlanishi mumkin **[1]**. Xususan:

- ***So‘z tartibi***: Surdo imo-ishora tilida gap tuzilishi ko‘pincha *Ega-Olmosh-Fe'l* strukturasi asosida tashkil topadi.
- ***Fe’llarning tuslanishi***: Fe’l shakllari imo-ishoralarda kontekstual ravishda ifodalanadi va ularning zamon, shaxs yoki nisbat shakllari alohida grammatik belgilar orqali emas, balki imo-harakat va yuz ifodalari vositasida bildiriladi.
- ***Ko‘plik va egalik shakllari***: O‘zbek tilidagi kabi ko‘plik yoki egalik qo‘shimchalari imo-ishoralarda aniq grammatik affikslar bilan emas, balki maxsus harakatlar, ko‘rsatkichlar yoki qo‘shimcha mimika orqali ifodalanadi.

Shu sababli, og‘zaki nutqdan imo-ishora tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha noto‘g‘ri yoki tushunarsiz natijalarga olib keladi. Tarjima jarayonida O‘zSITning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. Aks holda, muloqotda semantik buzilishlar va tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Taklif etilayotgan usul: Ushbu maqolada taqdim etilgan taklif qilingan tizim eshitish qobiliyati zaif odamlarga boshqa eshitish qobiliyatiga ega odamlar bilan osongina muloqot qilishda yordam beradigan real vaqt rejimida nutqni Surdo imo-ishora tiliga o‘tkazish tizimidir. Tizim asosan oltita komponentdan iborat:

1. ***Kirishni qayta ishlash moduli*** – foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotni tizim uchun mos shaklga keltirish vazifasini bajaradi. Ushbu modul ikki asosiy funksiyani o‘z ichiga oladi:

- *Nutqni matnga aylantirish (Speech-to-Text, STT)* - Agar foydalanuvchi ma’lumotni ovozli nutq shaklida kiritsa, birinchi bosqichda nutqni matnga

aylantirish jarayoni amalga oshiriladi. Bunda o‘zbek tiliga moslashtirilgan maxsus Speech-to-Text (STT) modelidan foydalanish talab etiladi. STT tizimining aniqligi butun tarjima tizimi samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, muloqot jarayonidagi fon shovqinlari, turli hudud dialektlari va individual talaffuz xususiyatlari STT modulining ishlash sifatiga sezilarli darajada ta’sir qilishi mumkin [2].

- *To‘g‘ridan-to‘g‘ri matn kiritish* - Foydalanuvchi ma’lumotni bevosita matn shaklida kiritishi ham mumkin. Bunday holatda, Speech-to-Text bosqichi o‘tkazib yuboriladi va tizim matn bilan bevosita ishlay boshlaydi.

2. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) moduli - tizimning yadrosi bo‘lib, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnni lingvistik jihatdan tahlil qiladi va uni Surdo imo-ishora tiliga tarjima qilish uchun tayyorlaydi (4-rasmga qarang).

Ushbu modul quyidagi asosiy bosqichlardan iborat [2]:

- *Dastlabki ishlov berish* — Matn keraksiz belgilardan (masalan, tinish belgilari va ortiqcha bo‘shliqlardan) tozalanadi va normallashtiriladi. Masalan, barcha harflar kichik harf shakliga keltiriladi, sonlar esa so‘z shaklida ifodalanadi. Ushbu bosqich matnni bir xil va tizimli ko‘rinishga keltirishga xizmat qiladi.
- *Tokenizatsiya* — Matn alohida birliklarga — tokenlarga (odatda so‘zlar yoki gap bo‘laklariga) ajratiladi. O‘zbek tilida so‘z o‘zagiga ko‘plab qo‘shimchalar qo‘shilishi mumkinligi sababli, dastlab so‘z darajasidagi tokenizatsiya amalga oshiriladi.
- *Nomuhim so‘zlarni olib tashlash (Stopword Removal)* — Matnda tez-tez uchraydigan, lekin semantik yuklamasi past bo‘lgan so‘zlar (masalan, "va", "bilan", "uchun", "bu", "shu") aniqlanib, olib tashlanadi. Bu jarayon tarjima sifatini oshirish va asosiy ma’noli birliklarga e’tiborni jamlash uchun muhimdir.
- *Stemming va Lemmatizatsiya* — Har bir so‘zning morfologik tahlili amalga oshiriladi va u lug‘aviy asosiy shakliga (lemma) keltiriladi. Masalan, "kitoblarimni" so‘zi "kitob" lemmaga qisqartiriladi. Ushbu bosqich imo-ishoralar ma’lumotlar bazasi bilan mos ishlashni ta’minlash uchun zarur.
- *Nutq qismlarini belgilash (POS-Tagging)* — Har bir tokenning nutqdagi turkumi (masalan, ot, fe‘l, sifat, ravish va boshqalar) aniqlanadi. Ushbu ma’lumot keyingi bosqichda sintaktik tahlil va grammatik qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
- *Sintaktik tahlil (Parsing)* — Gapning grammatik strukturasini aniqlash jarayoni bo‘lib, bunda so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlar va frazaviy birliklar

tahlil qilinadi. Bu bosqich imo-ishora tiliga mos grammatik tuzilma hosil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tarjima va natijani generatsiya qilish moduli - Taklif etilayotgan tizim Surdo imo-ishora tiliga nutq va matn asosida avtomatik tarjima qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi asosiy bosqichlardan iborat [3]:

- *Qoidalarga asoslangan tarjima qilish* orqali kiritilgan matn imo-ishora tili grammatik tuzilmasiga mos ravishda so‘zlar ketma-ketligi qayta tartiblanadi.
- *So‘zlarni aniqlash* mexanizmi yordamida barqaror frazalar aniqlanib, agar mavjud bo‘lsa, yagona imo-ishora belgisi bilan ifodalanadi.
- *Ma’lumotlar bazasidan qidirish* orqali so‘zlar yoki iboralarga mos imo-ishora videolari yoki animatsiyalari topiladi.
- *Zaxira mexanizmi* sifatida mos keluvchi imo-ishora topilmaganda, barmoq alifbosi yordamida harflab ko‘rsatish funksiyasi qo‘llaniladi.
- *Natijani generatsiya qilish* orqali tanlangan imo-ishora videolari va animatsiyalar imo-ishora tili grammatik qoidalariga mos tartibda birlashtirilib, foydalanuvchiga taqdim etiladi. Animatsiyalar 3D avatar texnologiyalari yordamida yuz ifodasi va tana harakati kabi imo-ishoralar orqali ham ifodalanadi.

Xulosa. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi nutq va matnni Surdo imo-ishora tiliga tarjima qiluvchi tizim konsepsiyasi va metodologiyasi taklif etildi. Tizim NLP bosqichlari tokenizatsiya, lemmatizatsiya, sintaktik hamda imo-ishora tili grammatik qoidalarini qo‘llash orqali foydalanuvchi kiritgan ma’lumotni mos ravishda imo-ishora ketma-ketligiga aylantiradi. Natijada, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnning mazmuni ma’lumotlar bazasidan tanlangan video yoki animatsiyalar yordamida ifodalanadi.

Taklif etilayotgan tizim eshitish va nutq qobiliyati cheklangan shaxslar uchun ta’lim, kundalik hayot va davlat xizmatlarida muloqot imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sifatli imo-ishora ma’lumotlar bazasini yaratish, o‘zbek tili uchun NLP vositalarini takomillashtirish, imo-ishora tili grammatikasini standartlashtirish va imo-ishora tili elementlarni tabiiy tarzda hosil qilish tizim rivojlanishining asosiy muammolari sifatida ko‘riladi.

Kelgusida tizimning dastlabki prototipini ishlab chiqish, uni real foydalanuvchilarda sinovdan o‘tkazish va natijalarga asoslangan takomillashtirish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda inklyuziv jamiyatni rivojlantirish va kommunikatsion to‘siqlarni texnologiyalar orqali kamaytirishga hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurayev D.B, Ochilov M.M, Abdullayeva M.I. Nutqni imo-ishora tiliga tarjima qilish tizimlarida matnlarga ishlov berish. TATU xabarlari, 4/68(2023).
2. Mukhammadjon Musaev, Dilshod Juraev, Mannon Ochilov, Malika Abdullaeva. “Text processing in speech translation systems into sign language”. International Scientific Conference on Modern Problems of Applied Science and Engineering MPASE2024, Samarkand, Uzbekistan • 2–3 May 2024, AIP Conf. Proc. 3244, 030062 (2024) https://doi.org/10.1063/5.0241738
3. Zhu, D., Czehmann, V., & Avramidis, E. (2023). Neural Machine Translation Methods for Translating Text to Sign Language Glosses. *Proceedings of the 61st Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics*, 12523–12541. https://aclanthology.org/2023.acl-long.700/
4. Moryossef, A., Jiang, Z., Müller, M., Ebling, S., & Goldberg, Y. (2023). Linguistically Motivated Sign Language Segmentation. *Findings of the Association for Computational Linguistics: EMNLP 2023*, 12703–12724. https://doi.org/10.18653/v1/2023.findings-emnlp.846
5. Camgoz, N. C., Koller, O., Hadfield, S., & Bowden, R. (2020). Sign Language Transformers: Joint End-to-end Sign Language Recognition and Translation. https://arxiv.org/abs/2003.13830
6. Shahin, N., & Ismail, L. (2024). From Rule-Based Models to Deep Learning Transformers Architectures for Natural Language Processing and Sign Language Translation Systems: Survey, Taxonomy and Performance Evaluation. https://arxiv.org/abs/2408.14825

RAQAMLI TILSHUNOSLIK: BLINGVIZM VA SUN’IY INTELLEKT O‘RTASIDAGI ALOQA

Ruziyeva Madina Ilhom qizi,
Tayanch doktoranti
madinaruziyeva67@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslik raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Raqamli tilshunoslik, ya’ni tilshunoslikning texnologik va raqamli vositalar yordamida o‘rganilishi, so‘nggi yillarda juda muhim yo‘nalishga aylandi. Bu soha sun’iy intellekt (SI) va blingvizm (inglizcha “blended linguistics”) kabi yangi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Su’iy intellektning tilshunoslikdagi ahamiyati hamda blingvizmning bu jarayondagi roli kognitiv tilshunoslik, avtomatik tarjima, nutqni tanib olish va tilni qayta ishlash kabi sohalarda sezilarli tarzda o‘sdi. Ushbu maqolada raqamli tilshunoslik, blingvizm va sun’iy intellektning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning o‘zaro aloqasi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida so‘z boradi.

Annotation. Modern linguistics is developing in close connection with digital technologies. Digital linguistics, that is, the study of language through technological and digital tools, has become a highly important field in recent years. This area includes new concepts such as artificial intelligence (AI) and blended linguistics. The significance of artificial intelligence in linguistics, as well as the role of blended linguistics in this process, has notably increased in areas such as cognitive linguistics, machine translation, speech recognition, and natural language processing. This article discusses the role of digital linguistics, blended linguistics, and artificial intelligence in the field of linguistics, their interrelations, and future development prospects.

Аннотация. Современное языкознание развивается в тесной связи с цифровыми технологиями. Цифровая лингвистика, то есть изучение языка с помощью технологических и цифровых средств, в последние годы стала очень важным направлением. Эта область включает в себя такие новые понятия, как искусственный интеллект (ИИ) и блендвизм (от англ. "blended linguistics"). Значение искусственного интеллекта в лингвистике, а также роль блендвизма в этом процессе значительно возросли в таких сферах, как когнитивная лингвистика, автоматический перевод, распознавание речи и обработка языка. В данной статье рассматриваются место цифровой лингвистики, блендвизма и искусственного интеллекта в языкознании, их взаимосвязь и перспективы развития в будущем.

Kalit so‘zlar: *raqamli tilshunoslik, sun’iy intellekt, blingvizm, avtomatik tarjima, nutqni tanib olish, texnologik tilshunoslik, lingvistik innovatsiyalar, zamonaviy lingvistika*

Raqamli tilshunoslik – bu tilshunoslikni raqamli vositalar yordamida o‘rganish jarayoni bo‘lib, u kompyuterlar, algoritmlar, big data va sun’iy intellektni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Blingvizm, o‘z navbatida, turli tillarni birlashtirish orqali yangi til tizimlarini yaratishni anglatadi. U tilni avtomatik qayta ishlash, mashinasozlik tarjimasi va nutqni tanib olish tizimlarida keng qo‘llaniladi. Sun’iy intellekt (SI) va blingvizm o‘rtasidagi aloqalar lingvistik tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Quyidagi jadvalda raqamli tilshunoslikning asosiy aspektlari aks ettirilgan:

Aspekt	Tavsif	Misollar
Sun’iy intellekt	Tabiiy tilni qayta ishlash uchun texnologiyalar	Avtomatik tarjima nutqni tanib olish
Blingvizm	Bir nechta tillarni birlashtirish tizimi	Mashinasozlik tarjimasi turli tillarni birlashtirish
Kognitiv tilshunoslik	Insonning tilni qanday tushunishi va ishlatishi	Tilni qayta ishlash va o‘rganish algoritmlari

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) tilshunoslik sohasida inqilob yasamoqda. Ayniqsa, blingvizm – ikki yoki undan ortiq tillarni bilish fenomeni – va sun’iy intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik raqamli tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Blingvizm ikki yoki undan ortiq tillarni mukammal bilish va ulardan faol foydalanish qobiliyatidir. Bu fenomen kognitiv neyrobiologiya, psixolingvistika va sotsiolingvistika sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, blingvizm inson miyasining moslashuvchanligi va lingvistik ko‘nikmalarni qayta ishlash qobiliyatini aks ettiruvchi muhim hodisalardan biridir. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘p tilli insonlar:kognitiv moslashuvchanlikka ega bo‘lib, muammolarni hal qilish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Sun’iy intellekt til o‘rganish jarayonini osonlashtirish va optimallashtirishga qaratilgan texnologik yondashuvlarni taqdim etadi. Masalan, neyron tarmoqlar asosida qurilgan tarjima tizimlari blingvistik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan lingvistik modellar, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari, blingvizmga oid muammolarni hal qilish va uni chuqur o‘rganishda katta imkoniyat yaratmoqda. Quyidagi texnologiyalar bunga misol bo‘la oladi: Nevrologik tarmoqlarga asoslangan tarjima tizimlari (masalan, Google Translate, DeepL) blingvistik jarayonlarni modellashtirishga yordam beradi. Til modeli asosidagi sun’iy intellekt (masalan, ChatGPT, BERT, T5) bir nechta tilda fikrlash va muloqot

qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Tilni avtomatik aniqlash va o‘rganish tizimlari (masalan, Duolingo, Babbel) ikki tillilik jarayonlarini kuchaytiradi.

Blingvizm va sun’iy intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Sun’iy intellekt inson miyasi kabi ko‘p tillilik bilan bog‘liq jarayonlarni tushunishga harakat qilmoqda. Ushbu bog‘liqlikni quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

- Ko‘p tillilikka moslashish – SI modellarining mashinaviy o‘rganish orqali turli tillarni o‘zlashtirish qobiliyati blingvizm prinsiplariga o‘xshaydi.

- Interferensiya va kod almashtirish modellarining yaratilishi – SI lingvistik interfeyslar orqali bir tildan ikkinchisiga o‘tish jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

- Til o‘rganishda yordamchi vosita sifatida – SI asosidagi vositalar insonlarning blingvistik malakalarini rivojlantirish uchun ishlatiladi.

Kelajakda SI asosida rivojlanayotgan lingvistik tadqiqotlar quyidagilarga yo‘l ochishi mumkin: Xususan, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida barcha tillarni qamrab oluvchi universal tarjima tizimlari yaratilishi boshlangan. Bilingv shaxslar uchun moslashtirilgan til o‘rgatuvchi sun’iy intellekt vositalari ishlab chiqiladi. Til o‘rganish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiluvchi interaktiv modellar yaratiladi. Ko‘p tilli sun’iy intellekt yordamida yanada tabiiy va kontekstga mos muloqot tizimlari ishlab chiqiladi.

Blingvizm va sun’iy intellektning rivojlanishi raqamli tilshunoslikda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sun’iy intellekt lingvistik jarayonlarni modellashtirish orqali blingvizm fenomenini chuqur o‘rganishga va insonning kognitiv ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Kelajakda ushbu ikki sohaning uyg‘unlashuvi natijasida til o‘rganish jarayoni yanada rivojlanib, yangi texnologik yutuqlarga yo‘l ochiladi.

Quyidagi jadvalda blingvizm va sun’iy intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi:

Xususiyatlar	Blingvizm	Sun’iy intellekt
O‘rganish usuli	Tajriba asosida	Ma’lumotlar asosida
Moslashuvchanlik	Juda yuqori	Modelga bog‘liq
Tilni tushunish	Kontekstga bog‘liq	Ma’lumotlar bazasiga bog‘liq

Sun’iy intellektning blingvistik kompetensiyaga ta’siri. Til o‘rgatuvchi dasturlar, avtomatik tarjima tizimlari va tovushli yordamchilar blingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, GPT va DeepL kabi tizimlar real vaqtda tarjima qilish imkoniyatini beradi. Blingvizmning inson kognitiv

tizimiga ta’siri Nevropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, blingv shaxslarning miyasi monolingv (bitta tilni biladigan) shaxslarga nisbatan moslashuvchanroq bo‘ladi. Blingvistik jarayonlar, xususan, dorsolateral prefrontal korteks va anterior singulat korteksning faoliyatini kuchaytiradi . Ushbu jihat sun’iy intellekt modellarini ko‘p tillilikka moslashuvchan qilish uchun ishlatilishi mumkin.[1]

Sun’iy intellekt va lingvistik modellar. Transformer modellar tabiiy tilni qayta ishlash sohasida inqilob qildi. Ushbu model bir nechta tillarda ishlashga moslashgan bo‘lib, tarjima, so‘z tushunish va nutq sintaksisini qayta ishlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Multilingvistik o‘qitish uchun Meta AI tomonidan yaratilgan M2M-100 modeli bir nechta tillarni bir vaqtning o‘zida tarjima qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, u 100 dan ortiq tillarni o‘z ichiga oladi. [2]

Sun’iy intellekt yordamida blingvizmni modellashtirish. Google Brain tadqiqotlari sun’iy intellekt yordamida inson miyasi kabi kod almashtirish va interferensiya jarayonlarini tushunish va simulyatsiya qilishga harakat qilmoqda. Duolingo va boshqa til o‘rgatish platformalari adaptive learning metodikasidan foydalangan holda, sun’iy intellekt yordamida blingvizmga oid pedagogik usullarni taklif qilmoqda.[3]

Bilingvizm SI uchun katta imkoniyatlar ochadi: ko‘p tillilikka asoslangan tarjima tizimlarini yaxshilaydi. Til o‘rganish platformalari uchun moslashuvchan darsliklar yaratadi. Ovozli yordamchi tizimlarni turli tillarda faol ishlashga moslaydi. Kognitiv SI modellarida inson miyasi faoliyatini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Blingvizm va sun’iy intellekt o‘rtasidagi aloqani quyidagi jadval orqali aniqroq tushunamiz:

№	Asosiy jihatlar	Tavsif
1	Sun’iy intellektning lingvistik modellari	Transformer modellar ikki tillilik jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi.
2	Blingvizm va kognitiv jarayonlar	Blingv shaxslarning miyasi ko’proq moslashuvchan bo‘lib, bu lingvistik qobiliyatlarni rivojlantiradi.
3	Ikki tillilik va tarjima tizimlari	Google Translate va M2M-100 kabi modellar blingvizm aosida ishlaydi.
4	Kod almashtirish va interferensiya	Blingvizmda kuzatiladigan kod almashtirish jarayonlari SI yordamida modellashtirilmoqda.
5	Kelajakdagi istiqbollar	Kelajakda SI yordamida real vaqtda tarjima qiluvchi ko‘zoynaklar va smartfon ilovalari ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, Google Glass tarjima funksiyasi kabi.

Raqamli tilshunoslik, blingvizm va sun’iy intellekt bo‘yicha amaliy takliflar:

1. Bilingval bolalar uchun sun’iy intellekt yordamida o‘quv platformalarini ishlab chiqish. SI asosida tillarni o‘rgatadigan mobil ilovalar va veb-platformalar yaratish. Bilingval bolalar uchun maxsus moslashtirilgan interaktiv darslik va mashqlar tizimini ishlab chiqish.
2. Til o‘rganuvchilar uchun sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan tarjima tizimlarini rivojlantirish. SI yordamida matnlarni kontekstga qarab mos tarjima qilish tizimlarini takomillashtirish. O‘zbek tilini ingliz, rus va turk tillari bilan bog‘laydigan avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish.
3. O‘zbek tilidagi sun’iy intellekt modellarini rivojlantirish. O‘zbek tilidagi nutqni matnga aylantirish va aksincha, matndan nutqqa o‘giruvchi texnologiyalarni takomillashtirish. O‘zbekcha chatbot va virtual yordamchilarni ishlab chiqish.
4. Sun’iy intellektga asoslangan lug‘atlar va til o‘rganish vositalarini yaratish. O‘zbek va boshqa tillar uchun AI asosida ishlaydigan interaktiv lug‘atlar ishlab chiqish. Blingvistik kompetensiyani oshirish uchun sun’iy intellekt asosida adaptiv til o‘rgatish tizimlarini yaratish.
5. Tilshunoslik tadqiqotlari uchun sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish. O‘zbek tilida matn tahlil qilish va semantik analiz tizimlarini yaratish. Sun’iy intellekt yordamida o‘zbek tilining grammatik va sintaktik xususiyatlarini chuqurroq tadqiq qilish.
6. O‘zbek tilshunoslari va IT mutaxassislari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish. Oliy ta’lim muassasalari va IT kompaniyalari o‘rtasida qo‘shma loyihalar tashkillashtirish. Sun’iy intellekt va lingvistika bo‘yicha tadqiqot markazlarini tashkil etish.
7. Bilingval shaxslarning til qobiliyatini baholash va rivojlantirish uchun sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish. Talabalar va til o‘rganuvchilar uchun AI asosida ishlaydigan diagnostika testlarini yaratish. O‘zbek tilida avtomatik esse baholash tizimini ishlab chiqish.

Sun’iy intellekt tizimlarining tilga oid modellari bilingvizmga asoslanadi. Bu modellar inson miyasi kabi ikki yoki undan ortiq tilda ma’lumotni qabul qilish, qayta ishlash va uni kontekstga mos holda ifodalashga harakat qiladi.[4] Ayniqsa, neyron tarmoqlar asosida qurilgan mashina tarjimasi va ko‘p tilli til modellari (masalan, ChatGPT, Google Translate, M2M-100, NLLB-200) bilingvizm mexanizmlarini chuqur o‘rganish va undan amaliy foyda olish imkonini beradi.[5] Shuningdek, bilingvizmni o‘rganish orqali SI tizimlari inson kognitsiyasini yanada chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa turli tillarda ishlovchi foydalanuvchilar uchun intellektual yordamchilarni, ko‘p tilli ta’lim resurslarini, tilni avtomatik aniqlash, tarjima, nutq tanish, til korreksiyasi va boshqa xizmatlarni rivojlantirishga turtki bo‘ladi. O‘zbek

tilshunosligi uchun bu soha alohida dolzarbdir. Chunki sun’iy intellekt asosida o‘zbek tilini rivojlantirish, uni ko‘p tilli tizimlarga integratsiya qilish, korpuslar yaratish va avtomatik tarjima vositalarini ishlab chiqishda bilingvizmga oid yondashuvlar katta imkoniyatlarni taqdim etadi.[6] Shu bois, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yurtimizda dolzarb bo‘lib borayotgan sun’iy intellekt sohasiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bialystok, E. Bilingualism: The Good, the Bad, and the Indifferent. Bilingualism:Language and Cognition,2009- 12(1), 3-11. https://doi.org/ 10.1017/ S1366728908003477
2. Fan, A., Bhosale, S.,Schwenk, H.,Ma, X.,El-Kishky, A.,Goyal, N.,& Edunov, S. 2020.
3. Johnson, M., Schuster, M., Le, Q. V., Krikun, M., Wu, Y., Chen, Z., … & Dean, J. (2017). Google’s Multilingual Neural Machine Translation System: Enabling Zero-Shot Translation. Transactions of the Association for Computational Linguistics, 5, 339-351. https://doi.org/10.1162/tacl_a_00065 Press.
4. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., Kaiser, Ł., & Polosukhin, I. (2017). Attention is All You Need. Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). https://arxiv.org/abs/1706.03762
5. OpenAI. (2023). GPT-4 Technical Report.
6. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy jurnali. (2021). Sun’iy intellekt va lingvistik model tizimlari.

SUN’IY INTELLEKT KUTUBXONALARI YOQDAMIDA MATNLARNI QAYTA ISHLASH

Berdiyev Jahongir Botir o‘g‘li,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
berdiyevjahongir94@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti sun’iy intellekt (SI) sohasini jadal rivojlantirmoqda. Ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) yo‘nalishida erishilayotgan yutuqlar turli sohalarda matn bilan ishlash jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. Ilgari faqat inson aqli orqali bajarilgan matn tahlili, his-tuyg‘ularni aniqlash, tarjima, xulosa chiqarish kabi vazifalar bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida yuqori aniqlikda amalga oshirilmoqda. Matn bilan ishlashda asosiy vazifa uni kompyuter tushunadigan shaklga keltirishdir. Buning uchun maxsus algoritmlar va modellardan foydalaniladi. Shu jarayonda TensorFlow, PyTorch, Scikit-learn kabi SI kutubxonalari muhim o‘rin egallaydi. Ushbu kutubxonalar yordamida neyron tarmoqlarni o‘rgatish, mavjud modellarni sozlash va yangi yondashuvlarni sinovdan o‘tkazish mumkin.

Ushbu maqolada matnlarni qayta ishlash jarayonida sun’iy intellekt kutubxonalarining tutgan o‘rni, ularning imkoniyatlari va amaliy qo‘llanilishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, yetakchi tadqiqotchilar ishlanmalari asosida iqtiboslar keltiriladi va turli kutubxonalar taqqoslanadi.

Abstract. The rapid advancement of modern technologies has significantly accelerated the development of artificial intelligence (AI). In particular, the field of Natural Language Processing (NLP) has witnessed substantial progress, enabling the automation and optimization of various text analysis processes. Tasks such as sentiment detection, text classification, summarization, and machine translation, which were once performed solely by human experts, are now being carried out by intelligent systems with high accuracy. One of the core challenges in text processing is converting natural language into a machine-readable format. To achieve this, various algorithms and deep learning models are employed. In this context, open-source AI libraries such as TensorFlow, PyTorch, Scikit-learn play a crucial role. These libraries provide efficient tools for training neural networks, fine-tuning pre-trained models, and experimenting with innovative approaches.

This article explores the role and capabilities of AI libraries in text processing tasks. It further discusses practical applications and comparative analysis of leading frameworks, referencing key contributions from prominent researchers in the field.

Аннотация. Стремительное развитие современных технологий существенно ускорило прогресс в области искусственного интеллекта (ИИ). Особенно заметны достижения в сфере обработки естественного языка (Natural Language Processing — NLP), что позволило автоматизировать и оптимизировать различные задачи анализа текстов. Такие операции, как определение тональности, классификация текста, реферирование и машинный перевод, ранее выполнявшиеся исключительно человеком, сегодня реализуются интеллектуальными системами с высокой точностью. Одной из основных задач при работе с текстами является преобразование естественного языка в формат, понятный для машин. Для этого используются специализированные алгоритмы и модели глубокого обучения. В этом контексте важную роль играют открытые библиотеки ИИ, такие как TensorFlow, PyTorch, Scikit-learn. Эти инструменты позволяют эффективно обучать нейронные сети, адаптировать уже готовые модели и тестировать новые подходы.

В данной статье рассматриваются роль и возможности библиотек искусственного интеллекта при обработке текстов. Также проводится сравнительный анализ популярных инструментов с опорой на ключевые научные исследования и авторитетные источники.

Kalit so‘zlar. *TensorFlow, PyTorch, Scikit-learn, tokenizatsiya, vektorlashtirish, klasslar.*

Kirish. Matnni qayta ishlash sun’iy intellektning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasiga kiradi. Uning asosiy maqsadi mashinalarga inson tilini tushunish, talqin qilish va yaratish imkoniyatini berishdir. Chuqur o‘rganishning rivojlanishi bilan matnga asoslangan vazifalarni avtomatlashtirish va takomillashtirish uchun sun’iy intellekt kutubxonalari muhim rol o‘ynamoqda. Bu tizim matnni tasniflash, hissiyotlarni tahlil qilish, mashina tarjimasi va boshqa ko‘plab NLP vazifalarini bajarish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt kutubxonalari yordamida ma’lum bir vazifa bajarish va matnga ishlov berish bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Quyida bu bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.

Tokenizatsiya va to‘ldirish(padding).

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining rivojlanishi bilan matnni raqamli formatga aylantirish usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Tokenizatsiya” va “to‘ldirish” kabi jarayonlar NLP algoritmlarining samaradorligi va ishlash tezligini ta’minlovchi asosiy tarkibiy qismlardir. Matnni qayta ishlashning birinchi bosqichi xom matnni mashinani o‘qitish modeli tushunadigan shaklga aylantirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon *tokenizatsiya* bilan boshlanadi, u matnni

tokenlar deb ataladigan kichikroq birliklarga, odatda, so‘zlar, bo‘g‘inlar yoki harflarga ajratadi.

Tokenizatsiya – bu matnni kichik bo‘laklarga ajratish jarayonidir. Bu kichik bo‘laklar **tokenlar** deb ataladi. Tokenlar, odatda, so‘zlar, bo‘g‘inlar yoki boshqa ma’lumotli segmentlar bo‘lishi mumkin. Tokenizatsiya tabiiy tilni qayta ishlashning birinchi va eng muhim bosqichlaridan biridir. Tokenizatsiya jarayoni matn ustida bajariladigan amallarga bog‘liq holda bir qancha turlarga bo‘linishi mumkin (Qarang: 1-jadval). Masalan, *bolalar bugun maktabga ketishdi* gapini turli xil tokenlarga ajratish mumkinligini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

1-jadval. Token turlari

Token turlari	**Token misoli**
Gap shaklida	Bolalar bugun maktabga ketishdi
So‘zshakl	Bolalar, bugun, maktabga, ketishdi
Asos va qo‘shimcha	Bola, lar, bugun, maktab, ga, ket, ish, di
Bo‘g‘in shaklida	Bo, la,lar, bu, gun, mak, tab, ga, ket, ish, di
Harf shaklida	B, o, l, a, l, a, r, b, u, g, u, n, m, a, k, t, a, b, g, a, k, e, t, i, sh, d, i

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, matnlarni turli shaklda tokenizatsiya qilish mumkin ekan. Bu, albatta, matn ustida bajariladigan vazifaga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, harf shaklidagi tokenizatsiya fonetik tahlil, yozuv qoidalari va shu kabi xususiyatlarni o‘rganishda ishlatiladi. Yoki so‘zshakl darajasidagi tokenizatsiya matn tasnifi mashina tajrimasi kabi vazifalar uchun ishlatiladi.

TensorFlow kutubxonasida tokenizatsiya modullari va ularning bir qancha klasslari mavjud. Quyida ularning bir qismini ko‘rib chiqamiz.

tf.keras.preprocessing.text moduli. Bu modul **TensorFlow** kutubxonasida matnlarni qayta ishlash uchun taqdim etilgan yordamchi funksiyalardan iborat. Tokenizer klassi matnni butun sonlar ketma-ketligiga aylantirish orqali matnni oldindan qayta ishlash uchun ishlatiladi, bu erda matndagi har bir so‘z yoki token ma’lumotlar to‘plamidagi chastotasi asosida noyob butun songa ko‘rsatiladi[1]. Bu modulda matnlarni **tokenizatsiya qilish, ketma-ketlikka aylantirish** va **NLP** modellar uchun tayyorlash jarayonini osonlashtirish uchun ko‘plab funksiyalar mavjud. Undagi “Tokenizer” klassi tokenizatsiya uchun keng qo‘llaniladi. “Tokenizer” matn korpusini butun sonlar ketma-ketligiga aylantiradi, bunda har bir butun son alohida so‘z yoki tokenni ifodalaydi. Masalan, “TensorFlow mashinali o‘qitishda mashhur kutubxona” degan oddiy jumla berilgan bo‘lsa, tokenizatsiya uni [“TensorFlow”, “mashinali”, “o‘qitishda”, “mashhur”, “kutubxona”] so‘zlariga bo‘ladi, so‘ngra ular korpusdagi chastotasiga qarab mos keladigan butun son

indekslariga aylantiriladi, ya’ni [[2, 3, 1, 4, 5]] shaklidagi natijani beradi. Bu modelga xom matn emas, balki raqamli tasvirlar bilan ishlash imkonini beradi. UnicodeCharTokenizer klassi matnni belgilarga bo‘lib tokenlashtiradi. Ya’ni matnni individual belgilar (harflar, raqamlar, maxsus belgilar) shaklida tokenlarga ajratadi. Bunda gap, so‘zlar yoki bo‘g‘inlar emas, balki har bir belgi alohida token sifatida ishlatiladi. WhitespaceTokenizer klassi bo‘sh joylarni ajratuvchi element sifatida ko‘rib, har bir bo‘sh joydan keyin yangi token yaratadi. Bu tokenizatsiya turi, asosan, so‘zlar orasidagi bo‘sh joylar bo‘yicha ajratish uchun ishlatiladi.

torchtext moduli. Bu modul PyTorch kutubxonasida matnlarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan maxsus vositalarni o‘z ichiga oladi. torchtext yordamida matnlarni tokenizatsiya qilish, lug‘at (vocabulary) yaratish, embedding (semantik vektorlar) hosil qilish va matnlar bilan ishlovchi datasetlar yaratish imkoniyati mavjud. torchtextdan foydalanib, siz matnli ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirishingiz mumkin. Bu jarayon tokenizatsiya, so‘zlarni raqamlarga aylantirish, lug‘at yaratish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Bu xususiyat bu amalni bajarish uchun murakkab kodlarni yozish shart emasligini bildiradi[2]. Bu moduldagi get_tokenizer() funksiyasi yordamida ingliz tilida keng qo‘llaniladigan tokenizatorlar, jumladan basic_english, spacy, moses va boshqa variantlar bilan matnni bo‘lish mumkin. Vocab klassi esa barcha tokenlarni indekslash va ularning embedding ifodalarini saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, "mashina o‘rganish sohasida PyTorch juda samarali" degan jumla get_tokenizer() yordamida [“mashina”, “o‘rganish”, “sohasida”, “PyTorch”, “juda”, “samarali”] shaklida tokenlarga ajratiladi, so‘ngra ular Vocab yordamida indekslanadi va nn.Embedding orqali neyron tarmoqlar uchun tayyorlanadi. torchtext shuningdek, maxsus TextClassificationDataset, DataLoader va BucketIterator funksiyalarini taqdim etadi, bu esa yirik matnlar ustida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. PyTorch tokenizatsiyani fleksib tarzda sozlash imkonini berishi bilan boshqa kutubxonalardan ajralib turadi, ayniqsa LSTM, GRU, Transformer modellar bilan ishlaganda bu juda muhimdir.

scikit-learn.feature_extraction.text moduli. SciKit Learn - bu mashinani o‘rganish loyihalari uchun keng kutubxona bo‘lib, bir nechta tasniflagich va tasniflash algoritmlari, o‘qitish va ko‘rsatkichlarni yig‘ish usullari va kiritilgan ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash uchun mo‘ljallangan[3]. Bu modul Scikit-learn kutubxonasida matnlarni raqamlashtirish va oldindan ishlashga ixtisoslashgan komponentlarni o‘z ichiga oladi. Asosan, CountVectorizer va TfidfVectorizer klasslari matnni vektor ko‘rinishiga keltirishda keng qo‘llaniladi. CountVectorizer matndagi har bir so‘zni indekslab, ularning chastotasiga qarab vektor yaratadi. Masalan, "Scikit-learn matnli tahlil uchun foydali vosita" jumlasi quyidagicha vektorga aylanishi mumkin: [“scikit”, “learn”, “matnli”, “tahlil”, “uchun”, “foydali”, “vosita”] → [1, 1, 1, 1, 1, 1, 1]. TfidfVectorizer esa so‘z chastotasi va

umumiy korpusdagi kamyoblik darajasini hisobga olib, har bir so‘zga mos og‘irlik (weight) beradi. Bu metod ayniqsa soxta yangiliklarni aniqlash, ijtimoiy tarmoq postlarini tahlil qilish, yoki hujjatlarni kategoriyalarga ajratishda juda foydalidir. Scikit-learn kutubxonasi shuningdek, tayyorlangan vektorlarni MultinomialNB, SVM, LogisticRegression va boshqa klassifikatorlarga uzatish imkonini beradi. Bu modul matnlarni qayta ishlashni chuqur o‘rganish tarmoqlarisiz bajarishni xohlagan foydalanuvchilar uchun yengil va tezkor yechim taqdim etadi. Shuningdek, Pipeline va GridSearchCV kabi vositalar orqali butun ishlov jarayonini avtomatlashtirish mumkin.

tf.keras.preprocessing.sequence moduli TensorFlow Keras kutubxonasining bir qismi bo‘lib, ketma-ketlik ma’lumotlari bilan ishlash vositalarini taqdim etadi. U mashinani o‘qitish modellari uchun matnli yoki ketma-ket ma’lumotlarni tayyorlash uchun yordamchi dasturlarni, ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vazifasini o‘z ichiga oladi. Bu moduldagi TimeseriesGenerator klassi ketma-ket ma’lumotlarni qayta ishlash uchun, xususan, prognozlash, anomaliyalarni aniqlash yoki tasniflash kabi davriy vazifalar uchun yordamchi dasturdir. Bu LSTM, GRU yoki CNN kabi modellarga vaqt seriyasidagi ma’lumotlarni uzatishni osonlashtirib, siljish oynalari ketma-ketligini va ularga mos keladigan maqsadlarni yaratishga yordam beradi. Ya’ni bu klass kutilayotgan natijani bashorat qilishga yordam beradi. NgramTokenizer klassi esa ketma-ket elementlardan tashkil topgan n-gramm tokenlarini yaratuvchi tokenizatorni chaqiradi. N-gramm tokeni ketma-ketlikdagi n ta elementdan tashkil topgan tokendir.

torch.nn.utils.rnn va **torchtext** modullari PyTorch kutubxonasida ketma-ketlik ma’lumotlari bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Har qanday chuqur o'rganish modeli torch.nn modulining quyi sinfi yordamida ishlab chiqilgan bo'lib, u chiqishni qaytaruvchi oldinga (kirish) kabi usuldan foydalanadi[4]. Bu modullar yordamida NLP va vaqt ketma-ketligi asosidagi vazifalar uchun matnli ma’lumotlarni samarali tayyorlash mumkin. torch.nn.utils.rnn.pad_sequence funksiyasi turli uzunlikdagi ketma-ketliklarni bitta batchga joylashtirish uchun ularni maksimal uzunlikka tenglashtirib (padding), tensor holatiga keltiradi. Bu esa LSTM yoki GRU kabi modellar uchun bir xil o‘lchamdagi kiritish (input) yaratishga imkon beradi. pack_padded_sequence va pad_packed_sequence funksiyalari esa modelga joylashtirilgan (packed) yoki asl shakliga qaytarilgan (unpacked) ma’lumotlar bilan ishlash imkonini beradi. Shuningdek, torchtext.data moduli ichida mavjud bo‘lgan BucketIterator va Field klasslari yordamida ma’lumotlar optimallashtirilgan tarzda modelga uzatiladi. Bu komponentlar ayniqsa, vaqt seriyalari, til modellari yoki ketma-ketlik asosida klassifikatsiya vazifalarida muhim ahamiyatga ega. torchtext.transforms.NGramTransform esa matndan n-gram tokenlar yaratish imkonini beradi, bu esa murakkab til tuzilmalarini modelga tushuntirishda foydalidir.

sklearn.feature_extraction.text va **sklearn.model_selection** modullari Scikit-learn kutubxonasida matn va vaqt ketma-ketligi asosidagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun foydalaniladi. CountVectorizer va TfidfVectorizer klasslari yordamida matnli ketma-ketliklarni vektorlashtirish, ya’ni raqamli ifodalarga aylantirish mumkin. Ayniqsa TfidfVectorizer N-gram parametrlarini belgilash orqali ketma-ketlikdagi tuzilmalarni (masalan, bigram yoki trigram) aniqlash imkonini beradi. Bu matnlardagi kontekstni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Vaqt asosidagi vazifalarda TimeSeriesSplit klassi yordamida modelni o‘qitish va test qilish uchun vaqt tartibida bo‘lingan datasetlar yaratish mumkin. Bu ayniqsa prognozlash va vaqtga bog‘liq klassifikatsiya vazifalari uchun foydalidir. Scikit-learn modullari LSTM yoki GRU kabi chuqur tarmoqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etmasa-da, statistik asoslangan modellarga tayyorlangan ketma-ketliklarni berish orqali NLP vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga xizmat qiladi. Bu kutubxona o‘zining soddaligi va mustahkam poydevori bilan mashhur.

tf.keras.preprocessing.image moduli rasm ma’lumotlarini oldindan ishlash uchun ishlatiladi. U rasmlarni disk yoki veb saytlardan yuklash, uning o‘lchamlarini o‘zgartirish, normalizatsiya qilish va modelga tayyorlash uchun bir qator yordamchi funksiyalar va sinflarni keltiradi. ImageDataGenerator klassi, asosan, tasvirlarni oldindan ishlash va real vaqt rejimida ma’lumotlarni boyitish vazifasini bajaradi. Bu klass mashinani o‘rgatish jarayonida tasvirlar bilan ishlashni osonlashtiradi va modelning umumlashgan qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu klassning asosiy vazifalari tasvirlarni neyron tarmoqqa kiritishdan oldin qayta ishlaydi, tasvirlarni kerakli o‘lchamlarga keltiradi, modelni turli xil sharoitlarga moslashtirish uchun real vaqt rejimida tasvirlarni o‘zgartiradi, ma’lumotlarni boyitadi (ya’ni aylantirish, kesish, o‘zgartirish, gorizontal/vertikal shaklda aylantirish va shu kabilar), katta hajmdagi tasvirlar bilan ishlash (diskdagi katta hajmdagi tasvirlarni yuklamasdan, real vaqt rejimida guruhlab yuklab o‘rganish imkonini beradi).

Biroq real dunyo matn ma’lumotlari uzunligi bo‘yicha farq qilishi mumkin va neyron tarmoqlar, odatda, belgilangan o‘lchamdagi kirish ma’lumotlarini kutishadi. Buni hal qilish uchun barcha ketma-ketliklarning bir xil uzunlikka ega bo‘lishini ta’minlash uchun *to‘ldirish*(padding) ishlatiladi. To‘ldirish juda muhim, chunki mashinani o‘qitish modellari, ayniqsa, neyron tarmoqlari, odatda, ma’lum hajmdagi kirishlarni talab qiladi. To‘ldirish turli uzunlikdagi ketma-ketliklarni bir xil uzunlikka keltirishni ta’minlaydi, bu esa partiyalarni qayta ishlashga imkon beradi. TensorFlow eng uzun ketma-ketlikning uzunligiga mos keladigan qisqaroq ketma-ketliklarni nol (yoki boshqa qiymatlar) bilan to‘ldirish uchun “pad_sequences” funksiyasini taqdim etadi. Bu partiyalarni qayta ishlash va samarali o‘qitish uchun juda muhimdir.

Matnni vektorlashtirish: Matnni raqamli tasvirlarga aylantirish.

Matn tokenizatsiya qilingandan so‘ng, keyingi qadam bu tokenlarni raqamli vektorlarga aylantirishdir. Ushbu transformatsiya matnning semantik ma’nosini saqlab qolgan holda neyron tarmoqqa matnli ma’lumotlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi. Keng tarqalgan yondashuvlardan biri *so‘zlarni joylashtirish* bo‘lib, ular har bir so‘zni uzluksiz vektor fazosida zich vektor sifatida ifodalaydi. Matnni vektorlashtirish juda muhim, chunki kompyuterlar faqat raqamlar bilan ishlaydi. Matnni raqamlarga aylantirish orqali, kompyuter modeliga matnni o‘rganish, uning xususiyatlarini aniqlash va tasniflash mumkin bo‘ladi. Bu jarayonni amalga oshirishda TensorFlow kuchli vosita hisoblanadi. TensorFlowda matnni vektorlashtirish uchun ko‘plab usullar mavjud bo‘lib, ulardan eng ko‘p ishlatiladigan usul TextVectorization qatlamidan foydalanishdir. Bu qatlam matnni sonli vektorlarga aylantiradi va matnni modelga kiritish uchun tayyorlaydi. Shuningdek, bu qatlam matnni tokenizatsiya qilish, vektorlashtirish, to‘ldirish va oldindan ishlov berish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bu esa kodni ixsham va soda qiladi. Bundan tashqari, matnni vektorlashtirishda so‘zlarning ma’nosini yaxshiroq ifodalash uchun *so‘z joylashtirish* funksiyasidan foydalaniladi. Joylashtirishlar har bir so‘zni yuqori o‘lchamdagi (masalan, 100 yoki 300 o‘lchamli) vektor bilan ifodalaydi. Bu usul so‘zlarning semantik ma’nosini saqlashga yordam beradi. Joylashtirish so‘zlar orasidagi semantik munosabatlarni qamrab oladi, masalan, o‘xshash ma’noga ega so‘zlar o‘xshash vektor ko‘rinishlariga ega bo‘ladi.

TensorFlow-da “tf.keras.layers”dagi “Embedding(Joylashtirish)” qatlami trening davomida ushbu joylashtirishlarni o‘rganish uchun ishlatiladi. Bu qatlam butun sonlar ketma-ketligini (tokenlashtirilgan so‘zlar) oladi va ularni ma’lum o‘lchamdagi zich vektorlar bilan taqqoslaydi. Joylashtirish qatlami, odatda, xom ma’lumotlarni, ya’ni so‘zlar, matnlar, tasvirlar yoki shunga o‘xshash elementlarni tahlil qilish va model uchun tushunarli shaklga o‘tkazish uchun xizmat qiladi. Joylashtirish qatlamlari juda katta hajma ega bo‘lgan xom ma’lumotlarning hajmini qisqartirib, modelga samarali tarzda ishlatish imkonini beradi. Misol uchun, model “shoir” so‘zini joylashtirish maydonida “yozuvchi” so‘ziga yaqin vektor sifatida ko‘rsatadi. Chunki bu so‘zlar bir-biriga o‘xshash konterkstlarda ishlatiladi.

Tokenizatsiya va vektorlashtirish jarayonlari tugagandan so‘ng qayta ishlangan matn mashinani o‘qitish modellariga kiritishga tayyor bo‘ladi.

TensorFlowda matnli modellarni yaratish. TensorFlow matnli ma’lumotlar uchun kuchli modellar yaratishga imkon beruvchi ochiq manbali mashinani o‘qitish kutubxonasidir. Oldindan ishlov berish va vektorlashtirishdan so‘ng, qayta ishlangan ma’lumotlar mashinani o‘qitish modeliga kiritilishi mumkin. TensorFlowda matnli modelni yaratish uchun bir qancha ilg‘or arxitekturalardan foydalanish mumkin. Shulardan biri Hugging Face Transformatorlar kutubxonasida ishlatiladigan BERT modeli arxitekturasidir(Qarang: 2.1.1-chizma).



1-chizma. BERT modeli arxitekturasi

Diagramma transformator modellarining ishlash jarayonini tasvirlaydi. Matn avval tokenizatsiya qilinib, token, segment va pozitsiya embeddinglari joylashtiriladi. So‘ngra, o‘z-o‘ziga e’tibor qatlami va oldinga yo‘naltirilgan neyron tarmoq orqali kodlanadi. Qatlamlarni qo‘shish va normallashtirish barqarorlikni oshiradi. Yakunda zich qatlam va Softmax qatlami natijani hisoblab, tasniflashni amalga oshiradi. Bu model NLP vazifalari uchun samarali ishlatiladi.

Model arxitekturasi aniqlangandan so‘ng, TensorFlowning yuqori darajali API “tf.keras” modelni kompilyatsiya qilishni, yo‘qotish funksiyasini va optimallashtiruvchini belgilashni va modelni ma’lumotlar to‘plamida o‘rgatishni osonlashtiradi. TensorFlow, shuningdek, aniqlik yoki F1 balli kabi standart ko‘rsatkichlar yordamida modelning ish faoliyatini oson baholash imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, matnni qayta ishlash, NLPning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mashinalarga inson tilini tushunish va qayta ishlash imkonini beradi.

Sun’iy intellektning turli ochiq manbali kutubxonalari matnni tasniflash, hissiyotlarni tahlil qilish va mashina tarjimasi kabi vazifalarda muhim ahamiyatga ega.

Matnni qayta ishlashda tokenizatsiya, to‘ldirish va vektorlashtirish asosiy jarayonlardir. Tokenizatsiya matnni kichik bo‘laklarga ajratib, modelga tahlil qilish imkonini beradi. To‘ldirish matn uzunliklarini tenglashtiradi, vektorlashtirish esa matnni raqamli formatda ifodalaydi. Sun’iy intellekt kutubxonalari bu jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi.

BERT modeli va joylashtirish usullari semantik munosabatlarni yaxshilaydi, so‘zlar orasidagi o‘xshashlikni aniqlashga yordam beradi, bu esa matnni tahlil qilishda samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bilal Sharma. Tokenizer and TextVectorization? Difference, 2024.
2. https://www.shirdell.ir/index.php/machine-learning/138-what-is-torchtext-and-what-features-does-it-provide-to-developers
3. Sebastian. NLP: Text vectorization methods using Scikit learn. Berlin, 2019.
4. https://www.educba.com/torch-dot-nn-module/

UDK: 811.512.133`42

LINGVISTIK TADQIQOTLARDA YANGI YONDASHUV: ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI ASOSIDA YARATILGAN PARALLEL KORPUSI VA UNING TAVSIFI

O‘tkirova Fotima Baxtiyor qizi,
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
otkirovafotima@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi sohasining bir qismi bo‘lgan parallel korpus va uning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Lingvistika va adabiyot o‘rtasidagi ilmiy izlanish va muammolarga yangicha yondashuv orqali yechim berish to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida yaratilgan o‘zbek-rus hamda rus-o‘zbek parallel korpusi tavsifi yoritiladi. Asarning har ikki korpusda ifodalangan til imkoniyatlari, muallif hamda tarjimon qalamiga xos xususiyatlar ko‘rsatiladi.

Abstract. This article discusses the parallel corpus, which is part of the field of corpus linguistics, and its significance in linguistics. Information is provided on scientific research and solutions to problems between linguistics and literature through a new approach. The description of the Uzbek-Russian and Russian-Uzbek parallel corpus created on the basis of Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar” is highlighted. The linguistic possibilities of the work, expressed in both corpora, and the peculiarities of the author’s pen are shown.

Аннотация. В данной статье рассматривается параллельный корпус, являющийся частью корпусной лингвистики, и его значение в лингвистике. Предоставляется информация о научных исследованиях и решении проблем между лингвистикой и литературой посредством нового подхода. Освещается описание узбекско-русского и русско-узбекского параллельного корпуса, созданного по роману Абдуллы Кадыри “Минувшие дни” Указываются языковые возможности произведения, выраженные в обоих корпусах, особенности, присущие перу автора.

Kalit so‘zlar: Korpus lingvistikasi, korpus, parallel korpus, tezaurus, aligner tizimi, n-grammlar, konkordans.

Keyingi yillarda lingvistik tadqiqotlar sohasida yangicha yondashuvlar hamda metodologiyalarning paydo bo‘lishi tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu yangiliklardan biri parallel korpusning yaratilishi va uning lingvistik izlanishlarda keng foydalanishning yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. **Parallel korpus** – biror tilning matnlarini boshqa tilga tarjima qilingan matnlar bilan o‘z ichiga olgan maxsus

ma’lumotlar bazasi sanaladi. Bunday korpus turi tilshunoslarga nafaqat tarjima jarayonini tahlil qilish, balki tilning leksik, sintaktik, morfologik va semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini yaratadi.

Parallel korpuslar yoxud **tarjimalar korpusi** (ingl. *parallel / translation corpus*) – bu asl tildagi matnlar va uning boshqa tildagi tarjimasi mavjud korpus. Qoidaga ko‘ra, bunday korpuslar faqat ikkita tilda tayyorlanadi, shu bois undagi o‘zaro mutanosib matnlar *bitekst* ham deyiladi. **Bimatn (bitekst)** – asliy til matni va uning boshqa til(lar)dagi tarjimasi mavjud matnlar [1].

Parallellik nizomiga ko‘ra korpuslar ikki asosiyga turga bo‘linadi:



Har ikki parallel korpus ham lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jumladan, tarjima tadqiqotlari, leksik tahlil, sintaktik tahlil, stilistik tahlil borasida til imkoniyatlari va tarjimonlarning tarjima usullarini aniqlash, ikki til borasidagi qiyosiy tahlillarni amalga oshirish hamda taqqoslashga yordam beradi. Parallel korpus yaratish jarayonida ba’zi qiyinchiliklar mavjud. Birinchi navbatda, yuqori sifatli tarjimalar topish va ularni tahlil qilishda yuzaga keladigan muammolarni keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, ko‘p tilli korpuslarni yaratish tildagi matnlarning o‘zaro muvofiqlashgan(alignment) shaklini talab qiladi. Shunga qaramay, Parallel korpusning bir qator afzalliklarini sanab o‘tamiz. Masalan, zamonaviy va keng qamrovli yondashuvlarni amalga oshiradi. Bu esa bir necha tillar yuzasidan keng qamrovli tahlil olib borish mumkinligini anglatadi. U tilni o‘rganish va tarjimani tahlil qilishda qo‘llaniladi. Tarjimaning to‘g‘riligi va mazmuni parallel matnlar yordamida baholanishi tarjima sifatini belgilashda qo‘l keladi. Bunday korpuslar yordamida tilning semantik tizimi va so‘zlarning kontekstual ma’nolarini o‘rganish mumkin.

Badiiy asar bo‘yicha parallel matnlar korpusi, avvalo, ikki yoki bir necha tillar grammatikasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Parallel matnlar korpusi har ikki tildagi badiiy uslub xususiyatlarini qiyoslashda

ahamiyatlidir [2]. Parallel korpuslar badiiy asarlarning original va tarjima qilingan variantlarini birlashtirib, tarjimadagi o‘zgarishlarni, til va madaniyatdagi farqlarni, leksik va sintaktik strukturalarni solishtirishga imkon beradi.

Quyida yaratilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning rus tiliga tarjima qilingan nusxasi asosidagi parallel korpus ham tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Parallel korpus tuzishda asarning o‘zbek tilida 2007-yilda nashrdan chiqqan nusxasi tanlab olindi. Rus-o‘zbek parallel korpusi uchun Muhammadnodira Safarova tomonidan “Минувшие дни” nomi ostida 2009-yilda nashr qilingan nusxasi tanlab olindi. Korpusni yaratishda “SketchEngine” dasturidan foydalanilgan. Korpus haqidagi statistik ma’lumotlarni quyidagi jadvallarda ko‘rish mumkin.

1-jadval. O‘zbek-rus hamda Rus-o‘zbek parallel korpusi ma’lumotlari

№	O‘zbek-rus PK	Rus-O‘zbek PK
Words	112,626	108,920
Tokens	158,194	140,759
Sentences	8,651	7175
Paragraphs	728	782

Ushbu jadvalda bir asarning ikki tildagi nusxalaridagi farqlarni yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, parallel korpusda asar rus tiliga tarjima qilinganda o‘zbek tilidagi nusxasida mavjud so‘zlarning 4000 tadan ko‘proqqa qisqarganini ko‘rish mumkin. Yoki tarjima nusxada gaplarning qariyb 1500 taga qisqargani ko‘zga tashlanadi. Parallel korpus tuzishdan avval asarning ikki tildagi ayni nusxalarining elektron formatlari topib olindi. Keyin dasturga muvaffaqiyatli yuklanib, ikki tilli parallel korpus ishga tushdi (1-rasm).



1-rasm. Parallel korpus interfeysi

Asar tahliliga kirishishdan avval kalit so‘zlarni topib olish kerak bo‘ladi. Quyidagi jadvalda ikki korpusda topilgan dastlabki 15 ta kalit so‘zlarni ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Parallel korpusdagi kalit so‘zlarning qiyosiy tahlili

O‘zbek-rus PK			Rus-o‘zbek PK		
Kalit so‘zlar	**Takrori**	**Baholash**	**Kalit so‘zlar**	**Takrori**	**Baholash**
hasanali	189	1148.97	атабек	650	4555.61
qutidor	202	935.314	кумуш	554	3922.5
yusufbek	139	684.623	Kutubxonasi	430	3055.87
yonig	107	626.397	хасанали	276	1961.45
andek	115	626.039	зайнаб	283	1851.61
ach	110	578.605	атабека	258	1816.63
qolg	119	535.356	узбек-аим	200	1421.87
homid	155	528.829	офтоб-аим	176	1251.14
toshkand	113	523.543	кутидор	172	1222.95
chiqg	86	523.337	кушбеги	120	834.737
andan	75	475.101	хамид	137	804.019
ketkan	70	395.237	курбаши	91	631.597
tkan	282	389.307	маргилан	85	598.323
anlig	58	367.638	кутидора	78	555.139
mundan	67	365.094	Алим	87	509.835

Ushbu jadvalni taqqoslaganda o‘zbek-rus va rus-o‘zbek parallel korpusidagi kalit so‘zlar tarjimada o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Jumladan, asl tilda *“Qutidor”, “Xasanali”, “Homid”, “Toshkand”* kabi so‘zlar eng ko‘p qo‘llanilgan bo‘lsa, rus tiliga tarjimada *“Атабек”, “Кумуш”, “Хасанали”, “Зайнаб”* kabi shaxs nomlarida ko‘p takrordan foydalanilgan. Ushbu qiyosiy tahlildan yana bir xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Asarning tarjima nusxasida kishilarning lavozim, mansab hamda laqablari o‘zbek tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kirilgan. Tarjimon o‘zbek xalqi madaniyati va tarixiga oid ushbu so‘zlar ustida tarjimaga qo‘l urmagan.

Parallel korpusda badiiy asar tahliliga oid muhim jihat prallel konkordansning mavjudligidir. Har ikki asarning gaplar muvofiqligi-yu, ikki tilga xos bo‘lgan leksik tuslanishlar ushbu tahlil jarayonida yuzaga chiqadi. Bunda parallel korpus kalit so‘zlarida yuzaga chiqqan so‘zlarni tanlasak, tahlil yana-da chuqurroq amalga oshiriladi. Masalan, “Otabek” so‘zini qidirdik. Bunda biz konkordans lug‘atda uchta tahlilni amalga oshirdik. Birinchidan, matnlar korpusda to‘g‘ri muvofiqlashtirilganligi namoyon bo‘ldi (2-rasm).



2-rasm. Matnlar muvofiqlashgan(alignment) parallel korpus

Ikkinchi qiyosiy tahlil *“Otabek”* shaxs nomining ikki korpusda ham asarda qo‘llanilganlik darajasini diagrammada ifodalanishi bo‘ldi (3-rasm). Ikki korpus diagrammasida ham ko‘rish mumkinki, asarning 70% qismiga yaqinlashganda har ikki asarda ham *“Otabek”* ismidan eng yuqori darajada foydalanilgan. Va, aksincha, o‘zbek-rus parallel korpusida ushbu ismga asarning 85 foizidan boshlab oxirigacha ko‘p takrorda murojaat qilingan bo‘lsa (4-rasm), rus-o‘zbek parallel korpusida tarjima asarning 85% dan to oxirigacha bo‘lgan qismda umuman tilga olinmagan.



3-rasm. Rus tili parallel korpusida “Амабек” shaxs nomining qo‘llanilishi



4-rasm. O‘zbek tilli parallel korpusda “Otabek” shaxs nomining qo‘llanilishi

Keyingi qiyosiy tahlil parallel korpusda rus tili va o‘zbek tilidagi so‘zlarni qidirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi. Masalan, har ikki tilli korpusda ham qidiruvni yakka, fraza, so‘z va hokazo shakllar ustida amalga oshirish mumkinligi ko‘rinadi. Biroq keyingi bosqichlarda rus tili parallel korpusining imkoniyatlari kengayadi. Ya’ni qidiruvdagi birlikning so‘z turkumini, o‘rnini aniqlash mumkin bo‘ladi. O‘zbek tilidagi asar korpusida esa so‘z turkumlarini belgilash imkoni mavjud emasligi ayon bo‘ldi (5-rasm).



5-rasm. Parallel konkordans qidiruv imkoniyatlari

Keyingi tahlilni amalga oshirish ham parallel korpus imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi muhim jihatdir. Bu N-grammlar asosida matnda qo‘llanilgan turli leksik birliklarning bog‘lanish shakllarini topish imkoni mavjud. Badiiy asarning lingvistik mohiyati ham ushbu tahlilda yuzaga chiqadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” asarining asl tilida 2-grammlardan foydalanib ko‘rdik. Bunda eng ko‘p qo‘llanilgan so‘z juftliklari, asosan, *“O‘zbekoyim”, “Oftoboyim”, “dedi va”,”shuning uchun”*

kabilar bo‘lsa, rus tilidagi tarjima nusxasida *“об этом”, “с ним”, “что вы”* kabi birliklar ko‘p qo‘llanilgan.

3-jadval. 2-gramm asosida qiyosiy tahlil

	O‘zbek tili PK	**Rus tili PK**
2-gramm natijasi	1037 ta	1367 ta
Takrori	12 690 marta	14 613 marta

Demak, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani yuzasidan yaratilgan o‘zbek-rus parallel korpusida statistik, qiyosiy, lingvistik tahlillarni amalga oshirib, quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin bo‘ldi:

1. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani rus tilidagi tarjimasi korpusga joylanganda so‘zlar soni asliyat tildagisidan 4000 taga, gaplar miqdori esa qariyb 1000 taga kamaygan. Bunda tarjima asarda ba’zi gaplar va jumlalar qisqartirilgan.

2. Asar o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilinganda kishilarning lavozimi, mansab hamda laqabini bildiruvchi leksik birliklar to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tilidan rus tiliga o‘tgan. Bunda asliyat tilga hamda o‘zbek millati tarixiga xos birliklar saqlanib qolgan.

3. Asarning asliyat tilida 2-grammlar tahlili asosida shu aniq bo‘ldiki, kishilarning nomlaridan keyingi o‘rinda keng qo‘llanilgan leksik birliklar qo‘shma olmoshlar, ko‘makchili birikmalardir.

4. Shaxs nomlari tarjima asarda o‘zbek tilidagisidan 3 barobar ko‘p qo‘llanilgan (masalan, “Атабек” so‘zi 650 marta). Bu esa tarjimonga xos xususiyatlardan bir ekanligi namoyon bo‘lgan.

5. O‘zbek-rus parallel korpusida parallel konkordans, tezaurus funksiyalari shuni ko‘rsatdiki, rus tilidagi matnlar tahlilida korpus imkoniyatlari kengayadi. Buni o‘zbek tilida korpus lingvistikasi hamda parallel korpus yangi soha ekani, hali taraqqiy etmagani hamda “Sketch Engine” dasturida ko‘p tilli korpus yaratish imkoniyatlarining samaradorligini oshirish zarurligi bilan izohlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Parallel korpuslarni yaratish asoslari / Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari-CTCL 2023. –Tashkent, 2023. 35-42-b.

2. Akramdjanova M. Parallel matnlar korpusini yaratishning amaliy va nazariy ahamiyati / Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi (in-academy.uz/index.php/si). –Tashkent, 2023.

3. Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: Korpus tuzish va undan foydalanish. -Tashkent, 2020.

4. Sobirova N., Akramdjanova M., Sobirov Sh. Parallel korpus tuzish xususiyatlari, tuzilishi, interfeysi / Academic research in Educational Sciences, 2022. 34-b.

5. Abrurakhmonova N., Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL), 2019.

6. https://app.sketchengine.eu/#dashboard?corpname=user%2Fzukhramarifbaeva%2Fparallel_korpus_russian

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI

Sirojiddinov Sh.S. Tabrik so‘z ……..…… 4

Jo‘raqo‘ziyev N.I. Kompyuter lingvistikasi tadriji zarurati …… 5

Normurodova N.Z. O‘zbek tilini raqamlashtirish yo‘lida …… 6

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

Eşref Adalı Doğal dil işlemedeki gelişmeler…… 7

Normamatov S.E O‘zbek tilining elektron resurslarini yaratish – zamon talabi… 22

Mengliyev B.R. O‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari…….…….. 23

Toirova G.I. Internet asosida til o‘rgatishda kompyuter texnologiyalari orqali pragmatik kompetensiyani rivojlantirish……..... 30

I SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING FORMAL GRAMMATIKASI YARATISH

Elov B.B., Bekmurzayeva M.B. Ot so‘z turkumiga oid birliklarning leksik-grammatik xususiyati…….. 38

Hamroyeva Sh.M., Maxmudjonova G.U. Kam resursli tillarda G2P model tayyorlashda fonetik korpuslarning ahamiyati: o‘zbek tili misolida…….. 44

Abdullayeva O.X., Nizomova F.B. O‘zbek tilida moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalarini modellashtirish masalasi…… 50

Maxmudjonova G.U. O‘zbek tili fonetikasini TTS tizimlari uchun formallashtirish……... 56

Soliyeva N.Q. O‘zbek tilining bazis so‘zlariga asoslangan kontekst-erkli grammatika ishlab chiqish va uning sintezi …… 63

Sayfiddinova Z.A. Gapdagi boshqaruv, moslashuv munosabatlarining xususiyatlari (kelishiklar orqali ifodalanadigan sintaktik munosabatlar)…….. 69

II SHO‘BA. KORPUS LINGVISTIKASI

Elov B.B., Aloyev N.R. Korpus matnlarini python tili vositasida tematik modellashtirish…….. 81

Миров М.О., Турсынова М.А. Корпустық лингвистиканың дамуындағы профессор асқар жұбановтың рөлі……. 87

Sharipov M.S., Kurbanova L.U. Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga o‘girish mashinali tarjima modelini qurish uchun parallel korpus yaratish 96

Hamroyeva Sh.M., Alimbekova M.X. “Abdurauf Fitrat korpusi” leksikasining statistik tahlili……. 103

Yusupov F., Sharipov M.S., Urazbayeva N.O. Qoraqalpoq tili so‘zlarini lemmalash uchun lingvistik manba yaratish…….. 111
Madatov X.A., Xajibaeva S.M., Xujamov E.J. “O‘zbek boshlang‘ich sinf maktab korpusi”dan bazis so‘zlarni avtomatik ajratib olish…… 116
Adizova N.I. O‘zbek tili korpusi uchun turizmga oid matnlarning lingvistik bazasini yaratish asoslari ……. 123
Abdullayeva O.X. O‘zbek tili korpusi uchun teglash tizimini ishlab chiqish masalasi ……. 130
Matlatipov S.G., Matyoqubova Sh.M., Komilova M.B. INCEpTION platformasi yordamida o‘zbek tili uchun iyerarxik bog‘lik daraxti korpusi yaratish…….. 138
Matlatipov S.G., Komilova M.B. O‘zbek tilida bilidirlgan fikrlarni aspektli sentiment tahlil qilish……. 148
Xusainova Z.Y., Yangiboyeva S.G. Diaxron korpus yaratish bosqichlari (mustaqillik davri nashrlari misolida) …… 162
Elov B.B., Primova M.H., Amirkulov M.A. O‘zbek tili korpusi: tarixiy rivojlanishi, maqsad va vazifalari…….. 168
Matyakubova N.Sh. Parallel korpuslarda sentiment tahlil qilishda “Aligner” vositasining o‘rni…… 185
Mansurova Sh.N. Sifat so‘z turkumini grammatik pos teglash……. 192
Hamroyeva Sh.M., Sulaymonova M.Sh. Diskursni aniqlashda korpusdan foydalanish……. 199
Primova M.H. O‘zbek tili milliy korpusi tuzilishi: asosiy komponentlar va axborot turlari…… 207
Elov B.B., Ahmedova M.K. Til korpusi matnlarida imlo tuzatish…….. 222
Akramova Sh.I. Nusratullo Jumaxo‘ja mualliflik korpusi lingvistik ta’minoti… 229
Urazaliyeva M.Y. Audiomatnlarda morfologik tahlil bosqichi……. 235
Asqarova M.B. Tarjima nazariyasida parallel matnlarning ahamiyati……. 246
Hamroyeva Sh.M., Xolmonova I.A. Mashina tarjimasining sifatini oshirishda parallel korpusning ahamiyati……. 254
Sulaymonova M.Sh. Exploring the stylistic richness of figurative expressions in the uzbek languages…… 263
Maxammadiyeva D.R. Abdulla oripov, muhammad yusuf, shavkat rahmon she’riyati korpusini yaratishning ahamiyati……... 269
Samatboyeva M.T. O‘zbek tili korpusini annotatsiyalash va teglash (umumiy qoida va tizimlar) …….. 275
Xolmonova I.A. O‘zbek-turk parallel korpusi uchun matnlarni tanlash mezonlari 282
Hamroyeva Sh.M., Baxodirov S.R., Muftillayeva R.T., Dialektal so‘zlar va nutq yozuvlarini saqlashning dasturiy yechimi…….. 289

Musayeva M.M. Shevalar va media: o‘zbek tilining raqamli rivojida xorazm shevasining o‘rni…… 298
Muftillayeva R.T. Nurota shevasi (Qarluq lahjasi) korpusining ma’lumotlar bazasi…… 302
Muradova N.B. Zahiriddin muhammad boburning korpusining interfeysi…….. 307
Baxodirov S.R., Muradova N.B. Mualliflik korpusi qidiruv tizimini ishlab chiqish…… 314
Yangibayeva S.G. Diyakron derlemin filolojik araştirmalardaki önemi…….. 322
Xudayberganov N.U., Mansurova Sh.N. Sifat so‘z turkumini grammatik POS teglash…… 327
Bekmurzayeva M.B. Abdulla qahhorning “bemor” hikoyasi parallel korpusi…. 334
Ibragimova M.E. Tohir Malik asarlarida salbiy so‘zlarning statistik tahlili…… 347
Aytbayeva A.X. Abdulla qodiriy asarlarida qo‘llangan tarixiy so‘zlarning korpus tahlili……... 355
Xushmuratova M.B. Korpus vositasida hissiy tahlil (Oybekning “Bolalik” qissasi misolida) …… 364
Hamroyeva Sh.M., Xudoynazarova G. Badiiy asarlar korpusida omonim shakllar tahlili…… 371
Xusainova Z.Y., Raxmatxonova N.I. O‘zbek va Fors tillari uchun parallel korpus: lingvistik va texnologik yondashuvlar…….. 378
Xusainova Z.Y., Bekchanova M. Xorazm shevasidagi matnlarni o‘zbek adabiy tiliga o‘girish dasturini yaratishning amaliy ahamiyati…….. 385

III SHO‘BA. TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)

Mamatov N.S., **Nuritdinov N.D.** Matnni tahlil qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalar 392
Elov B.B., Abdullayeva O.X. Sintaktik parsing turlari…… 403
Sharipov M.S., Adinayev X.S., Yusupova M.M. O‘zbek tili matnlarida undov gaplarni tahlil qilishning qoidaga asoslangan algoritmi…… 413
Sharipov M.S., Adinayev X.S., Yusupova M.M., Qadamboyeva D.D. O‘zbek tili matnlarida savollarni aniqlashning avtomatlashtirilgan tizimi uchun mashinani o‘rganish yondashuvi…… 420
Sharipov M.S., Kurbonova R.U. Markov Model for text generation in Uzbek: practical application and results…… 427
Hamroyeva Sh.M., Qodirova M.M. Yordamchi so‘zlarning qo‘llanish davriga ko‘ra saralovchi lingvistik ta’minot vositasini tuzish masalalari 435
Elov B.B., Samatboyeva M.T. NER: Teglash muommolariga yechimlar…… 442
Abdisalomova Sh.A. O‘zbek tilidagi matnlar koreferensiyasini avtomatik aniqlash tizimining lingvistik ta’minotini shakllantirish xususida……. 449
Elov B.B., Bekmuradova I.Z. Avtomatlashtirilgan til tahlili: slengni aniqlash va teglash muammolari…… 458

Abdullayeva O.X. Bozorqulova O‘. E. O‘zbek tilidagi sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini modellashtirish masalasi..... 463
Xudayberganov N.U., Karimova Z.D. Ravish so‘z turkumini grammatik pos teglash algoritmlari: nazariy yondashuv, amaliy tatbiq va kelgusidagi yo‘nalishlar……. 468
Xusainova Z.Y., Shirinboyeva M. Matnni tasniflash va ularning sohalar kesimida qo‘llanilish masalasi…… 475
Bekmuradova I.Z. Slenglarni avtomatik teglashda lug‘atga va mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuvlar……... 482
Erkinjonova G.B. Zamon qo‘shimchalarini avtomatik aniqlash modeli……... 488
Bozorqulova O‘.E. Turkiy tillardagi treebanklar klassifikatsiyasi…… 493
Karimova Z.D. O‘zbek tilidagi so‘z birliklarini olmosh so‘z turkumi bo‘yicha POS teglashdagi muammolar va yechimlar…….. 500

IV SHO‘BA. MASHINA TARJIMASI

Hamroyeva Sh.M., Erkinjonova G.B. Grammatik teglashda mashinali o‘qitish yondashuvi……. 506
Shamsiyeva G.A. Parallel korpuslarni tarjima xotirasiga integratsiya qilish tamoyillari…….. 511

V SHO‘BA. MATNGA QAYTA ISHLOV BERISH TIZIMLARI

Elov B.B., Sobirova N.G‘. Jahon tajribasida avtomatik matn tahrirlash vositalari 518
Xayotova Z.M. O‘zbek tili matnlari uslublararo perefraz modeli……. 527
Xayotova Z.M. Perifraz generatsiya qilish algoritmlari tahlili…….. 532
Elov B.B., Sobirova N.G‘. Tinish belgilarining matndagi ahamiyati va vazifalari 540
Sobirova N.G‘. Til modellari va chuqur o‘rganish(deep learning) usullari: umumiy tavsif……. 548
Elov B.B., Ibragimova M.E. Matnni perifraz qilish……. 557
Abdullayeva O.X., O‘tkirova F.B. Korpus lingvistikasida parserlarning umumiy tavsifi…… 566
Ahmedova M.K. Avtomatik imlo tuzatish bo‘yicha tadqiqotlar tahlili: tavsif va muammolari…… 573
Matyakubova N.Sh., Avloqulova I. O‘zbek tili matnlarida tinish belgilarni avtomatik qo‘yish…….. 579

VI SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVODIDAKTIKASI

Миров М.О., Жұмамұратова А.С. Қажығали мұханбетқалиұлы шығармаларының көркемдік ерекшеліктері……. 589
Mirov M., Zhumagul D. Neurolinguistics in the philological context: research approaches and educational practices…… 595
Бисенгали І., Кенебаева Ұ., Жақанқызы М. Махмұд Қашқари «Диуани лұғат ат-түрік» тілінің морфологиялық және лексикалық сипаты…….. 599

Kessikbayeva A.K., Yessenova K.O. The main differences between a story and a feature…….. 605
Дәулетші Д.Р. Электронды сөздіктер: қазақ лексикографиясының жаңа мүмкіндіктері…… 613
Айтбенбетова А.К., Молдабаева З.М., Имангазина А.А., Султанбаева Н.К. Smart білім беру технологияларының негізгі қағидалары…….. 620
Askarova U. Computer linguistics and its importance today……. 624
Fozilov P.Sh. Fiziologik holat fe’llarining inglizcha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlardagi talqini……. 628

VII SHO‘BA KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASI

Eshmurodova M.D., Xudoykulova N.R. O‘zbek tili dialektlari izohli lug‘atini yaratish model va algoritmi……. 633

VIII SHO‘BA. SEMANTIK TIZIMLAR VA LINGVISTIK ONTOLOGIYALAR

Elov B.B., Xusainova Z.Y. Sentiment tahlilida so‘z turkumlarining roli…….. 645
Elov B.B., Xusainova Z.Y., Abdullayev A.Q. O‘zbek tilidagi matnlarni so‘z turkumlari orqali sentiment tahlil qilishda gap modellarini ishlab chiqish…… 653
Elov B.B., Abdullayev A.Q. Sentiment tahlil uchun katta hajmdagi datasetni yaratish bosqichlari……. 663
Elov B.B., Suyunova M.O. Lexicon-based va machine learning-based modellari asosida sentiment tahlilni amalga oshirish……. 670
Allanazarova S.Y. Sentiment tahlili uchun o‘rgatilgan resurlari kam tillarda ma’lumotlar omborini tuzish…….. 682
Suyunova M.O. Sentiment tahlili va uning jahon tilshunosligida o‘rganilishi…. 691
Axmedova X.I., Omarova D.T. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning sinonimlik hodisasi……. 700
Xudoykulova N.R., Eshmurodova M.D. Gapning semantik strukturasining ontologik modelini yaratish…… 704
Omarova D.T. Sinonim iboralarni aniqlash masalasi tadqiqi…… 714
Axmedova X.I., Xushmuratova M.B. KNN-algoritmi yordamida so‘z ma’nosini aniqlash (sifat so‘z turkumi misolida) ……. 719
Axmedova X.I., Muxammadyakubova M.E. Wordnet asosida so‘z ma’nosini aniqlash…….. 726
Abdullayeva O.X., Nizomova F.B. O‘zbek tili matnlarida so‘z birikmasini avtomatik aniqlashda omonimiya masalasi…… 733
Xusainova Z.Y., Xusanova D.T., Bekqulova S.F. Sentiment tahlilida so‘z turkumlarining ahamiyati …….. 741
Axmedova X.I., Hasanova G.I. Tabiiy tilga ishlov berish sohasida so‘z ma’nosini aniqlash……. 751

Axmedova X.I., Hayotova G.H. Qaror ro‘yxati algoritmi yordamida so‘z ma’nosini aniqlash……. 759
Axmedova X.I., Ko‘charova I.Sh. Leksik darajadagi perefraz taksonomiyasini amalga oshirish bosqichlari…… 767

IX SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA TERMINOLOGIYA VA TERMINOGRAFIYA

Odilova K.T. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan polikodli matnlarning semantik va sintaktik strukturalari……. 775

X SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA SUN’IY INTELLEKT

Ochilov M.M., Narzullaev O.O. Ko‘p tilli avtomatik nutqni tanish tizimlarini yaratish muammolar va yechimlari……. 782
Alayev R.H., Berdiyev J.B. BERT modeli yordamida matnlarni tasniflash……. 791
Aloyev N.R. BERTOPIC: neyron tematik modellashtirish usuli……... 798
Jurayev D.B. Tabiiy tilni qayta ishlash yordamida nutqni imo-ishora tiliga tarjima qilish texnologiyalari……. 805
Ruziyeva M.I. Raqamli tilshunoslik: Blingvizm va sun’iy intellekt o‘rtasidagi aloqa…… 812
Berdiyev J.B. Sun’iy intellekt kutubxonalari yoqdamida matnlarni qayta ishlash 818
O‘tkirova F.B. Lingvistik tadqiqotlarda yangi yondashuv: Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida yaratilgan parallel korpusi va uning tavsifi..... 827